

M. M. AXMETJANOV, SH. SH. OLIMOV

U M U M I Y P E D A G O G I K A



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

M.M. Axmetjanov, Sh.Sh. Olimov

U M U M I Y P E D A G O G I K A

**MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH KURSI
TINGLOVCHILARI UCHUN**

O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim
vazirligining 2018 yil 27 mart 274-sonli buyrug`ining 11-ilovasiga
asosan nashr etishga ruxsat etilgan.

Toshkent - 2018

Taqrizchilar:

Q.T.Olimov- Buxoro MTI o'quv ishlari bo'yicha prorektori, pedagogika fanlari doktori, professor.

B.R. Adizov-Buxoro davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi direktori, pedagogika fanlari doktori, professor.

ANNOTATSIYA

O'quv qo'llanma nopedagogik oliy ta'lim muassasalarini tamomlagan kadrlarni pedagogik qayta tayorlash kursi namunaviy o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

O'quv qo'llanmada mualliflar hozirgi zamon pedagogika fanining yutuqlari hamda uzoq yillar olib borilgan kuzatishlari va mazkur fanni o'qitishdagi tajribalariga tayanib, pedagogikaning ilmiy-nazariy va amaliy-metodik asoslari xususida fikr yuritadilar. O'quv qo'llanmada pedagogika fanining nazariy-metodologik asoslari, mazmuni, funksiyasi, tarkibiy qismlari hamda pedagogikaning vazifalari, uning kasb-hunar ta'limi tizimida o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishdagi o'rni, o'qituvchi va tarbiyachi faoliyati aniq dalillar orqali yoritilgan.

O'quv qo'llanma malaka oshirish va qayta tayorlash kursi tinglovchilari, xususan, pedagogik ma'lumoti bo'lmagan bakalavr, yoki diplomli mutaxassis darajasidagi ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan kadrlar, akademik litsey, kollej o'qituvchilari, ta'lim muassasasi rahbariyati, guruh murabbiylari va talabalariga mo'ljallangan.

KIRISH

Demokratik o'zgarishlarni mamlakatda yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish sharoitida Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek, “ Bugun biz bir tarixiy davrda-xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' bir maqsadlar qo'yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz... biz xalqimizning dunyodan hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur”.¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-son Qarorining qabul qilinishi, yoshlarni har tomonlama bilim olishlari, ularda yaratuvchilik imkoniyatlarini kengaytirishga bo'lgan imkoniyatlari yanada kengaydi.

Yangi asrga qadam qo'yar ekanmiz mamlakatimizda chuqur, keng qamrovli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyatning ma'naviy yuksalishi va yangilanishi sari yuz tutgan bir paytda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida”gi PQ-3160-sonli Qarori zamiridagi g'oyalar, ulardan kelib chiqadigan asosiy maqsadlar ma'naviyatning ustuvorligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Bu masalani to'laqonli hal etib, yuksak ma'naviy-axloqiy salohiyatga ega bo'lgan insonlarni voyaga yetkazish, ularning ilmiy dunyoqarashini zamon talablari asosida shakllantirish, ta'lim-tarbiyaning ishidir. Sharqona ta'lim-tarbiya insonlarni ma'naviy yuksaklikka ko'taradi, xalqni iqtisodiy, siyosiy, madaniy inqirozdan asrab qoladi. Shu bois o'zbek tarbiyaShunosligining asoschilaridan biri Abdulla Avloniy **“Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo**

¹ Islom Karimov. “Yuksak manaviyat yengilmas kuch”. Toshkent. “Ma'naviyat”-2008 y. 3-4 b.

najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir”²,² - deb ta`lim-tarbiyaga bejiz yuksak baho bermagan.

Mazkur qo`llanma muhandislik-texnika yo`nalishidagi oliy ta`lim muassasalarining kasb ta`limi mutaxassisliklari uchun mo`ljallangan bo`lib, bo`lajak kasb ta`limi o`qituvchilarini pedagogik tayyorgarligini oshirish maqsadida yaratilgan navbatdagi manbadir.

Ta`lim - tarbiya pedagogikaning muhim tushunchalaridir. Ta`lim va tarbiya bir-birini to`ldirib, qo`llab-quvvatlab, rivojlanib, yoshlarni kamolot sari da`vat etuvchi kuch hisoblanadi. Zero, pedagogika yosh avlodni tarbiyalash, ularni o`qitish va ma`lumotli qilishning qonuniyatlari, qoidalari, shakllari, metodlari, usullari va vositalarini o`rganuvchi fandır.

Mazkur tushunchalarning mazmuni, mohiyati, funksiyalari haqida ma`lumot beruvchi “Pedagogika” fani bo`lajak kasb ta`limi o`qituvchilarini pedagogik kasbiga ilmiy-nazariy va metodik tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo`lajak kasb ta`limi o`qituvchilari “Pedagogika” fanini o`rganish jarayonida quyidagi bilim, ko`nikma va malakalarga ega bo`ladilar:

- tarbiya, ta`lim, ma`lumot tushunchalarining mazmuni, mohiyati, o`ziga xos xususiyatlari va ularning jamiyat taraqqiyotidagi roli; pedagogika fani konsepsiyasida ko`rsatilgan mazkur fanning vazifalari; ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari; pedagogika fanlari tizimi va fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligi; mutaxassis shaxsi va uni shakllantirish omillari; o`quvchi-yoshlar shaxsi shakllanishining taraqqiyot bosqichlari; barkamol avlod tarbiyasining maqsad va vazifalari; milliy mustaqillik sharoitida O`zbekiston xalq maorifi tizimi; tarbiya va pedagogik fikr; o`quvchi-yoshlarda ilmiy dunyoqarash asoslarini tarbiyalashning xususiyatlari; o`quvchilar ma`naviy-axloqiy tarbiyasining shakl, metod va vositalari; yuksak ma`naviyatli mutaxassisning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va fuqarolik tarbiyasi; o`quvchi-yoshlar mehnat va kasb-kor hamda jismoniy tarbiyasi; o`quvchilar nafosat tarbiyasining xususiyatlari; o`quvchilar bilan ma`naviy-ma`rifiy tarbiya ishlarini tashkil etishning mazmuni; o`quvchi-yoshlar tarbiyasida o`quv yurti, oila, mahalla va jamoatchilik tarbiyasining mazmuni, shakllari va vositalari; kasb-hunar maktablarida ta`lim jarayoni, uning qonuniyatlari, mohiyati va ta`lim

² Islom Karimov. “Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin”. Toshkent. “O`zbekiston” – 1998 y. 17 b.

prinsiplari; turli tipdagi kasb-hunar kollejlarda ta'lim mazmuni, metodlari va ta'limning tashkiliy shakllari; ta'lim jarayonining umumlashgan pedagogik texnologiyalari va ta'limning didaktik vositalari; o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini boshqarish va rahbarlik qilishning ilmiy-pedagogik asoslari.

Shuning bilan bir qatorda bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari mamlakatimizda keyingi yillarda yengil sanoat tizimining izchil taraqqiy etayotgani mazkur sohada qo'lga kiritilayotgan yutuqlar kechagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

O'quvchi-tinglovchilarni faollashtirish, pedagogik bilimlarni o'zlashtirish jarayonining samaradorligini oshirishni yo'lga qo'yish maqsadida o'quv qo'llanmaning oxirida manbalar tavsiya etilgan. Bu manbalar o'quvchi-tinglovchilar mustaqil o'qishlarini yo'lga qo'yish hamda mustaqil bilim olishlari uchun ancha qulayliklar yaratdi.

Shuningdek, har bir mavzuning oxirida o'z bilimini tekshirish maqsadida nazorat savollari va amaliy ishlar topshiriqlari berilganki, ular talaba-tinglovchilarning ta'lim-tarbiya sohasida o'zlashtirgan nazariy bilimlarini amalda qo'llash, ko'nikma, malakalarini shakllantirishga katta yordam beradi.

Ushbu qo'llanma pedagogik ma'lumoti bo'lmagan bakalavr, yoki diplomli mutaxassis darajasidagi ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan kadrlar, akademik litsey, kollej o'qituvchilari, ta'lim muassasasi rahbariyati, guruh murabbiylari va talabalariga mo'ljallangan.

Albatta, mazkur qo'llanmada barcha muammolar o'z yechimini topgan deb bo'lmaydi. Unda, ba'zi bir kamchiliklar va nuqsonlar bo'lishi tabiiy. Shu boisdan mualliflar qo'llanmaning nazariy va uslubiy saviyasini yanada oshirishga doir o'z takliflarini bildirgan kitobxonlarga chuqur minnatdorchilik bildiradi.

O'quv qo'llanma haqidagi fikr mulohazalaringizni Buxoro muhandislik-texnologiya instituti «Kasbiy ta'lim» kafedrasiga yuborishingizni so'raymiz. Manzilimiz: Buxoro shahri, Qayum Murtazoyev ko'chasi, 15 uy, tel: 223-46-76.

I. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "TA'LIM TO'G'RIDA"GI QONUNI. KADRLAR TAYYORLASH MILLIY MODEL.

1.1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning tuzilishi.

Tayanch iboralar: O'zbekiston Respublikasi, Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, ta'limning o'рни, huquqiy kafolatlari, qonunning asosiy vazifalari, qonunning umumiy qoidalari, ijtimoiy himoya qilish, ta'lim tizimini boshqarish.

1. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi davr talabi.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimini mustaqil yo'llaridagi taraqqiyoti bosqichlariga qarab uni shartli ravishda 2 ga bo'lish mumkin.

I-bosqich-Respublika ta'limining yangi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunini «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilingunga qadar bosib o'tilgan yo'li.

II-bosqich-Respublika ta'lim taraqqiyotida muhim o'rin tutgan yuqoridagi ikki hujjat qabul qilingandan so'ngi davrdagi taraqqiyot bosqichidir.

Respublika ta'limida ro'y berayotgan o'zgarishlarni baholash, qiyoslash uchun eski mustabit tizimdan qanday ta'limiy meros qolganini yana bir bor esga olish lozim. Zotan, qiyoslash, nisbatlar ko'lamini hisobga olish pedagogikada muhim ahamiyatga ega. Aynan Shu mavzudan boshlashning boshqa sababi ham bor. «O'zbekiston ta'limining bugungi nufuzi, sobiq tuzumdan takomillashgan ta'lim tizimini meros qilib olganligidadir» deguvchilar ham uchrab turibdi. Ular milliy istiqlol ta'limni barpo etish o'z o'zidan bo'lmayotganini anglashlari kerak, bu jarayonni oson kechmayotganligini chuqur his qilishlari zarur. Mamlakat mustaqilligini eng dastlabgi kunlaridanoq buyuk milliy ma'naviyatni tiklash qadryatlarni qadrlash va yanada yuksaltirish milliy ta'lim tarbiya tizimini shakllantirish zaminini mustaxkamlash, uni davr talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga olib chiqish maqsadlariga favqulotda katta ahamiyat berildi. Bu o'rinda istiqlolning ilk yillari ta'limida amalga oshirilgan ayrim ishlarni ko'rsatib o'tish o'rinlidir.

Mustaqil Respublika ta'limining o'рни, vazifasi, huquqiy kafolatlarni belgilab bergan 1992 yil 2 iyul kuni birinchi «Ta'lim to'g'risidagi qonun» qabul qilindi. Bu qonunni asosiy vazifalari quyidagilar edi:

- respublikada ta'lim mustaqilligini ta'minlash;
- uning milliy lashtirilishini ta'minlash;
- ta'lim yo'liga to'siq bo'ladigan vositalarni olib tashlash;
- ta'limda demokratik va insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish;
- ta'lim boshqaruviga to'liq huquqiy kafolatlar berish;
- mustaqil tarzda chet el ta'limi bilan hamkorlik;
- o'quv dasturlari va rejalarini tanlab olishda erkinliklar berish;
- sinov tajriba o'tkazishni rag'batlantirish;
- ta'limni noan'anaviy turlarini yaratish va rivojlantirish;
- tashabbuskor va ijodkorlikka keng sharoit yaratish;

Milliy ta'lim-tarbiya tarixida birinchi marta «Ta'lim to'g'risida» gi Qonun qabul qilingan davrdan to yangi tahrirdagi ana shunda y Qonun qabul qilingunga qadar oradan o'tgan vaqt ichida ta'lim taraqqiyotini ta'minlay oladigan darajada ko'pgina ijobiy ishlar amalga oshirildi. Milliy ta'lim tizimi ham mustaqillikka erishdi. U shakllandi va takomillashib bordi. Jumladan maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasida ish shakli keskin o'zgardi.

U bolalarni ilk yoshligidan ta'lim-tarbiya beradigan darajadagi uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'iniga aynaldi. «Oila bog'chasi», «bog'cha-maktab» majmualari barpo etildi. Bolalarni maktabdagi ta'lim jarayoniga puxta tayyorlab beradigan maskanga ham aylandi.

Umum ta'lim yo'nalishida erkin demokratik tamoyillar asosida tanlab olinadigan ko'p variantli o'quv rejaları tavsiya etildi. Maktablar tarkibida ham katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Gimnaziya, litsey, kollej kabi yangi tipdagi o'quv muassasalari, komplekslari barpo etildi. Yangi tahrirda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» qabul qilingunga qadar respublikada 140 ming iqtidorli o'quvchilarni qamrab olgan 300 ga yaqin litsey, gimnaziyalar faoliyat ko'rsatdi. Yangi tipdagi o'quv muassasalari Oliy o'quv yurtlari bazasida ham tashkil etila boshladi. Ta'lim muassasalarining rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish bo'yicha ham imkoniyatlar ochildi. BMT, YUNESKO kabi xalqaro tashkilotlar bu

borada bizni keng tarzda qo'llab-quvvatladilar. Ta'lim bo'yicha AQSH, Turkiya, Germaniya, Yaponiya, Angliya, Fransiya, Gollandiya davlatlari elchixonalari, davlat va nodavlat tashkilotlari bilan ta'lim sohasida hamkorlik aloqalari o'rnatildi.

Natijada keyingi yillarda 3000 ga yaqin o'quvchilar xorijda ta'lim oldilar, 1000 dan ortiq o'qituvchilar xorijiy davlatlarda malaka oshirib qaytdilar. 1996 yildan boshlab Yangi lotin imlosiga asoslangan o'zbek alifbosi joriy etildi va Shu yildan boshlab dastur, darsliklar yaratishga kirixildi. Shu yili 100 ming o'qituvchi Yangi alifbo bo'yicha qayta tayyorlashdan o'tkazildi. Xalq ta'limi xodimlarini ijtimoiy himoyalash, turmush tarzini yaxshilash maqsadida Prezidentimizning o'ndan ortiq farmonlari qabul qilindi. Biznes maktablari ochildi va fermer, soliq, bojxona xodimi singari yangi kasblarni o'zlashtirish yo'lga qo'yildi.

Ta'lim tizimi YUNESKO maktablari, bank sinflari ishlay boshladi. Pedagogika institutlari universitetlarga, pedagogika bilim yurtlari kollejlarga aylantirildi. Yoshlar iste'dodini aniqlash va rag'batlantirish maqsadida «Maxalla», «Kamolot», «Sog'lom avlod uchun», «Nuroni», «Ulug'bek», «Umid» jamg'armalari tashkil etildi. Biroq, e'tirof etish kerakki, 1992 yilda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda belgilangan tartib-qoidalar, jadal sur'atlar bilan taraqqiy etayotgan jamiyatni talab va ehtiyojlaridan orqada qolayotgani sezila boshladi. Xullas, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan ta'lim tizimini tubdan isloh qilishning Yangi huquqiy asosi, yangi dasturi bo'lishi muqarrarligini hayotning o'zi ko'rsatib turar edi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning umumiy qoidalari. Tegishli vazirlar va idoralar, olimlar, amaliyotchilarning izlanishlari, aql-zakovatlari hosilasi sifatida yangi tahrirda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» loyihalari ishlab chiqildi va ular 1997 yil 29 avgust kuni Oliy Majlis IX sessiyasida tasdiqlandi. Qonun mazmuni 5ta bob, 34 moddada o'z aksini topgan.

1.modda. Qonunning maqsadi. Fuqarolarga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olish huquqini ta'minlaydi.

2.modda. Qonunning hujjatlari. Ushbu Qonundan hamda boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

3.modda. Davlat siyosatining asosiy prinsiplari.

Ta`lim Respublikaning ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e`lon qilindi va quyidagi asosiy prinsiplariga ega:

- insonparvar ustuvor deb e`lon qilindi;
- uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o`rta, o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limini majburiyligi;
- akademik litseyda, yoki kasb-hunar kollejdagi o`qishni tanlashi ixtiyoriyligi;
- ta`lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- ta`lim olishning hamma uchun ochiqqligi;
- dasturlarni tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo`lishni va iste`dodni rag`batlantirish;
- davlat va jamoat boshqaruvini uyg`unlashtirish.

4. modda. Bilim olish huquqi. Jinsi, tili, yoshi, irqiy milliy mansubligi, e`tiqodi, dinga munosabati, kelib chiqishi, xizmat turi ijtimoiy mavqei, turar joyi bilim olishda keng huquqlar kafolatlanadi.

5. modda. Ta`lim muassasining huquqiy maqomi.

Ta`lim muassasasini akkreditsiyalash vakolatli davlat organi tomonidan attestatsiyaga asosan amalga oshiriladi. Ta`lim muassasasi yuridik shaxs bo`lib, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda barpo etiladi. Ustav asosida faoliyat ko`rsatadi. Tadbirkorlik va pullik xizmat bilan Shug`ullanishi mumkin.

**6. modda. Pedagogik faoliyat bilan Shug`ullanish huquqi.** Tegishli ma`lumoti kasb tayyorgarligi va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo`lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan Shug`ullanishlari mumkin.

**7. modda. Ta`lim standartlari.** Umumiy o`rta, o`rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta`lim mazmuniga hamda sifatiga qo`yiladigan talablarni belgilaydi. Buni bajarish barcha ta`lim muassasalari uchun majburiydir.

8. modda. Ta`lim berish tilidan qanday foydalanish tartibi. «Davlat tili haqida»gi Qonuni bilan tartibga solinadi.

9. modda. Ta`lim tizimi va turlari.

a) DTSga mos ta`lim dasturlarini bajaruvchi davlat va nodavlat ta`lim muassasalari.

b) ta`lim tizimining faoliyat ko`rsatishini ta`minlash uchun zarur bo`lgan tadqiqotlarini bajaruvchi ilmiy pedagogik muassasalar.

v) Davlat boshqaruv organlari va ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, ta`lim tizimi yagona va uzluksizdir.

10. modda. Ta`lim turlari .

Maktabgacha ta`lim;
Umumiy o`rta ta`lim;
O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi;
Oliy ta`lim;
Oliy o`quv yurtlaridan keyingi ta`lim;
Malaka oshirish va qayta tayyorlash;
Maktabdan tashqari ta`lim;

**19-modda Ta`lim to`g`risidagi hujjatlar** Akkreditatsiya qilingan ta`lim muassasalarining bitiruvchilarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma`lumot to`g`risidagi hujjat (shaxodatnoma, diplom, sertifikat, guvohnoma) berildi.

Diplomga o`zlashtirilgan fanlar ro`yxati, hajmlari va fanlarga qo`yilgan baholar yozilgan varaqa ilova qilinadi.

Ta`lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilish.

**20-modda Ta`lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish.** Ta`lim oluvchi qonun va normativ hujjatlarga muvofiq imtiyozlar, stipendiya va yotoqxona bilan ta`minlanadilar.

**21-modda. Xalq ta`limi xodimlarini ijtimoiy himoya qilish.** Ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanadi haq to`lanadigan yillik ta`tillar, qonunda nazarda tutilgan imtiyozlar beriladi.

**22-modda. Yetim bolalarni yoki qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o`qitish.** Qonunda belgilangan tartibda ularni o`qitish va boqish davlatning to`liq ta`minotida bo`ladi.

23-modda. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo`lgan bolalarni o`qitish. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo`lgan va uzoq vaqt rivojlanishga muxtoj bolalar uchun maxsus maktab internatlar tashkil etiladi. Bunday bolalar bu maktablarga o`qishga yuborish ota-onalar, yoki vasiylarning roziligi bilan pisixotibbiy pedagogik komissiyaning xulosasiga ko`ra amalga oshiriladi. Bu maktab o`quvchilari to`liq, yoki qisman davlat ta`minotida bo`ladi.

24-modda. Ijtimoiy yordamga va shakllanishga muhtoj bo`lgan shaxslar uchun o`quv tarbiya muassasalari. Alohida sharoitda tarbiyalanish va o`qishga muxtoj bolalar uchun ularning bilim olishi va kasbga tayyorgarligi va ijtimoiy tiklanishini ta`minlaydigan maxsus maktab internatlar tashkil etiladi. Ozodlikdan mahrum etilib jazo muddatini o`tashda bolani ta`lim olishi qonunda

belgilangan tartibda sharoitlar yaratiladi.

Ta`lim tizimini boshqarish.

25-modda. Vazirlar Mahkamasining ta`lim sohasida vakolatlari.

- yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- davlat boshqaruv organlariga raxbarlik qilish;
- dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- muassasalarni tashkil etish va tugatish tartibini belgilash;
- ta`lim bilan Shug`ullanish uchun ruxsatnomalar berish;
- muassasalarni akkreditatsiyadan, pedagog, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o`tish tartibini belgilash;
- ta`lim bilan Shug`ullanish uchun ruxsatnomalar berish;
- davlat ta`lim standartlarini tasdiqlash;
- ma`lumot haqida hujjatlarni tasdiqlash va berish tartibini belgilash;
- davlat grantlari miqdorini va ta`lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash;
- oliy o`quv yurtlariga rahbarlarni ta`minlash;
- ta`lim oluvchilarni boshqa oliy o`quv yurtlariga o`tish tartibini belgilash.

26-modda. Ta`limni boshqarish bo`yicha davlat organlarining huquqlari :

- yagona davlat siyosatini ro`yobga chiqarish;
- ta`limga rahbarlik qilish; (faoliyat nazorati va uslubi)
- DTS talablarini bajarilishini ta`minlash;
- o`quv jarayonida ilg`or shakllarni, yangi pedagogik texnologiyalarni, texnik va axborot vositalari bilan ta`minlash;
- o`quv va uslubiy adabiyotlarni yaratish va nashr etilishini tashkil etish;
- ta`lim oluvchilar uchun davlat attestatsiyasi va eksternat to`g`risidagi nizomlarni tasdiqlash;
- Rektorlarni ta`minlash takliflarini Vazirlar Mahkamasiga kiritish;
- pedagoglar tayyorlash va qayta tayyorlash hamda malakasini oshirishni tashkil etish.

27- modda. Mahalliy davlat organlarining vakolatlari:

- ta`lim muassasalarini tashkil etadilar va tugatadilar, hamda ustavlarni ro`yxatga oladilar;

- moliyalash miqdorlarini va imtiyozlarini belgilaydilar;
- ta'lim sifati va darajasiga Shuningdek xodimlarni davlat talablariga rioya (kasb faoliyati bo'yicha) qilishlarini ta'minlaydilar.

28-modda. Ta'lim muassasasini boshqarish.

- ta'lim muassasasini uning rahbari boshqaradi;
- Qonunga ko'ra jamoat boshqaruv organlarini tashkil etish mumkin.

29-modda. Ta'lim sohasidagi boshqaruv organlari bilan nodavlat ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar.

- ta'lim sohasidagi davlat organlari ta'lim qonuniga asosan nodavlat ta'lim muassasasi faoliyatini nazorat qiladi;
- nodavlat tashkiloti amaldagi qonunni buzgan taqdirda akkreditatsiya qilgan organ uning faoliyatini to'xtatadi;
- nodavlat o'quv yurtlariga qabul umumiy tartibda amalga oshiriladi.

Yakunlovchi qoidalar.

30-modda. Ota - onalar yoki vasiylarning vazifalari.

- Voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishlari shart.
- Ularning tarbiyasi va ta'lim olishiga javobgardirlar.

31-modda. Ta'limni moliyalash.

Moliyalash Respublika va mahalliy byudjetlar hamda byudjetdan tashqari mablag'lar hisobida amalga oshiriladi.

32-modda. Ta'limni rivojlantirish fondlari. Qonunda belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning, Shuningdek, chet ellik jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan amalga oshirish mumkin.

33 modda. Xalqaro hamkorlik

Xalqaro hamkorlikda ishtirok etadilar, chet el bilan aloqa o'rnatish, qonunga asosan ular bilan qo'shimcha o'quv yurtlari tashkil etish huquqiga ega.

34 modda. Qonun hujjatlarini buzganliklari uchun javobgarlik

Ta'lim to'g'risidagi qonunni buzishda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

«Ta'lim to'g'risida» gi qonunning olamShumul ahamiyati. Bu qonunning qabul qilinishi mamlakat salohiyatining beqiyos

rivojlanishi, Mustaqil respublikaning jahon hamjamiyatiga keng qamrov bilan chiqishi va nufuzli o`rin egallashiga ulkan omil bo`ldi. Ta`lim-tarbiya tizimini tubdan o`zgartirib yubordi. Jahon andozalariga javob bera oladigan uzluksiz ta`lim tizimiga aylandi. «Uzluksiz ta`limni joriy etishda uning jahon talablari darajasida bo`lishi hamda u yuksak ma`naviyat zaminida qurilishiga katta ahamiyat berish kerak » degan edi Birinchi Prezidentimiz I.Karimov.

Bu qonun ijtimoiy hayotda ustuvorligi bilan juda ahamiyatlidir. Yana bu qonun «O`zbek modeli» nomi bilan jahon hamjamiyatida nufuzli o`rin egalladi.

1.2. Ta`lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari.

***Tayanch iboralar:** davlat siyosatining prinsiplari, ijtimoiy taraqqiyot, ta`lim tizimi, ta`lim muassasalari, ijtimoiy-tarixiy jarayon, ta`lim standarti.*

O`zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikni qo`lga kiritgan dastlabki kunlardan oq Respublika ta`limni tashkil etish sohasida tub islohotlarni amalga oshirish, uni yuksak darajada takomillashtirish va jahon ta`limi darajasiga ko`tarish kabi masalalarga alohida e`tibor qaratildi. Ana Shu e`tiborning yorqin isboti ta`lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari hamda ta`limning O`zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasidagi ustuvor yo`nalishi deb e`lon qilinganligi bilan belgilanadi.

Ta`lim sohasida davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

**1. Ta`lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik tavsifda ekanligi.** Davlatimizda tashkil etilayotgan ta`lim va tarbiya jarayonida Shaxs, or-nomusi, qadr-qimmat, ma`naviy hamda ma`rifiy huquqlarini hurmat qilish, uning iqtidori va qobiliyatini namoyish etish uchun imkoniyat yaratish, Shuningdek, xohish-istagi va ehtiyojlarini inobatga olish masalalari nazarda tutiladi.

**2. Ta`limning uzluksizligi va izchilligi.** Ta`lim jarayonida didaktik xarakter kasb etib, o`quvchilarga berilayotgan bilim va shakllantirilayotgan ko`nikma va malakalarning uzluksiz, doimiy ravishda shakllanishini ta`minlaydi. Uzluksiz va izchillik ma`lumotlar, hodisalar va fan asoslarini o`rganishning tartibga solinishini, avvalgi

va keyingi materiallar o'rtasida ketma-ketlikni ta'minlashni anglatadi. Har bir o'quvfani muayan mantiqiy izchillikda o'qitilishi lozim. Mazkur prinsip Shu holatni ifoda etishga xizmat qiladi.

3. Umumiy o'rta, Shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining majburiyligi. Mazkur prinsip O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limini olishning respublika fuqarolari uchun shartligini ifodalaydi. Respublika hududida umumiy o'rta, Shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi bepul bo'lib, ularning faoliyatini tashkil etish respublika va mahalliy byudjet mablag'lari hamda byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalariga o'quvchilar tanlov asosida qabul qilinadilar.

4. O'rta maxsus , kasb-hunar ta'limi yo'nalishini akademik litsey yoki kasb –hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi. Ushbu prinsip o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishini o'quvchining o'z qiziqishi, ehtiyoji hamda layoqatiga mosini (muayyan mutaxassislikda ixtisoslashtirilgan akademik litsey yoki ma'lum kasb-hunar kollejida tahsil olishni), erkin tanlash huquqiga egaligini ifoda etadi.

5. Ta'lim tizimining dunyoviy tavsifda ekanligi. Ushbu prinsip respublika hududidagi mavjud ta'lim muassasalarida yoshlarga dunyoviy tavsifdagi ilmiy bilimlarni berishni nazarda tutadi. Ta'lim muassasalarida jangari, buzg'unchilik Shuningdek, milliy nizolar hamda diniy adovatlarni keltirib chiqarishga xizmat qiluvchi g'oyalarning targ'ib etilishi, ular yoshlar ongiga singdirilishi qonun yo'li bilan ta'qiqlanadi. Yoshlarga diniy bilimlarni berish davlat akkreditatsiyasidan o'tgan (respublika Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan) hamda diniy ta'lim-tarbiya berish huquqiga ega ta'lim muassasalari, Shuningdek, maxsus diniy ma'lumotlarga ega ushbu faoliyat bilan Shug'ullanish huquqini qo'lga kiritgan Shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

6. Davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi. Respublika fuqarolari istalgan ta'lim muassasalari (ta'lim muassasasi Nizomida ko'zda tutilgan talablarga muvofiq)da O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1999 yil 16 avgustda qabul qilingan "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, Shuningdek, bu borada o'rta maxsus , kasb-hunar va oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari

to'g'risidagi RN asosida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi hamda oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari tomonidan ishlab chiqilgan DTS talablariga muvofiq ta'lim olish huquqiga egadirlar.

7. Ta'lim dasturini tanlashga yaqona tabaqalashtirilgan yondashuv. Ular ta'lim bo'yicha yaratilgan dasturlar orasidan o'quv dasturini yaratishga qo'yiladigan talablarga muvofiq yaratilgan hamda eng maqbul deb topilgan dasturni tanlab olish asosida ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, mutaxassislik, kasb-hunar ta'limi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, muayyan ta'lim muassasalari ma'lum mutaxassislik va kasb-hunar ta'limining o'ziga xos jihatlarini inobatga olish asosida yaratilgan dasturlar ta'lim jarayonini tashkil etishlari mumkin.

8. Bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish. Ta'limni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad yosh avlodga chuqur bilim berish, ulardagi mavjud layoqat va istedodlarni rivojlantirishda iboratdir. Bugungi kunda jamiyatimizda yoshlar orasidan bilimli, iqtidorli o'quvchilar (tinglovchilarni) ni aniqlash va ularni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berilmoqda. Ushbu maqsad yo'lida faoliyat olib boruvchi qator jamg'armalar, chunonchi, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlovchi "Umid" va "Ulug'bek" jamg'armalari tashkil etildi. Mazkur jamg'armalarning homiyligida yuzlab ta'lim beruvchi va tinglovchilar yetakchi xorijiy mamlakatlarda ta'lim olish huquqiga ega bo'ldilar.

9. Ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish. Samarali ta'limni tashkil etish jamiyat taraqqiyotini, milliy va Xalqning porloq kelajagini ta'minlaydi. Shu bois, ta'limni tashkil etish nafaqat davlatning, balki, umumxalq ishidir. Ta'lim muassasalarida tashkil etilgan ota-onalar qo'mitasi, o'quvchilar o'z-o'zini boshqarish organlarining kuchi va imkoniyatlaridan, Shuningdek, otaliq (homiy) tashkilotlarning moliyaviy, ma'naviy qo'llab-quvvatlashlari evaziga ta'lim samaradorligini oshirish mumkin. Ushbu prinsip manaShu g'oyani ochib berishga harakat qiladi.

10. Ta'lim tizimi muayyan jamiyatda ijtimoiy-tarixiy jarayonda tarkib topgan ma'lum talablar asosida boshqariladigan hamda bir-biri bilan bog'langan barcha tipdagi o'quv-tarbiya muassasalarining yig'indisidan iborat ekanligi. Ta'lim muassasasi yuridik Shaxs bo'lib, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda faoliyat olib boradi.

Ta'lim tizimi ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega muayyan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti darajasida hamda siyosati mazmuni bilan bog'liq holda tarkib topadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida (1997 yil 29 avgust) qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ko'rsatib o'tilganidek, respublika ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

a) davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini;

b) ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan ilmiy-tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni;

c) ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, Shuningdek, ularga qarashli korxonalar, muassasalarni va tashkilotlarni.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona va uzluksiz bo'lib, mazkur tizim doirasida faoliyat yurutuvchi muassasalar ta'limni bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun xizmat qiladilar.

1.3.Ta'lim tizimi va turlari.

Tayanch iboralar: ta'lim islohiyati, uzluksiz ta'lim, ta'limni isloh qilish, ta'lim tizimi, ta'lim turlari, pedagoglar sifati, malaka oshirish turlari.

1. Uzluksiz ta'lim tizimini tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari. O'zbekiston Respublikasida ta'lim jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy rivojlantirishning ustuvor sohasi ekanligi ta'lim islohiyatini pedagogik ta'lim mazmunini o'zgartirishdan boshlashni taqazo etadi. Soxani har tomonlama rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri Respublika bo'yicha ta'limning zamonaviy mushtarak tizimini yaratish va uni takomillashtirishdir. Respublikada yagona ta'lim tizimi yaratilgan bo'lib, u maktabgacha tarbiya, umumiy ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim, hunar-texnika ta'limi, o'rta-maxsus ta'lim, oliy ta'lim, ilmiy va ilmiy pedagogik xodimlar tayyorlash, xodimlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash, oiladagi ta'lim hamda mustaqil ta'limni o'z ichiga oladi.

Ushbu tizim xalq ta'limi tarmoqlaridagi turli qarashlar, yo'nalishlarni bartaraf qilib ta'limni takomillashtirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ishlab chiqarish usullari asosida qurilgan.

Tizim quyidagi qoidalarga asosan amalga oshiriladi:

- Uzluksiz ta'lim tizimining yangiligi, uning barcha qismlari bilan o'zaro aloqada bo'lishi;

- Shaxs va jamiyatning talabidan kelib chiqib, ta'limning har tomonlama maqbul yo'llarini tanlash, fan va ishlab chiqarishning, shuningdek ta'lim va tarbiyaning mehnat bilan aloqasini mustahkamlash;

- Mutaxassislar tayyorlaydigan va malakasini oshiradigan o'quv dargohlarida o'qitishning maqbul uslub va shakllarini qo'llash;

- Ta'limning davlat standartlarini (DTS) joriy etish;

- Uzluksiz ta'limda ruhiy-pedagogik uslublarni qo'llash, shaxsning qobiliyatini, iqtidorini test yo'li bilan aniqlash;

- xodimlar tayyorlashning ilmiy va milliy asoslarini ishlab chiqish;

- ishlab chiqilgan keng qamrovli o'quv tarbiya tizimining aniq dasturini barcha tarmoqlarda amalga oshirishini nazorat qilish, uning ichki bog'liqligini ta'minlash;

- bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida ta'limni har tomonlama himoyalash chora-tadbirlarini izlash, boshqarishning zamonaviy, iqtisodiy negizlarini tashkil qilish;

- Xalq ta'limi sohasida xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish, dunyoviy bilim berish texnologiyasini qo'llash, dunyoviy ta'lim standartlarining o'ziga xos usullarini tanlash.

Uzluksiz ta'lim tizimining hayotga tadbiiq etilishi xalq ta'limi faoliyatni tubdan o'zgartiradi hamda malakasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga muhim hissa qo'shadi.

Uzluksiz pedagogik ta'lim tizimida pedagog xodimlar tayyorlash bosqichli amalga oshiriladi.

2. Uzluksiz ta'limni isloh qilish yo'llari. Uzluksiz ta'lim sohasida islohotlar quyidagilarni nazarda tutadi:

- ta'lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o'qituvchi, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish;

- davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining har xil turlarini rivojlantirish;

- majburiy umumiy o'rta ta'limdan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga o'tilishini ta'minlash;

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limning markazlari sifatida fan va ishlab chiqarish integratsiyalashgan yangi tipdagi o'quv

muassasalarini vujudga keltirish;

- xalqni boy milliy merosiga asoslangan holda ta`lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish;

- ta`limni boshqarish tizimini takomillashtirish, jamoat boshqaruvi shakllarini rivojlantirish, ta`lim muassasalarini mintaqalashtirish;

- ta`lim olishda ota-onalar, oila, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish;

- ta`lim jarayoni va kadrlar tayyorlashga xolis baho beradigan tizimini yaratish va joriy etish;

- ta`lim tizimini moliyaviy, moddiy-texnika bilan ta`minlash mexanizmlarini shakllantirish;

- ta`lim va ilm-fan bilan bog`liq chet el hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada kengaytirish;

- tub yerli millatga mansub bo`lmagan shaxslar zich yashaydigan joylarda ular o`z ona tillarida ta`lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari yaratish;

- ta`lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiyena ta`limi hamda tarbiyasini takomillashtirish.

**3. Uzluksiz ta`lim tizimi va turlari.** Uzluksiz ta`lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta`lim standartlari DTS asosida, turli darajadagi ta`lim dasturlarining izchilligi asosida ta`minlanadi. U quyidagi ta`lim turlarini o`z ichiga oladi:

- Maktabgacha ta`lim;

- Umumiy o`rta ta`lim;

- O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi;

- Oliy ta`lim;

- Oliy o`quv yurtidan keyingi ta`lim;

- Kadarlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash;

- Maktabdan tashqari ta`lim;

- Oilada va mustaqil ta`lim.

Kadrlar tayyorlash milliy modelni o`ziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi to`qqiz yillik umumiy o`rta hamda uch yillik o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limini joriy etishdan iboratdir. Bu esa umumiy ta`lim dasturlaridan o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi dasturlariga izchil o`tilishni ta`minlaydi. Umumiy ta`lim dasturlari:

- a) Maktabgacha ta`lim.

- b) Boshlang`ich ta`lim (I-IV sinflar)

v) Umumiy o`rta ta`lim (I –XI sinflar)

g) O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limini qamrab oladi.

**Maktabgacha ta`lim.** Maktabgacha ta`lim bola sog`lom, har tamonlama kamol topib shakllanishini ta`minlaydi, unda o`qishga intilish hissini uyg`otadi, uni muntazam ta`lim olishga tayyorlaydi. Bu ta`lim bola 6-7 yoshga yetguncha davlat, nodavlat tashkilotlarida va oilada amalga oshiriladi. Bu ta`limni maqsad va vazifalarini ro`yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

1. Bu sohani rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim.

2. Malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash.

3. Maktabgacha ta`limni samarali psixo-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish.

4. Bolalarni oilada tarbiyalanishni tashkiliy, psixo-pedagogik va uslubiy jihatdan ta`minlash.

5. Zamonaviy o`quv-uslubiy qo`llanmalar, texnik vositalar, o`yinchoqlar va o`yinlar yaratish, ularni ishlab chiqish.

6. Bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va qadriyatlar asosida ma`naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish

7. Dasturlarni o`ziga mosini tanlab olish, malakali maslahatlar berish xizmatini yaratish.

8. Maktabgacha tarbiya va sog`lomlashtirish tarmog`ini qo`llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish

Umumiy o`rta ta`lim. To`qqiz yillik (I-IX sinflar) o`qishdan iborat umumiy o`rta ta`lim majburiydir. Ta`limning bu turi boshlang`ich (I-IV sinflar) ta`limni qamrab oladi, o`quvchining fanlar asosida muntazam bilim olishlari, ularda bilim o`zlashtirish extiyoji, asosiy o`quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma`naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko`nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosbatda bo`lishini va kasb tanlashni shakllantiradi. Umumiy o`rta ta`lim tugallangandan keyin ta`lim fanlari va ular bo`yicha olgan baholar ko`rsatilgan xolda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat beriladi.

Umumiy o`rta ta`limning yangicha tizim va mazmunini

shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

1. Maktabning I–IX sinflari doirasida sifatli umumiy o`rta ta`lim olishni ta`minlovchi DTS ishlab chiqish va joriy etish, bunda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlaridan keyin olinadigan ta`lim dasturlari bilan mantiqiy bog`liqlik xisobga olinishi lozim.

2. Yuqori malakali kadrlar tayyorlash.

3. Hududlarning jo`g`rofiy va demografik xususiyatlariga, shaxs, jamiyat va davlatning ehtiyojlariga muvofiq ravishda ta`lim muassasasi tarmoqlarini rivojlantirish.

4. O`quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta`limga tabaqalashtirilgan yondashuvini joriy etish.

5. Ta`lim berishning ilg`or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o`quv-uslubiy majmualarini yaratish va o`quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta`minlash.

6. O`quvchilar kasb-hunar tanlaydigan va psixologik-pedagogik jihatdan maslahatlar oladigan markazlar tashkil etish.

O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi. Umumiy o`rta ta`lim negizida o`qish muddati 3 yil bo`lgan majburiy o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi uzluksiz ta`lim tizimidagi mustaqil turdir. O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi yo`nalishi akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o`quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Akademik litsey DTSGa muvofiq o`rta maxsus ta`lim beradi. O`quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlariga qarab jadal intellektual rivojlanishi, chuqur, soxalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo`naltirilgan ta`lim olishni ta`minlaydi. Bola o`zi tanlab olgan soha bo`yicha (gumanitar, texnika, agrar) bilim va ko`nikmalarni o`qishni muayyan oliy dargohlarda davom ettirish, yoki mehnat faoliyatida ro`yobga chiqarishlari mumkin.

Kasb-hunar kollejiga tegishli DTS doirasida o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi beradi. Bolani kasb-hunar moyilligi, bilim va ko`nikmalarni chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo`yicha bir va bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi. Kasb-hunar kollejlarining jixozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibni tanlanganligi, o`quv jarayonining tashkil etish bo`yicha yangi tipdan o`quv muassasa hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash tegishli o`quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi. Bitiruvchilarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom beriladi. Bu diplomlar yoshlarga o`qishni keyingi

bosqichda davom ettirish yoki egallagan ixtisos bo'yicha mehnat faoliyatini davom ettirish huquqini beradi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur.

1. Har ikki muassasalar faoliyat ko'rsatishning normativ bazalarini ishlab chiqish va joriy etish.

2. Oliy ta'lim, ishlab chiqarish, fan va madaniyat mutaxassislarining jalb etgan holda yuqori malakali kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashning Shu jumladan chet elda tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish.

3. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi DTSni ishlab chiqish va joriy etish.

4. Har ikkala muassasa uchun ta'lim va o'quv-uslubiy majmualar, kasb-hunar dasturlari ishlab chiqish.

5. Mehnat faoliyati ko'nikmalarini egallashlari uchun ixtisoslashtirilgan dasturlar ishlab chiqish va joriy etish.

6. Kollejlar bitiruvchilariga nisbatan ixtisos va kasb-hunar, malaka talablarining ro'yxatini ishlab chiqish.

7. Har ikki muassasalarning moddiy-texnik va axborot bazalarini mustahkamlash.

Oliy ta'lim. Oliy ta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanadi hamda (bakalavriat va magistratura) bosqichiga ega. Oliy ta'lim muassasalariga tinglovchi qabul qilish.

a) davlat grantlari

b) pullik-shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

Bakalavriat-Mutaxassisliklar bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradi va ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir.

Bakalavrlik dasturi tugagandan so'ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan kasb bo'yicha «bakalavr» darajasi beriladi va davlat tomonidan kasb-hunar bilan Shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Magistratura - aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalvriyat negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir. «Magistr» darajasini beradigan davlat malakasi attestatsiyasi magistrlik dasturining intixosidir. Magistr'larga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan Shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Ikki bosqichli oliy ta'lim tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur.

1. Ikki bosqichli DTSni ishlab chiqish va joriy etish.
2. Oliy ta'limga professor o'qituvchi kadrlar tayyorlash, chet ellardagi yetakchi o'quv va ilmiy markazlarda tayyorlash.
3. Oliy ta'lim muassasalarida tarkibiy o'zgarishlar o'tkazish .
4. Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruvni shakllantirish, mustaqilligini kuchaytirish, jamoat nazorat boshqaruvini joriy etish.
5. Oliy ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi ta'sirchan mexanizmini ishlab chiqish va joriy etish.
6. O'qishni, mustaqil bilim olishni kuchaytirish hamda masofadan o'qitish ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va to'liq o'zlashtirish.
7. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning model tizimidan foydalangan holda tinglovchilarni o'qitishni jadallashtirish.
8. Ta'limning Xalq boy merosiga, umumbashariy qadriyatlarga asoslangan holda insonparvarlik yo'nalishlarini ta'minlash.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim. Bu ta'lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga, shaxsning ijodiy ta'lim kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilgan. Bu ta'lim:

- a) ad'yunktura
- b) doktorantura
- c) mustaqil tadqiqotchiliklar mujassamlashgan.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim bosqichlari dissertatsiya himoyasi bilan yakunlanadi. Yakuniy davlat attestatsiyasi natijasiga ko'ra tegishli ravishda fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasi berilib, davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni rivojlantirish tadbirlari quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish.
2. Kasb ta'limi tizimi uchun oliy malakali ilmiy-pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlaydi.
3. Rivojlangan davlatlarning ilmiy markazlarida ustuvor yo'nalish bo'yicha oliy malakali, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash uchun shart sharoitlarni yaratib berish.

4. Fan, texnologiya va ta'lim sohasida rivojlangan mamlakatlar bilan xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish.

Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash. O'zbekiston ta'lim tizimida rahbarlar va mutaxassislar kasbiy va lavozim malakasini oshirishni taminlovchi malaka oshirish va qayta tayyorlashni yagona tizimi mavjud. Bu davlat va boshqa o'quv muassasalarida bepul, yoki pullik shartnoma asosida amalga oshiriladi. Xalq ta'limi tizimida 15 ta malaka oshirish institutlari bo'lib, Shundan Respublika Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish Markaziy instituti va 14 ta viloyatda malaka oshirish institutlari hamda kurslar ishlab turibdi. Bu institutlarda kadrlar o'z kasbiy mahoratlarini oshirib bilimlarini mustahkamlaydilar.

Xalq ta'limi xodimlarining malaka oshirishdan asosiy ko'zlangan maqsadlari:

1. Malaka oshirish davrigacha oraliqdagi yangi bilimlar olish va egallash.
2. Kasb mahorati va malakasini takomillashtirish.
3. O'z ustida ishlash zarurati ko'nikmasini hosil qilish, kurs davomida o'zaro tajriba almashish.
4. Kurs davomida uni qiynab kelayotgan muammolarga yechim (javob) topish.

Malaka oshirishning quyidagi turlari mavjud: - ishlab chiqarishdan ajralgan holda viloyat, tumanda o'tkaziladigan kurslar;

- internet tarzidagi kurslar;
- erkin tinglovchilik kurslari;
- sirtqi va qatnovchi kurslar;
- muammoli (maqsadli) kurslar;
- shaxsiy reja asosidagi kurslar;
- mualliflik kurslari (ilg'or pedagoglar bazasida);
- tuman va shaharlararo doimiy harakatdagi kurslar.

Shularning ichida ishdan ajralmagan holda malaka oshirish keng qo'llanilib kelmoqda.

Bozor sharoitida pedagoglar uchun mustaqil holda malaka oshirish asosiy yo'nalish bo'lib qolishi kerak. Zero, har qanday malaka oshirish kurslari doimiy mustaqil mutolaa qilish o'rnini bosa olmaydi.

Bundan tashqari, malaka oshirish jarayonining dastlabki bosqichlari o'z ustida ishlash, o'zaro darslarga kirish, metod

birlashmalari, pedagogik kengashlari, kursiy birlashmalar ishlarida, turli ilmiy-amaliy anjumanlarda, pedagogik o`qishlar, xalq universitetlari ishlarida ishtiroki bilan belgilanadi. Malaka oshirish tizimida o`z yechimini kutayotgan muammolar juda ko`p. Masalan:

a) malaka oshirishni bozor iqtisodiyotiga moslab qayta ishlarni tashkillash.

b) mehnatga pirovard natijaga qarab haq to`lash.

c) o`qituvchi malakasi mezonini kursgacha va kursdan keyin hisoblash mexanizmini ishlab chiqish.

d) malaka oshirish institutlarida dars samaradorligini oshirish maqsadida ilmiy jihatdan pedagoglar sifatini qayta ko`rib chiqish.

e) o`tilayotgan mashg`ulotlarni tahlil qilish, baho berishni yo`lga qo`yish.

**Maktabdan tashqari ta`lim.** O`zbekiston Respublikasi «Ta`lim to`risidagi qonun»ning 10-moddasiga asosan bolalarning ehtiyojlarini, xolis fikrini ro`yobga chiqarish, ularning bo`sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida davlat muassasalari, turli mulk shakllariga ega bo`lgan korxonalar, jamoat tashkilotlari va alohida fuqarolar madaniy-badiiy, ilmiy-tabiiy, texnika, sport va boshqa yo`nalishlaridagi maktabdan tashqari ta`lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin. Bu tashkilotlarning vazifasi: Vatanga fidoiy, xalqparvar, milliy an`ana va urf-odatlarni biladigan va qadrlaydigan ishbilarmon mustaqil, oliy himmat, yaratuvchan, baynalminal his tuyg`ular egasi bo`lgan yoshlarni tarbiyalashdir.

1.4.Kadrlar tayyorlash milliy modeli: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta`lim, fan va ishlab chiqarish.

Tayanch iboralar: *mamlakat taraqqiyoti, ta`lim–tarbiya berish, milliy model, kadrlar tayyorlash milliy tizimi, shaxs kamoloti, davlat va jamiyat, ishlab chiqarish.*

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo`lib, ajdodlarimiz ma`rifat, ma`naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avalodga o`rgatish - ularni komillikka yetaklash yo`llari, qonun-qoidalarini mutassil izlaganlar. Bu esa, **pedagogika** fanining maydonga kelishiga sabab bo`lgan. Chunki, insonning ma`rifatli va ma`naviy komillikka erishishi pedagogika fanining yetakchiligida amalga oshiriladi.

Ma'lumki, mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajagi ta'lim-tarbiya sohasidagi yuqori samaradorlikka erishishga, ularning jahon ta'limi talablari bilan mosligi va amaliy hayotdagi o'rnini qay darajada topayotganligiga bog'liq.

Shu ma'noda ta'lim-tarbiya berish bo'lajak mutaxassislarni yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi innovatsion jarayon bo'lib, oldingi egallagan bilimlar asosida ijobiy pedagogik samaralarni beruvchi yangicha yondoshuv texnologiyalarini yaratish va joriy etishdan iboratdir. Bu talablarni bajarish ta'lim - tarbiya jarayonini ilm - fan va texnika-texnologiyalarning eng so'ngi yutuqlari asosida, zamon talablarini hisobga olgan holda tashkil etish muammosi mavjudligini ta'kidlaydi.

Ta'lim-tarbiya sohasida Respublikamizda qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va jahon ta'limi andozlari talablarlariga mos keluvchi «Davlat ta'lim standartlari»da davr bilan hamnafas, ya'ni «Intellectual asr»ning faol ishtirokchilarini tayyorlash ko'zda tutilgan. XXI asrning faol ishtirokchisi esa, keng ma'noda ta'lim-tarbiya va ularning rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar bilan bog'langan holda barkamol shaxsni voyaga yetkazishdek innovatsion jarayonni o'zida mujassamlashtiradi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratish va ulardan amaliyotda keng foydalanishga erishish, «Ta'lim-fan-amaliyot» integratsiyasining ta'lim tizimidagi samarasiga alohida e'tibor qaratilgan. Qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning milliy modelidagi bosh muddao ham barkamol avlod tarbiyasi, mustaqil va erkin fikrlovchi, dunyoqarashi keng ijodkor shaxsni tarbiyalash masalasidir. Bu vazifani esa, pedagogika fani asoslaridan xabarsiz kishi me'yoriga yetkaza olmasligi hech kimga sir emas.


Ushbu ma'noda bo'lajak o'qituvchilar zimmasiga qo'yiladigan yangi pedagogik tafakkurni shakllantirish vazifasi zamonaviy pedagogika fanining mazmun-mohiyatini tashkil etadi, shuningdek, jamiyat oldida milliy maktab modelini yaratish, milliy ta'lim tizimini, uning mazmunini jahon tajribasi mezonlariga mos davlat standartlari asosida yaratish vazifasini hal etish ham milliy pedagogikamizning zimmasiga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasidagi pedagogik oliy o'quv yurtlarida

o'rganiladigan pedagogika fani o'qituvchilik kasbiga tayyorlash tizimida alohida ahamiyat kasb etadi va ixtisoslikka yo'naltiruvchi fan hisoblanadi. Mazkur o'quv fani o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, urf - odat, marosim va an'analari hamda xalq pedagogikasi aqidalariga asoslanib, didaktika, uning maqsad va vazifalari, ta'lim jarayonining mazmun-mohiyati, ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari, ta'lim metodlari va vositalari, ta'limni tashkil etish turlari va shakllari, O'zbekiston ta'lim tizimi va korreksion pedagogika to'g'risida bo'lajak o'qituvchilarga tushuncha berish orqali yosh avlodni tarbiyalash, shaxsni kamol toptirish, e'tiqod va malakalarini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy yuksaltirish jarayoniga olib kiradi. Pedagogika fanining boshqa fanlar orasidagi tutgan muhim o'rni ham ana shunda dir.

Har qanday mamlakatning kuchi fuqarolarning ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi.

Fuqarolarning ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyati, ta'lim tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog'lom muhit darajasi, shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e'tiqodlari asosida shakllantiriladi.




1-shakl. “Milliy model”ning tarkibiy tuzilishi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning yaratilishida mazkur jihatlar o'rganildi. Milliy dastur asosini O'zbekistonning taraqqiyotini ta'minlay oladigan, uni jahonning ilg'or mamlakatlari darajasiga ko'tarishga hissa qo'shuvchi, dadil mustaqil fikrli, bilimli, malakali mutaxassis, ayni paytda insoniy ijobiy sifatlarga ega bo'lgan kadrlarni tarbiyalash, voyaga yetkazish jarayonini asoslab beradi.

Barkamol Shaxs va yetuk malakali mutaxassis milliy model mohiyatini to'laqonli ifoda etadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli faqat ta'lim-tarbiyadan iborat

bo'lib qolmay, bir-biriga bog'liq ko'pgina hayotiy bosqichlarni ham o'z ichiga oladi. Milliy model bu shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro uzviy birligi va hamkorligi, ularning bir-biriga aloqasini aks ettiradi (2 - shakl).



2-shakl. “Milliy model”ning tarkibiy qismlari va ularning o’zaro aloqadorligi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlarini quyidagicha ta’riflash mumkin:

Shaxs-kadrlar tayyorlash milliy tizimining bosh sub’ekti va ob’ekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchisi.

Shaxs uzluksiz ta’lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o’zlashtirib, fan asoslarini puxta egallab, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishib, shuningdek, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o’rganib hamda izchil uzluksiz ravishda tashkil etuvchi tarbiyaviy ta’sirlar asosida insoniy sifatlarni o’zlashtirib borar ekan yillar davomida unda yuksak ma’naviyat salohiyati va muayyan yo’nalish bo’yicha kasbiy mahorat shakllanib boradi. Shaxs eng avvalo, o’z oldiga muayyan maqsadni qo’ya olishi hamda unga erishish yo’lida tinimsiz izlanishi, o’qib o’rganishi lozim. Shu tariqa u ijtimoiy raqobatga chidamli kadr (mutaxassis) sifatida kamolga yetadi.

Shaxsning o’z-o’zini anglash tuyg’usiga ega bo’lishi, ta’lim sohasidagi xizmatlaridan to’laonli va samarali bilish uning har tomonlama rivojlanishi, yetuk mutaxassis bo’la olishi yo’lidagi muhim omilidir. Inson kamoloti, eng avvalo, uning o’ziga bog’liqdir. Shu bois milliy dasturda shaxs va uning kamolotiga alohida e’tibor qaratilgan.

Davlat va jamiyat - ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining

faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishining kafillari.

Shaxs kamoloti nafaqat o'zi uchun balki davlat va jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ham ahamiyatga egadir. Fuqarolari komil inson bo'lgan mamlakat istiqboli porloq bo'ladi.

Shaxs va davlat (jamiyat) o'rtasidagi aloqa ikki tomonlama xususiyatga ega. Shu bois har qanday davlat (jamiyat) o'z fuqarolarini yashash, mehnat qilish, shuningdek, iqtisodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishi, uni namoyon eta bilishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib berish mas'uliyatini o'z zimmasiga oluvchi sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi.

Uzluksiz ta'lim-malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimini tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Topshiriq va savollar.

1. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi davr talabi ekanligini izohlang.

2. 1992 yil 2 iyul kuni qabul qilingan birinchi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning asosiy vazifalari nimadan iborat?

3. Milliy ta'lim deganda nimani tushunasiz?

4. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning umumiy qoidalari nimadan iborat?

5. Ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilish deganda nimani tushunasiz?

6. Ta'lim tizimini boshqarish deganda nimani tushunasiz?

7. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarini izohlab bering.

8. Ta'lim tizimi va turlarining mohiyatini tushuntirib bering.

9. Kadrlar tayyorlash milliy modeliga nimalar kiradi?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T., "O'zbekiston", 1996.

2. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T., "O'zbekiston", 1996.

3. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., "O`zbekiston", 1997.

4. O`zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta`lim to`g`risida. T., 1997.

5. O`zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. T., 1997.

6. Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., "Sharq", 1997.

7. Barkamol avlod orzusi. T., O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000.

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz

2. www.tdpu.uz

3. www.pedagog.uz

II. PEDAGOGIKA - IJTIMOIIY FAN SIFATIDA.

2.1. Pedagogika fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi.

Tayanch iboralar: pedagogika - fan sifatida, iqtisodiy-siyosiy jihatdan yuksalish, ma'rifat tarixi, milliy uyg'onish vakillari.

Pedagogika fanida tarbiya asosiy kategoriya hisoblanib, u jamiyat va oilada har tomonlama rivojlangan insonni shakllantirishdagi muayyan faoliyatni ifodalaydi. Tarbiyaning ilk shakllari ibtidoiy jamiyat davridayoq paydo bo'lgan. Keksa avlod mehnat jarayonida orttirgan tajribalarni yosh avlodga o'rgatgan. Quldorlik jamiyatida Sharqda tarbiyaga oid turli qarashlar vujudga keldi. Feodalizm davrida ta'lim-tarbiya ishlari hukmron feodal sinfi maqsadini ko'zlab ish tutar, shuning uchun ta'lim-tarbiya muassasalarida diniy mafkura gegemonlik qilar edi. Bu asosan, O'rta Osiyodagi pedagogik fikr, maktab va madrasalarga katta ta'sir ko'rsatdi.

O'rta asr uyg'onish davrida Sharqda dunyoviy ta'lim keng rivojlandi. Biroq keyingi asrlarda butun madaniyatda bo'lgani singari ta'lim-tarbiyada diniy mafkura ustunlikni o'z qo'liga oldi. Biroq dunyoviy ta'lim tizimida ham, diniy ta'lim tizimida ham xalq og'zaki ijodiyotidan, jumladan rivoyatlar, ertaklar, masallardan fozil inson tarbiyasida foydalanildi. Xalq og'zaki ijodiyotidagi fikrlarni ijtimoiy ong va axloqni shakllantirishda qo'llash samarali natija berishi zamonaviy pedagogika tomonidan tan olindi.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi yosh avlodni hayotga tayyorlash, ular tarbiyasini samarali amalga oshirish ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Bu ehtiyoj tarbiya borasida orttirilgan tajribalar to'plangandan keyin o'sha tajribalarni umumlashtirish, yoshlar tarbiyasi haqida qonun-qoidalarini ishlab chiqarish zaruratini taqozo etadi.

Qadimdan inson tarbiyasiga oid bo'lgan fikrlar xalq maqollarida, afsonalarda, dostonlarda o'z ifodasini topgan. «Alpomish», «To'maris», «Kalila va Dimna», «Siyosatnoma», «Qutadg'u bilig», «Devoni lug'atit turk» kabi doston, masal va ertaklarda rostgo'ylik, ota-onaga hurmat-ehtirom, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi tuyg'ular, fazilatlar tarannum etilgan.

Tarbiya kishilik jamiyati ibtidosida paydo bo'lgan va bashariyat manfaatlari uchun xizmat qilib kelgan. Tarbiya avlodlar o'rtasidagi

aloqani ta'minlaydi. Kattalar o'zlari turmush jarayonida orttirgan tajribalarini o'zidan keyingi avlodga o'rgatib borganlar. Kichik avlod esa, faoliyati davomida yangi-yangi muammolarga duch kelib, ularning yechimini topish barobarida bilim va ko'nikmalarni egallab, oldingi avloddan meros qolgan bilimlarini yanada boyitib, o'zidan keyingi avlodga qoldiradi. Insoniyat tarixiy taraqqiyot mobaynida katta yo'lni, bu yo'lda u turli ijtimoiy bosqichlarni bosib o'tdi. Formasiyalarning o'zgarishi natijasida ish munosabati bilan ishlab chiqarish munosabatlari taraqqiy etdi. Bu hol tarbiya jarayonining takomillashib borishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Mustaqil O'zbekiston bugungi kunga kelib jahonga o'z nomini tanitdi. Iqtisodiy-siyosiy jihatdan yuksaldi. Ayniqsa, mahsulot ishlab chiqarish oshdi, hamkorlikdagi korxonalar kuchaydi. O'zbekiston dunyoning katta bozoriga shaxdam qadam tashladi. Shu bilan birga O'zbekistonning rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishida bugun va kelajak uchun zarur bo'lgan zamonaviy kadrlarga ham ehtiyoj sezila bordi.

Mustaqillik, erkinlik, bunyodkorlik esa ijodiy, amaliy, nazariy tashabbusda namoyon bo'ladi. Tashabbus iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning, insonlarning yangi talabiga mos keladigan moddiy, ma'naviy mahsulotlar yaratishga qaratilgan taklif, g'oya, fikr yoki amaliy jarayondir.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi sessiyasi mustaqil davlatimiz rivojlanishi tarixida mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyat qurilishida bozor iqtisodiyotining yangi, hali ishga tushirilmagan mexanizmlarini ishlab chiqish va ishga tushirishda iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning yangi harakatlantiruvchi kuchlarini ishga solishda XXI asrga kirib boruvchi yangi g'oyalar, texnologiyalar sessiyasi bo'lib qoladi. Bu tasdiq Prezidentimizning sessiyada «Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz» nomli jahonShumul ma'ruzalaridagi taraqqiyot yo'nalishlarining mazmunan uyg'unligidan kelib chiqadi. Ma'naviy qadriyatlar ma'naviy - insoniy fazilatga aylansagina insonlarning hayotlari jo'shqin, baxtiyor bo'ladi. Mehnatlari unumdor bo'lib, haqiqiy farovon hayot kechiradilar.

Turon zaminida vujudga kelgan milliy uyg'onish vakillari-jadidlarning aksar qismi maorifning mavjud holatiga qarshi bosh ko'tarib, islohotlar o'tkazish, yangi usul maktablari tashkil etish,

Turkistonliklarni qisqa muddatda rivojlangan, madaniyatli va farovon turmush kechiradigan xalqqa aylantirish yo`lida harakat qildilar. Ularning ezgu amallari, pokiza niyatlari, ilg`or g`oyalari avlodlar tomonidan davom ettirilib, 60-70 yildan keyin ularni amalga oshirish imkoniyati paydo bo`ldi. Bu imkoniyatni qo`ldan boy bermay milliy maktab va uning yangi ma`rifat usul va uslublarini yaratish vaqti keldi.

Ma`rifatning qisqacha tarixi tahlili shuni ko`rsatib turibdiki, u qaysi davrda va qaysi hududda shakllanib, rivoj topganligidan qat`iy nazar, quyidagi tamoyillarga asoslangan:

- odamlarning irqidan, dinidan, millatidan va istiqomat qilib turgan joyidan qat`iy nazar, ularning ta`lim-tarbiyaga bo`lgan ehtiyoji natijasida Shu ijtimoiy soha va uning ilm-fani vujudga keldi;

- ma`rifatning birdan bir maqsadi aholiga bilim berish va ularni bu bilimlarni hayotda qo`llay olishlikka o`rgatishdir;

- bundan maqsad odamlarda tegishli ko`nikma hosil qildirish, ularda ijobiy - ijtimoiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish;

- qadimgi va undan keyingi asrlarda yashagan ajdodlar uchun rostgo`ylik, sog`lom fikr va jasurlik, odob va axloqiylik, mehnatsevarlik, mehmonnavozlik, iymon va e`tiqodlilik asosiy xislatlar hisoblangan;

- ta`lim-tarbiyada oddiydan murakkabga, ma`lumdan noma`lumga, umumiydan xususiyya borish, ko`rgazmalilik va uzluksizlikka amal qilish, tushunarli tilda, hayotiy misollarda hamda zamonaviy usullarda bayon qilish.

2.2. Pedagogika fanining ob`ekti, predmeti va funksiyalari.

Tayanch iboralar: *pedagogika fanining vazifalari, asosiy tushunchalar, fanning ob`ekti, fanning predmeti, fanning funksiyalari.*

Pedagogika fanining vazifalaridan kelib chiqqan holda unga quyidagi ta`rifni berish mumkin: Pedagogika ta`lim-tarbiyaga oid bilimlarni mushtarak holda jamlab, ularni saralab sinovdan o`tkazuvchi va bir tartibga keltiruvchi, ularni boshqalarga o`rgatuvchi fandır.

Pedagogika fanining asosiy vazifasi butun dunyodagi ma`rifat sohasiga tegishli bilimlarni to`plab, ularni didaktika ko`rigidan o`tkazishdir. Didaktika ko`rigidan o`tkazish deganda, pedagogikaga tegishli maqola, risola va yirik asarlar mazmuni va mohiyatini

didaktika tamoyilidagi talablarga solishtirib ko`rish tushuniladi. Tadqiqotlar Shuni ko`rsatadiki, chop etilayotgan pedagogikaga oid asarlarning 7-10 foizi didaktikaning tamoyillariga to`g`ri kelar ekan. Shuning uchun pedagogika fanining birinchi vazifasi nashrdan chiqqan pedagogikaga oid asarlarni didaktika tamoyillari bilan taqqoslab, tahlil qilishdir. Amaliyotchi-o`qituvchi va pedagoglarning vazifasi pedagogik adabiyotlarni o`z faoliyatida ko`r-ko`rona qo`llayvermasdan, ularga tanqidiy yondoshib, didaktika tahlilidan o`tkazib qo`llashdan iboratdir.

Pedagogika fanining ikkinchi vazifasi, muayyan asar didaktikaning barcha tamoyillariga mos kelishi ma`lum bo`lgandan keyin, uning mahalliy sharoitga to`g`ri kelish - kelmasligini aniqlashdir. Chunki, har qanday ijtimoiy voqelikda, shu jumladan ta`lim-tarbiya jarayonida ham hukm suruvchi qonuniyatlar ma`lum bir ijtimoiy sharoitning ob`ektiv borlig`ini qanchalik to`la ifoda etgan bo`lishiga qaramay, boshqa ijtimoiy sharoitga to`g`ri kelmasligi mumkin. Shuning uchun ham, maorifchi olimlar, o`z hududidan tashqarida pedagogikaning hamma qonuniyatlariga asoslanib, yaratilgan ta`lim-tarbiya usul va uslublarini o`z hududida qaytadan sinab ko`rishlari shart.

Pedagogika fanining uchinchi va asosiy vazifasi pedagogik sohada asrlar davomida to`plangan bilimlarni dars berishning ma`lum usuli va uslublari yordamida, tasdiqlangan reja va dasturlar asosida o`qituvchilarga berish va bu bilimlarni amaliyotda qo`llashni o`rgatishdir.

Pedagogika-tarbiya haqidagi fan. Pedagogikaning asosiy tushunchalari-tarbiya, o`qitish, rivojlantirish, ma`lumot va ularning o`zaro aloqasi. Pedagogika (paydagogos-grekcha «bola» va «yetaklash» ma`nosini bildiradi) insonni shakllantirishda muayyan tizim, faoliyat hamda ta`lim-tarbiyaning mazmuni va metodlari haqida bahs yuritadi.

Pedagogikaning an`anaviy tushunchasi-o`sib kelayotgan avlodni tarbiyalash va o`qitish.

XIX asrgacha pedagogika to`g`risida shunda y tushuncha mavjud edi. Hozirgi paytda pedagogika predmeti kengaydi, chunki yangi yo`nalishlar paydo bo`ldi. Jumladan, kasb ta`limi pedagogikasi, o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi pedagogikasi, oliy ta`lim pedagogikasi va boshq.

Pedagogika fanining predmeti - o`qitishning, ta`lim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatlari, mazmuni, usullari, vositalari bilan insonlarni, yoshlarni, mutaxassislarni qurollantirish.

2.3.Pedagogikaning asosiy kategoriyalari.

Tayanch iboralar: *fanning asosiy tushunchalari, bilim berish, ma'lumot ta'lim tarbiya natijasidir, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati, inson kamoloti, insonning shakllanishi, dunyoqarash va xulqning tarkib topishi.*

Insonshunoslik fanlari tizimida pedagogika faning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u shaxsni shakllantirish va rivojlantirish uchun tarbiya, ta'lim, ma'lumot qonuniyatlarini o'rganadi va ularning yaxlitligini, uyg'unligini ta'minlash uchun pedagogik shart sharoitlar yaratadi. Shu bois pedagogika fanining asosiy tushunchalari (kategoriyalari) tarbiya, ta'lim, ma'lumot, rivojlanish, bilim, ko`nikma, malaka va boshq.

Ma'lumki, shaxs turli omillar ta'sirida shakllanib, rivojlanadi. Sotsial ma'nodagi tarbiya tushunchalari insonning tevarak atrofidagi ijtimoiy sharoitlar, u yashagan tuzimning unga ta'siri sifatida tushuniladi. Tarbiya bu ta'sirlarning ijobiysidan to'la foydalaniladi, salbiy ta'sirni zaiflashtirishga harakat qiladi. Tarbiya haqida pedagogik nuqtai nazardan keng ma'no beradigan bo'lagi, ta'lim tarbiya muassalari tizimida amalga oshiriladigan butun o`quv tarbiya jarayoning biror maqsadni amalga oshirish uchun oldindan tashkil etilgan faoliyat tushuniladi. Milliy mustaqillik tarbiyasining maqsadi mehnat va ijtimoiy faoliyatga, Vatan himoyasiga tayyor bo'lgan, barkamol shaxsni tarkib toptirishdan iborat. Zero, «Yurtiga Vataniga muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari, xalqimizning qon -qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ana shu noyob insoniy fazilatlarni asrab - avaylab va yanada takomillashtirish, farzandlarimizni ozod va demokratik O'zbekistonning munosib o'g'il - qizlari etib tarbiyalash masalasi ma'naviyat sohasidagi ishlarimizning asosiy yo'nalishini, tashkil etmog'i kerak». Karimov I.A O'zbekistonning siyosiy va ijtimoiy iqbolining asosiy tamoyillari T. «O'zbekiston, 1995, 51 bet».

Ikkinchi asosiy pedagogik kategoriya, ya'ni o`qitish, bilim berish, ko`nikma, malakalar bilan qurollantirish tushunchasidir.

O'qitish o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'zaro munosabatidan iborat bo'lgan, aniq maqsadga qaratilgan jarayondir. Ta'lim jarayonida o'quvchilar, o'qituvchi boshchiligida insoniyat tomonidan yaratilgan, hayot uchun, kelajak faoliyati uchun zarur bo'lgan ilmlar bilan qurollanadilar, amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri Shundan iboratki, bu jarayonda ijodiy tafakkur rivojlanishi, intellektual qobiliyatlarni jadal o'sishi, mustaqil bilim olishi uchun imkoniyatlar yaratiladi. Agar, bu jarayon o'qituvchi va o'quvchining faolligi asosida tashkil etilmasa o'qishdan kutilgan maqsadga erisholmaydi. O'qituvchi bu jarayonda faqat ma'lumotlar bayon qilish, o'zlashtirish jarayonini boshqarish bilan cheklanmay, o'quvchilar o'quv biluv faoliyatlarini tashkilotchisi bo'lishi kerak.

Asosiy pedagogik kategoriyalardan yana biri ma'lumot tushunchasidir. Ma'lumot ta'lim tarbiya jarayonining natijasi orqali egallangan bilim, ko'nikma malakalar yig'indisi va shakllangan dunyoqarashlar majmuidir. Ma'lumot olishning to'g'ri va ishonchli yo'li davlat ta'lim standartlari bo'yicha bilim beradigan, aniq rejalar, dasturlar asosida o'quv yurtlarida tashkil qilinadigan ta'lim tarbiya jarayonidir. Ma'lumot - ta'lim va tarbiya natijasidir.

Pedagogikada «tarbiya» so'zi turli ma'noda ishlatiladi. Chunonchi, tarbiya keng sotsial ma'noda, ijtimoiy hodisa sifatida qo'llanilganda jamiyatning barcha tarbiyaviy vositalarini: oilani, maktabgacha tarbiya muassasalarini, o'quv-tarbiya muassasalarini, mehnat jamoalari, axborot manbalarining tarbiya yo'nalishida olib boradigan harakatlarini o'z ichiga oladi. Bu tarbiya vositalari o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish yo'lida xizmat qiladi.

Pedagogik adabiyotlarda va amaliyotda «tarbiya» so'zi aniq, tor yo'nalishni belgilash uchun ham ishlatiladi. Xuddi shu ma'noda tarbiyachi rahbarligida aniq maqsadga qaratilgan jarayon tushuniladi.

Yangilanayotgan bugungi pedagogika ilmidagi tushunchalar va ta'riflar esa, asosan, milliy istiqlol mafkurasiga mos, umuminsoniy qadriyatlar va milliy o'ziga xoslik bilan birgalikdagi uyg'unlik asosida yaratilmoqda.

Pedagogikaning bir-biri bilan uzviy bog'langan muhim tushunchalari quyidagilardir: tarbiya, ta'lim, ma'lumot, inson kamoloti, insonning shakllanishi, o'qitish, tarbiyaning asosiy qonunlari va maqsadi, pedagogik jarayon, pedagogik muhit, tarbiya

turlari (aqliy, huquqiy, iqtisodiy, mehnat, ekologik, axloqiy, jismoniy va estetik), tarbiya uslublari, ta'lim metodlari, pedagogik-psixologik tushunchalar (ruhiyat, shaxs, faoliyat, o'z-o'zini anglash, muloqot, ruhiy jarayon va holat, malaka, qobiliyat, jo'shqinlik, xarakter, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, sezgi, hissiyot, o'rganish va o'rgatish).

Yuqorida keltirilgan pedagogik tushuncha (kategoriya) larning barchasiga ta'rif berish va izohlash mavzuumiz hajmiy darajasi imkonidan tashqari bo'lganligi bois pedagogikada eng ko'p qo'llaniladigan asosiy tushunchalargagina izoh berishni lozim topdik.

Tarbiya - har bir insonning hayotda yashashi jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko'nikmasini o'zgalarga berish jarayoni.

Chunonchi, tarbiya keng sotsial ma'noda ijtimoiy hodisa sifatida qo'llanilganda jamiyatning barcha tarbiyaviy vositalarni o'z ichiga oladi.

Tarbiyaning ob'ektiv qonunlari - o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va ijtimoiy hayotning shaxsni, uni o'ziga xosligi hamda sifatlarini shakllantirish tinglovchilardagi turg'un bo'lgan an'analaridir.

Darhaqiqat, tarbiya ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan hodisalardir. Tarbiya yuksak ma'naviy, jismoniy barkamollik, yaxshining yomondan farqini anglash, yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirish qudratiga egadir. Tarbiya kishilik jamiyatining hamma bosqichlarida rivojlanib, o'sib, avloddan-avlodga vorislik vazifasini bajaradigan hodisa. Lekin, har bir jamiyatda tarbiyaning maqsadi, vazifasi, mazmuni o'ziga xosligi bilan farq qiladi.

Xalq iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy zaruratdan kelib chiqib, yosh avlodni tarbiyalash muammolari dastlab Xalq og'zaki ijodiyoti, Xalq pedagogikasi, yozma yodgorlik va pandnomalarda, mutafakkir va ma'rifatparvarlarning asarlarida bosh mavzu bo'lib, komil inson sshaxsini shakllantirish uchun zaruriy hodisa sifatida talqin etilgan. Xalq og'zaki ijodiyotida tarbiya bosh masala sifatida tavsiflangan bo'lsa, tarbiya va odob, Vatanga cheksiz muhabbat, adolat, insof, botirlik, mehnatsevarlik, bilimdonlik kabi g'oyalar tarbiya vositasi tarzida qo'llanilgan. "Vatan qadrini bilmagan o'z qadrini bilmas", "Vatanga kelgan iymonga kelar". "Bola tuqqanniki emas, tarbiyalaganniki". "Ota g'ayratli bo'lsa, bola ibratli bo'lar" kabi Xalq maqollari bevosita tarbiyaga dahldordir. Hadis ilmida tarbiyaning

inson kamoloti uchun cheksiz muhabbat, ilmiy tuyg'u kabi sifatlarning izohi ham beriladi. "Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxsxilangiz". "Otaga itoat qilish-tangriga itoat qilishdir" va boshqalar shular jumlasidandir.

Xalq og'zaki ijodiyoti va pedagogikasida tarbiya muammosi inson uchun zarur bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy, jismoniy, ma'naviy, axloqiy sifatlarini qamrab olgan bo'lib, tarbiya orqali amalga oshirish nazarda tutiladi. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida keltirilganidek:

Qobilga tarbiya erur ul nav'qin guhar
Tushsa, najosat ichra yuvgay kimsa ani pok.
Gar it uzumiga kishi may birla bersa suv,
Bu tarbiya bilan qila olgaymu ani tok.

Quyidagi satrlarda alloma tarbiyani kimga berishni ham bilish kerakligini ta'kidlab, tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qilishga, uning qonun-qoidalariga amal qilishga ham chorlaydi. Pedagogika fanida tarbiya-inson tarbiyasi muammolarini asosiy maqsad qilib, barkamol shaxsni shakllantirishga zamonaviy pedagogika fani yutuqlaridan foydalanish bilan bir qatorda milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizdan foydalanish va ijodiy yondoshishni talab etadi. Bu talab ajdodlarimiz g'oyalariga suyanib, quyidagi qonunlarga asoslanishi zarur deb hisoblaymiz:

-Tarbiya inson faoliyati jarayonida tartibli ta'sir etuvchi omil bo'lib, natijasini insonning yashab turgan ijtimoiy sharoiti belgilaydi;

-Inson kamolotini harakatlantiruvchi kuch, qarama-qarshiliklarning mavjudligi, uning shaxsiy hayotida namoyon bo'ladi;

-Inson faoliyati jarayonida atrofdagi narsa va hodisalarga qiziqish uyg'otish va uni e'tiqodga aylantirish lozim. Chunki, e'tiqod insonning jamiyatda bo'lgan munosabatida, tevarak-atrofdagi kechayotgan voqea-hodisalarga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi;

-Tarbiya jarayoni yoshlarning kattalar bilan, kattalarning yoshlar bilan qonuniy munosabati natijasida amalga oshirilishini ta'minlashi demakdir.

-Tarbiya jarayonining qonun, qoida, tamoyil va metodlarini pedagogikaning tarbiya nazariyasi qismi chuqur, atroflicha o'rganadi.

Ta'limga umumiy tarzda quyidagicha ta'rif berish mumkin: Ta'lim - ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, rejali ravishda amalga

oshiriladigan o'qituvchi-o'quvchilarning o'zaro muloqot-munosabati bo'lib, o'quv fanlariga oid tushunchalarni va yetakchi g'oyalarni o'quvchilar ongiga singdirib borishga asoslanadi. Buning natijasida o'quvchida ma'lumot, tarbiya va umumiy shakllanish, rivojlanish amalga oshadi.

Ta'lim berish o'quvchilarga bilimni tartibli bayon qilish jarayonidir. Ta'lim va tarbiya uzviy bog'langan jarayon bo'lganligi sababli tarbiyalangan komil inson aqliy kamolotiga tartibli ta'sir ko'rsatish orqali ilmiy, barkamol inson bo'lib yetishadi. Ta'lim jarayoni insonlarga nimalarni berishi haqida Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida shunda y yozgan edi:

O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lur,
Bilim kimda bo'lsa, buyuklik olur.
O'quvli tirikdir, o'quvsiz-o'lik,
Kelu, ey o'quvsiz, o'quv ol o'lik.

Ta'lim inson aqliy kamolotini yuzaga chiqaruvchi pedagogika-tarbiyaShunoslikning bir qismidir. Pedagogikaning didaktika bo'limi uni atroflicha o'rganadi.

Ma'lumot - o'qitish va o'zicha mustaqil bilim olish jarayoni bo'lib, uning natijasida kishida bilim, iqtidor, malaka va ijobiy qobiliyatlarning rivojlanganligi, ilmiy dunyoqarashning shakllanganligi nazarda tutiladi. Pedagogik ma'lumot o'rta va oliy darajada bo'lib, o'rta ma'lumot maxsus akademik litsey, pedagogik kollejlarda bosqichli shaklda boriladi. Natijada o'rta ma'lumot haqidagi guvohnoma beriladi. Oliy pedagogik ma'lumotli mutaxassislar universitetlarda, pedagogika institutlarda, bakalavriat va magistratura bosqichlarida tayyorlanadi.

O'qitish — o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati va bu jarayonda bolalarning ma'lumot olishi, o'quv ko'nikma va malakasini egallashi, tarbiyalanib, rivojlanib borishi nazarda tutiladi.

Inson kamoloti — bu insonning keng ma'noda ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanish jarayonidir. Bu jarayonda tarbiyaning muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.

Insonning shakllanishi — bu insonning hayot yo'li davomida rivojlanishining o'ziga xos shakli bo'lib, maxsus olib boriladigan tarbiyaviy ta'sir natijasi hisoblanadi.

Pedagogikada yana bir qancha tushunchalar mavjudki, ular haqida

pedagogikaning boshqa boblarini o'rganish jarayonida fikr yuritiladi.

Xullas, pedagogikaning asosiy kategoriyalari tarbiya, ta'lim, ma'lumot jarayonida o'quvchilar ma'naviy axloqiy yuksaklikning ko'tariladigan, qo'lga kiritilgan ilmiy bilimlar yordamida dunyoqarashlarini shakllantiradilar, intellektual qobiliyatlari, ijodiy tafakkurlari, aqliy faolliklarini o'qitadilar, jismoniy kuchlarini rivojlantiradilar.

Pedagogika (paydagogos-grekcha «bola» va «yetaklash» ma'nosini bildiradi) insonni shakllantirishda muayyan tizim, faoliyat hamda ta'lim-tarbiyaning mazmuni, shaxsi va metodlari haqida bahs yuritadi.

Pedagogikaning an'anaviy tushunchasi-o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash va o'qitish.

XIX asrgacha pedagogika to'g'risida shunda y tushuncha mavjud edi. Hozirgi paytda pedagogika predmeti kengaydi, chunki yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Jumladan, kasb ta'limi pedagogikasi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi pedagogikasi, oliy ta'lim pedagogikasi va boshq.

Tarbiya kishilik jamiyatining paydo bo'lishi bilan vujudga keldi. U bilan birga taraqqiy etdi, jamiyatning o'zgarishi bilan o'zgarib bordi.

Ta'lim-tarbiya: o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarni tarbiya vazifalariga muvofiq bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish uchun muayyan maqsad asosida yo'lga qo'yilgan, rejali ravishda amalga oshiriladigan ish jarayonidir.

Ta'lim-maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan va Shuning bilan birga, ularning bilish qobiliyatlarini tarkib toptiradigan jarayondir.

Tarbiya-ona qornidan boshlanib, bola tug'ilib, maktabni bitirgandan keyin ham davom etadigan abadiy jarayondir. Tarbiya deganda olingan bilimlar, hayotiy tajribalar asosida kishida dunyoqarashning va xulqning tarkib topishi tushuniladi.

Ma'lumot-ta'lim-tarbiya natijasida olingan va tizimalashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarashlar majmui tushuniladi.

2.4. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.

Tayanch iboralar: *ilmiy tadqiqot usullari, pedagogik kuzatish, adabiyotlarni o'rganish metodi, kuzatish metodlari, suhbat metodi, pedagogik eksperiment, maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi, bolalar ijodini o'rganish metodi, statistika usuli, anketalar metodi.*

Pedagogika ilmining ilmiy tadqiqot usullari deganda yosh avlodni tarbiyalash bilimli qilish va o'qitishning real jarayonlarga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish yo'llari, uslublari va vositalari majmui tushuniladi. Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot usullari qanchalik to'g'ri tanlansa, ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish Shu darajada rivojlanadi. Ammo, Shuni ta'kidlamoq lozimki, ilmiy tadqiqot metodlari tizimi hali hozirgacha fanda to'la hal etilgan emas, mavjud va ishlab chiqilgan quyidagi ilmiy - tadqiqot usullariga tayanib fikr yuritish mumkin.

Pedagogikada quyidagi ilmiy tadqiqot metodlari mavjud:

1. Adabiyotlar bilan ishlash metodi.
2. Kuzatish metodi.
3. Suhbat metodi.
4. Anketalashtirish.
5. Maktab hujjatlarini o'rganish.
6. Matematik metod.
7. Tadqiqot natijalari va ularni amalda tatbiq etish va boshq.

Pedagogika fanining tarixiy taraqqiyotini o'rgatuvchi va milliy istiqloq mafkurasini shakllantiruvchi hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar bor. Pedagogik muammolarni hal qilishda turli-tuman tadqiqot metodlari mavjud. Yuqorida keltirganimizdek, metod lotincha "metodos"- yo'l so'zidan olingan bo'lib, ilmiy tadqiqot esa, Shu metodlar orqali nazariy, mafkuraviy, ilmiy, milliy va ijtimoiy hayot hodisalarini ularning qonuniyatlarini bilishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqot metodlari olimlar tomonidan turlicha asoslab berilgan:

Akademik S.Rajabov tahriri ostidagi pedagogikada kuzatish, suhbat, maktab hujjatlarini tahlil qilish, eksperimentlar metodi, statistika ma'lumotlarini tahlil va sintez qilish, anketalar, hisoblash matematikasi va kibernetika metodlari asoslab berilgan. I.F.Harlamovning "Pedagogika" o'quv qo'llanmasida pedagogik kuzatish, suhbat, tajriba eksperiment, maktab hujjatlarini o'rganish,

ilg'or tajribalarni umumlashtirish, matematik hisoblash metodlari asoslab berilgan.

S.P.Baranov va boshqalar yaratgan "Pedagogika" qo'llanmasida esa: kuzatish, savol-javob, maktab hujjatlarini o'rganish, eksperiment tajriba, modellashtirish metodlari berilgan. A.K.Munavvarov tahriri ostidagi "Pedagogika" o'quv qo'llanmasida kuzatish, suhbat, bolalar ijodini o'rganish, test-so'rovnomalar, maktab hujjatlarini tahlil qilish, matematika va kibernetika metodlari berilgan. Mavjud pedagogik darsliklarning deyarli hammasida metodlarni tavsiflab chiqishning bir xillik holati mavjud. Ilmiy tadqiqot faoliyatimizda bulardan foydalanish bizdan ijodiy yondoshishni talab qiladi. Ilmiy pedagogik tadqiqot metodlarida biror pedagogik muammoni hal qilish maqsadida tinglovchi, o'qituvchi-tarbiyachi, stajor-tadqiqotchi va ilmiy xodimlardan foydalanadilar. Ilmiy izlanishning dastlabki debochasi adabiyotlarni o'rganib, tahlil qilishdan boshlanadi.

Adabiyotlarni o'rganish metodi - Pedagogik adabiyotlarni o'rganish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruvchi, mutafakkir va ma'rifatparvar pedagog olimlarning asarlari, mustaqil O'zbekistonning iqtisodiyotiga, mafkurasiga va ma'naviyatga doir adabiyotlar, O'zbekistonning Birinchi yurtboshchisi I.A.Karimov asarlarida tadqiqot mavzusiga doir darsliklar, monografiyalar, risolalar va maqolalar, tadqiqot mavzusiga doir pedagogik, psixologik tadqiqotlar, dissertatsiyalar o'rganiladi, umumlashtiriladi, xulosa chiqariladi.

Kuzatish metodlari-Kuzatish adabiyotlarni o'rganishdan keyin boshlanadi. Kuzatishni tadqiqotchi biror maqsadni ko'zda tutib tashkil etadi. Kuzatish rejalashtiriladi, uning dasturi tuziladi. Bunda kuzatish tezligi, soni, manzili, vaqti, vaziyatni kuzatish, materiallarni qayd qilish muddati belgilanadi. Kuzatish muddatiga ko'ra ikki turga ajraladi: qisqa va uzoq muddatli kuzatish - qisqa kuzatish ob'ektning kundalik faoliyatdagi o'zgarishlaridan ma'lum xulosaga kelish. Uzoq muddatli kuzatish-qo'yilgan maqsad, reja va dastur asosida olib borilib, ma'lum ilmiy, yakuniy xulosaga kelinadi. Kuzatishni yakuniy qayd qilishda kinos'yomka, video yozuvi, televideniya va boshqa texnik vositalardan foydalanish mumkin. Kuzatish metodidan to'g'ri foydalanish o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Yangi ijodiy faoliyatga boshlaydi.

Suhbat metodi - Tadqiqot mavzusining biror tomoni, yoki hodisalari haqida bilib olish maqsadida mas'ul shaxslar bilan og'zaki savollar berilib, ulardan axborot olish jarayonidir. So'roqlar mavzu doirasida mantiqan mazmunli, tartibli, aniq ifodaga ega bo'lishi lozim va uni to'g'ri yoki noto'g'rililigiga qarab jadval tuzib natijasi aniqlanadi. Suhbat metodi jarayonida intervyu olish ham mumkin. O'rinni, mantiqan yuksak javoblar, yoki noaniq javoblar magnit lentalariga yozib boriladi va tahlil etiladi.

Pedagogik eksperiment - Har qanday pedagogik tadqiqotning asosidir. Pedagogik eksperiment yordamida ilmiy farazlarning ishonchliligi tekshiriladi, pedagogik jarayonlarning ayrim elementlari o'rtasidagi bog'liqlik va munosabatlari aniqlanadi. Pedagogik eksperiment ikki turga bo'linadi: qayd qiluvchi va shakllantiruvchi. Qayd qiluvchi eksperiment orqali ta'lim, yoki tarbiya jarayonidagi mavjud muammolar aniqlanadi. Shakllantiruvchi eksperimentda esa, zaruriy ma'lumotlar o'quvchilarda shakllantiriladi. Pedagogik jarayonni aniqroq o'rganish maqsadida eksperimentator o'zi tashkil etgan jarayonni kuzatadi. U pedagogik jarayonga aralashadi, tarbiyalanuvchilar bilan tarbiyachi faoliyatining muayyan sharoitlarini yaratadi. Pedagogik eksperiment dastlabki ma'lumotlarni, aniq sharoitlarni va o'qitish usullarini yoki tadqiq qilinadigan materiallarni aniq belgilashni, Shuningdek, eksperiment natijalarini har tomonlama hisobga olishni talab etadi. Quyidagilar pedagogik eksperimentning bosqichlari hisoblanadi: eksperiment o'tkazish va natijalarni sharhlash. Rejalashtirish, eksperiment maqsadi va vazifasini belgilash, eksperiment natijasiga ta'sir etuvchi omillar va ular darajasining miqdorini aniqlash, kerakli kuzatishlar soni, eksperiment o'tkazish tartibi, olingan natijalarni tekshirish metodlarini o'z ichiga oladi. Eksperimentni tashkil etish va o'tkazish belgilangan rejaga qat'iy amal qilgan holda olib borilish kerak. Sharhlash bosqichida ma'lumotlar yig'iladi va qayta ishlanadi. Eksperiment o'tkazish ishonchlilik tamoyiliga javob berishi uchun quyidagi shartlarga rioya qilishi kerak, ya'ni:

1. Tekshiruvchilar soni va tajribalar miqdorining aniq bo'lishi.
 2. Tadqiqot metodlarini ishonchliligi.
 3. Farqlarning statistik jihatdan ahamiyatliligini hisobga olish.
- Turli metodlarning o'zaro qo'shib olib borilishi pedagogik tadqiqotlarning samaradorligini va sifatini oshirishga imkon beradi.

Bunga matematik metodlarning hamda hisoblash-yechish qurilmalari yordamidagi eksperiment natijalarining pedagogikaga kirib kelishi ham yordamlashadi. Odatda, o'rtacha arifmetik miqdor, modda, meridian, dispersiya, tanlab olinadigan to'plam majmuining o'rtacha kvadratik chetga chiqishi, o'rtacha olingan qiymat xatosi, belgilarni tuzatish koeffitsientlari hisoblab chiqiladi. Ilmiy tadqiqot natijalari amalda qo'llaniladi. Tugallangan tadqiqotda eng muhim narsa uning natijalari amalda qo'llanilishidir. Mustaqil O'zbekiston sharoitida yangi ilmiy bilimlar juda tez to'planib bormoqda. Biroq, ularni amaliy ishga joriy etish yo'lida qiyinchiliklar ham borligi ko'zga tashlanmoqda.

Bu qiyinchiliklar o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish haqidagi bilimlarining ortib borishi bilan ulardan foydalanishning faol imkoniyatlari o'rtasidagi nomuvofiqlikdan iboratdir. Shunday bo'lsa-da, bu ularni joriy etish yuzasidan maqsadga muvofiq ishlar olib borishni istisno etmaydi. Joriy etish jarayoni pedagogik tajribani takomillashtirishga qaratilgan faoliyat deb qaraladi. Shu sababli joriy qilinishi lozim bo'lgan tavsiyalarga yuqori talablar qo'yiladi. Talablarning ilmiy asoslanganlik darajasi, ular mazmunining aniqligi pedagoglar bilan o'quvchilarning mo'ljallangan kuch-g'ayrati mezonini to'g'ri baholashni nazarda tutadi. Joriy etish butun bir tadbirlar kompleksi bo'lib, u olingan xulosalar haqida pedagogik jamoatchilikni xabardor qilishni, yangi o'quv va metodik qo'llanmalar yaratishni, metodik yo'l -yo'riq va metodik tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi - Pedagogik hodisalar va faktlarni tekshirishda maktab hujjatlarini mukammal va chuqur o'rganmoq lozim. Maktab hujjatlarini tashkil qilishda ta'lim qonuniga amal qilinmog'i kerak. Maktab hujjatlarini tahlil qilishda o'quvchilarning ijodiy faolligi va mustaqilligini uning iqtidorini hamda ilg'or pedagogik tajribalarning umumlashtirilishi va joriy etilishini ko'rsatgan taqdirdagina to'liq qiymatga ega bo'ladi.

Shuningdek, o'quvchilarning umumiy miqdori, uning o'sishi, yoki kamayishi sabablari tavsifi, o'quvchilarning fanlar bo'yicha o'zlashtirish darajasiga, sinfdan qolishining oldini olish, rag'batlantirish va jazolash choralari turlariga, maktabning moddiy bazasiga e'tibor beriladi.

Bolalar ijodini o'rganish metodi - Maktab o'quvchilari ijodini hamda ularning turli-tuman ishlarini o'rganish va tahlil qilish pedagogik tadqiqotning samarali metodlaridan biridir. Iqtidorli o'quvchilar aqliy qobiliyatlari, olijanob axloqiy qiyofalari, estetik didlari, sinchkovliklari va qiziquvchanliklari bilan ajralib turadi. Pedagogika fani bolalar ijodining manbalari va omillarini chuqur bilishga hamda ularni yanadi taraqqiy ettirish va takomillashtirishning to'g'ri yo'llarini ko'rsatib berishga qaratilgan.

Statistik ma'lumotlarni analiz va sintez qilish metodi- Pedagogik tadqiqot kerakli statistika ma'lumotlarini ma'lum bir maqsad bilan tizimli o'rganish, mustaqil O'zbekistonda fan madaniyat, ta'lim-tarbiyani taraqqiy etishiga salmoqli hissa qo'shadi.

Xalq ta'limi sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag'larning doimiy o'sib borishi, darslik va o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurollar, o'qituvchi kadrlar tayyorlash, maktab qurilishi, ho'jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablaol'ar **statistika usuli** orqali aniqlanadi.

Anketalar metodi - O'quvchilardan so'rash usuli bo'lib, u o'quvchilar jamoasining bilimlari to'o'risidagi kerakli ma'lumotlarni olish uchun, ularning fikrlari va qarashlarini aniqlash uchun hamda kasbga yo'llashni belgilash uchun maxsus shaklda ishlangan bo'lmog'i lozim. Anketada ko'zlangan maqsadga muvofiq savollar bo'lib, ularning javoblaridan pedagogik natijalar kelib chiqishi ko'zda tutiladi.

Yozma javoblarni ommaviy ravishda yig'ib olish metodi anketa metodi deb ataladi. Anketalar ishlab chiqarish murakkab ilmiy jarayon. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga, berilgan savollar shakliga, to'ldirilgan anketalar soniga bog'liq bo'ladi. Odatda, anketalar anketa ma'lumotlarni EHMda qo'llab, matematik-statistik metodlari bilan ishlashga imkon beradigan qilib tuziladi.

Hisoblash matematikasi va kibernetika metodlari - Hozirgi zamon ishlab chiqarishi, fani va texnikasining talab hamda manfaatlari turmushda sinalgan texnika vositalarini, hisoblash matematikasi va kibernetika usullarini maktab ishida va pedagogikada qo'llanilishini talab qiladi. Pedagogik kibernetika shakli bilim berish jarayonini o'qitish, bilim berish jarayonini boshqarishning alohida formasi sifatida o'ziga xos xususiyatga ega. Shuning uchun pedagogik jarayon

bilan ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish o'rtasida katta farq bor.

Pedagogik tadqiqotlarda kino, ovoz texnikasi, foto, televideniya singari texnika vositalaridan keng foydalaniladi. Ular o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Bolalar uchun qo'shimcha rag'batlantirish omillarini hosil qiladi. Bular o'qituvchilar mehnatini ma'lum maqsadda yengillashtiradi. Ko'rsatilgan vositalarning har biri bolalarning yoshini hisobga olgan holda o'quv fani va pedagogik jarayonni mukammallashtiradi.

Pedagogika fani bo'yicha ilmiy tadqiqot metodlari barcha fanlar kabi pedagogika fanining ham takomillashib borishiga, ayrim pedagogik hodisalarni tekshirishga, ularni to'g'ri hal etish yo'llarini aniqlashga yordam beradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Pedagogika nima bilan shug'ullanadi, nimalarni tadqiq qiladi?
2. Pedagogika fanining ob'ekti, predmeti va funksiyalarini izohlang.
3. Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga nimalar kiradi?
4. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlarini tahlil qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T., "O'zbekiston", 1996.
2. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T., "O'zbekiston", 1996.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., "O'zbekiston", 1997.
4. Abdullaev Yu. Jahon oliy maktabi: qiyosiy tahlil. T., G'. G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti, 2001.
5. Mavlonova R., To'raeva O., Xoliqberdiev K. Pedagogika. T.: «O'qituvchi», 2001.
6. Munavvarov A.Q. Pedagogika. T., «O'qituvchi», 1996.
7. Pedagogika: uchebnik / G.M. Kodjaspirova. - M.: KNORUS, 2010.-744 s.

Internet saytlari:

8. www.ziyonet.uz
9. www.tdpu.uz
10. www.pedagog.uz

III. DIDAKTIKA-TA'LIM NAZARIYASI SIFATIDA.

3.1. Ta'lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida.

Tayanch iboralar: pedagogikaning mustaqil tarmog'i, ta'lim jarayoni, umumiy didaktika, xususiy didaktika, fanlar bog'liqligi.

Didaktika-pedagogikaning mustaqil tarmog'i. Ta'lim-tarbiya nazariyasi, ya'ni maqsadlari, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillarini ishlab chiqish bilan Shug'ullanadi.

Didaktika pedagogikada ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi qismidir.

Didaktika grekcha so'z bo'lib, "**didasko**"-o'qitish, "**didaskol**"-o'rgatuvchi degan so'zlardan kelib chiqqan.

"Didaktika"ning so'zma-so'z tarjimai ta'lim nazariyasini anglatadi.

Bu atamani nemis pedagogi V. Ratke (1571-1635) fanga kiritgan. Didaktika nomi ostida nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qiladigan ilmiy fan tushuniladi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor Ya. A. Komenskiy (1592 - 1670) tomonidan ishlab chiqilgan. U 1657 yilda cheh tilida «Buyuk didaktika» asarini yozdi. Didaktika nomi ostida Ya. A. Komenskiy "Hammani hamma narsaga o'rgatish san'ati", deb tushundi. Didaktikaning mohiyatini ishlab chiqishda G. Pestalotstsi, I. Gerbart, K.D. Ushinskiy, V. Ostrogorskiy, P. Kapterev kabi mashhur olimlar katta hissa qo'shishdi. Bu yo'nalishda didaktlar Yu.K. Babanskiy, N.Gruzdev, M. Danilov, B. Esipov, L. Zankov, M. Skatkin kabilar ham ancha ishlarni amalga oshirishdi.

Didaktika pedagogikaning "Nima uchun o'qitish kerak", "Nimani o'qitish kerak", "Qanday o'qitish kerak", "Qanday hajmda o'qitish kerak", "Kimnlarni o'qitish kerak", "Qayerda o'qitish kerak", "Nimadan foydalanib o'qitish kerak" kabi savollariga javob izlaydi.

Umumiy didaktika o'z navbatida ayrim fanlarga oid usullar bilan juda mustahkam bog'langan bo'lib, ularga oid ma'lumotlariga tayanib o'qitishning umumiy qonuniyatlarini ochib beradi va ayni vaqtda har bir o'quv fanini o'qitish usullari uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Didaktika o'z oldiga o'qitishning o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash maqsadlariga javob beruvchi umumiy qonuniyatlarni bilib olish vazifasini qo'yadi.

Didaktikada ta'limni tashkil etishning umumiy masalalari, o'qitish jarayonining mohiyati, ta'limning mazmuni, o'qitish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari, uning tashkiliy shakllari yoritiladi.

O'qitish jarayoni pedagogning o'rgatuvchilik faoliyatini va ta'lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o'z ichiga oladi. Shu o'rinda bu jarayonlarning tahliliga e'tibor qarataylik. Ta'limda o'qituvchining boshqaruvchilik roli o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib ko'yadi.

Didaktika va metodika mustahkam aloqa hamda o'zaro bog'liqlikda joylashadi. Didaktika o'qitishning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Aniq bir predmetni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari xususiy metodikalarda ishlab chiqiladi.

Xususiy didaktika-muayyan o'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlari, usullari, vositalari, shakllari va yo'llarini o'rgatuvchi metodika (tadris) fanlari ham pedagogika fanlari turkumining asosiy sohalaridan biri bo'lib hisoblanadi. U umumiy didaktika yutuqlari asosida rivojlanadi va uning nazariy umumlashmalariga asoslangan holdagina takomillashib boradi. Muayyan bir fanga tadbiq etilgan didaktik qonuniyatlar, o'sha predmetning umumiy jihatlarini qonunlashtiradi va ularda o'qitishning universal jihatlarini namoyon bo'ladi.

Didaktikaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Ta'lim jarayoni jamiyat rivojlanishining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlari, odamlar faoliyati va hayotiy ehtiyojlari, zamonaviy fan-texnika taraqqiyotining yutuqlariga hamma ta'lim oluvchilarning Shaxsiy sifatlariga qo'yilgan katta talablarga asoslanadi.

Didaktika sohasidagi natijalar uning oldiga yangi-yangi masalalarni ko'ndalang qo'yadi. Bu muammolarni hal qilish boshqa fan yutuqlaridan maksimal darajada samarali foydalanishni talab etadi.

Falsafa va sotsiologiya jamiyat va atrof-muhit rivojining umumiy qonuniyatlari haqidagi fanlar sifatida odamlarning hayoti va faoliyatining ijtimoiy va boshqa o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishda didaktikaga yordam beradi.

SiyosatShunoslik ta'limdagi siyosiy hodisalar va jarayonlar bilan bog'liq didaktik masalalarni ochish uchun xizmat qiladi.

Etnologiya didaktikaga odamlarning milliy o'ziga xosliklarini to'g'ri hisobga olishda yordam beradi, qaysiki ta'limda milliy tajribalar o'ziga xos xususiyatga ega.

Pedagogik psixologiya ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonining psixologik qonuniyatlari va tamoyillarini hisobga olishga imkoniyat beradi.

Odam fiziologiyasi ta'lim jarayonida odam tana tuzilishi va nerv tizimining ishlash qonuniyatlarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning roli, ahamiyati va o'ziga xos vazifalarni ko'rsatishga yordam beradi.

Xususiy metodika alohida predmetlarni o'qitishda ta'limning turli shakl va vositalarini qo'llanishining o'ziga xosliklarini aniq hisobga olishda didaktikaga yordam beradi.

3.2.Didaktikaning ob`ekti, predmeti va funksiyalari.

Tayanch iboralar: *tajribani o'rgatish muammolari, didaktikaning tadqiqot predmeti, o'qitish* va *o'qish*.

Didaktika ijtimoiy tajribani yoshlarga o'rgatish muammolarini tadqiq qiluvchi pedagogik fandir. Ijtimoiy tajriba mazmunan boy tajriba bo'lib, u tabiat, jamiyat va inson tafakkuri haqidagi bilimlarni ham, hozirgi zamon ishlab chiqarishining umumiy asoslari to'g'risidagi qarashlarni ham, moddiy va ma'naviy olamga oid tasavvurlarni ham o'ziga qamrab oladi. Uni yoshlarga o'rgatish avlodlar o'rtasidagi vorisiylikni ta'minlaydi.

Xo'p, Shunday ekan, didaktikaning tadqiqot predmeti - munozara bahsi nima?

Manbalarda didaktikaning munozara bahsi turlicha talqin qilinadi. Sh.I.Ganelin, B.P.Yesipov "ta'lim" va "ma'lumot" tushunchalari o'rtasidagi munosabatga asoslanib, didaktikaning tadqiqot predmetini bayon qilishgan: ularning fikricha, ta'limning ma'lumotga munosabati vositaning maqsadga munosabati shaklida amal qiladi: har qanday yaxlit didaktik nazariya ta'lim va ma'lumot nazariyasidir. "Didaktikaning tadqiqot predmeti - deb qayd etishgan edi bu olimlar, har doim yosh avlodning ma'lumoti mazmuni va shu mazmunni egallash jarayonini tashkil etishdir".

Haqiqatdan ham, didaktika yoshlarni ma'lumotli fuqarolar qilib yetishtirish, ularning bilim va malakalarni egallash jarayonini tashkil etish masalalari bilan shug'ullanadi. Ammo, bu ma'lumot va uni

egallash jarayoni didaktikaning tadqiqot predmetidir, degan xulosaga olib kelmasligi kerak.

Yuqoridagi ta'rifda didaktikaning tadqiqot predmeti ikki narsa-ma'lumot mazmuni va ta'lim sifatida belgilanadi. Har qanday fan, jumladan, didaktika ham, yagona tadqiqot predmetiga ega. Keltirilgan ta'rifda didaktika o'rganadigan soha-tadqiqot obekti bilan didaktikaning munozara bahsi tadqiqot predmetini chegaralamaslik natijasida chalkashlikka yo'l qo'yilgan.

“Didaktika” termini ma'nosidan kelib chiqib, didaktikaning tadqiqot predmetini aniqlash moyilligi ham bor. T.A.II'ina “Didaktika”-grekcha “didaktikos” so'zidan olingan bo'lib, “o'qitish” ma'nosini anglatadi degan fikrni keltiradi-da, “didaktikaning predmeti - ta'lim jarayoni va uning qonuniyatlaridir”, -deb yozadi.

To'g'ri, qadimgi greklar o'qitish faoliyatiga nisbatan “didasko”, o'qituvchi o'rnida “didaskal”, o'quvchiga nisbatan “didaskales” atamalarini ishlatishgan. Ammo, “Didaktika” termini o'zining dastlabki ma'nosidan ancha uzoqlashgan. Hozirgi bu tushunchaning hajmi va mazmuni ancha boyigan va kengaygan bo'lib, u faqat o'qituvchining faoliyatigina emas, Shu bilan birga o'quvchining faoliyatini ham o'ziga qamrab oladi. Bu tushunchaning mazmun va hajm jihatidan boyiganligini hisobga oladigan bo'lsak, u paytda didaktikaning munozara bahsi noaniq qayd etilganini aytib o'tishga to'g'ri keladi.

Taniqli Polyak didakti Ch.Kupisevich “O'qitish” va “o'qish” atamalarining daxldorligiga asoslanib didaktikaning tadqiqot predmetini belgilaydi. Uning yozishicha, didaktikaning tadqiqot predmeti o'qitish va o'qish jarayonlari bilan birga ularni (o'qitish va o'qish jarayonlarini) yuzaga keltirish faktorlari shart-sharoitlari va bu jarayon olib keladigan natijalardir. Ch.Kupisevich didaktikaning tadqiqot predmetini juda keng tasvirlagan. Didaktikaning tadqiqot predmeti sifatida ajratilgan didaktik hodisa genetik jihatdan birlamchi, yagona universal va umumiy xarakterda bo'lishini ham unutmash kerak.

Ayrim mutaxassislar didaktikaning tadqiqot predmetini “ta'lim” tushunchasiga asoslanib aniqlashadi. V.V.Kraevskiy ta'limning ma'lumotga yo'nalgan faoliyat ekanligi, ilmiy asoslangan loyihaga (masalan, o'quv dasturi asosida) ko'ra amalga oshirilishi, o'ziga xos mazmun va jarayoniy xususiyatlarga egaligi, kollektiv sub'ektlar

tomonidan bajarilishi kabi qator harakterli alomatlariga asoslanib, “didaktikaning tadqiqot predmeti o`qitish va o`qishning birligi, ularning o`zaro ta`siridagi aloqadorlikdir”, - deb qayd etadi.

Fikrimizcha, didaktikaning tadqiqot predmetini aniqlashga V.V.Kraevskiy to`g`ri yondashgan. Lekin bu erda bir qator savollar tug`iladi: didaktikaning tadqiqot predmetini o`qitish va o`qishning birligimi? O`qitish va o`qishning o`zaro ta`sirdagi aloqadorligimi? bu savolarga e`tibor beradigan bo`lsak, V.V.Kraevskiy bergan didaktik aniqlikda qaytariq–tavtologiya borligini ta`kidlashga to`g`ri keladi.

3.3.Didaktikaning asosiy kategoriyalari.

Tayanch iboralar: didaktikaning vazifasi, ta`lim jarayoni, ta`lim tamoyillari, ta`lim metodlari, ta`lim shakllari, ta`lim vositalari, bilim, ko`nikma, malaka, o`qitish, o`qish, o`qish jarayonining asosiy g`oyalari, didaktik qobiliyat.

Didaktikaning **asosiy vazifasi** yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko`nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat.

Bularning barchasi o`qituvchining **ta`limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi** vazifalarini amalga oshirishida o`z aksini topmog`i lozim. Ana Shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta`lim jarayonida o`qituvchi o`z ta`lim oluvchilariga qo`lga kiritilgan bilimlarni o`rgatadi. O`quv faoliyatida ularni ko`nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u ta`lim oluvchilarda dunyoqarash va axloq me`yorlarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O`qituvchining faoliyati ta`lim oluvchi Shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada aniq qilib aytsak, butun o`quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda ta`lim oluvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi. Ta`lim oluvchilarga qiyinchiliklarni engib o`tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta`lim jarayonini tashhis qiladi. O`z navbatida ta`lim oluvchilarning faoliyati o`quv jarayonida o`rganishga, bilim, ko`nikma hamda malakalarni egallashga, o`zini jamiyatga foydali faoliyatga tayyorlashga yo`naltiradi. Ta`lim jarayonida ta`lim oluvchilarning faoliyati ko`p qirrali yo`nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Didaktikaning asosiy tushunchalariga ta`lim, ta`lim jarayoni, ta`lim tamoyillari, ta`lim metodlari, ta`lim shakllari, ta`lim vositalari, bilim,

ko'nikma, malaka, o'qitish, o'qish va Shu kabilar kiradi.

Ta'lim- ta'lim oluvchiga maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish jarayoni bo'lib, kishining Shaxs sifatida hayotga va mehnatga ongli ravishda tayyorlash vositasi.

Ta'lim deganda shaxsning jismoniy va ma'naviy kamol topishi, uning ongli ravishda ayrim ibratli faoliyatlari yo'nalishlari tarihan maydonga kelishi, ijtimoiy namuna bo'lishga va har tomonlama barkamollikka intilish jarayoni tushuniladi.

Ta'limning boshlang'ich (dastlabki) **vazifasi** ta'lim oluvchini o'qitishdan iborat. Shuning bilan birga oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarga ma'lumot berish vazifasini bajaradi.

Ta'lim berish-ta'lim oluvchining intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik faoliyati bo'lib, insonning aqliy faoliyatini rivojlantirish jarayonidir. Ta'lim berish ta'lim oluvchilarning o'qish-o'qitish jarayonining mazmun-mohiyatini ongli ravishda anglab etishlari orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim dasturi-o'quv fanlarining bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq kadrlarning zaruriy va etarli darajadagi tayyorgarligini ta'minlovchi bloklarga jamlangan ro'yxati.

Ta'lim maqsadi-har bir pedagogik texnologiyani yaratishga asos bo'lib hisoblanadi. Maqsadning zamonaviy ta'lim va tarbiya muammolarini yuqori samaradorlik bilan hal qilishga qaratilgan bo'lishi zarur asos hisoblanadi. Biror pedagogik texnologiyani yaratish uchun eng zarur shart Shunday dolzarb maqsadni aniqlay olishdan iborat. Bunday maqsad zarur tadqiqotlar, ijodiy izlanishlar olib borish, o'zining va boshqa mutaxassislarning ish tajribalarini chuqur tahlil qilish orqali aniqlanadi.

Raqobatbardoshlik har bir pedagogik texnologiyaning maqsadga muvofiqligini bozor iqtisodiyoti nuqtai-nazaridan aytganda, o'z vazifalarini ijtimoiy ehtiyojlariga muvofiq bajarayotganligi darajasini belgilaydi. Bunday maqsadlarning yuqori raqobatbardoshlikni ta'minlashga yo'naltirilishi hozirgi talablardan kelib chiqadi.

Raqobatbardoshlik pedagogik texnologiyaning barcha tarkibiy qismlari uchun eng zarur shart bo'lib, bunda yakuniy natijani bevosita tayyorlovchilar bo'lgan o'qituvchi va o'quvchining raqobatbardoshligiga erishish asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Bu unga bo'lgan talab yuqori bo'lishini ta'minlash uchun muntazam takomillashtirib borish zaruriyatini

keltirib chiqaradi.

Ta'lim mazmuni-insonni o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi va xarakteri.

Ta'lim mazmuni belgilangan maqsadga muvofiq yo'nalish va hajmga ega bo'ladi. U tegishli me'yoriy hujjatlar: ta'lim standartlari, o'quv reja, dasturlar shaklida rasmiylashtirilib, o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadi. Ta'lim mazmuni to'g'ri belgilanishi hamda unga zarur o'zgartirishlar kiritish, yangilanib borish imkoniyatlari nazarda tutilishi lozim. Belgilangan mazmun asosida o'quv fanlari, o'quv soatlari, mashg'ulot turlari va Shu kabilar aniqlanadi.

Ta'lim menejmenti va marketingi - bu pedagogik texnologiyaning zamonaviy ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa talablarga muvofiqligini aniqlagan holda uni loyihalash, ishlab chiqarish, amaliyotga tadbiq qilish masalalarini hal qiluvchi soha.

Ta'lim menejmenti va marketingida tegishli dolzarb yo'nalishlar aniqlanib, mutaxassislar tayyorlash uchun takliflar tayyorlaydi, tegishli tartibda biznes-rejalari tuzish va ularni amalga oshirish bilan Shug'ullanadi. Bunday muammolar yechimlarini topishning optimal variantini topish uchun ta'lim menejmenti va marketingi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega hamda tajribali mutaxassislar jalb etiladi.

Ta'lim metodi-bu ta'lim jarayonida o'qituvchi va tinglovchilarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatidir.

Ta'lim metodi o'qituvchi bilan tinglovchilarning o'qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo'lidir.

Ta'lim metodlari o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quv materiallarini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'llarini anglatadi.

Ta'lim metodlari o'quv materialini bayon qilishga va uni ta'lim oluvchilar yaxshi bilim olishga qaratilgan faoliyatning yo'li, usulidir. Ta'lim jarayoni va natijalari o'qituvchini ta'lim oluvchilar bilish faoliyati harakatini belgilovchi ish usullariga bog'liqdir. Shu sababli doimo pedagogikada ta'lim metodlariga o'qituvchining ish usullari va ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati usullari deb qaraladiki, bu usullarning har ikkalasi o'quv vazifalarini bajarishga qaratilgandir.

Ta'lim monitoringi-pedagogik tizim faoliyati haqida axborotlar yig'ishni tashkil etish, saqlash, qayta ishlash va ularni sinflarga ajratish tizimidan iborat bo'lib, kuzatilayotgan ob'ekt holatini va kelgusida uning rivojlanishi dinamikasini oldindan bashorat qilish jarayoni.

Ta'lim monitoringi ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini nazorat qilish uchun ma'lumotlar yig'ish texnologiyasi, ta'lim natijalari darajasini taqqoslash uchun kerak bo'ladigan ma'lumotlar majmuasini tayyorlashdani amalga oshirishga imkon yaratadi.

Ta'lim monitoringi pedagogik tizim faoliyatidan olingan daliliy xulosaviy natijalarni uning maqsadiga nechog'lik mosligini ko'rsatuvchi, tezkor aloqani ta'minlovchi mustaqil boshqaruvchi vazifalarini amalga oshirishning didaktik asosi hamdir.

Ta'lim monitoringi tadqiqot natijalarini muntazam ilmiy asoslangan holda kuzatish (dinamik jarayonni kuzatish uchun) hamda ularni berilgan etolon bilan qiyoslash jarayonida muntazam ravishda rivojlanib boradi.

Ta'lim sifati-bu ta'lim jarayonining turli qatnashchilarini o'quv muassasasi tomonidan ko'rsatilgan ta'lim xizmatlaridan qoniqish darajasi, yoki ta'limda qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishganlik darajasi.

Sifat kategoriyasi insonning ob'ektiv reallikni bilishdagi ma'lum bosqichini ifodalaydi. Bilish jarayonining dastlabki bosqichida ob'ekt sub'ekt oldida o'zining ayrim yoki bir necha xossasi bilan namoyon bo'ladi. Bevosita hissiy idrokda sifat ko'plab xossalarning majmui tarzida ko'rinish beradi.

Talab etilgan darajadagi ta'lim sifatiga ma'lum ijtimoiy-pedagogik tizim orqali erishish mumkin. Bu tizim quyidagi qism tizimlardan tashkil topadi: DTS; bo'lajak mutaxassislarning me'yoriy modeli; ta'lim sifatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari hamda monitoringi.

Maxsus ma'noda "Ta'lim oluvchi ↔ ta'lim beruvchi" darajasida ta'lim sifati-bu muntazam ravishdagi o'lchamlar asosida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning o'zaro munosabatini, ta'lim oluvchilar faoliyati, ta'lim natijalarining ta'lim tarbiyasiga mosligini belgilovchi darajadir.

Umumiy ma'noda "Ta'lim oluvchi ↔ ta'lim muassasi" darajasida ta'lim sifati-bu tizimli va kvalimetrik ko'rinishlarda muntazam o'lchamlar asosida aniqlanadigan ta'lim-tarbiya natijalarini moslik darajasidir.

Ta'lim standarti- bu standart tekshirish usullariga muvofiq keladigan va o'qitish sifatining standart ko'rsatkichlari bilan ifodalangan mazkur ta'lim turida ta'lim oluvchini o'qitish va tarbiyalashda qo'yiladigan talablar ko'rsatkichlarining mazmuni.

Ta'lim tamoyillari- bu o'qituvchining faoliyatini va ta'lim oluvchining bilish faoliyati xususiyatini belgilovchi asosdir. Ta'lim tamoyillari ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining muhim ichki tomonlarini aks ettiradi hamda turli shaklda, turli mazmunda va har xil

yo'sinda tashkil etiladigan ta'limning samaradorligini belgilaydi. Shuning uchun ta'lim tamoyillari ta'lim berishning ma'lum ob'ektiv qonuniyatlarini o'zida aks ettiradi.

Didaktik tamoyillar- bu ta'lim jarayoni qonuniyatlari, mazmuni va metodlarini belgilab beruvchi o'qitish tamoyillaridir. Shuning uchun ham o'qituvchining pedagogik mahorati va ta'lim oluvchining o'rganuvchanlik faoliyatini bir qolipga solib, belgilangan maqsadga erishishni ta'minlaydigan qoidalar majmuasi ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik tamoyillar mohiyatini tashkil etadi.

Didaktik tamoyillar nazariy va amaliy ta'limida maqsad, mazmun, metodlar, tashkil etish shakllari, o'qitish vositalari va usullari; mehnat va tarbiyaviy faoliyat; ta'limning turli bosqichlari hamda pedagogik va mehnat jarayonlari; ta'lim oluvchilarning jamoaviy rivojlanishi va har birining alohida rivojlanishi o'rtasidagi aloqadorliklarni aks ettiradi.

Ta'lim vositalari - o'quv jarayonining tashkil etilishi va o'tib borishini ta'minlaydigan xilma-xil o'quv jihozlari, o'quv qo'llanmalari va boshqalar.

Bilim - bu o'quvchilar ongida muayyan tartibda mustahkamlangan, ularning Shaxsiy mulkini tashkil etadigan va bundan ular zaruratga ko'ra foydalana oladigan faktlar, ma'lumotlar, ilmiy nazariyalar, qonunlar, tushunchalardir.

Bilim- borliqni bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi. Ob'ektiv reallikning inson ongida adekvat aks ettirilishi (tasavvur, tushuncha, mulohaza, nazariyalar). U kundalik, ilmiy, empirik, nazariy bilimlarga ajraladi.

Kundalik bilim sog'lom fikrga va kundalik amaliy faoliyat shakllariga asoslanadi va insonning atrof-muhitga moslashuvchi, uning hatti-harakatlari va oldindan ko'ra bilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Uning **vazifasi** ta'lim-tarbiya jarayonini nazorat qilishga ko'maklashish.

Ta'lim-tarbiyani uyushtirishda nazariy, empirik va ilmiy bilimlar roli va o'rni beqiyos. **Ilmiy bilim** ta'lim-tarbiyani takomillashtirish muammolari yechimlarini topishda qo'l keladi va u tizimli, asosli narsa-hodisalar mohiyatiga chuqur kirib boradigan bo'ladi. U empirik va nazariy darajada bo'ladi. Bilimdan empirik va nazariy bilimlarni shakllantirishda foydalaniladi.

Nazariy bilim-empirik holatlarni tushuntirish, ya'ni narsa va hodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonuniyatlarni

ochishni nazarda tutadi.

Bilim bilishni amalga oshiruvchi asosiy omil bo'lib, dunyoni bilishning negizini tashkil etadi va u tufayli ilm, fan, texnika-texnologiyalar rivojlanishi ta'minlanadi. Demak, bilimni ob'ektiv mavjudod haqidagi yoki muayyan sohaga oid ma'lumotlar majmui, deb ham ifodalash mumkin.

Bilimlar- bu odamlarning ijtimoiy-siyosiy amaliyot jarayonida to'plangan umumlashgan tajribasidir.

Ilmiy bilimlar, ob'ektiv olamni ancha to'g'ri (batafsil) ifodalaydi. Ular doimiy emas, ular o'zgarib, rivojlanib, takomillashib boradi va natijada doimiy iste'moldagi bilimga aylanadi, ya'ni ular tadrijiy (evolyutsion) tarzda rivojlanib turadi. Bilimlar asosida tinglovchilarning kuzatuvchanlik, sinchkovlik, tafakkur, xotira singari bilish qobiliyatlari rivojlanadi, ularda e'tiqod hosil bo'ladi, ilmiy dunyoqarashni shakllantiruvchi g'oyalar tizimi tarkib topadi.

Bilimlar banki-bu ma'lumotlar majmualarini bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi o'quv rejasidagi fanlar bloklari bo'yicha tizimlarga ajratib, ular asosida shakllantirilgan bilimlar majmui. Shuningdek, **bilimlar banki**- bu izlanuvchilar tomonidan bir necha yo'nalishlar bo'yicha kompyuter xotirasiga kiritilgan nazariy va amaliy ma'lumotlar to'plami hamdir.

Bilimlar bazasi-muayyan bir soha (yo'nalish, fan, bob, bo'lim, mavzu, tushuncha va Shu kabilar) bo'yicha to'plangan bilimlar va ularning kompyuter xotirasida mujassamlashtirilishi va qayta ishlangan axborotlarni saqlashga mo'ljallangan bilimlar majmui.

Ko'nikma - bu o'zlashtirib olingan bilimlar asosida amalga oshiriladigan va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq harakatlarga tayyorlikda ifodalangan ongli faoliyat.

"Ko'nikma- bu malakaning tarkibiy qismi bo'lib, harakatning ayrim qisimlarini nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda o'z-o'zidan bajarilish qobiliyatini ifodalaydi va u tinglovchilarda ko'p marta takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga keladi".

Ko'nikma- ongli faoliyat (harakat) ni tez, tejamli, to'g'ri, kam jismoniy va aqliy kuch sarflangan holda bajarish jarayoni natijasi. U Shaxsning bilimlari asosida tarkib topadi. Dastlabki shakllanish bosqichlarida bunday harakatlar jiddiy diqqat bilan bajariladi, keyingi bosqichda diqqat bilan nazorat qilish kamayib boradi va natijada avtomatlashgan harakatga aylanadi.

Ko'nikmalar muntazam mashq qilish (takrorlash) orqali zarur darajada saqlanadi. Ana shu sababli uning ta'lim-tarbiyadagi ahamiyati beqiyos. Ma'lum vaqt takrorlanmaslik ko'nikma darajasining pasayishiga olib keladi. U katta hajmdagi mashqlar bajarish va malaka oshirish orqali tiklanadi.

Ko'nikma-insonning ilgarigi tajribalari asosida muayyan faoliyat, yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati.

Ko'nikma-bu Shunday aqliy va jismoniy harakatlar, usullar va yo'l-yo'riqlardan iborat bo'lib, ular yordamida rejalashtirilgan maqsadga erisxiladi, yoki muayyan bir faoliyat amalga oshiriladi.

Ba'zan ko'nikmalar shaxsga malaka hosil qiladi va uning malakali ishlashiga yordam beradi, ba'zilari, aksincha, shaxsdagi malakalik sifatiga salbiy ta'sir etadi va uni o'zgartiradi. Bunday hol malaka va ko'nikmalarining o'zaro ta'siri deb yuritiladi.

Har qanday malaka ko'nikma bo'la oladi, lekin har qanday ko'nikma malaka bo'la olmaydi. Ko'nikmalar avtomatlashgan mohiyat kasb etsagina, malaka bo'ladi. Masalan, tinglovchining turli harakatlarini shakllarni yozish jarayoni avtomatlashgan bo'lgani uchun ko'nikilgan harakat bo'lib qolgan. Shuning uchun tinglovchi harflarni chiroyli va soz yoza oladi. Bu harakat tinglovchining **malakalashgan ko'nikmalaridir**. Juda ko'p marta takrorlash tufayli tinglovchilarning harflar shakllarini yozishlar bilan bog'liq harakatlari avtomatlashadi.

Malaka - avtomatlashgan, o'rganib qolingan, muayyan usul bilan bexato bajariladigan harakatdir.

Malaka - bu shaxs harakatining amalga oshirilishi va boshqarilishining avtomatlashgan shaklidir. Shaxsning malakalari shu bilan xarakterlanadiki, uning harakatlari oson, tez, go'yo o'z-o'zidan bajarilayotgandek bo'ladi. Shu tufayli ham bir hajmdagi ishni malakali va malakasiz turli muddat va turli sifat bilan bajaradi. Shaxsning malakalari uning faoliyatining barcha sohalari uchun xosdir. Faoliyatning biror sohasi uchun hosil qilingan malaka Shaxsning faqat Shu sohadagi mehnatini osonlashtirib qolmasdan, faoliyatning boshqa sohalaridagi harakatning tezligi va samarali bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Turli sohalarga nisbatan bo'lgan malakalar Shaxsda birdaniga, qisqa muddatda vujudga kelmaydi. Shaxs malaka orttirishi uchun muayyan sohani tizimli ravishda takrorlab turishi talab qilinadi.

Bundan tashqari **malaka** muayyan mehnat faoliyatini bajarish uchun lozim bo'lgan nazariy va amaliy umumta'lim va kasbiy bilim hamda ko'nikmalar majmuasining mavjudligi asosida ham shakllanadi.

Malaka-ongli hatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi hamdir. Malaka bir hatti-harakatning o'zini bir xil sharoitlarning o'zida ko'p marta takrorlash natijasida hosil qilinadi.

Malaka qanchalik puxta bo'lsa, odam ishni shunchalik tez va to'g'ri bajaradi. Ko'nikma va malakalarning umumiy hamda farq qiluvchi tomonlari bor. Umumiyliigi shundaki, ko'nikma va malakalar ta'lim oluvchilarning olgan bilimlari asosida faoliyat usullarini tashkil etadi. Farqi shundaki, ta'lim oluvchilarning faoliyati har xil xarakterda bo'ladi.

Kasbiy nuqtai nazardan malaka bu xodimning kasbiy tayyorgarligi darajasi, undagi ma'lum ishni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligi. U xodimning malakasini belgilovchi ko'rsatkich bo'lib, kategoriya yoki diplomning mavjudligi bilan belgilanadi.

O'qitish - o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish hamda ularning bilish faoliyati natijasida bu bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishga doir maxsus tashkil etilgan va biror maqsadga qaratilgan faoliyatdir.

O'qitish-insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan ongi faoliyat ifodasidir. Uning natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta'minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma'lumotni olish imkoniga ega bo'ladi. O'qitishda deyarli hamma vaqt uning tarbiyaviy jihatlari yaqqol bilinib turadi. Ta'lim maqsad, mazmun, o'qituvchining Shaxsi, tinglovchilardagi o'qitishning moddiy-texnik bazasi va boshqa omillar bilan belgilanadi.

Xalq pedagogikasida inson aqlan barkamol bo'lishining eng muhim sharti uni bolaligidan o'qitish va tarbiyalash, deb hisoblaydi.

O'qish - bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishning murakkab jarayoni bo'lib, o'quvchining intellektual, irodaviy va jismoniy kuch - g'ayratini talab etadi hamda ularning rivojlanishini rag'batlantiradi.

O'qish o'z mazmun-mohiyati jihatidan maqsad, vazifa, tamoyil, mezon va harakatlar bilan bog'liq bo'lib, ular yordamida tinglovchilar ma'lum bilimlarni o'zlashtiradilar. O'qish va uning samaradorligi

tinglovchining har tomonlama faolligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi va bu jihatlar turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ular: mehnat faoliyati, jamoatchilik faoliyati, kitobxonligi, kasbiy o'yinlarni yaxshi ko'rishligi, o'z kasbiga oid yangi bilimlarni egallashga o'chligi va shu kabi shakllarda namoyon bo'ladi.

Demak, o'qish-bu tinglovchilarning voqelikni bilish davomida ma'lum bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni rejali o'zlashtirish jarayonidir. O'qish jarayoni ma'lum darajada kuchli motivlashtirishdan vujudga keladi va u shaxsning qarashlari, e'tiqodi, hatti-harakati, umumiy kamolotiga, pirovardiga esa uning xulqiga ta'sir etadigan bilimlar, ko'nikmalar va malakalar majmuasining shakllanganligiga bog'liq bo'ladi. Pedagog tinglovchilar ishining borishini kuzatish va ular erishgan natijalarni baholash asosida o'zining ko'rsatmalari, yo'naltiruvchi savollari, tegishli tushuntirishlari va hokozolar bilan ularning o'quv faoliyati jarayoniga tuzatishlar kiritadi. Shunga ko'ra ta'lim **birinchidan**, o'qishni, **ikkinchidan**, o'qitishni, ya'ni o'qishni va Shu bilan birga uni nazorat qilish hamda tuzatish tadbirlarini o'z ichiga oladi.

O'qish. O'qish jarayonining asosiy g'oyalari:

- o'qish-bevosita bajariladigan jarayon bo'lib, uning yordamida odamlar butun hayotlari davomida yangi axborotlar oladi;
- bolalarni o'qishga o'rgatishning o'zi kamlik qiladi, ularni chuqur o'ylanib o'qishga o'rgatish kerak va bular natijasida o'quvchi-tinglovchilarda yangi fikr paydo bo'lib, ularning ilmiy ijodga kirib kelishi ta'minlanadi;
- o'qish oddiy o'rganish fani emas, balki fikrlash va dunyoni bilish qurolidir;
- o'qish va o'qiganda javoban ta'sirlanish tanqidiy tahlilning asosiy yo'lidir;
- har xil fanlarni o'rganish, odatda ta'lim oluvchidan juda ko'p mustaqil o'qishni talab qiladi, shuning uchun o'qish jarayonini tushunish aniq fan bo'yicha o'qilganni o'zlashtirishni va tahlil qilishni yaxshilash mumkin;
- o'qish va yozish orasida chambarchas aloqa bor. Bu aloqani tushunish o'qitish jarayonini boyitadi va rag'batlantiradi.

O'rgatish-ijtimoiy xulq-atvorni oddiy shaklga aylantirish maqsadida ta'lim oluvchilar bilan rejali va tizimli tarzda tashkil etiladigan turli harakatlar, tashkiliy va amaliy ishlarga undovchi

faoliyatdir. O'rgatish ta'lim oluvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning barcha bosqichlarida samarali vosita sanaladi.

O'rganish - anglash, mashq qilish va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o'zgaradi.

O'rganish-axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallash.

O'qitish - qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan o'quvchilarning tartiblangan o'zaro harakati.

Maqsad (o'quv, ta'limiy) - o'qitish nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida nimaga safarbar etilishi.

Maqsad-qo'yilgan muammo (maqsad) yechimiga intilishi yo'nalishi va bu boradagi harakatlar natijasi.

Maqsadlar ta'limni boshqaruv faoliyatiga qarab, aynan bir oddiy ta'limiy masala yechimiga qaralishidan tortib uzluksiz ta'lim tizimidagi turli faoliyatlarga belgilanib berilaveradi.

Maqsadga erishish belgilangan reja asosida olib boriladi va shu asosda maqsad sari harakatlar boshlanadi. Bundan harakat jarayoni **monitoringi** muhim rol o'ynaydi, chunki bu harakatning borishi muntazam nazorat ostida boradi hamda kerakli rostdash ishlari olib boriladi.

Maqsadga erishildi deyiladi, agarda ta'lim oluvchining bilim darajasi o'qituvchining o'rganilayotgan fanga taalluqli Davlat ta'lim standartlari asosida ifodalangan talabi darajasiga etib borsa.

Mazmun (o'qitish, ta'lim) - o'quvchilar o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malakalar, faoliyat va fikrlash usullari tizimi. **Mazmun**-ilmiy bilimlar yig'indisi bo'lib, amalda qo'llash uchun beriladigan ko'nikma va malakalar jarayonida u ta'lim oluvchilarning fikrlash, o'ylash, mulohaza yuritishi orqali amalga oshiriladi.

Tashkil etish - qo'yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon.

Shakl - o'quv jarayonining mavjudlik usuli, uning ichki mohiyati, mantiqi, mazmuni uchun qobiq.

Metod - o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li.

Metod (yunoncha-aynan nimagadir yo'l) maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Muayyan ma'noda tartibga solinadigan faoliyat.

Keng ma'noda qo'llaniladigan "metod" terminini kishilarning o'z oldiga

qo'ygan maqsadlariga erishish, ma'lum ob'ektni o'zlashtirish borasidagi nazariy va amaliy faoliyatlari usullarini anglatadi.

Ta'lim jarayonidagi ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatning turlicha bo'lishi yangidan-yangi usullarni metodlarni keltirib chiqaradi.

Metod tanlashda albatta ayrim o'quv predmetlarini o'ziga xos xususiyatlariga amal qilinmog'i lozim. Shu bilan birga ta'lim jarayonida ko'pchilik o'quv predmetlarini o'qitishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan umumiy o'qitish metodlari bilan birga ayrim o'quv predmetlarini o'qitishda qo'llanilgan o'ziga xos xususiy metodlar va metodik yondashuvlar ham bor. Ayrim predmetlarni o'qitishda qo'llaniladigan xususiy metodlar umumiy o'qitish metodlari bilan mustahkam bog'liqdir.

Metodika-bu metodikaga tegishli, qat'iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o'rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilishdir. **Metodika**-biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi.

Pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, matematika fanini o'qitish metodikasi, tarbiyaviy ishlar metodikasi va shu kabilar.

Vosita - o'quv jarayonini predmetli qo'llab-qo'vvatlanishi. Vositalarga o'qituvchining jonli nutqi, keng ma'noda uning mahorati, darsliklar, sinf jihozlari va boshqalar.

Natija - dars mashg'ulotlari jarayonida rejalashtirilgan xulosaga kelingan va ta'limning ma'lum muayyan jarayonidan olingan yakuniy natijasidir.

Natijalar (mahsullar)-o'quv jarayonining so'nggi natijasi, belgilangan maqsadlarni amalga oshganlik darajasi.

Natijani o'zlashtirish- olingan natijalarni amaliy o'zlashtirilishiga tayyorlash jarayonida iboratdir, ya'ni, iste'mol uchun tayyorlash. Bunga tadqiqotchi ishtiroki muhim rol o'ynaydi, chunki kerak bo'lganda ayrim tuzatishlar kiritish har kimning qo'lidan kelavermaydi.

Didaktik vositalar va tarqatma materiallar-bu fanni o'qitishda zarur bo'lgan jihozlar, kompyuterli vositalar, modellar va maketlar, ko'rgazmalar va texnik vositalar, asbob-uskunalar va mahsulotlardir. Shuningdek, o'qitish jarayonida o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan tarqatma materiallardir. Ular: kartochkalar, savolnomalar, yo'riqnomalar, qiziqarli savol va topshiriqlar, amaliy ishni tashkil etish bo'yicha texnologik haritalar va hakoza.

Prof. B.Ziyomammedovning ijod mahsulida **didaktik**

materiallar-pedagog tomonidan har bir darsga alohida tayyorlangan, dars mazmunini to'la ifodalash va o'quvchi-tinglovchilar dars mazmuniga yaxshi tushunib yetishlari uchun xizmat qiladi, deb qayd etiladi. Bularga turli ko'rgazmali qurollar, turli muammoli vaziyatlarni yaratuvchi moslamalar, o'yinlar va hakoza kiradi. Didaktik materiallar ham didaktikaning tamoyillariga mos ravishda yaratiladi. Dars jarayoni faqat usul va uslublar orqali amalga oshirilib, darsning ajralmas qismi hisoblanadi. Pedagogsiz va tinglovchisiz hamda o'quv dasturi va rejasiz dars o'tib bo'lmagani kabi, pedagogik usullar va uslublarsiz darsni amalga oshirib bo'lmaydi.

Didaktik qobiliyat- o'quv materiali, ko'rgazmali qurollar va vositalarini tayyorlab qo'yish, o'quv materialini aniq, ifodali va izchil bayon qilish, o'rganishga bo'lgan qiziqish hamda ma'naviy, hissiy istaklarni rag'batlantirish, o'quv bilimini oshirish, faollashtirish mahoratlari majmuidan iboratdir.

Didaktik qobiliyatga ega bo'lgan rahbarlar turli vaziyatlarda sharoitdan kelib chiqib, ta'lim muassasasida vujudga keladigan muammoli vaziyatlarda, muammolarni hal qilishga vaziyatli yondashuv asosida hamda rahbarlarga xos ravishda, o'z vakolati darajasida faoliyat ko'rsatadi, stereotiplarni, ya'ni jamoada mavjud bo'lgan sun'iy to'siq va muammolarni hal etishda, turli yo'nalishlarda qarorlar qabul qilishda jamoa fikrini o'rganadi. Bu qobiliyatlar asosida jamoaa psixologiyasiga (ruhiyatiga) xos doimiy yo'naltirish yotadi va bunday qobiliyat egasi bo'lgan rahbar o'z xodimlarining bilim, ko'nikma, malakasi, dunyoqarashini, qiziqishlarini, boshqaruv jarayonida tarbiyaviy munosabatlar mavjudligini hamda unda "rahbar-xodim" munosabatlarining ko'p qirrali ekanligini, boshqaruv jarayonida o'zaro bevosita ta'sirlar mavjudligini tasavvur qila oladi.

Didakto sentrik texnologiyalar - bu o'quv dasturidagi rejalashtirilgan materialni har qanday yo'l bilan bo'lsa ham ta'lim oluvchilarga yetkazishdagi pedagog faoliyati jarayonidir.

Topshiriq va savollar.

1. Didaktika-pedagogikaning mustaqil tarmog'i ekanligini isbotlang.

2. Xususiy didaktika deganda nimani tushunasiz?

3. Didaktikaning boshqa fanlar bilan bog'liqligini izohlab bering.

4. Didaktikaning ob'ekti, predmeti va funksiyalariga nimalar kiradi?

5. Didaktikaning asosiy kategoriyalariga izoh bering.
6. Didaktik qobiliyat tushunchasiga izoh bering.
7. Didaktik vositalar va tarqatma materiallarga nimalar kiradi?
8. O'qish jarayonining asosiy g'oyalarini izohlab bering.
9. Malakalashgan ko'nikmalar deganda nimani tushunasiz?
10. Bilimlar bazasiga izoh bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., "O'zbekiston" 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T., «Ma'naviyat», 2008.
3. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., "O'zbekiston" 1998.
4. Abdullaev Yu. Jahon oliy maktabi: qiyosiy tahlil. T., G'. G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti, 2001.
5. Abdullaeva Sh. va boshq. Pedagogika. T., «Fan», 2004.
6. Ismoilova Sh. O'yin texnologiyalarining ta'limiy imkoniyatlari // J.Ta'lim muammolari. Toshkent. -2007. 320c.
7. Komenskiy Ya.A. «Buyuk didaktika», T.: «O'qituvchi», 1975.
8. Mavlonova R., To'raeva O., Xoliqberdiev K. Pedagogika. T.: «O'qituvchi», 2001.
9. Munavvarov A.Q. Pedagogika. T., «O'qituvchi», 1996.
10. Olimov Q.T., Abduqudusov O., Axmedjanov M.M. Kasb ta'limi uslubio'ti. O'quv qo'llanma, Toshkent, Iqtisod-moliya. 2006. 160 b.
11. Roziqov O. R., Og'aeov S.Yu., Maxmudova M.M., Adizov B.R. Didaktika. T.: «Fan», 1997.

Internet saytlari:

www.ziyonet.uz

www.tdpu.uz

IV. TA'LIM QONUNIYATLARI VA TAMOIYILLARI.

4.1. Ta'lim jarayoni mohiyati.

Tayanch iboralar: *ta'lim berish mas'uliyati, ta'lim jarayoni, o'qitish algoritmi, bilim manbai, sezish va idrok qilish.*

Ta'lim berish g'oyatda murakkab va mas'uliyatli ish, buning dalili sifatida shuni aytish mumkinki, pedagogning ta'lim jarayonidagi rahbarlik rolini ta'minlashga urinish va harakatlarini saqlashga intilishi o'rtasidagi ta'limga xos dialektik ziddiyat aslida yuksalishning manbaidir.

Ta'lim maqsad, mazmun, o'qituvchining shaxsi, tinglovchilardagi dastlabki bilimlarning xarakteri, o'qitishning moddiy-texnik bazasi va boshqa omillar bilan belgiladani. Bunda o'qituvchi tinglovchilar ishining borishini kuzatish va ular erishgan natijalarni baholash asosida o'zining ko'rsatmalari, yo'naltiruvchi savollari, tegishli tushuntirishlari va hakoza bilan ularning o'quv faoliyati jarayoniga tuzatishlar kiritadi. Shunga ko'ra ta'lim **birinchidan**, o'qitish, **ikkinchidan**, o'qitishni, ya'ni o'qishni va shu bilan birga uni nazorat qilish hamda tuzatish tadbirlarini o'z ichiga oladi.

“Ta'lim ma'lum qonuniyatlarga bo'ysunadi va umumfalsafiy metodologiyaga muvofiq bu qonunlar ta'lim jarayoni bilan ancha kengroq ijtimoiy jarayonlar o'rtasidagi umumiy, muhim zarur, barqaror aloqalardan, shuningdek, ta'limning alohida komponentlari, ya'ni uning maqsadi, mazmuni, shakli, usullari va uslublari o'rtasidagi ichki bog'lanishlardan iborat. Aniqlangan didaktik qonuniyatlardan qator asosiy talablar kelib chiqadi, ularga rioya qilish o'qituvchining sifatli va samarali amalga oshiruvini ta'minlaydi”.


Ta'lim natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta'minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma'lumotni olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ta'lim jarayoni ma'lum darajada kuchli motivlashtirishdan vujudga keladi va u shaxsning qarashlari, e'tiqodi hatti-harakatlari, umumiy kamolotiga, pirovardida esa uning xulqiga ta'sir etadigan bilimlar, ko'nikmalar va malakalar majmuasining shakllanishiga bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Ta'lim jarayoni-yagona dinamik tizim sifatida. Ta'lim jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan tashkil etuvchilar (ko'rsatkichlar) ning o'zaro uzviy bog'liqligi asosida tuzilgan yagona dinamik tizimni tashkil etadi. Dinamik tizim deyilishiga sabab, ta'limni va ta'lim jarayonini

tashkil etuvchilari jamiyat taraqqiyotiga mos holda muntazam rivojlanishda bo'lib, takomillashtirilib boriladi.

Bunda tashkil etuvchilar quyidagilardir: maqsad; mazmun; shakl, usul; uslub; o'qituvchi shaxsi; tinglovchilardagi dastlabki bilim; o'qitishning moddiy-texnik bazasi va shu kabilar. Bu ta'lim jarayonlarini bir butunlikda, ya'ni yagona yaxlit dinamik tizim sifatida qarash lozimligini taqozo etadi va bunday qarash ta'lim jarayonini boshqarish va boshqarishning optimal variantini topishga ham imkoniyat yaratadi.

Qayd etilgan ta'lim jarayonini tizim ko'rinishida quyidagicha ifodalash mumkin (1 - shakl).



1-shakl. Ta'lim jarayonini tashkil etuvchilari va ular dinamikasi.

Shaklda ifodalangan ketma-ketlik o'qitish jarayonining algoritmini ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi.

O'qitish algoritmini ishlab chiqish orqali olib boriladigan ta'lim jarayonining uzviyligini va uzluksizligini ta'minlovchi qat'iy ketma-ketlik yaratiladi, shuningdek, ta'lim didaktikasini joriy etishning aniq mexanizmlarini yaratish borasidagi ta'lim-tarbiyaviy va pedagogik tadqiqotlar sohalaridagi ishlar yanada rivoj topadi.

O'qitish algoritmi **intellektual** asr ta'lim-tarbiyasida asosiy pedagogik terminlardan biri bo'ladi, chunki zamonaviy o'qitish texnologiyalari shu kabi terminlar asosida ta'limda yangicha sifat bosqichiga ko'tariladi.

Ta'lim-borliqni bilishning o'ziga xos shakli sifatida. Ta'lim-inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo'lib, individual psixik rivojlanishni va bilimlarni o'zlashtirishni ancha

tezlashtiradi. O'qituvchi ta'lim jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, bu jarayonda u ta'lim oluvchiga ta'sir ko'rsatadi, bu esa bilim olishlarini yanada faollashtiradi, natijada ta'lim oluvchi ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilar ongiga singdirilayotgan nazariy bilimlar amaliy faoliyat yordamida yanada mustahkamlanadi. Inson tevarak-atrofdagi voqeelik, narsa va hodisalarning mohiyatini amaliy hayotda ularga to'qnash kelish yo'li bilan bilib oladi, ularni o'zlashtiradi. Inson amaliy faoliyat tufayligina ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati jarayonini tashkil etuvchi munosabatlar, shuningdek, tabiat hodisalari sirini o'zlashtirib oladi.

Narsalar, buyumlar bilan amaliy muomalada bo'lish natijasida buyumlar sezgi organlariga ta'sir qiladi, sezgilar idrokni keltirib chiqaradi. Amaliyotda insonning faol fikrlash faoliyati yuzaga keladi. Fikrlash yordamida u real voqealikni chuqur tushunadi.

Bilim manbai sanalgan amaliyotning ahamiyati xususida so'z yuritganda bilish jarayonining mohiyatini ham ta'kidlab o'tish joiz.

Bilish murakkab dialektik jarayon bo'lib, jonli mushohadadan abstrakt tafakkuriga, so'ngra amaliyotga o'tish yo'lidir. Bilish shaxs uchun muhim ham o'zlashtirilmagan narsa, voqea va hodisalar mohiyatining ong yordamida anglash jarayonidir. Ob'ektiv borliqni bilish uni sezishdan boshlanadi. **Sezish** ongning tashqi olam bilan bo'ladigan chinakam aloqasidir. Sezish tevarak-atrofdagi voqealik, narsa va hodisalarning sezgi organlari (bizga ma'lumki, ular beshta) ga ta'sir etuvchi ayrim sifat, belgilarning ongda aks etishidir. Bunda har bir organ, har bir analizator I.P. Pavlov ta'kidlab o'tganidek, narsalarning ayrim eng muhim sifatlarini his ettiradi. Sezish muayyan narsa, voqea-hodisalar mazmunini ongda idrok etishiga olib keladi.


Idrok-sezish a'zolari orqali ongga ta'sir etib turilgan narsa va hodisalarning unda (ongda) yaxlitligicha aks etish jarayonidir.

Sezish va idrok qilish yordamida bilish jarayonida tasavvur ro'y beradi. Tasavvur inson ongida uzoq muddat saqlanib qoladigan sezishlar va idrokning izidir. Yoki boshqacha aytganda, tasavvur sezgi a'zolariga qachonlardir ta'sir etgan hamda idrok qilingan narsa va voqea-hodisalarning ongdagi yaqqol hissiy obrazidir. Tajriba vositasida odamda tasavvur zahirasi boyib, ko'payib boradi. Tasavvur fikrlashda, tushunchalarning tarkib topishida muhim rol o'ynaydi. Tasavvur muayyan umumlashmalarning mavjudligi bilan bog'liq.

Sezish, idrok va tasavvur bilishning muhim tarkibiy qismlari bo'lsa-da, ular ham haqiqiy voqealikni bilish muammosini to'la hal etishmaydi. Bilish jarayonining eng yuqori bosqichida tafakkur yuzaga keladi.

Jonli mushohada va tafakkur doimo odamning amaliy faoliyatiga asoslanishi kerak. Odam tabiat va ijtimoiy jamiyat qonuniyatlarini ochib, o'z faoliyatida ulardan foydalanishga intiladi. Har qanday nazariy bilimning qiymati uning amaliyotga qanchalik xizmat qilishi bilan belgilanadi. Nazariya amaliy faoliyat mohiyatidan kelib chiqib asoslanadi hamda amaliy faoliyatning yaxshiroq yo'lga qo'yilishiga xizmat qiladi. Biroq, amaliyot ayni vaqtda bilimning to'g'riligini tekshirish vositasi hamdir. Nazariy g'oya, fikr amaliyotda tekshirilgan va u orqali tasdiqlangandagina u inson bilimlarining muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Demak, bizga bilim amaliyotdan sezgi idrok, tasavvur va tafakkur asosida hosil bo'lishi va yana amaliyotga qaytib borishida namoyon bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bilim amaliyotga o'zining ilgarigi ko'rinishida emas, balki ancha boyigan ko'rinishida, ancha yuqori darajada qaytib boradi. Biz bu holni quyidagi holatda ko'rishimiz mumkin (2-shaklga qarang):



2-shakl. Bilimning amaliyot davomidagi yuksalishi.

Bilish jarayonida bilim hosil bo'ladi. Bilim-odamlarning ijtimoiy tarixiy amaliyot jarayonida to'plagan umumlashgan tajribasidir. Bilim ob'ektiv borliqni to'g'ri aks ettiradi. Eng to'g'ri va mukammal bilimlar ham o'z navbatida doimiy emas, balki ijtimoiy taraqqiyot jarayonida o'zgarib boradi.

Bilimlar asosida ta'lim oluvchilarning kuzatuvchanlik, tafakkur, xotira singari bilish qobiliyatlari rivojlanadi, ularda e'tiqod hosil bo'ladi, ilmiy dunyoqarashni shakllantiruvchi g'oyalar tizimi tarkib topadi.

Ta'lim jarayonida biror bir fan sohasida insoniyat tomonidan

o'zlashtirilgan barcha bilimlarni o'rganish mumkin emas. Ta'lim jarayonida eng asosiy, eng muhim bilimlar fanlarning asoslari o'rganiladi.

Ta'lim muassasalarida o'rganiladigan o'quv predmetlari soni o'z vazifalari va xususiyatlariga muvofiq tarzda ortib boradi. Boshlang'ich sinflarda tabiat va jamiyat qonuniyatlari borasidagi eng oddiy ma'lumotlarni berish asosida ularda dunyoqarash shakllantirilib boriladi. Mazkur bilimlar asosida ta'lim oluvchilar ob'ektiv borliq mohiyatini anglab boradilar.

Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilar bilimlar tizimini egallabgina qolmasdan, balki faoliyat ko'nikma va malakalarini ham hosil qiladilar.

Ko'nikmalar muayyan vaziyatdagina emas, balki dastlabki shart - sharoitlar o'zgargan vaqtda ham ma'lum hatti-harakatlar qilish (hosil bo'lgan tajriba asosida) qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Ko'nikmalarni bilimlar bilan aralashtirib yuborish yaramaydi. Har qanday ko'nikma asosida bilim yotadi. Bilimlar fikr-mulohazalarda, ko'nikma esa hatti-harakatlarda ifodalanadi. Hatti-harakatlar aqliy, yoki jismoniy bo'lishi mumkin.

Malaka muayyan usul bilan bexato bajariladigan, o'rganib qolingan avtomatlashgan ongli harakatdir.

Malaka bir hatti-harakatning o'zini bir xil sharoitda ko'p marta takrorlash natijasida hosil qilinadi. Malaka qanchalik puxta bo'lsa, odam ishni shunchalik tez yo'lga qo'yadi.

Malakalar turlicha bo'ladi, chunonchi, o'quv malakalari-o'qish, sezish, og'zaki hisoblash va boshqalar; mehnat malakalari ish qurollari bilan ishlash, materiallar va texnika bilan muomalada bo'lish va hakazolar; harakat malakalari-yurish, yugurish va boshqalar. Ko'nikma kabi malaka ham egallangan bilimlar asosida hosil qilinadi. Ko'nikma va malaka o'rtasida farqli tomonlari ham bor. Xususan, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalar har xil tavsifda bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilgandek, bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim jarayonida tarkib topadi. Ta'lim-dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatli jarayon bo'lib, unda ikki tomon ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi ishtirok etadi. Ta'lim berish ta'lim oluvchilarga bilimlar berish, ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish, yangi haqiqatlarni ochishga yo'naltirilgan ijodiy, mantiqiy

tafakkurni tarbiyalashdir.

4.1. Ta'limning umumiy va xususiy qonuniyatlari.

Tayanch iboralar: mashq qonuni, intensivlik qonuni, didaktik tamoyillar, bilimning ilmiy xarakteri, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'liqligi, tabaqalashtirish tamoyili,

• **O'zaro bog'liqlik qonuni** - ta'lim-tarbiya jarayonida ikkita ruhiy harakatning o'zaro bog'liqligidagi rivojlanish qonuni. Bu qonun bo'yicha ta'lim-tarbiya jarayoni ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi ruhining bir yo'nalishdagi harakatini taqozo etadi. Bu qonunga binoan, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qiluvchi ikki shaxsdan birining harakati ikkinchisining bilan mos kelmasa, ta'lim-tarbiya jarayoni sodir bo'lmaydi. Bunda darsni samarali tashkil qilish va uni sifatli, mazmunli amalga oshirish uchun pedagog sinfda, yoki auditoriyada bir xildagi holatni, ya'ni, bilim berish va bilim olish holatini shakllantirish kerak.

• **Mashq qonuni** - qonun bo'yicha, egallangan bilimni ko'nikma, so'ng malakaga aylantirishda, mashqni iloji boricha tez amalga oshirishni taqozo etadi;

• **Intensivlik qonuni** - bu qonun bo'yicha, mashqlar javobi qanchalik intensiv ravishda bo'lsa, Shunchalik tez o'zlashtiriladi;

• **Assimilyatsiya qonuni** - bo'yicha har bir yangi "turtki" qaytar reaksiyani vujudga keltiradi, deyiladi. Shuning uchun egallagan bilimni qaytarish yo'li bilimni "turtib" turish kerak, deyiladi;

• **Natijaviy qonunda** - reaksiya ijobiy bo'lsa, bilim mustahkamlanadi, agar salbiy bo'lsa, xotira uni o'chirib tashlaydi, deyiladi.

Ta'lim tamoyillari-ta'lim beruvchining faoliyatini va ta'lim oluvchining bilish faoliyati xususiyatini belgilovchi asosiy boshlanmalardir. Ta'lim tamoyillari ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining muhim ichki tomonlarini aks ettiradi hamda turli formada, turli mazmunda va har xil yo'sinda tashkil etiladigan ta'limning samaradorligini belgilaydi. Shuning uchun ta'lim tamoyillari ta'lim berishning ma'lum ob'ektiv qonuniyatlarini o'zida aks ettiradi.

Olimlarning ta'lim tamoyillarining soni va nomi to'g'risidagi fikrlari bir-biridan farq qilsa ham, ammo, ularning mazmuni va o'qitish qonuniyatlarini tushunish an'anasi asosan bir xildir.

Binobarin, quyidagi ta'lim tamoyillari tizimini taklif qilish mumkin: ta'limning ustuvorligi, ta'limning demokratlashuvi, ta'limning insonparvarlashuvi, ta'limning ijtimoiylashuvchi, ta'limning milliy yo'nalganligi, ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash, yuqori darajada bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish kabilar. Jamiyat talab qilayotgan uzluksiz ta'limga tegishli bu qonun-qoidalar, o'qitish, bilim berish, ya'ni ta'lim jarayoniga samarali ta'sir ko'rsatadi. Pedagogika ta'limning ilmiy-nazariy, uslubiy asoslari alohida o'rganiladi.

Ta'lim tamoyillari o'quv yurtlari oldida turgan ulkan vazifalar asosida belgilanadi. Ular o'zaro bir-biri bilan mustahkam bog'liq holda bir tizimni tashkil etadi, har bir darsda didaktik tamoyillarning bir nechitasi ishtirok etishi mumkin. Ular ta'lim oldida turgan asosiy maqsadlarni hal etishga o'z hissasini qo'shadi. Ta'lim tizimi isloh qilinayotgan hozirgi jarayonda ta'lim oluvchilarga mustahkam bilim berish, ularni erkin, mustaqil fikrlay oladigan insonlar qilib tarbiyalashda, ta'lim tamoyillarining mohiyatini chuqur anglash va hayotga tatbiq etish muhim muammolardan biridir.

O'quv yurtida beriladigan bilim ilmiy xarakterga ega bo'lishi, fan-texnikaning so'nggi yutuq va kashfiyotlarini o'zida ifoda etishi lozim. Shunday ekan ta'lim oluvchi ilm-fandagi yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim, chunki o'quv fanlari ham ilm-fan asosida yaratiladi. O'qitishning ilmiy tamoyillari ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarni hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti darajasidagi oliy bilimlar bilan qurollantirish, ayniqsa ta'lim oluvchilarni ilmiy tadqiqot usullari bilan tanishtirib borishga qaratilgan.

Ilmiylik ta'limning mazmuniga ham, usullariga ham aloqadordir. Shunday ekan, bilim, ilm-fan bilan o'quv predmeti o'rtasida hamkorlik o'zaro bog'liqlik bo'lishiga erishish lozim. Ta'limning hamma bosqichlarida ilmiy izohlardan foydalanmoq lozim.

Nazariy bilimlarni amaliyot bilan, turmush tajribalari bilan bog'lab olib borish ta'limning yetakchi qoidalaridan hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya sohasidagi yutuqlar, eng avvalo, nazariy bilan amaliyotning o'zaro bog'liqligiga asoslanadi. Shundagina ta'lim oluvchi o'rganayotgan o'quv-materialining tub mohiyatini tushunib etadi va amaliyotda ulardan foydalana oladi. Buning uchun ta'lim beruvchi ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning faol ishtirok etishlariga erishmog'i lozim. Faol ishtirok esa, bilimlarni ongli,

tushunib o'zlashtirishga olib keladi.

Ta'limdagi onglik va faollik ta'lim oluvchilardagi ko'tarinki kayfiyat, ko'proq bilishga intilish, mustaqil fikrlash va xulosalar chiqarishga undaydi. Bilimlarni ongli va faol o'zlashtirish o'qitish jarayonining psixologik tomonlarida o'z ifodasini topadi.

O'qitishda nazariy bilimlar qanchalik qat'iy bayon etilsa, ta'lim oluvchilarning fikr yuritishi ham shunchalik aniq va ravshan bo'ladi va o'quv materiallarini ongli o'zlashtirish darajasi ham oshadi. Ta'lim tizimi isloh qilinayotgan hozirgi jarayonda yoshlarning mustaqil fikr yuritishi, mustaqil sur'atda bilim olishga intilishi talab qilinadi. Buning natijasida bilimlarni o'zlashtirish jarayoni ijodiy tus oladi. Bunday sharoitda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining mashg'ulotlarga munosabati va bu jarayonda o'zini qanday tutishga e'tibor bermog'i lozim. Yoshlarni o'qish istagi ta'lim jarayonining zaruriy va mantiqiy qismidir. Shunday ekan, ta'limning samaradorligi ta'lim beruvchining ta'lim oluvchilarning o'qishga izchil va muntazam qiziqtirib borishiga bog'liqdir. Buning uchun ta'lim beruvchi, ularni o'qishga ijodiy munosabatda bo'lishga, mustaqillikka, ishchanlikka odatlantirishi lozim.

Ta'lim jarayoni, uning mazmuni unda ko'tarilgan hayotiy masalalar yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ta'lim Shaxs-shakllanishining asosiy manbaidir.

Umuman, bilimlar-voqealikning haqiqat in'ikosidir. Ammo, voqealikning har qanday tarzda to'g'ri aks ettirilishi ilmiy bilim bo'la olmaydi. Masalan, maktab yoshiga etmagan bola tevarak-atrofidagi dunyoni to'g'ri biladi, lekin undagi in'ikos etarlicha chuqurmas, shuning uchun uning bilimlarini ilmiy bilim deb bo'lmaydi.

Tevarak-atrofni o'rab olgan dunyoning qonuniyatlarini, narsa va hodisalarning ichki muhim xossalarini va o'zaro aloqalarini aks ettiruvchi bilimlarga ilmiy hisoblanadi. Bu bilimlar aqliy jihatdan o'zishga hal qiluvchi ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ular hozirgi zamon fani, texnikasini ishlab chiqarishni, madaniyat va san'atni o'zlashtirish imkoniyatini beradi.

Ta'limning ilmiyligi ta'lim oluvchining o'quv materialidagi qonuniyatlarini aks ettirishi, tushunishi va o'zlashtirishi uchun to'g'ri sharoit yaratish maqsadida zarurdir.

O'qitish, tarbiya berish deganda biz ta'lim va tarbiyaning bir-biridan ajralmasligini tushunamiz. Shunday ekan, maktab obro'si,

o'qituvchi obro'si, avvalo, darsda shakllanadi. Til va adabiyot darsimi, matematika darsimi har doim ularning tarbiyaviy imkoniyatlarini ko'ra bilish, tarbiya usullaridan foydalanish lozim.

Ta'lim oluvchilar ilmiy bilimlarni o'zlashtirar ekan, uning dunyoqarashi ham, irodasi va axloqiy sifatlari, iymon-e'tiqodi va qobiliyati ham o'sib rivojlanib boradi.

Ta'limning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanishda ta'lim beruvchi avvalo, ta'limni usulbiy jihatdan to'g'ri tashkil etishga, o'quv materiallarining mazmuni bilan bog'liq tarbiyaviy maqsadlarni aniq belgilashga va bilim olishga qiziqтира olishga bog'liqdir. Shu bilan birga, ta'lim beruvchining ta'lim oluvchilar oldidagi obro'-e'tibori ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

O'qitish jarayonini ko'rgazmali tashkil qilish zarur. Ham eshitish, ham ko'rsatish orqali o'quv materiallarini idrok qilish, ularni ongli va puxta o'zlashtirish, bilimlarni turmushdagi zaruriyatini anglab etishlariga asos soladi, diqqatni barqarorlashtiradi. Shuning uchun ko'rgazmali materiallar o'rganilayotgan mavzuning mazmuniga mos kelishi, ta'lim oluvchining yoshi va bilim darajasiga muvofiqlashgan bo'lishi hamda ulardan foydalanishning samarali yo'l va vositalar ishlab chiqilgan bo'lishi lozim.

Bilimlar turli yo'l, vositalar orqali puxta o'zlashtirgandagina, u mustahkam esda qoladi, bu esa o'quv materiallarini ongli o'zlashtirishga, nazariya bilan amaliyotni bog'lashga, ko'rsatmalilikka amal qilishga va bilimlarni takrorlash orqali mustahkamlashga bog'liqdir. Ta'limning bosh maqsadi esa bilimlarni tizimli va puxta o'zlashtirishdir.

Yuqoridagi qayd etilgan ta'lim tamoyillarining umumiy tavsiflari muayyan ta'lim tamoyillari haqida iycham mukammal ma'lumot berishga asos bo'la oladi. Quyida ular to'g'risidagi ma'lumotlarni keltiramiz.

• **Ta'lim mazmunini unifikatsiyalash va tabaqalashtirish tamoyili**-ta'lim mazmunini unifikatsiyalash va tabaqalashtirish, **birinchidan**, ma'lum bir yo'nalish bo'yicha mutaxassis tayyorlanayotganda uni bir necha tur modifikatsiyani (xillarini) tayyorlash imkonini beruvchi unifikatsiyalashgan o'quv rejalarini tizimni ko'zda tutsa, **ikkinchidan**, umumtexnik va umum pedagogik

hamda maxsus predmetlar mazmunini tabaqalashtirish, ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishi an'analarini hisobga oladi;

- **Ta'lim-tarbiya tizimi va uzviylik tamoyili** - bu ta'lim-tarbiyada qat'iy mantiqiy izchillikka rioya qilish kerak bo'lgan jarayondan iborat bo'lib, bunda o'rganilgan bilimlar va shakllangan tasavvurlar oldingi o'rganilganlardan kelib chiqadi, ularni mustahkamlaydi, chuqurlashtiradi va keyingi ta'lim-tarbiyaviy jarayonga zamin hozirlanadi. Mazkur tamoyil o'qish jarayonida didaktikaning umumiylikdan xususiylikka (deduktsiya) va aksincha xususiylikdan umumiylikka (induktsiya) qoidasini va o'quv fanlarining bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lishini ta'minlaydi;

- **Ta'lim-tarbiyaning amaliyot bilan bog'liqligi tamoyili**-bu ta'lim mazmunining amalda o'z ifodasini topish jarayoni bilan uzviy bog'liq bo'lib, unda tarbiyani hayot bilan uzviylikda olib borishlik jarayoni qaraladi. Ushbu tamoyil didaktikaning asosiy qoidalaridan biri bo'lib, ruhiy hodisalar bilan yaxlit ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etadi;

- **Ta'lim va tarbiyaning birligi tamoyili**-bu kishilarga bilim va tarbiya berish jarayonidan iborat bo'lib, unda egallangan bilim va ko'nikmalarni hayotga qo'llay olishga o'rgatiladi hayotda ta'lim oluvchilarning ham intellektual, ham ma'naviy jihatdan uyg'unlikda rivojlanishi ta'minlanadi. Yaxlit ta'lim-tarbiya jarayonida ikki o'zaro bog'liq juftlik, ya'ni, bilim berish va tarbiyaviy ko'nikmalarni shakllantirish hamda shakllangan ta'limiy-tarbiyaviy bilimlar va ko'nikmalar bo'yicha faoliyat ko'rsatishga o'rgatish, ob'ektiv borliqdagi qonuniyatlarni o'rganish va uning amaliy munosabatlarini tarkib toptirishda namoyon bo'ladi. Shu sababli ta'lim oluvchilarga bilim berishda egallagan bilimni amalda ishlatishga o'rgatish, ya'ni, tarbiyalash jarayoni ham uyg'unlikda olib borilmog'i lozim bo'ladi;

- **Ta'lim-tarbiyaning muntazamiylik va davomiylig tamoyili**-bu ta'lim-tarbiyadagi zarur fiziologik-psixologik qonuniyat hisoblanib, u bilimni mantiqiy bog'liqlikda o'rganishni ta'minlab beradi. Bu tamoyil har bir fan bo'yicha tuzilgan o'quv reja va dasturlarda dasturiy va uslubiy tavsiyanomalarni yaratishda tadbiq etiladi. Amaliyotchi o'qituvchi o'quv reja va dasturlaridan chetga chiqmasligi lozim. Bu qonuniyat tushunchalar, dalillar va boshqa fikrlar orasidagi, ularning **tadriji**dan kelib chiqqan aloqadorliklar

qonun va qoidalar bilan amaliy ishlarni bajarish o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlarni o'rganish orqali amalga oshiriladi. Bu qonuniyat o'qish faoliyatini tashkil etishning asosi hisoblanadi. Unga amal qilmaslik ta'lim oluvchilar tafakkurida o'zaro bog'liq bo'lmagan uzuq-yuluq bilimlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bunday bilimlardan kishining ijtimoiy mohiyatiga naf bo'lmaydi, ular tafakkurni charchatadi holos;

- **Ta'lim-tarbiyada onglilik va faollik tamoyili**-ta'lim oluvchilar olayotgan bilimni hayotda qo'llay bilishlari uchun ta'lim berish jarayonini faol fikrlashga aylantirish kerak. Bunda o'qitishni shunday tashkil etish kerakki, ta'lim oluvchilar bilimlarini mashg'ulotlarda ongli va faol qatnashib egallab olishsin. Shunda tinglovchilarda ong o'sib, ijtimoiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik tarkib topadi.

Ta'lim-tarbiyaning onglilik tamoyili ta'lim oluvchilarda ta'rif, tushuncha va qoidalarni yodlash va esda saqlash bilan ularni egallash emas, balki bu bilimlarni, hayotiy hodisalar, jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan mazmunini tushuntirishlarini talab etadi. Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish ta'lim oluvchilarda bilimlarga nisbatan ma'lum munosabat hosil qilishni, hissiy kechinmalar uyg'otishini o'z ichiga oladi. Bu tamoyil tafakkurini shakllantiruvchi qoida bo'lganligi uchun muammoni mustaqil hal qilish maqsadida darsda ta'lim oluvchilarga muammoli vaziyatlar tavsiya etiladi.

- **Ta'limda o'quv faoliyatini yaxlit shakllantirish tamoyili**-ta'lim oluvchilarning diqqatini boshqarish, ularga bajariladigan ishlarni tushuntirish, zaruriy ehtiyoj-motivatsion holatlarni faollashtirish, faoliyatga yordam berish, tuzatish kiritish jarayoni va ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatining natijasini baholash jarayoni.

- **Ta'limni ilmiy asosda tashkil etish tamoyili**-ta'lim oluvchilardagi o'qitish ishlarini faollashtiradigan, ongini o'stiradigan, ularni mustaqil bilim olishga yo'naltiradigan usullarga o'rgatadi hamda pedagogik, texnik atamalardan to'g'ri foydalanishga odatlantiradi;

- **Ta'limning ko'rgazmalilik tamoyili** - bu o'rganilayotgan hodisa va voqealarni jonli idrok etish asosida o'zlashtirishni ko'zda tutadi. Bu tamoyil o'quv materialini aniq obrazlar orqali bevosita idrok qilishni ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida ko'rgazmali vositalardan

to'g'ri foydalanish tinglovchilarning pedagogika, psixologiya, tarbiyaviy ishlar metodikasi, o'qitish uslubiyati va texnikaga oid fanlarni puxta o'zlashtirib olishga, ularda malaka hosil bo'lishiga yordam beradi. Agar, ko'rgazmali qurol biror fikrni bildirish uchun yordamchi vosita bo'lsa, nutq asosiy qurol hisoblanadi.

Ko'rgazmali qurol kuzatishni rivojlantirish uchun qo'llanilsa, nutq qisqa bo'lib kuzatishning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan bo'ladi.

Demak, ta'limning ko'rgazmalilik tamoyili-bu ta'lim jarayonidagi sifatni ta'lim oshirishga, tinglovchilarning bilim olishlarini osonlashtirishga (oydinlashtirishga) qaratilgan faoliyat bo'lib, unda tinglovchilardagi o'rganilayotgan jarayonlarni (narsa va hodisalarni) bevosita hissiy-amaliy jihatdan idrok qilish asosida bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish jarayoniga asosiy e'tibor qaratiladi.

4.3. Ta'limning mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillari.

Tayanch iboralar: *o'qitish tushunchasi, ta'lim sifati, samaradorlikni ta'minlash, fanlarni o'qitish, ta'lim tizimi komponentlari.*


O'qish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish, o'qitish qobiliyati, fikrlash hamda muayyan harakatlarni hosil qilish jarayoni sanaladi. O'qish jarayonida ta'lim oluvchilar ma'lum bo'lmagan, o'zlashtirmagan ma'lumotlarni o'zlashtira boradilar.

O'qitish tushunchasi-insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan ongli faoliyat ifodasidir.

O'qitish-ijtimoiy xulq-atvorni odatiy shaklga aylantirish maqsadida ta'lim oluvchilar bilan rejali va tizimli tarzda tashkil etiladigan turli harakatlar, tashkiliy va amaliy ishlarga undovchi faoliyatdir. O'qitish ta'lim oluvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning barcha bosqichlarida samarali vosita sanaladi.

O'qitish jarayoni-bu ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining qanday bo'lishi, o'qitish jarayonining qanday tashkil etishi va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda ta'lim oluvchilar qanday ish harakatlarini bajarish kerakligini belgilab beruvchi jarayondir.

Pedagogik ta'lim mazmun-mohiyatini baholash va uning sifati hamda samaradorligini oshirish ta'lim jarayoniga tegishli bo'lgan har bir komponentlarga (jihatlarga, omillarga, ko'rsatkichlarga) uzviy ravishda bog'liq bo'ladi va shu sababli ham pedagogik ta'lim tizimini yagona dinamik tizim deb qaraladi. Shu ma'noda o'quv jarayonining tashkil etuvchilarini quyidagicha ifodalash mumkin (1-shakl):



Ta'lim jarayonini olib borishning sifati va samaradorligi ko'p jihatdan ularni tashkil etuvchilarning nechog'lik o'zaro aloqadorlikda faoliyat yuritishiga bog'liq. Bunda albatta ta'limning sifat nazoratini ilmiy asosda to'g'ri tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqish lozim bo'ladi va ta'lim sifatini belgilovchi omillarni hamda ulardan foydalanishning mantiqiy ketma-ketligini algoritmik tarzda asoslashni taqozo qiladi.

- ta'lim beruvchilar;
- DTS, o'quv reja va o'quv dasturlar;
- darslik, o'quv qo'llanma va shu kabilar;

- o'qitish vositalari;
- fanlar bo'yicha nazariy materiallar;
- fanlar bo'yicha amaliy materiallar;
- fanlar bo'yicha didaktik materiallar;
- laboratoriya va ustoxonalar jihozlari;
- amaliyotlar;
- axborot-kommunikatsion texnologiya vositalari.

Ta'lim jarayoniga bunday yondashuv kadrlar tayyorlashning me'yoriy, tashkiliy, o'quv-uslubiy, axborot va moddiy-texnik sharoitlar tizimining bajarilishini ta'minlashdan iboratdir. Bunda fanlarni o'qitishga e'tibor yanada kuchaytirilgan bo'ladi.

Fanlarni o'qitish-bu o'qitish xususiyatlarini tarbiyalash va takomillashtirish jarayoni bo'lib, u ta'lim beruvchida ilmiy munosabatni va quyidagi xususiyatlarni shakllantirish maqsadini ko'zlaydi:

- **qiziqish** (bilish xohishi) va **faoliyat** (biror narsani aniqlash uchun biror narsa qilish xohishi);

- **skeptitsizm** (tez-tez uchraydigan fikrlarni sinchiklab ko'rib chiqish xohishi);

- **dalillar** (bilim olishda isbotlash mantiqi va qoidalaridan foydalanish mahoratlari);


- **xabardorlik** (uning yordamida o'ylash mumkin bo'lishi uchun olam haqida axborotlar fondining mavjudligi);

- **strategiyalar** (izlash uchun qoidalar mavjudligi va ulardan foydalanish xohishlari);

- **moyillik** (yangi bilimlarni olish natijasida ta'lim beruvchi o'zini olam haqidagi fikrlash usulini qayta qurishni boshlashi uchun boshqalarning fikr va tushunchalarini qonuniyat asosida bir chiziqqa joylashi).

Demak, fanlarni o'qitish jarayoni butun bir pedagogik jarayonda samarali faoliyat ko'rsatishning didaktik asosidan iborat ekan.

“Quyidagi shaklda taklif etilayotgan loyiha pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash orqali ta'lim-tarbiya jarayonlari natijaviyligi hisoblangan pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi”.



2-shakl. Pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlash ketma-ketligi.

Ta'lim jarayonida fanlar bo'yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashga hamda ularni ko'nikmaga aylantirishgagina emas, balki ularni amaliy ish jarayonida qo'llashga imkon beradi. Bunday mashg'ulotlar tanlangan kasbi to'g'ri ekanligiga ishonch hissini to'g'diradi.

Topshiriq va savollar.

1. Ta'lim jarayonining mohiyati deganda nima tushuniladi?
2. Bilish va sezish tushunchalariga izoh bering.
3. Bilimning amaliyot davomidagi yuksalishi deganda nimani tushunasiz?
4. Ta'limning umumiy va xususiy qonuniyatlariga izoh bering.
5. Ta'lim mazmunini unifikatsiyalash va tabaqalashtirish tamoyili deganda nimani tushunasiz?
6. Ta'limning mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillari deganda nimani tushunasiz?
7. O'quv jarayonining tashkiliy-tuzilmaviy sxemasiga izoh bering.
8. Pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlash ketma-ketligi sxemasiga izoh bering.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdullaeva Sh. va boshq. Pedagogika. T., «Fan», 2004.
2. Asqarova O. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar. T., «Istiqlol», 2005.
3. Mavlonova R., To'raeva O., Xoliqberdiev K. Pedagogika. T.: «O'qituvchi», 2001.
4. Moreva N.A. Pedagogika srednego professional'nogo obrazovaniya. M., 2001.
4. Olimov Q.T., Abduqudusov O., Axmedjanov M.M. Kasb ta'limi uslubio'ti. O'quv qo'llanma, Toshkent, Iqtisod-moliya. 2006. 160 b.
5. Pedagogika: uchebnik / pod red. L.P. Krivshenko.-M., 2008.
6. Pidkasistiy, P.I. Organizatsiya uchebno-poznavatel'noy deyatel'nosti studentov.-2-e izd.-M., 2005.
7. Risqiev T. Umumiy tahrir ostida "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish koncepciyasi", T., "Sharq", 2002.
8. Roziqov O. R., Og'ayev S.Yu., Maxmudova M.M., Adizov B.R. Didaktika. T.: «Fan», 1997.
9. Tursunov I.Y., Nishonaliev U.N. Pedagogika kursi. T., «O'qituvchi», 1997.

Internet saytlari:

10. www.ziynet.uz
11. www.tdpu.uz
12. www.pedagog.uz
13. www.psychology.uz

V. TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKL, METOD VA VOSITALARI.

5.1. Ta'lim turlari.

Tayanch iboralar: taraqqiyot jarayoni, o'qitish va tarbiyalash tamoyillari, dogmatik o'qitish, bilimlarni o'zlashtirish, tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta'lim, dasturlashtirilgan ta'lim, kompyuterlashtirishning maqsadi, kompyuterli o'qitish tizimi, innovatsion ta'lim, masofaviy ta'lim.

Didaktik g'oyalar jamiyat taraqqiyoti jarayonida yangi g'oyalar bilan boyib, takomillashib boraveradi va ular o'ziga xos tizimlar ko'rinishida shakllanadi. Shu sababli ham ta'lim turlari o'quv jarayonini tashkil etish va uni amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuvlar asosida shakllantiriladi.

Pedagogik tizimlarning asosiy turlari quyidagilardir:

- arhaik (ibtidoiy);
- qadimgi (Shumer, Misr, Hitoyda Eramizdan avvalgi uchinchi ming yillik);
- avestit (Baqtriya, Sug'diyona, Horazmda-Eramizdan avvalgi VII-VI asrlar);
- yunon (Ellins, rim-yunon, rim-eramizdan avvalgi V-I asrlar);
- o'rta asr (dogmatik, sholastik V-XVI asrlar);
- yangi (tushuntirish, tushuntirish-ko'rgazmali, dasturlashtirilgan, masofali o'qitish, muammoli-dasturlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan innovatsion, INTERNETning Xalqaro tarmog'idan foydalanib o'qitish va shu kabilar);
- xorijiy (tushuntirish, tushuntirish-ko'rgazmali, dasturlashtirilgan, masofali o'qitish, muammoli-dasturlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan innovatsion, INTERNETning Xalqaro tarmog'idan foydalanib o'qish va shu kabilar).

“Avesto” g'oyalariga ko'ra shakllangan pedagogik tizim eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda Markaziy Osiyo hududida zardushtiylik dini yuzaga kela boshlaganida tashkil topdi. “Avesto” zardushtiylikning muqaddas manbai bo'lib, u o'z davrining qomusiy asari hisoblangan. Uning g'oyalariga binoan yoshlarni o'qitish va tarbiyalash quyidagi tamoyillarga asoslangan:

- yoshlarni diniy va ma'naviy jihatdan tarbiyalash;

- jismoniy jihatdan tarbiyalash;
- yoshlarni o'qish va yozishga o'rgatish orqali ularning savodxonligini shakllantirish.

“Avesto” g'oyalari bo'yicha yer, quyosh, suv, olov muqaddas deb e'tirof etilganligi sababli yoshlarni tarbiyalashda Ona yerga, atrof-muhit, tabiatga muhabbat hissini uyg'otish muhim yo'nalish hisoblangan. Shuningdek, unga barkamol Shaxs obraziga qo'yilgan talablar haqida aniq tasavvurlar ifoda etilgan.

Muntazam o'qitishning ilk turi qadimgi yunon faylasufi Suqrot (eramizdan avvalgi 469-399 er. avv. yillar) va ularning o'quvchilari tomonidan keng qo'llanilgan **yordamchi savollarga javob topish metodi** hisoblanadi. Bu metod fanda **suqrotcha suhbat metodi** nomini olgan. Bu metodning mazmun-mohiyati quyidagicha bo'ladi, ya'ni bunda eng avval o'qituvchi o'z o'quvchisida qiziqish yo'nalishini va bilishga intilishini uyg'otadigan savollardan foydalanilgan; keyin esa mulohaza yuritish asosida o'quvchini voqea-hodisalarning mohiyatini idrok etishga undagan. Demak, suqrotcha suhbat metodida qiziqishdan bilishga, bilishdan idrok etishga qarab induktiv metod asosidagi faoliyat dinamikasi shakllantirilgan. Mazkur jarayonda o'qituvchining mulohazasi ko'pincha ritorik savollarni muhokama qilish bilan to'ldirib turilgan. Suqrotcha suhbatlar bir yoki bir necha o'quvchilar ishtirokida tashkil etiladi.

Dogmatik o'qitish-bu jamoa asosida idrok etish faoliyatining ilk turi bo'lib, u o'rta asrlarda keng tarqalgan. O'rta asrlarda G'arbiy Evropada ularning ilk ko'rinishlari iste'molda bo'lib, unda lotin tili, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa arab tili yetakchi o'rin tutgan. Bu borada **musulmon pedagogik konsepsiyasi** sezilarli darajadagi ma'naviyatlilik va intellektuallik xususiyatlariga hamda mazmun-mohiyatga ega bo'lgan. Ularning g'oyalari bo'yicha o'z faoliyatlarida bilimlardan faol va ijodiy foydalana oladigan odamgina komillikka erishish mumkin, degan hukumiy fikr shakllangan.

“Haqiqiy g'oyalar” deb nom olgan pedagogik tizimning asosiy tayanch nuqtasi **haqiqiy bilimlarni** o'zlashtirishdan iborat bo'lgan. Abu Ali ibn Sinoning “Donishnoma” va “Bilimlar kitobi” nomli asarlarida ham mazkur muammo echimiga alohida e'tibor qaratilgan. Ularda ta'kidlanishicha haqiqiy bilimlarni o'zlashtirishga ikkita to'siq halaqit qiladi. Ular: so'zlarning aniq emasligi; fikrlarning tushunarli

emasligi. Qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etishda logika fani yutuqlari va ulardan iste'molda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Musulmon mamlakatlarida yoshlarni o'qitish va tarbiyalashda ular tomondan arab tilida yozilgan "Qur'oni Karim"ni va "Hadisi Sharif"ni yod olinishi bilim egallashning asosiy sharti hisoblangan. Bulardan tashqari o'sha paytda bir qator maktablarda fors tili ham o'rgatilgan. Yoshlar asosiy ta'limni maktablar-boshlang'ich maktabdan olganlar va unda ilohiy va muqaddas kitobni ("Qur'oni Karim"ni va "Hadisi Sharif"ni) o'qish, yodlash va talqin qilish mashg'ulotlari, Shuningdek, boshqa manbalar bo'yicha ham o'qish, yozish va hisoblash tafakkurini shakllantirish faoliyatlari amalga oshirilgan.

Demak, dogmatik o'qitishda yoshlarning asosiy faoliyatlarini tinglash, o'qish, yod olish, eslab qolish va matnni so'zma-so'z takrorlashlar tashkil etgan.

Yoshlarning oliy ma'lumot olishi o'sha davrlardagi nufuzli madrasalarda amalga oshirilgan. Movarounnahrda eng yirik o'quv maskanlari sirasiga Samarqand, Buxoro, Urganch va G'ijduvondagi madrasalarni kiritish mumkin. Bu ma'rifiy markazlarining rivojlanishi XV-XVII asrlarga to'g'ri keldi. Madrasalarda, o'qitish fors tilida olib borilgan. Ularda ta'lim oluvchilar majburiy tarzda arab tilini ham o'rganganlar.

Madrasalar o'quv rejasiga grammatika, Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, ritorika, logika, metafizika, geologiya, adabiyot, ilmi hujum, huquqshunoslik, riyoziyot, handasa, jug'rofiya va shu kabi fanlar kirgan. O'qitish asosan og'zaki shaklda olib borilgan. Ulardagi o'quv adabiyotlari asta-sekin ancha ko'p qirrali, turli-tuman bo'lib boravergan.

Dogmatik o'qitish o'rniga asta-sekin o'quv jarayonida ko'rgazmalilikni keng jalb etish natijasida **tushuntirish, tushuntirish-namoyish etish** kabi ta'lim shakllari qo'llanila boshlandi.

Hozirgi vaqtda, Respublikamizda faoliyat yuritayotgan zamonaviy ta'lim muassasalarida ta'limning eng muhim quyidagi uch turidan foydalanilmoqda:

- **tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta'lim.** Bu an'anaviy yoki axborot beruvchi ta'lim deb ataladi;

- **muammoli o'qitish;**

- **dasturlashtirilgan ta'lim yoki kompyuterli o'qitish.**

Bugungi kunda o'rta asrda keng qo'llanilgan ta'lim turlari dogmatik va sholastik o'qitish elementlari ham saqlanib kelinmoqda.

Tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta'lim turi. Uning asosiy metodi ko'rgazmalilik asosida tushuntirishdan iborat bo'lib, uning asosini tinglash va eslab qolish tashkil etadi. Bu ta'lim turi vaqtni tejash, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning vaqtini tejash, qiyin bilimlarni tushunishini osonlashtirish, ta'lim jarayonini optimal boshqarishni ta'minlaydi. Biroq bu ta'lim turida ayrim kamchiliklar mavjud, ya'ni, "tayyor" bilimlarni berish va ta'lim oluvchilarni bilimlarini o'zlashtirishida mustaqil hamda mahsuldor fikrlashdan ozod etish, o'quv jarayonini individuallashtirish va differentsiyallashtirish imkoniyatlarining kamligi.

Muammoli o'qitishda o'quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni mustaqil egallash, ta'lim oluvchilarning ijodiy fikrlashlari va idrok etish faoliyatlarini rivojlantirish yo'li bilan ta'lim tashkil etiladi. Bunday ta'lim texnologiyasi turli tumanligi bilan ajralib turmaydi, chunki ta'lim oluvchilarni faol ishtirok etish faoliyatiga jalb etish bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi. Ular ketma-ket tartibda va kompleks amalga oshirilishi kerak. Bunday o'qitishda muammoli vaziyatni yaratish muhim bosqich hisoblanadi, chunki mazkur jarayonda fikrlash jarayonida qiyinchilik his qilinadi.

Muammoli o'qitishda muammoni ilgari surish **dastlabki bosqich** hisoblanadi. Muammoni hal etishning **keyingi bosqichida** ta'lim oluvchilar berilayotgan savol bo'yicha mavjud muammoni aniqlaydilar, tahlil qiladilar, javob topish uchun ularning etarli emasligini aniqlaydilar va etishmayotgan axborotni topishga intiladilar. **Uchinchi bosqich** muammoni yechish uchun zarur bo'lgan bilimlarni turli usullar bilan egallashga qaratilgan faoliyat bo'lib, u ta'lim oluvchida mustaqil fikr shakllanishi orqali aniqlanadi. Shundan keyin muammoni hal etish, olingan natijalarni tekshirish, dastlabki gipoteza bilan solishtirish, egallangan bilimlar, malakalarni tizimlashtirish va umumlashtirish jarayonlari amalga oshiriladi.

Muammoli topshiriqlar savollar, o'quv masalalari, amaliy

vaziyatlardan iborat bo'lishi mumkin. Muammoli savolda javoblar izlash turli variantlarda bo'lishi mumkin.

Muammoli masala esa uni yechish yo'llarini mustaqil izlashga intilishni yuzaga keltiruvchi o'quv-o'rganish topshirig'idir. Muammoli masala asosini mavjud bilimlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tashkil etadi.

O'qish jarayonida muammoli vaziyat sub'ekt (ta'lim oluvchi) o'zi uchun qiyin bo'lgan masalani yechishga qiziqishi, ammo unga ma'lumotlar yetishmasligi va uning o'zi ularni izlab topishi zarurligini ko'zda tutiladi.

Muammoli o'qitishning afzalliklari: Shaxsiy ijodiy faoliyatni tashkil etish asosida bilimlarni mustahkam egallash, o'qishga qiziqishni uyg'otish, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish, o'qitishning mustahkam va amaliy natijalariga erishish.

Kamchiliklari ta'lim oluvchilarning idrok etish faoliyatlarini boshqarishning qiyinligi, muammoni qo'yish va hal etish uchun ko'p vaqt sarflanishi, muammoli vaziyatni yaratish va mustaqil hal qilish imkoniyatini har bir ta'lim oluvchiga taqdim etishning qiyinchiligi bilan belgilanadi.

Dasturiy ta'lim (dasturlashtirilgan ta'lim) harakat (operatsiya) lar ketma-ketligi tizimini ifodalovchi, ularni bajarish oldindan rejalashtirilgan natijaga olib keluvchi "dastur" terminidan kelib chiqadi.

Dastur-bajariladigan ish yoki biror faoliyat rejasi bo'lib, uning yordamida ta'lim oluvchilarga ta'lim-tarbiya berishda o'quv rejasi va dasturlarini og'ishmay amalga oshirilishida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Dasturlashtirilgan ta'lim-o'quv jarayonini muayyan tartib (dastur) asosida tashkil etishga mo'ljallangan bo'lib, uning yordamida o'quv jarayonini olib borishning optimal variantlariga erisiladi. U kibernetika, informatika, matematik logika, hisoblash texnikasi asoslari va psixologiya fanlarining samarali tamoyillari va murakkab tizimlaridagi boshqarish vositalarining pedagogikada joriy etilishi natijasi ko'rinishida XX asrning 50 yillarida paydo bo'ldi. Dasturlashtirilgan ta'lim o'quv materialini kichik-kichik qismlarga bo'lish, ushbu qismlarning biridan ikkinchisiga o'tish tartibi (qoidalari) ni belgilash, xususan, har bir qismni o'zlashtirish yuzasidan aniq ko'rsatmalar, topshiriqlar berish, o'z-o'zini nazorat

qilishni ta'minlash kabi yo'llar bilan amalga oshiriladi. U ta'lim oluvchining bilim egallashi yo'lida har bir qadamni nazorat qilishga imkon beradigan va shuning asosida, o'z vaqtida yordam ko'rsatish, qiyinchiliklarni oldini olish, qiziqishini yo'qotmaslik va salbiy oqibatlarining oldini olishga imkon beruvchi o'quv jarayonining texnologiyasini yaratishga yo'naltiriladi.

Dasturiy ta'limning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- o'quv materialining alohida qismlarga ajratilishi;
- o'quv jarayonining bilimlarini o'zlashtirish bo'yicha bilimlarning muayyan miqdorlari (bo'laklari) va fikrlash (mantiqiy) amallaridan iborat bo'lgan ketma-ket bosqichlardan iborat bo'lishi;
- har bir bosqichning nazorat bilan yakunlanishi;
- nazorat topshiriqlarini to'g'ri bajargan ta'lim oluvchining yangi materialni o'zlashtirish uchun olish imkoniyati va navbatdagi bosqichni bajarishga kirisha olish;
- to'g'ri javobni topishda ta'lim oluvchining yordamchi va qo'shimcha tushuntirishlarni olishi;
- har bir ta'lim oluvchining mustaqil ishlashi, intellektual salohiyati etarli bo'lgan mavzular bo'yicha o'quv materiallarini o'zlashtirishi;
- natijalar monitoringi, ya'ni barcha nazorat topshiriqlari bajarilishi natijalarining qayd etilishi;
- ta'lim jarayonida ta'lim beruvchining ta'lim tashkilotchisi va lozim topilganda mazkur jarayonda maslahatchi (boshqaruvchi) sifatida ishtirok etishi va individual yondashuvni amalga oshirishi;
- ta'lim jarayonida o'qitishning o'ziga xos vositalarining keng qo'llanilishi (kompyuterli o'rgatuvchi dasturlar, intellektuallashtirilgan dasturlar, kasbiy kompyuterli o'yinlar, trenajerlar, nazorat qilish qurilmalari, o'qitish mashinalari va Shu kabilar).

Kompyuterli ta'lim. Ma'lumki, o'qitish sohasida jahon didaktikasining muhim tajribasi natijasida shaxsiy EHM rivojlanishi negizida kompyuterlashtirilgan ta'lim vujudga keldi.

Kompyuter-(ing. Computer - hisoblayman)-oldindan berilgan dastur bo'yicha ishlaydigan avtomatik qurilma. Ta'lim-tarbiya jarayonlarini kompyuterlashtirishda zamonaviy kompyuterlar universal didaktik vositalar (qurilma) bo'lib hisoblanadi va ularning

ta'lim-tarbiya jarayonlarining optimal variantlarini topishdagi roli beqiyos. Shuningdek, kompyuter ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishda yangi dasturiy-texnik universal vositasi bo'lib, ularning amaliy tafakkurini kengaytirish va chuqurlashtirib, ulardagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni yuqori darajaga ko'taradi.

Maxsus ta'lim dasturlari bilan ta'minlangan kompyuterlardan deyarli barcha didaktik masalalarni hal etishda foydalanish mumkin. Ular: axborot berish; o'qitish jarayonini boshqarish; natijalarni nazorat qilish va tuzatib berish; mashqlarni bajarish; o'quv jarayoni rivojlanishi haqida ma'lumotlarni to'plash va shu kabilar.

Rivojlangan mamlakatlarda kompyuterlardan keng foydalanishning rivojlanishi bu boradagi quyidagi asosiy yo'nalishlarni aniqlashga imkon beradi:

- alohida o'quv fanlari (matematika, tabiiy fanlar, ona tili, chet tili, geografiya, chizmachilik va shu kabi fanlar) bo'yicha o'zlashtirish darajasini oshirishni ta'minlash;

- umumiy kognitiv (idrok etish) qobiliyatlari-qo'yilgan masalani hal etish, mustaqil fikrlar, kommunikativ malakalarni egallash (axborotni to'plash, analiz, sintez qilish)ni rivojlantirish, u yoki bu ko'nikmani shakllantirishga imkon beruvchi jarayonlarga e'tiborni kuchaytirish.

Kompyuterlashtirishning asosiy **maqsadi**, ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatish ishlarini avtomatlashtirishdan iborat bo'lsa, uning asosiy **vazifalari** intellektual salohiyatni ko'tarish, aqliy mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, ta'lim-tarbiyada optimal variantlarni kafolatlashlardan iboratdir.

Kompyuterlar yordamida ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlar qilishga imkoniyat yaratiladi va yangi axborot texnologiyalarini joriy etishga keng imkoniyatlar yaratiladi hamda yangi ko'rgazmalilik ta'minlanadi. Shuningdek, ulardan ta'lim-tarbiyada universal didaktik vosita sifatida foydalaniladi. Bu o'qituvchi vaqtini tejashga imkon beradi va natijada ta'lim jarayonidagi samaradorlik qo'lga kiritiladi.

Dasturiy va kompyuterli ta'limlar o'qitish algoritmlarini bajarishga asoslanadi. Ma'lumki, algoritm belgilangan (rejalashtirishgan) natijaga olib keluvchi mantiqiy jihatdan mukammal

va izchil tuzilgan ketma-ket amallar (operatsiyalar, harakatlar) tizimi sifatida bilim, ko'nikma va malakalarni to'la o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan o'quv faoliyati tartibi va ketma-ketligini ta'lim oluvchiga ko'rsatadi. O'quv dasturlari va kompyuterli ta'lim samaradorligi fikrlash faoliyatini boshqarish algoritmlarining sifatiga bog'liq bo'ladi.

Kompyuterli ta'lim dasturlari, odatda ikki xil, ya'ni axborot ma'lumotli va nazorat ta'limiy tartibda o'qitish imkoniyatiga ega bo'lgan turlarga bo'linadi.

Ta'lim oluvchilarni masofadan turib o'qitish mobaynida kompyuterlar ta'lim oluvchilarning o'z-o'zining bilimini sinovida ya'ni joriy va oraliq baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maxsus ishlab chiqariladigan uskunaviy vositalardan foydalanish kompyuterli ta'lim dasturlarini yaratish jarayonini anchagacha engillashtiradi. Ular yordamida kompyuter texnologiyalaridan boxabar bo'lgan tarix, adabiyot, huquq va boshqa fan o'qituvchilari ham bimalol ta'lim dasturini yaratish mumkin.

Chop etilgan materiallar audio va video yozuvlar bilan birgalikda o'quv materialiga kirishni kengaytirish va soddalashtirish, o'quv materialini qulay va ko'rgazmali tarkiblash uchun, shuningdek, oson harakatlanishi (navigatsiya) uchun foydalaniladi.

Kompyuterli ta'limning sifati quyidagi ikki asosiy omil bilan aniqlanadi:

- o'qitish dasturlarining mukammalligi;
- hisoblash texnikasining mukammalligi va o'qitish jarayonida foydalanishdagi qulayligi.

Kompyuterli o'qitish tizimi - bu quyidagi vazifalarni bajarishga imkon beruvchi o'quv-metodik va dasturiy-texnik vositalar majmuasi bo'lib hisoblanadi:

- bilimning aniq predmet sohasini o'rganish;
- o'quv kurslarida ishlanmalarni qo'llash;
- o'quv jarayonini boshqarish va shu kabilar.

Bugungi kunda o'quv jarayonini tashkil etishda qo'llanilayotgan kompyuterli o'qitish tizimini quyidagidek sinflarga ajratish mumkin:

- a) ma'ruzani immitatsiyalovchi va o'rganuvchi materialni bayon etishda aniq rejaga ega bo'lgan ma'ruzachi tipidagi tizimlar;
- b) seminar, laboratoriya mashg'ulotlarini immitatsiyalovchi

assistent tipidagi tizimlar;

c) o'rganilayotgan va yondash fanlar bo'yicha foydalanishga mo'ljallangan ma'lumotlar bazasini tashkil qiluvchi maslahatchi tipidagi tizimlar;

d) bilimlarning boshlang'ich darajasini va o'quvchining psixologik holatlarini tekshirishga imkon beruvchi repititor tipidagi tizimlar. Dunyoda shunda y ta'lim tizimi yuzaga kelganki, uning xilma-xil turlari mavjud bo'lib, ularni ko'pchilik **“qo'llab turuvchi, ta'minlovchi, yordamchi o'qitish”** deb ataydilar. U qanchalik xilma-xil bo'lmasin, uning asosiy **maqsadi** odamni kundalik muammolarni hal etishga tayyorlashga asoslangan bo'lib, shaxsning faoliyati va hayot tarzini qo'llab turish uchun mo'ljallangan.

Ayni vaqtda **“Innovatsion” (yangilik kiritish)** ta'limni tashkil etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Innovatsion ta'lim-bu bo'lajak mutaxassislarni joylarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u avval olgan bilimlar asosida ta'limni takomillashtirish va samarali yangicha yondashuv qilishdan iborat. Unda ta'lim-tarbiyada yangicha sifat ko'rsatkichiga erishib, yuqori samaradorlikni qo'lga kiritish amalga oshiriladi va ijodkorlikka yo'naltiriladi hamda ta'lim texnologiyalarini yangicha sifat bosqichiga ko'tarish, shuningdek, ta'lim-tarbiyada zamonaviy yondashuvlarni tashkil qilib borishni ta'minlaydi.

Innovatsion ta'limda zamon bilan hamnafas ta'lim texnologiyalarini yaratish bilan shug'ullanishga doim imkoniyat yaratilib boriladi.

Innovatsion ta'lim o'ziga xos ijobiy xususiyatlarga ega. Ular quyidagilardan iborat:

- kadrlar tayyorlash tizimiga ilm-fanning uzviy ravishda kirib borishini ta'minlaydi. Bunda ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratish va o'zlashtirish yuzasidan maqsadli innovatsion loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish yo'li bilan ilm-fanning ta'lim amaliyoti bilan integratsiyani ta'minlash chora-tadbirlari ishlab chiqiladi;

- ilg'or pedagogik texnologiyalar va yangi axborot texnologiyalarini joriy etish uchun o'rta umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy o'quv yurtlarida eksperimental maydonchalar tashkil etish orqali ilmiy-tadqiqot natijalarini o'quv-

tarbiya jarayoniga o'z vaqtida joriy etish mexanizmlarini ro'yobga chiqarishga erisiladi;

- ta'lim jarayonining istiqbolini oldindan ko'ra bilish, ya'ni ta'lim beruvchining avvalgi va hozirgi tajribasi asosida o'qitish emas, balki ta'lim oluvchini uzoq kelajakni mo'ljallashga (istiqbolli reja tuzishga) o'rgatishdan iborat bo'lib, unda ta'lim oluvchi ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatda tashhishtirish, bashoratlash, modellashtirish va loyihalashtirishni amalga oshira olishi zarur;

- ta'lim oluvchining hamkorlikda ta'lim olish va optimal qarorlarni qabul qilish (lokal va xususiydan tortib dunyoni, madaniyat, tsivilizatsiya rivojlanishini hisobga olishdan global muammolarni hal etish)da faol ishtirok etishni ta'minlash.

Keyingi yillarda **masofaviy ta'lim** (lotincha **distantia** - masofa) uzluksiz ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda.

Masofaviy ta'lim-bu masofadan turib o'qitishning usullariga asoslangan holda aholining keng qatlamlariga taqdim etiluvchi zamonaviy ta'lim texnologiyasidir. U o'quv adabiyotlarining almashinish vositalari (Er sun'iy yo'ldosh, televideniya, radio, kompyuter aloqa va boshqalar)ga tayanib, ixtisoslashtirilgan axborot muhiti yordamida masofadan mamlakat aholisining keng qatlamiga va xorijiy davlatlarga taqdim etiladigan ta'lim xizmatlar majmuidan iborat.

Masofaviy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning samaradorligini oshirishda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi Shaxsining muntazam aloqasini ta'minlash **asosiy vazifa** bo'lib hisoblansa quyidagi ta'limiy imkoniyatlarni qo'lga kiritish mumkin:

- masofaviy ta'lim o'qishga ijobiy yondashuvni ta'minlaydi;
- pedagogik jarayon maqsadi sifatida ta'lim oluvchiga yo'nalish berish imkoniyati bor;
- metodologik, nazariy, uslubiy bilimlarni egallashga imkon yaratadi;
- bilish faoliyatini mustaqil tashkil etish imkonini beradi;
- ta'limning turli axborotlarini topish va o'zlashtirish imkonini beradi;
- zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil etiladigan bilish faoliyatini amalga oshirish borasida samarali qo'llaniladi;

- axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishda, axborot olish va undan foydalanish samaralarini hosil qilish borasidagi ishlanmalarni tayyorlashga keng imkoniyatlar yaratadi.

Masofaviy ta'lim pedagogik faoliyatning ijodiy xarakterini oshiradi, ya'ni zaruriy axborotlarni izlay bilish, tanlangan axborotlar bilan ishlay bilish va informatika vositalari yordamida odamlar bilan muloqotni samarali amalga oshira bilish yo'nalishlarini zamonaviy ta'lim talablariga mos holda ta'limni yanada optimallashtirib boraveradi.

5.2.Ta'limni tashkil etish shakllari: asosiy va yordamchi shakllar.

Tayanch iboralar: *ta'limning shakllari, rahbarlik qilish xususiyatlari, ta'lim afzalliklari, ta'limning individual-guruhli shakli, ta'limning ommaviy shakli, sinf-dars tizimi, ta'limning maruza - seminar shakli, yangi bilim berish darsi, umumlashtiruvchi dars, fakultativ mashg'ulotlar.*

Jahon pedagogika fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli shakllari bor. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limni tashkil etishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ayni vaqtda ta'limning quyidagi shakllari ajratilib ko'rsatiladi:

- individual;
- individual-guruhli;
- sinf-dars;
- ma'ruza-seminarli;
- sinfdan tashqari;
- auditoriyadan tashqari;
- maktab va maktabdan tashqari.

Ulardan ta'lim oluvchilarni qamrab olishi, ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqiligi darajasi va o'qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko'ra quyidagi asosiy turi iste'molda foydalanib kelinmoqda:

- individual;
- individual-guruhli;
- sinf-dars;

- ma'ruza-seminarli.

Qadim zamonlarda mavjud bo'lgan o'qitishning eng qadimgi shakli **individual** ta'lim hisoblanadi. Bu orqali hayotiy tajribalarni ajdodlardan-avlodlarga uzatish ibtidoiy jamiyatdayoq yuzaga kelgan edi. Yozuv paydo bo'lishi bilan qavm boshlig'i turli belgilar yordamida o'zining tajribalarini keyingi avlodga uzatgan. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning bevosita va individual aloqasiga hozirda misol sifatida repetitorlikni ko'rsatish mumkin. Ta'limni tashkil etishning individual shakli antik davr va o'rta asrlarda yagona usul bo'lgan, undan ba'zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanib kelingan.

Individual ta'lim bir qator **afzalliklarga** ega. Shuning uchun bu usulni bizning davrimizgacha repetitorlik shaklida saqlanib qolgan. Uning ustunligi o'quv faoliyati mazmuni, metodi va suratini to'la individuallashtirish, aniq bir masalani hal etishda uning har bir harakati va operatsiyalarini kuzatib borishga imkon berishdan iborat. Individual ta'lim beruvchining yuqori pedagogik malakaga ega bo'lishini talab etadi.

Individual ta'limning **kamchiliklari**: vaqtning tejamli emasligi; ta'lim beruvchi ta'sirining cheklanganligi. (Bunda ta'lim beruvchining vazifasi ta'lim beruvchiga topshiriq berish va uni tekshirishdan iborat bo'ladi); boshqa ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi (bu ta'lim oluvchining yoki ta'limning ijtimoiylashishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi); jamoada ishlash tajribasini shakllanmasligi va shu kabilardan iboratdir.

Qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish natijasida XVI asrdan boshlab ta'limning **individual-guruhli** shakli paydo bo'ldi. Bu ta'lim turidan XVI asrga kelib Evropada keng foydalana boshlandi. Markaziy Osiyo davlatlarida bu ta'lim turidan qadim davrlarda ham foydalanganlar. Bunga Avesto davri misol bo'la oladi. Bu davrda ta'lim oluvchilar uchun asosiy o'quv qo'llanma zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" (Eramizdan avvalgi VII-XVI asrlar) bo'lib kelgan. Avesto davri jamiyatidagi maktablarda individual o'qitish jamoaviy o'qitish bilan birga olib borilar edi. Ta'lim beruvchi "Avesto" kitoblaridan birini ochadi va ta'lim oluvchilar navbatma-navbat kelib ovoz chiqarib o'qiydilar, keyin esa hamma birgalikda o'qilganni takrorlaganlar, mashqlarni maxsus taxtachalarda

yozganlar. Aqliy mashqlar ta'lim beruvchining ta'lim oluvchi bilan erkin suhbatida davomida olib borilgan.

XI asrdayoq Abu Ali ibn Sino o'zining "Tadbiri manzil" nomli ilmiy asarining maxsus "Amuzish va parvarishi modrasas farzand" (**"Bolalarni maktabda o'qitish va tarbiyalash"**) bo'limida ta'lim oluvchilarga jamoaviy o'qitish haqida quyidagi tavsiyalarni beradi:

1) agarda ta'lim oluvchilar birgalikda o'qisalar, ular zerikmaydilar, fanni o'rganishga qiziqish kuchayadi; ularda bir-birlaridan ortda qolmaslik uchun o'zaro musobaqalashish istagi rivojlanadi, ular bolaning o'qishi yaxshilanishiga yordam beradi.

2) o'zaro suhbatlarda ta'lim oluvchilar kitobdan o'qish yoki kattalardan eshitgan qiziqarli ma'lumotlarni bir-birlariga aytib beradilar.

3) bolalar birgalikda yig'ilganlarida bir-birlari bilan do'stlashadilar va bir-birlarini hurmat qiladilar; ular faqatgina musobaqalashmaydilar; balki bir-birlariga o'quv materiallarini o'zlashtirishda yordam beradilar; bu bilan bolalar mag'rurlanadilar, bir-birlaridan yaxshi odatlarni o'rganadilar [**Rahimov S.R. Abu Ali ibn Sinoning psixologik-pedagogik qarashlari.-Toshkent: O'qituvchi, 1987.-103 b].**

Burhoniddin Zarnuji (XII asr) **"Bilim olish yo'lida o'quvchiga maslahatlar"** nomli o'zining ilmiy asarida dars olib borish bo'yicha tavsiyalar beradi. uning ko'p yillik dars o'tish tajribalari asosida mazkur ilmiy asar yaratilgan va XX asrgacha o'ziga xos pedagogika darsligi sifatida Markaziy Osiyo madrasalarida foydalanib kelingan. Asarda maktabda dars tahminan bir soatlar davom etishi kerakligi yoziladi. Ta'lim beruvchi maktabda darsga tushunish va o'zlashtirish mumkin bo'lgan o'quv materiallarini tanlab olishi, darsda o'rganiladigan materiallarni tushuntirib berish kerak. O'quv materialini Shunday tanlash kerakki, u ikki marotaba takrorlanganda o'zlashtirilsin. Shuning uchun u katta matnlarni qismlarga bo'lish va boshqa darslarda uni albatta takrorlashni taklif etadi.

XV asrda jamoaviy o'qitishni tashkil etish g'oyasini Muhammad Tarag'ay Mirzo Ulug'bek davom ettiradi. U o'zining madrasalarida individual mashg'ulotlar tizimini bekor qiladi va jamoaviy sinf-dars tizimiga yaqin bo'lgan shaklni joriy qiladi. Umumiy ma'ruzani 50-70 nafar kishidan iborat katta guruhga odatda, o'z sohasida mashhur bo'lgan olim mudarris (o'qituvchi - professor) o'qiydi, amaliy

mashg'ulotlarni esa 10-15 kishidan iborat kichik guruhga kichik mudarris (o'qituvchi) olib boradi.

O'sha paytdagi ta'limning asosiy metodlari munozara va tortuvshuvlar hisoblangan. Samarqand madrasalarida ma'ruzalarni allomaning o'zi va Qozizoda Rumiy, Mavlono Muhammad Ali qushchi, Avaz Karmani va boshqa shu kabi mashhur olimlar o'qiganlar.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek va uning izdoshlari tomonidan matematika (algebra, geometriya, triganometriya), metofizika, astronomiya, geografiya, tarix va shu kabi fanlardan yangi darsliklar yaratildi. Bu darsliklar oddiy va tushunarli shaklda yozilgan.

Mazkur ta'lim tizimida ham o'ziga xos salbiy tomonlar bo'lgan, ya'ni jamoaviy usulda XX asr maktablarida mashhur bo'lgan guruhli-laboratoriya metodida bo'lgani kabi o'zlashtirishni individual xususiyati hisobga olinmagan. Yaxshi o'zlashtirmagan ba'zi ta'lim oluvchilar ham ilg'orlar qatorida bir qo'llanmani o'rganishdan boshqasini o'rganishga o'z-o'zidan o'tavergan, kerakli bilimni egallay olmagan holda madrasani bitirib chiqadilar.

Ta'lim individual-guruhli shaklida ta'lim beruvchi mashg'ulotlarni bir ta'lim oluvchi bilan emas, balki tayyorlik darajasi turlicha bo'lgan turli yoshdagi bolalar guruhi bilan olib boradi. Bunda ta'lim beruvchi navbat bilan har bir ta'lim oluvchidan o'tilgan materialni so'raydi, yangi mavzuni (materiallarni) tushuntiradi, mustaqil ishlashi uchun individual topshiriqlar beradi, boshqa ta'lim oluvchilar o'z ishlari bilan shug'ullanadilar. O'qishni bunday tashkil etishda, ta'lim oluvchilar mashg'ulotlarga yilning turli davrlarda hamda kunning turli vaqtlarida kelishlari mumkin bo'lgan.

XV-XVI asrlar davomida Evropada ishlab chiqarishning rivojlanishi kuzatildi va uning natijasida ta'lim berishning **ommaviy shakli** yuzaga keldi. Ulardan biri ta'lim oluvchilarni o'qitishning **guruhli (jamoali)** turi deb ataladi. Ular g'arbiy Rossiya (Hozirgi Belorussiya va Ukrainaning g'arbiy qismlari) dagi birodarlik maktablarida ilk bor qo'llanilgan va undagi o'qish **sinf-dars** shaklining asosi bo'lgan. Bu tizimlar XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan "Buyuk didaktika" asarida nazariy jihatdan asoslab berildi va ommalashtirildi. Olim pedagogikaga **o'quv yili, o'quv kuni, dars mashg'ulotlari orasidagi tanaffus, o'quv ta'tillari** kabi tushunchalarini kiritgan.

Sinf-dars tizimi garchi 350 yil avval asoslangan bo'lsada, bugungi kunda ham keng ko'lamda iste'molda foydalanib kelinmoqda. Uning asosiy mazmuni o'quv ishlarini tashkil etishning o'ziga xos shakli sifatida quyidagilardan iborat bo'ladi:

- bir xil yoshdagi va taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan ta'lim oluvchilar (o'quvchilar) **sinfni** tashkil etadi. Bu sinf maktabda o'qishning umumiy davriga asosan doimiy tartibini saqlab qoladi;

- sinf faoliyati yagona yillik reja va dastur asosida doimiy dars jadvali bo'yicha tashkil etiladi, buning natijasida bolalar maktabga yilning bir vaqti va oldindan belgilangan kun soatlarida kelishlari kerak bo'ladi;

- mashg'ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi;

- dars odatda bir fan yoki mavzuga bag'ishlangan bo'ladi, shu bois ta'lim oluvchilar sinfda bitta material ustida ishlaydilar;

- darsda ta'lim oluvchilarning ishiga (faoliyatiga) ta'lim beruvchi rahbarlik qiladi, u o'z fani bo'yicha o'qish natijalarini, har bir ta'lim oluvchini alohida bilimini baholaydi. O'quv yili ohirida pedagogik jamoa, ya'ni ta'lim beruvchilar xulosalari bo'yicha ta'lim oluvchini keyingi sinfga o'tishi haqida qaror qabul qilindi.

Sinf-dars tizimi K.D.Ushinskiy tomonidan yanada rivojlantirildi. U bu shaklning hamma ustunliklarini ilmiy asoslab berdi. Dars, ayniqsa, uning tashkiliy qurilishi (tuzilishi) va tipologiyasining ixcham nazariyasini yaratdi.

K.D.Ushinskiy har bir darsning bir-biri bilan ketma-ket bog'langan quyidagi uchta qismini ajratib ko'rsatdi:

- 1). Ilgari o'rganilgan bilimlar asosida yangi bilimlarni anglashni amalga oshirish va ta'lim oluvchilarda materialni jadal qabul qilishga maqsadli ko'rsatmani yaratishga qaratilgan qism. Darsning bu qismi K.D.Ushinskiyning fikricha darsga go'yoki "**eshik**" hisoblanadi.

- 2). Asosiy masalani hal etishga yo'naltirilgan qism. Bu qism darsning muhim markaziy qismi hisoblanadi.

- 3). Amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasash va bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratilgan qism. Bu qism darsning xulosalash va umumlashtirish qismi bo'lib, hisoblanadi.

Darsni tashkil etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishga A.Disterverg ham katta hissa qo'shdi. U ta'lim beruvchi va ta'lim

oluvchilarning faoliyatiga taalluqli o'qitish tamoyillari va qoidalari tizimini ishlab chiqdi hamda ta'lim oluvchilarning yoshi imkoniyatlarini hisobga olishni zarurligini asoslab beradi.

Alohida o'quv fanlarini o'qitish metodikasi va didaktikasiga oid asarlarda ta'limning **sinf-dars** tizimining afzalliklari va kamchiliklari ko'rsatilib beriladi. Quyida ular to'g'risida to'htalamiz.

I. Afzalliklar:

- yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli (tizimli) ketishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizim;
- jarayonlarning oddiy boshqarilishi;
- muammoning jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning echimini birgalikda izlash jarayonida ta'lim oluvchilar o'rtasida o'zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati;
- ta'lim beruvchining ta'lim oluvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsional ta'sir ko'rsatishi;
- ta'limning emotsionalligi (zero, ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida ta'lim oluvchilarning katta guruhi bilan ish olib boradi), o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi, bilimsizlikdan bilimlarni o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va izchilligi.

II. Kamchiliklari:

- tizimning bilimlarni asosan o'rta darajada o'zlashtiruvchi ta'lim oluvchilar uchun mo'ljallanganligi, bo'sh o'zlashtiruvchi ta'lim oluvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchi ta'lim oluvchilarning qobiliyatlarining rivojlanish sur'atining ortga surilishi;
- ta'lim beruvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, Shuningdek, ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchiliklarni yuzaga kelishi;
- katta va kichik yoshli ta'lim oluvchilar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.

XIX asr ohiri XX asr boshlarida aqliy rivojlanishida farqi bo'lgan ta'lim oluvchilarni o'qitishda individuallashtirishga e'tibor qaratish masalasi ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shunga mos ravishda ta'limning **tanlab o'qitish** shakli yuzaga keldi. Bu AQSH da Batov va Evropada Manncheyms tizimlarida yaqqol seziladi.

XX asr boshida Evropa va AQSH da ta'lim oluvchilarning individual, faol, mustaqil o'quv ishlarini ta'minlashga qaratilgan ko'plab ta'lim tizimlarining samaradorligi sinab ko'rilgan. Ular orasida 1905 yili Massachusetts shtatining Dalton shahrida o'qituvchi Elena Park Herst tomonidan birinchi bor qo'llanilgan **ta'limning individuallashtirilgan tizimi** sifatida e'tirof etilgan. Bu tizim **dalton-reja** nomi bilan pedagogikaga va maktab tarixiga kirdi. Bu ba'zan **laboratoriya yoki ustaxonalar tizimi** deb ham ataladi. Bu tizimning mazmun-mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- o'quv faoliyatining muvoffaqiyati maktabda ishlash sur'atining har bir ta'lim oluvchining imkoniyatlari, ularning qobiliyatlariga moslashtirilishiga bog'liq;

- ta'lim faoliyati uchun ustun turadigan o'qishni an'anaviy tashkil etish ta'lim oluvchining mustaqil o'quv faoliyatining markazi hisoblanishi;

- ta'lim beruvchi o'z vazifasini odob bilan bajarishi;

- sinf laboratoriyalarining ustaxonalar bilan almashtirilishi, o'qituvchining yangi materialni tushuntirmasligi, balki uni ta'lim oluvchining o'zi laboratoriya yoki ustaxonalarda ta'lim beruvchidan olingan topshiriq asosida mustaqil shug'ullanishlari va zarur bo'lgan paytlarda ta'lim beruvchidan yordam so'rashlari asosida o'zlashtirishi va shu kabilar.

XX asrning 20-yillarida maktab ishlari ilmiy tadqiqot instituti **ta'limning loyihali tizimini** targ'ib qila boshladi. Uni amerikalik U.Kelpatrik ishlab chiqqan. Ta'limning bu tizimining mazmuni ta'lim oluvchilarning o'zlari loyiha ishlari mazmunini tanlab olishlaridan iborat. U mavjud haqiqiy hayot bilan bog'langan bo'lishi va o'quv guruhi ixtisosliklariga qarab (yo'nalishlari) ijtimoiy-siyosiy, xo'jalik ishlab chiqarish yoki madaniy turmush tomonlarini aks ettirishi kerak bo'lgan.

XX asrning 60-yillarida **Tramk rejasi** juda mashhur bo'lib ketdi. Uni amerikalik professor pedagog Lyuyd Trank ishlab chiqqan. O'qitishni tashkil etishning bu shakli katta auditoriyalarda (100-150 odam) umumiy mashg'ulotlarni, 10-15 kishilik guruhlarda esa amaliy mashg'ulotlarni esa va ta'lim oluvchilarning individual ishlarini ham birgalikda olib borishni taklif etadi. Bunda turli xildagi texnik vositalardan foydalanib umumiy ma'ruzalarni olib borishga o'quv


vaqtining 40 foizi ajratiladi. Shuningdek, kichik guruhlardagi mashg'ulotlarga (amaliy mashg'ulotlar) esa o'quv vaqtining 20 foizini va kabinet yoki laboratoriyalarda individual mustaqil ishlarni bajarishga o'quv vaqtining 40 foizi ajratiladi.

XX asrning 70-yillarida o'qishni tashkil etishning noan'anaviy shakllarini izlash davom ettirildi. Tajriba va sinov maktablarini izlash birinchi navbatda **sinf-dars** tizimini modernizatsiyalashtirish fikri bilan bog'liq bo'lgan. Izlanishlarning asosiy masalasi-o'qishni individuallashtirishdan iborat edi.

Birinchi universitetlar paydo bo'lishi bilan **ta'limning maruza - seminar shakli yuzaga** kela boshlaydi. U yaratilgan paytdan beri mazkur tizim deyarli o'zgarmagan. Ma'ruza, seminar va laboratoriya ishlari, konsultatsiya va tanlagan kasbi bo'yicha amaliyot hozirgacha ma'ruza-seminar tizim sifatida o'qishning asosiy shakllaridan biri bo'lib kelmoqda. Maruza-seminar tizimi o'zining sof ko'rinishida oliy va oliy maktabdan keyingi ta'lim amaliyotida qo'llaniladi.

O'zbekistonda uch yillik o'rta maxsus , kasb-hunar ta'limini tadbiq etilishi bilan ma'ruza-seminar tizimidan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda ham ulardan foydalana boshlandi. Ohirgi paytlarda ma'ruza-seminar tizimi elementlaridan o'rta maktablarning katta sinflarida ham qo'llanila boshlandi.

Demak, qadim zamonlardanoq jamiyatning etuk kishilari o'qitish ishini tashkil qilishning ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlariga javob beradigan shakllarini topishga uringanlar. Hozirgi vaqtda respublika ta'lim muassasalarida o'qitishning 1-shakldagidek ko'rinishlaridan foydalanilmoqda.



1-shakl. Ta'limni tashkil etish shakllari.

Bugungi kunda darslarni tashkil etishga nisbatan quyidagi didaktik talablar qo'yilmoqda:

1. Darsning maqsadi va vazifalarining aniqligi hamda pedagogik jihatdan to'g'riligi.

2. Darsning ta'limiy, tarbiyaviy va shaxsni rivojlantiruvchanlik vazifalarining birligi va uzviyligi.

3. O'qitishning yaxlit dars va uning ma'lum qismlari, vazifalari hamda mazmuniga muvofiq keladigan ta'lim oluvchilarning bilish faolliklari va mustaqil faoliyatlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi maqbul metodlarni tanlash.

4. Mashg'ulotlarning turli shakllari: jamoa; guruhli va yakka tartibdagi shakllarini maqbul ravishda qo'shib olib borish.

5. Ta'lim beruvchining rahbarlik vazifasi bilan ta'lim oluvchining faol bilish faoliyatini birga olib borish.

6. Darslarning o'zaro uzviy va dialektik xususiyatga ega bo'lishiga erishish.

7. Ta'lim oluvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish.

8. Darsda ta'lim oluvchilarni o'qitish va tarbiyalash uchun qulay shart-sharoit yaratish.

9. Darslarni demokratik tamoyillar asosida tashkil etish.

10. Darsda ta'lim oluvchilar erkinligini ta'minlash [*Hasanboev J., Sariboev H., Niyozov G., Hasanboeva O., Usmonboeva M. Pedagogika. O'quv qo'llanma.-Toshkent: Fan, 2006.-282 b*].

Demak, ta'lim oluvchilarni bilim, ko'nikma va malaka bilan qurollantirishda mashg'ulotning asosiy qismini ishgor qilgan ta'lim shakli u yoki bu ko'rinishdagi dars turini tashkil etar ekan.

Ma'ruza va seminar mashg'ulotlari (konsultatsiyalar, ekskursiyalar, praktikumlar). Darsda bilimlarning o'zlashtirilishi, malaka va ko'nikmalarning hosil qilinishi murakkab dinamik jarayondir. O'quv materialini o'rganishning turli vazifalari, yo'llari, usullari va vositalari vujudga keladi. Buning natijasida darsning juda ko'p turlari, uning har xil variantlari paydo bo'ladi.

Ayni vaqtda ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan dars turlari quyidagilardir:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
2. O'tilgan materialni mustahkamlash darsi.
3. Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish darsi;
4. Takroriy-umumlashtiruvchi dars.
5. Aralash dars.

Muayyan dars turi asosida olib boriladigan mashg'ulotlarda ikkinchi, uchinchi bir dars turining qismlari bo'lishi mumkin. Misol uchun ta'lim muassasalarida eng qo'llaniladigan dars turlaridan biri yangi bilimlarni bayon qilish darsida quyidagi holatlar amalga oshirilishi mumkin:

- yangi bilimlarni bayon qilish;
- yangi bilimlarni mustahkamlash;
- yangi bilimlar ustida mashq o'tkazish;
- yangi bilimlarga bog'liq holda uyga vazifalarini topshirish va hakazo.

Demak, dars umumiy jarayon davomida bir dars turi asosida tashkil etilmaydi. Shunga qaramay darsning maqsadi ta'lim oluvchilarga yangi bilim berishga qaratilgan bo'lsa, butun didaktik usullar ana shunga bo'ysundiriladi. Shu sababli ham bunday dars


yangi bilim berish darsi deb ataladi.

Muayyan dars turi bilan ish ko'rilayotganda boshqa bir dars turi unsurlarining asosiy dars tuzilishini tashkil qilishi mumkin. Darsning tarkibiy tuzilishi u yoki bu dars turining umumiy holati, uning qismlari mohiyatini anglatadi.

Dars jarayonida qo'llanilayotgan har qanday didaktik usul dars tuzilishini ifodalashga har doim ham xizmat qilavermaydi. Didaktik usullar ta'lim metodi bilan baholangandagina dars tuzilishining o'zgarishiga, ta'lim metodlarining o'zgarishi ham dars tuzilishining o'zgarishiga olib keladi. Dars jarayonining muayyan qismida dars shakli hamda metodlarining o'zgarishi darsning yangi bosqichini boshlaganligini anglatadi.

Demak, dars tuzilishining biridan ikkinchisiga o'tishi va shu orqali darsning shakl va metodlarining o'zgarishi **dars bosqichi** deb yuritiladi.

Bu borada xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, turi darsning shakl va metodlari hamda ular negizidagi dars tuzilishlariga bevosita bog'liqdir. Quyida aralash dars turining tuzilishi haqidagi ko'rinishni keltiramiz (1 - shakl).



1-shakl. Aralash dars turining tarkibiy-tashkiliy tuzilishi.

Umumlashtiruvchi dars-bu o'quv dasturining ma'lum bir qismi

(bob, bo'lim yoki ayrim mavzu) o'tib bo'lganidan keyin o'tiladigan dars mashg'uloti.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinflarida ba'zi o'quv materiallarining ma'lum qismi yoki yirik mavzuni boshlashdan avval kirish dars ham olib boriladi. Bunday darslar, odatda, ijtimoiy fanlar bo'yicha o'tkaziladi.

Hozirda ta'limni tashkil etish tizimida yakka tartibda ta'lim olish o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Yakka tartibdagi mashg'ulotlarda ta'lim oluvchining qiziqishi, ehtiyoji, xohishiga, imkoniyatiga ko'ra muayyan fan, predmet yuzasidan chuqur bilim berish, ma'lum fan, yoki predmet bo'yicha yuzaga kelgan o'zlashtirmovchilik holatini bartaraf etish, shuningdek, uzoq vaqt sog'liqli saqlash muassasalarida davolangan yoki tibbiyot xodimlari nazoratida bo'lgan ta'lim oluvchilarning o'quv dasturi talablarini bajarishiga ko'maklashish maqsadida tashkil etiladi.

Hozirda yakka tartibda ta'lim olishning asosiy ko'rinishlaridan biri sifatida repititorlik ta'limi keng tarqalmoqda.

Ma'ruza. Bugungi kunda zamonaviy o'quv muassasalari faoliyatida o'qitish shakllaridan biri bo'lish ma'ruzadan foydalanish keng tarqalgan. Ma'ruza darslarini tashkil etish ancha murakkab va ko'p mehnat talab qiladigan faoliyatdir. Ma'ruza darsi tajribali, yuksak darajada pedagogik mahoratga ega bo'lgan ta'lim beruvchining intellektual salohiyati asosida tashkil etiladi. Ma'ruzada faqat fan, o'quv predmeti asoslari borasidagi ma'lumotlarni bermasdan, ta'lim oluvchilarni ijtimoiy-g'oyaviy jihatdan tarbiyalab borish ham talab etiladi. Ma'ruzadan ko'zlangan **asosiy maqsad** ta'lim oluvchilarning musatqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, bilim va faoliyat malakasini oshirish hamda dunyoqarashini yuksaltirishdan iborat.

Maktab amaliyotida ma'ruzaning quyidagi turlaridan keng foydalanilmoqda:

- ma'ruza-hikoya;
- ma'ruza-suhbat;
- ma'ruza-munozara;
- ommaviy ma'ruza.

Ma'ruzalar yozma shaklda ifoda etiladi. Shu bois ma'ruza-o'qituvchi tomonidan ma'ruza mavzusi yuzasidan reja va ma'ruza

matni tayyorlanadi. Umumiy qoidaga binoan ma'ruza bir dars davomida oxiriga etmay qolsa, u yangi mashg'ulotda davom ettiriladi. Har bir mavzu bo'yicha ma'ruza materiallari tushuntirib bo'lingan, ta'lim oluvchilar bilan savol-javob o'tkaziladi. Shuningdek, har bir mavzu yuzasidan foydalanish lozim bo'lgan adabiyotlar ro'yxati taqdim etiladi.

Fakultativ mashg'ulotlar - bu ta'lim oluvchining qiziqish va xohishlariga ko'ra muayyan fan, predmet yuzasidan beriladigan ilmiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim shaklidir. Fakultativ mashg'ulotlar ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashini oshirishga va ijtimoiy faoliyatini faollashtirishga, aqliy qobiliyatlarini takomillashtirishga xizmat qiladigan maxsus dastur asosida o'tkaziladi.

Fakultativ mashg'ulotlarda qo'yiladigan ma'ruzalar amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashib ketadi. Bunda ta'lim oluvchilar adabiyotlar bilan ishlash malakasini, mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmalarini egallaydilar, murkkab bo'lmagan tajribalar va tadqiqotlar o'tkazish metodikazini o'zlashtiradilar, tajriba qurilmalari va texnikani ishlatish malakasini hosil qiladilar. Fakultativ mashg'ulotlar majburiy fanlar yuzasidan bo'ladigan mashg'ulotlar bilan mustahkam aloqadorlik tashkil etilishi kerak.

Seminar mashg'ulotlari. Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishidagi predmetlar bo'yicha seminar mashg'ulotlarini tashkil qilish keng qo'llaniladi. Seminar mashg'ulotlarini tashkil etishdan **asosiy maqsad** ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlarini yanada rivojlantirish, ayrim mavzular yuzasidan keng va chuqur ma'lumot bera oladigan manbalar ustida ishlay olishlari hamda Shu asosda kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida zarur adabiyotlardan foydalana olish ko'nikma va malakalariga ega qilishdan iboratdir.

Seminar mashg'ulotlari ta'lim beruvchilar tomonidan u yoki bu mavzu bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash hamda uni dars mashg'ulotidagi ta'lim oluvchilar bilan muhokama qilish yo'li bilan olib boriladi.

Ta'lim oluvchilar berilgan reja, dastur va tavsiyalar asosida seminar mashg'ulotlariga oldindan tayyorlanadi. Unda ta'lim oluvchilar mos adabiyotlarni o'rganadilar, material yig'adilar, turli kuzatishlar o'tkazadilar, o'z axborotlari yuzasidan tezislar tuzadilar.

Seminar mashg'uloti ta'lim beruvchi rahbarligida o'tkaziladi. Bunda o'qituvchi ta'lim oluvchilar faoliyatini mashg'ulot maqsadiga yo'naltirib turadi, mavzuga oid savollari yuzasidan tashkil etilgan muhokamani xulosalaydi. Zarur qo'shimcha mulohazalar bildiradi, materialni muayyan tizimga soladi. Seminar darsida faol qatnashgan ta'lim oluvchilar baholanib boriladi.

Seminar mashg'uloti ta'lim oluvchilar e'tiborini darsga jalb etish, ularning qiziqishini orttirish, ularni mustaqil ishlashga va fikrlashga o'rgatish, darsni faollashtirish hamda ta'lim oluvchilar aqliy qobiliyatlarini o'stirishda muhim o'rin tutadi.

Ekskursiyalar. Noan'anaviy dars shakllaridan biri hisoblangan ekskursiyalar sinf-dars tizimi, shuningdek, amaliy mashg'ulotlardan tubdan farq qiladi. Bu farqlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

- ta'lim oluvchi rejalashtirilgan va o'tkaziladigan barcha ekskursiyalarga rahbarlik qilsa ham, u ekskursiya ob'ektlarining barcha detallarini yaxshi bilmasligi mumkin, bunday hollarda maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan ekskursovod ish olib boradi;

- ekskursiya muddati turlicha bo'lib, unda doimiy o'quv jadvali talablariga amal qilish mas'uliyati mavjud;

- ta'lim beruvchi yoki ekskursovodning rahbarlik usuli va ta'lim oluvchilar faoliyati turlicha bo'lishi mumkin.

Ekskursiyalar quyidagidek to'rt yo'nalishda uyushtiriladi (2 - shakl).

Ekskursiya davomida ta'lim oluvchilardan intizomga qat'iy rioya qilish talab etiladi. Ta'lim oluvchilar ob'ektni kuzatish jarayonida vaqti-vaqti bilan savollar beradilar, zarur ma'lumotlarni yozib boradilar. Ekskursiya davomida ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarning bugungi kuzatganlarini avval o'zlashtirilgan materiallarga bog'lab suhbat o'tkazadi. Ekskursiya materiallari asosida ta'lim oluvchi hisobot, bayon yoki insho yozadi.

Ta'limning noan'anaviy shakli siaftida tashkil etiladigan bahs-munozara, davra-suhbati, matbuot konferentsiyasi, telekonferentsiyalar muayyan predmet (yo'nalish) ning muhim mavzulari yuzasidan tashkil etilib, ular ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, o'z fikrini ilgari surish, uni asoslash hamda himoya qilish qobiliyatini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bu kabi darslarning tashkil etilishida maqsadning aniqligi, shuningdek, ta'lim oluvchining

faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Viktorina, mo'jizalar maydoni, zakovat va shu kabi shaklda o'tkazilayotgan darslar bellashuv xususiyatiga ega bo'lib, ular ta'lim oluvchilarni faollikka undaydi.

Yuqoridagi bildirilgan fikr-mulohazalarga asoslanib quyidagi xulosani keltirish mumkin:

- ta'limning shakli muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan faoliyatning tashqi ifodasi bo'lib, ta'lim jarayonida yetakchi o'rin tutadi;

- ta'lim jarayonini samarasini ta'minlash uchun ta'lim metodlaridan o'rinli va unumli foydalanishga bog'liq;

- ta'lim metodi ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlarining usullari hisoblanadi;

- ta'lim vositalari ta'lim metodlarining ta'limiy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

5.3. Ta'lim metodi, usul va vosita tushunchalari.

Tayanch iboralar: *Ta'lim metodlari, bilish faoliyati usullari, ta'lim metodlarini tavsiflash, pedagogik qarash, pedagogik talablar.*

Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga bog'liq bo'lib, u ta'lim nazariyasida asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

“Metod” yunoncha “**metodos**” degan so'zni anglatib, u “yo'l”, tadqiq qilish kabi ma'nolarni anglatadi. Ta'lim metodi ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatdir.

Ta'lim metodlari o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quv materialini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'llarini anglatadi.

O'qitish metodlari ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining qanday bo'lishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda ta'lim oluvchilar qanday ish harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi. Shuningdek, ta'lim metodi o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning o'qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo'lidir.

Ta'lim jarayoni va uning natijalari ta'lim beruvchining ta'lim oluvchilar bilish faoliyati harakatini belgilovchi **ish usullariga** bog'liq. Shu sababli doimo pedagogikada ta'lim metodlariga ta'lim beruvchining ish usullari va ta'lim oluvchilarning **bilish faoliyati usullari** deb qaraladiki, bu usullarning har ikkalasi ham o'quv vazifalarini bajarishga qaratilgandir.

Ta'lim metodlari ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar faoliyatining xususiyatini belgilaydi. Ular ta'limning maqsad-vazifalariga bog'liq bo'ladi.

Hozirgi zamon didaktikasi va xususiy metodikasida ta'lim metodlarini tavsiflashga turlicha yondashuvlar. Ta'lim metodlari tevarak-atrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonuniyatlarini tushunishga bog'liqdir, ya'ni ular falsafiy metodologik asosga egadir va ta'lim jarayonidagi qarama-qarshiliklarni, ta'lim jarayonining mohiyatini va tamoyillarini to'g'ri anglash natijasidir.

Ta'lim materiali ta'lim mazmunida ifodalangan ilmiy fikr mantig'iga bog'liqdir. O'quv materialining mazmuni tobora chuqurlashib, murakkablashib, takomillashib va ilmiy tus olib bormoqda, shuning uchun ta'lim metodlari ilmiy bilishning mantig'i va metodlariga tobora ko'proq bog'liq bo'lib bormoqda.

Zamonaviy ilm-fan va texnika-texnologiyalarning rivojlanishi bilan ta'lim metodlariga bo'lgan munosabat ham o'zgarib, takomillashtib, zamonaviylashib boradi va ular hozirgi zamon didaktikasi hamda xususiy metodikalardagi ta'lim metodlari bilan uyg'un holda shakllantirilib boriladi. Shu sababli ham unga turlicha yondashuvlar bo'lishi ham tabiiydir. Bunda ayniqsa didaktik xarakterga ega bo'lganlari muhim ahamiyat kasb etadi va ular pedagogik nazariya doirasida amalga oshirilmog'i lozim. Bu borada ta'lim metodlari nazariy jihatdan yaxshi asoslangan bo'lishi va pedagogik nazariyadan kelib chiqqan bo'lishi kerak hamda uning amaliy ahamiyatiga albatta e'tibor qaratiladi, chunki ta'lim metodlari amalda qo'llanilmasa u foydasiz bir narsaga aylanadi.

Ma'lumki, ta'limning amaliy yo'nalganligi ta'lim metodlarining eng muhim talablaridan biridir va u doimo zamon talabidagi dolzarb yo'nalishdir.

Demak, ta'lim metodlarida pedagogik nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligini ta'minlashga qaratilgan yondashuv har doim zarur va kerak. Nazariya qancha chuqur va ilmiy bo'lsa, ta'lim metodlari

o'shancha samarali bo'ladi. **Pedagogik qarashlarda** nazariya qancha kam ifodalangan bo'lsa, ta'lim metodlari bu nazariyaga shuncha kam bog'liq bo'ladi.

Pedagogika fani maktablar va ta'lim beruvchilarning ilg'or ish tajribalarini umumlashtiradi, an'anaviy ta'limning ilmiy asoslarini ko'rsatib beradi, o'qitishning **zamonaviy, samarali metodlarini** ijodiy ravishda izlab topishga yordam beradi. Shu sababli ham ta'lim metodlari oldiga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

1) O'quv materialini o'rganish yo'li fikr yuritishning didaktik materialistik usullarini, milliy mafkuraga hamda milliy qadriyatlarga asoslangan axloq, xulq-atvorning irodaviy sifatlarini shakllantirishga olib kelish kerak. Shu talab nuqtai nazaridan qaraganda, ta'lim metodi tarbiyalovchi xarakterda bo'lishi, ya'ni bilimlarni o'zlashtirishgagina emas, balki ta'limning tarbiyalovchilik imkoniyatlarini ishga solishga ham yordam berishi kerak.

2) Ta'lim metodi ilmiy dalillar bilan ravshan va aniq asoslangan bo'lishi lozim. Ana shunda ta'lim beruvchisi, bu metod bilan ishlashda qanday vazifalarni qo'yib, hal qilish mumkinligini va qanday vazifalarni amalga oshirib bo'lmasligini ko'ra oladi. Metodning ilmiyligi ta'lim oluvchilarning ravshan va aniq fikr yuritishini hamda materiallarni o'zlashtirish jarayonidagi dalil-isbot va muhokamalarning maqsadi, vositalari, usullarini, shuningdek, asosiy va ikkinchi darajali natijalarni ham bildiradi.

3) Ta'lim metodlarining tizimlilik ularning samaradorlik darajasini belgilaydi. O'quv materialini o'rganishning har qanday alohida olingan usuli, garchi, shu darsda qo'llanish uchun juda qulay bo'lsa ham, o'qitishning boshqa metodlari bilan birga qo'llanilmaganda ta'lim oluvchilar aqlining o'qishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmasligi mumkin.

4) Ta'lim metodlari oldiga muqarrar sur'atda qo'yiladigan yana bir talab-ularning tushunarli bo'lishidir. O'qitish yo'li ta'lim oluvchiga tushunarli va maqbul bo'lishi, o'quv materialini o'rganish usullari esa uning bilimlarni o'zlashtirishdagi yosh imkoniyalariga muvofiq kelishi lozim.

5) Bolani sezgi organlari orqali bilishga o'rgatish va o'quv jarayonida ko'rsatmali qurollardan iloji boricha ko'proq foydalanish zarurligi ta'lim metodlari oldiga qo'yiladigan muhim talabdir. Ta'lim metodlarini ta'limni ongli va faol shaklda olib borish tamoyili nuqtai

nazaridan asoslash zarurligi ham muhim talablardan biridir. Bolaning o'quv mashg'ulotlariga ongli munosabatda bo'lishi, o'quv materili mazmunini ongli ravishda tushunishi, undagi bilish faolligi va qiziqishining darajasi ta'lim beruvchining tushuntirish metodlariga va ta'lim oluvchilarning bilimlarni o'zlashtirish usullariga bog'liq.

6) Ta'lim metodlari oldiga qo'yiladigan talablardan yana biri-bu bilimlarning asosli va puxta bo'lishidir. Ta'lim metodlari yaxshi natija beradigan bo'lishi lozim. Ta'lim beruvchining tushuntirish va ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish usuli rejalashtirilgan yoki mo'ljallangan natijani berishi kerak.

5.4. Ta'lim metodlari tasnifi va mohiyati.

Tayanch iboralar: *ta'lim metodlari tasnifi, ta'lim jarayonining bosqichlari, o'zaro ta'sir.*

Ta'lim metodlari tasnifi. Ta'lim metodlari tasnifiga oid asosiy qarashlar. Didaktikada ta'lim metodlarini tasnif etishga oid turli-tuman qarashlar mavjud: ba'zi mutaxassislar ta'lim metodlarini tasnif etishga bilim manbalarini hisobga olishsa, ayrim mutaxassislar o'qituvchi faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqishadi, uchinchi bir guruh olimlar esa o'quvchilar faoliyatining e'tiborga olishadi. Ta'lim metodlariga bunday qarashlarning ko'p va rang-barang bo'lishi tabiiy. Zero, ta'lim metodlari mazmunan boy hodisa bo'lib, ular ma'lumot mazmuni bilan ham, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati bilan ham, bilim va malakalar bilan ham, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarini, munosabatlarni rivojlantirish bilan ham dahldor kategoriyadir.

S.I.Perovskiy, E.Ya.Golant o'qitish metodlarini tasnif etishda ta'lim manbalarini hisobga olishgan. Ular o'quvchi nutqi, ko'rgazma qurol, darslik hamda qo'shimcha adabiyotlarni ta'lim manbai sifatida qarab, ta'lim metodlarini uch guruhga ajratishgan: bilimlarni og'zaki bayon qilish metodlari; ko'rgazmali metodlar; amaliy metodlar.

Didaktikada ta'lim jarayonining turli bosqichlarida bajariladigan ishlar mazmunidan kelib chiqib ta'lim metodlarini tasnif etish g'oyasi ham mavjud. M.A.Danilov, B.P.Yesipov o'zlarining qator asarlarida ta'lim metodlarini quyidagicha guruhlariga ajratishgan: bilimlarni o'rgatishga oid metodlar; malaka va ko'nikmalarni shakllantirish metodlari; bilim va malakalarni tatbiq etish metodlari; ijodiy ishlash metodlari; bilim va malakalarni mustahkamlash, tekshirish metodlari.

M.N.Skatkin, I.Ya.Lerner ta'lim metodlarini tasnif etishda o'quvchilar faoliyati xususiyatlarini e'tiborga olishgan va ularni quyidagicha guruhlariga ajratishgan: izohli-ko'rgazmali metodlar; qayta ishlashga oid standart metodlar; muammoli bayon metodi; evristik metod; ilmiy izlanish metodlari.

M.I.Maxmutov ta'lim metodlarini tasnif etishda o'qitish usullari bilan o'qish usullarini o'zaro qo'shishni taklif etadi. Uning uqtirishicha, bu usullar-o'qitish usullari va o'qish usullari o'zaro qo'shib, quyidagi ta'lim metodlarini hosil qiladi: xabar-umumlashtirish tipidagi metodlar: izohli va eslashga oid metodlar; ko'rsatmali-amaliy metodlar; qisman izlanishga oid; izlanish metodlari.

Ukrain olimlari V.F.Palamarchuk, V.N.Palamarchuk ta'lim metodlarini tasnif etishda uch narsani-ta'lim manbalari, bolalarning faollik va mustaqillik darajasi, o'quv bilishining borishidagi mantiqiy yo'lni hisibga olish zarurligini uqtirishadi. Shuningdek, S.G.Shapovalenko ta'lim metodlarini tasnif etishda ularning mantiqiy mazmuniy, manbai, jarayoniy, tashkiliy-boshqaruchanlik xususiyatlarini hisibga olishni taklif etadi.

Didaktikada ta'lim metodlarini tasnif etishda bir paytda ta'lim manbalari va mantiqiylikni (N.M.Verzilin), ta'lim manbalari va o'quvchilarning mustaqillik darajasini (A.N.Aleksyuk, I.D.Zverev) mezon qilib olish moyilligi ham mavjud.

Mashhur didakt olim Yu.K.Babanskiyning qator ilmiy-pedagogik asarlarida ta'lim metodlari o'quvchi faoliyati nuqtai nazaridan tasnif etilgan. U ta'lim metodlarini uch guruhga ajratgan: o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish va boshqarish metodlari; o'quv biluv faoliyatini rag'batlantirish metodlari; o'quv biluv faoliyati samaradorligini nazorat etish metodlari.

Har xil guruh o'z ichida yana kichikroq guruhlariga ajraladi. Masalan, birinchi guruh metodlari jumlasiga quyidagilar kiradi: og'zaki bayon metodlari; ko'rgazmali metodlar; amaliy metodlar; induktiv va didaktiv metodlar: reproduktiv metodlar: muammoli izlanish metodlari va mustaqil ishlash metodlari. Yuqoridagiga o'xshab rag'batlantirish, nazorat qilish metodlari ham o'z ichida guruhlariga ajralgan. Hozirgi paytda ta'lim metodlariga oid mukammal tizim Yu.K. Babanskiy tasnifidir.

Ta'lim metodlarini tasnif etish masalasiga doir qarashlarning ko'pligi, rang-barangligi ularning-ta'lim metodlarining ko'p qirrali didaktik hodisa ekanligi bilan izoxlanadi. Shu bilan birga, bu didaktika sohasiga amal qilayotgan diffirentsiya va integratsiya jarayonlarining natijasidir. endilikda ta'lim metodlari mohiyatini bayon etishga ko'p tomonlama, kompleks yondashish zaruriyati kuchayib bormoqda. Bu inson faoliyatiga yaxlit yondashish metodologiyasi asosida birlashtirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

O'zaro ta'sir ta'lim metodlarini tasnif etish mezoni. O'zaro ta'sir integrativ didaktik hodisa bo'lib, bir tomondan, didktikaning tadqiqot peradmeti, ikkinchi tomondan esa, ta'lim metodalarini tasnif etish mezoni sanaladi. U insonning boshqa shirkat faoliyatlari, masalan, moddiy ne'matlarini ishlab chiqarish, vositasi, natijasiga ega. O'zaro ta'sirning ma'lum bosqichida erishilgan maqsad keyingi bosqichda vosita sifatida amal qiladi. Binobarin, ta'limning borishida erishilgan maqad natijaga, natija esa o'z navbatida keyingi maqsadlarini amalga oshirish vositasiga aylanadi. O'zaro ta'sir o'qitish usullarining va o'qish usullarining bir-biriga qo'shiluvi, muvoffiqlashuvi oqibatihosil faoliyat shaklida amal qilidi. Uning bosqichma-bosqich harakati tashkiliy-boshqaruv, undash-rag'batlantiruv, nazorat-tekshiruvni taqazo etadi. Binobarin, o'zaro ta'sir ma'lum vositalar bilan harakatga tushirish, tartibga solish mumkin. O'zaro ta'sirni o'qitish usullari va o'qish usullarining o'zaro tutashuvidan-ularning o'zaro qo'sxilgan joyidan izlash yo'li bilan ta'lim metodlarini yaxlit tizim sifatida tavsiflash mumkin.

Ta'lim me'todlarini o'zaro ta'sir mohiyatidan kelib chiqib tasnif etganda quyidagilarga erisxiladi: ta'lim metodlarining yaxlit tizimi yaratiladi; ta'lim metodalarini tasnif etish uchun integrativ birlik ajratiladi; ta'lim metodlarining o'qitish va o'qish usullari tutashuvidan shakllanishi e'tirof etiladi, ta'lim metodlari muammosiga kompleks yondasxiladi; ta'lim metodlariga mazmuniy va jarayoniy tasnif beriladi.

O'qitish usullari va o'qitish usullarining bir-biriga muvoffiqlashuvi ta'limning ijtimoiy instinktning alohida turi-o'qitish va o'qish faoliyatlarining o'zaro ta'siri shaklida amal qilishni ta'minlaydi. O'qitish va o'qish faoliyatlari o'zaro ta'sir mohiyatidan kelib chiqib ta'lim metodlarini ikki guruhga ajratamiz: o'zaro ta'sirni tashkil etish va boshqa metodlari, o'zaro ta'sir natijasini nazorat etish

metodlari. Ta'lim metodlarining har bir guruhida o'qitish va o'qishning o'zaro ta'siri qatnashadi. O'zaro ta'sir ishtirok etmaydigan metod ta'lim metodi sanalmaydi. Masalan, o'quvchi evrestik suhbatni tanladi deylik: bolalar uchun tushunarli, ularni qiziqtiradigan savollarni o'rta tashlay olish o'qituvchi faoliyatiga bog'liq. O'qituvchi o'zi dars beradigan sinf o'quvchilarning umumiy tayyorgarligini aniq tasavvur etsa, bolalarning real o'qish imkoniyatlarini hisobga olsa, ularning yosh va individual xususiyatlariga tayansa, ana o'shandagina sinf o'quvchilari ta'limda faol ishtirok yetishadi. O'quvchilarning yosh individual, xususiyatlari, real o'qish imkoniyatlariga mahs, bolalarni tuzish fikrlashga jalb etadigan, qiziqishlarni oshiradigan metodlar interfaol metodlar sanaladi. Interfaol metodlar tanlanganda ta'lim sub'ektlarining har ikkalasi ham ta'limda faol qatnashishadi. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarga kishini bildirgan so'zlarni alohida, kishidan boshqa predmetlarni bildirgan so'zlarni alohida-alohida yozish vazifasini topshirgan bo'lsin. Bunday o'quv holatida o'quvchilar ona tili va tabiatshunoslikdan o'rganilgan bilimlardan foydalanib topshiriqni bajarishadi. Topshiriqni bajarish o'qituvchi faolligi va o'z navbatida, o'quvchilar faolligi o'qituvchi faolligini ta'minlaydi. Demak, interfaol ta'lim metodlari faol ta'minlashga olib keladi.

Metodlar bir qancha asosiy guruhlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'z navbatida kichik guruhlar va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo'linadi. O'quv-biluv faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayonining o'zi esa axborot uzatish, qabul qilish, anglash va o'quv axborotlarini esda saqlashni hamda olinadigan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olishni nazarda tutishni hisobga olsak, **birinchi guruh** metodlariga **so'z orqali** axborotni uzatish va eshitish orqali qabul qilish metodlari og'zaki metodlar; hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar; **ikkinchi guruh** metodlariga o'quv axborotlarini **ko'rgazmali uzatish** va ko'rish orqali qabul qilish metodlari-ko'rgazmali metodlar: tasviriy, namoyish qilish va boshqalar; **uchunchi guruh** metodlariga o'quv axborotini **amaliy mehnat** harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va boshqalar) kiradi.

Demak, amaliyotda keng qo'llanilib kelayotgan ta'lim metodlarini quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin (1 - shakl).

O'quv materialini **og'zaki bayon** qilish metodi bayon

qilinayotgan ma'lumotlarning to'g'ridan-to'g'ri ta'lim beruvchining jonli nuqti orqali idrok qilinishi bilan tavsiflanadi va ana shu xususiyatiga ko'ra ta'limning boshqa metodlaridan farq qiladi.

Ta'limning **ko'rgazmalilik metodidan** amaliy faoliyatda foydalanishda namoyish etish, tasvirlash va ekskursiya metodi bilan ish ko'rishda ta'lim oluvchilarni turli mavzularda tasviriy materiallar bilan ishlashga jalb etish muhim didaktik ahamiyatga ega.

Amaliy mashg'ulotlar metodi, asosan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni mustahkamlash va uni amalda qo'llay olish, tegishli ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni ta'minlashga xizmat qiladi. Odatda mashq qildirish deganda ilmiy bilim va ma'lum bir ish-harakatni o'zlashtirish yoki takomillashtirish maqsadida rejali ravishda tashkil etilgan takrorlash tushiniladi.

Mashq qildirish metodi o'quv predmetlarining mazmuni va tavsifiga qarab turlicha olib borilishi mumkin. Ta'lim oluvchilarning o'zlashtirgan ko'nikma va malakalarini mustahkamlash va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mashq qildirish quyidagi talablarga amal qilishi lozim:

1. Topshiriqning maqsadi ta'lim oluvchilarga aniq va ravshan tushuntirilgan bo'lishi, mazmuni va uni ishlash yo'llari esa puxta uqtirilgan bo'lishi lozim.

2. Ta'lim oluvchilar diqqati taqdim etilayotgan mashqqa jalb qilinishi, jamoaning va har bir ta'lim oluvchining intilish va qiziqishlari hisobga olinishi lozim.

3. Topshiriq rejalashtirilgan (loyihalangan) tizim asosida va ularni bajarishdagi jarayonlarning izchilligiga asoslangan bo'lishi lozim.

4. Ma'lum qoida yuzasidan o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalar shu qoidaga oid boshqa mazmundagi topshiriqlarni bajarishda ham osonlik bilan qo'llanilishi lozim.

5. Topshiriq berilishida ta'lim oluvchilarni faollashtirilgan ijodiy faoliyatga yo'naltirilishini ham e'tiborga olishi lozim.

6. Beriladigan topshiriq (mashq va shu kabilar)ni ta'lim oluvchilarning belgilangan vaqti ichida albatta bajara olishligini e'tiborga olish kerak va bunda ta'lim oluvchilarning intellektual salohiyatiga (umumiy va ayrim hollarda xususiy intellektual salohiyatiga) e'tibor qaratilishi mashq qilish jarayonining optimal variantlarini kafolatlash imkoniyatini beradi.

Ta'lim metodlarining bu turida ta'lim oluvchilarga beriladigan

yozma ijodiy mashqlar va topshiriqlar muhim o'rin egallaydi. Shuningdek, ta'lim oluvchilarga berilidigan mashq-topshiriqlar ichida kollokumlar bajarish hamda ayrim mavzular bo'yicha mustaqil ma'ruzalar tayyorlash va grafik ishlarni bajarish ta'lim oluvchilarning mazkur sohadagi ongli ijodiy munosabatini yanada yuksaltirishga didaktik asos bo'ladi.

Laboratoriya metodi. Bu ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarga atrofni o'rab turgan ob'ektiv borliqdagi narsa va hodisalar, ularning shakli, hajmi, tarkibi, tuzilishi, o'zgarishi va rivojlanishi qobiliyatlari haqida yangi-yangi bilimlar berish, o'zlashtirayotgan ilmiy bilimlarni mustahkamlash hamda tegishli ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishda muhim ahamiyatga ega.

Demak, bu shunday ta'lim metodiki, unda ta'lim oluvchi ta'lim beruvchi rahbarligida oldindan belgilangan reja asosida tajribalar o'tkazadi yoki amaliy vaziflarni bajaradi va shu jarayondagi bilimni yangilaydi va tushinib etadi. Shu sababli ham ular qat'iy reja asosida olib boriladi. Reja ta'lim mazmunini ta'lim oluvchilar tomonidan tajribalar va amaliy ishlarni bajarish hamda o'rganishning ko'rsatmalarini ifodalovchi ta'lim beruvchining hujjati hisoblanadi. Unda mashg'ulot mavzusi, ishning maqsadi, unga ajratilgan vaqt, mashg'ulot mavzusining mazmuni, mashg'ulot bo'yicha adabiyotlar ro'yxati o'z ifodasini topadi.

Laboratoriya metodi, deyarli barcha fanlar bo'yicha ta'lim berishda uchraydi. Ayrim fanlarda, ya'ni, fizika, kimyo, biologiya, geografiya, kasbiy ta'limga oid fanlarda, psixologiya, informatika va shu kabi predmetlarni o'rganishda esa ko'proq qo'llaniladi. Ular maxsus jihozlangan laboratoriya honasida tegishli moddiy-texnika vositalari va majmualari yordamida olib boriladi.

Laboratoriya mashg'ulotlari xususiyatiga ko'ra quyidagicha turlarga va shakllarga bo'linadi (1 - shakl):

Ta'lim vositalari. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan vositalar ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

O'qitishning asosiy vositalari-bu asosiy o'quv mazmuniga ega bo'lgan rejalar, o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalaridir.

O'qitishning qo'shimcha vositalari-bu ta'lim oluvchilardagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi masalalar, mashqlar to'plami, ma'lumotnomalar, tarqatma materiallar, ko'rsatmali va ko'rgazmali vositalar, disketlar, EHM va boshqalardir.

O'qitishning takomillashtiruvchi dastur vositalari - bu mutaxassislar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va predmetdagi tegishli mavzular bo'yicha dars jarayonini takomillashtirishga imkon beruvchi intellektuallashtirilgan dasturlar va uni amaliyotga joriy etishga sharoit yaratuvchi dasturiy-texnik vositalardir.

Demak, ta'lim vositalari muayyan o'qitish metodi yoki usullarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materialidir. Ular: asbob-uskunalar, dastgohlar, laboratoriya jihozlari, axborot-kommunikatsion texnologiyalari vositalari, ko'rsatmali qurollar, rasmiy belgilar, maketlar, darslik va o'quv qo'llanmalari, uslubiy tavsiyanomalar va ko'rsatmalar, radio, televideniya va internet tarmog'i va shu kabilar.

Ta'lim jarayonida o'qitish vositalaridan foydalanish tabiiy yoki tasviriyl ko'rgazma materiallari (predmet, sxema, tashkiliy-tuzilmaviy model, diagramma, gistogramma, sur'at va h.k.), laboratoriya yoki demonstratsiya (namoyishli) mashg'ulotlarida qo'llaniladigan asbob-uskunalar, o'quv qurollari, maketlar, Shuningdek, mavzuga oid dalillar (spravochnik ma'lumotlar, ta'rif, qonun, qoida, tamoyil, xossa, xususiyat, formula va h.k.)ning dars jarayonida ishlatilishini anglatadi.

Ta'lim jarayonida va uni olib borishning samaradorligini oshirishda ta'lim shakli, turi, metod va vositalarining alohida-alohida ahamiyatlari bor. Bu borada ta'limda ko'rgazmalilik metodini amaliyotda joriy etishda ta'lim vositalarining o'rni va roli beqiyos bo'lib, ta'limda ko'rgazmalilik metodining quyidagi turlaridan foydalaniladi: namoyish etish; tasvirlash va ekskursiya. Bunday namoyish etish va ekskursiya metodlari ta'lim oluvchilarning o'quv materiallarini aniq obrazlar orqali bevosita idrok qilishlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

O'quv materiallarining og'zaki bayon qilish metodining asosiy turlaridan biri-bu darslik va kitob bilan ishlash turidir. Bunda o'quv adabiyotlari bilan ishlash murakkab psixologik jarayondir. U ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi tomonidan bayon qilingan bilimlarni o'quv materiallarini kitob matnidan ko'rib, ongli idrok qilish faoliyatini rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

Ta'lim metodlari tasnifiga oid asosiy qarashlar. Didaktikada ta'lim metodlarini tasnif etishga oid turli-tuman qarashlar mavjud: ba'zi mutaxassislar ta'lim metodlarini tasnif etishga bilim manbalarini hisobga olishsa, ayrim mutaxassislar o'qituvchi faoliyati

xususiyatlaridan kelib chiqishadi, uchinchi bir guruh olimlar esa o`quvchilar faoliyatini e`tiborga olishadi. Ta`lim metodlariga bunday qarashlarning ko`p va rang-barang bo`lishi tabiiy. Zero, ta`lim metodlari mazmunan boy hodisa bo`lib, ular ma`lumot mazmuni bilan ham, o`qituvchi va o`quvchi faoliyati bilan ham, bilim va malakalar bilan ham, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarni, munosabatlarni rivojlantirish bilan ham daxldor kategoriyadir.

S.I.Perovskiy, E.YA.Golantlar o`qitish metodlarini tasnif etishda ta`lim manbalarini hisobga olishgan. Ular o`qituvchi nutqi, ko`rgazma qurol, darslik hamda qo`shimcha adabiyotlarni ta`lim manbai sifatida qarab, ta`lim metodlarini uch guruhga ajratishgan: bilimlarni og`zaki bayon qilish metodlari; ko`rgazmali metodlar; amaliy metodlar.

Didaktikada ta`lim jarayonining turli bosqichlarida bajariladigan ishlar mazmunidan kelib chiqib ta`lim metodlarini tasnif etish g`oyasi ham mavjud. M.A.Danilov, B.P.Esipovlar o`zlarining qator asarlarida ta`lim metodlarini quyidagicha guruhlariga ajratishgan: bilimlarni o`rgatishga oid metodlar; malaka va ko`nikmalarni shakllantirish metodlari; bilim va malakalarni tatbiq etish metodlari; ijodiy ishlash metodlari; bilim va malakalarni mustahkamlash, tekshirish metodlari.

M.N.Skatkin, I.Ya.Lernerlar ta`lim metodlarini tasnif etishda o`quvchilar faoliyati xususiyatlarini e`tiborga olishgan va ularni quyidagicha guruhlariga ajratishgan: izohli-ko`rgazmali metodlar; qayta ishlashga oid standart metodlar; muammoli bayon metodi; evristik metod; ilmiy izlanish metodlari.

M.I.Maxmutov ta`lim metodlarini tasnif etishda o`qitish usullari bilan o`qish usullarini o`zaro qo`shishni taklif etadi. Uning uqtirishicha, bu usullar-o`qitish usullari va o`qish usullari o`zaro qo`shilib, quyidagi ta`lim metodlarini hosil qiladi: xabar-umumlashtirish tipidagi metodlar: izohli va eslashga oid metodlar; ko`rsatmali-amaliy metodlar; qisman izlanishga oid; izlanish metodlari.

Ukraina olimlari V.F.Palamarchuk, V.N.Palamarchuklar ta`lim metodlarini tasnif etishda uch narsani-ta`lim manbalari, bolalarning faollik va mustaqillik darajasi, o`quv bilishining borishidagi mantiqiy yo`lni hisobga olish zarurligini uqtirishadi. Shuningdek, S.G.SHapovalenko ta`lim metodlarini tasnif etishda ularning mantiqiy-mazmuniy, manbaiy, jarayoniy, tashkiliy-boshqaruvchanlik xususiyatlarini hisobga olishni taklif etadi.

Didaktikada ta'lim metodlarini tasnif etishda bir paytda ta'lim manbalari va mantiqiylikni (N.M.Verzilin), ta'lim manbalari va o'quvchilarning mustaqillik darajasini (A.N.Aleksyuk, I.D.Zverev) mezon qilib olish moyilligi ham mavjud.

Mashhur didakt olim Yu.K.Babanskiyning qator ilmiy-pedagogik asarlarida ta'lim metodlari o'quvchi faoliyati nuqtai nazaridan tasnif etilgan. U ta'lim metodlarini uch guruhga ajratgan: o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish va boshqarish metodlari; o'quv biluv faoliyatini rag'batlantirish metodlari; o'quv biluv faoliyati samaradorligini nazorat etish metodlari.

Har xil guruh o'z ichida yana kichikroq guruhlariga ajraladi. Masalan, birinchi guruh metodlari jumlasiga quyidagilar kiradi: og'zaki bayon metodlari; ko'rgazmali metodlar; amaliy metodlar; induktiv va didaktiv metodlar: reproduktiv metodlar: muammoli izlanish metodlari va mustaqil ishlash metodlari. Yuqoridagiga o'xshab rag'batlantirish, nazorat qilish metodlari ham o'z ichida guruhlariga ajralgan. Hozirgi paytda ta'lim metodlariga oid mukammal tizim Yu.K.Babanskiy tasnifidir.

Ta'lim metodlarini tasnif etish masalasiga doir qarashlarning ko'pligi, rang-barangligi ularning-ta'lim metodlarining ko'p qirrali didaktik hodisa ekanligi bilan izoxlanadi. Shu bilan birga, bu didaktika sohasiga amal qilayotgan differentsiatsiya va integratsiya jarayonlarining natijasidir. endilikda ta'lim metodlari mohiyatini bayon etishga ko'p tomonlama, kompleks yondashish zaruriyati kuchayib bormoqda. Bu inson faoliyatiga yaxlit yondashish metodologiyasi asosida birlashtirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

O'zaro ta'sir ta'lim metodlarini tasnif etish mezoni. O'zaro ta'sir integrativ didaktik hodisa bo'lib, bir tomondan, didaktikaning tadqiqot predmeti, ikkinchi tomondan esa, ta'lim metodlarini tasnif etish mezoni sanaladi. U insonning boshqa shirkat faoliyatlari, masalan, moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, ekspluatatsiya jarayonlarida ishtirok etish, ilmiy kashfiyotlar qilishga o'xshab o'z maqsadi, vositasi, natijasiga ega. O'zaro ta'sirning ma'lum bosqichida erishilgan maqsad keyingi bosqichda vosita sifatida amal qiladi. Binobarin, ta'limning borishida erishilgan maqsad natijaga, natija esa o'z navbatida keyingi maqsadlarini amalga oshirish vositasiga aylanadi. O'zaro ta'sir o'qitish usullarining va o'qish usullarining bir-biriga qo'shiluvi, muvoffiqlashuvi oqibati-hosila faoliyat shaklida

amal qiladi. Uning bosqichma-bosqich harakati tashkiliy-boshqaruv, undash-rag'batlantiruv, nazorat-tekshiruvni taqazo etadi. Binobarin, o'zaro ta'sirni ma'lum vositalar bilan harakatga tushirish, tartibga solish mumkin. O'zaro ta'sirni o'qitish usullari va o'qish usullarining o'zaro tutashuvidan-ularning o'zaro qo'sxilgan joyidan izlash yo'li bilan ta'lim metodlarini yaxlit tizim sifatida tavsiflash mumkin.

Ta'lim me'todlarini o'zaro ta'sir mohiyatidan kelib chiqib tasnif etganda quyidagilarga erishiladi: ta'lim metodlarining yaxlit tizimi yaratiladi; ta'lim metodlarini tasnif etish uchun integrativ birlik ajratiladi; ta'lim metodlarining o'qitish va o'qish usullari tutashuvidan shakllanishi e'tirof etiladi, ta'lim metodlari muammosiga kompleks yondoshiladi; ta'lim metodlariga mazmuniy va jarayoniy tasnif beriladi.

Ta'lim metodlari tasnifi. O'qitish usullari va o'qish usullarining bir-biriga muvofiqlashuvi ta'limning ijtimoiy institutning alohida turi-o'qitish va o'qish faoliyatlarining o'zaro ta'siri shaklida amal qilishini ta'minlaydi. O'qitish va o'qish faoliyatlari o'zaro ta'sir mohiyatidan kelib chiqib ta'lim metodlarini ikki guruhga ajratamiz: o'zaro ta'sirni tashkil etish va boshqarish metodlari, o'zaro ta'sir natijasini nazorat etish metodlari.

Ta'lim metodlarining har bir guruhida o'qitish va o'qishning o'zaro ta'siri qatnashadi. O'zaro ta'sir ishtirok etmaydigan metod ta'lim metodi sanalmaydi. Masalan, o'quvchi evristik suhbatni tanladi deylik: bolalar uchun tushunarli, ularni qiziqtiradigan savollarni o'rta tashlay olish o'qituvchi faoliyatiga bog'liq. O'qituvchi o'zi dars beradigan sinf o'quvchilarining umumiy tayyorgarligini aniq tasavvur etsa, bolalarning real o'qish imkoniyatlarini hisobga olsa, ularning yosh va individual xususiyatlariga tayansa, ana o'shandagina sinf o'quvchilari ta'limda faol ishtirok yetishadi. O'quvchilarning yosh individual, xususiyatlari, real o'qish imkoniyatlariga mos, bolalarni tuzish, fikrlashga jalb etadigan, qiziqishlarni oshiradigan metodlar interfaol metodlar sanaladi. Interfaol metodlar tanlanganda ta'lim sub'ektlarining har ikkalasi ham ta'limda faol qatnashishadi. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarga kishini bildirgan so'zlarni alohida, kishidan boshqa predmetlarni bildirgan so'zlarni alohida-alohida yozish vazifasini topshirgan bo'lsin. Bunday o'quv holatida o'quvchilar ona tili va tabiatshunoslikdan o'rganilgan bilimlardan foydalanib topshiriqni bajarishadi. Topshiriqni bajarish jarayonida

ta'lim sub'ektlari ham, bilimlar ham faol qatnashadi. O'qituvchi faolligi ukuvchi faolligini va o'z navbatida, o'quvchilar faolligi o'qituvchi faolligini ta'minlaydi. Demak, interfaol ta'lim metodlari faol ta'limga olib keladi.

5.5.Ta'lim metodlarini tanlab olish shartlari.

Tayanch iboralar: bilimlar tizimini, ko'nikma-malakalarni o'zlashtirish darajasi, ijodiy faoliyat tajribasi taraqqiyoti, shakllangan munosabatlar tizimini tekshirish, vaqtga ko'ra nazorat metodlari, o'quvchilar miqdoriga ko'ra nazorat metodlari.

O'zaro ta'sir natijasida bolalar bilim, malakalarni o'zlashtirishadi, ularda ijodiy faoliyat tajribasi, tabiat, jamiyat va tafakkur hodisalariga munosabat shakllanadi. Binobarin, biz o'zaro ta'sir natijasini nazorat etish deganda to'rt narsani tekshirishni: a) bilimlar tizimini; b) ko'nikma-malakalarni o'zlashtirish darajasini; v) ijodiy faoliyat tajribasi taraqqiyotini; g) bolalarda shakllangan munosabatlar tizimini tekshirishni anglaymiz.

O'zaro ta'sirni tashkil etish va boshqari metodlari markazida o'qitish va o'qish faoliyatlarining bir-biriga muvofiqlashuvi etganidek, nazorat etish metodlari vositasida ham o'qitish va o'qish faoliyatlari bir-biriga kirishishadi: o'qituvchi nazorat savolini berganda o'quvchilar javob qaytarishadi; o'qituvchi diktovka qilganda o'quvchilar eshitganlarini yozishadi. Nazorat etish metodlari ham tarkiban ikki xil usuldan iborat: o'qitish usullari (diktovka-o'qitish usuli); o'qish usuli (eshitganlarini yozish-o'qish usuli). O'zaro ta'sir natijasini nazorat etish metodlari tizimi vaqti, o'quvchilar miqdori, nutq shakli, tanlangan ish turi, ijtimoiy tajriba elementlariga ko'ra tavsif etiladi.

Vaqtga ko'ra nazorat metodlari. O'zaro ta'sir natijasida nazorat etish vaqt nuqtai nazaridan uch turli bo'ladi. Joriy nazorat-har bir darsda uzoq va yaqinda o'tilgan o'quv materiallarining o'zlashtirilishini tekshirish demakdir. Unda nazorat savollari berish, koidalar, ta'riflarga oid faktlar keltirish, berilgan faktlarni taxlil etish, mavzularning mazmunini so'zlatish, qisqa muddatli munozaralar tashkil etish, o'quv topshiriqlarini bajartirish kabi usullardan foydalaniladi. Joriy nazorat qisqa muddatda o'tkazilishi bilan xarakterlanadi.

Oraliq nazorat-o`quv predmetining bir bo`limi, katta qismi o`tib bo`lingandan keyin tashkil etiladigan tekshirishdir. Unga alohida o`quv soati yoki o`quv soatlari ajratilmaydi. Oraliq nazoratda o`rganilgan bo`lim mazmuniga mos savollar tizimiga javob olinadi, o`quv tizimi topshiriqlari bajartiriladi, o`quv materialini qamrab oladigan munozara o`tkaziladi. Savollar, o`quv topshiriqlar tizimi, munozara, og`zaki yoki yozma hisobot kabilar oraliq nazorat metodlari hisoblanadi.

Yakuniy nazorat-o`quv predmeti to`liq o`rganilgach, chorak oxirida, o`quv yili so`ngida tashkil etiladi. Unda o`quv predmeti logikasini o`ziga to`liq qamrab oladigan metodlardan foydalaniladi. O`quv predmeti doirasida qo`llanilgan termin va tushunchalarga (og`zaki yoki yozma) izoh yozish predmetiga oid yetakchi g`oyalarni hayotga, ishlab chiqarish amaliyotiga tatbiq etish, o`quv predmetining inson hayotida tutgan o`rnini baholash, o`quv predmeti doirasida o`rganilgan naziriya va g`oyalarga o`z munosabatini bildirish kabi metodlar nazoratning samaradorligini oshiradi.

O`quvchilar miqdoriga ko`ra nazorat metodlari. O`quvchilar miqdoriga ko`ra nazoratning uch xil ko`rinishi farqlanadi: individual tekshirish-alohida o`quvchiga mo`ljallangan nazoratdir. A`lochi o`quvchiga mo`ljallangan o`quv topshirig`i o`rtacha tayyorgarlikka ega bo`lgan bola uchun qiyin bo`lganidek, o`rta o`zlashtiriladigan o`quvchi uchun tuzilgan har bir o`quvchining bilimi, tayyorgarlik darajasiga qarab tayyorlanadi. Demak, individual nazorat metodi sifatida tanlangan suhbat, savol, topshiriq, mustaqil ish, laboratoriya mashg`uloti va shu kabilarning bajaruvchisi-ijrochisi oldindan belgilanadi.

Tabaqalashgan nazorat-sinf jamoasini bilim, malakalarini o`zlashtirish darajasi, real bilish imkoniyatlariga qarab kichik jamoalarga va jamoalarning har biriga mos metod, vosita tanlab tekshirishni o`tkazishdir. Sinf o`quvchilari ularning individual xususiyatlari asosida kichik jamoalarga ajratiladi. eng yuqori o`zlashtiruvchi bolalar o`ta murakkab, yaxshi o`qiydigan o`quvchilar jamoasiga nisbatan oson, past o`zlashtiruvchilar jamoasi esa osonroq topshiriqlarni, mustaqil ishlarni bajaradi.

Yalpi nazorat-sinf jamoasining barchasiga mo`ljallangan tekshirishdir. Masalan, diktant shunday metodlar sirasiga kiradi.

Nutq shakliga ko`ra nazorat metodlari. Tanlangan nutq shakliga ko`ra nazorat ikki turli bo`ladi: og`zaki nazoratda qo`yilgan savol, topshiriq, mustaqil ishga og`zaki javob izlanadi. Shuningdek, o`rganilgan o`quv materialini mazmunini og`zaki bayon etish, so`zlab berish ham og`zaki nazoratdir. Og`zaki nazorat o`quvchilar miqdoriga ko`ra individual, tabaqalangan, yalpi bo`lishi mumkin; yozma nazoratda savol, topshiriq, mustaqil ishlarga yozma javob qaytariladi. Diktant, bayon, insho, masala va misollarni bajarish, bosma asosli programmalashtirilgan materiallar, testlar bilan ishlash yozma nazorat metodlaridir. Og`zaki imtixon, sinov turlari ham mavjud.

Ko`rinadiki, o`zaro ta`sir natijasini nazorat etish metodlari nihoyatda rang-barangdir. Hozirgi paytda testlar, programmalashtirilgan materiallar vositasida nazorat qilish respublikamiz o`qituvchilari tajribasida keng o`rin olmoqda.

5.6. Ta`lim vositalari tasnifi va mohiyati.

Tayanch iboralar: o`qitish vositalari, nutq holatlari, o`qish maqsadlari, ta`lim mohiyati.

Ta`lim vositalari xilma-xildir. Vosita keng ma`noda inson o`zi bilan mehnat predmeti o`rtasiga qo`yadigan narsalardir. Ta`lim jarayonida ikki xil faoliyat mavjud: o`qitish faoliyati; o`qish faoliyati. Binobarin, ularning har biri o`ziga xos vositaga ega.

**O`qitish vositalari** — o`quv materiallarini o`rgatishda o`qituvchi o`zi bilan o`quvchilar orasiga qo`yadigan moddiy va moddiylashgan predmetlardir. Moddiy vositalar qatoriga, masalan, boshlang`ich sinflarda predmet darslari o`tilganda sinfga olib kiriladigan turli sabzavot va mevalar, yuqori sinflarda esa mexanizmlar, ularning detallari kirsas, moddiylashtirilgan buyumlar qatorini kartochkalar, rasmlar, jadvallar, chizmalar, bosma asosli tarqatma materiallar, EHM xotirasiga kiritilgan dasturlar tashkil etadi. Qizig`i shundaki o`qituvchi uchun ta`lim vositasi funksiyasini bajaradigan moddiy va moddiylashgan narsalarning barchasi o`quvchi uchun, avvalo, ta`lim manbai vazifasini bajaradi.

**O`qish vositalari** — bolalarning o`zida. Bolada shakllangan ijtimoiy tajriba, o`zlashtirilgan bilimlar, malakalar; ijodiy faoliyat va aqliy mehnat usullari o`quvchi uchun vosita vazifasini bajaradi. “Ta`lim vositasi-o`quvchining o`zida” fikriga oydinlik kiritish uchun “Undalma” mavzusida tuzilgan o`quv topshiriqlarini tahlil qilamiz.

1-topshiriq. Namunadan foydalanib, berilgan nutq holatlariga mos keladigan gaplar tuzing. Soʻzlovchining nutqi qaratilgan shaxs va predmetlarni aniqlab, undalmaga taʼrif berishga tayyorlaning.

Bolalarni tabriklayotgan bobo, choʻkayotgan odam, qushlarga don sepayotgan bola, buvisini tabriklayotgan nevara, ust-boshi hoʻl boʻlgan kishining yomgʻirga murojaati, shamolga yolvorayotgan odamning gapi.

Namuna. Ey xayol, uzoqlarga olib ketma!

2-topshiriq. Berilgan holatlarga mos keladigan oltita gap tuzing (Bolalar, bilim manbai — kitobni seving. Odamlar, choʻkayapman, qutqaringlar! Hoy qadrdon qushlarim, don eng. Mehribon buvijon, sizni tabriklayman. Hoy yomgʻir, yana shiddat bilan yogʻ. Ey shamol, salomimni doʻstimga etkaz!). Shu gaplarni qanday qilib ikki guruhga ajratish mumkin?

3-topshiriq. Matnni oʻqib, undalmali misralarni koʻchiring.

Qani ayt, maqsading nimadir sening,

Nega tilkalaysan bagʻrimni ohang.

Nechuk kerak boʻldi senga koʻz yoshim,

Nechuk kerak, rubob, senga shuncha gʻam.

(A. Oripov)

4-topshiriq. Berilgan tayanch soʻzlarni undalma vazifasida qatnashtirib, “Bahor” mavzusiga bogʻliq hikoya tuzing.

Bahor, lola, yoqimli shabada, qalb.

Keltirilgan topshiriqlarni tahlil qilish yoʻli bilan oʻqitish maqsadlari, ularga toʻgʻri keladigan oʻqish maqsadlari, vositalari, natijalarini ajratish mumkin.

Oʻqitish maqsadlari — bolalarni undalmalarni oʻrganishga tayyorlash, bolalarni undalmalarga mustaqil taʼrif berishga olib kelish (1-topshiriq), shaxsga va predmetlarga qaratilgan undalmalarni farqlashga oʻrgatish (2-topshiriq, undalma boʻyicha oʻrganilgan bilimlarni mustahkamlash (3-topshiriq), undalma boʻyicha oʻrganilgan bilimlarni yangi oʻquv holatiga tatbiq etish (4-topshiriq).

Oʻqish maqsadlari — 1-topshiriq boʻyicha: undalmali gaplar tuzish (1), shaxsga qaratilgan undalmali gaplarni aniqlash (2), predmetlarga qaratilgan undalmali gaplarni aniqlash (3), undalmalarga taʼrif berish (4); 2-topshiriq boʻyicha: tuzilgan gaplarni qayta oʻqib chiqish (1), gaplarni ikki guruhga ajratish toʻgʻrisida oʻylash (2), gaplarni ikki guruhga ajratib yozish (3), gaplarni ikki

guruhga ajratib yozish shartini aytib berish (4); 3-topshiriq bo'yicha; she'riy parchani o'qish (1), undalmali misralarni aniqlash (2), undalmali misralarni ko'chirish (3); 4-topshiriq bo'yicha: tayanch so'zlarni undalma vazifasida qatnashtirib gaplar tuzish (1), gaplarni mazmunan bir-biriga bog'lash (2), hikoya tuzish (3).

Yuqoridagi o'qish maqsadlariga oid vositalarni ham ajratamiz: bolalar nutqida undalmali gap konstruktsiyasining mavjudligi — 1-topshiriqni bajarish vositasi, 2—4-topshiriqlarni bajarish vositasi — undalmaning ta'rifi, turlari xususidagi bilimlar, bolalarinng o'z faoliyati.

Topshiriq va savollar.

1. Ta'lim turlariga izoh bering.
2. Innovatsion ta'lim deganda nimani tushunasiz?
3. Masofaviy ta'lim tushunchasiga izoh bering.
4. Ta'limni tashkil etish shakllariga nimalar kiradi.
5. Darsda bilimlarning o'zlashtirilishi, malaka va ko'nikmalarning hosil qilinishida o'qituvchining o'rnini yoritib bering.
6. Aralash dars turining tarkibiy-tashkiliy-tuzilmasiga izoh bering.
7. Ta'lim metodi, usul va vositalari deganda nimani tushunasiz?
8. Ta'lim metodlarining mohiyatini izohlab, ularga tasnif bering.
9. O'qitishning takomillashtiruvchi dastur vositalariga izoh bering.
10. Ta'lim metodlarini tanlab olish shartlariga nimalar kiradi?
11. Ta'lim vositalarining mohiyatini izohlab, ularga tasnif bering.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdullaeva Sh. va boshq. Pedagogika. T., «Fan», 2004.
2. Asqarova O. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar. T., «Istiqlof», 2005.
3. Mavlonova R., To'raeva O., Xoliqberdiev K. Pedagogika. T.: «O'qituvchi», 2001.
4. N.A. Moreva. Pedagogika srednego professional'nogo obrazovaniya. M., 2001.
4. Olimov Q.T., Abduqudusov O., Axmedjanov M.M. Kasb ta'limi uslubio'ti. O'quv qo'llanma, Toshkent, Iqtisod-moliya. 2006. 160 b.
5. Pedagogika: uchebnik / pod red. L.P. Krivshenko.-M., 2008.
6. Pidkasistiy, P.I. Organizatsiya uchebno-poznavatel'noy deyatel'nosti studentov.-2-e izd.-M., 2005.

7. Risqiev T. Umumiy tahrir ostida “Uzluksiz ta’lim tizimi uchun o’quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish koncepciyasi”, T., “Sharq”, 2002.

8. Roziqov O. R., Og’ayev S.Yu., Maxmudova M.M., Adizov B.R. Didaktika. T.: «Fan», 1997.

9. Tursunov I.Y., Nishonaliyev U.N. Pedagogika kursi. T., «O’qituvchi», 1997.

Internet saytlari:

10. www.ziyonet.uz

11. www.tdpu.uz

12. www.pedagog.uz

13. www.psychology.uz

VI. TA'LIM OLGANLIKNI TASHHIS ETISH.

6.1. Ta'lim olganlikni tashhis etishning mohiyati¹.

Tayanch iboralar: *tashhis tushunchasi, shakllanish jarayonlari, shaxsiy foyda tamoyili, baholovchi fikrlar, shaxsiy reyting.*

Tashhis-bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demakdir. Tashhissiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas. Bunga sabab talim olganlikni tashhislash orqali erishilgan natijalar va ta'lim olganlik ajratib olinadi. Shuningdek, ta'lim olganlik tashhislash vaqtida belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi sifatida ham qaraladi. Didaktik tashhislashning maqsadi o'quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarining uning mahsuli bilan bog'liq holda o'z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

Demak, tashhis ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini an'anaviy tekshirishga nisbatan kengroq va chuqurroq ma'no kasb etadi. Tashhis natijalarni ularga erishish yo'llari va vositalari, usullari bilan aloqadorlikda baholaydi, ta'lim mahsulining shakllanish jarayonlari va bosqichlarni aniqlaydi. Tashhislash, nazorat, tekshirish, baholash, statistik ma'lumotlar to'plash, ularni tahlil qilish, dinamika, tendentsiyalarni (an'analarni) aniqlash, voqealarning keyingi rivojini tahminlashni o'z ichiga oladi.

Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashhislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi. Ta'limni baholashda ziddiyatli qarashlarning tug'ilishini buyuk pedagog Ya.A.Komenskiy ham ta'kidlab o'tgan edi. U pedagoglarni o'zlari ega bo'lgan baholash huquqidan aql bilan foydalanishga chaqirgan. Ta'lim oluvchilarga nisbatan nazoratning ob'ektiv bo'lishiga erishish didaktik tizimlarning asosida yotadi.

Olimlarning ta'kidlashicha, demokratlashgan ta'lim tizimida yuzaki (formal) nazorat bo'lmasligi lozim. Didaktik nazorat o'qitishning o'ziga xos metodi sifatida aniq ifodalangan ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi yo'nalganlikka ega bo'lishi, o'z-o'zi bilan nazorat qilish bilan birlashishi, eng avvalo, ta'lim oluvchining o'zi uchun zarur va foydali bo'lishi lozim.

Ta'lim tizimini demokratlashtirish bilim, ko'nikma va

¹ Ushbu mavzu mohiyatini ochib berishda I.P.Podlasiy qarashlaridan foydalanildi (Podlasiy I.P. Pedagogika. V 2-h kn. 1. – Moskva, Vldos, 2001).

malakalarni nazorat qilishdan emas, balki baho yordamida o'qishga undashning eskirgan shakllaridan voz kechishni talab qiladi. Ta'lim oluvchilarning o'quv mehnatini rag'batlantirishning yangi usullarini izlash, ta'lim va tarbiya sohasida kuch to'plab borayotgan shaxsiy foyda tamoyili yangicha yondashuvlarni belgilab beradi. Tashhislash tizimida baho rag'batlantirish vositasi sifatida bir qator afzalliklarga ega bo'ladi. **Birinchi navbatda**, baholovchi fikrlar (ballar) qo'llanishi mumkin bo'lgan tashhislash natijalari shaxsning o'z darajasini belgilashga ko'maklashadi, bu esa raqobatbardosh ta'lim sharoitlarini yaratishda muhim omil sanaladi. Ta'lim (shuningdek, nazorat)ning ihtiyoriyligi tamoyili bilan boyitilgan baho o'tmishda ko'plab ta'lim oluvchilar uchun majburiy ta'limning zaruriy vositasidan **shaxsiy** reyting-insonning jamiyatdagi mavqei ko'rsatkichini tadrijiy aniqlash usuliga aylanadi.

6.2. Ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish va hisobga olish.

Tayanch iboralar: *ta'lim natijalari, nazorat qilish vositalari, natijalarni o'zlashtirish, testlarning qo'llanish sohasi, me'yoriy test tuzish, standartlashtirilgan testlar.*

Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta'lim oluvchilarning bilimlarini nazorat qilish o'ta muhimdir. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim jarayonida egallanishi lozim bo'lgan nazariy materiallar bo'yicha olinayotgan bilimlarni yanada mukammallashtirish va eng asosiysi ta'lim oluvchilarning intellektual salohiyatlarini yuksaltirish uchun turli vositalarni tanlash imkonini beradi.

Ta'lim natijalarini nazorat qilish vositalari-o'rganilayotgan fan (mavzu) bo'yicha shakllantirilgan ma'lumotlar bazasi (bilimlar banki)dan ta'lim beruvchi tomonidan tayyorlangan (tuzilgan) topshiriqlar, savollar, test-savollari va shu kabilar va ulardan foydalanish vositalari. Bunday jarayonlarda natijalarni o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalarni o'zlashtirish-bu olingan natijalarni amaliy o'zlashtirishga tayyorlash jarayonidan iboratdir, ya'ni iste'mol uchun tayyorlash. Bunda ta'lim beruvchi ishtiroki muhim rol o'ynaydi, chunki kerak bo'lganda ayrim zaruriy tuzatishlar kiritish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi.

Umuman olganda ta'lim-tarbiya jarayonida bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligini nazorat qilish muhim o'rin egallaydi. Xususan, nazorat quyidagi funksiyalarga ega:

1) Nazoratning diagnostik funksiyasi. Nazorat natijasi orqali bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasi aniqlanadi.

2) Nazoratning ta'lim oluvchilardagi bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini o'stirish funksiyasi.

3) Nazorat jarayonida ta'lim oluvchilarning Shaxsiy jihatlari shakllantiriladi va eng asosiysi rivojlantiriladi.

4) Ta'lim funksiyasi.

5) Nazoratning tarbiyaviy funksiyasi.

6) Nazoratning baholash funksiyasi.

7) Nazoratning ta'lim oluvchilardagi bilimga qiziqishni o'yg'otish, jonli fikrlashga o'rgatuvchilik funksiyasi.

Ma'lumki, nazorat asosan uch turga bo'linadi. Ular: joriy nazorat, oraliq nazorat va yakuniy nazoratlardir. Bulardan tashqari so'nggi nazorat turi ham bor.

Nazorat turi testlar, yozma ishlar va og'zaki savol-javoblar orqali amalga oshiriladi. Pedagog olimlar I.Tursunov va U.Nishonalievlarning ma'lumotlariga qaraganda testlar orqali quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

- ta'lim oluvchilar nazariy va amaliy bilimlarining darajasini ob'ektiv sharoitda aniqlash imkonini beradi;

- bir vaqtning o'zida bir guruh yoki ko'p sonli ta'lim oluvchilar bilimini nazorat qilish mumkin;

- hamma ta'lim oluvchilarda bir xil qiyinchilikdagi savollar berilib, hammasiga bir xil sharoit yaratiladi;

- test natijalarini ta'lim beruvchi tomonidan tezkorlik bilan (operativ) tekshirish mumkin;

- turli guruhdagi ta'lim oluvchilar bilimini solishtirish, qo'llanilayotgan metodning samaradorligini aniqlash mumkin;

- ta'lim jarayonida uchraydigan kamchiliklarda aniqlash mumkin.

Ta'lim natijalarini baholashda reyting tizimining test usuli keyingi paytlarda iste'molda keng foydalanilmoqda.

Test-biror bir faoliyatni bajarish uchun ma'lum darajadagi bilimni egallashga qaratilgan topshiriqdir. Test to'g'ri bajarilganligini

o'lchash va baholash maqsadida har bir testga ekspert metodi yordamida etolon ishlab chiqiladi.

Umuman olganda **test** so'zi inglizchadan olingan bo'lib, u sinov, tekshirish, tadqiqot ma'nolarini bildirib "Sinalayotgan shaxsning psixologik xususiyatlarini, shuningdek, intellektual rivoji, qobiliyati va malakasini tekshirishda qo'llaniladigan standart mashqlar" demakdir. Pedagogik va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida didaktik testlar quyidagi ikki guruhga ajratiladi:

- nazariy bilimlarni nazorat qiluvchi, malaka va qobiliyatlarni tekshiruvchi o'zlashtirish testlari;

- real o'quv imkoniyatlari bo'yicha (Yu.Babanskiy) diagnostika testlari hamda umumiy va maxsus (masalan, mikro yoki makro iqtisodiyot fani va boshqa fanlar bo'yicha) o'qitish testlari.

Testlar tipologiyasi asosida topshiriqlarni tanlash, ularning strukturaviy o'zaro aloqadorligi va ta'riflari quyidagi omillarga bog'liqdir.

1) Testlarning fanlararo qo'llanish sohasi. a) oraliq nazorat testlarida mavzular, boblar bo'yicha bilim va o'zlashtirish elementlarini tekshirish;

b) ko'p mavzular bo'yicha fanlarning bir-biriga bog'liqligini hisobga olgan holda bilim va o'zlashtirishning chegaraviy nazoratini hisobga olish;

g) butun kurs bo'yicha bilimlarni nazorat qilish (test asosida fanlararo turkum testlarni ham yaratish mumkin).

Bu hollarning har birida fan topshiriqlarining quyidagi savollari har xil qo'yiladi: marketing-moliya; menejment; soliqlar kabi integrativ bilimlar va h.k.

2). Me'yoriy test tuzishning umumiy yo'nalishi bo'yicha maqsadli yoki kriterial (mezonli) xarakterdagi testlarda yig'ilgan ballar hisob natijalariga ko'ra bir guruhni boshqa guruh bilan, guruh ichidagilarni esa bir-biri bilan solishtirish mumkin. Berilgan testdan o'tgan shaxslarning o'rtacha ko'rsatkichi me'yor hisoblanadi. Solishtirish natijasida mazkur shaxsning o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori yoki past bilim darajasiga ega ekanligi aniqlanadi.

Mezonli testlarda esa, har bir ta'lim oluvchining qandaydir o'quv yoki mutaxassislikka oid topshiriqlarini yechish uchun zarur bo'ladigan bilim va o'zlashtirish qobiliyatlari ochib beriladi, ya'ni

mezonli testlar va unga mos topshiriqlar ta'lim oluvchilarning bilim va ko'nikmalari aniq fan sohalari bo'yicha o'qitish maqsadining minimal talablariga qay darajada erishgani yoki erishmaganligi haqidagi savollarga javob beradi.

Me'yoriy testlarda, asosan topshiriqni "yechdi" yoki "yechmadi" deb belgilansa, mezonli testlarda esa topshiriqni qaysidir yo'l bilan yechgan ta'lim oluvchilarni murakkab ishlarga qo'yish mumkinligi, ularning murakkab dasturlar bo'yicha ishni davom ettira olishligi hisobga olinishi kerak.

Me'yoriy testlar quyidagi afzalliklarga ega:

- test savollari ko'pgina qobiliyatlarni tekshirishni ko'zda tutadi;
- ta'lim oluvchilarning katta miqdordagi murakkab materialni turli yo'llar bilan o'rganganlarida erishgan umumiy darajasini aniqlashda foydali;
- eng iqtidorli ta'lim oluvchilarni tanlab olish imkoniyatini beradi.

Me'yoriy testlarning kamchiligi ta'lim oluvchi keyingi bosqichga o'tishga qay darajada tayyor ekanligini belgilab bermasligida ko'zga tashlanadi. Shuningdek, me'yoriy testlar ta'lim oluvchilarning hissiy va psihomotor holatlarini o'lchash uchun mos kelmaydi. Ta'lim oluvchilar o'rtasida musobaqaga moyillikni vujudga keltirib, ularni bilim olishdan ko'ra ko'proq ballarni tenglashtirishga intiltiradi. Ammo me'yoriy testlar o'quv predmeti bo'yicha ta'lim oluvchilarning umumiy qobiliyatlarini, katta guruhda qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatini aniqlashda va bo'sh ish o'rni uchun eng maqbul nomzodni tanlashda samara keltiradi.

Mezonlarga ko'ra testdan o'tkazishda natijalar o'zgarmas, **doimiy standartlar** bilan solishtiriladi. Masalan, haydovchilik guvohnomasini berish uchun talabgorning bilimi mavjud standart bilan solishtirilishi kerak. Uni boshqa soha xodimining qobiliyatlari bilan solishtirib bo'lmaydi.

Mezonlar bo'yicha o'tkazilgan testlar ta'lim beruvchiga ta'lim oluvchilar bilimi va imkoniyatlarini aniqlashga ko'mak beradi. Masalan, to'rt xonali sonlar bilan arifmetik amallarni bajarish bo'yicha 20 ta misol berilgan bo'lsa, ta'lim oluvchi ularni o'zlashtirgan, deb hisoblash uchun misollarning eng kamida 17 tasi to'g'ri bajarilgan bo'lishi kerak.

Ayrim hollarda tavsiya etilgan testlarni 100 foiz to'g'ri bajarish talab etiladi.

Yangi mavzuni o'tishdan avval ta'lim oluvchining shu mavzuni o'rganishga tayyorligi hamda emotsional va psixomotor holatini aniqlashda, shuningdek, ularni o'qitish uchun guruhlashda **mezonga ko'ra o'tkaziladigan testlardan** foydalanish tavsiya etiladi.

Standartlashtirilgan testlar ma'lum standart talablari qo'yilgan dastur asosida tuzilib, ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakasini aniqlashga mo'ljallanadi. Ularning erishilgan darajani, qobiliyatlarni (qiziqishlarni ham) aniqlovchi hamda tashhislovchi turlari mavjud.

Ta'lim beruvchilar ko'proq erishilgan darajani va qobiliyatlarni aniqlovchi testlar bilan ishlaydi.

Erishilgan darajani aniqlovchi testlar ta'lim oluvchi ma'lum sohada o'zlashtirgan bilimlar miqdorini o'lchaydigan standartlashtirilgan testlardir. Bu kabi testlarni butun guruhga yoki individual ravishda ishlatish, natijalarni hisoblashda turlicha ball tizimi qo'llanilishi mumkin.

Tashhislovchi testlar ta'limdagi muammolarni belgilab olish uchun individual ravishda qo'llaniladi.

3) Testlarning didaktik-psixologik yo'nalishi qanday test ishlab chiqilayotganligi yoki adaptatsiyasidan o'tayotgan testni uning muallifi qanday xarakterlashni aniqlaydi:

- a) nazariy bilimlarni nazorat qilish uchun o'zlashtirish testlari;
- b) berilgan fan (o'quv va mutaxassislik) bo'yicha bilim va malakalarni nazorat qilish testlari;
- c) o'qitish testlari (ma'lum fan yoki uning tsikli bo'yicha o'quv imkoniyatlarining diagnostikasi).

4) Nazorat bosqichlari bo'yicha yo'nalish:

- a) kirish nazorati (oliy o'quv yurtiga kirishdagi yoki kursni, fan bo'limini va o'qitish bosqichining boshlanishidagi nazorat);
- b) kundalik (joriy) nazorat-bu har kuni amalga oshiriladigan yoki o'quv jarayoni mavzulari bo'yicha o'tkaziladigan nazorat;
- c) oraliq nazorat-bu muayyan fanning alohida bo'lishi tugashi munosabati bilan o'tkaziladigan nazorat;
- d) yakuniy nazorat-bu ma'lum kurs (fan) ning tugashi munosabati bilan o'tkaziladigan nazorat.

5) Testlashtirishning diagnostik (tashhislanganlik) darajasi bo'yicha berilgan testdan ko'zlangan maqsad:

- a) **Simptomatik diagnostikaga**, ya'ni bilim va o'zlashtirishning

“yuqori qatlamlariga” qaratilishi (ya’ni, ma’lum qonuniyat yoki formulalarni bilish, bilmasligi yoki tanish-notanishligi va boshqalar);

b) Etilogiya diagnostikaga, tekshiruv-aloqa sababi (nima uchun aynan o’sha bilimlarni bilmasligi va buning qay darajada boshqa bilimlarni bilishga bog’liqligi)ga qaratilishi;

c) tipologiya diagnostikada esa ta’lim oluvchining o’tilayotgan dars va bilimlarni bilishga, o’zlashtirish va uddalay olishida qanday g’oyalarni kuchaytirish kerakligiga qaratilgan bo’ladi.

6) Sinaluvchining testni bajarish faolligini oshirishga esa yozma va og’zaki testlarga mos ravishda yozma va og’zaki javoblarni qo’llash. Masalan, harakat testlarida, ayniqsa, kompyuterlarda klavishlarni bosishdan tortib, dasturlar yoki, qism dasturlarni chiqarishgacha hamda hisoblash ishlarini o’tkazish va grafiklarni chizish, loyihalashtirish kabilarda. Harakat testlari o’qish yoki ishlash qurilmalarida mashq (trenajerlarda) testlarini mutaxassislik bo’yicha o’qitish tizimlariga kiritish mumkin.

7) Testning nomogenlik darajasi (bir jinslik) testni tuzuvchi muallif tomonidan rejalashtirilgan bo’ladi. Shu jumladan:

a) ko’zlangan maqsadga qarab testning nimani tekshirish kerakligi, ayniqsa, integrativ xarakterdagi asosiy elementlar ichidan (masalan, ma’lum amallarning talab qilingan darajada yoki shu amallarni bajarishda sifat, miqdor, tezlik, ketma-ketlik, javobgarlik kabi bir qancha) asosiy omillarni hisobga olish;

b) shakllantirilgan testda topshiriqlar tuzilishi shaklining bir jinsligi (gomogenligi) yoki turli shaklda bo’lishligi.

8) Vaqt omili-testning tezkor bo’lishi, topshiriqlarning funktsional ravishda ma’lum belgilangan vaqtda bajarish zarurligi: qaysi yo’l bilan, nimaga asoslanib vaqtni, baholash vaqtining sarflanish chegarasi belgilangan bo’lishligi.

9) Testlashtirishni tashkil etish usullariga esa umumiy, individual yoki juda kam qo’llaniladigan, lekin juda samarali hisoblangan alohida usuli ham tekshiriluvchilarning tashhischi bilan yuzma-yuz, holis (testlashtirishning EHM vositalaridagi individual dasturning zamonaviy varianti) turishi kabilar kiradi.

Chet el pedagogikasi testlarining tahlili shuni ko’rsatadiki, ularni bizning milliy pedagogikamizga ko’r-ko’rona ko’chirib bo’lmaydi. Chunki, ko’pchilik chet el testlari yagona dastur bo’lmagan sharoit uchun tuzilgan. Bizning yagona dasturimizning **asosiy maqsadi**

axborot madaniyatining (kompyuter orqali) namoyon bo'lishi va o'quv dasturi asosiy talablarini bajarilishi bizning testlarimizda asosiy talab-dasturga munosabat bo'yicha xotiradagini eslash bo'ladi.

6.3. O'quv faoliyatini nazorat qilish turlari, shakl va metodlari.

Tayanch iboralar: reyting tizimi, ta'limning tarkibiy qismi, bilim va malakalarini tekshirish, bilimni nazorat qilish.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi 333-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida tinglovchilar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'rsida"gi nizomda "Tinglovchilar bilimni nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, tinglovchilarning fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

Reyting tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- tinglovchilarda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;
- tinglovchilar bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta'lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta'minlash;
- fanlarning tinglovchilar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;
- tinglovchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini tahlil rivojlantirish, axborot resurslari manbalarida samarali foydalanishni tashkil etish;
- tinglovchilar bilimni holis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma'lum qilish;
- tinglovchilarning fanlar bo'yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta'minlash;
- o'quvjarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish", deb ta'kidlanadi.

Yuqorida keltirilgan hujjatdagi asosiy maqsaddan va qator vazifalardan quyidagi talablar kelib chiqadi.

Ta'limning tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq va aloqador bo'lib, u pedagogik jarayon hisoblanadi. Bu jarayonning samaradorligi ko'p jihatdan tashkil etilgan ta'lim vositalari tizimiga bog'liqdir. Bu vositalar butun ta'lim tizimining tarkibiy qismi deb qaralgandagina o'z ahamiyatini yo'qotmaydi va ta'limning umumiy vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishda yordam beradi.

Ma'lumki, ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri-nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. Ta'lim beruvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab borishi lozim.

Nazorat (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'lchash esa tekshirish deb ataladi.

Tekshirish-nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasida aloqani ta'minlash, ta'lim beruvchi tomonidan o'quvmaterialini o'zlashtirish haqida ob'ektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashdir. Shuningdek, tekshirishning maqsadi nafaqat ta'lim oluvchining bilim darajasi va sifati, balki uning o'quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat.

Ta'lim oluvchilarning bilim va malakalarini tekshirish quyida ko'rsatilgan mantiqiy ketma-ketlikda olib boriladi: ta'lim oluvchilarning bilim darajasini **oldindan aniqlash**; mavzuni o'zlashtirishni **joriy tekshirish**; bilim, ko'nikma va malakalarni egallanganligining **takroriy tekshirish**; yaxlit bo'lib yoki kursning alohida mavzusi bo'yicha **davriy tekshirish**; ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini **yakuniy tekshirish va hisobga olish**.

Ma'lumki, ta'lim jarayonidagi natijalarni hisobga olish, tekshirish va bilimni nazorat qilish (monitoringga e'tibor berish) hamda baholash pedagogik faoliyatda muhim bosqichlardir. Jumladan, mazkur faoliyatda ta'lim oluvchining bilimini haqiqiy va adolatli baholash hamda natijalarni ularga muntazam ravishda ma'lum qilib borish katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim oluvchilar bilimini nazorat qilish va baholashni to'g'ri yo'lga qo'yish, ularda o'tilgan fanlarga nisbatan ijodiy yondashish,

mustaqil fikrlash, o'z bilimini doimiy ravishda oshirish, adabiyotlardan keng foydalanishni yo'lga qo'yish demakdir. Shu bilan birga ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi uzviy bog'lanishdagi faoliyat olib borishni yuzaga keltiradi, ya'ni o'qitishning o'zaro aloqador ikki vositasini yuzaga keltiradi. Bu ta'lim beruvchi faoliyati va ta'lim oluvchining mehnatga ongli munosabatini uzluksiz jarayon sifatida doimiy bo'lib turishini ta'minlaydi.

Bunda professor-o'qituvchilarning ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rishi, baholashga doir me'yor va mezonlarni, savolnomalar, test savollari va turli boshqotirmalar hamda tayanch tushunchalarni tuzishdagi mas'uliyatli yondashishi va tinimsiz mehnati yotadi.

6.4.Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari.

Tayanch iboralar: nazorat turlari, baholash mezonlari, mustaqil ish, bilim darajasi, bilimining yutug'i va kamchiligi.

Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari hamma vaqt bahstalab mavzu bo'lib kelgan. Chunki u turli adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalariga, Shuningdek, guruhdagi ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi.

Respublikamiz oliy o'quv yurtlarida Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi 333-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi muvaqqat Nizom"ga oid nazorat turlari quyidagicha:

- Joriy nazorat (JN)
- Oraliq nazorat (ON)
- Yakuniy nazorat (YAN)

Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek, joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda tinglovchilarga e'lon qilinadi.

Joriy nazorat-tinglovchining fan mavzulari bo'yicha bilim va

amaliy ko'nikma darajasini aniqlash hamda baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda , seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarida og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin.

Oraliq nazorat-semestr davomida o'quvdasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin tinglovchining bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratining soni (bir semestrda ikki martadan ko'p o'tkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Yakuniy nazorat-semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni tinglovchilar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" (tibbiy oliy ta'lim muassasalari uchun "Yozma ish" yoki OTKS (ob'ektiv tizimlashtirilgan klinik sinov) shaklida o'tkaziladi.

Ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklari ayrim fanlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda fakultet Ilmiy kengashi qarori asosida ko'pi bilan 40 % fanlardan yakuniy nazoratlar boshqa shakllarda (og'zaki, test, himoya va hokazo) o'tkazilishi mumkin.

Tinglovchining fan bo'yicha mustaqil ishi JN, ON hamda YAN turlarida baholanadi.

Tinglovchilarning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida tinglovchining har bir fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

Har bir fan bo'yicha tinglovchining semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda butun sonlar bilan baholanadi. Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

YaN-30 ball; JN va ON-70 ball (fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 70 ball kafedra tomonidan joriy va oraliq nazoratlariga taqsimlanadi).

Tinglovchining fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi:

86-100 ball uchun tinglovchining bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- xulosa va qaror qabul qilish;
- ijodiy fikrlay olish;
- mustaqil mushohada yurita olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

71-85 ball uchun tinglovchining bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- mustaqil mushohada yurita olish;
- olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

55-70 ball uchun tinglovchining bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

Quyidagi hollarda tinglovchining bilim darajasi (qoniqarsiz) 0-54 ball bilan baholanishi mumkin:

- aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
- bilmaslik.

Shuningdek, 86-100 ball-“a'lo”, 71-85 ball-“yaxshi”, 55-70 ball-“qoniqarli”, 0-54 ball-“qoniqarsiz” baho deb baholanadi.

Tinglovchining fan bo'yicha bir semestrda reytingi quyidagicha aniqlanadi:

$$R_f q \frac{V \cdot O'}{100}$$

bu erda:

V-semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quvyuklamasi (soatlarda);

O'-fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan tinglovchilar yakuniy nazoratga kiritilmaydi, aksincha, 55 va undan yuqori ballni to'plagan tinglovchi fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi.

Biz barcha uchun umumiy bo'lgan quyidagi amallarni tinglovchilar bilan bajarishni tavsiya etamiz:

- fan o'qituvchisi semestr davomida o'qitiladigan fanni soatlar taqsimotini aniq bilish lozim;

- tinglovchilarga birinchi mashg'ulotdayoq baholash turlariga dahldor ballar miqdorini berishi shart;

- JN har bir juftligiga beriladigan ball miqdori tinglovchining quyidagi harakatlari uchun beriladi: mashg'ulotga qatnashish va faol ishtiroki; topshirilgan topshiriqni bajarilganlik darajasi; daftar tutishi va imloviy xatolarga e'tibor qaratilishi, olingan natijalarni ilmiy va izchil asoslay olishi, hozirjavobligi, topqirligi va ijodiy fikrlar bilan qatnashishi;

- Oraliq nazoratga ajratilgan ball miqdorini tinglovchi darsga doimiy faol qatnashishi hamda bosqichlarda bajaradigan ishlarning natijasiga ko'ra to'playdi. ON da bajariladigan ishlar: savolnomalarga yozma javob berish, test savollarini yechish, alohida bob yoki mavzularni mustaqil ish tarzida test savollari, boshqotirmalari yoki rebuslar tuzish, ayrim mavzulardan referatlar yozish yoki mavzulardan og'zaki savol-javob qilish kabilardir.

- YaN ga Nizom bo'yicha ajratilgan 30 ballga moslab, semestr ohirida mustaqil ish topshiradi hamda tayanch tushunchalarga asoslangan variantlar tuzilib, tinglovchi o'z variantiga javob tarzida "Yozma ish" yozadi. YAN dagi ballar miqdori yozma ishning quyidagi holatlari uchun beriladi: variant savollariga yozilgan javobning mukammalligi, tinglovchining savodli va ilmiy tilda bayon etishdagi e'tibori, fikr-mulohazalarining asosli va mantiqli ekanligi, daftarni tutish va jihozlash tartibiga rioya qilinganligi, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlarni keltirilishi kabilardir.

Umuman, reyting tizimi quyidagicha vazifalarni bajarishga qaratilganligini unutmashimiz lozim:

- fanning tinglovchi tomonidan tizimli tarzda belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil qilish;

- tinglovchi o'zlashtirishini muntazam baholab borish;

- tinglovchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot manbalardan samarali foydalanishni tashkil etish;

- tinglovchining bilimni adolatli va aniq baholash;

- baholash natijalarini muntazam ma'lum qilish va tahlil qilish;

- professor-o'qituvchilarning har bir darsga va baholash jarayoniga mas'uliyatini oshirish;
- o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish.

Yuqorida keltirganlirimizdan ko'rinadiki, bilimga baho qo'yish bitta mashg'ulotning barcha qismlariga singib ketishi bilan birga butun fanning mazmunidan ham xabardor bo'lishini taqozo etadi. Bu esa ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi doimiy ijodiy munosabatni amalga oshirishni talab etadi. Ular o'tilgan materiallarni qaytarish, yangi materiallarni tushunish uchun zamin ekanligini tushunib etadilar, barcha topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishga faollik ko'rsata boshlaydilar. Tinglovchilarni JN, ON va YAN lar bilan baholar ekanmiz, albatta, ularning yutuq va kamchiliklarini yoritib berishimiz, javoblarini yoki yozma bajargan ishlarini tahlil qilishimiz lozim. Chunki, fan ta'lim beruvchisi tinglovchilaning semestr davomida bajargan ishlari, faol ishtiroki va boshqa javoblarini aniq hisobga olib bormasa va natijaviy balini chiqarganda qisqacha izohlab bermasa, ular qo'yilgan bahoning **to'g'riligiga shubha** tug'ilishi mumkin.

Tinglovchi o'z bilimining qanday yutuq va kamchiligi borligini tushunib, nima uchun uning bali oshganligini yoki pasayganligini anglagandagina u rag'batlantiruvchi rol o'ynashi mumkin. Tinglovchi o'z xatosini tushungach, uni to'g'rilashga ongli ravishda intiladi. Aks holda, bu tinglovchiga ham, uning o'qishga bo'lgan munosabatiga ham salbiy ta'sir etadi. Unda tirishqoqlik, o'z bilimiga va iqtidoriga bo'lgan ishonchi **pasayib boradi**, ta'lim beruvchiga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'lib uni "**adolatsiz**" ga chiqarib qo'yadi.

Ta'lim beruvchining to'g'ri va adolatli asoslashi, garchi, salbiy xarakterda bo'lsa ham, tinglovchini qanoatlantiradi. Ta'lim beruvchi bilimni doim nazorat etib ball bilan baholar ekan, tinglovchining ishiga bo'lgan munosabatini aytib o'tadi. Erishgan yutuqlari uchun rag'batlantirsa, kamchiligi uchun koyiydi. Uni bartaraf qilish mumkinligini ham ijodiy tayyorgarlik paytida asosiy e'tiborini nimalarga qaratish kerakligini ko'rsatadi. Bunday asoslash tinglovchi yutuqlarning aniq baxosi bo'libgina qolmay, balki uning bundan keyingi o'qishdagi vazifalarini bajarishga yordam beradi. Bu, tinglovchida umid uyg'otadi. O'ziga bo'lgan ishonchni

mustahkamlaydi va ta'lim beruvchi-ustozga nisbatan ham e'tiqodni yanada kuchaytiradi. Eng asosiysi ular kelajakda o'z faoliyatlariga tanqidiy ko'z bilan qaraydigan jiddiy shaxslar bo'lib yetishadilar.

Demak, bilimni to'g'ri va haqqoniy baholash ta'lim beruvchining pedagogik faoliyatiga ham katta ta'sir ko'rsatadi va qo'yilgan bahoga javobgarligini oshiradi. Baho tinglovchiga ta'sir etib, uning ijodiy va salbiy kechinmalarini jumbushga keltiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu kechinmalar faqat bahoning qandayligiga bog'liq bo'lmay, balki uning tinglovchi ongiga qanday yetkazishiga ham bog'liqdir. Faqat yuqorida aytib o'tilgan shartlarga rioya qilib, hamma tomon hisobga olingan holda, qo'yilgan ob'ektiv baho tinglovchilarda axloqiy-irodaviy xususiyatlarni tarkib toptirishga yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. O'zlashtirish natijalarini bilish nima uchun kerak?
2. Ta'lim natijalarini nazorat qilish vositalari nimalardan iborat?
3. Nazorat qilishning o'ziga xos xususiyatlari va vazifalarini nimalardan iborat.
4. Didaktik testlarning vazifalari qanday?
5. Me'yoriy test bilan mezonli testning farqini aytib bering.
6. Standartlashtirilgan testning asosiy funksiyasi nimalardan iborat?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Podlaso'y I.P. Pedagogika. V 2-h kn. 1.– Moskva, Vldos, 2001.–342 s.
2. Hasanboev J., Sariboev H., Niyozov G., Hasanboeva O., Usmonboeva M. Pedagogika. O'quv qo'llanma.-Toshkent: Fan, 2006.-282 b.
3. Abdullaeva Sh. va boshq. Pedagogika. T., «Fan», 2004.
4. Asqarova O. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar. T., "Istiqlol", 2005.
5. Mavlonova R., To'raeva O., Xoliqberdiev K. Pedagogika. T.: «O'qituvchi», 2001.
6. N.A. Moreva. Pedagogika srednego professional'nogo obrazovaniya. M., 2001.
7. Olimov Q.T., Abduqudusov O., Axmedjanov M.M. Kasb ta'limi uslubio'ti. O'quv qo'llanma, Toshkent, Iqtisod-moliya. 2006. 160 b.

9. Pedagogika: uchebnik / pod red. L.P. Krivshenko.-M., 2008.
10. Pidkasistiy, P.I. Organizatsiya uchebno-poznavatel'noy deyatel'nosti studentov.-2-e izd.-M., 2005.
11. Risqiev T. Umumiy tahrir ostida "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish koncepciyasi", T., "Sharq", 2002.
12. Roziqov O. R., Og'ayev S.Yu., Maxmudova M.M., Adizov B.R. Didaktika. T.: «Fan», 1997.
13. Tursunov I.Y., Nishonaliev U.N. Pedagogika kursi. T., «O'qituvchi», 1997.

Internet saytlari:

14. www.ziyonet.uz
15. www.tdpu.uz
16. www.pedagog.uz

VII. TARBIYA JARAYONI, MAZMUNI, QONUNIYATLARI VA TAMOIYILLARI. TARBIYA TURLARI.

7.1 Keng va tor ma`nodagi tarbiya tushunchasi.

Tayanch iboralar: keng ma`nodagi tarbiya tushunchasi, tor ma`nodagi tarbiya tushunchasi, tarbiya jarayoni, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy jarayon, maqsadga qaratilgan tarbiya.

Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining bir qismi bo`lib, tarbiya jarayonining mazmuni, metodlari va tashkil etilishi masalalarini o`rgatadi. Hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan yondoshish o`sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog`liq jarayon mazmunini ham qaytadan ko`rib chiqishni taqozo etmoqda.

Tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo mutafakkirlari va Xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o`z qoidalarini asoslash uchun falsafa, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya kabi fanlar ma`lumotlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo`limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta`lim nazariyasi hamda maktabshunoslik bilan uzviy bog`liq.

Tarbiya jarayoni shaxsning muayyan maqsad asosida ijtimoiy hayotga tayyorlovchi tarixiy - ijtimoiy tajribaga suyangan holda olib boriluvchi faoliyat jarayonidir. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya jarayoni yosh avlodni muayyan maqsad yo`lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo`naltirilgan faoliyat jarayonidir.

Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyati turlicha bo`lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Turli makon va zamonda tarbiya g`oyasi turlicha ifodalangan bo`lsa-da, ammo yo`naltiruvchanlik xususiyati hamda ob`ektiga ko`ra yakdillikni ifoda etadi.

Tarbiya xususida taniqli o`zbek pedagogi A.Avloniy shunday deydi: “Al-Hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot, yo halokat yo saodat, yo falokat masalasidir”³. Ushbu fikrlardan xulosa chiqarsak, Shaxs tarbiyasi xususiy emas, balki ijtimoiy, milliy ilmdir. Zero, har bir Xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo`lishi avlodlar tarbiyasiga ko`p jihatdan bog`liq.

³ A. Avloniy. Turkiy guliston yohud ahloq. Toshkent. 1996.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub islohotlar olib borildi. Islohotlarning asosiy g'oyasi respublikaning rivojlanish va taraqqiyot yo'li deb e'tirof etilgan demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatni barpo etish uchun xizmat qiladi.

O'z oldiga fuqarolik jamiyatini qurishni vazifa qilib qo'ygan bugungi jamiyatimiz yoshlardan ongli tafakkur, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan tarbiya asosida shakllanib takomillashishlarini talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'o'risida" gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning qator asar va nutqlarida, chunonchi "Barkamol avlod - O'zbekiston tarqqiyotining poydevori", "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" nomli asarlarida mustaqil respublikada ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish maqsadi va vazifalari belgilab berilgan.

Tarbiya - Shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi.

Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan ikki faoliyatni-o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllana boradi. His-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan va ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi. Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'o'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta'siri bolaning ularga munosabati bog'liqligini ko'rsatadi. Bola faoliyatini uyushtirishgina emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan qalbida paydo bo'layotgan munosabatini, turli kechinmalarni qanday anglashni baholashni, his qilishni anglashi e'tiborga molikdir. Ulardan o'zi uchun nimalarni maqsad qilib olayotganligini bilishi zarur. Bularning barchasi turli kishilar bilan aloqa qilish, jamoadagi munosabatlar jarayonida murakkablashib boradi.

Tarbiya jarayoni o'quvchining onginigina emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borishi, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarni hosil qilishi lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga, hissiyotiga va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi, o'quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularni ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Ijtimoiy jarayonda faol ishtirok etish orqali o'quvchilarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi ortib boradi. Faoliyat o'quvchilar jamoasi manfaati va istagi asosida uyushtirilsa, bu jarayonda bolaning tengdoshlari va o'z-o'zini anglash jarayoni tezlashadi, bola o'z xulqi, hatti-harakati uchun jamoa oldida javobgarlikni sezishga erishgach ijrochi emas, balki umumiy ishning faol qatnashchisi bo'lib qoladi.

Tarbiyani samarali yo'lga qo'yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchini-tarbiya jarayonining manbaini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir.

Bir so'z bilan aytganda tarbiya jarayoni-har bir insonning hayotda yashashi (umumiy faoliyat, ta'lim, tarbiya) jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko'nikmasini o'zida shakllantirish va o'zgalarga berish jarayonidir. Tarbiya jarayonida ichki va tashqi qarama-qarshiliklar mavjud bo'lib, u bevosita tarbiyalanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Tarbiyada o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Bu jihat unutilsa, qarama-qarshiliklar kuchayadi.

Tarbiyalanganlik-milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizga e'tiqod bilan rioya qiladigan, noqonuniy ishlardan o'zini tiya oladigan, o'z hatti-harakatlari bilan o'zgalar nafratini qo'zg'amaydigan xulq-atvordir.

Faoliyat jarayonida hosil bo'lgan malaka va odatlar axloq me'yorlariga rioya qilishni engillashtiradi.

Demak, tarbiyachi bola shaxsining tez rivojlanadigan davri o'quvchilik yillarida uning ongiga turli-tuman faoliyat (o'qish, mehnat, o'yin, sport, badiiy havaskorlik) yordami bilan maxsus ta'sir etish mumkindir.

Tarbiya yaxlit jarayonda amalga oshiriladi, uning tarkibiy qismlari ham ayni bir vaqtda, faoliyatning biror turi asosida amalga oshiriladi.

Umumiy pedagogik jarayonda tarbiya muhim o'rin tutadi. Shaxsni shakllantirish boshqaruv, nazorat tavsifiga ega bo'lib, bu borada belgilangan vazifalar tasodifiy harakatlar orqali emas, balki oldindan belgilangan va puxta o'ylangan rejalar asosida hal etilib boriladi. Tarbiya jarayonida uning maqsadi, shakli, iste'dodlari, shaxsning o'zini-o'zi tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o'rin tutadi. Tarbiya mazmuni ijtimoiy tuzum buyurtmasi asosida belgilanib, uning amalga oshishi uchun ma'lum shart-sharoitlarning mavjudligi talab etiladi. Ushbu g'oyalar yaxlit tarzda quyidagicha aks etadi.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu hatti-harakatni sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Insonni mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalash, aqlni peshlash demakdir. Aql ongni saqlaydi. Ong esa, moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tariqa inson sekin-asta takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo, buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharaflilik mehnat va qunt, irodani talab etadi. Buning uchun bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ma'naviy, insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va bolalarga bo'lgan munosabat muhim rol o'ynaydi.

Aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyachining qanday metoddan foydalanishiga bog'liq.

Metod-yunoncha atama ekanligini va u aynan nimagadir yo'l, usul orqali maqsadga erishish yo'lini bildirishi bizga ma'lum. Metod, ya'ni usul axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab:

- So'z orqali ifodalash usuli.
- Ko'rgazmalilik usuli.
- Amaliy namuna usuli.
- Rag'batlantirish va jazo usuliga bo'linadi.

7.2. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari.

Tayanch iboralar: tarbiya jarayonining mazmuni, tarbiya jarayonining metodlari, tarbiya jarayonining tashkil etilishi, ijtimoiy tarbiyaning mohiyati, huquqiy jamiyatni barpo etish, faol ishtirok etish, tarbiya mazmuni.

Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiya jarayonining mazmuni, metodlari va tashkil etilishi masalalarini o'rgatadi. Hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan yondoshish o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq jarayon mazmunini ham qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo mutafakkirlari va Xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya kabi fanlar ma'lumotlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo'limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi hamda maktabshunoslik bilan uzviy bog'liq.

Tarbiya jarayoni Shaxsning muayyan maqsad asosida ijtimoiy hayotga tayyorlovchi tarixiy -ijtimoiy tajribaga suyangen holda olib boriluvchi faoliyat jarayonidir. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya jarayoni yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir.

Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyati turlicha bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Turli makon va zamonda tarbiya g'oyasi turlicha ifodalangan bo'lsa-da, ammo yo'naltiruvchanlik xususiyati hamda ob'ektiga ko'ra yakdillikni ifoda etadi.

Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi A.Avloniy hunday deydi: "Al-Hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot, yo halokat yo saodat, yo falokat masalasidir"⁴. Ushbu fikrlardan xulosa chiqarsak, Shaxs tarbiyasi xususiyy emas, balki ijtimoiy, milliy ilmdir. Zero, har bir Xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq.

⁴ A. Avloniy. Turkiy guliston yohud ahloq. Toshkent. 1996.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub islohotlar olib borildi. Islohotlarning asosiy g'oyasi respublikaning rivojlanish va taraqqiyot yo'li deb e'tirof etilgan demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatni barpo etish uchun xizmat qiladi.

O'z oldiga fuqarolik jamiyatini qurishni vazifa qilib qo'ygan bugungi jamiyatimiz yoshlaridan ongli tafakkur, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan tarbiya asosida shakllanib takomillashishlarini talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning qator asar va nutqlarida, chunonchi, "Barkamol avlod - O'zbekiston tarqqiyotining poydevori", "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" nomli asarlarida mustaqil respublikada ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish maqsadi va vazifalari belgilab berilgan.

Tarbiya-shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining Shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi.

Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan ikki faoliyatni-o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllana boradi. His-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan va ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi. Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'o'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat Shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (hoh salbiy, hoh ijobiy) ta'siri bolaning ularga munosabati bog'liqligini ko'rsatadi. Bola faoliyatini uyushtirishgina emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan qalbida paydo bo'layotgan munosabatini, turli kechinmalarni qanday anglashni baholashni, his qilishni anglashi e'tiborga molikdir. Ulardan o'zi uchun nimalarni maqsad qilib olayotganligini bilishi zarur. Bularning barchasi turli kishilar bilan aloqa qilish, jamoadagi munosabatlar jarayonida murakkablashib boradi.

Tarbiya jarayoni o'quvchining onginigina emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borishi, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarni hosil qilishi lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga, hissiyotiga va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar, bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi, o'quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularni ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Ijtimoiy jarayonda faol ishtirok etish orqali o'quvchilarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi ortib boradi. Faoliyat o'quvchilar jamoasi manfaati va istagi asosida uyushtirilsa, bu jarayonda bolaning tengdoshlari va o'z-o'zini anglash jarayoni tezlashadi, bola o'z xulqi, hatti-harakati uchun jamoa oldida javobgarlikni sezishga erishgach ijrochi emas, balki umumiy ishning faol qatnashchisi bo'lib qoladi.

Tarbiyani samarali yo'lga qo'yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchini-tarbiya jarayonining manbaini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir.

Bir so'z bilan aytganda tarbiya jarayoni-har bir insonning hayotda yashashi (umimiy faoliyat, ta'lim, tarbiya) jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko'nikmasini o'zida shakllantirish va o'zgalarga berish jarayonidir. Tarbiya jarayonida ichki va tashqi qarama-qarshiliklar mavjud bo'lib, u bevosita tarbiyalanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Tarbiyada o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Bu jihat unutilsa, qarama-qarshiliklar kuchayadi.

Tarbiyalanganlik-milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizga e'tiqod bilan rioya qiladigan, noqonuniy ishlardan o'zini tiya oladigan, o'z hatti-harakatlari bilan o'zgalar nafratini qo'zg'amaydigan xulq-atvordir.

Faoliyat jarayonida hosil bo'lgan malaka va odatlar axloq me'yorlariga rioya qilishni engillashtiradi.

Demak, tarbiyachi bola shaxsining tez rivojlanadigan davri o'quvchilik yillarida uning ongiga turli-tuman faoliyat (o'qish, mehnat, o'yin, sport, badiiy havaskorlik) yordami bilan maxsus ta'sir etish mumkindir.

Tarbiya yaxlit jarayonda amalga oshiriladi, uning tarkibiy qismlari ham ayni bir vaqtda, faoliyatning biror turi asosida amalga oshiriladi.

Umumiy pedagogik jarayonda tarbiya muhim o'rin tutadi. shaxsni shakllantirish boshqaruv, nazorat tavsifiga ega bo'lib, bu borada belgilangan vazifalar tasodifiy harakatlar orqali emas, balki oldindan belgilangan va puxta o'ylangan rejalar asosida hal etilib boriladi. Tarbiya jarayonida uning maqsadi, shakli, iste'dodlari, shaxsning o'zini-o'zi tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o'rin tutadi. Tarbiya mazmuni ijtimoiy tuzum buyurtmasi asosida belgilanib, uning amalga oshishi uchun ma'lum shart-sharoitlarning mavjudligi talab etiladi. Ushbu g'oyalar yaxlit tarzda quyidagicha aks etadi.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu hatti-harakatni sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Insonni mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalash, aqlni peshlash demakdir. Aql ongni saqlaydi. Ong esa, moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tariqa inson sekin-asta takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo, buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharaflilik mehnat va qunt, irodani talab etadi. Buning uchun bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ma'naviy, insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va bolalarga bo'lgan munosabat muhim rol o'ynaydi.

Aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyachining qanday metoddan foydalanishiga bog'liq.

Metod-yunoncha atama ekanligini va u aynan nimagadir yo'l, usul orqali maqsadga erishish yo'lini bildirishi bizga ma'lum. Metod, ya'ni usul axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab:

- So'z orqali ifodalash usuli.
- Ko'rgazmalilik usuli.
- Amaliy namuna usuli.
- Rag'batlantirish va jazo usuliga bo'linadi.

7.3.Tarbiya jarayoni qonuniyatlari va tamoyillari.

Tayanch iboralar: *ijtimoiy hayotning ob'ektiv talablari, ijtimoiy tarbiya mazmuni, demokratik tamoyillar, tarbiyaning g'oyaviy mazmuni, tarbiyalanuvchilarning faoliyati, tarbiya tamoyillari, tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi,*

Tarbiya jarayonini ilmiy asoslangan tarzda olib borish uning qonuniyatlarini chuqur o'rganishni talab qiladi. Bu qonuniyatlar voqealarning muayyan rivojlanishi uchun sharoit yaratuvchi sabab va oqibat o'rtasidagi muhim, zarur ichki aloqalarning ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tarbiya jarayonining asosini ijtimoiy hayotning ob'ektiv talablari insonning ijtimoiy mohiyatini va tabiatini aks ettiruvchi qonuniyatlar tashkil etadi.

Tabiat yoki jamiyatdagi har qanday murakkab hodisada ob'ektiv ravishda mavjud bo'ladigan barqaror aloqalar kuzatiladi. Bunday aloqalar qonuniyat deb ataladi. Bunday qonuniyat tarbiya jarayonida ham amal qilinadi. Tarbiya qonuniyatlari mohiyati bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, ikkinchi tomondan shaxsning rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Tarbiyaning birinchi va eng muhim qonuniyati uning ijtimoiy muhitning obektiv va subektiv omillariga bog'liqligidir.

Ijtimoiy tarbiya mazmuni moddiy ishlab chiqarish usuli, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, siyosiy tuzum hamda milliy mafkura g'oyalari asosida qaror topadi. Ijtimoiy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy-g'oyaviy asoslarini tashkil qiladigan hamda tarbiyaning mazmuni va uning olib borilishiga kuchli tasir ko'rsatadigan ijtimoiy jarayonlar tarbiyaning subektiv omillari sirasiga (tarbiya muassalari, jamoat tashkilotlari o'qituvchilar, tarbiyachilar, oila muhiti, jamotchilik dunyoqarashi, mafkura g'oyalari, shaxsning har tomonlama rivojlantirishga oid faoliyat kabilar) kiradi.

Demokratik tamoyillar hamda qonun ustuvorligi taminlangan sharoitda tarbiyaviy jarayonning ijtimoiy muhit bilan o'rnatiladigan aloqalari Shaxs shakllanishiga ijobiy tasir ko'rsatadi.

Tarbiyaning ikkinchi muhim qonuniyati uning shaxs rivojlanishi bilan birligi, o'zaro aloqadorligi va bog'liqligidir.

Shaxs rivojlanishi tarbiyaning g'oyaviy mazmuni va sifat darajasiga bog'liqdir. Ayni cho'lda tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari Shaxsning rivojlanganlik darajasiga ham bog'liq. Tarbiya

jarayoni psixologiya fani asoslarini shaxsning psixologik va fiziologik rivojlanish qonunyatlarini bilishni ham talab qiladi. Tarbiyachi (o'qituvchi) tarbiyalanuvchi (o'quvchi) shaxsini har tomonlama o'rganishi va shu asosida unga to'g'ri psixologik tavsif berishi va ta'sir ko'rsatishi lozim. Tarbiyalanuvchining shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlari hisobga olinmas ekan, ularga har qanday tarbiyaviy ta'sir bir tomonlama yoki tasodifiy bo'lib qoladi. Shuningdek, ular boshqa tarbiyaviy ta'sirlarga mos bo'lmay qoladi.


Tarbiyaning uchinchi qonuniyati faoliyat va munosabat birligini e'tirof etish, shaxsning ijtimoiy ijobiy fazilatlarini shakllantirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi.

Tarbiyalanuvchilarning faoliyati jamiyat uchun qanchalik foydali, maqsadga muvofiq tashkil etilsa, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabat oqilona bo'lsa, tarbiya jarayoni shunchalik samarali bo'ladi.

Sub'ekt (Shaxs)- ob'ekt (ijtimoiy borliq) ijtimoiy munosabatlari to'g'ri tashkil etiladigan aloqa jarayoni shaxs faoliyati mazmuni va yo'nalishini ham belgilashi mumkin. Ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida shaxsda borliqni his etish, o'z-o'zini anglash, aloqa, aralashuv va muloqotni tashkil etish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Ehtiyojni qondirish yo'lidagi dastlabki urinish ijtimoiy munosabatlar mazmunini o'rganish va o'zlashtirish sanaladi. Ijtimoiy munosabatlar mohiyatini anglash ehtiyojini qondirishga qaratilgan faoliyat jarayonida ijtimoiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan qiziqish hosil bo'ladi. Qiziqish o'z navbatida shaxsda muayyan hayotiy maqsadning qaror topishiga olib keladi. Maqsad asosida shaxs nafaqat ijtimoiy bilimlarni egallashga intilishi, balki o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash layoqatini ham namoyon eta borishi maqsadga muvofiqdir. Maqsad mazmunini ifoda etuvchi g'oyalar amaliy harakatlarni tashkil etish borasidagi rab'atlarni yuzaga kelishi uchun zamin hozirlaydi. Rab'batlar o'zida quyidagi xususiyatlarni aks ettiradi: fuqarolik vatanparvarlik, insonparvarlik, ilmiy anglash, axloqiylik, iqtisodiy, ekologik, jismoniy, estetik, huquqiy va boshqa sifatlar.

Qayd etilgan rab'batlar amaliy harakatning tashkil etilishi uchun turtki beradi. Ijtimoiy munosabatlar jarayonida Shaxs faoliyati mazmunini tahlil etish, ularda o'z faoliyatlariga nisbatan tanqidiy yondashuvni qaror toptirish, shuningdek, o'z faoliyatini boshqarish

talab etiladi. O'quvchi shaxsida shakllanadigan ijtimoiy-insoniy sifatlar quyidagi tizim asosida kechadi (1-shakl).



Yuqorida bayon etilgan fikrlardan anglashildiki, shaxsning shakllanishiga-uning asosiy munosabatlarining yaxlit tizimida tarbiyachi, o'qituvchi, farzandlar va Shaxs bilan bo'ladigan o'zaro tasiri jarayonida kelib chiqadigan tarbiyalovchi munosabatlar alohida ahamiyatga ega. Bu munosabatlar doirasida ijtimoiy tarbiyaning maqsadlari amalga oshiriladi.

Tarbiyaning to'rtinchi qonuniyati tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'sirga ega ekanliklari, ularning o'zaro munosabatlari hamda faol faoliyatlari o'rtasidagi boo'lanishning mavjudligi sanaladi.

Tarbiyachi (o'qituvchi) larning va o'quvchilar jamoasining tarbiyalanuvchi (o'quvchi) larga pedagogik tasiri ular faoliyati va munosabatlarini tizimi hamda rejali tarzda maqsadga muvofiq tashkil qilishni nazarda tutadi. Tarbiya jarayonida tarbiyachi (o'qituvchi) va tarbiyalanuvchi (o'quvchi) larning ijtimoiy roli bir xil emas. Tarbiyachi uchun tarbiyalanuvchi har vaqt tarbiyaviy obekt hisoblanadi. Biroq, tarbiyalanuvchi tarbiyachi bilan ongli ravishda o'zaro munosabatda bo'lishga erisxilsa, tarbiyaviy munosabatlar faol xarakter kasb etadi.

Rivojlanuvchi (Shaxsni rivojlantirish), tarbiyalovchi (tarbiya maqsadlarini amalga oshirish) va tashkilotchilik (faoliyat va munosabatlarni maqsadga muvofiq tashkil etish) vazifalari tarbiya jarayonida (tarbiyalanuvchilarning) asosiy vazifalari sanaladi.

Tarbiyalovchiga ko'rsatiladigan tasirlar muayyan shaxslarga turlicha tasir ko'rsatadi. Shu bois, tarbiyachi har bir

tarbiyalanuvchining o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarni hisobga olib, tasir ko'rsatishning alohida yo'llarini qidirib topishi lozim. Tarbiyadagi muvaffaqiyat aksariyat hollari pedagogning o'z o'quvchilarining tarbiyalanganlik darajasini, yani ularning ongliligi, axloqiy sifatlariga egaligi, odilligi, qat'iyatliligi va boshqalarni bilishga bog'liq. Demak tarbiya jarayonining qonuniyatlari quyidagilardan iborat.

Tarbiya jarayonining qonuniyatlari bilan birga bola tarbiyasining ham o'ziga xos bir qator muhim qoidalari ham bo'lib ular quyidagilar:

- tarbiyaning aniq bir maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyaning hayotiy faoliyat bilan bog'liq hodisa, deb bilish;
- Shaxsni jamoada tarbiyalashga oid o'rni;
- tarbiyalanuvchi shaxsiga nisbatan talabchan bo'lish va uning shaxsini hurmat qilish;
- tarbiyalanuvchi (o'quvchi) ning tarbiya jarayonida yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- tarbiyaviy ishlarning izchilligi va muntazam olib borilishiga e'tibor.

Tarbiya jarayonining muvaffaqiyati uni tashkil etishda qanday tamoyillarga ko'ra ish ko'rilayotganligiga ham bog'liq.

Tarbiya tamoyillari. Tarbiya tamoyillari deb, yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqadigan va komil insonni tarbiyalashning mazmuni va yo'nalishiga qo'yiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy g'oya va qoidalar yig'indisiga aytiladi.

Tarbiya tamoyillari o'qituvchi va tarbiyalanuvchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar bo'lib, yosh avlodni tarbiyalash, barkamol insonni shakllantirish vazifalariga muvofiq belgilanadi, shuningdek, ular Shaxs tarbiyasi borasidagi ilg'or talimotlar g'oyalariga hamda pedagogika fanida erishilgan yutuqlarga asoslanadi.

Tarbiya tamoyillari tarbiya jarayoni qonuniyatlarini aks ettiradi. Tarbiyaviy jarayonda ilg'or tamoyillarga amal qilinishi tarbiya samarasini ta'minlaydi. Tarbiya tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va g'oyaviyligi;
- Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustunligi;
- Tarbiyada milliy, umumbashariy qadriyatlarning ustunligi;
- Tarbiyada izchillik va tizimlilik;

- Tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qo'shib olib borish;
- Tarbiyani mehnat bilan boo'lash;
- Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish;
- Tarbiyada o'quvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish;
- Jamoa va jamoa yordamida tarbiyalash;
- Tarbiyada o'quvchiligidagi ijobiy sifatlarga tayanib, salbiy tomonlarni yo'qotish;

Tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va g'oyaviyligi - o'qituvchi ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifasini aniq tasavvur etishi va puxta anglab olishi zarur.

Yosh avlodni yuksak g'oyaviylik ruhida tarbiyalash ularning ongiga Xalq, millat, yurt, jamiyat manfaatlaridan yuqoriroq manfaat bo'lishi mumkin emasligini singdirishi, ularni vatanga, Xalqqa muhabbat ruhida va sadoqatli qilib tarbiyalash demakdir.

Bu sohada mustaqil respublikamiz Xalq talimi xodimlarining asosiy vazifasi erkin, ijodkor, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, yetuk mutaxassis komil Shaxsni tarbiyalashdan iboratdir.

Maktabda va maktabdan tashqarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning barchasi ijtimoiy tarbiyaning maqsadini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilishi zarur.

O'qituvchi (tarbiyachi) lar jamoasi va har bir o'qituvchi-tarbiyachi tarbiyaning maqsadi har tomonlama kamol topgan mukammal inson shaxsini tarbiyalashdan iborat bo'lishi lozim. Ana shunda mazkur tamoyil o'z vazifasini bajargan bo'ladi.

Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustunligi-tarbiyada inson shaxsini ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va o'spirinning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy xulqi va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratiyalash bu - tarbiyani mamuriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. Bu tarbiya ishiga jamoatchilikni jalb qilish, uning rivojlanishiga jamoat omilini kiritish demakdir. O'qituvchi o'quvchiga avvalgidek, tarbiya obekti emas, balki o'zi kabi subekt deb qarashi darkor. Ya'ni o'quvchini teng huquqli hamkor, hamfikir deb qarash lozim.

Umuman, ta'lim va tarbiyani insonparvarlashtirishning pedagogik diqqat hamda e'tibor markazida insonning muhim masalasi va muddaosi, ya'ni bolalarda inson shaxsiga dunyodagi eng yuqori, bebaho boylik sifatidagi munosabatini shakllantirishdek faoliyat yotadi.

Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustunligi-Xalqning ko'p asrlik qadriyatlarini, ulkan va boy merosini chuqur bilmasdan milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. Shu bois, Xalq ananalari urf-odatlari, marosimlari, Xalq oo'zaki ijodi, milliy o'yinlar va ularda ifodalangan g'oyalarni o'quvchilar onggiga singdirish, ularda ushbu g'oyaga nisbatan hurmatni qaror toptirish lozim.

Umumbashariyat uchun qadrli, ardoqli bo'lgan, insoniyat o'tmishi, buguni hamda kelajagi uchun dahldor qadr-qimmatga ega bo'lgan ananalar, urf-odatlari haqida ma'lumotlar berish, ularda mehr-muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ularni qo'llab-quvvatlash, ezgu g'oyalar uchun kurashish hissini qaror toptirish tarbiya jarayonida amalga oshirilishi lozim.

Tarbiyada izchillik va tizimlilik - tarbiyaga yaxlit tizimli yondoshish pedagogik harakatning pirovard natijasiga yo'naltirilganlik darajasini belgilab beradi.

Bunday pedagogik maqsad va vazifalar, ularning mazmuni tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashuvchilari tomonidan tan olinishi shart.

Tarbiyada izchillik juda muhimdir. O'quvchilarga birdaniga ko'p talab va qoidalarini taqdim qilish mumkin emas. O'qituvchilar o'quvchilarga bo'lgan munosabat jarayonida o'zaro bir-biriga zid harakatda bo'lmasliklari, yagona talab qo'yishlari lozim.

Tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qo'shib olib borish. Yosh avlodning o'sib ulg'ayishi va shaxsning shakllanishiga hayot, ijtimoiy jamiyat tasir etadi.

Bu bir tomondan bo'lsa, ikkinchidan bolalarni tarbiyalashdan maqsad uni turmush uchun mustaqil hayot uchun tayyorlashdir. Shunday ekan, tarbiya maktab va boshqa o'quv muassasalarida olib boriladigan bo'lishi kerak.

Tarbiyani mehnat bilan bog'lab olib borish. Mehnatning tarbiyaviy tasiri g'oyat kattadir. Mehnatda ishtirok etish va unumli mehnat qilish bilan Shaxs o'z qobiliyati va iste'dodini namoyon qiladi

va kamolga etadi. Mehnat yosh avlodning tarbiyasi uchun juda katta vositadir. O'quv mehnati va ijtimoiy foydali mehnat o'quvchi shaxsiga ijobiy tasir etadi, bu ikki faoliyat birligi bolani faollashtiradi, xulq birligini ta'minlaydi, tashabbuskor va izlanuvchan qiladi. Mehnat bolalarga siyosiy-ma'naviy tarbiya berish uchun zamin hozirlaydi. Shuning uchun oila va maktablarda bolalarni ilk yoshidan boshlab mehnatsevarlik ruhida, mehnatga muhabbat va mehnat kishilariga hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor beriladi. Maktabda o'qishning o'zi ham mehnatdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning aksariyati ham mehnat tarbiyasi bilan mustahkam bog'langan.

Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish - o'quvchilarni ijtimoiy tarbiyalashning muhim tamoyillaridan biri ularning shaxsini hurmat qilishdir. Bu tamoyil insonparvarlik munosabatidan kelib chiqadi.

O'quvchiShaxsini hurmat qilish, ularga mehr-muhabbat ko'rsatish va ularga ishonish shart. Tajribalarning ko'rsatishiga, qayerdagi o'quvchilarga hurmat, muhabbat, ishonch bo'lsagina shu yerda tarbiyaning ta'siri samarali bo'ladi. Bolalarga hurmat va muhabbat ular kuchiga kuch qo'shadi o'qituvchiga nisbatan hurmatni uyo'otadi.

Tarbiyada o'quvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish - tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari bolalarning yoshi va saviyasiga qarab turli sinflarda turlicha bo'ladi. Bolalar maktabda rivojlanishining turli davrlarini bolalik, o'smirlik va o'spirinlik bosqichlarini bosib o'tadilar. Shu davrlar ichida bolaning axloqiy turo'unligi rivojlanadi, xulqi va ongi o'rtasidagi uyo'unlik vujudga keladi. Tarbiya berishda har bir o'quvchining Shaxsiy xususiyatlarini ham hisobga olish katta ahamiyatga ega. Bolalarning jismoniy va ma'naviy o'sishida bir qadar umumiylik bor, biroq bolalarning tavsif-hislatlari, qobiliyat va mayllari, qiziqishlari, irodaviy sifatleri har xil bo'ladi. Bu farqlar ularning xulqida, o'qishi va mehnatida aks etadi. Bir o'quvchiga nisbatan foydali metodni boshqa o'quvchiga nisbatan qo'llaganda natijasiz bo'lib, chiqishi mumkin. Shuning uchun har bir o'quvchixususiyatini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Jamoda va jamoa yordamida tarbiyalash - tarbiya jarayoni o'quvchilarning jamoa bo'lib birlashishlari, ularda manfaatdorlik birligi, o'zaro yordam tuyg'usini o'stirish xizmat qilishi lozim. Tuyg'u tashkil etilgan jamoa a'zolarining qobiliyat va iste'dodini rivojlantirish uchun keng yo'l ochadi. Jamoda bola har tomonlama

rivojlanishi uchun keng imkoniyatga ega bo'ladi. O'quvchilar axil jamoa bo'lib uyushganlaridagina tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish ancha engil va muvaffaqiyatli bo'ladi. Yaxshi uyushgan jamoada jamoa fikri katta tarbiyaviy kuchga ega bo'ladi, har bir Shaxsga ta'sir etadi.

7.4.Tarbiya turlari: maqsadi, vazifalari, shakl va metodlari.

Tayanch iboralar: *tarbiya maqsadi, tarbiya vazifalari, tarbiya shakllari, tarbiya metodlari, tarbiya turlari, jazo berish metodlari, rag'batlantirish metodlari.*

Tarbiya metodlari bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish maqsadi bilan belgilanadi va tarbiya jarayoniga taalluqli ko'pgina tarbiyaviy ta'sirlarni o'z ichiga oladi. Tarbiya metodlari ijtimoiy jamiyat tomonidan talim muassasalari oldiga har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo'lgan shaxsni tarbiyalash vazifalari bilan belgilanadi.

Bu boradagi vazifalar yosh avlodni O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlash, vatan ravnaqi, Xalq farovonligi yo'lida faoliyat olib boruvchi shaxsni tarbiyalash, ularni bu kurashga jalb ettirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu g'oyaga tayangan holda, tarbiya jarayonida uning qonuniyatlariga muvofiq tarbiya metodlaridan foydalanib ish ko'rish lozim bo'ladi.

Tarbiya metodlari bu o'qituvchi (tarbiyachi) va jamoa tomonidan g'oyaviy va ma'naviy e'tiqodlarini, ma'naviy his-tuyg'u va odatlarni tarkib toptirish maqsadida qo'llaniladigan Shaxsga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llari demakdir. Tarbiya metodlari o'quvchi(tarbiyalanuvchilar) ning o'z shaxsni takomillashtirish borasidagi harakatni ham tashkil etishni nazarda tutadi. Shu bois hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya metodlari o'qituvchi va o'quvchilarning tarbiyaviy vazifalarini hal qilishga qaratilgan o'zaro bog'langan, birgalikdagi faoliyati sifatida qarab chiqiladi.

O'quvchilar u yoki bu tarbiyaviy ta'sirga turlicha munosabatda bo'ladilar. Bu ularning alohida xususiyatlariga, tarbiyalanganlik darajasiga, tarbiya metodlarining qay darajada o'rinli va samarali tanlanganiga hamda mohirona qo'llanganiga bog'liq. Tarbiya metodlarini to'o'ri tanlash tarbiya vazifalarini ijobiy hal qilishda, o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash faolligini oshirishga yordam beradi. Tarbiyaviy natijalarga erishishni istagan har bir o'qituvchi


(tarbiyachi) tarbiya metodlari va ularning mohiyatini puxta o'zlashtirib olishi maqsadga muvofiqdir

Birinchi guruh metodlarining vazifasi o'quvchining ijtimoiy ongiga hayot, ahq, mehnat qilish munosabatlari qoida va me'yorlari haqida tushuncha hosil qilish va bilim berishdan iborat. Tarbiya jarayonida ushbu qoida va me'yorlar shaxsining etiqodi, ishonchi va hayotiy qarashlariga aylanadi. Ushbu guruhga ma'naviy, axloqiy, estetik, mafkuraviy, huquqiy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy va h.k. mazmundagi suhbatlar hamda namuna ko'rsatish metodlarini kiritish mumkin.

Ikkinchi guruh metodlari yordamida o'quvchida ma'naviy mazmunga oid odatlar hosil qiladi. O'quvchi xulqida ijtimoiy tarbiyaning mazmuniga muvofiq ma'naviy odatlar asosida faoliyat zahirida tarkib topadi.

Faoliyat o'quvchilarning ijtimoiy munosabat va ijtimoiy xulq-atvor tajribasi bilan boyituvchi muhim manba bo'lib hisoblanadi. Ikkinchi guruh metodlari orasida pedagogik talab metodi ahamiyatlidir. Pedagogik talab turli vazifalarning bajarilishi, yani ijtimoiy xulq-atvor me'yorini ifodalash, u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifani amalga oshirish, u yoki bu harakatni olib borishga undovchi bo'lishi mumkin.

Talablar bevosita yoki bilvosita qo'yilishi mumkin. Bevosita talablar qat'iy buyruq yoki ko'rsatma, ishchanlik, yo'l-yo'riq beruvchi tavsifidagi ko'rinishda bo'ladi. Bilvosita talablar kechinma, intilish tuyg'usining uyg'otishi ko'zda tutilgan holda maslahat, iltimos, ta'na qilish, foaliyatiga nisbatan qiziqish uyo'otish tarzida namoyon bo'ladi. Talablar o'quvchida u yoki bu darajada ong, asos, maqsad hamda e'tiqod mavjudligini nazarda tutadi. Ayni vaqtda o'qituvchi o'quvchilarga nisbatan qo'yilayotgan talablarning me'yorida bo'lishiga qat'iy ahamiyat berishi lozim. Bevosita va bilvosita talab o'rtasidagi asosiy farq quyidagi chizma ko'rsatilgan (1-shakl).



O'qituvchi tomonidan qo'llanilayotgan talablar bora-bora jamoa talabiga aylanadi. Jamoa talabi ijtimoiy fikr tarzida namoyon bo'ladi. Jamoa (jamoatchilik) fikri o'zida jamoaning muayyan faoliyati, voqea hodisaga nisbatan beriladigan bahoni yoki muhokama natijasini ifodalaydi va faol tasir kuchi bo'lib qoladi.

Foydali faoliyat va maxsus tashkil qilinadigan vazifalar jarayonida ijobiy xulq-atvor va xarakterlarga o'rgatib boriladi.

O'rgatish-bu ijtimoiy xulq-atvorni odatiy shaklga aylantirish maqsadida o'quvchilar tomonidan rejali va tizimli tarzda tashkil etiladigan turli harakatlar, tashkil etiladigan amaliy ishlarga undovchi faoliyatdir.

O'rgatish o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning barcha bosqichlarida samarali vosita sanaladi.

Faoliyatda mashqlar mehnat, ijtimoiy faoliyat, jamoa faoliyati hamda o'zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilgan ligidir. Mashq qilish o'rgatish bilan yaqin aloqada bo'ladi. Agar, o'rgatib borish negizida bolaning faoliyat jarayonini egallashi yotsa, u holda mashq qilish faoliyati Shaxs uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Mashqlantirish o'rgatib borishga suyangan holda ko'p bora takrorlashni, mustahkamlashni va takomillashtirib borishni nazarda tutadi, bular esa bora-bora ijtimoiy xulq-atvorni asosi bo'lib qoladi.

Tarbiyaviy amaliyotda ko'pincha maxsus pedagogik vaziyatlarni yuzaga keltirish zaruriyati tuo'iladi, bunda axloqiy hal qilishning mustaqil tanlash uchun imkon bo'ladi. Pedagogik vaziyatlarda o'quvchilar o'z fikri va xulq-atvorini qayta o'zgartirishi lozim bo'lgan sharoit yaratiladi.

Ikkinchi guruh metodlari orasida musobaqa o'quvchilar amaliy faoliyatlarini tashkil qilish metodlari samaradorligini oshirishning zarur va muhim sharti hisoblanadi. Musobaqa faoliyatining barcha

sohalarida o'quvchilarning faolligi va ijodkorligini rivojlantirishga, o'quvchilar jamoasi faoliyatini muayyan maqsadga yo'naltirishga ko'maklashadi. Musobaqa to'g'ri tashkil qilinganda jamoa hissi muvaffaqiyatli shakllanadi, intizom va o'quvchilarning uyushqoqligi mustahkamlanadi.

Musobaqa alohida faoliyat turi bo'yicha, shuningdek, tizimli tarzda ham uyushtiriladi: chunonchi, eng yaxshi sinf, eng yaxshi guruh, eng yaxshi jamoa, eng yaxshi maktab va h.k.

Tarbiya jarayonida o'quvchilarning o'zlari tashabbus va o'ayrat ko'rsatishi asosida musobaqani tashkil etishlariga, uning sharti va ko'rsatkichlarini ishlab chiqishlariga erishish muhimdir. Shuningdek, jamoaning umumiy muvaffaqiyati, qabul qilingan majburiyatning bajarilishi, musobaqa natijalarini stendlarda aks etishini ta'minlash to'g'risida g'amxo'rlik qilish zarur. Musobaqani rasmiy axborotlar uchungina tashkil etish maqsadga muvofiq emas. Jamoatchilik fikri musobaqa faoliyatining muhim asosi bo'lib qoladi.

Birinchi va ikkinchi guruh metodlarining o'zaro bog'liq holda qo'llanishi orqali ong va xulq birligi yuzaga keladi, ammo bu o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki o'qituvchining tashkilotchilik mahorati hamda uning o'quvchioni, xulqiga ta'sir etayotgan vositalar xususiyatlari, ahamiyatini ko'ra olishiga bog'liq.

Bir so'z bilan aytganda bugungi o'quvchi tarbiya natijasida ertangi komil inson, ya'ni jamiyatning barkamol a'zosiga aylanadi. Buning uchun uning ongi va tafakkuri rivojlanib ijobiy fazilatlarni o'zida shakllantirib borishi lozim.

Xo'sh, inson ongi nima va u borliqni, atrof-muhitni anglashi uchun qanday faoliyat darajasiga etishi kerak?

Inson ongi - uning idroki, aql orqali hayotiy va dunyoviy haqiqatni fahmlash asosida ma'naviy istiqbolli faoliyat darajasidir.

Aql kishining o'z idroki, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o'z faoliyatida ma'naviy-insoniy nuqtai nazardan amal qilishdir.

Uchinchi guruh metodlariga shunday metodlar kiradiki, bularda tarbiyalanuvchilardagi ijobiy xulq-atvorni rag'batlantirish, salbiy xislatlarni tuzatish yoki oldini olish, ularning his-tuyg'ulari va maqsadlariga bevosita ta'sir ko'rsatishda foydalaniladi. Ushbu guruhga rag'batlantirish va jazo berish kabi metodlar kiradi.

Rag'batlantirish metodlari o'quvchilarning harakatlarini ijobiy baholashni ko'zda tutadi. Rag'batlantirish quvonch, qoniqish, qanoatlanish kechinmalarini paydo qiladi, tetiklik va g'ayrat bag'ishlaydi, o'z kuchiga ishonchini mustahkamlaydi, ijobiy hatti-harakatlarni rag'batlantiradi, o'z faoliyati va xulqiga mas'uliyatini oshiradi. Rag'batlantirish metodlari xilma-xil bo'lib, ular tarkibiga ma'qullash, ko'ngil ko'tarish, dalda berish, ishonch bildirish, qayd qilish, og'zaki, yoki yozma tashakkur bildirish, mukofotlash va boshqalar kiradi.

Rag'batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo'llanilishi lozim. Har qanday rag'batlantirish o'quvchining jamoa oldidagi chinakam xizmatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Rag'batlantirish vaqtida o'quvchining alohida xususiyatlarini, jamoada tutgan o'rnini hisobga olish va u ketma-ket bo'lmasligi kerak. Haddan oshirib maqtash, jamoaga nisbatan taqqoslash talabchanlikni bo'shashtirib yuborish, bular o'quvchida manmanlik, hudbinlik sifatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Rag'batni tashkil etishda o'quvchining muvaffaqiyatlari bilan birga, uning jamoadagi o'rnini, axloqiy qiyofasi, shuningdek, mehnatga, jamoa topshiriqlariga, jamoaning o'ziga munosabati borasidagi jamoa fikrini inobatga olish ham talab etiladi.

Jazo berish metodlari-bu o'quvchilarning hatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo berish axloq me'yorlariga qarama-qarshi faoliyat va hatti-harakatlarni muhokama etishni ifodalaydi. Jazo berish noma'qul hatti-harakatlarning oldini olishi, axloqni tuzatishi, jamoa oldida uyalishi, o'zini gunohkor deb bilish hissini uyo'tishi mumkin. Jamoa tomonidan yoki uning qo'llab-quvvatlashi asosida jazo berish metodlari ham xilma-xil bo'lib, ular jumlasida tanbeh berish, koyish, uyaltirish, qizartirish, hatti-harakatlarni jamoa o'rtasida muhokama qilish, muayyan faoliyatidan chetlatish va boshqalar kiradi.

Jazo berishda ham pedagogik talablarga amal qilish zarur. Berilayotgan jazo maqsadga muvofiq bo'lib, o'quvchining aybiga, salbiy hatti-harakatiga qarab berilishi lozim. Jazo berish cho'ida salbiy hatti-harakatning sabablari uning jamoaga etkazadigan zarari, o'quvchining Shaxsiy xususiyatlari inobatga olinishi lozim.

Jazo berish o'quvchining manfaatlaridan kelib chiqmasligi yoki uning uchun xizmat qilmasligi lozim. Jazo jamoa tomonidan ham

berilishi mumkin. Barcha hollarda ham jazo o'quvchining jismoniy va ruhiy azobga solmasligi uni tahqirlamasligi, sha'nini erga urmasligi, huquqini poymol etmasligi kerak.

Tarbiya metodlarini sharoitni, vaqtni, shuningdek, ularning o'zaro bir-biriga tasirini hisobga olgan holda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Tarbiya metodlari tarbiya vositalari bilan juda yaqin aloqada va Hatto, bir-biriga singib ketgan bo'lsa-da, ular bir-biridan farq qiladi.

Tarbiya vositalariga tarbiyaning maqsadiga muvofiq tashkil qilingan faoliyat turlari kiradi.

O'yin, o'quv mehnati, sport va boshqa faoliyat turlari shunday vositalar hisoblanadi. Bundan tashqari tarbiya jarayonida turli predmetlar, moddiy va manaviy madaniyat namunalari, axborot hamda texnik vositalardan ham tarbiya vositasi sifatida foydalaniladi. Chunonchi, ko'rgazmali, o'quvqurollari, badiiy-ilmiy adabiyotlar, sanat asarlari, radio, televideniya, kompyuter, magnitafon, slayd, shuningdek, kishilar ham tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tarbiya vositalaridan foydalanish doimo unga muvofiq keluvchi tarbiya metodlaridan foydalanishni taqozo etadi, chunki ular yordamida ong, his-tuyg'u, xulq-atvor tarkib toptiriladi. O'quvchining turli ko'rinishidagi faoliyati uyushtiriladi.

Bugungi kunda tarbiya jarayonida axborot va texnik vositalardan foydalanishga alohida diqqat etibor qaratilmoqda. Ulardan maqsadga muvofiq va samarali foydalanish o'quvchilarning ma'naviy kamol topishiga olib keladi.

Yuqorida bildirilgan mulohazalarga tayangan holda mavzu yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

- Tarbiya jarayonining asosini ijtimoiy hayotning obektiv talablarini, shaxsning ijtimoiy mohiyatini, hamda tabiatini aks ettiruvchi qonuniyatlar tashkil etgani bois tarbiya jarayonini ilmiy asoslangan tarzda olib borish uning qonuniyatlarini chuqur o'rganishni talab etadi.

- Tarbiya jarayonining muvaffaqiyati uni tashkil etishda qanday tamoyillarga ko'ra ish ko'rilayotganligiga ham bog'liq. Tarbiya tamoyillari yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqqan va komil insonni tarbiyalashning mazmuni, metodlari va yo'nalishiga qo'yiladigan eng muhim talablarini belgilab beruvchi asosiy g'oya va qoidalar yig'indisidir.

- Tarbiya jarayonini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular ijtimoiy jamiyat tomonidan talim muassasalari oldiga qo'yilgan yosh avlodni har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi etib tarbiyalash vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya metodlari o'zaro o'hashash jihatlariga ko'ra uch guruhga bo'linadi. Tarbiya jarayonida qo'llaniladigan tarbiya vositalari metodlari ahamiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Topshiriq va savollar.

1. Tarbiya nazariyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Usul axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab qanday bo'ladi.
3. Keng va tor ma'nodagi tarbiya deganda nimani tushunasiz?
4. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
5. Tarbiya jarayonining qonuniyatlari va tamoyillariga izoh bering.
6. Tarbiya turlarining maqsadi, vazifalari, shakl va metodlariga izoh bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T., «Ma'naviyat», 2008.
2. Axmedjanov M.M. va bosq. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2008. 229 b.
3. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1997.
4. Barkamol avlod orzusi. T., O'zbekiston milliy enciklopediyasi. 2000.
5. Mahmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat. T., «Sharq» 2001.
6. Mavlonova R., To'raeva O., Xoliqberdiev K. Pedagogika. T.: «O'qituvchi», 2001.
7. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., «O'zbekiston», 2000.
8. Mirtursunov Z. «Xalq pedagogikasi». T., 1994.

Internet saytlari:

9. www.ziynet.uz

10. www.tdpu.uz
11. www.pedagog.uz
12. www.psychology.uz

VIII. ENG QADIMGI DAVRLARDAN IX ASRGACHA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR.

8.1.Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta`lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.

Tayanch iboralar: milliy qadriyatlar, Avestoda din nazariyasi, Avestoning axloqiy ta`limoti, Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi.

Xalqimizning eng qadimgi yozma yodgorliklarida ham milliy qadriyatlarga katta e`tibor berilgan. Bizga qadar saqlanib qolgan «Avesto», So`g`d, O`rxun-enasoy bitiklari kabi yozma yodgorliklaridagi dalillar ana Shu mulohazalarni tasdiqlaydi.

Milliy qadriyatlarimizning ko`p qirralarini o`zida mujassamlashtirgan eng muhim yozma yodgorlik «Avesto»dir. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo`lmish «Avesto»ning ilk sahifalari bundan uch ming yil ilgari Xorazmda yaratila boshlagan. eramizdan oldingi VII asrga kelib, uni Amudaryo soxilidagi tuya boquvchi qabilalardan etishib chiqqan Zardusht qayta ishlab chiqqan. Zardusht Avestoning qadimgi qismi bo`lgan «Yashtlar»dagi ko`pxudolik aqidalariga zid o`laroq, uning «Gohlar» qismida yakkaxudolik g`oyalarini targ`ib etgan.

Qadimgi yunon donishmandi Pliniy ta`biri bilan aytganda «bir million qo`shiqdan iborat» bo`lgan Avestoda din nazariyasi, amaliyoti bilan bir qatorda Movarounnahr va qadimgi eron xalqlarining tarixi, madaniyatiga oid qimmatli dalillar mavjud.

Bunday mulohazalar va huquqshunoslikka oid fikrlar, ayniqsa, Avestoning «Vendidot» qismida keng va batafsil bayon etilgan.

Avestoning axloqiy ta`limoti uch asosga: ezgu niyat, ezgu fikr va ezgu amalga tayangan. Unda yaxshilik, barkamollik, hurfikrlilik, insonparvarlik kabi xislatlar yagona xudo-Axuramazda timsolida ko`rsatilgan. Insonning qadri yaxshilikning g`alabasi uchun kurashda befarq turmasligida, yashash tarzida, ma`naviy qiyofasida va ijtimoiy faoliyatida o`z ifodasini topgan.

Avestoda yurtimiz zaminida yashagan xalqlarning islomgacha bo`lgan davrdagi tabiiy-ilmiy, ayniqsa, axloqiy qadriyatlarining rivojlanishi tarixiga oid g`oyat qiziqarli ma`lumotlar bor.

8.2.Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi.

Tayanch iboralar: *O`rxun-Enisey bitiklari, VI asr o`rtalaridagi ma'lumotlar, Tunyukuk bitigi, ezgulik bilan yovuzlik, vatanparvar shaxs.*

Turkiy xalqlarning yozma ma'rifiy yodgorliklari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ular yangi davr kishisini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bular «O`rxun-Enisey yodgorliklari», «Irq yozuvlari» («Ta'birnoma») kabilardir.

Eng qadimgi turkiy tilda yaratilgan va turk-rumiylar yozuvida bitilgan O`rxun-Enisey bitiklari 6-7 asrlarda yozib qoldirilgan bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlar beradi.

Toshga o'yib yozilgan O`rxun-Enisey yodgorliklari dastlab Enisey havzasida, so'ngra, Mug'ulistonning O`rxun daryosi bo'yida topilib, daniyalik olim Vilgel'm Tomson 1893 yilda bu yozuvlarni birinchi bo'lib o'qigan. Undan so'ng yana bir qancha olimlar ushbu yozma yodgorliklarni o'rganish yuzasidan ilmiy-tadqiqotlar olib bordilar. O'zbekistonda Oybek, O.Sharaffuddinov, N.Mallaev, A.Qayumov, N.Raxmonovlar tadqiqot ishlari olib bordilar va uning ta'lim-tarbiyadagi o'rnini yoritib berdilar.

Ma'lumki, VI asr o`rtalariga kelib, Oltoy, Ettisuv va Markaziy Osiyo hududlarida Turk hoqonligi tashkil topdi. Bu hoqonlik g'arbda Vizantiya, janubda eron, Hindiston, sharqda Xitoy bilan chegaradosh bo'lgan, Turk hoqonligi Turkiya davlati deb ham atalgan. Hoqonlik 604 yilda Sharqiy va G'arbiy hoqonlikka ajralgan. 8 asr o`rtalariga kelib esa Turk hoqonligi tugallandi.

Turk hoqonligi asosan 3 kishi: Bilga hoqon (Mug'ilyon), sarkarda Kultegin va vazir Tunyukuklar qo'lida markazlashgan edi.

Bitiktoshlarda Turk hoqonlarining yurishlari, bu yurishlarda ko'rsatgan jasoratlari, ularning bilimli, mard, xalqparvar alp yigitlar ekanligi bayon etiladi. O'z vatani mustaqilligi uchun kurash, xalqni asoratdan olib chiqish, ularning birligini ta'minlash hoqonlar Bumin, Istami, Eltarish, Eltarishning o'g'illari Bilga hoqon va lashkarboshi Kultegin, ma'naviy otalari Tunyukuklarning zimmasiga tushgani hikoya qilinadi. Masalan, Kultegin bitigida u xalqparvar, tadbirkor, xalq kelajagini o'ylaydigan jonkuyar sarkarda, o'z manfaatidan xalq manfaatini yuqori qo'yadigan shaxs sifatida ta'riflanadi. Kultegin

Eltarish hoqonning kichik o`gli, u qirq yetti yoshida vafot etadi. Bu bitik toshda barcha voqealar Kulteginning akasi Bilga hoqon tilidan hikoya qilinadi. Uning xaqiqiy ismi Mo`g`ilyon bo`lgan. Bitik muallifi Kulteginning jiyani Yo`llug` tegindir. Kultegin bitigida Bilga hoqonning og`a-inilariga, qarindosh urug`lariga murojaati, ularning xatolari tufayli turk elida ko`p-ko`p falokatlar yuz bergani ifodalanadi. Turkiylarning harbiy yurishlari, ularga qo`shni bo`lgan tobg`achlarning bosqinchiligi tufayli xalq boshiga kulfatlar tushgani, ularning yolg`onchilik, firibgarlik qurboni bo`lganligi ta`kidlangan.

Kultegin bitigida Bilga hoqon eng muhim insoniy xislatlar, hayotiy zaruriyatlar haqida pand nasixatlar qiladi. Turk xalqi birlashmagani, bir-biriga ishonmagani uchun, hiyla va firib qurboni bo`lib, tabg`achlar ularni qul va cho`ri etgani, qashshoq, erksiz va mute bo`lganligini kuyunib so`zlaydi.

Ikkinchi bitik Bilga hoqon haqida. Bu bitiktosh eltarish Hoqonning katta o`g`li, Kulteginning akasi Bilga hoqon sharafiga o`rnatilgan. Bilga hoqon ellik yoshida o`z yaqinlari tomonidan zaharlab o`ldirilgan. Bu bitik ham Yo`llug` tegin tomonidan yozilgan.

Bilga hoqon bitigida uchlik hokimiyatida tinchlik totuvlik hukmron bo`lgani, uning davlatni adolat bilan boshqargani, turkiy xalqlarni birlashtirgani, o`z yurtini boy-badavlat etib, iqtisodiy jihatdan mustahkamlagani mahorat bilan tasvirlangan. Bu bitikda xalq hoqonidan, vatanidan ayrilmasa, betashvish hayot kechirishi ifodalanadi.

O`z navbatida, davlat boshliqlarining hatti-harakatlari, yurgizgan siyosatlari bayon etiladi. So`ngra Bilga hoqon yurishlari haqida hikoya qilinadi. Bilga hoqon turk eli o`rtasida elparvar hoqon deb tanilgan edi. (Bilga so`zining ma`nosi dono deganni anglatadi.) U turk xalqining vatani abadiy bo`lishi uchun kurashadi. Xalqqa qarata shunda y o`git qilar edi: Vatanni saqlab qolmoq faqat hoqonga emas, xalqqa ham bog`liq. Ajdodlarimizning xato va yutuqlari buning dalilidir. Xalq hoqonning yo`l- yo`riqlarini amalga oshirmasa, boshiga ko`p kulfatlar tushadi. Hoqon o`ta ishonuvchan bo`lmasligi, boshqalarining gapini o`ylab, mulohaza qilib amalga oshirishi lozim. Samimiy so`zni yolg`ondan ayira bilishi kerak. Qattiqqo`l hoqon o`z xalqiga yomonlikni ravo ko`rmaydi. Ishonuvchan bo`lsa, yaxshiyomonni ajrata olmasa, fojeaga yo`l ochiladi, boshboshdoqlik boshlanadi.

Bilga hoqon ana shunda y tarqoq Xalqni birlashtirdi, oyoqqa turg'izdi, u uchun farovon hayot yaratdi. Yurtboshining boylikka xirs qo'yishi xalqning nochor hayot kechirishiga olib keladi, deb hisobladi.

Tunyukuk bitigi esa, Tunyukuk hayotligida yozilgan. Bu bitikda Tunyukuk vatanparvar shaxs sifatida nomayon bo'ladi. Undagi insoniy fazilatlar, ezgulik, insonparvarlik hislatlari uning qo'shni xalqlar o'rtasidagi obro'sini yanada oshirib yubordi. Masalan, uning asirlarni o'z yurtlariga jo'natib yuborishi boshqa dushman qabilalarning ham bosh egib kelishiga, bu esa ezgulik bilan yovuzlik, qon to'kishning oldini olish mumkinligini ko'rsatdi, ammo shu bilan birga hoqonlik qonunlarini, manfaatlarini qattiq himoya qilib, jasorat namunasini ko'rsatdi. Yuqoridagi yozuvlardan tashqari, alplarning jangovarligiga, axloq-odobi va bilimiga bag'ishlagan bitiktoshlar ham ko'plab topilgan.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibiki, garchi O'rxun-Enisey yozma yodgorliklari bevosita ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlanmagan bo'lsa ham ulardan o'sha axloqiy qoida va talablari yuzasidan ma'lum bir ma'lumot olish mumkin.

8.3. Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim-tarbiyaga ta'siri.

Tayanch iboralar: Arab xalifaligi, islom diniga kiritish, ma'lum g'oyaviy e'tiqod, aholini islomlashtirish, shariat hukmlari.

VII asr boshlarida islom g'oyasiga asoslangan Arab xalifaligi tashkil etib, bu davlat o'z mavqeini mustahkamlash uchun boshqa mamlakatlarni ham zabt etishni boshladi. Butun Arabiston yarim oroli bilan bir qatorda, Eron, Kavkazorti, Suriya, Shimoliy Afrika, Janubiy Ispaniya xalifalik tarkibiga kiritildi.

VII asrdan boshlab arablar Movaraunnahrga ham hujum qilish rejasini tuza boshladilar. Arab istilochilari ilk bor Ubaydullox ibn Ziyod boshchiligida yurish boshladi, 676 yilda esa Said ibn Usmon rahbarligida Buxoro, Sug'diyona, Kesh, Nasaf shaharlariga hujum qilindi.

Arab istilochilarining ikkinchi bor yurishi 705 yilda Xuroson hokimi Kutayba ibn Muslim tomonidan boshlandi. Dastlab 706 yilda Zarafshon vodiysiga, Poykent, Buxoro, Samarqand, So'g'd, Farg'ona va boshqa shahar larni qo'lga kiritdi. So'ngra esa, Xorazmni zabt etdi. Kutaybaning istilochiligi Fargonada arab qo'zg'olonchilari tomondan

o`ldirilgandan keyin to`xtatildi.

Arab istilochilari bosib olingan erlarni islom diniga kiritib boshladilar. Tarixchi At-Tabariyning «At-Tabariy tarixi» kitobi orqali, Narshaxiyning «Buxoro tarixi», Bartol`dning tarixiy asarlarida keltirilishicha, arab istilochilarining Movaraunnahr xalqini islom diniga kiritish oson kechmaganligi va bir necha yillar cho`zilgani haqida aytib o`tilgan. Chunki, Movaraunnahr xalqi arab istilochilariga qadar ham ma`naviy, ham moddiy taraqqiy etgan davlat bo`lib uning aholisi tezda bo`ysinishni xoxlamadi. Buysunmaganliklarining birdan-bir sababi shunda ediki, erlik xalq bu davrda yillar mobaynida tarkib topgan boy ma`naviy merosi-sana`ti, adabiyoti, yozuvini, asori atiqalarini paymol qilishganliklarida edi. Shuning uchun ham arab istilochilari harbiylar bilan bir qatorda islom dinining targ`ibotchilaridan foydalandilar va asta sekin natijalarga erisha boshladilar. Chunki, bu yerlik xalq islomga qadar har-xil xudolarga, quyoshga, ko`k dinga (shaman), muqaddas narsalarga talpinar edilar, ma`lum g`oyaviy e`tiqod tarkib topmagan edi. Shuning uchun ham islom dinining yoyilishi va u bilan bir qatorda shariat qonun-qoidolari, aqidalariga rioya etish, yagona Olloxga sig`inish va Olloxning Rasuli Muhammad Alayhissalom ko`rsatmalariga amal qilish xalqning ongiga ta`sir qilib, ularning bu dinni qabul etishiga yordam berdi va islomiy qadriyatlarning tarkib topishiga yo`l ochdi.

Arablar islom dinini yoyishda turli usullardan foydalandilar. Kim islom dinini qabul qilsa, soliqlardan ozod etildi. Tarixchi Narshaxiyning hikoya qilishicha, har juma kuni aholi juma namozini o`qish uchun jome` masjidiga chaqirilib, kelib namoz o`qiganlarga ikki dirhamdan mukofot berilar edilar.

Narshaxiy arab istilochilarining aholini islomlashtirishda oid hatti-harakatlarni quyidagicha bayon etadi: «Buxoro aholisi har safar (islom lashkari kelganda) musulmon bo`lar, arablar qaytib ketganida esa, ular yana dindan qaytar edilar. Kutayba ibn Muslim ularni uch marta musulmon qilgan, ular esa, dindan qaytib, yana kofir bo`lgan edilar. Qutayba jang qilib, to`rtinchi marta kelganida, Buxoro shahrini oldi, ko`p qiyinchiliklardan keyin Islom dinini yuzaga chiqardi va har turli yo`llar bilan ularga qiyinchiliklar tug`dirib, dillariga musulmonlikni o`rnatlashtirdi. Ular esa, musulmonlikni yuzakigina qabul qilib, haqiqatda butparastlik qilar edilar. Kutayba arablar buxoroliklar bilan birga turib, ularning hatti-harakatlaridan xabardor

bo`lib tursalar, ular zaruratdan musulmon bo`ladilar degan maqsadda Buxoro aholisiga o`z uylarining yarmini arablarga berishga undab buyruq chiqarishni ma`qul topdi va musulmonlikni o`rnatdi, shariat hukmlarini bajarishga majbur etdi. Kutayba masjidlar bino qildi, butparastlik, otashparastlik asarlarini yo`qotdi. U ko`p jiddu-jaxd qilib, kimda shariat hukmlarini bajarishda kamchilik sodir bo`lsa, uni jazolar edi. U masjidi jome` bino qildi va odamlarga juma nomozini o`qishga buyruq berdi».

Shuningdek arab istilochilari xalqning boy madaniy merosini yo`q qilishga kirishdilar. Chunki, mahalliy aholi boy ma`naviy merosi yillar davomida tarkib topib, mahalliy urf-odatlar va diniy an`analar yangi dinni qabul qilishga yo`l bermas edi. Bu haqda o`zbek xalqining buyuk olimi Abu Rayxon Beruniy shunday yozgan edi: «Qutayba esa, Xorazm hatini yaxshi biladigan, ularning xabar rivoyatlarini o`rgangan va bilimini boshqalarga o`rgatadigan qisxilarni halok etib, butkul yo`q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u Islom davridan keyin haqiqatni bilib bo`lmaydigan darajada yashirin qoldi.

Keyin, Qutayba ibn Muslim al-Voxishiy xorazmliklarning kotiblarini xaloq qilib, bilimdonlarini o`ldirib, kitob va daftarlarini kuydirgani sababli, ular savodsiz qolib, o`z extiyojlarida yodlash quvvatiga tayanadigan bo`ldilar

8.4.Musulmon maktablari va unda ta`lim-tarbiya mazmuni.

Tayanch iboralar: *g`oyaviy-siyosiy kurash, «Ming bir kecha» ertaklari, yunon fanining yutuqlari, musulmon maktablari.*

Islom dini ana shunday g`oyaviy-siyosiy kurash jarayonida shakllandi va rivojlandi. Xalifalar istilochilik siyosatini o`tkazar ekanlar, barcha xalqlar ustidan madaniy ustunlikni o`rnatishga harakat qildilar. Chunki, arab xalqi IX asr boshlarida o`ziga xos madaniyat, adabiy til yaratgan bo`lib, unda notiqlik va she`riyat yuqori qadrlangan. Ayniqsa, Qur`onning o`zi ajoyib adabiy fazilatga ega bo`lib, u o`rta asr arab adabiyotining eng nodir yodgorliklari orasidan o`rin olgan. IX asrda tarkib topgan «Ming bir kecha» ertaklari esa, jahon madaniyatining durdonalaridan sanaladi.

Arab tili ham o`z navbatida yangi madaniyat tili bo`lib maydonga chiqdi. Arablar yunon fanining yutuqlarini hisobga olgan holda, ularning faylasuf, olim yozuvchilarining asarlarini tarjima qildilar.

Astronomiya, tibbiyot va kimyoga oid barcha yirik adabiyotlar arab tiliga tarjima qilindi. Hatto arab olimlari sun'iy oltin tayyorlash vositasida «falsafa toshini» izlaganlar. (oltin izlovchilarni «alkimyogarlar» deb atanganlar) Yunonlardan fanni tasnif etish (klassifikatsiya) olinib, fanlar ikki qismga: nazariy va amaliy qismga ajratildi. Birinchi qismda uch bo'lim-tabiat to'g'risidagi fan, ilohiyat to'g'risidagi fan va matematika fanlari bo'lib, ularga arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa kiritilgan. Ikkinchi qism esa, etika, iqtisod va siyosatga bo'lingan. Hind fani arab madaniyatiga, asosan arifmetika, algebra, tibbiyotga ta'sir etgan. Yevropaliklar ham sonlarning Hind nazariyasi bilan arablar orqali tanishganlar, aljabr-algebra degan arabcha nomlar qabul qilganlar.

Arablar ulkan davlat barpo etib, geografiyaga katta ta'sir ko'rsatganlar. Ko'p hududlarga arabcha nomlar beriladi, xususan «Movaraunnaxr» ham arabcha bo'lib daryo orti deganni bildiradi.

Movaraunnahrda boshqa istilo etilgan mamlakatlar qatorida, islom dini bilan birga, mazkur dinning muqaddas kitobi «Qur'on»ning tili, ya'ni arab tilini o'rganish joriy qilindi. Bu kitobni boshqa tillariga tarjima qilish taqiqlandi.

Musulmon maktablarida arab tili muhim fan sifatida o'g'itilardi, bilim shu tilda o'rganilar edi. Arabistondagi kabi barcha masjidlar huzurida maktablar ochiladi va o'g'il bolalarga shu maktablarda Qur'on o'qishni o'rgatishga farmon beriladi. Bolalarni shu masjidning imomi o'qitar edi.

8.5.Hadis ilmining paydo bo'lishi. Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy)ning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi.

***Tayanch iboralar:** Imom al-Buxoriy, hadis to'plamlari, al-Buxoriyning ijodiy faoliyati, Haydarobod kutubxonasi, AT-Termiziy, Hadis ilmini egallash, kuchli xotira egasi.*

Imom al-Buxoriy. Buxoriyning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug'ira ibn Bardazbah al-Juafiy al-Buxoriydir. U Buxoroda katta olim oilasida 810 yil 20 iyulda tug'ilgan. U yoshligidanoq o'zining o'tkir zehni va kuchli iqtidorini namoyon qiladi. Muhammad Buxoriy go'dakligidayoq otasi dunyodan o'tadi va onasining qo'lida qoladi. 16 yoshida onasi va akasi Ahmad

bilan birga hajga borib, 4 yil Makkada yashagan. Yo‘l-yo‘lakay Balx, Basra, Kufa, Bag‘dod, Xums, Damashq, Misr, Makka va Madina singari ko‘plab shaharlardagi hadisshunos olimlardan saboq oladi. Bu paytda u mashhur muhaddislar Abdulloh ibn Muborak va boshqalarning hadis to‘plamlarini to‘lig‘icha yod olib ulgurgan edi. Buxoriy 18 yoshga kirganda bir qator yirik ilmiy asarlar muallifi edi. Uning ustozlaridan Shayx Doxiliy shogirdining quvvai hofizasiga, bahslashish mahoratiga, dalillarni keltirishdagi izchil mantig‘iga ko‘p marta qoyil qolgan, tan bergan va uni olqishlagan edi. Buxoriy islom mamlakatlarini kezib, jami 600 ming hadis yozib olgan. Al-Buxoriy umrining so‘nggi kunlarini Samarqand yaqinidagi Har tang qishlog‘ida o‘tkazadi va hijriy 256 (milodiy 871) yilda vafot etadi.

Manbalarda keltirilishicha, imom al-Buxoriy o‘z ijodiy faoliyati davrida yigirmadan ortiq asarlar yaratgan. Allomaning mana shu asarlari xususida qisqacha to‘xtalamiz:

1. Imom al-Buxoriyning shoh asari "Al-Jomi' as-Sahih" (ishonchli to‘plam") haqida keyinroq batafsil fikr yuritamiz.

2. Al-Adab al-mufrad ("Adab durdonalari"). Imom al-Buxoriyning odob-axloq xususidagi eng sahih hadislarini o‘zida mujassam etgan ushbu asari katta tarbiyaviy ahamiyatga molik benazir to‘plamdir. Uning arabcha nashri ikki marta bosilib, 1990 yilda esa, olim Sh. Boboxonov tomonidan asarning o‘zbekcha tarjimasi ham nashr etilgan. Imom al-Buxoriyning bu asarida 1322 hadis va xabarlar 644 bobda ja‘mlangan bo‘lib, u Hindiston, Turkiya va Misrda bir necha marta chop etilgan. Asarning bir qancha qo‘lyozma nusxalari ham saqlangan. Hindistonlik olim as-Sayyid Fazlulloh al-Jiloni bu asarning tanqidiy nashrini sharhi bilan birgalikda "Fazlullohisamad fi tavziyxil-Adab al-Mufrad" nomi bilan chop etgan.

3. Kitob al-kuna ("Kunyalar haqida kitob"). Azaldan muhaddislar o‘rtasida roviylarni qator hollarda asl ismlari bilan emas kunyalari bilan atash odat bo‘lgan. Bu hol o‘z navbatida roviylarni bir-biri bilan almashtirib yuborilishiga, oxir-oqibatda xatoga olib kelgan. Shu boisdan roviylarning kunyalariga bag‘ishlangan imom al-Buxoriyning ushbu asari bu sohada katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu asar Hindistonda 1940 yilda chop etilgan.

4. Kitob al-Favoid (Foydali ashyolar haqida kitob). Imom al-Buxoriyning ushbu ta‘lifi imom at-Termiziyni "Al-Jomi'" nomli asarining "Kitob al-manoqib" qismida zikr etilgan. Olim Muhammad

Jamoluddin al-Qosimiy ad-Dimashqiy "Hayot al-Buxoriy" nomli tasnifida imom al-Buxoriyning ushbu asarini "Kitob al-Faroid" deb xato keltirgan. Asar illatli hadislarga bag'ishlangan bo'lsa kerak. Uning qo'lyozmalari haqida aniq ma'lumotga ega emasmiz.

5. Juz' raf' al-yaddayn ("Ikki qo'lni ko'tarish haqida"). Ushbu asarda ikki qo'lni ko'tarishga oid hadislar ja'mlangan bo'lib qo'lni ko'tarmaslikka oid rivoyatlar bilan bahs yuritiladi. Asardagi hadislarini imom al-Buxoriydan Buxoro shahrida ta'lim olgan, uning oxirgi shogirdlaridan biri hisoblangan Mahmud ibn Ishoq al-Xaza'yi rivoyat qiladi.

6. At-Tarix al-Kabir ("Katta tarix")-Ushbu "at-Ta'rix" asarini imom al-Buxoriy o'n sakkiz yoshida Madinai-munavvaradagi al-Masjid an-Nabaviy ("Payg'ambar masjidi")da yaratgan. Ushbu asar yozib tugatilgach imom Ishoq ibn Rohvayh katta xursandchilik bilan amir Abdulloh ibn Tohir al-Xurosoniyga uni taqdim qilaturib: "Senga har qanday kishini sehrlab qo'yadigan bir asarni ko'rsataymi?",-deb xitob qilgan. Imom al-Buxoriyning ushbu asari Turkiyada to'qqiz jildda nashr qilingan. Asar qo'lyozmasining ba'zi qismlari Haydarobod kutubxonasida saqlanadi, u "kof" harfidan boshlanib, kitobning oxirigacha yetadi. Agar, 1361-1362 hijriy (1941-1942 melodi) yillarda sakkiz qism to'rt jildda chop etilgan. "At-Tarix al-kabir" kitobi sahobalar, tobe'iynlarning izdoshlari (atbo')dan rivoyat qilgan hadislarini to'la-to'kis o'zida qamrab olgan bo'lib, ularning ismlari alifbo tartibda joylashtirilgan. Agarki, mushtarak ismlar uchrab qolsa alifbo harflarining tartibi ular otalarining ismlariga qarab tartib berilgan.

7. At-Ta'rix al-avsat ("O'rta ta'rix") - Bu kitobni imom al-Buxoriydan Abdulloh ibn Abdusallom al-Haffof va Zanjaviyh ibn Ahmad al-Lubod rivoyat qilganlar. Ushbu asarning bir qo'lyozma nusxasi Hindistonning Haydarobod shahrida saqlanishi zikr qilinadi.

8. At-Tarix as-sag'ir ("Kichik tarix"). Imom al-Buxoriyning bu asari ham hadis tarixiga oid qimmatli asardir. Imom al-Buxoriy bu asarida mashhur sahobalar, tobe'iynlar va tobe'iynlarning izdoshlarini zikr qilgan bo'lib, ularning vafot etgan yillari, naslu nasablarini, ularning o'zaro muloqotlarini bayon qiladi, ko'p hollarda noqis (jarh) va isloh qilinganlarini ham qayd etadi. Muallif o'z asariga yilma-yil tartib berib, agar bir sanani tugatsa, u sanada vafot etgan mashhur shaxslarni, sodir bo'lgan boshqa muhim ishlarni zikr etib, undan so'ng

keyingi sanani boshlaydi. Bu asar Hindistonda va Qohirada nashr etilgan.

9. Imom al-Buxoriyning hadislarga oid "al-Jomi' al-kabir" ("Katta to'plam") asari xususida ba'zi manbalarda zikr qilinsada, bu asar haqida batafsil ma'lumotga ega emasmiz asarning ayrim qo'lyozma nusxasi saqlanganligi haqida ba'zi taxminlar bor. "Kashf az-zunun" asarida ham shu tarzdagi ma'lumot bilan chegaralanilgan.

10. Xalq af'ol al-ibod ("Alloh bandalari ishlarining yaratilishi"). Sahobalar va tobe'iyinlar Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflarga tayanib sohta guruhlariga raddi javob qilishi hadisshunoslik tarixida mavjud edi. Ushbu kitobning maqsadi ham shu yo'nalishda. Imom al-Buxoriydan bu asarni Yusuf ibn Rayhon ibn Abdussamad al-Firabriy rivoyat qilgan. Imom al-Buxoriyning bu asari 1958 yilda Makkai Mukarramada va 1886 yilda Hindistonda nashr etilgan.

11. "Kitob az-zuafo as-sag'ir" ("Zaif roviylar haqida kichik kitob). Bu asar "Kitob az-zuafo" nomi bilan ham zikr qilinadi. Muallif bu asarida zaif roviylarning ismlarini alifbo harflari tartibida keltirgan. Aksar hollarda zaiflikning sabablari roviyning ustozlari zikri bilan birga bayon qilinadi. O'ta diqqat e'tibor bilan bu kitobda roviylarning nuqsonlari va qusurlari ko'rsatilib, ular rivoyatning zaiflik negizlarini aniqlashga imom al-Buxoriy katta extiyotkorlik va zo'r mas'uliyat bilan ish tutgan. Allomaning bu asari 1885 yilda Hindistonda chop etilgan.

12. Imom al-Buxoriy "al-Musnad al-kabir" ("Katta musnad") nomli asar yozgan bo'lsa-da, uni bizgacha yetib kelgani haqida aniq ma'lumot yo'q. Lekin uning bir qo'lyozma nusxasi ikkinchi jahon urushidan oldin Olmoniyada saqlanganligi haqida taxmin qilinadi.

13. Imom al-Buxoriyning "At-Tafsir al-kabir" ("Katta tafsir") nomli asari haqida allomaning shogirdlaridan biri al-Firabriy zikr qilgan. Nemis sharqshunosi Karl Brokelmanning yozishicha, bu asarning bir qo'lyozma nusxasi Jazoida, yana bir nusxasi Parijda saqlanar ekan.

14. "Kitob al-Hiba" ("Xayr-ehson haqida kitob"). Imom al-Buxoriyning bu kitobi haqida allomaning shaxsiy kotibi Muhammad ibn Abu Hotam al-Varroq: "Imom al-Buxoriy xayr ehson haqida bir kitob ta'rif etdilar, unga besh yuzga yaqin hadis kirgan",-deb yozgan. Lekin, afsuski bu asarning biron-bir qo'lyozma nusxasi bizgacha yetib kelganligi ma'lum emas.

15. Imom al-Buxoriyning boshqa bir asari "Asomiy as-sahoba" ("Sahobalarning ismlari") deb ataladi. Imom al-Buxoriydan avval biron muallif ushbu ("Asomiy as-sahoba") mavzusida kitob yozgani ma'lum emas. Imom al-Buxoriydan keyin esa Ibn Munda, Ibn Abdulbir, Ibn al-Asir, al-Hofiz ibn Hajar al-Asqaloniyy va ulardan boshqa qator mualliflar sahobalarning ismlari, ularning siyratlari va ular solnomalari haqida asarlar yaratgan. Kezi kelganda aytish kerakki, bu juda muhim mavzu bo'lib, uning ilmiy ahamiyati kattadir. Ushbu asarning bir qo'lyozma nusxasi Ikkinchi jahon urushidan oldin Olmoniyada saqlanganligi haqida ma'lumotlar bor.

16. "Kitob ul-vuhdon" ("Yagonalar haqida kitob"). Alloma ushbu "Kitob al-vuhdon" asarida faqat bir hadis rivoyat qilgan sahobalarni zikr qiladi. Imom al-Buxoriy bu sohada ham birinchilardan bo'lib asar yaratgan. Undan keyin imom an-Naso'iy ham (ayni shu tarzda) "Kitob al-vuhdon" nomli asar yaratgan, shuningdek al-Buxoriyga taqlid qilib imom Muslim ham "Kitob al-vuhdon" nomli asar yozgan. Imom al-Buxoriyning bu asari ham bizgacha yetib kelganligi hozircha ma'lum emas.

17. Imom al-Buxoriyning "Kitob al-Mabsut" ("Mufasssal kitob") nomli asari haqida olim al-Xaliliy "al-Irshod" nomli asarida zikr qilgan. Asarni Imom al-Buxoriydan Muhiyb ibn Salim rivoyat qilgan bo'lib, uning mavzui haqida aniq yozilmagan. Lekin, faraz qilish mumkinki, imom al-Buxoriy ushbu asarida hadislarini chuqur tadqiq etish natijasida fiqhiy masalalarni batafsil bayon qilgan bo'lsa kerak. Asarning qo'lyozma nusxasi Ikkinchi jahon urushidan avval Olmoniyada bo'lganligi zikr qilinadi.

18. Kitob al-Ilal ("Illatli hadislar haqida kitob"). Illatli hadislarini bilish g'oyatda nozik va muhim bo'lib, ushbu ilmni idrok etish uchun muallif keng ko'lamda ma'lumotga ega bo'lishi va g'oyatda iqtidorli bo'lishi talab qilingan. Ehtimol, Imom al-Buxoriyning "Kitob al-ilal" nomli asari ushbu mavzuga bag'ishlangan dastlabki asarlardan biri bo'lishi mumkin.

19. Birr al-volidayn ("Ota onaga mehr-muhabbat"). Manbalarda ta'kidlanishicha, bu asarni imom al-Buxoriydan Muhammad ibn Dallaviyx rivoyat qilgan. Asarning nomidan ham uning mazmun-mohiyati ma'lum bo'lgan bilan allomaning ushbu asari bizgacha yetib kelmagan hisoblanadi.

20. Kitob al-ashribati (Ichimliklar (sharbatlar) haqida kitob).

Ushbu asar haqidagi qisman ma'lumotlar ad-Doruqutniyning "al-Mu'talaf va al-Muhtalaf" nomli kitobida keltirilgan. Asar bizgacha yetib kelmagan bo'lsa kerak.

21. Qazoyo as-sahoba vat-tob'yeiyn ("Sahobalar va tobe'iyklar hukumlari") nomli asarini Imom al-Buxoriy 827/212 hijriy sanada "at-Ta'rix al-kabir" ("Katta ta'rix") asaridan ham oldin tasnif qilgan. Sahobalar va tabe'iyklar haqidagi qimmatli ma'lumotlarni, ular to'g'risidagi amaliy munosabatlarni o'zida mujassam qilgan ushbu asar, ming afsuski, bizgacha yetib kelmagan.

22. Kitob ar-Riqoq (Nafosat haqida kitob). Imom al-Buxoriyning ushbu asari haqida juda oz ma'lumotga egamiz. Olim Hoji Xalifa bu asar haqida qisqagina "Al-Buxoriyning "Kitob ar-Riqoq" asari hadis kitoblaridan biri"-degan iboradan boshqa hech qanaqa ma'lumot keltirmagan. Aftidan, allomaning ushbu asari bizgacha yetib kelmagan.

23. "Al-Jomi' as-sag'ir fil-hadis" ("Hadis haqida kichik to'plam). Imom al-Buxoriyning ushbu asari haqida Hoji Xalifa: "Bu asarni imom al-Buxoriydan Abdulloh ibn Muhammad al-Ashqar rivoyat qilgan",-deb yozgan. Shayx Al-Muborakfuriyning yozishicha, al-Hofiz ibn Hajar: "bu imom al-Buxoriyning mavjud asarlaridandir, -deb ta'kidlagan. Ikkinchi jahon urushidan oldin bu asarning bir qo'lyozmasi Olmoniyada bo'lganligi taxmin qilinadi.

24. "Al-Qiroatu xalf al-imom ("Imom orqasida turib o'qish"). Imom al-Buxoriyning qalamiga mansub bu mashhur risolada hadislar va boshqa manbalarga tayanilgan holda imomning orqasida turib qiroat qilish mumkinligi isbot qilingan. Ushbu asarida imom al-Buxoriy o'zi qo'llagan nafis uslub orqali o'zi bilan munozara qilganlarga o'rinli javob qilganligi ham tahsinga sazovor. Imom al-Buxoriyning bu asari bir necha yil ilgari Qohirada, undan keyin Hindistonda chop etilgan.

AT-Termiziy. Uning to'liq ismi Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn az-Zahhoq Abu Iso as-Sullamiy az-Zariyr al-Bug'iy at-Termiziy bo'lib, hijriy 209 (melodiy 824) yili Termiz yaqinidagi Bug' (hozirgi Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani hududida joylashgan) qishlog'ida o'rta hol bir oilada tavallud topgan. Markaziy Osiyolik mashhur tarixchi Abu Saad Abdulkarim as-Sam'oni (1113-1167) at-Termiziy Bug' qishlog'ida vafot etganligi uchun al-Bug'iy taxallusi bilan ham atalganini, olimning ko'p yig'laganidan umrining oxirlarida ko'zi ojiz bo'lib qolganligidan az-Zariyr (ko'zi ojiz)

taxallusini olganligini ham qayd qiladi.

Lekin, el orasida at-Termiziy nomi bilan mashhur bo'lishiga sabab uning butun hayoti va faoliyati (yoshligidan boshlab) Termiz shahri bilan chambarchas bog'liq bo'lganligidan, shuningdek, olim tug'ilgan Bug' qishlog'i Termiz shahriga yaqin bo'lib, ma'muriy-idoraviy jihatdan unga mansub qishloqlardan ekanligidan deb izohlash mumkin.

At-Termiziyning oilasi va ota-onasi haqida manbalarda aniq ma'lumotlar keltirilmagan. Tarixchilar uning «Bobomaslimarvlik edi, u kishi Lays ibn Sayyor zamonida yashagan, so'ng u yerdan Termizga ko'chib kelgan», - degan fikrini keltirish bilan chegaralanadilar. Shuningdek, at-Termiziyning ko'zi ojizligi xususida ham yozma manbalarda turli-tuman ma'lumotlar keltirilgan. Ba'zi mualliflar uni tug'ma ko'zi ojiz bo'lgan desa, ko'pchilik mualliflar olimning keyinchalik, umrining oxirlarida ko'zi ojiz bo'lib qolganligini yozadilar.

At-Termiziy yoshligidan o'ta tirishqoq, idrokli va zakovatli bo'lganligi bois o'z tengdoshlari ichida ajralib turgan. Ilmga o'ta qiziqishi tufayli o'sha davrning ko'pgina ilmlarini, ayniqsa, hadis ilmini chuqur egallagan. Termiz, Samarqand, Marv va Markaziy Osiyoning boshqa yirik shaharlarida istiqomat qilgan mashhur ulamo va muhaddislar asarlarini qunt bilan o'rgangan, qo'shni Balx va Hayraton shaharlaridagi ilm ahllari bilan ilmiy aloqalar o'rnatilishiga munosib hissa qo'shgan olimlardan biridir. Yoshligidan ilm-fanga tashna at-Termiziy 850 yildan, ya'ni yigirma olti yoshidan boshlab uzoq yurtlarga, qator xorijiy mamlakatlar va shaharlarga safar qiladi. Jumladan, u Hijozda-Makka va Madina, Iroq, Xurosonning qator shaharlarida ko'plab muhaddis, ulamolar bilan muloqotda bo'lib, ulardan ta'lim oladi, qizg'in ilmiy munozara va bahslarda ishtirok etadi. Tarixchi Shamsuddin az-Zahabiyning ta'kidlashicha, at-Termiziy Misr va Shomni shaxsan ziyorat qilmagan, Shu boisdan ham bu mamlakatlar ulamolaridan bilvosita hadislar rivoyat qilgan. Uzoq yillar davom etgan safarlari chog'ida at-Termiziy nafaqat hadis ilmidan, balki ilm al-qiroat, al-bayon, fiqh, tarix kabi fanning boshqa sohalari hamda ko'plab ustozlardan saboq oladi.

Shu bilan bir qatorda at-Termiziy payg'ambar alayhissalom hadislarini to'plashga alohida e'tibor bilan qaraydi. Bu borada u har qanday qiyinchiliklarga bardosh beradi. U o'zi o'qigan yoki biror

roviydan eshitgan hadisini alohida qog'ozlarga qayd etib borar, ularning asli va isnodini izchillik bilan aniqlab to'g'riligiga to'liq ishonch hosil qilsagina maxsus qog'ozlarga qayd etardi. Hadislarning to'g'riligiga shubha bo'lganda ularni alohida ajratib yozardi. Shu tariqa hadislar sahiyh (to'g'ri, ishonchli), hasan (yaxshi, ma'qul), zaiyf (bo'sh, ishonchsiz), g'ariyb (g'alati) kabi xillarga ajratilgan.

Hadis ilmini egallashda va takomillashtirishda imom at-Termiziy o'z davrining mashhur muhaddislaridan tahsil oldi. Uning ustozlaridan Imom al-Buxoriy, Imom Muslim ibn al-Hajjoj, Abu Dovud, Qutayba ibn Sa'id, Ishoq ibn Muso, Mahmud ibn G'iylon, Said ibn Abdurrahmon, Muhammad ibn Bashshor, Ali ibn Hajar al-Marvaziy, Ahmad ibn Muniy', Muhammad ibn al-Musanno, Sufyon ibn Vaqiy' va qator taniqli muhaddislarni ko'rsatish mumkin.

Imom at-Termiziy o'z davrining yetuk muhaddisi sifatida ko'pgina shogirdlarga ustozlik ham qilgan. Uning shogirdlaridan Maqbul ibn al-Fazl, Muhammad ibn Mahmud Anbar, Abu ibn Muhammad an-Nasafyun, Hammod ibn Shokir, Xaysam ibn Kulayb ash-Sxoshiy, Ahmad ibn Yusuf an-Nasafiy, Abul-Abbos Muhammad ibn Mahbub al-Mahbubiy kabi yetuk olimlarni ko'rsatish mumkin [6]. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, at-Termiziyning ustoz va shogirdlari orasida turli mamlakat va elat vakillari borligi sezilib turibdi. Shu nuqtai-nazardan qaralganda, uzoq o'tmishda ham ilm-fanning taraqqiyoti va ma'rifat urug'larini tarqatish borasida turli o'lkalarning vakillari yakdil bo'lib faoliyat ko'rsatib samarali hamkorlik qilganliklari, umumbashariy qadriyatlar ravnaqi yo'lida haqiqiy baynalmilallik ruhi mavjud bo'lganligi hozirgi davrimiz uchun ham ibratli bir holdir.

At-Termiziy zehnining o'tkirligi hamda quvvai-hofizasi kuchliligi xususida tarixiy manbalarda ko'plab misollar, rivoyatlar keltiriladi. Jumladan, arab tarixchisi Shamsuddin az-Zahabiyning (1274-1347) «Tazkiratul-huffoz» («Hofizlar haqida tazkira») nomli asarida quyidagi hikoya keltiriladi: Abu Iso Muhammad at-Termiziy Makkaga hajga borayotganida yo'lda mashhur muhaddislar bilan muloqotda bo'ladi va ularning biridan hadislardan saboq berishini iltimos qiladi. U olim: «Bo'lmasa qog'oz-qalam ol», degan. Aksiga olib Shu payt at-Termiziy qalam topa olmagan va olim ro'parasida o'tirib eshitgan hadislarini yozib olayotgandek qog'oz ustida qo'lini harakat qildiravergan. Olim esa turli-tuman hadislardan yetmishga

yaqinini hikoya qilgan. Shu orada olim qog'ozga qarab unda hech qanday yozuv yo'qligini ko'rgan va at-Termiziyning bu ishidan jahli chiqqan. At-Termiziy Shunda bamaylixotir «Siz aytgan hadislaringizni yoddan aytib beraymi?», - deganu hozirgina olimdan eshitgan hadislarning hammasini birin-ketin takror aytib bergan. At-Termiziyning xotirasi kuchliligidan o'sha olim hayratga tushib qoyil qolganligini bildirgan. Bu xususda yana bir hikoya at-Termiziyning so'ziga asoslanib keltiriladi: Makkaga ketayotganimda bir shayx to'plagan hadislardan ikki qismini yozib olgan edim. Tasodifan o'sha shayx bilan uchrashib qoldim. Yozib olingan hadislar mazmunan ularga o'xshash-u, biroq boshqa hadislar ekan. Salom-alikdan so'ng hadislarni aynan uning o'z og'zidan eshitishni iltimos qildim. U rozi bo'lib, hadislarni hikoya qila boshladi. Keyin menga qarab qo'limdagi oq qog'ozni toza, ya'ni hechnarsa yozilmagan holda ko'rgach: «Bu qilg'ing uchun mendan uyalmaysanmi?», - dedi. Men ma'zurona holda bor haqiqatni aytib: «Siz hikoyat qilgan hadislarning hammasini yoddan bilaman», dedim va uni birin-ketin so'zma-so'z aytib berdim. Shayx esa so'zlarimga ishonqiramasdan «Nima, mening huzurimga kelishdan oldin ularni maxsus yodlagan edingmi?», - dedi. «Yo'q», deb javob qilib: «Agar so'zlarimga ishonmasangiz, boshqa hadislardan ayting», dedim. Shunda u o'zining g'aroyib hadislaridan qirqtasini hikoya qildi. Men unga ularni ham boshdan oxir birma-bir aytib berdim. Shunda u: «Senga o'xshaganini hech qachon ko'rmagan edim», - dedi. At-Termiziy ko'plab xorijiy mamlakatlarga qilgan safar chog'ida hadislarni to'plab, kitoblar ta'lif qilishga ham kirishgan. Safardan qaytgach, olimu fuzalolar bilan ilmiy munozaralarda qatnashadi, ko'plab shogirdlarga ustozlik qiladi. Ayniqsa, mashhur muhaddis alloma al-Buxoriy bilan ko'plab ilmiy bahslar yuritib undan istifoda qiladiki, bu haqda at-Termiziy o'zining «Al-Ilal» kitobida ham yozadi. At-Termiziyning ko'pchilik tasniflari, jumladan, uning mashhur asari «Al-Jomi'» ham o'z vataniga qaytganidan keyin yaratilgan. Imom at-Termiziy 892 yilda Termiz yaqinidagi Bug' qishlog'ida vafot etgan va shu joyda dafn qilingan.

Topshiriq va savollar.

1. Xalqimizning eng qadimgi yozma yodgorliklari haqida nimalarni bilasiz?
2. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi haqida nimalarni ayta olasiz?

3. Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim-tarbiyaga ta'sirini izohlang.

4. Musulmon maktablari va undagi ta'lim-tarbiya mazmunini yoritib bering.

5. Imom al-Buxoriyning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasini izohlab bering.

6. At-Termiziyni o'z nomi bilan mashhur bo'lishiga sabab nima?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., "Sharq", 1998.

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T., «Ma'naviyat», 2008.

5. "Avesto" va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni. T., "Fan", 2001.

4. Baratov N., Aliqulov X. O'rta Osiyo mutafakkirlari axloq haqida. T., "O'zbekiston", 1974.

5. Ziyomammedov B., Abdullaeva Sh. Pedagogika. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2000.

Internet saytlari:

www.ziyonet.uz

www.tdpu.uz

www.pedagog.uz

www.psychology.uz

www.nutq.intal.uz

IX. SHARQ UYG'ONISH DAVRIDA PEDAGOGIK FIKRLARNING RIVOJLANISHI. XIV ASRNING 2-YARMI VA XVI ASRDA MOVARAUNNAHRDA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI.

9.1. Abu Abdulloh Xorazmiyning didaktik qarashlari.

Tayanch iboralar: qomusiy olim, ijodiy faoliyati, buyuk faylasuf, insonparvarlik g'oylari, Komil insonni yaratish, Abu Rayhon Beruniy,

Muhammad Ibn Muso Al-Xorazmiy jahon madaniyati taraqqiyotiga g'oyat katta hissa qo'shgan, fanning bir necha tarmoqlariga asos solgan buyuk qomusiy olimdir.

Al-Xorazmiy Algebra fanining asoschisi. Uning "Al-kitob al muxtasar fi hisob al-jabr va al muqobala" asaridagi "al-jabr" so'zi lotincha transkripsiyada "Algebra" ni anglatib, Al-Xorazmiy asos solgan yangi fanning nomidir.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (taxminan 783- 850-yillar) asli Xiva shahridan bo'lib, matematika. astronomiya, geografiya va boshqa fanlar sohasida barakali ijod qildi hamda "aljabr" (algebra) fani va "algoritmi" tushunchasiga asos soldi. "Algebra" so'zining o'zi esa uning "Kitab al-Jabr val-muqobala" (Tiklash va qiyoslash kitobi) degan risolasi nomidan olingan. Uning arifmetikaga Oid risolasi hind raqamlariga asoslangan bo'lib, hozirgi kunda biz foydalanadigan o'nlik pozitsion hisoblash tizimi va Shu tizimdagi amallarning Yevropada tarqalishiga sabab bo'ldi. Olinining "al-Xorazmiy" nisbasi esa "algoritmi" shaklida fanda abadiy o'rnashib qoldi. Uning XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilingan "Zij" (Astronomik jadvallar), "Hisob al-Hind". "Quyosh soati haqidagi risola" va boshqa asarlari Sharq va G'arb mamlakatlarida o'rta asrlar ilmiy tafakkurining taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatdi.

Allomaning eng mashhur asari "Yulduzlar ilmi va samoviy harakatlar haqida to'plam"! hisoblanadi. Uning bu kitobi Yevropada Kopernikkacha bo'lgan astronomiya fanida asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilgan. U sferik trigonometriya asoschilaridan biridir. Farg'oniy nisbasi lotinchada "alfraganus" shaklida yozilib, Shu nom ostida u Movarounnahrning Farg'ona viloyatidagi qadimgi Qubo (hozirgi Quva) shahrida tavallud topgan Ahrnad al-Farg'oniyning (798-865-yillar) ijodiy faoliyati Bag'doddagi ilmiy markaz (akademiya) bilan bog'liq bo'lib, hozirgi kunda uning 8 asari bizga

ma'lum fanga abadiy kirdi.

Algebra' so'zini qayerdan kelib chiqqanini bilasizmi ? Bu so'z Sharqning buyuk matematigi va tabiatshunos olimi ai-Xorazmiy nomi bilan bog'liq. Allomaning 'Al-jabr' nomli kitobi Yevropada 'Algebra' deb atalgan . Algebra Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy qadimiy va boy madaniyatga ega bo'lgan o'lkada - Xorazmda tug'ilgan. U yoshligidan bilim olishga qiziqqan. Riyozot va tabiiyot ilmlarining asoslarini chuqur egallagan. Qunt bilan arab, fors, hind va yunon tillarini o'rgangan.Xorazmiy yoshlik chog'idan o'zining o'tkir zehni bilan tanila bordi. Bu davrda Bog'dod o'lkasi ilmiy va madaniy markaz hisoblanar edi.Uning hukmdori al-Ma'mun yosh donishmandning dovruq'ini eshitib, boshqa olimlar qatori o'z o'lkasiga taklif etadi. Xorazmiy olam sirlarini o'rgandi U farg'onalik do'sti ai-Farg'oniy bilan bog'dodda rasadxona qurishga boshchilik qildi.Rasadxonadagi asboblarni yordamida koinot sirlarini va YER kurrasini o'rgandi. Al-Xorazmiy va Al-Farg'oniy boshchiligidagi olimlar 1000 dan ortiq yulduzlarni tekshirdilar hamda ularning joylanish xaritasini tuzdilar. YER kurrasining aylana uzunligini aniqladilar. Xorazmiy "Surat al-arz" ("Yer suvrati") nomli kitobida Afrika, Osiyo va Yevropa qit'alarini aniq tavsiflagan. Koinot sirlarini o'rganishga oid ijodlari uning "Ziji" ("Astronomiya") kitobida bayon etilgan. Muhammad al-Xorazmiy Bog'dodda vafot etdi.

Algebra fanining otasi sifatida Shuhrat qozongan vatandoshimiz Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy tarix sohasida Sharqda ilk asarlardan birini yaratgan. Uning "Kitob at-tarix" asari bizgacha turli mualliflarning asarlari tarkibida yetib kelgan. Buyuk ajdodi ilmiy merosini mukammal o'rgangan Beruniy ham bu sohada "Xorazmning mashhur kishilari" yoki "Xorazm tarixi" asarini yaratib qoldirgan. Bu kitob ham to'liq holda saqlanmagan.

Al-Xorazmiy Algebra fanining asoschisi. Uning "Al-kitob al muxtasar fi hisob al-jabr va al muqobala" asaridagi "al-jabr" so'zi lotincha transkripsiyada "Algebra" ni anglatib, Al-Xorazmiy asos solgan yangi fanning nomidir. Olimning "Al-Xorazmiy" nomi esa, "Algoritmi" shaklida fanda abadiy saqlanib qolgan. Olimning "ZIJ" asari astronomik asarlarni yozish andozasini belgilab bergan. Al-Xorazmiy fanda birinchi bo'lib geografiyani iqlimlar asosida bayon etgan.

Xorazmiy nomi esa matematika fanida "algoritmi" atamasi

shaklida o'z ifodasini topdi. Uning "Aljabr" asari asrlar davomida avlodlar qo'lida yer o'lchash, ariq chiqarish, bino qurish, merosni taqsimlash va boshqa turli hisob va o'lchov ishlarida dasturulamali bo'lib xizmat qildi. Xorazmiyning bu risolasi XII asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilinadi va qayta ishlanadi

«Hindiston hisobi to'g'risidagi kitob» nomli arifmetik asar, algebra bo'yicha «Aljabr va al-muqobalaning hisoblanishi to'g'risidagi qisqacha kitob» asari, astronomik jadvallar hamda geografik asar qolgan edi. Ikkala matematik asari o'rta asrlarda Yevropada lotin tiliga tarjima qilingan bo'lib, ko'p vaqt davomida matematika bo'yicha asosiy darsliklar bo'lib xizmat qilgan. Al-Xorazmiyning taxallusi sal shakli o'zgargan holda «algoritm» so'ziga aylanib, avvaliga o'n xonali o'rinlar belgilangan arifmetikaning butun tizimini anglatgan. Keyinchalik bu atama matematikada ma'lum amallarni muayyan tartibda bajarish ketma-ketligi ning qoidasi kabi kengroq ma'noga ega bo'ldi.

Shunday qilib, «al-jabr» va «al-muqobala» amallari hozirda qo'llanadigan tenglama hadlarining tenglamaning bir qismidan boshqasiga ko'chirilishi va o'xshash hadlarning keltirilishi amallarining o'rnida qo'llangan. Ushbu ikkita amal al-Xorazmiyga birinchi va ikkinchi darajali har qanday algebraik tenglamani namunaviy shakllardan biriga keltirishga imkon berdi, bunday shakllar al-Xorazmiyning ta'limotida oltita.

Kvadrat tenglamalarni yechishning faqat geometrik usullaridan foydalangan yunonlardan farqli ravishda, al-Xorazmiy faqat o'zining og'zaki ritorik yechimining to'g'riligini isbotlash uchungina chizmalardan foydalanadi.

9.2. Abu Nasr Farobiyning asarlaridagi pedagogik qarashlari.

Tayanch iboralar: *Abu Nasr Farobiy, insonparvarlik g'oylari, jamiyatning ichki tartib qoidalarini, shaxsga yakka holda yondashuv, ilm- hikmatni o'rganish, hunar o'rganish.*

Abu Nasr Farobiy-o'rta asr sharqining mashhur mutafakkiri, qadimgi yunon falsafasining Sharqdagi eng yirik davomchisi va targ'ibotchisidir. U Sirdaryo bo'yidagi O'tror (Forob) shahrida 873 yilda tug'ilib, Sxosh (Toshkent), Buxoro shaharlarida o'qidi, so'ng xalifligining markazi Bag'dod shahriga borib, u yerda ko'p yil

istiqomat qildi. Yunon faylasuflarining asarlarini mutolaa qilish, turli tillarni o'rganish bilan shug'ullandi. Umrining so'nggi yillarida Damashqda yashadi. 950 yilda vafot etdi. U turli sohalarga oid ilmiy asarlar qoldirdi. U o'z davrining faylasufi, musiqachisi, shoiri, qomusiy olimi sifatida Shuhrat qozondi. U "Aql haqidagi risola", "Falsafadan oldin nimani o'rganish kerak", "Falsafa manbalari", "Masalalar manbalari" kabi 160 dan ortiq risolalar yaratdi.

Farobiyning ta'lim- tarbiya haqidagi qarashlarida insonparvarlik g'oylari alohida o'rin tutadi. Uning o'qtirishicha, insonni baxt-saodatga eltuvchi jamoa yetuk jamoa bo'la olishi mumkin. Komil insonni yaratish, uni baxt-saodatga eltish har qanday davlat jamoa boshlig'ining vazifasi bo'lishi darkor.

Farobiyning ta'kidlashicha, insonni tarbiyalash ikki xil usul yordamida olib borilishi lozim. Tarbiyalanuvchi ixtiyoriy ravishda zaruriy, aqliy va axloqiy xislatlarni- bilimli bo'lishga, to'g'rilik va haqiqatni sevishga, jasur, do'stlarga sadoqatli bo'lish singari fazilatlarni egallashga intilmog'i lozim. Bunday insoniy fazilatlarga ega bo'lish uchun baxt-saodatga eltuvchi jamoa bo'lishi kerak.

Farobiy insonga xos hamda uning ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etuvchi tafakkur va nutqning rivojlanishini ta'lim-tarbiyaning asosini tashkil etuvchi muhim jarayon hisoblaydi.

Farobiy insonni dunyo tarqqiyotining eng mukammal va etuk yakuni deb biladi. Shunga ko'ra u o'z asarlarida insonga tarbiya va ta'lim berish zarurligini aytadi va bunda ta'lim-tarbiya usullaridan kutilgan maqsad masalalari asosiy o'rinni egallashini qayd qiladi.

Ta'lim-tarbiya tabiat hodisalaridan foydalanish va bu yo'lda boshqa kishilar bilan to'g'ri munosabatda bo'lib, jamiyatning ichki tartib qoidalarini to'g'ri o'rganib, uning talablariga javob bera oladigan insonni kamol toptirish zarurligini ta'kidlaydi.

Farobiy insonning ma'naviy hayotida, asosan, uning ikkitomoniga: aqli-ongiga va axloqiga (xulq-atvoriga) e'tibor beradi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya, uning fikricha insonni aqliy tomondan ham, axloqiy tomondan ham etuk mukammal kishi qilib yetishtirishga qaratilmog'i lozim. Demak, ta'lim-tarbiyaning birdan bir vazifasi - jamiyat talablariga to'la-to'kis javob bera oladigan va uni bir butunlikda, tinchlikda, farovonlikda saqlab turish uchun xizmat qiladigan ideal inson tayyorlashdir. "Ideal shahar aholi ilmining fikrlari" hamda "Baxt-saodatga erishuv haqida" nomli risolalarida

olimning bu fikrlari aniq ifodalangan.

Olimning uqtirishicha kimki eng go'zal va foydali kashf etish fazilatiga ega bo'lsa, kashf etgan narsasi chindan ham o'zining va boshqalarning istagiga muvofiq bo'lsa u xayrli va nafli bo'ladi.

Olim ta'lim faqat so'z va o'rganish bilan, tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan amalga oshirilishini aytadi va tarbiyani har bir xalq, millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga o'rganishdan iborat deb hisoblaydi.

Demak, Farobiy ta'lim va tarbiya berishni bir-biridan farq qiladi. Tarbiya esa amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi, yoshlarga u ma'lum ish-harakat, kasb-hunar, odob orqali singdiriladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida nazariy bilim bilan amaliy harakat-odat, malaka, faoliyat birlashib boradi, yetuklik shu birlashuvning darajasiga qarab yuzaga keladi.

Farobiy ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi yoki ta'lim oluvchi shaxsga yakka holda yondashuvni uning tabiiy ruhiy va jismoniy xislatlarini nazarga olish zarurligini ta'kidlaydi. U bu haqda shunday yozadi: "Bu barcha tabiiy xislatlarni, ularni oliy kamolotga yyetkazish shu yoki kamolotga yaqin bo'lgan darajaga ko'tarishga xizmat qiluvchi vosita yordamida tarbiyalashga muhtojdir... Insonlar turli ilm, hunar, faoliyatiga mosligi va qobiliyatligi bilan tabiatan farq qiladilar, teng tabiiy xislatlarga ega bo'lgan odamlar esa o'z tarbiyasi (malakalari) bilan tafovut qiladi.

Tarbiyasi jihatdan teng bo'lganlar esa, bu tarbiya natijalarining turlichaligi bilan bir-birlaridan farq qiladilar.

Tarbiya jarayoni, Farobiyning fikricha tajribali pedagog, o'qituvchi tomonidan tashkil etilishi, boshqarilib turilishi va ma'lum maqsadlarga yo'naltirilishi lozim, chunki, "har bir odam ham baxtini va narsa hodisalarini o'zicha bila olmaydi. Unga buning uchun o'qituvchi lozim"

Farobiy ta'lim-tarbiya berish usullari haqida shunda y yozadi: "Amaliy fazilatlar va amaliy san'atlar (kasb hunar va ularni bajarishga odatlantirish masalasiga kelganda, bu odat ikki turli yo'l bilan hosil qilinadi: birinchi yo'l qanoatbaxsh so'zlar, chorlovchi, ilhomlashtiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi va malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g'ayrat, kasb intilish harakatga aylantiriladi).

Farobiy bilimdon, ma'rifatli, yetuk odamlarning obrazini tasvirlar

ekan, bunday deydi:

“Har kimki ilm- hikmatni o’rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, sog’ligi haqida qayg’ursin, yaxshi axloq va odobli bo’lsin, so’zning udasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo’lsin, barcha qonun-qoidalarini bilsin, bilimdon va notiq bo’lsin, ilimli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va axilli ilmdan mol-dunyoni ayamasin, barcha mavjud, moddiy narsalar to’g’risida bilimga ega bo’lsin”

Bu fikrlardan Farobiyning ta’lim-tarbiyada, yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda, xususan, aqliy- axloqiy tarbiyaga Alohida e’tibor berganligi ko’rinib turibdi uning etiqodicha, bilim, ma’rifat, holda kutilgan maqsadga erisxilmaydi va bola ham yetuk bo’lib yetishmaydi. Olim daraxtning yetukligi uning mevasi bilan bo’lganidek, insonning barcha xislatlari ham axloq bilan yakunlanishini aytadi.

Umuman, Farobiy o’z davridagi yoshlarning ta’lim olishlari bilim egallashlari, hunar o’rganishlari, faoliyat ko’rsatishlari, mehnat qilishlari zarurligi xususida fikrlar bildirgan. Bu fikrlar hozirda ham ta’lim-tarbiyaga g’oyat muhimdir.

9.3.Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-pedagogik qarashlari.

Tayanch iboralar: *Abu Rayhon Beruniy, “Osmon haqidagi” risola, o’z g’oyalarini asoslash, Beruniy quyidagi, “Donishnoma” asari, Beruniyning deduktiv metodi, ilmiy baxs yuritish.*

Abu Rayhon Beruniy o’rta asrlar Sharq Uyg’onish davrining buyuk qomusiy olimlaridan. Uning turli fan sohalarida olib borgan ilmiy izlanishlari, o’zining ko’lami, ilgari surilgan g’oyalarining yangiligi jihatidan beqiyosdir. Mutafakkirning ilmiy salohiyotini tasavvur qilishda uning bilan Ibn Sino o’rtasidagi Aristotelning «Osmon haqida» va «Fizika» asarlaridagi ba’zi masalalar yuzasidan bo’lib o’tgan yozma baxslari (fikir almashishlari) muhim manba hisoblanadi.

Aristotelning «Osmon haqidagi» risolasi yuzasidan Beruniy va Ibn Sino o’rtasidagi baxs o’nta savol-javobdan iborat bo’lib, unda osmon sferasining tabiati, harakat yo’nalishlari, abadiyligi, borliq va bo’shliq, uzluksizlik va usluksizlik kabi masalalar muhokama qilingan.

Beruniy qo’yilgan savollar bo’yicha ba’zi holatlarda Ibn Sinoning

fikriga qo'shilsa, ba'zi holatlarda unga e'tiroz bildiradi. Biz bu maqolada Aristotelning "Osmon haqida" risolasidagi savol-javoblarni tahlil qilish orqali Beruniy tomonidan ilgari surilgan g'oyalarning mantiqiy asoslari, konstruktiv har akteri haqida fikr yuritamiz.

Abu Rayhon Beruniy Ibn Sinoga shunda y savol bilan murojaat qiladi: "Nima sababdan Aristotel biz yashab turgan dunyodan boshqa dunyo ham mavjud bo'lib, u boshqacha tabiatga muvofiq mavjuddir deb tasdiqlovchilarning so'zlarini xato deb biladi". Beruniy biz yashab turgan dunyodan ham boshqa dunyolar bo'lishi mumkinligini e'tirof etgan holda, o'z g'oyalarni asoslash uchun uchta dalil keltiradi:

Birinchi dalil. Inson mavjud bo'lgan narsalarni o'rganish orqali bilimga ega bo'ladi. Tabiat va to'rt unsur haqidagi bilimlarimiz xuddi Shunday paydo bo'lgan. Lekin ular biz bilgunga qadar ham mavjud bo'lganku? Nima uchun yuqoridagi masalani hal qilishda shunda y bo'lishi mumkinligini inkor qilish kerak?

Ikkinchi dalil. Tug'ma ko'r boshqalarning ko'rishi haqida eshitmaguncha ranglarni qabul qilish qobiliyati sezgi organiga (ko'zga) bog'liqligini hayoliga ham keltirmaydi. Lekin bu holat tug'ma ko'ring ko'rish sezgisining mavjudligini inkor qilishi uchun asos bo'lolmaydi.

Uchinchi dalil. Yerdagi balandliklarni A,V, va S harflari bilan belgilaymiz. Bunda A va S nuqtalari V ga nisbatan er yuzasiga yaqinroq bo'ladi. V balandlikdan oqizilgan suv VA va VS yo'nalishida oqadi va bu yo'nalishlar belgilangan joy (V) ga nisbatan qarama-qarshi harakat yo'nalishini bildiradi. Beruniyning uchinchi daliliga ko'ra har bir unsur uchun alohida tabiiy o'rin yo'qdir.

Beruniy bu masalada quyidagi g'oyalarni ilgari suradi:

1. Biz yashab turgan dunyodan boshqa dunyolar ham mavjud bo'lishi mumkin.

2. Boshqa dunyo bizning dunyomiz kabi tabiiy xususiyatlarga ega bo'lishi, lekin bu xususiyatlar ba'zi jihatlari bilan farq qilishi mumkin. Masalan: harakat yo'nalishiga ko'ra. Beruniy fikricha, o'zga dunyoda ham to'rt unsur bo'lishi, lekin ularning harakati o'zgacha bo'lishi mumkin.

3. Bu olamlarning har biri bir-biridan qandaydir to'siq bilan ajratilgan deb faraz qilish mumkin.

Ibn Sino o'z javobida Arastu falsafasining asosiy tamoyillaridan kelib chiqadi va uning avtoritetiga murojaat qilgan holda, avvalo

boshqa dunyolarning bo'lishi mumkinligi haqidagi fikrning xatoligini isbotlaydi.

Beruniy va Ibn Sino o'rtasidagi savol javoblarning mantiqiy tahlili shuni ko'rsatadiki Ibn Sino ko'proq deduktiv metodga asoslanadi. U xulosa chiqarish uchun asos bo'luvchi bilimlar sifatida Aristotel g'oyalariga tayanadi. Mutafakkir "Donishnoma" asarida xulosa uchun asos bo'luvchi bilimlarni sanab o'tar ekan, 8-bo'lib maqbulot ya'ni fan sohasidagi avtoritetlar fikrini ifodalovchi bilimlarga asoslanish mumkinligini ta'kidlaydi. Ibn Sinoning falsafiy dunyoqarashiga Aristotel ta'limotining kuchli ta'sirini uning ontologik, gneseologik va mantiqiy ta'limotlarida yaqqol ko'rish mumkin.

Ibn Sino asarlarini o'qir ekanmiz, ularda Arastu ta'limotining tanqid qilinganligi yoki fikrining inkor qilinganini deyarli uchratmaymiz. U ustozni avvalgi g'oyalariga asoslanib, ularni to'ldirganini, rivojlantirganini va yangi g'oyalar bilan boyitgani ma'lum.

Ibn Sino bilan bahsida Beruniy Arastu ta'limotini chuqur o'rganishlari bilan bir qatorda uning ta'limotidagi kamchiliklarni ham ko'ra bilganligini va bu haqda o'z asarlarida yozganini kuzatish mumkin. Beruniyning ilmiy bilish uslubi Aristotel va Ibn Sinolarnikdan farq qiladi. U "Qadimgi Xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarining kirish qismida o'z metodiga xos qoidalarni ta'riflab o'tadi. Bu qoidalar Beruniy ilmiy metodining induktiv xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi. Lekin Beruniy deduktiv metodni inkor qilgan yoki unga etarli baho bermagan desak, fikrimiz xato bo'ladi. Xususan, u "Geodeziya" asarida deduktiv metodga murojaat qilganligini ko'rish mumkin. Beruniy ilmiy bilish uslubining o'ziga xos tomonlaridan yana biri uning avtoritetlar fikriga munosabatidir. U tabiiy-ilmiy izlanishda avtoritetlar fikrini ustun qo'yishni, ularga taqlid qilishni tanqid qiladi va asosiy e'tiborni tajriba o'tkazish, natijalarini tahlil qilish, kuzatish, taqqoslash kabi usullarga qaratadi. Beruniyning bu mantiqiy usuli ilmiy izlanishlari samaradorligining oshishiga xizmat qilgan desak, yanglishmaymiz.

Beruniy boshqa dunyolar ham bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi Ibn Sinoning raddiyasini quyidagicha inkor qiladi. Beruniy fikricha er va osmonni yaratgan qodir Alloh uchun yana shunda y bir olamni yaratish mumkin emas deb o'ylash xatodir. Mutafakkirning bu g'oyasi

ilmiy metodining konstruktiv xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Hozirgi zamon konstruktiv mantig'ida biz konkret bilmagan, lekin mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan ob'ektlar haqida fikr yuritish uning qonuniyatlarini aniqlash mumkin deb ta'kidlanadi.

Ibn Sino va Beruniy o'rtasidagi savol-javoblarda Beruniyning o'n asr avval aytgan fikrlari hozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Bu yozishmalarning biz uchun yana bir ahamiyatli tomoni ilmiy baxs yuritishga o'rganishdir. So'nggi o'n besh yil davomida ijtimoiy, xususan falsafiy masalalar bo'yicha yozilgan maqola, monografiyalarda, himoya qilingan dissertatsiyalarda ilmiy baxsning etishmasligini kuzatish mumkin. Falsafadan yozilgan ilmiy ishlarda ko'tarilgan muammo bo'yicha qarama-qarshi fikrlarning tahlili yo'q, chunki ko'pincha qarama-qarshi fikrning o'zi yo'q.

9.4.Abu Ali Ibn Sino tarbiya va ta'lim haqida.

Tayanch iboralar: *Sharqning buyuk siymosi, dunyoviy fan olimi, ajdodlarimiz xotirasi, e'zoz va ehtirom sari, boy ma'naviy-ma'rifiy meros.*

Sharqning buyuk siymolaridan biri - qomusiy olim, mutafakkir, tabib, faylasuf, shoir Abu Ali ibn Sino (980-1037-yillar) bo'lib, u Yevropada Avitsenna nomi bilan mashhurdir. Ibn Sino Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan, iste'dodli, xotirasi kuchli, zehni o'tkir bo'lganligidan o'z davrida ma'lum bo'lgan ilmlarni tez egallagan. U 16 yoshdayoq mashhur tabib - hakim bo'lib tanildi va keyinchalik "Olimlar boshlig'i", "Tabiblar podshohi" kabi eng buyuk nomlarga sazovor bo'ldi. Ibn Sino asarlarining umumiy soni 450 dan oshadi, biroq bizgacha faqat 160 ga yaqin asari yetib keigan. Uning, ayniqsa, "Tib qonunlari" asari XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilinib, 800 yil davomida G'arb mamlakatlari universitetlarida asosiy qo'llanma bo'lib keigan va hozir ham bir qancha tibbiy o'quv yurtlarida o'rganiladi.

Dunyoviy fan olimlari bilan birga bu davrda islom ta'limoti va mafkurasining takomili yo'lida movarounnahrlik diniy ulamolarning xizmati katta bo'ldi. Zero, islom Arabistonda vujudga kelgan bo'lsa hamki u Movarounnahrda ravnaq topdi. Bu diyor allomalari o'z durdona asarlari bilan o'rta asrlarda Qur'on tafsiri hadisshunoslik, arab filologiyasi, fiqh (islom huquqshunosligi), kalom (islom falsafasi)

ilmlarining turli sohalari taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdilar. Qur'on mazmunini sharhlab, tafsirini bayon qiluvchilar bo'lmish mufasssirlarning aksariyati (Imom al-Moturidiy, Imom Abu Lays as-Samarqandiy, Imom az-Zamaxshariy, Imom an-Nasah'y) ushbu diyor vakillari edi.

Hadis Islomda Qur'ondan keyingi muqaddas manba hisoblanib, Muhammad alayhissalomning diniy va axloqiy ko'rsatmalari, hikmatli so'zlaridan iboratdir. Hadislar to'plami sunna deb nom olgan bo'lib, islom dunyosida eng nufuzli deb e'tirof etilgan 6 ta ishonchli hadislar to'plami mualliflarining ham aksariyati O'rta Osiyolikdir. Shular ichida "Hadis ilmida amiralmo'minin" degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan buyuk muhaddis olim Imom al-Buxoriyning "Sahihi Buxoriy" to'plami eng mo'tabari hisoblanadi. Bu davrda ushbu zaminda islom huquqi - shariat ancha rivoj topgan bo'lib, bu sohada ham movarounnahrlik allomalar boy meros qoldirganlar. Ayniqsa, bu borada Burhoniddin al-Marg'inoniyning "Hidoya" asari islom olamida mashhur bo'ldi. Shuningdek, islom diniga asoslanuvchi musulmon olamida keng tarqalgan buyuk ta'limot - tasavvuf jamiyat ma'naviy hayoti rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu yerda yassaviya, naqshbandiya, kubraviya kabi turli sun'iylik tariqatlari shakllandiki, ular orqali insoniyat islom dinining ichki va tashqi go'zalligini, uning buyuk insonparvarlik mohiyatini anglab yetdi. Chunki, tasavvuf ta'limotining o'zagi - inson va uni ma'naviy jihatdan kamol toptirishdir.

Mamlakatimizda Prezident Islom Karimov rahnamoligida ulug' ajdodlarimiz xotirasiga yuksak ehtirom ko'rsatilib, ular qoldirgan boy madaniy va ma'naviy merosni o'rganish, hayoti va faoliyatini chuqur tadqiq etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Istiqlool yillarida xalqimizning ko'plab buyuk farzandlari nomlari bilan bog'liq qadamjolar obod etildi, yangi yodgorlik majmualari qad rostladi. Yosh avlodni ajdodlarga munosib vorislar sifatida tarbiyalash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi, bu xayrli ish davom etmoqda. Ayni kunlarda diyorimizda jahon ilm-fani xazinasiga bemisli hissa qo'shgan ulug' bobomiz Abu Ali ibn Sinoning 1025 yillik yubileyi nishonlanib, qizg'in o'tdi. "Sihat-salomatlik yili" davlat dasturi doirasida o'tkazilgan mazkur tantanalarda "Ibn Sino" xalqaro jamg'armasi ham faol ishtirok etda. Jamg'arma raisi, tibbiyot fanlari doktori Shuhrat Ergashev bilan O'zA muxbirining suhbatı ana shu

xususda bo'ldi.

- Buyuk bobomiz Abu Ali ibn Sino Mashriqda e'zoz va ehtirom bilan Shayx ur-ra'is - Shayxlarning raisi deb atalsa, Mag'ribda Avitsenna nomi bilan mashhur, - deydi Sh.Ergashev. - Ul zot milodiy 980 yilning avgust oyida Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida dunyoga kelgan.

Ibn Sino, umri murakkab va sertashvish vaziyatlarda o'tganiga qaramay, ilm-fanning o'n ikki sohasi bo'yicha mislsiz yutuqlarni qo'lga kiritgan.

O'sha davrdagi mavjud siyosiy vaziyat buyuk vatandoshimiz boshiga ko'p sarson-sargardonliklar solgan. U Buxorodan Xorazmga ko'chadi, undan keyin Isfahon va Hamadon shaharlarida yashaydi. Alloma Xorazmda yashagan davrlarda Ma'mun akademiyasida ko'plab mashhur olimlar, ayniqsa, Abu Rayhon Beruniy bilan yaqin ilmiy-ijodiy hamkorlik qilgan. zining dunyoga mashhur "Tib qonunlari" va "Ash-Shifo" asarlari uchun zarur ma'lumotlar to'plagan. 1037 yilda 57 yoshda vafot etgan vatandoshimiz Hamadon shahriga dafn etilgan.

Ibn Sino faoliyati bilan shug'ullangan olimlar uning har lahzadan unumli foydalanganini alohida ta'kidlaydilar. Darhaqiqat, inson 57 yillik hayoti davomida 450 dan ortiq asar yozib, ilm-fanning ko'plab sohalarida o'chmas iz qoldirishi oson emas.

- Buyuk vatandoshimiz qoldirgan boy ma'naviy-ma'rifiy merosni o'rganish va targ'ib etish, uning 1025 yillik yubileyini munosib nishonlash borasida siz rahbarlik qilayotgan jamg'arma qanday ishlarni amalga oshirmoqda?

- Ulug' vatandoshimiz merosini chuqur o'rganish va targ'ib qilish, bu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish Yurtboshimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan jamg'armamizning asosiy vazifalaridandir. Ibn Sino kutubxonasi va muzeyi tashkil etildi. Jamg'armamiz tomonidan chop qilinayotgan "Ibn Sino - Avitsenna" deb nomlanuvchi xalqaro jurnal alloma qoldirgan boy ma'naviy meros hamda sog'lom turmush tarzi konsepsiyasining faol targ'ibotchisi. Bu borada ulug' yurtdoshimiz asarlarini hamda ularning ahamiyatini ochib berishga yo'naltirilgan qator risolalar ham jamg'arma ko'magi bilan nashr etildi.

Joriy yilning Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan Sihat-salomatlik yili deb e'lon qilinishi hamda shu munosabat bilan ishlab

chiqilgan davlat dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida respublikamizdagi barcha akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlari, oliy o`quv yurtlarida Ibn Sino nomi bilan ataluvchi salomatlik markazlari ochildi. Ular orqali jamg`armamiz vakillari doimiy ravishda yoshlarga sog`lom turmush tarzi falsafasini tushuntirmoqda, targ`ib qilayotir. Ana shu ezgu ishni amalga oshirish niyatida "Abu Ali ibn Sino" deb nomlangan gazetani chop etishni ham yo`lga qo`ydik.

9.5.Mahmud Qoshg`ariyning “Devonu lug`otut turk” asarida ta`lim-tarbiya masalalari.

Tayanch iboralar: *Mahmud Qoshg`ariy, «Devonu lug`otut turk», hur fikrli g`oyalar, hunar sohiblarini e`zozlash.*

Mahmud ibn ul-Husayn Muhammadil Qoshg`ariy (XI asrda yashagan. Tug`ilgan va vafot etgan yili noma`lum) O`rta Osiyolik mashhur olim, turkshunoslik ilmi rivojiga katta hissa qo`shgan yirik mutafakkirdir. U Bolasog`unda tug`ildi, shu yerda tahsil ko`rdi. Mavjud ma`lumotlarga qaraganda, Mahmud Qoshg`ariy ilmning turli sohalari, xususan, arab va turk tillari, fors adabiyoti bilan shug`ullanib, ularni puxta egallagan edi. Ayniqsa, Mahmud Qoshg`ariyning turkiy qabilalarning tillarini o`rganishdagi xizmati beqiyosdir. U til sohasida o`zining mashhur asarini yozishdan oldin o`sha davrda juda katta hududda yashagan turkiy xalqlarning tili, urf-odati, turmush tarzi, kasb-kori, og`zaki ijodi haqida bir necha yillar mobaynida chidam bilan material to`pladi, butun Movarounnahr, Xorazm, Buxoro, Farg`ona, Yuqori Chinni kezib chiqdi.

Umuman olganda, Mahmud Qoshg`ariy turkiy tillarni o`rganishga bag`ishlangan 2 ta asar yozib qoldirgan. Shulardan biri «Javohirun-nahv fi lug`otit turk» (Turkiy tillarning nahv (sintaksis qoidalari) nomi bilan yuritilgan. Lekin bu asar shu vaqtgacha topilganicha yo`q.

Uning bizgacha etib kelgan mashhur asari «Devonu lug`otit turk» («Turkiy so`zlar devoni») deb ataladi. Asar turli qabila va xalqlarning tili, leksikasi, fonetikasi, morfologiya va dialektologiyasi haqida juda ko`p boy material beradi. U ayniqsa, til tarixi bilan shug`ullanuvchi olimlar uchun qimmatbaho manba bo`lib xizmat qiladi. Mana shu asar orqali Markaziy Osiyo xalqlari o`z qadimgi avlod-ajdodlari, qabilalarining tillari to`g`risida muayyan tasavvurga ega bo`lishi

mumkin.

Lekin, ikkinchi tomondan, shuni alohida ta'kidlash lozimki, «Devonu lug'otit turk» kitobi faqat lug'atshunoslik, tilshunoslikka bag'ishlangan asar bo'libgina qolmasdan, u o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot to'g'risida ham ma'lumot beradi. Unda XI asrda yashagan qabilalarning tarixi, sinfiy ziddiyatlar, qabilalararo kurash, mehnatkash xalqning zulm va istibdod va mavjud feodal tuzumi tartiblariga qarshi noroziligi o'z ifodasini topgan.

Devonga kirgan hikmatli va ibratomuz gaplarda ta'lim-tarbiya, xulq-odob, ilm-fan to'g'risida hur fikrli g'oyalar mavjudki, bu hol Mahmud Qoshg'ariyning zamonasining ilg'or mutafakkiri bo'lganligidan dalolat beradi. Xususan, unda Mahmud Qoshg'ariy kishilarni mehnat qilishga, yaxshilikka undaydi, yomonlikni qoralaydi, ilm va hunar sohiblarini e'zozlaydi, ulardan ibrat olishga kishilarni chaqiradi. U jamiyatdagi illatlarga: fitna, tamagirlik, ig'vogarlik, mag'rurlik, boylik ketidan quvish, baxillik va boshqalarga qarshi chiqadi. Shuning uchun ham uning insonparvarlik ruhi sug'orilgan g'oyalari keyingi davrlarda ham Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy fikr taraqqiyotida muhim rol o'ynadi.

9.6.Yusuf Xoj Hojibning “Qutadg`u bilig” asari-pandnoma asar sifatida.

***Tayanch iboralar:** Yusuf Xos Hojib, «Qutadg`u bilig», o`z zamonasining bilimdon kishisi, mutafakkir inson, jamiyatning taraqqiyoti, oilaviy tarbiya.*

Yusuf Xos Hojib XI asrning ko`zga ko`ringan shoiri va mutafakkiri edi. U Bolasog`un (hozirgi Qirg`izistonning To`qmoq) shahrida tug`ildi. Yusuf Xos Hojib o`zining birdan bir dostoni bo`lgan turkiy tilda yozilgan «Qutadg`u bilig» («Baxtga eltuvchi bilim») bilan mashhur bo`lgan.

«Qutadg`u bilig» axloqiy-nasixatomuz asar sifatida Sharq o`rta asrining dunyoviy adabiyotiga mansub turk tilidagi eng yirik yodgorliklardan biri edi. Bu asar arab tilida yozilgan Ibn al-Muqaffaning «Kitob al-adab al-kabir», Ibn Qutaybaning «Uyun al-axbor», al-Johizning «Kitob at-taj» turidagi, Shuningdek, fors tilida yozilgan Nizomulmulkning «Siyosatnoma», Kaykovusning

«Qobusnoma» va shu xildagi Sharqda keng yoyilgan o`git-nasihat janriga mansub edi.

Ushbu kitob 1069 yilda yozilgan bo`lib, muallif uni Qashqar hokimi Sulaymon Arslon Qoraxonga bag`ishlagan, shuning uchun ham xon unga Xos Hojib, ya`ni buyuk xonning maxsus maslahatchisi unvonini bergan.

«Qutadg`u bilig» axloqqa oid qoidalar va xulq-atvor mezonlarining o`ziga xos bir qonuni edi.

Yusufning fikricha, hokim va uning tevaragidagi kishilar «davlat ilmi» qoidalariga binoan boshqarishga o`rganib olishlari xususida ana shu kitobdan barcha zarur bilimlarni topishlari zarur edi.

Yusuf Xos Hojib o`z zamonasining juda bilimdon kishisi edi. «Qutadg`u bilig» dostoni uning adabiyot, tarix, falsafa, axloqshunoslik va nafosatshunoslik sohasida juda keng bilimlarga ega ekanligidan dalolat beradi.

Garchand Yusuf ob`ektiv dunyo va undagi odam xudo tomonidan yaratilgan, xudoning nigohi hamma erga etib boradi, deb hisoblasa ham, har holda, mutafakkir insonning shundan keyingi qismatini uning haqiqiy hayotga bo`lgan munosabatini xudo olamni yaratgan, ammo uning ishlariga bevosita aralashmaydi degan nuqtai nazardan turib hal qiladi. (Yusuf Xos Hojib. Qutadg`u bilig. Toshkent, «Fan», 1972, 26 bet).

Doston qahramonlari - hokim Kuntug`di adolat ramzi, vazir Oyto`ldi baxt (davlat) ramzi sifatida, vazirning o`g`li Og`durmish aql ramzi sifatida muallif tomonidan o`ylab topilgan, biroq ular mavjud dunyo namoyondalaridir.

Mutafakkir inson faqat jamiyatda, boshqa kishilar bilan muloqotda va o`zaro munosabatlarda, ijtimoiy foydali mehnatdagina chinakam kamolotga yetishadi, degan shiorni ilgari suradi. «Insonga foyda keltirmaydigan inson - o`likdir». (o`sha joyda, 659-667 betlar) deb ta`kidlaydi. U jamiyatda mehnat ahli (dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar) hal qiluvchi maqomdaligini uqtiradi.

O`z dostonida u quyidagilarni yozadi: «Agarda, bek el haqida g`amxo`rlik qilsa, uning fuqarolari boyib ketsa, unda bekning hamma istaklari ro`yobga chiqadi. Agar xalq o`z axloqini takomillashtirib borsa, bek ham axloq-odobda kamol topib boradi, bordi-yu bek axloqli, odobli bo`lsa u o`z xalqi uchun yaxshilik qilgan bo`ladi». (Yusuf Xos Hojib. Qutadg`u bilig, 309 bet),- deb ta`kidlaydi.

Yagona maqsadni ko`zlab jamiyatning barcha tabaqalarini og`a-inilar sifatida murosaga keltirish va ana shu negizda odil va gullab yashnaydigan jamiyat barpo etish Yusuf Xos Hojib axloqi asosiy mazmunini tashkil etadi.

Yusuf ilmning turli sohalarini jamiyatning taraqqiyotiga va gullab yashnashiga olib keluvchi kuch deb bilib, ularni egallashga da`vat etadi. U ilm-fan va ma`rifat yordami bilan o`z davrining axloqiy muhitini sog`lomlashtirish mumkinligiga ishonadi. Yusuf kishini zulmat ichidagi uyga, bilimni esa ana shu uyni nurafshon etuvchi mash`alaga o`xshatadi. (o`sha joyda, 315 bet)

Yusuf Xos Hojib insonning tashqi qiyofasi uning ma`naviy dunyosiga mos bo`lishiga katta ahamiyat beradi, ya`ni u ikki dunyoning (tashqi va ichki dunyoning) birligi aql-zakovati raso kishining ajralmas fazilatidir, deb hisoblar edi (Qutadg`u bilig, 183 bet). Uningcha halol, haqgo`y, odobli kishi har qanday qimmatbaho narsadan ham qimmatliroqdir, bunday kishiga «baxt har ikki dunyoda ham kulib boqadi». (o`sha joyda, 243 bet).

Yusuf Xos Hojib oilaviy tarbiya-bolalarning axloqiy qiyofasini shakllantirishda eng asosiy omil ekanligini, mabodo bolalarning xulq-atvori yomon bo`lsa, bunga bola emas, ota aybdor ekanligini, ota o`z farzandini aqlli va fahmli qilib tarbiyalamoqchi bo`lsa, u bolani doimo diqqat-e`tibor ostida tutishi lozimligini ta`kidlaydi. Mutafakkir o`z bolalarini ortiqcha erkalatib, bu bilan ularning kelgusida nолоyiq hatti-harakatlar qilishga to`g`ridan-to`g`ri aybdor bo`ladigan ota-onalarni qattiq qoralaydi.

Yusuf Xos Hojibning fikricha, bolalarni hunar va bilimga o`rgatish ularning axloq-odobini tarbiyalashning asosidir.

9.7.Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarida didaktik qarashlar.

***Tayanch iboralar:** Ahmad Yugnakiy, yaxshilik urug`ini sepish, bilimli bo`lish, to`ralar va amaldorlar hatti-harakati.*

Ahmad Yugnakiy o`zining «Hibat ul-haqoyiq» nomli axloqiy-nasixatomuz dostoni bilan mashhur bo`lgan, XII asr va XIII asrning birinchi yarmida yashagan mutafakkir edi. U hozirgi Samarqand yaqinidagi Yugnak shahrida tug`ilgan.

Ahmad Yugnakiyning turkiy tilda yozilgan «Hibat ul-haqoyiq» dostoni turkiy xalqlarning nodir adabiy yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Doston Markaziy Osiyoga mo'g'ullar istilosigacha bo'lgan davrda yozilgan.

Ahmad Yugnakiy tasavvuricha, Xudo insonning taqdirini, uning xulq-atvorini va butun hayotiy faoliyatini belgilab beruvchi birdan bir hokimdir. (Ahmad Yugnakiy. «Hibat ul haqoyiq», T., G'.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1971, 156-b.) Lekin, u ayni choqda dunyoviy hayotning ma'nosi va go'zalligini inkor etmaydi va ijtimoiy hayotning xususiyatlari haqida o'z fikriga ega edi. Yugnakiy o'z dostonida dunyoning bevafoqligi, o'tkinchiligi haqida gapiradi: dunyo uning nazarida karvon faqat ozgina fursatga to'xtab o'tiladigan rabotdir. Shu sababli, deb ta'kidlaydi u, bu dunyodagi rohat-farog'atga intilish befoyda, uni deb azob-uqubat chekishga arzimaydi, chunki «sen bugun ko'rib turgan boylik ertaga g'oyib bo'ladi, sen o'zimizniki deb bilgan buyumlar, boshqalarga qolib ketadi»(O'sha asar, 40-41 betlar).

Mutafakkir faqat «yaxshilik urug'ini sepish» uchungina yashashni maslahat beradi. Uning fikricha, inson bilan bilimni bir-biridan ajratib bo'lmaydi, faqat bilimli kishigina kamol topishi mumkin: Olim odam - qimmatbaho dinordir, Nodon, joxil odam - qimmatsiz soxta puldir. Xo'sh, qanday qilib olim nodon bilan tenglashuvi mumkin? Olim ayol-er, joxil erkak-xotindir.

Shu boisdan u o'qish va bilim ortirishni maslahat beradi, chunki «Er bilim-suyak uchun xuddi ilikdek, urning chiroyi ham uning aqlidadir». (Ahmad Yugnakiy. Hibatul-haqoyiq., 40-41 betlar).

Ahmad Yugnakiy bilan Yusuf Xos Hojibning bilim olish haqidagi fikrlari o'rtasida tafovut mavjud. Ahmad Yugnakiy bilimli bo'lish avvalo kambag'allar uchun muhim va g'oyat ulkan ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaydi. Yusuf Xos Hojib esa bilimni faqat imtiyozli kishilar olishi mumkin, avom xalq bilim olishga moyil emas, uning uchun muhimi to'q bo'lishdir, deb o'ylaydi. (Yusuf Xos Hojib, «Qutadg'u bilig», 247 bet). Yugnakiy esa, Shunday deb ta'kidlaydi: «Mol-mulksiz kishi uchun bilim bitmas-tuganmas mulkdir, kambag'al uchun bilim xatosiz hisobdir». (Ahmad Yugnakiy, «Hibatul-haqoyiq», 46-bet)

U har bir kishi izzat va hurmat qozonishga intilishi lozim, lekin bularni faqat halol mehnat, bilim va aql madadi bilangina qo'lga

kiritish mumkin, deydi.

Ahmad Yugnakiy, arkoni davlatning muloyimligi va sahovatiga umid bog`lash yaramaydi, deb uqtiradi. U to`ralar va amaldorlar hatti-harakatiga alohida e`tibor beradi. U bunday kishilarga baland martabaga erishgach, gerdayib ketmaslikni, kamtar va mehribon bo`lishni maslahat beradi.

9.8.Kaykovusning "Qobusnoma" asarining tarbiyaviy ahamiyati.

Tayanch iboralar: Kaykovus, "*Nasihatnomai Kaykovus*", "*Qobusnoma*", *nodir hikoyalar*.

Unsuru-l-Maoliy Kaykovus (1021-1099) Kaspiy dengizining janubiy qirg`og`idagi Gilon qabilasidan bo`lib, uning otasi mashhur shoh Shamsu-l-Ma`oliy Qobusning o`g`lidir. Qobus o`z davrida tanazzulga yuz tutgan samaviylar xonadonini tiklashga urindi, biroq bunga erishish uchun Mahmud yordami bilan Tabaristonni zabt etib, poytaxt qilgan (uning huzurida ma`lum muddat Beruniy ham yashagan). Qobusning nabirasi o`z zamonasining ilmi hukmdorlaridan bo`lib, o`g`li Gilonshohga bag`ishlab "*Nasihatnomai Kaykovus*" asarini yozdi. Asarni mashhur shoh bobosining nomi bilan "*Qobusnoma*" deb atadi. Muallifning bundan boshqa asarlari borligi ma`lum emas. "*Qobusnoma*" 1083 yili Jurjonda yozilgan bo`lib, 44 bobdan iborat. Asar boblarining mundarijasidan ma`lum bo`lishicha, muallif zamonasining fozil va zukko kishilaridan bo`lgan. Nafaqat podshohlik mansabi va masalalarida, bilim va madaniy-axloqiy ishlarda ham namuna bo`la olgan. Shuning uchun bo`lsa kerak, "*Qobusnoma*" 1432 va 1705 yillari turk tiliga, 1786-87 yili uyg`ur, 1881 yili esa tatar tiliga tarjima qilingan. Ovro`pada 1886 yilgi ruscha va fransuzcha, 1811 yilgi nemischa tarjimalari mazkur bo`lgan. Ushbu majmuaga 1860 yilda Ogahiy tomonidan amalga oshirilgan tarjima asos bo`ldi. "*Qobusnoma*" faqatgina axloqiy nasihatnoma bo`lmay, unda badiiy ijod bilan bog`liq masalalar ham aks etganki, shu jihatdan u XI asrning adabiy-nazariy manbasi sifatida e`tibor uyg`otadi.

Ey farzand, shoir bo`lishni istasang, harakat qilki, so`zing oson va foydali bo`lsin, anglashilmaydigan, qiyin so`zlarni ishlatmagil, o`zinggina bilib, boshqalar uning sharhiga muhtoj bo`lgudek so`zni aytmagil, chunki she`rni xalq uchun yozish kerak va o`zi uchun yozmaydi. Bir xil vazn va qofiyaga qanoat qilmagil, san`atsiz, tartibsiz

she`r aytmagil. She`r zarb va shaklda al`al1 bo`lsa, ya`ni vazni to`la bo`lsa, yaxshi bo`ladi. Shoirlik qoidasiga ko`ra (she`r yozishda) san`atdan g`ofil bo`lmagil. Masalan, shoirlarning zarur usullari Shular: mujonis (o`xshash), muzmar (yashirin), mutobiq (uyg`un), mushokil (shakldosh), mulavvan (bo`yalgan), mutashobih (allegorik), mukarrar (takror), muvassal (ulangan), muraddaf (radifli), musammat (she`rning bir bandidagi qofiya va boshqa misralardagi qofiyadan farq qiladi), muqatta` (kesik), musajja` (qofiyadosh), mutazod (qarama-qarshi), muvashshah (bezatilgan), mustaar (ko`chma ma`noli), muxalla` (bo`rtmoq), mustaxiyot (o`zgarish), mustaviy (ravon), muzdavaj (juft), muvaana (parallel), zulqofiyatayn rajaz maqlub (qo`sh qofiyali maqtov she`ri) va Shunga o`xshashlar.

Ammo, so`zning yuksak (va ta`sirchan) bo`lishini istasang, kinoya, istehzoli gapni (ko`p) so`zlama, mumkin qadar istioralarni ishlatgil. Madhda istiorani ishlatgil. Agar, g`azal yozmoqchi bo`lsang oson, ravon va latif so`zlar bilan yozg`il va mashhur qofiyalar bilan ziynatlagil, sovuq va yoqimsiz qofiyalarni ishlatmagil, oshiqona o`z ahvolingni va go`zal (yoqimli) so`zlaringni qo`ldan bermagil va yaxshi masallarni ham qo`ldan bermagil, shunday yozsang, yuqori tabaqa hamda oddiy xalqqa ma`lum bo`ladi va sening she`ring shuhrat topadi.

Og`ir vaznda va aruzda she`r yozmagil, chunki aruz va og`ir vazn yoqimsiz qiliqli, sovuq (tabiatli), latif va nozik ma`nilardan mahrum bo`lgan odamlar uchun yaxshidir. Agar, biror kishi shunday she`rni talab qilsa, yozsang bo`ladi. Ammo, aruz, shoirlik, taxallus ilmini o`rganish bilan she`r (yozishni) o`rgangil. Agar, shoirlar orasida munozara bo`lsa, yo bir kishi sen bilan kashfiyot haqida bahslashib qolsa yoki seni imtihon qilib ko`rsa, engilib qolmagil, aruz doiralarini, ularning otlarini, doiralardan paydo bo`ladigan bahrlarning otlarini bilgil. Masalan, hazaj, ramal, hazaji makfuf, hazaji axrab, rajazi matviy, ramali majnun va mansuh, hafif, muzorei axrab, muqtazab, mutaqorib, qaribi axrab, mansuhi kabiri basit, madid, komil va vofir. Bularning monandini va bu bahrlarning barcha aruz va zarblarini bilib olgil. Madhiya, g`azal yo hajv yoki marsiya yozmoqchi bo`lsang, so`zni mukammal ishlatgil, so`zni notamom ishlatmagil. Nasrda ishlatilgan so`zni nazmda ishlatma, negaki nasr - raiyat, nazm podsho martabasidadir. Agar, bir narsa raiyatga loyiq bo`lmasa, podshoga ham loyiqemas. G`azalni go`zal va ravshan yozg`il, madh yozishda

baquvvat va balandhimmat bo`l. Har bir odamga loyiq so`zni aytgil va har bir kishining qadriga qarab she`rni bilib yozg`il. Agar, odamda qahramonlik bo`lmasa, uni shijoatli, bahodir deb maqtamagil. Agar, odam beliga pichoq taqmagan bo`lsa, unga, qilich bilan sherni o`ldirasan, nayza bilan Besutun tog`ni teshasan, o`qni chumolining ko`zidan o`tkazasan, demagil. Har odamki, otga minmagan bo`lsa, unga sening oting Duldulga, Raxshga, Buroqqa o`xshaydi, demagil. Har bir odamga munosib so`zni aytgil. Ammo, shoir madh qiluvchining tabiatini va unga qanday so`z ma`qul bo`lishini bilishi lozim. Uning xohishiga loyiq madh qilgil. Shundan keyin uning in`omidan ko`ngling xohlagancha ko`z tutgil va himmatingni past tutmagil, har bir masalada o`zingni banda va o`zgani xodim deb ko`p aytmagil, agar maqtagan kishing shu so`zga loyiq bo`lsa, aytgil. Hajv qilishni odat qilmagilki, yomon bo`ladi. Agar, she`rda yolg`on va mubolag`ani yaxshi desalar ham, yolg`onni haddan oshirib yubormagil, do`stlarning va xalqning baland martabali ekanini aytishni zarur deb bilgil. Ammo, g`azal va marsiyani bir xil uslubda, hajv va madhni ham bir xil uslubda yozmagil. Agar, hajv yozishni bilmasang, madhning teskarisini yozgilki, bu hajv bo`ladi, marsiya va g`azalni ham shunday qil. Har xil narsa yozmoqchi bo`lsang, o`z fikring bilan yozgil, boshqalarning so`zini takrorlama, agar boshqalarning so`zini takrorlasang, ko`ngling ochilmaydi, she`r maydoni senga keng bo`lmas va dastlabki she`r yozgan darajangda qolaverasan. Tabiatning ochilib, shoirlikka qodir va mohir bo`lganingdan so`ng, agar biror erdan biror ajoyib ma`nili so`z eshitsang, sen shu so`zni ma`qul ko`rsang, bu so`zni boshqa o`rinda ishlatishni istasang (shunday so`zni ishlatdim deb), takabbur bo`lib ketmagil, lekin bu so`zni ishlatmagil, agar shunday so`zlar madhda ishlatilgan bo`lsa, sen hajvda ishlatasang (ma`qul bo`ladi), g`azalda bo`lsa, marsiyada ishlatgil, chunki kishi bu so`zni qaerda ishlatilganini bilmasin. Agar, maqtovchini talab qilsang, yoki bozor ishini qilsang, qovog`ing soliq, kiyiming iflos bo`lmasin, hamma vaqt chehrang ochiq bo`lsin, kulib turgin. Nodir hikoyalarni, kulgili so`zlarni yod ol, chunki maqtovchining oldida shoirning bundan boshqa chorasi yo`qdir.

9.9.Movaraunnahrda Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma`rifat rivojiga qo`shgan hissasi.

Tayanch iboralar: Amir Temur, «Zubdat at-tavorix», Movarounnahr mamlakati, Temurning yoshlik va o`smirlik, yigitlik yillari, feodallarining o`zaro nizolari, «Amir Temur o`g`itlari» risolasi.

Amir Temur ko`ragon ibn amir Tarag'ay 1336 yilning 9 aprelida o`sha paytlardagi Kesh (Shahrisabz)ga qarashli Xojailg'or (bu qishloq hozir Yakkabog' tumaniga qaraydi) qishlog'ida tavallud topdi. Otasi Amir Tarag'ay o`ziga to`q, badavlat kishi edi. Lekin bo`lajak sohibqiron tavallud topgan paytda Qozonxon (1333—1346) huzurida kichik bir mansabga ega edi. Amirning onasi Tegina Begim Buxorolik «Sadr ash sha`ri`a-shariat» ulug'i, taniqli olim, Ubaydullohning qizi bo`lgan. O`sha paytda Kesh va unga tobe` yerlarning bekligi esa Amir Tarag'ayning og`asi Hoji Barlosning qo`lida edi.

«Zubdat at-tavorix» (Shahobiddin Abdulloh ibn Lutfulloh ibn Abdurashid-laqabi Hofizi Abdu, vafoti 830/1427 y.) da yozilishicha, shajaraning Amir Sohibqiron tarmog'i Chingizxon ajdodlaridan Tumanoyxon (Tumanxon) farzandlaridan boshlab ajraldi. Jumladan, Qobulxon Jahongir podshoh Chingizxonning 3-chi otasi va uning birodari Qachuloy no`yon esa, Amir Sohibqironning sakkizinchi otasidir.

U Barloslar qabilasining nomi ham Qachuloy no`yondan boshlangan. Chingizxon o`zining ikkinchi o`g`li Chig'atoyxonni Turkiston va Movarounnahr mamlakatlariga hukmdor qilib tayinlaganda, amir Sohibqironning beshinchi otasi Qarachor no`yon uning lashkarboshisi bo`lgan va «amir ul-umaro» («amirlar amiri») degan unvon olgan.

Keyinchalik Chig'atoy ulusida hokimiyat uchun ichki nizolar kuchayib ketganligi sababli, Qarachor no`yonning farzandlari va qavm-qarindoshlari Kesh viloyatiga kelib, o`rnashib, Shu yerda yashab qolganlar, uning avlodlari o`sha viloyatni boshqarganlar. «Zubdat at-tavorix»da Qarachor no`yonning farzandlari ko`p bo`lganligi qayd etilib, ulardan o`n to`qqiz o`g`ilning nomini, shu o`g`illardan tarqalgan keyingi avlodning mashhurroqlarini sanab, ayrimlarining shajarasi to o`zi yashab turgan davrgacha davom

ettirilgan va ularning qanday mavqeni egallab turganliklari qayd etiladi. Jumladan, Qarachor no'yonning oltinchi o'g'li Iyjlil no'yon bo'lgan va uning farzandlaridan biri Iylangiz no'yon (Ilangiz)dir. Bu no'yonning bir necha farzandlari bo'lib, ulardan biri Sohibqironning bobosi Burkul no'yondir-Uning ikki o'g'li bo'lgan: biri—Bolta, ikkinchisi Tarag'ay no'en, ya'ni Amir Temurning otasi. Tarag'ay no'yonning to'rt o'g'li va ikki qizi bor edi: o'g'illari — Amir Temur, Suyurg'atmish, Olamshayx, Jo'gi no'yon qizlari — Qutlug' Turkon og'a, Sherbik og'a. Amir Temur farzandlar orasida to'ng'ichi bo'lgan. Amir Temur yoshlikdan ilm ahliga juda katta e'tibor bergan.

Tarixlar, hikoyatlar, qissalar va rivoyatlar tinglamoqqa mayli ko'p adabiyot, san'atni, harbiy ishlarni jon-dildan sevgan, o'ta zukko, oqilu dono, fahm-farosatli, ayni chog'da dovyurak, jasur bo'lgan. Ammo, Temurning yoshlik va o'smirlik, yigitlik yillari Chig'atoy ulusi og'ir ijtimoiy-siyosiy bo'hron iskanjasiga tushib qolgan davrlarga to'g'ri keldi. Ulus ichidagi notinchlik Qozonxon davriga kelib o'zaro feodal urushlarning avj olib ketishiga olib keldi. Hokimiyat uchun kurash, ayniqsa, xon bilan uning bosh amiri (amir ul-umarosi) Qazag'on o'rtasida kuchli bo'ldi. O'zaro nifoq va kelishmovchilik urushga aylandi.

Amir Qazag'on ancha kuchli qo'shinga ega edi. Uning o'g'li Abdulloh ham yon-atrofidagi o'lkalarga hujum qilib, o'z mulkini kengaytirishga intilar edi. Jumladan, u 1353 yilda Xorazmni bosib olib, u yerda o'z hukmini joriy etadi. 1357 yilga kelib, ikkinchi mo'g'ul amiri Qutlug' Temur Bulday amir Qazaronni yasoqqa yetkazadi. Amir Qazag'on o'rniga taxtga chiqqan amir Abdulloh saroyida fisqi-fujur zo'rayadi. Natijada mo'g'ul hokimlari faqat hokimiyat, taxt talashibgina qolmay, ishratparastlik, maishatparastlik bobida ham yuz tuban keta boshlaydilar.

Mo'g'ul feodallarining o'zaro nizolari va ishratparastliklarini ko'rib, bilib turgan turkiy xalqlarning nufuzli vakillari jim turolmas edilar, albatta. Ular ham asta-sekin siyosiy kurashlarga aralasha boshladilar. 1358 yilda amir Abdulloh ibn Qazag'onga qarshi kurash boshlagan mo'g'ul amiri Bayon Sulduz yonida turkiy aholining yetakchilaridan biri amir Hoji Barlos ham bo'lganligi buniig dalil-isbotidir.

Kesh (Shahrisabz) viloyatining hokimi Amir Temurning amakisi Hoji Barlos edi. Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, Hoji Barlos

mo'g'ullarga qarshi kurashish uchun qulay imkoniyatlarni qo'ldan bermagan. Uning Bayon Sulduz bilan birlashib qilgan jangida Abdulloh ibn Qazag'on yengiladi.

Bayon Sulduz va Hoji Barlosning Shahrisabz va Qarshi hokimligini qo'lga kiritishi 1358 yillarga to'g'ri keladi. Ammo bu unchalik uzoqqa bormaydi. Mustaqillik da'vo qilayotgan barloslarni tiyib qo'yish uchun Sharqiy Turkiston xoni To'klug' Temur katta qo'shin bilan bostirib kela boshlaydi. Hoji Barlos bundan qo'rqib Xurosonga qochadi. Uni Amudaryo bo'yigacha kuzatib qo'rganlar orasida Amir Temur ham bor edi. Ammo, u o'ziga sodiq kishilar bilan iziga qaytadi. Temur ibn Tarag'ay birinchi bor ana Shu og'ir vaziyatda sinovdan o'tadi.

Hoji Barlos Xurosonga ketgan, yurt egasiz qolgan paytda Amir Temur Shahrisabz hokimiyatini o'z qo'lga oladi. Bu jasurlik va vatanparvarlik, yurtsevarlikning timsoli edi, albatta. Darhaqiqat, oriyatni qo'ldan bermaslik, og'ir paytda mardlik ko'rsatish, har qanday qo'shindan tap tortmaslik uning uchun iymon-e'tiqodga aylandi.

Tarixiy manbalarda Amir Temurning Movarounnahr taxtini rasman qo'lga olish yili sifatida 1370 yil qayd etiladi va bu muvaffaqiyat Balxda yuz berganligi aytiladi. Haqiqatda ham amir Husayn ibn Musallabni engib, qo'li baland kelgan Amir Temur jami akobirlar, qo'shin boshliqlari tomonidan Movarounnahr hukmdori deb tan olingan edi. Demak, sohibqiron o'ttiz to'rt, o'ttiz besh yoshida taxtga chiqishga erishgan.

Fosix Xavofiy o'zining «Mujmal-i Fosihiy» asarida Amir Temurning 1336—1387 yillardan tortib 1404—1405 yillargacha; bo'lgan hayot yo'li asosiy sanalarini keltiradi. Darhaqiqat, buyuk sohibqiron xususan 1370 yildan to 1404 yilga qadar 30 marta qo'shin tortgan, hamma vaqt qo'li baland kelib 27 dan ortiq mamlakat va elatlarni zabt etgan. Ha, ulug' bobomizning butun umri ot ustida, ur-surlaru kurashlarda kechgan. U umri davomida yaxshilik, ezgulikdan chekinmadi, mardlarni ulug'ladi, xoyinlarni, zolimlarni kechirmadi, ulusga zulm qiluvchi hukmdorlarni ayovsiz jazoladi, vatan xoyinlaridan nafratlandi.

«Amir Temur o'g'itlari» risolasida haqqoniy ta'kidlanganidek, Amir Temurning tarix oldidagi xizmati benihoya katta. Birinchidan, u mamlakatda kuchayib ketgan feodal tarqoqlikka barham berib, el-

yurti o'z tug'i ostiga birlashtira oldi. Markazlashgan yirik feodal davlatga asos soldi. Bu bilan ziroatchilik, hunarmandchilik, savdosotiq va madaniyat rivojiga mustahkam zamin yaratdi. Ikkinchidan, Amir Temur bir qator xalqlar va yurtlarga mustamlakachilar zulmidan ozod bo'lishda yordam berdi. Masalan, o'sha davrning eng qudratli podshohlaridan hisoblangan Boyazid Yildirimni (1389—1402) tor-mor keltirib (1402), Usmonli turklarning istibdodiga tushib qolgan «Bolqon» yarim orolidagi xalqlar va mamlakatlarga ozodlik bag'ishladi. Oltin O'rda xoni To'xtamishni (1376—1395) ikki marta (1391—1395) tor-mor keltirib, O'rusiyaning mo'g'ullar hukmronligidan qutulishini qariyb 300 yilga tezlashtirdi. Uchinchidan, Turkiston zaminini hunarmandchilik, ilm-fan va madaniyati rivojlangan ilg'or mamlakatga aylantirdi. Amir Temurning sa'y-harakati bilan obod etilgan shaharlar, kasabalar, qishloqlarni Shahrisabz, Buxoro, Yassi (Turkiston) shaharlarda qad ko'targan imoratlar, «Temur va Temuriylar davlati», «Temuriy madaniyati», «Ulug'bek va Samarqand», «Observatoriya maktabi» kabi ulug' tushunchalarni dunyoga kelish va dunyo xalqlari tarixiga oltin harflar bilan yozilishi ham Amir Temur nomi bilan bog'liqdir. Dastavval shuni aytish kerakki, Amir Temur odob-axloq, imon, e'tiqod, ta'lim-tarbiyada o'zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun bobomizning o'zi tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid dasturlar, o'gitlar, pand-nasihatlarini, shuningdek, Sohibqiron haqidagi tarixiy asarlarni ko'zdan kechirish kifoya. Bular «Tuzuki Temuriy» («Temur tuzuklari»), «Malfuzoti Temuriy» («Temuriyning aytganlari») va «Voqioti Temuriy» («Temurning boshidan kechirganlari») nomi bilan jahonga mashhur bo'lgan asarlarni XV asr muarrixi Fosih Ahmad Havofiyning «Mujmal-i Fosixiy», Nizomuddin Shomiy (tug'ilgan va vafot etgan yili ma'lum emas) va Sharafiddin Ali Yazdiylarning mashhur «Zafarnoma», ibn Arabshoh (1389—1450)ning «Ajoyib ulmaqdur fi axbori Temur» (Amir Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari), Salohiddin ibn Mullo Aloiddin hoja eshonning (Salohiddin Toshkandiy) qalamiga mansub «Temurnoma» (Amir Temur ko'ragon jangnomasi, 1908) kabilar Shular jumlasidan. Tarix fanlari doktori, professor Ashraf Ahmad Temurning o'zi amal qilgan o'n bir sifatni yuksak baholaydi.

Birinchi sifat: «Men sifatlarimning eng avvalgi deb beg'arazlikni

tushundim. Hammaga ham bir xil: **jiddiy va odil qaradim**, hech bir kimsani boshqasidan farq qilmasdim, **boyni kambag'aldan ustun qo'ymadim.**»

Ikkinchi sifat: «Men har doim **Islomga qat'iy rioya qildim** va Alloh Taoloning amri bilan ulug'langan shaxslarga hurmat bilan qaradim.»

Uchinchi sifat: «**Men kambag'allarga ko'p xayr-ehson qildim.** Har mojaro va muammoni diqqat bilan tekshirdim va uni mumkin qadar to'g'ri hal qilishga butun jahdimni sarf qildim.»

To'rtinchi sifat: «Xaloyiqqa rahm qildim, barchaga naf yetkurdim. Bunda birovga nohaq ozor yetkazmadim va mendan yordam so'rab kelganlarni ko'krigidan itarmadim. Qur'ondagi parvardigorning Allohning amriga bo'ysunish va xalqiga shafqat qilish darkor, degan oyatini o'zimga farz bilib, uqib oldim va umr bo'yi barcha yumushlarimda unga amal qildim.»

Beshinchi sifat: «Islomga taalluqli ishlarni men har doim kundalik va dunyoviy ishlardan ustun qo'yib qeldim. Avval tangri itoatini ado etib bo'lgandan keyingina kundalik ishlarga qo'l urdim.»

Oltinchi sifat: «Barcha so'zlarimda doim haqiqatgo'ylikka amal qildim. Bu dunyo va u dunyo haqidagi eshitganlarimdagi haqiqatni yolg'ondan ajrata bildim.»

Yettinchi sifat: «Men har kimgaki va'da bersam, unga vafo qildim. Hargiz va'daga xilof ish qilmadim. Men doimo va'dalarimni aniq bajarsam, shundagina odil bo'lishimni va kimsaga jabr yetkazmasligimni angladim.»

Sakkizinchi sifat: «Doimo o'zimni Allohning yerdagi mulkining posboni deb bildim va parvardigorning yoki uning noiblarining iznisiz uni sarf etmadim. Tangrining irodasiz uning bandalarining hech biriga zarar yetkazmadim. Oliy martabadagilarga ham, fuqaroga ham birdek xayriya qilishga intildim. Men hech qachon birovning mulkiga ega bo'lishga intilmadim va shuningdek hech qachon ko'proq boylik orttirishga harakat qilmadim. Hech qachon birovga hasad bilan qaramadim. Bu borada Amir Husayn bilan bo'lgan voqea menga ibratli bo'ldi. O'z fuqarolarining mol-mulkiga nisbatan ochko'zligi pirovardida uni halokatga olib keldi.»

To'qqizinchi sifat: «Men har doim tangrimning amrini uning payg'ambarlarini hadislarini to'la ado etishga intildim. Barcha qilmishlarimda shariat yo'sunlariga butkul amal qildim va nopok

ishlardan butun vujudim bilan o`zimni tiydim. Payg`ambar va uning sahobalarini o`zimning yagona va eng yaxshi do`stlarim deb bildim».

O`ninchi sifat:** «Men har doim insof bayrog`ini baland ko`tardim va iymon tarqatishni **o`z buyukligimning qudratli zamini deb bildim. Men inson bir onadan tug`ilgan deb ishonganman. Shuning uchun mustahkam qudratga tayangan qudrat buyuk bo`ladi».

**O`n birinchi sifat:** «Men doim saidlarga ehtirom bilan qarardim, ulamo va shayxlarni e`zozlardim. Bu kishilarni doimo majlislarimga chaqirardim. Ularni din masalasi yuzasidan aytganlarini diqqat bilan tinglab olardim va unga amal qilardim. Shuning uchun menga nisbatan xalqning mehri baland edi va hamma mendan minnatdor edi».

Shunday qilib, sohibqiron Amir Temurning ibratli, hayotiy pand-nasihatlari va purma`no o`gitlarining har bir mazmun va ma`no kengligi, mantiqning kuchliligi, teranligi, ta`siri, umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi, ularni hadsiz xazina, odob-axloqqa oid dasturlar deya olamiz.

Temuriylar saltanati hukmronliga davrida Movarounnahr va Xurosonda badiiy adabiyot ham yangi bosqichga ko`tarildi. Shu davrda fors-tojik adabiyoti o`zining yangi rivojlanish pog`onasiga erishgan bo`lsa, o`zbek adabiyoti Alisher Navoiy, Mavlono Lutfiy, Durbek, Hofiz Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Sayyid Qosimiy, Yaqiniy ijodlari misolida o`z taraqqiyotining eng yuksak bosqichiga ko`tarildi. Abdurahmon Jomiyning «Haft avrang», Alisher Navoiyning «Hamsa», «Xazoyin ul-maoniy» asarlari shu davr Haft avrang» («Yetti taxt») deb nom qo`yar ekan, Temuriylar sulolasidan etti shoh (Amir Temur, Xalil Sulton, Shohrux, Ulug`bek, Abulqosim Bobur, Abu Sayd, Mirzo Husayn Boyqaro)ni ko`zda tutgan bo`lsa, Navoiy o`z «Hamsa»sini yaxlit holda Husayn Boyqaroga bag`ishlagan va bu bilan har ikki muallif ham shu davr hukmdorliriga o`zlarining ma`lum ma`noda minnatdorchiliklarini namoyon etgan edilar. Temuriylar davridagi adabiy hayotning o`ziga xos xususiyatlaridan biri adabiy jarayonning yagonaligi, unda turkiy tilda ijod qiluvchilarning ham, forsiyda qalam tebratuvchilarning ham barobar va faol qatnasha olgani edi. Buni biz Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» tariqasida yaqqol ko`ramiz. Unda ijodkorlar til xususiyatlariga qarab bir-biridan ajratilmagan. Husayn Boyqaro hukmdorligi davridagi adabiy hayotga to`xtalar ekan, Zahiriddin Muhammad

Bobur "Boburnoma"da: "Shuarodin bu jam`ning saromad va sardaftari Mavloni Abdurahmon Jomiy edi", — deb yozadi. Binobarin, faqat forsiy adabiyotning emas, shu davrdagi o`zbek adabiyotining gullab-yashnashida ham Abdurahmon Jomiyning roli juda katta bo`lgan. Abdurahmon Jomiy Shohrux hukmdorligi davrida— 1414 yil 7 noyabrda Nishopur yaqinidagi Jom shahrida, ruhoniylar oilasida dunyoga keldi. Jomiyning ota-bobolari asli Dashtdan bo`lib Jomda turib qolishgan.

9.10. Mirzo Ulug`bekning pedagogik g`oyalari va ma`rifatparvarlik xizmatlari.

Tayanch iboralar: *Ulug`bek, o`zgacha yo`l tutish, Ulug`bek ixlosmandlari, insonning yodlash quvvati, mudarrislarining ilmiy ishlari, Ulug`bek va Ali Qushchi, hunarmandchilik va me`morchilikka aloqador masalalar, yulduzlar haqidagi ilm.*

Ulug`bek 1394 yilning mart oyida Eronning g`arbidagi Sultoniya shahrida bobosi Temurning harbiy yurishi paytida tug`ildi. U Shohrux mirzoning to`ng`ich o`g`li edi. Unga Muhammad Tarag`ay ismi berildi. Lekin bolaligidayoq u Ulug`bek deb atala boshlab, bu keyinchalik uning asosiy ismi bo`lib qoldi.

Ulug`bekning bolalik yillari bobosi Temurning harbiy yurishlarida o`tdi. 1405 yilning boshida Xitoyga qilinayotgan yurish boshlanishi paytida Temur vafot etadi, bundan so`ng ikki yil uning avlodlari o`rtasida taxt uchun talashish davom etdi. Kurash Temurning kenja o`g`li Shohruxning g`alabasi bilan tugaydi.

Shohrux to`ng`ich o`g`li Ulug`bekni 1411 yili Movarounnahr va Turkistonning hokimi etib tayinladi. Ulug`bek 17 yoshida hokim bo`lib, bobosidan farqli o`laroq harbiy yurishlar bilan qiziqmadi. Aksincha, u o`rta asrlardagi boshqa hokimlardan o`zgacha yo`l tutdi, ko`proq ilm-fanga moyil edi. Lekin, afsuski, Ulug`bekning boshlang`ich ma`lumoti va murabbiy hamda ustozlari haqida aniq ma`lumot saqlanmagan.

Ulug`bekning ustozlaridan biri munajjim Mavloni Ahmad ekanligini taxmin qilish mumkin, chunki bu kishi Temur saroyidagi eng yirik olimlardan bo`lib, sayyoralarning kelajak ikki yuz yillik taqvimlari jadvallarini tuza olgan. Lekin Ulug`bekning o`zi keyinchalik asosiy asari bo`lmish «Ziji»da faqat Qozizoda Rumiyni

«ustozim» deb ataydi. Ulug'bek umrining ilk davridanoq Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiy kabi falakiyotshunos va riyoziyotchilar ta'sirida ulg'ayadi. Shu sababli uning hayotida aniq fanlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ulug'bek yigirma yoshlarida o'z davrining yirik olimi sifatida shakllandi. U hokim bo'lgan paytdagi olamshumul o'zgarishlar butun o'rta asr madaniyati tarixida byetakror bo'lib qoldi.

Ulug'bek ixlosmandlaridan G'iyosiddin Jamshid Koshiy 1417 yili Samarqanddan Koshonga, otasiga yozgan maktubida Ulug'bekning faoliyati va bilimdonligini quyidagicha ta'riflaydi: «Alloha va uning ne'matlariga shukronalar bo'lsunkim, yetti iqlimning farmonbardori, islom podshohi donishmand kishidirlar. Men bu narsani odob rasmi yuzasidan aytayotganim yo'q. Haqiqat shuki, avvalo, u kishim Qur'oni karimning aksariyat qismini yoddan biladilar. Tafsirlarni va mufasssirlarning har bir oyat haqidagi so'zlarini aqlda saqlaydilar va yoddan biladilar va arabchada yaxshi yozadilar. Shuningdek, u kishim fiqhdan ancha xabardorlar, mantiq ma'nolarining bayoni va usullaridan ham xabardorlar.

U kishim riyoziyot (matematika) fanining barcha tarmoqlarini mukammal egallagan va shunday jiddiy mahorat ko'rsatganlarki, kunlardan bir kun otda ketayotib, 818 yil rajab oyining o'ninchi va o'n beshinchi kunlari orasidagi (milodiy 1415 yil 15—20 sentyabr) dushanba kuni yil mavsumining qaysi kuniga munosib kelishini aniqlashni aytadilar. Shunga ko'ra otda ketayotib, xayoliy hisob bilan Quyoshning taqvimi o'sha kuni bir daraja va ikki daqiqa ekanligini topdilar. Keyin otdan tushgach, hisob to'g'riligini bu bandai bechoradan so'rab aniqlab oldilar».

Haqiqatan ham xayoliy hisobda ko'p miqdorlarni yodda tutmoq va boshqa miqdorlarni bularga asoslanib topmoq kerak. Lekin insonning yodlash quvvati zaifdir, u daraja va daqiqalarni u qadar aniq topa olmaydi. Inson bino bo'lganidan beri shu kungacha hali hech kimsa bu qadar aniq hisoblay olmagan edi.

Ulug'bekning shaxsan o'zi ilmga qiziqqanligi va mamlakatining ravnaqini ko'zlaganligi tufayli yangi usuldagi bilim yurti — maktab va madrasalar barpo qilish qaroriga keladi. Bu juda uzoqni ko'zlab qilingan qaror bo'lib, bu bilan Ulug'bek Movarounnahrni butun musulmon mamlakatlarining ilmiy markaziga aylantirmoqchi ekanligidan dalolat berardi. Haqiqatan ham, u deyarli bir vaqtning o'zida Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda uchta madrasa barpo etadi.

Samarqanddagi madrasa qurilishi 1417 yili boshlanib, uch yilda qurilib bitiriladi. Tez orada Ulug'bek madrasaga mudarris va olimlarni to'play boshlaydi va shu tariqa uning Samarqanddagi falakiyotshunoslik maktabi shakllanadi. Bu maktabning asosiy mudarrislari ilmiy ishlariga qulay sharoit va panoj izlab Temur davridayoq Samarqandga kelgan Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiy kabi olimlar edi. Qozizodaning maslahati bilan Ulug'bek otasining mulki Xurosonning Koshon shahridan G'iyosiddin Jamshid Koshiyni chaqirtiradi. Samarqandga Movarounnahrning turli shaharlaridan va Xurosondan to'plangan olimlarning soni 1417 yilga kelib 100 nafardan ortib ketadi. Ular orasida adiblar, muarrixlar, xattotlar, rassomlar, me'morlar bor edi. Lekin yulduzshunoslik va riyoziyot sohasidagi olimlar sharafliroq va obro'liroq edi. Ular orasida Qozizoda bilan Koshiy eng salobatli va nufuzli edilar.

1420 yili Samarqand madrasasining tantanali ochilishi bo'ladi. Vosifiyning yozishicha, birinchi mudarris etib Mavlono Muhammad Havofiy tayinlanadi.

Ulug'bek barpo etgan Samarqand madrasasi va ilmiy to'garagi Sharq madaniyati va fani tarixida nihoyat ulkan ahamiyat kasb etdi, mamlakat ravnaqiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu yerda ko'plab buyuk siymolar shakllandi. Jumladan, Xurosonning Jom shahrida 1414 yili tug'ilgan bo'lajak ulkan shoir Jomiy Ulug'bekning Samarqand madrasasida tahsil ko'rdi. U bu yerda Qozizoda, Ulug'bek va Ali Qushchi kabi ulug' olimlarning ma'ruzalarini eshitdi va ularning tarbiyasida bo'ldi.

Ulug'bek atrofida to'plangan Samarqand olimlari katta ahamiyat bergan eng muhim ilmiy yo'nalishlardan biri falakiyotshunoslik fani edi. Shuni ham aytish kerakki, musulmon mamlakatlarida va umuman islom madaniyatida aniq fanlar, ayniqsa, falakiyotshunoslik va riyoziyot muhim o'rin tutadi. Chunki musulmon kishi qayerda bo'lishidan qat'i nazar erta tongdan oqshomga qadar uning uchun besh vaqt namoz farzdir. Namoz qiblaga - Makkadagi Ka'ba yo'nalishiga qarab o'qiladi. Namozning vaqtlari esa har bir jug'rofik kenglikda ham quyoshning yerdan balandligiga qarab belgilanadi. Undan tashqari, islomda qabul qilingan hijriy yil xisobi 354 kunni tashkil qiluvchi 12 qamariy oydan iborat bo'lib, yangi oy — xilolni masjid minorasidan yoki rasadxona tepasidan ko'z bilan ko'rib aniqlangan. Shuning uchun musulmon kishining hayoti

falakiyotshunoslik, riyoziyot, jug'rofiya, hunarmandchilik va me'morchilikka aloqador quyidagi masalalarni hal qilish bilan bog'liq bo'lgan:

- 1) Joyning jug'rofik yo'nalishlarini aniqlash;
- 2) Mahalliy meridian bilan qibla yo'nalishini ko'rsatuvchi katta doira orasidagi burchakni aniqlash;
- 3) Jug'rofik yo'nalishlarni hisoblash uchun aniq riyoziy (trigonometrik) hisoblash qoidalari va usullarini bilish;
- 4) Jug'rofik yo'nalish asosida Quyosh balandligini aniqlash qoidalarini bilish;
- 5) Quyosh, Oy, sayyoralar va boshqa yoritgichlarning kechakunduzning istalgan vaqtidagi holatlarini aniqlaydigan sferik astronomiyaning aniq qoidalarini bilish;
- 6) Turli shaharlar orasidagi masofalarni aniqlash uchun geodezik o'lchashlarni bajarish;
- 7) Turli vaqt o'lchash asboblari yasash;
- 8) Yerning ma'mur qismi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun haritalar tuzish;
- 9) Haritalar tuzish uchun riyoziyotga taalluqli ko'rinish holatlarini bilish;
- 10) Falakiyotshunoslik, jug'rofiya va geodeziyaga taalluqli hisoblarni bajarish uchun yuksak aniqlikdagi riyoziy hisoblash usullarini bilish;
- 11) Yoritgichlarni kuzatish obi-havo bilan bog'liq bo'lgan uchun meteorologiya va geofizikadan ma'lumotga ega bo'lish;
- 12) Masjid, madrasa va rasadxonalar barpo etish uchun me'morchilik san'ati va an'analari xabardor bo'lish.

Yuqorida ko'rsatilgan va bu ro'yxatga kirmagan boshqa ko'p masalalar shunchalik chambarchas bog'lanib ketganki, ularni hal qilish uchun olim va hunarmandlarning katta jamoa va guruhlari kerak edi. Ana shuning uchun Ulug'bek o'z atrofiga turli ilm va hunar namoyandalarini to'plagan.

Keltirilgan masalalar ro'yxatidan ko'rinib turibdiki ularning ko'pi falakiyotshunoslikka aloqador. Islomdagi eng avvalgi yulduzlar haqidagi asarlar «Zij» deb atalib, ular asosan jadvallardan iborat bo'lgan. U Ulug'bekdan avval yozilgan eng mukammal zijlar Beruniyning «Qonuni Mas'udiy»si va Nasiriddin Tusiyning 1256 yili yozib, Xulashxonga taqdim etgan «Ziji elxoni» asari edi. XV asr

boshlarida yozilib Shohruxga atalgan Jamshid Koshiyning «Ziji Haqoniy» asari asosan xitoy va mo'g'ul an'analariga asoslangan bo'lib, islom mamlakatlari uchun deyarli ahamiyatga ega emas va ilmiy jihatdan ham aytgulik emas edi. Movarounnahrda esa mo'g'ul istilosidan keyin birorta zij yozilmagan edi. Ana shu sabablarga ko'ra Ulug'bek eng avvalo yulduzlar haqidagi ilmni yo'lga qo'yishga intiladi. Buning uchun rasadxona barpo etish kerak edi. Bu haqda Abdutohirxo'ja bunday xabar qiladi:

«Madrasaga asos solinganidan to'rt yil keyin Mirzo Ulug'bek Qozizoda Rumiy, Mavlono G'iyosiddin Jamshid va Mavlono Muiniddin Koshoniylar bilan maslahatlashib, Ko'hak tepaligida Obi Rahmat arig'ining bo'yida rasadxona binosini qurdiradi. Uning atrofida esa baland xujralar barpo etadi».

Rasadxona qurilishi 1420 yildan 1429 yilgacha davom etadi. Rasadxona bitishi bilan falakiyot kuzatishlari boshlanib ketadi. Rasadxona bilan madrasaning birgalikdagi faoliyati Ulug'bek ilmiy maktabida yulduz ilmi va riyoziyotni o'rta asrlar davrida eng yuqori pog'onaga ko'tardi.

Davlat ishlari bilan bog'liq bo'lgan yurish-ko'chishlar, rasadxonadagi kuzatishlar va madrasadagi darslar, ilmiy ishlarga umumiy rahbarlik qilish ham Ulug'bekning ko'p vaqtini olardi. Shuning uchun bo'lsa kerak, uning qalamiga mansub bo'lgan ilmiy asarlar son jihatidan ko'p emas-ular to'rtta.

Ulug'bek ilmiy merosining eng asosiysi, ma'lum va mashhuri uning «Ziji» bo'lib, bu asar «Ziji Ulug'bek»dir. «Ziji jadidi Ko'ragoniy» deb ham ataladi. «Ziji»dan tashqari uning qalamiga mansub riyoziyot asari — «Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola», yulduzlarga bag'ishlangan «Risolayi Ulug'bek (yagona nusxasi Hindistonda Aligarh universiteti kutubxonasida saqlanadi) va tarixga doir «Tarixi arba' ulus» asaridir.

Ulug'bek «Ziji» o'z tarkibiga ko'ra VIII—IX aslarda boshlangan yulduzshunoslik an'anasini davom ettirsa-da, ilmiy pog'onasi ularga nisbatan baland.

Bu asar muqaddima va to'rt maqoladan iborat. Muqaddimaning boshida Qur'ondan yulduzlar va sayyoralarga taalluqli oyatlar keltiriladi. Ulug'bek bu bilan yulduzlarni kuzatish zarurligini g'oyaviy asoslamochi bo'ladi.

Ulug'bek «Ziji» o'rta asrlardagi eng mukammal asar bo'lib, tezda

zamondoshlarining diqqatini o'ziga jalb etdi. eng avval bu asar Samarqandda Ulug'bek atrofida to'plangan olimlar ijodiga katta ta'sir ko'rsatdi. «Ziji»da hech qanday nazariy dasturlar bayon etilmaydi va teoremlar isbotlanmaydi, balki nazariy mavqe'dagi jumlar qoida tarzida bayon qilinadi. Shuningdek, muhim ahamiyatga ega bo'lgan miqdorlar va parametrlar «biz shunday topdik» degan ibora bilan hisobsiz va isbotsiz keltiriladi. «Ziji»ni o'rganish shuni ko'rsatadiki, u faqat amaliy qo'llanishga mo'ljallangan bo'lib, nazariy masalalarni bayon etishni Ulug'bek oldiga maqsad qilib qo'ymagan. Shuning uchun bo'lsa kerak, «Zij»ni birinchi bo'lib Samarqand olimlarining o'zi, xususan Ali Qushchi sharhlaydi. Undan keyingi sharhlarni Mirim Chalqabiy va Husayn Birjandiylar yozadi.

1449 yili Ulug'bekning fojiali halokatidan so'ng Samarqand olimlari asta-sekin Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bo'ylab tarqalib ketadilar. Ular o'zlari borgan erlarga Samarqand olimlarining yutuqlarini va «Zij»ning nusxalarini ham yetkazadilar. Jumladan, Ali Qushchi 1473 yili Istambulga borib, u yerda rasadxona quradi. Shu tariqa Ulug'bek «Ziji» Turkiyada tarqaladi va Turkiya orqali Ovrupo mamlakatlariga ham etib boradi.

Hozirgi kundagi ma'lumotlarga ko'ra «Zij»ning 120 ga yaqin forsiy va 15 dan ortiq arabiy nusxasi mavjud. O'rta asrlarda yozilgan hech bir astronomik yoki riyoziy asar bunchalik ommalashmagan. «Zij» musulmon mamlakatlarining deyarli barchasida o'rganilgan. Uni sharhlagan olimlardan quyidagilarning nomlarini eslatish mumkin: Shamsiddin Muhammad ibni Abul Fath as-So'fiy al-Misriy (vaf.tax. 1495), Abdulqodir ibni Ro'yoniy Lahitiy (vaf. 1519), Mirim Chalabiy (vaf. 1525), G'iyosiddin Sheroziy (vaf. 1542).

Ulug'bek «Ziji», ayniqsa, Hindiston olimlariga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Samarqand olimlarining ilmiy an'alarini Hindistonga Boburning o'zi yetkazgan degan ma'lumot bor. Boburning vorislari o'tmishdagi shohlarga o'xshab atrofiga olimlarni to'playdilar va ularning ilmiy izlanishlariga sharoit yaratadilar. Hind olimlari ko'p jihatdan Samarqand olimlariga taqlid qiladilar. Masalan, Shoh Jahonni Avval zamonida Lahor va Dehlida ishlagan Farididdin Mas'ud ad-Dehlaviy (vaf.1629) «Ziji Shoh Jahoniy» nomli asar yozadi: undagi maqola va boblarning soni xuddi Ulug'bek «Ziji»dagidek va jadvallarning ham ko'p qismi Ulug'bekdan olingan. Yirik hind olimi Savay Jay Sinx (1686—1743) ham o'zining «Ziji Muhammadshohiy»

nomli asarini Ulug'bek «Ziji»ning kuchli ta'sirida yozgan.

«Zij»ning G'arbiy Ovrupo faniga ham ta'siri katta bo'ldi. Umuman olganda, G'arbiy Ovrupo Temur va uning farzandlarini, ayniqsa Ulug'bekni XV asrdanoq bilardi. Ali Qushchining Istambuldagi faoliyati tufayli Ulug'bekning olimligi haqidagi xabar ham Ovrupoga tarqaladi.

1638 yili Istambulga ingliz olimi va sharqshunosi, Oksford dorilfununining professori Jo'n Grivs (1602—1652) keladi. Qaytishida u o'zi bilan Ulug'bek «Ziji»ning bir nusxasini Angliyaga olib ketadi. 1648 yili avval «Zij»dagi 98 yulduz jadvalini chop etadi. O'sha yilning o'zida Grivs «Ziji»dagi jug'rofik jadvalni ham nashr etadi. 1950 yili esa u «Zij» birinchi maqolasining lotincha tarjimasini nashr etadi. Grivs 1652 yili mazkur oxirgi ikki ishni qayta nashr etadi.

Yana bir ingliz olimi va sharqshunosi To'mas Hayd (1636—1703) «Zij»dagi turg'un yulduzlar jadvalini 1665 yili forscha va lotinchada chop etadi. Shunisi diqqatga sazovorki, Hayd Grivsnings ishlaridan butunlay bexabar edi. Demak, «Zij»ning nusxalari qandaydir yo'llar bilan unga ham etib kelgan.

Haydning nashridan 15 yil keyin polyak olimi Yan Geveliy (1611—1687) Dansigda «Zij»ning ayrim jadvallarini nashr etadi. Bundan keyin XVIII va XIX asrlarda qator Ovrupo olimlari «Zij»ning ayrim qismlarini nashr etgan bo'lsalar, fransuz sharqshunosi L.A.Sediyo (1808—1876) to'rt maqolalari oldidagi so'zboshilari va muqaddimasining fransuzcha tarjimasini 1847—1853 yillar chop qiladi. Nihoyat, XX asr boshlarida amerikalik olim E.B.Nobel «Zij»ning Angliya kutubxonalarida saqlanadigan yigirma sakkiz qo'lyozmasi asosida yulduzlar jadvalining inglizcha tarjimasini nashr etadi (Vashington, 1917).

9.11.Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari.

***Tayanch iboralar:** Zahiriddin Muhammad Bobur, davlatni boshqarish, markazlashgan kuchli davlat, «Boburnoma», insonparvar shoir.*

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483—1530) o'zbek xalqining yirik mutafakkiri, davlat arbobi, o'zbek mumtoz adabiyotining ko'zga ko'ringan vakili, tarixchi olim, shoir va tarjimondir. U temuriylar

avlodidan bo'lib, Hindistonda «Buyuk mo'g'ullar imperiyasi» deb nom olgan davlatning asoschisi hisoblanadi.

Bobur Andijonda tug'ildi. Uning bolalik yillari mana shu yerda o'tdi. Uning otasi Umar Shayx temuriylar sulolasiga mansub bo'lib, o'sha davrda Farg'ona viloyatida hokimlik qilar edi. Bobur saroy muhitida tarbiyalanadi, yoshligidanoq ilm-fanga mehr qo'ydi, ayniqsa, adabiyot va tarix bilan qiziq boshladi.

Umar Shayx vafotidan keyin Bobur 12 yoshda taxtga o'tirib davlatni boshqarish ishi bilan shug'ullana boshlaydi.

Bobur yashagan davr murakkab voqealarga boy bo'lib, taxt uchun kurashlar avjiga chiqqan edi. U davlatni markazlashtirish va kuchli davlat tuzish maqsadida Samarqandga yurish qiladi va bir necha urinishlardan so'ng 1498 yilda Samarqandni egallaydi. Lekin, 100 kundan keyin uni tashlab, unga qarshi ko'tarilgan g'alayonni bostirish uchun Andijonga ketishga majbur bo'ladi. Bobur Andijonni qo'lga kiritish uchun katta kuch sarfladi va uni 2 yildan keyingina egalladi. Shundan so'ng u katta kuch to'plab, yana Samarqandga yurish qiladi va ikkinchi marta oladi. Lekin bu vaqtda, ya'ni 1500 yilda Samarqandga Shayboniyxon katta kuch bilan bostirib kiradi.

Natijada, Bobur o'z askarlari bilan Samarqandni tashlab chiqib ketishga majbur bo'ladi. Bobur Samarqandni olish uchun yana bir necha marta harakat qilib, Shayboniyxon bilan jang qiladi, lekin istagan natijaga erisha olmaydi. Oxiri 1504 yilda u 300 dan ortiq navkari bilan Qobulga qarab yo'l oladi.

XVI asr boshlarida Afg'oniston tarqoq holda edi. Bobur turk va afg'on qabilalarini o'ziga bo'ysundirib, Qobul, G'azni shaharlarini qo'lga kiritib, 1503 yilda o'zini shu yerning hokimi deb e'lon qiladi.

Umuman olganda, Bobur va uning o'g'li Afg'onistonda 1504 yildan to 1526 yilgacha podshohlik qiladi. Mana shu davr ichida u tarqoq qabilalarni birlashtirdi, mamlakatni iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamladi. Bobur mamlakat obodonchiligiga, ilm-fan rivojiga katta e'tibor berdi, o'zi ham ruboiy va g'azallar bitdi.

Bobur o'zining tobora mustahkamlanib borayotgan davlatini kengaytirish maqsadida 1525 yil Dehli tomon yurish qiladi. U 1526 yil 21 aprelida Panipat jangida Dehli sultoni Ibrohim Lo'di boshchilik qilgan qo'shinni yengib, Dehlini egalladi.

Bobur Hindistonga, shubhasiz, bosqinchi sifatida kirib keldi. Bobur Sharqdagi boshqa feodal hukmdorlaridan kam farq qilar edi.

Lekin Boburning keyingi faoliyati, uning iqtisod, madaniyat, ilm-fan, ma`rifatparvarlik sohasida qilgan ishlari Hindiston tarixida ijobiy rol o`ynadi.

Bobur bu yerda markazlashgan kuchli davlat barpo qildi. Uning davrida Hindistonning qo`shni mamlakatlari, xususan, Rossiya va Markaziy Osiyo bilan aloqasi kuchaydi. U mamlakat obodonchiligiga katta e`tibor berdi, shaharlarni obod qildi, sug`orish inshootlari qurdirdi, bog`lar barpo etdi.

Bobur ilm-fanni rivojlantirishga, olim va shoirlarga homiylik qilishga intildi.

U 1530 yilda Agrada vafot qildi. Keyinchalik uning xoki Qobulga keltirib dafn etildi.

Bobur o`zbek adabiyoti, tarixi, geografiyasi, falsafasiga katta hissa qo`shgan mutafakkirdir. U yoshligidan boshlab ijod bilan shug`ullandi, lirik she`rlar yozadi. Lekin uni butun jahonga tanitgan asari «Boburnoma»dir. «Boburnoma» juda qimmatli adabiy-tarixiy asar bo`lib, u XV asr oxiri va XVI asrning 30-yillarigacha bo`lgan murakkab tarixiy voqealarni o`z ichiga oladi. Bobur bu asarda Movarounnahr, Afg`oniston, Xuroson va Hindistondagi siyosiy voqealarga batafsil to`xtaladi. Unda o`zaro urushlar, taxt uchun kurashlar, xalqning ahvolini yomonlashuvi va boshqa voqealar bayon qilinadi. Shuningdek, Bobur Andijon, Samarqand, Qobul va Dehlidagi o`z faoliyatiga ham to`xtaladi. «Boburnoma» asari geografiya haqida ham qimmatli ma`lumot beradi. Adib ushbu asarda «shuncha ko`p geografik nomlar, kishilar nomi, hayvonot va o`simliklar nomini keltiradiki, bularning hammasi uning noyob xotira quvvatiga ega bo`lganini isbot qiladi. Bobur chet el tillaridagi kishi va geografik nomlarni mumkin qadar aslida qanday bo`lsa, shunday berishga harakat qiladi». (O`zbek ensiklopediyasi, 2-jild, Toshkent, 1972, 296-bet).

Yuqoridagi asardan tashqari, Bobur aruz vazni va qofiyaga bag`ishlangan «Mufassal» nomli asar yozgan, huquqshunoslikka oid uning «Mubayyin» risolasi ham ma`lum, musiqaga bag`ishlangan «Musiqiy ilmi» nomli kitob ham bitgan. Shuningdek, Bobur Xo`ja Ahrorning «Validiya» risolasini fors-tojik tilidan o`zbek tiliga tarjima qilgan.

Bobur g`azal, ruboiy, masnaviy va boshqa janrdagi she`rlarida o`z o`tmishdoshlari Umar Xayyom, Hofiz, Navoiylarning eng yaxshi

an`analarini davom ettirdi.

U insonparvar shoir bo`lib, inson va uning erkini, baxtini kuyladi, ishq-muhabbat, vafodorlik, mehru shafqat haqida so`z yuritadi.

Bobur ma`rifatni xalq orasiga yoyishga, ilm va jamiyat ravnaqi yo`lida xizmat qildirishga intildi.

9.12.Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari. Uning maktab va madrasalar rivojiga qo`shgan hissasi.

Tayanch iboralar: *Nizomiddin Alisher Navoiy, feodallar yuritayotgan kuch, hukmronlikni tanqid, ma`lumot va tarbiya berish, o`z xalqining tarixini bilish, pedagog—mudarris.*

O`zbek adabiyotining asoschisi, shoir, olim, ma`rifatparvar, faylasuf, musiqashunos, davlat arbobi Nizomiddin Alisher Navoiy (1441—1501) Hirotida tug`ilib, shu yerda yashab ulg`aydi. U turk va fors tillarida ijod qilgan. Navoiy o`ttizga yaqin she`rlar to`plami, yirik-yirik dostonlar va risolalarning muallifidir. Uning besh dostonidan iborat «Hamsa»si butun dunyoga mashhurdir: «Hayrat ul-abror» (1483), «Farhod va Shirin» (1484), «Layli va Majnun» (1484), «Sab`ai sayyor» (1484), «Saddi Iskandariy» (1485). Uning qalamiga doir «Xazoyin ul-maoniy» (1491—1498), «Badoyi ul-bidoya» (1500), «Muhokamat ul-lug`atayn» (1499) kabi asarlari mavjud.

Alisher Navoiy barcha asarlarida feodallar yuritayotgan kuch va hukmronlikni tanqid qiladi. Uning fikricha mamlakatda ma`rifatchilik, insonparvarlik va adolatlilik hukm surishi zarur. Uning she`riy to`plamlari va boshqa asarlarida ta`lim-tarbiya masalalariga ham alohida o`rin berilgan. Navoiy ta`kidlashicha, yer kurrasida yashayotgan barcha insonlar millatidan qat`i nazar tengdir. U insonlar hayot mazmunini faqat mehnat tashkil etadi, deydi.

Alisher Navoiy inson tafakkuri, aqli, bilimni va ilmiy bilimlarini yuksak qadrlagan. U «Bilim va donishmandlik insonning bezagidir»-deb yozadi. A. Navoiy bola tarbiyasiga va uni shaxs sifatida shakllantirishga katta ahamiyat berib, bolani hayot «chirog`i» deb ta`riflaydi. Bola oilaga baxt va saodat keltiruvchi ziyodir.

Alisher Navoiy bolalarga kichik yoshligidanoq bilim, ma`lumot va tarbiya berishlikni ko`rsatib, o`g`il-qizlarni 6 yoshdan tarbiyachiga

muallimga berish lozimligini aytadi. Ana shu yoshlar ilk yoshidayoq fanlarni va hunarlarni egallab olmoqligi lozimligini ta'kidladi.

Shoir, eng avvalo, har bir kishi o'z xalqining tarixini bilishi shartligiga ahamiyat berib, uni chuqurroq o'rganishga da'vat etadi. Buyuk shoir har bir xalqning tarixi mamlakatni har ob ahvolga solgan nimayu, uning ravnaq topishiga imkon bergan nima shuni ko'rsatib bermog'i lozim, deydi.

Alisher Navoiy pedagog-mudarris. U ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko'rsatadi. U ta'limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi talablarni asos qilib oladi. O'z davridagi musulmon maktablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi. U o'qituvchi haqida gapirar ekan, muallim o'z shogirdlarini ham, o'zi ta'lim berayotgan fanni ham sevgan bo'lishi zarur, deydi. O'ziga ham, o'quvchiga ham talabchan bo'lishni uqtiradi. Navoiy o'qituvchini jamiyatning obro'li va hurmatga loyiq inson deb bilib, shogirdlar muallimni vatandek hurmat qilishlarini, e'zozlashlarini uqtiradi. Uning asarlarida axloqiy va mehnat tarbiyasiga doir qarashlari asosiy o'rinni tashkil etadi.

9.13. Abdurahmon Jomiyning pedagogik qarashlari.

***Tayanch iboralar:** Abdurahmon Jomiy, o'tkir zehnli Jomiy, tasavvuf yo'liga kirish, Jomiyning hayriya ishi, sharq adabiyotidagi hamsachilik an'analari, nazariy qo'llanma.*

Abdurahmon Jomiy (1414-1492). Bobosi Mavlono Muhammad va otasi Nizomiddin Ahmad singari Abdurahmon ham qo'liga qalam olib, she'r yoza boshlagan vaqtdan boshlab o'z tavallud topgan shahri nomini o'ziga adabiy taxallus qilib olgan (Ba'zi olimlarning fikricha, "Jom" so'zi "idish" ma'nosida tasavvufiy tushunchani ham bildiradi. Sharqdagi adabiy an'anaga ko'ra adabiy taxallus ko'p ma'noli bo'lishi ma'qul ko'rilgan).

U asosiy umrini Hirotida o'tkazdi va Shu erda mashhur shoir va mutafakkir bo'lib yetishdi. Bolalik chog'idayoq Jomiy zehnining o'tkirligi bilan ajralib turgan. Boshlang'ich ma'lumotni u otasidan olgan. Oilaning Hirotga ko'chishi, otasining bu erda shayx ul-islom

mansabiga tayinlanishi Jomiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Hirotda uning o'qishiga Xoja Alouddin Ali Samarqandiy, Shahobiddin Muhammad Jojarmiy kabi mashhur mualliflar o'z hissalarini qo'shdilar. Natijada u arab tili, ilohiyot, tasavvuf, she'r qoidalari, adabiyot tarixi va boshqa fanlarning asoslarini juda erta o'zlashtira boshladi.

Jomiy turli fanlar bo'yicha o'z tahsilini Samarqandda nihoyasiga yetkazishni ixtiyor qilar ekan, u Ulug'bek madrasasida Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi allomalarning ma'ruzalarini eshitish sharafiga muyassar bo'ldi. U fiqhshunos olim, arab tili, "Qur'on", hadislar bo'yicha mutaxassis Fazlulloh Abullaysdan ham ko'p dars oldi.

Hirotda Jomiy tasavvuf yo'lga kirishni, o'z bilim va faoliyatini shu yo'lga, qolaversa ijodga, ilm-fanga bag'ishlashni afzal ko'radi. Yosh Jomiy Shayx Sa'driddin Koshg'ariy bilan yaqinlashib, unga qo'l beradi va tez orada uning hurmatini qozonadi. Jomiy pirining qiziga uylanadi. Sa'driddin Koshg'ariy tasavvufda Muhammad Naqshband sulukiga mansub edi. 1469 yili Sulton Husayn Boyqaro Hirot taxtiga o'ltiradi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, 1476-77 yillar orasida u o'z do'sti va vaziri Alisher Navoiy bilan Jomiyning o'ziga pir va ustoz deb taniydi. Bu Jomiy hayoti va faoliyatida katta voqea bo'ldi. Jomiy kundalik hayotda oddiy, darvishona yashasa ham, biroq shoh va unga aloqador kishilarning, hatto uni asarlari orqali tanigan boshqa mamlakat podshohlarining unga muruvvati katta edi. Shuning uchun u o'ziga tushgan daromadlar hisobiga bir qancha binoyi hayriyalar, Shu jumladan Hirotda ikki madrasa va xonadon, tug'ilgan shahari — Jomda bir masjid qurish imkoniga ega bo'lgan. Uning Shamsiddin Muhammad ismli ukasi bo'lib, u katta tabib, olim va sozanda bo'lib yetishgani ma'lum.

XV asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy va adabiy hayotda yuz bergan ibratli hodisatardan biri Navoiy — Jomiy munosabatlaridir. Bu ikki buyuk zot ijod sohasida xalqparvarlik va insonparvarlik mavqeida turish bilan birga xalq, davlat ishlarida insof va adolatni yoqlar edilar. Jomiyning "Nafahot ul-uns", Lujjat ul-asror", Ashiat ul-lamaot", "Riso-lai musiqiy", "Risolai muammo" kabi bir qancha asarlari Navoiyning maslahati va iltimosi bilan yozilgan. Jomiy o'z lirik she'rlarini yig'ib, devon tuzmoqchi bo'lganda, Navoiy

maslahati bilan uchta devon tuzadi va devonlarning birinchisiga "Fotihat ush-shabob", ikkinchisiga "Vositat ul-ishq", uchinchisiga "Xotimat ul-hayot" deb nom qo'yadi.

1480 yildan 1485 yilning oxiriga qadar Jomiy o'zining buyuk "Haft avrang"i tarkibiga kirgan dostonlarini yaratish ustida ish olib bordi. Sharq adabiyotidagi hamsachilik an'analari asosida yozilgan bu dostonlardan "Silsilat uz-zahab", "Tuhfat ul-ahror", "Suhbat ul-abror" g'oyaviy tematik jihatdan falsafiy-axloqiy yo'nalishda, janr e'tibori bilan pandnoma tipida bo'lib, o'z davrining eng dolzarb masalalariga bag'ishlangan edi.

Jomiy bir necha marotaba haj qilgan, haj safari davomida Nishopur, Bastom, Domg'on, Qazvin, Hamadon, Karbalo, Bag'dod, Damashq, Halab, Tabriz kabi shaharlarni ko'rgan, bu shaharlarda yuksak izzat-hurmatga sazovor bo'lgan. Uning shaxsiy maktublaridan ma'lum bo'lishicha, u yaqin do'sti Xoja Ahror taklifi bilan Toshkentda ham bo'lgan va ulug' mazoratlarni ziyorat qilgan.

Abduraxmon Jomiy 1492 yili shamollash natijasvda xastalanib, 78 yoshida hayot bilan vidolashgan. Uning dafn marosimini Navoiy boshqarib, podshoh Husayn Boyqaro esa mamlakatda bir yil motam e'lon qildi. Unga atab ko'pgina shoirlar, Shu jumladan Navoiy ham, qayg'uli marsiyalar bitishdi. Navoiy marsiyasida Jomiy vafotining tarixi "Kashfi asrori iloh" ("Iloxiy sirlar kashfi") degan so'zlardan (hijriy 898, melodiyl 1492 yil) chiqarilgan edi.

Abdurahmon Jomiy g'oyat sermahsul ijodkor bo'lib, undan bizga adabiyotning turli janrlariga, fan va san'atning rang-barang sohalariga oid boy meros qolgan. Jomiy asarlari o'z davridayoq Xuroson va Movarounnahr doirasidagina emas, boshqa mamlakatlarga ham keng tarqalgan edi. Ba'zan qo'shni mamlakat podshohlari, masalan, Sulton Ya'qub uning asarlarini so'rab maxsus elchilar yuborgan. Uning asarlari o'z davrida va undan keyin ham ko'p qo'lyozma nusxalarda ko'chirilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Qo'lyozmalar instituti fondlarida Jomiy asarlarining XV — XVI asrlarda ko'chirilgan o'nlab qo'lyozmalarini uchratish mumkin.

Bunday qo'lyozmalar Rusiya, Afg'oniston, Eron va Ovroqa mamlakatlaridagi boshqa qo'lyozma fondlarida ham uchraydi. Taniqli sharqshunos E. E. Bertel's "Jomiy" monografiyasida shoir asarlarining

Toshkent kullieti (O`zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Qo`lyozma inv. №2122) asosida 52 asarining nomini keltiradi.

Jomiy asarlarining bir qismi diniy va falsafiy mazmunga ega bo`lib, ularda shoir Islom dini va Sharq falsafasining bir qator masalalarini o`z qarashicha talqin qiladi, tasavvufning XV asrdagi eng yirik arbobi sifatida o`z fikr-mulohazalarini bayon etadi.

Bunga uning "Naqshi fusus" ("Ma`nolar naqshi"), "Shavohidi nubuvva" ("Payg`ambarlikka dalillar"), "Sharhi qasidayi "Toiya" (Radifda "to" harfidan foydalanib yozilgan qasida sharhi"), "Naqdi nus" ("Matnni tanqid"), "Sharhi qasidayi "Hamriya" ("Hamriya" qasidasi sharhi), "Naqshbandiy ta`limoti haqida risola", "Vohid" atamasi haqida risola", "Zikr" shartlari haqida risola", "Haj qilish yo`llari haqida risola", "Ashiot ul-lamaot" kabi bir qancha asarlarini shu guruhga kiritish mumkin.

Jomiyning "Risolayi aruz", "Risolayi muammoyi kabir", "Risolayi muammoyi sag`ir", Risolayi muammoyi mutavvassit", "Risolayi muammoyi manzum", "Sharhi bayti Masnaviy, "Sharhi bayti Xusrav", "Sharhi rubbiyot", "Risolayi qofiya" kabi asarlari Sharq adabiyoti tarixini, uning vazn, qofiya va she`r turlari bilan bog`liq nazariy masalalarini o`rganishda hozirgi kunga qadar o`z ahamiyatini yo`qotmagan.

Olimning faqat muammo haqidagina 4 ta nazariy qo`llanma yaratgani yoki ulug` salafлари asarlarining murakkab bir baytini izohlash, tasavvufning biron atamasini yoritish uchun maxsus risolalar yozgani uning adabiyot tarixini o`rganishga juda katta ahamiyat berganini, o`zi bu sohalarning haqiqiy donishmandi bo`lganini ko`rsatadi.

Bundan tashqari Jomiy o`z davrining eng buyuk tilshunosi ham edi. U fors tili grammatikasi bo`yicha maxsus she`riy va nasriy qo`llanma yozgan. Arab tilini esa o`z ona tilidek bilgan edi. U vaqtda arab tili mashhur xorazmlik tilshunos olim Ibn Hojibning (1175—1249) "Al-Qofiya" kitobi bo`yicha o`rganilardi.

Shoirning suyuqli farzandi Ziyovuddin arab tilini Shu darslik bo`yicha o`qir ekan, darsni o`zlashtirishda katta qiyinchilik sezadi. Shunda Jomiy uning ahvolini tushunib, 1492 yili, ya`ni umrining oxirlarida "Al-Qofiya"ga maxsus sharh yozadi. Shundan so`ng Ibn

Hojibning asari maktab va madrasalarda shu sharh yordamida o`qitiladigan bo`ladi. Jomiy "Sharhi" esa "Sharhi Mullo" nomi bilan Shuhrat qozonadi.

Uning aruz bilan bir qatorda musiqa nazariyasi haqida "Risolayi musiqiy" asarini yozishi shu davr madaniy hayotida katta voqea bo`ldi. Jomiy o`z risolasida Abu Nasr Farobiyning ko`p jiddlik "Musiqa haqida katta kitob" asaridagi g`oyalarni yanada rivojlantirdi, musiqani tovushlarning o`zaro ohangdoshlik (ta`lif) va noohangdoshlik (manofarat) nuqtai nazaridan o`rganuvchi, yangi kuy yaratish uchun ular orasidagi oralik (ozmina)larni tekshiruvchi fan deb xarakterladi.

XV asr adabiy hayotida she`riy asarlar bilan bir qatorda nasrni rivojlantirishga ham ahamiyat berilar edi. Shayx Sa`diyning "Guliston" nomli mashhur hikoyalar to`plamini g`oyat sevgan va uni "jannatdan nishon, hashak-tikoni ham an bargadir jon" deb ta`riflagan Jomiy 1486—87 yillarda shu asarga javoban "Bahoriston" degan asarini yaratdi.

Lekin, Jomiy ijodining eng katta qismini, hech shubhasiz, uning she`riyati tashkil etadi. 1490 yilning boshida u o`z she`rlaridan 3 ta devon tuzgan bo`lib, bu devonlar 1805 g`azal va boshqa she`r turlarini o`z ichiga olgandir. Bu devonlardagi deyarli barcha she`rlar shoirning lirik she`rlar sohasidagi yuksak iste`dodidan darak beradi.

9.14. Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari. “Axloqiy Jaloliy” asarining pedagogik fikrlar rivojidagi o`rni.

***Tayanch iboralar:** Jaloliddin Davoniy, Markaziy Osiyo olimlari va shoirlarining ijodi, ilmiy- madaniy meros, "Axloqi jaloliy" asari, Davoniyning ijtimoiy qarashlari, Davoniy axloq va ta`lim-tarbiya haqida.*

Keyinchalik, u Sheroz shahrining qozisi etib tayinlanadi. Qozilikdan iste`foga chiqqandan so`ng madrasada mudarrislik qiladi. Keyinchalik yana o`z qishlog`iga qaytib, umrining oxirigacha (1502) ilmiy ish bilan shug`ullanadi. U Davon qishlog`ida dafn etilgan.

Manbalardan ma`lumki, Jaloliddin Davoniy Markaziy Osiyo olimlari va shoirlarining ijodi va dunyoqarashi bilan yaxshi tanish bo`lgan. U Farobiy, ibn Sino, Nasiriddin Tusiyning ilmiy merosi,

asarlarini qunt bilan o`rgangan, ularning ilmiy va insonparvarlik g`oyalaridan xabardor bo`lgan. Xususan, u Hirot, Vizantiya (Rum), Ozarbayjon, Kermon, Xurmuz, Tabariston, Xuroson, Jurjon mutafakkirlari bilan aloqa qilgan.

Muhammad Ali Tabriziyning ta`kidlashicha, Davoniy o`z risolalarini bitishda "Vizantiya, Xuroson, Turkiston olimlari hamda Sulton Abu Sayd Temuriy davrida yashagan mashhur mutafakkirlarning asarlaridan foydalangan". (Muhammad Ali Tabriziy. Rayxonat ul-adab. Tehron, 1949, 3-tom). Davoniy Hirotida uzoq vaqt bo`lib, u yerdagi olimlar bilan yaqindan muloqotda bo`lib, Abdurahmon Jomiy va boshqa olim, fozillar bilan uchrashadi. Sherozga qaytib kelgandan so`ng esa Jomiy bilan muttasil yozishib turadi. Shuningdek, Davoniy Ali Qushchi va uning risolalari bilan ham tanish bo`lganligini hisobga olsak, Davoniyning falsafiy va ijtimoiy qarashining shakllanishida Yaqin va O`rta Sharqning ilmiy, madaniy merosini o`rganishi hamda qo`shni mamlakatlar, ayniqsa, Movarounnahrning mashhur olimlari bilan aloqa qilishi muhim rol o`ynadi.

U salaflarining asarlarini tartib qilish bilan cheklanib qolmasdan, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining madaniy, ilmiy va falsafiy an`analarini davom ettirdi. Bulardan tashqari, u qadimgi Yunon va Markaziy Osiyo mutafakkirlari Arastu, Aflotun, Farobiy, ibn Sino, Nasiriddin Tusiy va boshqalarning asarlarini yaxshi bilar, hatto ularning ba`zi risolalariga sharhlar ham bitgan. U qadimgi olimlar risolalaridagi murakkab va tushunilishi qiyin bo`lgan muammolarni sharhlash bilan birga ular hal qila olmagan botiniy va zohiriy ilmlar va mushkul masalalarni yecha olar edi. Davoniyning ilmiy merosi boydir. U falsafa, mantiq, fiqh, axloqshunoslik, riyoziyot va geometriya sohalari bo`yicha risolalar yozgan. O`sha davrda uning asarlari olimlar orasida keng tarqalgan bo`lib, ular ko`p fanlar bo`yicha rasmiy qo`llanma vazifasini o`tagan. Uning "Risolayi isboti vojib" ("Zaruriyatning isboti haqidagi risola"), "Risolat ul-xuruf" ("Harflar haqida risola"), "Risolayi fitavjix ul-tashbix" ("Majoz talqini haqida risola") , "Risola dar ilm ul-nafs" ("Ruhshunoslik haqida risola"), "Tariqati tarbiyat ul-avlod" ("Bolalarni tarbiyalash usuli"), "Arznoma" ("Armiyani boshqarish prinsipi") va boshqa asarlari ma`lum. Davoniy ilmiy ishlardan tashqari Navoiy singari "Foniy" taxallusi bilan she`rlar

yozgan. Uning sheʼrlari Eron va Iroqda chop etilgan. Davoniy Movarounnahr va Xurosondagi madaniy yutuqlardan oʻz ijodida keng foydalanishga harakat qilganligi bois, uning asarlari Xuroson va Movarounnahrda ham tarqalib, bu yerdagi turli ilmiy yoʻnalishga, maʼnaviy hayotga taʼsir koʻrsatdi.

Davoniyning eng yirik risolasi - "Axloqi jaloliy"dir. U 1470-1478 yillar orasida yozilgan va Gʻarbiy Eron hokimi, Oq quyinlilar sulolasi vakili Uzun Hasanga bagʻishlangan. Ushbu kitob 1839 yilda V. F. Tompson tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan. Davoniyning "Axloqi jaloliy" risolasi fors tilida yozilgan boʻlib, qoʻlyozmasi dunyoning juda koʻp muzeylari va kutubxonalarida mavjud. U 1911 yil Kalʼkuttada chop etilgan. Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida ushbu risolaning qoʻlyozma va toshbosma nusxalari saqlanmoqda. Mazkur asar 1948 yilda eshonjon Muhammadxoʻja tomonidan oʻzbek tilidagi qisqartma tarjimasi amalga oshirilgan. Rus sharqshunosi A.A Semyonov Rʼe va Braunlarga asoslanib, Davonining ushbu risolasini musulmon Sharqida mashhur kitoblar sirasiga qoʻshadi.

Kitobda muhim ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-hayotiy va axloqiy gʻoyalar ilgari surilgan. Unda jamiyatning paydo boʻlishi, ijtimoiy tabaqalar, davlat va uni boshqarish yoʻllari, adolatli va adolatsiz podshohlar, ularning fuqarolarga munosabati, axloq va taʼlim-tarbiya masalalari batafsil tahlil etilgan. "Axloqi jaloliy"da XV asrning ilgʻor axloqiy qarashlari oʻz ifodasini topganki, kitobda oʻrta asr Sharqining axloqiy taʼlimotlari, uning yutuq va kamchiliklari aks ettirilgan. Asar uch qismdan iborat boʻlib, oʻz navbatida ular yana mayda boʻlim - "lavom"-larga boʻlinadi. Birinchi qism axloq faniga bagʻishlangan boʻlib, muallif axloqning asosiy tushunchalari: adolat, shijoatkorlik, donolik, iffat va boshqalarga toʻxtaladi. Ikkinchi qismi - "Odamning ichki holati" deb atalib, oilaviy hayotga bagʻishlangan. Bunda bolalarni tarbiyalash va kamolga yetkazish, kasb-hunarni egallash, xulq-odob qoidalari, nutq madaniyati, ota-onalarning oʻz bolalariga munosabatlari va boshqa shunga oʻxshash muammolar koʻtariladi.

Oxirgi uchinchi qism - "Shahar (davlat)ni boshqarish va podshohlar siyosati" deb ataladi. Bu erda muallif shaharlarda yashovchi xalqlar baxtli boʻlishi uchun qanday tadbiru choralar koʻrish kerakligi, davlat boshliqlari bilan fuqarolarning oʻzaro

munosabati, jamiyat haqida fikr-mulohazalar ilgari suriladi. eng so`ngida Nasiriddin Tusiyning "Axloqi nosiriy" risolasida keltirilgan Aflotunning o`z shogirdi Arastuga qilgan vasiyati beriladi.

Davoniyning ijtimoiy qarashlarida Farobiyning ta`siri yaqqol sezilib turadi. Inson bir o`zi mehnat qilib, yashash uchun va har kuni zarur bo`ladigan narsalarni qo`lga kiritishi qiyin. U yakka holda hayot kechirishi uchun bir o`zi ovqat pishirishi, kiyim-kechak tikishi, mehnat qurollari yashashi va shunga o`xshash ko`p ishlarni bajarishi, bir necha kasb-hunar egallashga majbur bo`lar edi. Bu esa amri maholdir. "Odamlar birlashib, bir-biriga yordamlashganda boshqalar to`g`risida chinakamiga qayg`uradi, o`zaro yordam va aloqa-o`rnatilganda adolatning sinalgan yo`llari paydo bo`ladi, yashash vositalari tartibga tushadi, kishilarning ahvoli mustahkamlanadi va inson zoti saqlanadi" (Davoniy. Axloqi jaloliy. 135-varaq.)

Davoniy o`zining "Axloqi jaloliy" asarida davlat to`g`risida o`zining utopik - xayoliy orzusini tasvirlaydi. U ibn Miskavayh, Forobiy va Nasiriddin Tusiy singari shaharni (davlatni) fozil va joxilga bo`ladi. Fozil shaharni tasvirlar ekan, Davoniy "bu shunday shaharki, uning qoidasi baxt-saodatga erishuvdan va baxtsizlikka olib boradigan hodisalarni bartaraf qilishdan iborat", - deydi (O`sha joy, 152-varaq). Fozil shaharni aqlli, adolatli va jasur kishilar boshqarishi lozim. Shahar aholisi, qaysi ijtimoiy tabaqadan bo`lmasin, qonun-qoidalarga so`zsiz bo`ysunadilar. Joxil shahar aholisi esa baxtsizlik va falokat yo`liga kirgan bo`lib, bunday shahar hokimlari ta`magir, joxil bo`ladilar, o`z xohish-istaklari va hissiyotlarini qondirishga ruju qo`yadilar.

Jaloliddin Davoniy axloq va ta`lim-tarbiya masalalariga ham katta e`tibor beradi. Mutafakkirning talqinida, axloq fani kishilarning amaliy faoliyati, tafakkuri bilan chambarchas bog`langan. Axloq muammolari falsafiy, ijtimoiy-siyosiy masalalar bilan bir qatorda ko`riladi.

Davoniy o`z risolalarida ilm-fanni jamiyatda tutgan o`rniga katta baho berib, kishilarni ma`rifatli bo`lishga, kasb-hunarni egallashga chaqirdi. Uning insonparvarlik ruhi bilan sug`orilgan ijtimoiy g`oyalari umuminsoniy xarakterga ega bo`lib, keyingi davrlarda muhim rol o`ynadi va hozir ham o`z tarbiyaviy ahamiyatini yo`qotgani yo`q.

Topshiriq va savollar.

1. Abu Abdulloh Xorazmiyning didaktik qarashlarini izohlab bering.
2. Abu Nasr Farobiyning asarlaridagi pedagogik qarashlari haqida nima deya olasiz?
3. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-pedagogik qarashlarini izohlab bering.
4. Abu Ali Ibn Sinoning tarbiya va ta'lim haqidagi fikrlarini yoritib bering.
5. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otut turk" asarini izohlab bering.
6. Nima uchun Yusuf Xoj Hojibning "Qutadg'u bilig" asari-pandnoma asar deb aytiladi?
7. Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asaridagi didaktik qarashlarni yoritib bering.
8. Kaykovusning "Qobusnoma" asarida tarbiyaning mazmuni qanday yoritilgan?
9. Movarounnahrda Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat barpo etilishida fan, madaniyat va ma'rifat rivojiga qo'shgan hissasi haqida nima deya olasiz.
10. Mirzo Ulug'bekning pedagogik g'oyalari va ma'rifatparvarlik xizmatlari nimadan iborat?
11. Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari haqida gapirib bering.
12. Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalarining namoyon bo'lishini izohlab bering.
13. Alisher Navoiyning maktab va madrasalar rivojiga qo'shgan hissasi haqida nima bilasiz?
14. Abdurahmon Jomiyning pedagogik qarashlariga izoh bering.
15. Jaloliddin Davoniyning "Axloqiy Jaloliy" asaridagi pedagogik fikrlar rivojining o'rnini belgilab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., "Sharq", 1998.
2. Amir Temur o'g'itlari. T., "Navro'z", 1992.
3. Abu Ali ibn Sino. Hikmatlar. T.: «O'zbekiston», 1980.

4. Baratov N., Aliqulov X. O`rta Osiyo mutafakkirlari axloq haqida. T., "O`zbekiston", 1974.
5. Bozorov O., Shodiev R. O`rta Osiyo tasavvufi va axloqiy qadriyatlar. Samarqand, Zarafshon. 1992.
6. Zunnunov A., To`xliev B., Ma`sudov X. Pedagogika tarixi. T., "Sharq", 2002.
7. Ziyomammedov B., Abdullaeva Sh. Pedagogika. "O`zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2000.
8. Mo`minov I. Amir Temurning O`rta Osiyo tarixida tutgan o`rni va roli. "Fan" nashriyoti, 1993.
9. O`zbek pedagogikasi tarixi. T., "O`qituvchi" 1997.
10. Xoshimov K., Nishonova S. va boshqalar. Pedagogika tarixi. T., "O`qituvchi", 1996.

Internet saytlari:

www.ziyonet.uz

www.tdpu.uz

www.pedagog.uz

X. XVII ASRDAN XIX ASRNING YARMIGACHA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI. IX ASRNING OXIRI XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA TA'LIM TIZIMI.

10.1. Buxoro amirligi, Qo`qon va Xiva xonliklarida ta`lim- tarbiya.

Tayanch iboralar: *Buxoro amirligi, Muhammad Rahim hukmronligi, «begunoh amir», Qo`qon xonligi, Xiva xonligi, Ismoilshoh tomonidan zabt etilishi.*

Vatanimiz tarixi o`zbek davlatchiligi taraqqiyoti bir tekisda o`tmaganligi, uning rivojida zafarli va inqirozli davrlar bo`lganidan guvohlik beradi. Sohibqiron Amir Temur asos solgan saltanat eng yirik va qudratli davlat bo`lganligi jahonga ma`lum. U o`z vorislariga nafaqat qudratli davlatni, shuningdek, saltanat qurish va davlatni boshqarish qonun-qoidolari bayon etilgan mashxur tuzuklarni qoldirgan edi. «Farzandlarim va avlodimdan bo`lganlarning har biri,- deb yozgan edi u o`zining tuzuklarida,- unga muvofiq ish yuritsin... Bu tuzuklardan o`z saltanat ishlarini boshqarishda qo`llanma sifatida foydalangaylar, toki mendan ularga etadigan davlat va saltanat zararu tanazzuldan omon bo`lg`ay». Ammo uning dasturi va vasiyatlariga amal qilinmadi. Taxt, hokimiyat ilinjida avj olgan o`zaro va ichki kurash, jangu jadallar davlatni zaiflashtirib, mamlakatni inqirozga va parokandalikka olib keldi.

Buxoro amirligi. XVI asr boshlarida zaiflashib borayotgan temuriylar saltanatiga Dashti Qipchoq tomondan ko`chmanchi o`zbeklar davlati hukmdori Muhammad Shohbaxt Shayboniy hujumi boshlandi. Shayboniyxon 1500-1501 yillarda Samarqand va Buxoroni, 1504 yilda Xisor viloyatini, 1504-1505 yillarda Urganchni, 1506-1507 yillarda Xuroson poytaxti Hirot hamda Balxni, shuningdek, Marv, Astrobod va Nishopur shaharlarini zabt etdi. Toshkent, Farg`ona, Sirdaryo va Xorazm yerlari Afg`onistonning Qandahor, Zamindovur viloyatlari egallandi va Muhammad Shayboniyxonga qaram bo`lib qoldi. Shayboniyxonning Xurosondaligidan foydalangan qozoq sultonlari Movarounnahrda bir necha marta bostirib kirib, uni talon-taroj qiladilar. 1506-1509 yillarda Shayboniyxon Xurosondan qaytib kelib, qozoq sultonlariga zarba beradi va Dashti Qipchoq ichkarisiga

quvib boradi. Bu yurishlar natijasida Sig`noq, Yassi, Savron shaharlari qayta qo`lga kiritiladi. Shunday qilib, Movarounnahr va Xuroson birlashtirildi va Shayboniylar sulolasi hukmronligi qaror topdi. Muhammad Shayboniyxon «Imom uz-zamon, xalifat ur-raxmon» unvonini olib o`z qo`lida dunyoviy va diniy hokimiyatni birlashtirdi.

Shayboniyxon janubda Eronning ichki viloyatlariga yurish qiladi. Mashhad va Tus shaharlarini egallab orqaga qaytadi. Eron shohi Ismoil Safoviy katta qo`shin bilan yetib keladi. Shayboniyxon Movarounnahrdan yordamchi qo`shinlar kelishini kutmasdan jangga kirishga majbur bo`ladi. 1510 yilda Marv yaqinida bo`lgan jangda Shayboniyxon qo`shinlari yengiladi, xonning o`zi ham halok bo`ladi. Taxtga Shayboniyxonning amakisi, Mirzo Ulug`bekning qizi Robiya Sulton bégimning o`g`li Ko`chkunchixon (1510-1530) chiqdi. Biroq shayboniy sultonlar, bekлар jipslashib Ismoilshohga qarshi kurashish o`rniga Shayboniyxon tirikligidayoq suyurg`al sifatida taqsimlab berilgan viloyatlar va yerlarga egalik qilish bilan o`ralashib qoldilar, ular o`rtasida o`zaro kelishmovchilik, ziddiyatlar avj oldi. Bundan foydalangan Ismoilshoh tez orada Xuroson va Xorazm o`lkalarini, Shimoliy Afg`onistonni bosib oldi. Poytaxti Samarqand bo`lgan Movarounnaxrda esa Shayboniylar hukmronligi saqlanib qoldi.

Movarounnaxrda 100 yilgacha davom etgan Shayboniylar davrida ham tinchlik bo`lmadi, qirg`inborot urushlar, o`zaro ichki kurashlar davom etdi. 1512 yildan boshlab Buxoro viloyati noibi bo`lib kelgan Ubaydullo sulton 1533 yilda Shayboniylar davlatining Oliy hukmdori etib ko`tarildi. Ubaydulla sulton Samarkanddagi Ko`chkunchixon avlodlari karsxiligi sababli oliy hokimiyatni Buxoroda turib boshqaradi va Buxoroni davlat poytaxti deb e`lon qiladi. Shayboniy Ubaydullaxon (1533-1539) davrida Buxoroning mavqei ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan kuchaydi. Ammo tarqoqlik davom etardi, Movarounnahr XVI asr o`rtalarida ham mustaqil hokimliklardan iborat edi. Buxoroda Abdulazizxon, Samarqandda Abdulatifxon hukmdor edilar.

Tarqoqlikka barham berish, mamlakatni birlashtirish dolzarb bo`lib turgan bir paytda Abdulla sulton maydonga chiqdi, uni katta mavqega ega bo`lgan juybar shayxlari qo`llab-quvvatladi. Abdullaxon Buxoro taxtini egallaydi. Abdullaxon (1557-1561 yillarda amakisi Pirmuhammad, 1561-1583 yillarda otasi Iskandarxon oliy hukmdor deb e`lon qilingan bo`lsada, amalda hukmdor Abdullaxon edi). 1557

yilda Buxoroni davlat poytaxti, mamlakatning siyosiy-ma'muriy markaziga aylantiradi. Shu boisdan davlatning o'zi ham Buxoro xonligi deb ataladigan bo'ldi.

Abdullaxon siyosiy uzoq yillar urush olib borib, 1573 yilda Farg'onani, 1574 yilda Shaxrisabz, Qarshi, Hisor viloyatlarini, 1578 yilda Samarqandni, 1582 yilda Toshkent, Shoxruhiya, Ohangaron va Sayramni, 1583 yilda Balxni, 1584 yilda Badaxshonni, 1588 yilda Xirotni, 1595 yilda Xorazmni zabt etib, mamlakatni birlashtirish ishini uddaladi, Buxoro xonligini kuchli va markazlashgan davlatga aylantirdi. Biroq ichki nizo, adovatni bartaraf etolmadi. G'animlar Abdullaxonga qarshi uning o'g'li Abdulmuminni qayraydi, Abdullaxon bilan uning o'g'li Abdulmo'min o'rtasida taxt masalasida kelishmovchilikdan foydalangan qozoq xonlaridan Tavakkalxon Toshkent viloyati yerlariga bostirib kiradi. Unga qarshi safarga otlangan Abdullaxon Samarqandga yetganda vafot etadi. Abdullaxon o'rniga taxtga ko'tarilgan Abdulmo'min 6 oycha hukmdor bo'ldi, u otasining amirlaridan biri-Abdulvose' tomonidan otib o'ldirildi. Taxtga chiqqan so'nggi Shayboniy Pirmuhammad ham 1601 yilda Samarqandda Boqi Muhammad bilan bo'lgan jangda halok bo'ldi. Shayboniylar sulolasi barham topdi.

1601 yildan e'tiboran Buxoro xonligida hokimiyat ashtarxoniylar (Joniylar) sulolasi ko'liga o'tadi. 150 yilcha (1601-1753) hukmronlik qilgan Ashtarxoniylar sulolasi davrida Buxoro xonligida tinchlik, osoyishtalik bo'lmadi. Xonlik viloyatlarida hukmronlik qiluvchi amirlar va beklarning o'zboshimchaligi, markaziy hokimiyat amaldorlari o'rtasidagi o'zaro kelishmovchilik, ur-yiqit mamlakat tinkasini quritib borardi. Buni Ashtarxoniylar sulolasidan Buxoro taxtiga ko'tarilgan o'nta xondan ikkitasining taxtdan ag'darilgani, to'rttasining taxt ustida o'ldirilgani ham yaqqol ko'rsatadi.

Buxoro davlatining zaiflashib qolganligidan foydalangan Eron shohi Nodirshoh XVII asrning 30-40-yillarida Buxoro xonligiga yurish qiladi. Nodirshoh Buxoro xonligida katta mavqega ega bo'lgan mang'it urug'idan chiqqan otaliq Muhammad Hakimbiy bilan shartnoma tuzadi va u Buxoro xonligining oliy hukmdori deb tan olinadi. Abulfayzxon amalda hokimiyatdan chetlatib qo'yiladi, Hakimbiy Buxoroning to'la vakolatli hokimi etib tayshshanadi. 1743 yilda Hakimbiy, uning o'g'li Muhammad Rahim Nodirshoh xizmatiga

kiradi. Nodirshoh 1747 yilda vafot etgach, Muhammad Rahim hokimiyatni o'z qo'liga olishga kirishadi.

Buxoro xonligida katta nufuzga ega bo'lgan mang'it qabilasining vakili Muhammad Rahim 1747 yilda Abulfayzxonni, so'ngra rasman xon deb (soxta xon) e'lon qilingan uning o'g'illari Abdulmo'min va Ubaydullo sultonlarni o'ldirib, hokimiyatni o'z ko'liga oladi. Muhammad Rahim 1756 yilda taxtga o'tirib, o'zini Buxoro amiri deb e'lon qiladi va hokimiyatni mustaqil idora qiladi, Mang'itlar sulolasiga asos soladi. Shundan e'tiboran Buxoro xonligi Buxoro amirligi deb atala boshlandi. Amirlikda hokimiyat 1920 yilgacha Mang'itlar sulolasi qo'lida bo'ldi.

Muhammad Rahim hukmronligini beklik-viloyatlardagi boshqa qavmlardan bo'lgan hokimlar tan olmadilar. Amir mang'itlarga tayanib hokimiyatni markazlashtirishga intildi. Barcha qabilalarning hukmdorlarini Buxoroga yig'ib, ulardan markaziy hokimiyatga bo'ysunishni talab qildi, aks holda qattiq jazolanishi haqida ogohlantirdi. Viloyatlardagi ko'pgina hokimlar, bebosh amaldorlar hokimiyatdan chetlashtirilib, yer-mulki tortib olinib boshqa joylarga ko'chirildi. Ular o'rniga amir qabiladoshlaridan tayinlandi. Muhammad Rahim Buxoro minorasi yonidagi o'z qarorgohini maxsus qurdirgan Arkka ko'chirdi. O'zboshimcha beklarni Arkka chaqirib qattiq jazoladi. Tarqoqlikni bartaraf etish maqsadida ko'pgina beklilarga - Samarqand, Jizzax, O'ratepa, Xisor, Boysun, Shaxrisabzga qarshi qonli urushlar qildi, ko'pgina viloyatlar vayron bo'ldi. Muhammad Rahim Nurotada istiqomat qiluvchi burgut qabilasi qo'zgonini bostirib, ularning har biy istehkomlarini buzib tashlab, o'zlarini Buxoro tumaniga ko'chirdi. Miyonqal'a qipchoqlariga xujum qilib, istehkomlarini buzib tashlaydi, yo'lboshchilarini qatl etib, qolganlarini ko'chirib yuboradi. Muhammad Rahim vafotidan keyin o'zaro urushlar yanada kuchaydi. Viloyat hukmdorlari mang'itlarning markaziy hokimiyatiga qarshi qo'zg'olonlar ko'tardi. Kenagas, yuz, baxrin, burgut, saroy qabilalarining qo'zg'olonlari, hokimiyatga o'tirgan Doniyolbiyning ularni bostirish uchun qilgan urushlari minglab odamlarning yostig'ini quritdi. Doniyolbiy qo'shinlar har ajati uchun qo'shimcha soliqlar joriy etib aholi noroziligini oshirdi. Buxoro hunarmandlari va tijorat axdi 1784 yilda qo'zg'olon ko'tardi. Qo'zgonni bostirish jarayonida minglab odamlar qurbon bo'ldi.

Amir Ma`sum («begunoh amir») deb nom olgan Shohmurod (1785-1800 yillar) tarqoqlikka qarshi kurashni davom ettirdi. Amir Shohmurod boshqaruv tartibini o`zgartirish, amaldorlar tarkibini yangilash choralarini ko`rdi. Amir ikki yirik davlat arbobi - Davlat qushbegi bilan Nizomiddin qozikalonni saroy, qo`shin va boshqa sohadagi amaldorlar huzurida o`z ko`li bilan o`ldirdi. Soliqlarni tartibga soldi. Buxoro aholisiga tarxan yorlig`ini topshirdi. Unga binoan aholi savdo daromadidan boj to`lashdan, hunarmandlar pul yig`imidan, majburiy mehnat va soliqlardan ozod etildi. Shuningdek, xiroj, nikoh puli, tarozi haqi va boshqa yig`imlar miqdori kamaytirildi.

Shohmurod davrida Buxoro amirligi nisbatan mustahkamlangan bo`lsada, o`zaro urushlar to`xtamadi. G`arbiy chegaralarda esa Xiva xoni qo`shinlari hujumga o`tar, ekinzor va bog`lar payhon qilinadi, qishloqlar vayron bo`lar, odamlar va chorva mollar haydab ketilar edi.

Xiva xonligi. Xorazm XV asr oxiri - XVI asr boshida temuriy Sulton Xusayn Boyqaro bopshiq davlatning bir qismi edi. 1505 yilda Muhammad Shayboniyxon qo`shinlari Xorazmni egalladi va qo`ng`irot urug`idan Kepakbiy Xorazmga hokim etib tayinlanadi. Eron shohi Ismoil bilan jangda Muhammad Shayboniyxon halok bo`lgandan keyin Xorazm Ismoilshoh tomonidan zabt etiladi. Ismoilshoh Xorazmni o`z davlati tasarrufiga kiritgach, Vazir, Urganch va Xiva shaharlarini boshqarish uchun 3 ta dorug`a (hokim) tayinlanadi.

Xorazmda Ismoilshoh hukmronligi uzoqqa bormadi. Xorazmda Ismoilshoh hukmronligiga qarshi harakat boshlandi. Bu harakatga Vazir shaxri qozisi Umar qori va Sayid Xisamiddin yetakchilik qildi. Ular Shaybon avlodidan bo`lgan Berka sultonning o`g`li elbarsxonga murojaat qilib, xon bo`lishni taklif qildilar. elbarsxon 1511 yilda qo`shin bilan kelib Vazir, Urganch, Xiva, Xazoraspni Ismoilshoh qo`shinlaridan tozaladi, Xorazmda elbarsxon hokimiyati o`rnatildi. Shunday qilib, 1511 yilda mustaqil Xiva xonligi tashkil topdi, Elbarsxon uning birinchi xoni bo`ldi. Xivada Shayboniylar sulolasi hukmronligi 1770 yilgacha davom etdi. Xiva xonligi poytaxti Urganch edi. XVI asr oxiri - XVII asr boshlarida Amudaryo o`zanining o`zgarishi munosabati bilan Urganchning mavqei pasaydi, aholisi qulayroq joyga ko`chib borib joylashadi va bu erda Yangi Urganch shaxri paydo bo`ladi. Bu orada Xiva shaxrining mavqei ko`tariladi. 1556 yilda Avaneshton Xivani davlat poytaxti deb e`lon qiladi, biroq

u o'z hukmronligini faqat Xivadagina o'tkaza olar edi. Arab Muhammadxon (1602-1623) davrida Xivaning mavqei kuchayib, xonlikning rasmiy poytaxtiga aylandi. Xiva xonligi tasarrufiga Amudaryo quyi oqimidagi vohalar, Mang'ishloq, Daxiston (Mashhad) va O'zboy atrofidagi ko'chmanchi turkman hududlari kirardi. Biroq, xonlikda tinchlik bo'lmadi. Uzoq yillar davomida xonlik tepasida turgan o'zbek qabilalari bilan turkman qabilalari o'rtasida, shuningdek, shaxzodalar o'rtasida tinimsiz urushlar bo'lib turdi. Xiva va Buxoro hukmdorlari o'rtasida Murg'ob daryosi bo'ylari uchun, Marv uchun qirg'inborot urushlar bo'lib turar, bu hududlar ko'ldan-ko'lga o'tardi. Xonlikka shimoldan qalmoqlar, qozoqlar, Ural kazaklari tez-tez hujum qilib falokatlar keltirardi. XVII asr o'rtalarida Eron shohi Nodirshoh, uning o'g'li Nasrullo Xiva xonligini bosib olib, o'z boshqaruvini o'rnatdi, turkman qabilalarini Xorazmdan Xurosonga ko'chirdi. Biroq Xiva xonligida tinchlik bo'lmadi. Eron hukmdorlariga qarshi tez-tez g'alayonlar bo'lar, aholi boshi oqqan tomonga ketardi. Shunday vaziyatda xonlikdagi o'zbek qabilalaridan Ko'ng'irot urug'ining bopshig'i Muhammad Amin inoq 1770 yilda hokimiyatni qo'lga oldi va Xiva xonligida yangi sulola - Qo'ng'irot sulolasiga asos soldi (bu sulola 1920 yilgacha hukm surdi).. Muhammad Amin Inoq turkmanlar qo'zgonini bostirdi, Buxoro hukmdorining hujumini daf etdi va Xiva xonligidagi viloyat hokimlarini markaziy hokimiyatga bo'ysundirdi.

Qo'qon xonligi. Buxoro xonligidagi ichki kurashlar, markaziy hokimiyatning zaiflashuvi sababli, u XVII asr boshlarida ikkiga bo'linib ketdi. Ashtarxoniylar hukmronligining zaiflashuvi oqibatida Farg'ona vodiysiga uning shimolida tashkil topgan Jungarlar davlati tez-tez bostirib kiradigan, talon-taroj qiladigan bo'lib qoldi. Bunday vaziyat Farg'onadagi ichki kuchlarning birlashuviga, mustaqil davlat tuzishga intilishini kuchaytirdi. Farg'ona vodiysining hududiy yaxlitligi va iqtisodiy imkoniyatlari, uning Buxoro xonligidan ajralib chiqishga qulay omil bo'lib xizmat qildi. Chust yaqinidagi Chodak qishlogida yashovchi xo'jalar jamoasi (din peshvolari)ning mavqei XVIII asr boshlaridayoq Farg'onada ancha kuchayib, 1709 yilda o'z yer-mulkklarini mustaqil deb e'lon qiladi va vodiya hokimiyatni qo'lga olishga intiladilar. Biroq ularning hokimiyati boshqa qabilalar tomonidan tan olinmadi. Bir guruh harbiy zodagonlar Rishtonda qo'zg'olon ko'tarib, Farg'ona hokimi Xo'ja Ashirqulni o'ldiradilar.

1710 yilda Qo`qon atrofida yashab turgan o`zbek qabilalaridan biri - minglar o`z yetakchisi Shoxruxbiyni hokimiyat tepasiga ko`taradilar. Shu tariqa, Qo`qon xonligi tashkil topdi, o`zaro ichki kurashlar botqog`iga botib qolgan Buxoro xoni Ubaydullaxon o`ziga qarashli hududning ajralib chiqib, alohida davlat tuzishiga qarshilik ko`rsatolmadi. Qo`qon xonligida ming qabilasi sulolalari 1876 yilgacha hukmronlik qildi. Qo`qon shahri chetida joylashgan Tepaqo`rgon Qo`qon xoni Shoxruhbiyning qarorgohiga aylantirildi. Tepaqo`rg`onda mustahkam qal`a, bozor va aholi yashaydigan mahallalar qurildi.

Qo`qon xonlari Farg`ona vodiysini, Xo`jand, O`ratepani birlashtirgach, Qo`qon xonligining mustaqilligi XVIII asr o`rtalarida Buxoro davlati tomonidan tan olindi. XVIII asr oxirlarida Qo`qon xonlari Toshkentni bo`ysundirishga kirishdilar.

1784 yilda Shayxontoxur dahasi sobiq hokimining o`g`li Yunusxo`ja Toshkentni Buxoro tobeligidan chiqarib, mustaqil siyosat yuritardi. Toshkent bekligi o`ziga xos boshqaruv tizimiga ega edi. Yunusxo`janing to`rt maslahatchisi bo`lgan. Toshkent shahar nazorati va soliq yig`ish Boshxo`janing qo`lida bo`lib, savdo-sotiqni qozi va devonbegi nazorat qilishgan. Shariat qonun-qoidalari, narx-navo, o`lchovlar ustidan Rais lavozimidagi amaldor nazorat qilgan. Yunusxo`ja XVIII asr oxirlarida qozoq sultonlari xujumlarini bartaraf etib, Sayram, Chimkent, Turkiston, Qurama, Qorabuloq shaharlarini Toshkentga bo`ysundirgan edi. Toshkent bekligi mavqeining oshib borishi Qo`qon xonlariga yoqmad. 1799 yilda Qo`qon hukmdori Norbo`tabiy Toshkenta yurish qildi, ammo Chirchiq bo`yidagi jangda mag`lubiyatga uchradi.

1805 yilda Qo`qon hukmdori Olimbek xon unvonini qabul qiladi va shu paytdan e`tiboran Farg`onada tashkil topgan davlat rasman Qo`qon xonligi deb atala boshlandi. Yunusxo`ja vafotidan keyin Qo`qon xoni Olimxon ko`shinlari yurish qilib, 1809 yilda Toshkentni va unga qarashli Chimkent, Sayram va boshqa hududlarni Qo`qon xonligiga bo`ysundiradi. Qo`qon xonligi hududiy jihatdan yirik davlatga aylandi.

Shunday qilib, asrlar davomida yagona hududda, yagona iqtisodiy va madaniy makonda yashab kelgan xalq, mamlakat uch qismga bo`linib ketdi. Uchta davlat - Buxoro amirligi, Xiva va Qo`qon xonliklari vujudga keldi

10.2. Maktab va madrasalarda ta'lim mazmuni.

***Tayanch iboralar:** Markaziy Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi, mustamlaka ma'muriyati, eski maktablar, Toshkent shahridagi gimnaziya va maktablar.*

An'anaviy ta'lim tizimining yuqori bosqichi-madrasalar haqidagi ilk ma'lumot Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida berilib, Buxoro shahridagi Forjak nomidagi madrasaning 937 yilgi yong'in paytida yonib ketgani aytib o'tiladi. "Madrasa" so'zi lug'aviy jihatdan "dars beradigan joy", "bilimgoh", "o'qish joyi" degan ma'nolarni anglatgan. O'rta asrlarda Buxoro madrasalari ilm maskani sifatida nafaqat Movarounnahrda, balki Markaziy Osiyo, musulmon sharqida ham mashhur edi. Madrasani muvaffaqiyatli bitirganlardan mamlakat boshqaruvi, huquq-tartibot va ta'lim muassasalari uchun kadrlar, ulamolar yetishib chiqqan. eng yirik madrasalar amirlikning markazi Buxoro shahrida hamda Qarshi, G'ijduvon, Shahrisabz, Sherobod shaharlarida, Sharqiy Buxoro bekliklari markazlarida faoliyat ko'rsatgan. Umuman, Buxoro amirligida yuzlab madrasalar mavjud edi. Madrasalar kichik, o'rta va yirik (oliy) madrasalardan iborat bo'lgan.

Sadriddin Ayniyning qayd etishicha, Buxoro madrasalarining islom olamidagi nufuzi juda yuqori bo'lib, ularda ta'lim olgan ulamolarning diniy masalalardagi so'zlari Misr va Hijozda o'qiganlarning so'zlaridan ko'ra mo'tabarroq hisoblangan.

Har bir madrasalar ularning asoschilari nomi bilan atalgan. Kim madrasani qurdirgan bo'lsa, ushbu madrasaga uning ismi, qishloq joylarda madrasa qaysi qishloqda joylashgan bo'lsa o'sha qishloqning nomi berilgan.

Madrasalar qurilishiga hukmdorlar katta e'tibor qaratsalar-da, ular xususiy xayr-ehson evaziga faoliyat ko'rsatgan. Madrasalar xolis xususiy mulk hisobidan qurilishi shart bo'lib, xon va amirlar, yirik amaldorlar tomonidan bunday inshootlarni davlat mulkidan bunyod etilishi shariatga xilof hisoblangan.

Buxoro madrasalarining binolari asosan pishiq g'ishtdan, ikki qavatli yoki bir qavatli qilib qurilgan. Odatda madrasalar ichki va tashqi sahnga, baland va mustahkam devorga, hashamatli toq va ravoqlarga ega bo'lib, ba'zilarining peshtoqlari, gumbazlari va

devorlari rang-barang koshinlar bilan bezatilgan. Madrasalar ichki va tashqi maydoniga ega bo'lgan. An'anaviy tarzda uning birinchi qavatida darsxonalar, kutubxona, masjid, tahoratxona, ikkinchi qavatida esa tinglovchilar yashaydigan hujralar bo'lgan.

Madrasalar qurish ishi Buxoro amirligida o'ziga xos tarzda amalga oshirilgan. Asrlar osha bu ish bilan shug'ullanilganligi bois, bu borada boy tajriba ham shakllanib bo'lgan edi. Shuning uchun Buxoro madrasalari nafaqat o'quv yurti, balki o'ziga xos me'moriy inshoot ham edi. Buxorodagi Ulug'bek, Mir Arab, Nodir Devonbegi, Ko'kaldosh, Abdullaxon va Abdulazizxon madrasalari bebaho va nodir me'moriy yodgorlik sifatida hozirgi kunda ham mashhurdir

Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin maktab va madrasalarda ba'zi o'zgarishlar yuz berdi. Musulmon maktablari uchun bosmaxonada chop qilingan darsliklar paydo bo'ldi. Qozonda nashr qilingan Qur'on va haftiyaklar, Hindiston va Erondan shoirlarning litografiyada chop etilgan to'plamlari keltirildi. Toshkentning o'zida ham maktablar uchun darsliklarni litografiya usulida nashr qilish yo'lga qo'yildi.

Mustamlaka ma'muriyati mashg'ulotlar O'rta asr tartibida olib borilayotgan musulmon maktablarining ishiga aralashmas edi. Ammo, maktablarda rus tilini o'qitishni rag'batlantiruvchi choralar ko'rishga harakat qilinardi. Natijada mahalliy yoshlar rus tilini o'rganishga ko'proq e'tibor bera boshladilar. XX asr boshlarida esa, madrasalarda rus tilini o'qitish joriy qilinsin, degan ko'rsatmaga binoan 1913-1917 yillari ba'zi madrasalarda rus tilini o'qitish joriy qilindi.

Eski maktablarda ham ba'zi o'zgarishlar sodir bo'ldi. Rus tuzem maktablari hamda yangi xil maktablarning ta'siri ostida ba'zi eski usul maktablarida birmuncha yangiliklar joriy qilindi. Litografiyada bosilgan alifbelar yordamida tovush metodi asosida savod o'rgatish joriy qilindi. Qizlarga o'qishni o'rgatish bilan birga, yozishni ham o'rgatishga kirishildi. Bu yangiliklarga ko'ra o'zbek maktablari hayotida katta siljish ro'y berdi.

XX asr boshlariga kelib, Turkiston o'lkasidagi yirik markaziy shaharlarda oliy ta'lim maskani hisoblangan quyidagi madrasalar:

Buxoroda 80, Qo'qonda 40, Samarqandda 22, Marg'ilonda 28, Toshkentda 17, Xiva xonligida 130 madrasa mavjud bo'lib, ularda 400 dan 5000 tagacha tinglovchi tahsil olardi.

1906 yilga kelib, birgina Samarqand viloyatining o'zida 1510

musulmon maktabi bor edi, ularda 1482 o`qituvchi 12740 tinglovchiga saboq bergan.

Umuman olganda, Turkiston o`lkasida 1905-1906 yillari 5290 maktab bo`lib, ularda 70955 tinglovchi ta`lim olgan.

Bu davrga kelib mahalliy fuqaro bolalaridan ilmi kishilar tayyorlash maqsadida Xiva xoni Sayid Muhammad Rahimxon Bahodirxon Soniy Feruz (1844-1910) katta ishlarni amalga oshirdi. Bevosita uning tashabbusi bilan 1884 yili o`z saroyida maktab ochilib, bu maktabda rus o`qituvchisi va Mirzo, Rahmonquli Qori kabi mahoratli ta`lim-tarbiya ustalari yoshlarga bilim berish bilan shug`ullandilar.

Feruz farmoniga muvofiq 1904 yilning 10 noyabrida Urganchda birinchi yangi usul maktabi ochildi. Unda Husayn Qo`shayev degan Turkiyadan kelgan o`qituvchi yoshlarga ta`lim-tarbiya bera boshladi.

Husayn Qo`shaev 1906-1907 o`quv yilida xonlikdagi ilg`or ma`rifatparvar kishilarning istaklarini hisobga olib, Urganchda qizlar maktabini ham tashkil etdi. Feruz unga homiylik qilib, xazina hisobidan maktab uchun alohida mablag` ajratib berdi.

Feruz homiyligidagi bu qizlar maktabida Husayn Qo`shaevning turmush o`rtog`i Komila Qo`shayeva bilim bera boshladi.

1909 yilga kelib Feruz qo`li ostidagi madrasalar soni 130 taga etib, undagi mullavachchalar 2300 kishidan ortib ketdi.

Feruz Xiva ziyolilari orasida nufuzli o`rinni egallagan ma`rifatparvar Komil Xorazmiyni Toshkent shahridagi gimnaziya va maktablardagi o`qitish usulini o`rganib kelishi maqsadida safarga jo`natadi. Safardan qaytgach Komil Xorazmiy bu sohadagi ishlarni anchagina jonlantirib yubordi.

Mazkur maktab o`quv dasturi hamda rejasiga-riyoziyot, tarix, jo`g`rofiya, tabiat, rus tili, mahalliy savod (ona tili) va islomshunoslik fanlarini o`qitish belgilanadi. Mashg`ulot jarayonida Sharq mutafakkirlari Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Sa`diy Sheroziy, Mashrab, So`fi Olloyor kabilar bilan bir qatorda rus shoir, yozuvchilarining asarlari ham o`rganildi. Feruz vohada san`at, maorif va madaniyat rivojiga rahnamolik qilib, saroyda «Podshohi zamon tipolitografiyasi»ni tashkil qildi.

«Litografiya» yunoncha so`z bo`lib, «litos» tosh va «grafos» yozaman degan ma`noni bildiradi. Bu atama o`zbek tilida toshbosma tarzida qo`llanib kelingan.

Feruz saroyidagi bu toshbosmaxonada ilk bor Abu Nasr Farobiyning «Nisob us sibiyan» (Bolalar nasibasi), Alisher Navoiyning «Hamsa» asaridan parcha, «Hayrat ul-abror» dostoni, Sher Muhammad Munisning «Munis ulushshoh» devoni, Yoqubxo`ja ibn Ibrohimxo`janing «Devoni Xo`is» to`plami, Feruzning «Devoni Feruz» va boshqa o`nlab asarlar nashr etilgan.

Turkiston o`lkasi Rossiya tomonidan bosib olingach, chor ma`murlari ming-minglab rus oilalarini Markaziy Osiyoga ko`chirib keltiradi. Farg`ona viloyati, Sirdaryo, Samarqand va boshqa viloyatlardagi dehqonlarning serunum yerlari tortib olinib, ularga beriladi.

10.3. Qizlar maktabi va unda ta`lim mazmuni.

Tayanch iboralar: *Markaziy Osiyoda ta`lim-tarbiya muammolari, xususiy maktablar, Qizlarga boshlang`ich diniy ta`lim berish, otinlar maktabi, Uvaysiy o`z asarlari.*

O`rta Osiyoning barcha shahar, qishloq va ovullarida maktabxonalar mavjud bo`lgan. Maktablar ko`pincha bir sinf xonasidan iborat bo`lganligi uchun ham ularni *maktabxona* deb atashgan. Musulmon qoidalaridan kelib chiqqan holda o`g`il va qiz bolalar alohida-alohida maktabxonalarda o`qitilgan. O`g`il bolalar maktabxonalarining aksariyati masjidlar, madrasalar, qorixonalar qoshida yoki xususiy maktabdorlar xonadonlarida, qiz bolalar maktabxonolari otin ayollar uylarida yoki badavlat kishilarning maktab yoshidagi qizlari uchun ularning uylarida tashkil etilgan.

Maktablarda o`g`il bolalarni o`qitgan kishi “domla, ustod, ustoz, muallim” deb atalgan. Qizlarni o`qitgan ayollarni esa “otinoyi” yoki “otinbibi” (Toshkentda) “bibixalifa”, yoki “bibiotin” (Buxoroda), “eltibibi” (Xorazmda) deb atashgan. Shuni e`tiborga olish lozimki, hozirgi Qoraqalpog`iston hududidagi maktabxonalarda o`sha davrda ham o`g`il va qiz bolalar birgalikda bir muallim tomonidan o`qitilavergan.

1910 yilda Buxoroda 350 ga yaqin an`anaviy (boshlang`ich) maktablar faoliyat ko`rsatgan. Boshlang`ich maktablarda o`quvchilarning soni 10 nafardan 50-60 nafargacha bo`lgan. O`g`il bolalar maktabxonasida o`rtacha 30-40 nafar bola o`qigan bo`lsa, ovul maktablarida o`quvchilar soni 10 nafardan oshmagan. Qizlar o`qiydigan maktabxonalardagi o`quvchilar soni o`g`il bolalarga

nisbatan 25-30 foizni tashkil etgan Qiz bolalar uchun o`qish 7 yoshdan boshlanib, 13 yoshgacha, ayrim hollarda 10-11 yoshgacha davom etgan. Odatda qiz bolalarga uyda ta`lim berish tajribasi keng tarqalgan. Umuman olganda, ayollarning maktabda o`qishi qiyin kechgan, faqat boy xonadonlarning qizlarigina o`qib savodini chiqara olgan, qishloqlarda o`qigan qizlar juda kamchilikni tashkil etgan.

Amirlikdagi ta`lim tizimida tarbiya masalalari juda muhim ahamiyat kasb etgan va diniy e`tiqodni mustahkamlashga, imyon va axloqiy poklikka e`tibor qaratilgan. Xullas, boshlang`ich maktab o`qish va yozish, hisob-kitob qoidalari qatorida o`quvchining ma`naviy qiyofasini islom ta`limoti doirasida shakllantirish vazifasini ham bajargan.

Qizlar maktabida o`qitish o`g`il bolalar o`qiydigan masjidlar huzuridagi maktabxonadagi o`qitishdan bir muncha farq qilar edi. O`zining savodini qizlar maktabida chiqargan Sadriddin Ayniy ushbu maktabni quyidagicha ta`riflaydi: “Otinbibi o`zining butun vaqtini saboq beruvga sarf etar, har bir bolani navbat bilan o`z oldiga chaqirib dars berar va bu bilan bir kunlik o`qish o`tar edi. Otinbibining bir kunlik dars vaqti ertangi nonushtadan to soat o`n ikkigacha davom etar, u bolalarni masjiddagi domladay ertadan kechgacha bir xonada qamab qo`yib zeriktirmas edi. Uning shogirdlari erta bilan nonushtani o`z uylarida eganlaridan keyin maktabga kelardilar, saboq olish va olingan saboqni o`qish bilan shug`ullanar edilar”.

Yuqoridagilardan ma`lum bo`lmoqdakim, qizlar maktabida o`qitish jarayoni ertalabki nonushtadan (soat 8.00) to soat 12 gacha, ya`ni tushlikkacha davom etgan. O`g`il bolalar maktabida esa bomdod namozidan keyin, ya`ni ertalabdan soat 17 gacha o`qish jarayoni davom etardi. Ayrim manbalarda tushlik vaqtida o`g`il bolalar uylaridan nonushta qilib kelishgan deyilsa, boshqa manbada esa tushlik uchun ikki marta tanaffus qilingan, birinchisi nonxo`rak deb atalib, u soat o`n-o`n birlar atrofida bo`lib, bu paytda bolalar uydan olib kelgan nonlar bilan tamaddi qilishgan bo`lsa, ikkinchisi soat o`n uch va o`n beshlar atrofida bo`lib, u oshxo`rak deb atalgan va o`quvchilarga issiq ovqat berilgan, deb ko`rsatiladi.

O`g`il bolalar o`qitiladigan maktablardan farqli ravishda, qizlar maktablarida mumtoz shoirlar ijodini o`rganish bilan birga qizlar tarbiyasining o`ziga xos jihatlari, chunonchi, uy-ro`zg`or tutish, pazandalik, pokizalik, sharqona odob-axloq ham o`rgatilgan. Bu

o'rinda Faxriddin ibn Rizouddinning "Tarbiyali xotun", Olimat ul-banotning "Muosharat odobi" kabi kitoblarining ahamiyati katta bo'lgan. "Muosharat odobi" 1898 va 1899 yillarda Sankt-Peterburgda ikki marta nashr etilgan. Risolada odob-axloq, ayollarning turmushdagi o'rni va oilaviy munosabatlar, bolalar tarbiyasi, oila yuritish, nikoh va muhabbat haqida g'oyat ibratli maslahatlar beriladi. Bundan tashqari qizlar maktabida Aliy Nazimoning besh kitobdan iborat "Talim-i banot" ("Qizlar tarbiyasi") asari sharqona axloqiy darslik sifatida o'qitilgan. Qizlar o'qiydigan maktabxonalaridagi o'quvchilar soni o'g'il bolalarga nisbatan 25-30 foizni tashkil etgan. Ahmad Donishning xotirlashicha, o'g'il bolalar maktabidan ancha orqada bo'lgan qizlar maktabida ko'pchilik holatlarda "Haftiyak"ni o'qib, Qur'oni karimdan 2-3 ta surani o'qishni o'rganish bilan qiz bolalarning o'qish kursi tugatilgan. Ammo, Sadridin Ayniyning yozishicha, o'g'il bolalar maktabidan ko'ra, qizlar maktabida yaxshiroq o'qitilgan. Qizlar maktabi soni o'g'il bolalarning maktablariidan ancha oz, har bir otinoyida o'qigan qizlarning soni esa domlada o'qigan o'g'il bolalarning yarmidan ham kam bo'lgan. Qizlarning ko'pchiligi hatto maktabga bormagan.

XIX asrda O'zbekistonda, umuman, Markaziy Osiyoda ta'lim-tarbiya muammolari bilan maxsus Shug'ullanuvchi mutaxassislar, olimlar bo'lmagan. Lekin, davrning ilg'or kishilari o'z ma'rifiy qarashlari asosida ta'lim-tarbiyani rivojlantirganlar.

O'tmishdagi barcha Sharq mutafakkir va shoirlari singari o'zbek otinlarining ham pedagogika nazariyasiga oid asarlari yo'q. Lekin bizga meros qoldirgan she'riy durdonalariga asoslanib ularning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi qarashlarini aniqlash mumkin. Bir so'z bilan aytganda, pedagogika ularning asarlariga singib ketgandir.

1796—1797 yillari onasi otinlik qilgan xususiy maktabda dastlab xalfalik, keyin mustaqil ravishda otinlik qilgan Jahon Otin o'z maktabida ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos usullarni qo'llashga intilganligini ko'ramiz.

Qizlarga boshlang'ich diniy ta'lim beradigan otinbibi maktablari esa asosan xususiy bo'lib, otinlarning uylarida tashkil qilinardi. Bunday maktablar muayyan bir o'quv rejasi va dasturiga ega emas edi. o'quvchilar ham kitoblarni o'zlashtirish darajasiga qarab guruhlariga bo'lib o'qitilardi.

Domla, yoki otinoyi darsni berilgan vazifani o'qitib ko'rish va

yangi topshiriq berishdan boshlardi.

Katta yoshli o`quvchilardan biri otinoyiga yordamchi qilib saylar va «xalfa» deb yuritilardi. Maktabdagi asosiy o`quv fani islom qoidalari to`plami edi. Otin oyiga ish haqi sifatida ota-onalar oziq-ovqat mahsulotlari, kiyimliklar berishar ba`zan pul to`lashar edi. Bundan tashqari, ota-onalardan «bo`yra puli», «o`tin puli» ham undirilardi.

Otinoyi maktabida o`qitishning saviyasi otinoyining bilim darajasiga nihoyatda bog`liq ekanligini alohida ta`kidlamqchimiz.

Qizlar maktablarida harflarni hijjalab o`qitish usulida savod chiqarilardi. Ya`ni, alfavit yodlanardi: - *alif, be, te, se* ... So`ngra shu harflarni bir-biriga qo`shib o`qish mashq qilinardi. Domla imomlarning xotinlari, qizlari maktablarning qisqartirilgan dasturi asosida o`qitilardi. Shu bilan birga, qizlarga uy-ro`zg`or ishlaridan dastlabki mehnat ko`nikmalari berilardi.

Maktabni muvaffaqiyatli tugatgan tinglovchilar tuman miqyosidagi otinlar maktabida o`qishni davom ettirardilar. Uvaysiy Umarxon saroyida shoira sifatida she`r san`atidan, musiqadan muallimalik qilgan.

Qizlarga boshlang`ich ta`lim berar ekan, Jahon Otin ularning zehni o`stirishga katta ahamiyat qaratadi. Otin o`z shogirdlariga savod o`rgatibgina qolmay, ular orasidan iqtidorli qizlarni tanlab Sharq she`riyati bilan tanishtiradi. Qizlarni nazm bo`stoniga yetaklaydi.

Uvaysiy o`z davrining peshqadam shoirlaridan bo`lgan. Shu bois qizlarga she`r san`atidan dars berganda, o`sha davr shoirlari bilishi zarur bo`lgan nazirago`ylik, radifgo`ylikni ham o`rgatgan. Har bir shoir mushohada kuchiga ega bo`lishi zarurligini uqtirgan.

Jahon Otinning ko`p asarlari insoniy muhabbat, go`zallikni ifoda etadi. Uning she`rlaridagi asosiy lirik qahramon hayotni butun go`zalligi bilan sevuvchi, unga maftun bo`lib, shodlanuvchi, jabr zulmga qarshi kurashuvchi, do`stlik, vafodorlikka sodiq chin oshiq, aqlli, bilimdon ayol. Ana Shu olijanob insoniy fazilatlar kishilardagi vafosizlik, bemehrlik, yolg`onchilik, subutsizlik kabi salbiy illatlarga qarama-qarshi qo`yiladi.

Uvaysiy o`z asarlarida xalqning dilida yod bo`lib ketgan hikmatli so`zlar, maqollar, iboralardan keng foydalanadi. Bular uning asarlarining tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi.

Uvaysiyning ma'rifiy faoliyatida uning ayollar savodxonligini oshirish, aqliy tarbiya, musiqa san'ati, qobiliyatli qizlar bilan ishlash usullari alohida ahamiyatga ega. U o'z davrining yosh tolibalariga hayotga muhabbat tuyg'ularini singdirib borgan, tez fikrlash, chiroyli so'zlash va boshqa tarbiya vositalari bilan bog'liq bo'lgan chiston topishmoq usullarini yaratishni o'rgatgan...

10.4.Munis Xorazmiyning “Savodi ta'lim” asari-husnixatga doir dastlabki qo'llanma sifatida.

Tayanch iboralar: *Munis Xorazmiy, “Savodi ta'lim” asari, do'stlik rishtalarini bog'lovchi nomalar, hirsu dunyo odamlari, yuksak olijanoblik.*

Munis Xorazmiy /1778-1829/ XVIII asrning oxiri XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan tarixchi, olim, pedagog va zabardast xattot edi. Uni yashab ijod etgan davri feodalizmning qulab borayotgan paytiga to'g'ri keldi. Feodalizm tuzumining razilligi Shu darajaga etib bordiki, xalqning tortgan azob-uqubatlarning nihoyasi yo'q edi.

Shermuhammad Avazbey o'g'li Munis ana shunday mash'um zamonda 1778 yilda Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida mirob oilasida dunyoga keldi. Munis uning adabiy taxallusi bo'lib, lug'aviy ma'nosi “ulfat”, “hamdam”, “do'st” demakdir.

Munis dastlabki ta'limni o'z qishlog'ida maktabda oldi. So'ngra madrasada o'qidi. Madrasa ta'limidan so'ng mustaqil arab va fors tillarini o'rgandi. U sharq klassik adabiyoti vakillari Nizomiy, Xisrav Dehlaviy, Xofiz Sheroziy, Lutfiylarning ijodiyotlarini chuqur o'zlashtirdi. Munisning odob-axloqqa doir g'oyalari uning g'azallar, mustazodlar, muhammaslar, musaddaslar, qasidalar, qat'alar, ruboiylar, tuyuqlar, chistonlarida ifodalangan.

Munis o'zining “Savodi ta'lim” asarida ilm-fan, maktab, o'quv-tarbiyaga doir fikr-mulohazalarini batafsil yoritgan. Shu asarning birinchi qismida harf mashq qilishga tayyorgarlik masalalarini, ikkinchi qismida esa xat mashqi va uning usuli haqida amaliy ishlarni bayon qiladi.

Munis tarjimon sifatida XV asrda yashab ijod etgan tarixchi Mirxondning “Ravzatus-safo” asarining birinchi va ikkinchi jildini o`zbek tiliga tarjima qilgan.

Munis ma`rifatparvar shoir sifatida o`z zamonasining eng ilg`or ma`rifatparvari edi. Shoir o`z she`rlarida tarbiya masalalarini zarurligini uqtirdi. U insonga xos yuksak fazilatlarni ilm orqali tarbiyalash lozimligini ko`rsatib bergan. Munis og`ir kasallik tufayli 1829 yilda vafot etdi. U qoldirgan o`lmas adabiy va ma`rifiy meros yosh avlod tarbiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Munis kishilarni rostgo`ylik, mardlik, xalqchilik, do`stlik, vatanparvarlik va vafo ruhida tarbiyalash eng avvalo ilm orqali amalga oshirilishini ta`kidlagan. U bilimning qudrati kuch ekanligini ko`rsatadi. Munis ilmning afzalligi to`g`risida maktab va madrasalarda o`qitiladigan fanlarning mohiyatini she`riy misra-larda shunda y bayon etgan edi:

*Goho tinglovchilar birla gulxan aro
Surub dardkashlikka yuz majaro,
Gahi rindlar bazmiga yo`l topib
Hamonki maqsudg`a qul topib,
Gohi maktab ichra kirib shodkom,
Madrasa sari aylab hirom.
Qayu erda ahbob bazm aylasa,
Tarab irtiqobiga azm aylasa,
O`zimni olar ichra solur erdim,
Ko`ngul qong`uncha bahra olur erdim.*

Munis “Savodi ta`lim” asarida donishmandning ilmga bo`l-gan e`tiqodi uning o`z xatida aks etishini alohida ta`kidlaydi. Shuningdek, xatni chiroyli, husndor va xatosiz yozilishining tarbiyaviy ahamiyatini quyidagicha ochib beradi.

*Xattidin o`lub xujasta ta`lim,
Ta`lim fani xatiga taslim,
Sharmanda xati sabz xatlar,
Xol ofati xatida nuqtalar.
Ta`lim berur na bir raqamdin,
Xat yozmoq ishi eti qalamdin.*

Shoir insonlarni bir-biriga mehr-oqibatli bo`lishini, do`stlik rishtalarini bog`lovchi nomalar yozish haqidagi g`oyasini, maqsadi va vazifalarini alohida bayon etadi:

*Ko`p muddat erdi guruhi mushtoq,
Ta`lim sumakbag`rig`a ushshoq,
Mashq etmak ishida xat bitarga,
Ta`lim vuqufiga etirga...
Bilganicha surub qalamni har yoni
Ta`lim ishin aylar erdim oson.*

Munis ijodiyotida odob-axloq masalalari alohida o`rin egallaydi. Uning ijodiyotidagi asosiy yo`nalishlar: nohaqlik va zulmga qarshi adolat, saxiylik, xalqqa cheksiz muhabbat, ilm-ma`rifat, jaholatga qarshi kurashuvchi insoniy fazilatlar.

Munis o`z zamonasidagi o`zaro urushlar, hirsu dunyo odamlarni bir-biriga nisbatan mehrsiz bo`lishga asos bo`ldi deydi:

*Ne natija berur adab, hunaring
na nazarga kirar nasab guharing.
Bas erur bu zamonda bisoting aro
qara Siymu zaring.*

Munis o`z asarlarida mehr-oqibat hamda do`stlik tuyg`ularini kerak satrlarda shunday ifodalagan edi:

*Ey do`st, tani zarim aro jonim eding,
Iqlimi muhabbat uzra sultonim eding,
Xush keldingu jonimda nishiman qilding
Xush borki, base aziz mehmonim eding.*

Munis o`z asarlari bilan tarbiya masalalariga katta e`tibor berdi. Uning didaktikasi insonni yuksak olijanoblik, rostgo`ylik, halol, ilmga chanqoq, mehru oqibatli bo`lishga qaratilgan. Munisning adabiy va pedagogik g`oyalari maktablarda to`g`ri, chiroyli yozuv tartib-qoidalarini o`rgatish uslubi sifatida xizmat qilgan va qilmoqda.

10.5. Muhammad Sodiq Qoshg`ariyning “Odob as-solihin” asari-yuksak ma`naviy-axloqiy sifatlarni yorituvchi manba.

Tayanch iboralar: Muhammad Sodiq Qoshg`ariy, xulq-odob qoidalari, insonning ijobiy xulq-atvorga ega bo`lishi, salom berish qoyidalari, amal qilinishi lozim bo`lgan mezonlar.

Muhammad Sodiq Qoshg`ariy haqida bizgacha juda oz ma`lumot yetib kelgan. Lekin hozirgi paytda bizga ma`lum bo`lgan “Odob as-solihin” asarining o`ziyoq bizga uni mashhur pedagog olim sifatida

tanitadi. Muhammad Sodiq Qoshg`ariy 1740 yilda Qoshg`arda kambag`al dehqon oilasida tug`ilgan va 1843 yilda u shu yerda vafot etgan. Biz olimning qay darajada tarbiyashunos ekanligini u tomonidan yaratilgan asarlarning mazmunidan bilamiz. Bizgacha uning “Odob as-solihin” (“Yaxshi kishilar odobi”), “Zubdat al-masoyil” (“Masalalarning qaymog`i”), “Dur al-muzoxir” (“Ko`makdoshlarning durdonasi”) hamda “Tazkirai xojagon” (“Xojalartazkirasi”) nomli asarlari yetibkelgan. Sharqning buyuk allomalari - Yusuf Xos Hojib, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Sa`diy Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar yuksak axloqiylikni shakllantirishga oid yirik asarlar, hikmatlar yaratganlar. Shu bilan birga xulq-odob tarbiyasiga oid “Axloqi Muhsiniy”, “Axloqi Jaloliy”, “Axloqi Nosiriy”, “Qobusnoma” kabi asarlar yaratilgan. O`zida shaxs va uning tarbiyasini yo`lga qo`yish masalalarini aks ettiruvchi asarlarni yaratish an`anasi mavjud bo`lgan davrda Muhammad Sodiq Qoshg`ariy tomonidan turkiy tilda “Odob as-solihin” (“Yaxshi kishilar odobi”), “Zubdat as-masoyil” (“Masalalarning qaymog`i”) nomli asarlar yaratildi. “Odob as-solihin” asari 5 marta, 1889 hamda 1901 yillarda Toshkent shahrida va 1891, 1892 hamda 1986 yillarda Istanbul shahrida qaytanashretilgan. Mazkur asarning nomi va mazmunidan ham anglanib turganidek, unda ilgari surilgan g`oyalar insonning hayoti davomida zarur ahamiyat kasb etuvchi xulq-odob qoidalari xususida kishilar, shu jumladan, yoshlarga muayyan darajada ma`lumotlar berishga xizmat qiladi. “Odob as-solihin” asarida ijtimoiy hayot hamda kundalik turmushda har bir inson tomonidan qat`iy amal qilinishi zarur bo`lgan zohiriy (tashqi) va botiniy (ichki) odob va axloq qoidalari, ularning ijtimoiy ahamiyati, yoshlar tarbiyasini yo`lga qo`yishdagi o`rni va roli borasida batafsil so`z yuritiladi.

Muhammad Sodiq Qoshg`ariy tomonidan yaratilgan “Odob as-solihin” asari muallifning o`zi ta`kidlab o`tganidek, muqaddima va 7 bobdan iborat bo`lib, har bir bob o`zida 4 faslni aks ettiradi.

Muqaddimada asarning maqsadi ochib beriladi. Asarning yozilishidan ko`zda tutilgan maqsad borasida so`z yuritilar ekan, insonning ijobiy xulq-atvorga ega bo`lishini taqozo etuvchi ijtimoiy zaruriyat mohiyati batafsil ochib beriladi. Asarda ilgari surilgan asosiy g`oya-insonlarning ijobiy xulq-atvorga ega bo`lishlari jamiyatda ruhiy xotirjamlik va moddiy farovonlikni qaror toptiruvchi asosiy omil

ekanligini asoslashdan iboratdir. Alloma mazkur g'oya mohiyatini sharhlar ekan, inson odob-axloq qoidalarini egallay olmasa hamda ijobiy xulq-atvori bilan muaddab (odobli) va muzazzab (toza) bo'lmasa, nafaqat o'zi, balki butun dunyoga yomonlik tarqatadi degan qarashni ilgari suradi. Shunday ekan, har bir inson ichki hamda tashqi odob qoidalarining mohiyatini to'laqonli ravishda anglab, ularga qat'iy amal qilishi zarur. Inson odob-axloq qoidalarining mohiyatidan qanday yo'l va usullar orqali boxabar bo'lishi mumkin degan savolga javob berar ekan, alloma ular yetuk mutafakkirlar tomonidan qimmatli, mo'tabar kitoblarda jam etganligi, mazkur kitoblarning mazmuni bilan tanishish orqali odob-axloq qoidalari va ularga amal qilish shartlari xususida muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyati mavjudligini alohida ta'kidlab o'tadi. Asarda komil inson bo'lib yetishishda kundalik hayot hamda amaliy turmushda o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi botiniy (ichki) va zohiriy (tashqi) odob-axloq qoidalari: salomlashish, ruxsat so'rash, muloqot, uxlash, yo'l yurish, mehmon kutish, ziyofat, ovqatlanish, shuningdek, er-xotin munosabatlarini yo'lga qo'yish odobi va ularga amal qilish shartlari borasida so'z yuritiladi. Suhbat ahlining o'zini tutishi, tozalik, ozodalik hamda safarga chiqish qoidalari ham asar mazmunining markaziy qismidan o'rin olgan.

Birinchi bob salomlashish, ko'rishish, qo'l olishish hamda ruxsat so'rash qoidalari to'g'risida ma'lumotlar berishga yo'naltirilgan bo'lib, mazkur bob to'rt fasldan tashkil topgan.

Ma'lumki, Sharq xalqlari tomonidan tan olingan axloqiy qoidalarga ko'ra biror kimsa o'zgalar xonadoniga tashrif buyursa, eshikdan xonadon sohiblarining ruxsatsiz kirib boravermay, ma'lum qoidalarga rioya qilishi shart. Ana shu qoidalarining eng muhimlari deb, Muhammad Sodiq Qoshg'ariy tashrif buyuruvchi kimsa o'zining kelganligidan xonadon sohiblarini ogoh etishi (eshikni qoqishi yoki yo'talishi), ushbu choraga nisbatan ichkaridan javob berilgach kirishga ruxsat so'rashi, so'ngra ichkariga kirishi kerakligi lozimligini bayon etadi.

Ikkinchi faslda esa, salomlashish odobining o'n ikki qoidasi borasida fikr yuritiladi. Mazkur o'rinda salom berish va alik olish masalasida bugungi kunga qadar davom etib kelayotgan munozaraga nuqta qo'yilgan. Muallifning fikriga ko'ra, salom bermak sunnat, javobi farzu ayyondir. Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning e'tirof

etishicha, salom quyidagi holatlarda quyidagi kishilar tomonidan berilishi maqsadga muvofiqdir: ulug` kichikka, otliq piyodaga, yuruvchi o`ltirguvchiga, ozchilik ko`pchilikka, xonaga kirib keluvchi, xona ichkarisida o`tirgan kishilarga salom bergay”, deb ta`kidlar ekan, bir kishi ko`pchilik oldiga kirib kelganda, birinchi bo`lib salom berishi, ko`pchilik esa baravar ovoz chiqarmasdan salomga alik olishi joizligiga alohida e`tiborni qaratadi. Allomaning salomlashish odobi xususidagi fikrlari bilan tanishar ekanmiz, ta`lim muassasalarida muallim sinf xonasi yoki auditoriyaga kirib kelganda, “Kim oldin salom berishi kerak?”, degan muammoning yechimini topgandek bo`lamiz.

Mazkur bobda yana salomlashishdagi hatti-harakatlar, jismonan zaif yoki bemor kishilar tomonidan amal qilinishi lozim bo`lgan, shuningdek, erkak va xotin-qizlar o`rtasida kechuvchi salomlashish qoidalari, salom bermaslik va javob qaytarmaslik joiz deb topilgan holatlar borasida ham muhim tavsiyalar bayon etilganki, ushbu tavsiyalar bugungi kun uchun ham nihoyatda ahamiyatlidir. Birinchi bobning uchinchi faslida berilgan muloqot (uchrashuv) odobiga oid tavsiyalar ham diqqatga sazovor. Bunda uchrashganda qo`l berib ko`rishish, lekin qo`l uchi bilan emas, astoydil, biroq qo`lni silamay, ochiq yuz bilan ko`rishish odobi bayon etiladi<sup>1</sup>. Quchoqlashib ko`rishish, safardan qaytgan kishi hamda yosh bolalar bilan ko`rishish, o`pib ko`rishish odoblari bayon etiladi. Ikkinchi bobda uxlamoq, kiyim kiyish, yo`l yurish odoblari haqida fikr yuritiladi. Masalan, uxlash oldidan eshiklarni mahkamlab yopish, idishlarning og`zini berkitish, o`rnidagi ko`rpa-to`shaklarni bir bora qoqib yozish, o`choqdagi olovni hamda chiroqni o`chirish, uxlaydigan o`rnini yumshoq qilmaslik, o`ng qo`lga bir oz suyanib yotish tavsiya etiladiki, ushbu qoidalarining ahamiyati ularga rioya qilmaslik natijasida ro`y bergan noxush voqealar misolida ochib beriladi. Libos kiyish qoidalari ham xulq-odob me`yorlarining tarkibiy qismi sanaladi. Bizga yaxshi ma`lumki, libos kiyish borasida ham ma`lum mezonlar qabul qilingan bo`lib, ularga amal qilish kishini noqulay vaziyatga tushib qolishdan saqlaydi. Muhammad Sodiq Q`oshg`ariy ushbu bobda libos kiyish qoidalari va ularga amal qilish shartlari yuzasidan mulohazalarni ilgari suradi. Bu borada muallif kishilar tomonidan amal qilinishi o`ta muhim sanalgan mezonlar quyidagilar ekanligiga alohida urg`u beradi: libos tanlashda kishining imkon darajasi, moddiy holati, mavqeyi, nasl-nasabi, yoshi,

jinsi, shuningdek, joyi (geografik mintaqa, shahar yoki qishloq, faoliyat turi va hokazolar) inobatga olinishi lozim. Tanlangan libosning qulayligi, faslga mos bo'lishi ham maqsadga muvofiqdir. Libosni toza tutish, o'ta darajada hashamdor bo'lgan liboslarni kiymaslik, yaxshi libos kiyganda manmanlik qilmaslik, kiymaydigan ortiqcha liboslarni muhtojlarga in'om qilish xususida berilgan tavsiyalar bugungi kundahamo'z ahamiyatini yo'qotmagan. Yo'l yurish qoidalari ham har bir inson bilishi zarur bo'lgan qoidalaridan biri bo'lib, muallif mazkur masalaga ham o'z e'tiborini qaratadi. Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning tavsiyalariga ko'ra, yo'l yurganda atrofga alanglamaslik, jamoat joylarida esa boshqalarga xalal bermaslik, ularning hurmatini saqlash, hamrohlar ishtirokida yo'l yurilayotgan bo'lsa, ularning yoshi, mavqei, salomatlik darajasini inobatga olish, yo'lda tanish kishi uchrab qolsa, u bilan salomlashib, tez o'tib ketish, agar zarur bo'lsa, yo'l chetiga chiqib so'zlashish, yo'lda og'iz suvi yoki balg'amni tupursa yuzini berkitish, uni o'ng tomonga yoki oldiga emas, chap tomoniga yoki orqaga tashlash, muhtojlarga duch kelib qolinsa, ularga yordam berish, kishilarga aziyat yetkazadigan narsalarni yo'ldan olib tashlash, mazlumlarning g'am-anduhlariga sherik bo'lib, ularga yordam ko'rsatish, kishilarning yaxshi amallarini ma'qullab, ularni yomon ishlardan qaytarish maqsadga muvofiq ekanligi bayon etiladiki, ushbu qoidalarni bilish katta-yu kichikka birdek zarurdir. Uchinchi bobda suhbatlashish odobi borasida so'z yuritiladi. Bizga yaxshi ma'lumki, suhbatlashish odobi va uning shartlariga amal qilish ijtimoiy munosabatlarning mo'tadil kyechishini ta'minlovchi asosiy va o'ta muhim omillardan biri bo'lib, aksariyat mualliflar tomonidan yaratilgan hamda axloq-odob muammolariga bag'ishlangan asarlar mazmunidan alohida o'rin olgan. «Odob as-solihin» asarida ham muallif suhbatlashish odobi va uning o'ziga xos jihatlari borasida batafsil so'z yuritadi. Suhbatning yaxshi niyatlarga boy hamda beg'araz bo'lishi muhim sanaladi. Muayyan mavzularda tashkil etilayotgan suhbat (bahs-munozara)ga tanning tozaligiga erishgan, shuningdek, og'iz va tishlarni tozalagan holda pokiza libos bilan tashrif buyurish, suhbat ahlining bir-birlariga hurmat va iltifot ko'rsatishlariga erishish, ulug'larga e'tiborini qaratish, o'tirish qoidalariga rioya etish, ahli suhbat kirganda va chiqqanda o'rindan turish va ulug'larni yuqoriga o'tkazish, beadab so'zlar, yomon hatti-harakatlar hamda noo'rin

jimlikdan saqlanish, barchaga yaxshi muomalada bo`lish, ularni izzat qilish, aksa kelsa og`zini to`sisib, past ovozda, yengil aksa urish, suhbat ahliga ish buyurmaslik, ularga beminnat xizmat ko`rsatish, do`st va notanishlarga bir xil ochiq chehra, go`zal xulq va odob bilan muomalada bo`lish, aka-ukalar, opa-singillarning xatosini kechirish hamda ularning aybini yuzlariga solmaslik, agar joiz bo`lsa ularga boshqalarning e`tiboridan chetda nasihat qilish, suhbat jarayonida ishtirok etayotgan biror kishining yomon qilig`i, yoki qabih fe`liga baho bermaslik, zaruriyat yuzaga kelgan holda uni suhbatdan chetlatish chora-tadbiri ko`rilgan.

10.6. XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi.

***Tayanch iboralar:** Rossiyaning bosqinchilik yurishi, Markaziy Osiyoning mustamlakaga aylanishi, Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy-ijtimoiy taraqqiyoti, ilg`or ziyolilarning faoliyati.*

Markaziy Osiyoda temuriylar hukmronligi inqirozga yuz tutgandan keyin bu o`lkani qo`lga kiritish uchun jahonning ko`pgina mamlakatlari harakat qildilar. Ana shulardan biri chor Rossiyasi edi.

Markaziy Osiyoni Rossiyaga qaram qilish g`oyasi Petr I dan boshlanib, uning vafotidan so`ng Yekaterina II hukumati tomonidan davom ettirildi...

Rossiyaning bosqinchilik yurishi XIX asrning ikkinchi yarmiga to`g`ri keladi. Chunki, bu davrda sobiq imperiya o`rnida uch xonlik Buxoro amirligi, Xiva hamda Qo`qon xonliklari bo`lib, bular O`rtasida nizolar kuchaygan edi. Bundan foydalangan chor hukumati o`zining yovuz niyatlarini amalga oshirishga kirishib, dastlab qozog`istonni o`zlariga tobe qildilar. So`ngra 1864 yili Turkmaniston, Chimkent, Avliyoota, 1865 yili Toshkentni zabt etdilar. 1867 yili Yettisuv, 1868 yili Samarqand, 1876 yili Farg`ona Rossiya qo`liga o`tdi.

1876 - yil 19 fevralda podsho Aleksandr II Qo`qon xonligi tugatilganligi to`g`risidagi buyruqqa imzo chekdi. 1885-yilga kelib Markaziy Osiyoning hamma erlari Rossiya tasarrufiga o`tdi va o`lkada Turkiston general gubernat birligi tashkil etildi.

Markaziy Osiyo mustamlakaga aylantirilgach, chor hukumati mustamlakachilik siyosatini yurgizdi, bu siyosatga qarshi ko`tarilgan xalq qo`zg`olonlarini esa ayovsiz bostirdi. U Markaziy Osiyo

hududida istiqomat qiluvchi turli xalqlarni bir-biriga qarshi qo'yish bilan ular o'rtasida nizolarni avj oldirdi.

Chor hukumati xalqimizning milliy madaniyatiga va uning rivojiga tish tirnog'i bilan qarshilik qildi, milliy zulmni kuchaytirdi. Bu zulm birinchi navbatda madaniyat, fan, san'at, ijtimoiy va pedagogik fikr, turmush tarziga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xalq o'zining milliy merosi, qadriyatlari va g'ururidan mahrum bo'la boshladi. Turkiston general - gubernatori fon Kaufman imperatorga yo'llagan bir maktubida Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy-ijtimoiy taraqqiyoti uch yuz yil orqaga surib yuborilganini maqtanib yozgan edi. Oktabr to'ntarishidan oldin masjid va madrasalardagi kitoblar, noyob qo'llanmalar yondirib tashlandi, bir qismi Peterburgga olib ketildi.

O'lkada yuz bergan bu voqealar ilg'or ziyolilarning faoliyatiga ham ta'sir etmay qolmadi. Ular o'lkada chor ma'murlari qo'llagan jabr zulmga qaramay ilm-fan va madaniyatning umumiy rivojiga o'z hissalarini qo'shdilar. Ular o'zlaridan oldin o'tgan ulug' mutafakkirlarning insonparvarlik, pedagogik fikr, g'oyalarini davom ettirdilar. Buni Furqat, Muqimiy, Avaz O'tar, Anbar Otin, Ahmad Donish, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Zavqiy, Said Ahmad Siddiqiy ijodida ko'rish mumkin.

10.7. Chor Rossiyasining ta'lim siyosati.

Tayanch iboralar: *Rus muhojirlari, Markaziy (O'rta) Osiyo aholisining savodxonlik darajasi, Turkiston o'lkasi xalqlari, chor Rossiyasining asosiy mafkuraviy kurashi, maktab ustavlarining tasdiqlanishi, ruslashtirish ko'rsatmasi,*

Rus muhojirlari Turkiston general gubernatorining farmoniga binoan o'lkada rus va rus tuzem maktablari, gimnaziya kabi maktablarni ochish va bu maktablarni kengaytirish hisobiga mahalliy maktablar, madrasalarni siqib chiqarish maqsadida maorif islohotini o'tkaza boshladilar.

Bu bilan go'yoki, ular Markaziy Osiyo aholisining savodxonlik darajasini oshirmoqchi bo'ldilar va har bir qilingan ishni bo'rttirib ko'rsatishga urindilar.

1917 yilgi to'ntarishgacha 21 foiz savodxon bo'lgan o'lka aholisini, yoppasiga savodsiz edi, deya kamsitishga urindilar, quruq bo'hton yog'dirdilar.

O`lka aholisini savodxon qilish uchun eng avvalo rus, rus tuzem, gimnaziya kabi o`quv maskanlari kerak, madrasa va «usuli qadimiya» eski usul maktablarida, otinlar maktablarida savod chiqarib bo`lmaydi degan siyosatni yurgizishga harakat qildilar.

Bunga biz 1897 yildagi Rossiya tomonidan o`tkazilgan aholi ro`yxati ma`lumotlarini ko`rsatishimiz mumkin. Masalan, o`sha aholi ro`yxatida qayd etilishicha, Markaziy (O`rta) Osiyo aholisining savodxonlik darajasi quyidagicha belgilangan:

tojiklar — 99,5 % savodsiz;
qirg'izlar 99,4 % savodsiz;
turkmanlar 99,3 % savodsiz;
o`zbeklar—98,4 % savodsiz;
qozoqlar—97,9 % savodsiz deb hisoblangan.

Bu ko`rsatkichlarning barchasi uydurma edi. Aslida Turkiston o`lkasi xalqlarining savodxonlik darajasi chor Rossiyasi aholisining savodxonlik darajasidan past emas edi. Chunki Turkiston o`lkasi xalqlari 1917 yilgi to`ntarishdan oldin shaxsiy va ommaviy maktablar, madrasalarda bilim olganlar, ilm egalari bo`lganlar.

Zero, yuqorida qayd etilgan aholi ro`yxati ma`lumotnomasida rus xalqidan, rus millatidan boshqa millatga mansub fuqarolarni ataylab kamsitish chor Rossiyasining asosiy mafkuraviy kurashi natijasidir. Chunki ular rus va rus tuzem maktablarini bitirganlarnigina savodli deb hisoblaganlar. Hatto ular dunyoviy maktablar ochish, ona tilidagi darsliklar, gazeta va jurnallar nashr qilish va hokazolarni qat`iy ta`qib qilar edilar.

Ayni vaqtda chor hukumati rus bo`lmagan aholi yashaydigan joylarda maktablar ochar, bu maktablar esa o`z oldiga ruslashtirish maqsadini qo`yar edi.

Chor hukumati tomonidan XX asrning 60 yillarida maktab ustavlari tasdiqlanib, shular asosida boshlang'ich hamda o`rta maktablar qayta tuzilib, rus bo`lmagan xalqlar uchun maktablar tashkil etishga doir davlat hujjatlarini ishlab chiqishga kirishdilar.

Maktab ishiga taalluqli asosiy siyosiy va ideologiya sohasidagi ko`rsatmalar 1870 yili chor Rossiyasi xalq maorifi noziri D.A.Tolstoy tomonidan ifodalab berilgandi: «Bizning vatanimizda yashovchi barcha begona (rus bo`lmagan) xalqlarning ma`lumotli bo`lishining oxirgi maqsadi, deb ma`lum qilgan edi u, shubhasiz, ularni ruslashtirish va rus xalqi bilan birlashtirishdan iborat bo`lishi kerak».

Ruslashtirish ko'rsatmasi 1870 yili e'lon qilingan bo'lib, unga binoan rus millatiga mansub bo'lmagan barcha xalqlar uchta toifaga bo'lingan edi.

«Juda kam ruslashgan xalqlar». Bularga Sharqiy Sibir va Volgabo'yi xalqlari kirar edi. Bu xalqlar uchun ochilgan maktablarda o'qishni ona tilida boshlash va keyinchalik rus tilida o'qitishga o'tish tavsiya qilinar edi.

«Ruslar ham yashaydigan rayonlarda yashovchi xalqlar». Bu joylardagi maktablarda o'qitishni dastlab rus tilida olib borish, ayrim hollarda ona tilining yordamiga tayanish va mumkin qadar tezroq faqat rus tilida o'qitishga o'tish taklif qilinar edi (masalan, gruzin bolalari o'qitiladigan maktablarda o'qitish shunday olib boriladi).

«Yetarli darajada ruslashgan xalqlar». Ukrainlar, Belarus va boshqalar. Bularning maktablarida o'qitishni faqat rus tilida olib borish tayinlangan edi.

Mana shu umumiy direktiv hujjat asosida ulkan Rossiya imperiyasi ayrim hududlaridagi maktablarning ta'lim-tarbiyaviy ish prinsiplarini belgilab beradigan yo'l-yo'riqlar yaratiladi va e'lon qilinadi...

Tarixda o'zbek xalqi ko'p bosqinchilarni ko'rgan. Masalan, mo'g'ul bosqinchiligini oladigan bo'lsak, ular odamlarni qirgan, boyliklarini talon taroj qilgan... ammo madaniyatiga, tiliga va diniga tegmagan. eng dahshatlisi, ruslar Turkistonda barcha bosqinchilik ishlarini olib borish bilan birga, xalqning urf-odatidan, tili va dinidan ham ayirmoqchi bo'ldilar.

General Rozenbax shunday degandi: «O'lkani ruslashtirish rejasini amalga oshirishda maktab katta ahamiyat kasb etishi lozim». Haqiqatdan ham mustamlaka davrida rus tuzem maktablari vujudga keldi. Bu maktablarning asl maqsadi o'lkani ruslashtirish edi.

XX asr boshlarida Turkistonda hammasi bo'lib 20925 ishchi bo'lgan, xolos. Temir yo'llar o'lkamizning barcha boyliklarini Rossiyaga tashib olib ketish maqsadida qurilgan. Yangi ochilgan turli maktablar esa, mustamlakachi amaldorlar uchun tilmochlar tayyorlab berish uchun xizmat qilgan.

10.8. Turkistonda maktablar tizimi.

Tayanch iboralar: Turkiston o`lkasida boshlang'ich maktablar, shahar maktablari, oliy diniy maktablar, maktab va madrasalar, musulmon maktablari.

XIX asrning o`rtalarida Turkiston o`lkasida boshlang'ich maktab hamda o`rta va oliy diniy ta`lim beradigan madrasalar mavjud edi. Maktablarning aksariyati, shu jumladan, qishloq maktablarining ko`pchiligi diniy ta`lim beruvchi eng oddiy boshlang'ich maktablar edi. Bu maktablarda masjidlarning imomlari, savodxon mullalar dars berardilar. Bunday maktablarda o`qitish eng oddiy diniy vazifalarni o`rgatish bilan, ya`ni qur`on o`qishni o`rgatish, har bir musulmon uchun zarur bo`lgan asosiy vazifalarni bildirish bilan cheklanilardi.

Shahar maktablarida diniy ta`limdan tashqari, umumiy ta`lim elementlari yozish va hisoblash yo`llari o`rgatilardi.

Shahar maktablarida o`quvchilar soni 20-30 taga, qishloq joylarida esa 10-15 taga yetardi. O`qishga 6 yoshdan qabul qilinib, o`zlashtirishiga qarab, 17-18 yoshlargacha davom etardi. Maktabda avval «haftiyak», keyin «qur`on» yod olinar, so`ng «Chor kitob»ga o`tilardi.

«Chor kitob» 4 bo`limdan iborat bo`lib, 1bo`lim haq xudoning nomlari tushuntirilardi, din qoidalari, tahorat, namoz bayon etiladi; ikkinchisida iymon-etiqodni anglash; uchinchi bo`limda kalomi nabi-rivoyatlar bahs etilgan, Xalq orasida mashhur shoirlarning she`r va g`azallari o`qitilardi. Odatda, bunday maktablarning o`quvchilari badavlat oilalarning bolalari bo`lardi. Ular o`qishni tamomlab, olgan bilimlarini savdo-sotiq ishlarida, hunarmandchilik ustaxonalarida qo`llar edilar, ba`zilari qo`shimcha ta`lim olib, xattotlik kasbi bilan shug`ullanar, ba`zilari esa, madrasaga kirib o`qishni davom ettirardi.

Oliy diniy maktab madrasada diniy falsafa va musulmon huquqlari, arab tilining grammatikasi va mantiq ilmlaridan dars o`tilardi. Uning o`quv rejalari vaqt va sharoitga qarab o`zgarib turgan. Masalan: XV asrning 30-40 yillari Samarqand va Hirot madrasalarida dunyoviy bilimlar matematika, astronomiya, musiqa kabi fanlar o`qitilgan.

Madrasa uch bo`limdan iborat bo`lgan: birinchi bo`limda musulmon diniy aqidalari bayon qilingan kitob arab tili va qonunchilik o`rgatilardi. Bu bo`lim tinglovchisi 9-10 yil o`qigan.

Ikkinchi bo`limda qonunchilik, ilohiyot, mushkulot, mantiq, arab tili grammatikasi, notiqlik mahorati, kalom o`qitilgan. Unda 7-8 yil o`qishgan.

Uchinchi bo`limda ilohiyot, qonunchilik, kalom o`qitilgan. Qonunchilik kursida geografiya va arifmetikadan ba`zi ma`lumotlar berilgan. Madrasani tamomlab chiqqanlar imomlik bilan shug`ullanish va qozixonalarda ishlash huquqiga ega bo`lar edi. Maktab va madrasalarda asosan o`g`il bolalar o`qitilardi. Shaharlardagi diniy maktablarda ba`zi domlarning xotinlari otinoyilar qizlarni o`qitish bilan shug`ullanardilar. Maktab va madrasalarda dars o`zbek, arab va fors tillarida olib borilardi.

Musulmon maktablarida ta`lim sistemasi 5 toifaga bo`lingan edi. Quyi maktab bu maktablarda o`g`il bolalarga savod o`rgatishgan (4 yil). Xalilxona maktabi (namoz) yod oldirib o`rgatilgan. Qorixona qur`on yod olingan.

10.9.Turkistonda rus maktablarining ochilishi.

Tayanch iboralar: musulmon ruhoniylari, musulmon maktablarini isloh qilish, Chorizmning Turkistonni ruslashtirishi, rus maktablari, rus tuzem maktablari, mahalliy aholi bolalari.

Markaziy Osiyo xonliklarida islom dini davlat dini hisoblanardi. Musulmon ruhoniylari Markaziy Osiyoning feodal hukmronlari bilan mahkam bog`langan edi; Shu hukmronlarning yordami tufayli bu yerda musulmonlarning juda ko`p diniy o`quv yurtlari, chunonchi: masjidlar huzurida maktablar, madrasalar va shunga o`xshagan o`quv yurtlari bor edi. Turkistonda birinchi general - gubernator bo`lgan Kaufman barcha musulmon muassasalariga nisbatan «aralashmaslik» (betaraflik) siyosatini tutdi.

O`rta asr musulmon maktablarini isloh qilishdan bosh tortgan chorizm ruslar o`rnashgan erlarda ochilgan rus maktablarini Turkistonda maorif sohasida o`z siyosatining quroli qilib olishga harakat qildi. (Toshkentda dastlabki rus maktabi 1866 yili ochilgan edi.) Rus maktablariga ruslar bilan birga o`qish uchun mahalliy aholi bolalari ham qabul qilinardi. Turkistondagi boshlang`ich rus maktablarida hunarga Rossiyaning Evropa qismidagiga qaraganda, ancha ko`proq o`rgatilardi; bundan maqsad mahalliy aholining bolalarini maktabga ko`proq jalb qilish edi.

Chorizmning Turkistondagi ruslashtirishdan iborat maktab tizimi uning Volga bo'yi uchun maqullangan «Ilminskiy sistemasi»dan farq qilardi. Qozon pedagogi Ilminskiy Volga bo'yidagi chuvashlar, mariylar va boshqa xalqlar uchun alohida rus va mahalliy aholi maktablari ochgan edi. Bu maktablarda o'qish dastlab bolalarning ona tillarida olib borilar, rus tili esa alohida fan sifatida o'qitilar edi, shu bilan birga, hamma darsliklar xristian (pravoslavie) dinini targ'ib qilish ruhida tuzilgan edi. Bulardan farqli o'laroq, islom dini ta'siri kuchli bo'lgan Turkistonning mahalliy aholisi O'rtasida xristianlar missionerligiga ruxsat etilmas edi; buning ustiga rus maktablarida musulmon dinini o'qitish ham man etilgan edi; rus maktablariga o'qishga kirgan yerli aholi bolalari dastlabki kundanoq rus tilida o'qitilar edi.

Turkistonda dastlabki rus O'rta o'quv yurtlari 1870 - yillardan ochila boshladi: 1876 yili Toshkentda, Verniyda (hozirgi Olmaotada) erlar va xotin-qizlar gimnaziyalari, 1879 yili esa, Toshkentda o'qituvchilar seminariyasi ochildi. Gimnaziyalarga ham erli aholining bolalari qabul qilinardi. O'qituvchilar seminariyalarida esa, mahalliy aholi bolalariga 103 o'rin ajratilgandi.

Turkistonda dastlab ochilgan ba'zi rus maktablarida o'quvchilarning 104 va undan ko'prog'ini mahalliy aholi bolalari tashkil etgan bo'lsada, lekin butun Turkiston o'lkasi bo'yicha hisoblaganda bunday maktablarda o'quvchi mahalliy aholi bolalari 200 dan oshmasdi. Bularning ham ko'pi qozoq bolalari bo'lib, o'zbek va tojik bolalari juda oz edi, chunki musulmon ruhoniylari «kofirlar» maktablariga qarshi targ'ibot yurgizardilar. Rus maktablarida, ayniqsa, O'rta maktablarda o'quvchilar o'rtasida o'z ijtimoiy ahvoriga ko'ra boylar va oqsuyaklarning bolalari ko'pchilikni tashkil etardi.

Chorizmning maktab sohasidagi siyosati ruslashtirishdan iborat bo'lsa ham, lekin rus bolalari bilan mahalliy aholi bolalarining birgalikda o'qishlari ular o'rtasida o'zaro do'stlikni tarbiyalar edi.

Rus maktabiga o'qishga kirgan bolalar rus tilini mutlaqo bilmas edilar, natijada ancha qiyinchilik tug'ilardi. Shuning uchun rus maktabiga kirgan, lekin rus tilini mutlaqo bilmaydigan o'quvchi rus tilida so'zlashishni o'rganib olmaguncha odatda quyi bo'limda o'qir, rus tilida so'zlashishni o'rganib olgandan keyingina yuqori bo'limga o'tkazilardi. Yuqori bo'limlarga o'quv yilining O'rtalarida ham o'tkazilaverardi, chunki maktablar kichkina bo'lib, bir vaqtning o'zida

mashg'ulotlar bir necha bo'limlar bilan olib borilardi.

Rus maktablarida o'qiydigan qozoq bolalarning ko'pchiligi internatlarda yashar edilar, xuddi shu internatlarda rus tili yanada tezroq va puxtaroq o'rganib olinardi.

Toshkentdagi gimnaziya dastlabki yillari mahalliy aholining bolalarini rus tili bilan ko'proq shug'ullantirish uchun lotin tilini o'rgatishdan ozod qilinardi.

1880 yillarning boshlariga kelib rus maktablarida o'qiydigan o'zbek va tojik bolalari uchun islom dinini o'qitish kerak, toki otalari bu maktablardan qo'rqqanlar, degan fikr tarqalgan edi. Turkiston ma'murlari bu fikrning qanchalik to'g'ri ekanligini tekshirishga qaror qildilar. 1884 yil 19 dekabrda Toshkentda, «eski shahar» qismida sinab ko'rish uchun birinchi rus tuzem maktabi ochilgan edi. 10 yillardan keyin Toshkentda bunday maktablar soni to'rttaga ko'paydi. Bu tipdagi maktablar o'lkadagi yirik shaharlar hamda qishloqlarda ham tashkil etila boshladi. o'lkada rus, rus tuzem maktablari ilk bor XIX asrning 70 yillari yuzaga kelgan bo'lsa, 1904 yilga kelib ularning soni 57 taga etdi.

Tadqiqotchi A. Muhammadjonovning ma'lumotiga ko'ra, o'lkada tashkil etilgan rus tuzem maktablari 1870-1904 yillari quyidagi holatda edi.

Rus tuzem maktablarida o'quvchilarga rus muallimi rus tilini hamda arifmetikani va boshqa fanlarni o'rgatar, buning uchun o'qish vaqtining yarmi ajratib qo'yilgan edi. O'qish vaqtining qolgan yarmi «Musulmon domla» ixtiyoriga berib qo'yilgan bo'lib, u eski usul maktablaridagidek bolalarga diniy darslar o'qitish bilan shug'ullanardi.

Rus tuzem maktablarida faqat o'g'il bolalar o'qitilardi. Ota-onalar qizlarini bunday maktablarga bermas edilar. 1903 yili Turkiston pedagogika to'garagi, Toshkentda Qizlar uchun rus tuzem maktabi ochildi. Lekin bu maktabning faoliyati uzoqqa cho'zilmay, ikki yildan keyin yopilib qoldi.

Rus tuzem maktablarida rus tilini o'qitish dasturi va uslubi rus bo'lmagan o'quvchilar uchun mo'ljallab tuzilar edi. (Bu maktablarda ba'zan rus bolalar ham uchrab qo'lardi.)

1884 yili sinash uchun ochilgan rus tuzem maktabida (Turkiston o'qituvchilar seminariyasining rus qismida) tarbiyalanuvchilar uchun o'zbek tili kiritildi. Namangan yaqinida bir qishloqda 6 yil yashagan

va o'zbek tilini yaxshi o'rganib olgan V.P.Nalivkin, bu maktabda birinchi bo'lib o'zbek tilini o'qitgan edi. U sinash uchun ochilgan rustuzem maktabining birinchi o'qituvchisi edi. Nalivkin seminariyada 1890 yilgacha dars berdi. Dars chog'ida Nalivkin bo'lajak o'qituvchilarga faqat o'zbek tilinigina o'rgatib qo'ymasdan, balki ularda o'lkani o'rganishga ham havas uyg'otgan edi. Seminariyada o'qib chiqqanlar orasida rus tuzem maktablarida ishlashga tayyor bo'lgan va bu ishni sevib qolganlar anchagina edi.

Turkistonning rus aholisi maktab ta'limi bilan erli aholiga qaraganda ancha yaxshiroq ta'minlangan edi. Turkiston o'lkasida birinchi bo'lib rus maktabi Toshkentda 1866 yili, Samarqandda 1870 yili, oradan 12 yil o'tgach, Turkiston o'lkasining boshqa shaharlarida ham paydo bo'ldi.

Bu rus maktablarida mahalliy aholi bolalari juda kam sonni tashkiletardi. 1876 yili Toshkentda erkaklar progimnaziyasi va qizlar progimnaziyasi ochiladi. 1894 yili real bilim yurti ochildi. Bu o'quv yurtlarida boshqa shaharlardan kelgan o'quvchilar uchun pansion (yotoqxona) ham bor edi. Bu maktablar davlat byudjetidan ta'minlanardi.

1879 yili Toshkentda Turkiston muallimlar seminariyasi ochildi. Bu seminariya maktablari rus boshlang'ichi sinflari uchun o'quvchilarga ona tilidan muallimlar tayyorlab berishi lozim edi. XIX asrning 80 yillari O'rtalaridan boshlab seminariya rus tuzem maktablari uchun ham muallimlar tayyorlashga kirishdi. Mahalliy tilni o'rganish majburiy qilib qo'yilganligi Toshkentdagi bu seminariyaning xususiyatlaridan biri bo'ldi. Unda V.P.Nalivkin o'zbek tilida dars bera boshlagan birinchi o'qituvchi edi. 1887 yili Nalivkin tuzgan lug'at va grammatika risolasi nashr etildi. Bular tilshunoslik tarixida o'zbek tiliga doir birinchi qo'llanmalar bo'ldi.

Maktablar uchun ajratilgan mablag'ning kattagina qismi o'rta o'quv yurtlariga sarflanardi. Toshkentdagi kadetlar korpusiga ayniqsa ko'p mablag' sarflanardi. Ishlab turgan to'rt o'quv yurtidan tashqari 1900 yildan boshlab yana beshta o'quv yurti ochildi. Samarqandda va Yangi Marg'ilonda Qizlar va erkaklar gimnaziyalari ishga tushdi; 1905-1916 yillar ichida o'rta maktablar soni ikki baravardan ziyodroq ko'paydi; uyezd markazlarining deyarli hammasida O'rta maktablar paydo bo'ldi.

Iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan Qo'qon va Toshkent

shaharlarida 1905-1907 yillari yangi tipdagi o`rta maktablar o`g`il va Qiz bolalar birga o`qiydigan kommersiya bilim yurtlari ochildi.

Turkistonning iqtisodiy rivojlanishi hunar texnika tipidagi maktablarning ochilishiga olib keldi. Chunonchi, 1896 yildayoq Toshkentda paxta zavodlari va boshqa zavodlarni ta`mirlash uchun kadrlar tayyorlaydigan bilim yurti ochildi; 1897 yili irrigatsiya nazoratchilari tayyorlaydigan kurs tashkil etildi. 1902 yili Toshkent yaqinida qishloq xo`jalik gidrotexnika maktabi ochildi; 1904 yili Samarqandda bog`dorchilik va shu yilning o`zida Toshkentda temir yo`l texnika bilim yurti ochildi. 1908 yili A.M.Malinovskaya Toshkentda qo`l hunar ustalari hamda hisobchilar tayyorlaydigan xususiy qizlar hunar maktabini ochdi. Shu tariqa, Turkistonda madaniy-iqtisodiy rivojlanish ancha yuksak pog`onaga ko`tarildi.

10.10. Yerlik aholi uchun rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi.

***Tayanch iboralar:** maxsus hukumat maktablari, rus tuzem maktablari, Rossiya tasarrufiga o`tish.*

Musulmon aholisi yashaydigan joylarda qadimdan maktab madrasalar mavjud bo`lib, bularga qarshi chor hukumati Rossiyadagi ko`p sonli xalqlar uchun maxsus hukumat maktablari barpo qilar edi. Bu maktablarning ko`pchiligida o`qitish rus tilida olib borilardi. Ularning biri to`rt yillik, ikkinchisi ikki yillik edi. Ba`zi bir to`rt yillik maktablarda internatlar ham bo`lib, ularda ko`proq mahalliy aholining boy qatlami bolalari ta`lim olardi. Turkiston 1880 yili Rossiya tasarrufiga o`tganidan keyin Markaziy Osiyodagi rustuzem maktablari ancha mashhur bo`ldi. Ammo mehnatkashlarning bolalari uchun yaxshi yo`lga qo`yilmagan ikki yillik savod chiqarish maktablari ochilgan edi. O`qish muddati ikki yil bo`lgan milliy maktablardan, masalan, qozoqlarda ovul maktablari deb atalgan maktablar tipik maktab sanalar edi.

Dastlabki ovul maktablari 1892 yili To`rg`ay oblastining ovullarida tashkil topgan bo`lib, aholining ko`chmanchilik turmushiga moslashtirilgan edi. Ovul maktablarida rus tili, arifmetika, qozoq alifbosi va islom dini o`qitilar edi. Bu maktablarda o`qitish o`quvchilarning ona tilida olib borilardi, lekin ularning saviyasi juda

past edi. 1916 yili 169 ovul maktabi bo`lib, ularda 5 ming o`quvchi o`qirdi, bu maktab yoshidagi barcha qozoq bolalarining faqat 1 foizga yaqinligina tashkil etardi, xolos.

Markaziy Osiyo va Shimoliy Kavkazning musulmon aholisi uchun rustuzem maktablari XIX asrning 80 yillaridan boshlab ochila boshladi. Bu maktablar o`z dasturlariga ko`ra rus ministrlik maktablaridan islom dinining o`qitilishi bilangina farq qilardi. Rustuzem maktablarida o`qitish rus tilida, diniy ta`limot esa, o`quvchilarning ona tilida olib borilardi.

10.11. Turkistonda jadidchilik harakati.

***Tayanch iboralar:** jadidchilik harakati, ma`rifatparvar musulmon ruhoniylari, islohotchilar rahnamosi, Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi,*

Turkistondagi jadidchilik harakati tasodifiy hodisa bo`lmay, balki hayotimizdagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar mahsulidir.

Jadidchilik oqimining ijtimoiy-siyosiy va ma`rifiy tomonlarini professor Begali Qosimov o`z tadqiqotlarida batafsil taqlil etgan.

XIX asr boshlarida Buxorodagi ma`rifatparvar musulmon ruhoniylari va ziyolilari orasida madrasa va maktablar sistemasi hamda islom diniga kirib holgan bidatlarni isloh qilish fikri paydo bo`la boshladi. Shunday islohot tarafdorlarini jadidchilar, ya`ni yangilik tarafdorlari deb atay boshladilar. O`sha davrlarda bunga qarama-qarshi turgan oqim, ya`ni feodal O`rta asrchilik, diniy fanatizm ruhidagi kishilarni esa qadimchilar, deb atay boshladilar. XIX asr avvallarida bir qancha ma`rifatparvar mudarrislar Buxoro shahridagi 200 ga yaqin madrasani isloh qilish g`oyasi bilan chiqdilar. Bu harakat boshida madrasa mudarrisi Abu Nasr Alhursaviy turgan edi. Qadimchilar ularni kofirlik va xudosizlikda aybladilar. Buxoro amiri Haydar esa, Hursaviyni zindonga tashlatib, o`lim jazosiga hukm qiladi. Ammo, uni tarafdorlari zindondan qochiradilar. Hursaviy Qozonda o`z faoliyatini davom ettirib, 1813 yili vafot etadi. XIX asrning 50-60 yillarida diniy islohotchilik harakati yanada kengaya boshlaydi. Endi bu harakat boshida Buxorolik mudarris va tarixchi olim Marjoniy (1818-1889), G`ijduvonlik domla Fozil, Mo`minjon Vobkandiy, mulla Xudoyberdi Boysuniy va boshqa mudarrislar turardilar. Ular madrasa va maktablarni isloh qilishni emas, balki

ortiqcha darslarni olib tashlash tarafdori ekanliklarini yozadilar. Islohotchilar rahnamosi Marjoniy o'z dasturida quyidagi olti asosiy masalani qo'yadi:

1. Qur'ondagi har qanday diniy masala yuzasidan kishilar bilgan holda o'zlari erkin fikr yuritsinlar;

2. Birovning birovga ko'r-ko'rona ergashishi qat'iy man qilinsin;

3. Madrasalarda o'qitiladigan hoshiya va shirq kabi quruq mazmunga ega bo'lgan, madrasa o'quvchilari uchun foydasiz hamda ularning 810 daqiqa vaqtini bekorga oluvchi darslar dars jadvallaridan olib tashlansin;

4. Madrasalarda Qur'oni Karim, hadisi sharif, ularning tarjimalari va islom tarixi kabi darslar o'tilsin;

5. Arifmetika, tarix, jo'g'rofiya, tabobat, qandasa, mantiq, falsafa va boshqa dunyoviy fanlarni o'qishga qarshilik ko'rsatilmasin;

6. Har bir ishda musulmonchilikni Muhammad alayhissalom davridagi qadimiy islom madaniyatiga qaytarish ko'zda tutilsin.

Marjoniy va uning tarafdorlari bo'lgan o'sha davrning jadidlari musulmon taraqqiy parvarlaridan edilar, ular madrasalarda diniy darslar bilan birga, qadimiy islom madaniyati davridagidek, dunyoviy darslarni o'qitishni shart qilib qo'ydilar. Biroq, qadimchilar va amir siyosati natijasida ta'qibga uchragan Marjoniy Buxorodan chiqib ketishga majbur bo'ldi. Uning maslakdoshlaridan ko'pchiligi zindonga tashlanib, orqalariga 75 darra urilgach, ular tavba qilib, qaytib bunday ishlarni qilmaslikka va'da berdilar

XIX asr oxiri XX asrning boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko'p joylarida jadidchilik harakati kuchayib ketdi. Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy-madaniy asoslarini qayta qurishga qaratilgani sababli eski tuzum, eski turmush, eski maktab tarafdorlarining kuchli qarsxiligiga duch keldi. Bu qarshi kuch vakillari qadimchilar deb atalgan bo'lsa, yangi hayot shabadalarini olib kelishga uringan kishilar jadid yoki jadidchilar degan nom oldilar. Shu tarzda asrimiz boshlarida jadidlar va jadidchilik harakati yuzaga keldi. Yangi asrning boshlanishi bilan avvalgidek ijtimoiy xorlik, iqtisodiy va madaniy qoloqlik sharoitida yashash mumkin emasligi ular uchun oydek ravshan edi. Markaziy Osiyodagina emas, balki Rossiyada yashovchi xalqlar ham o'z taqdirini o'zgartiribgina, feodal hujumning negizlarini parchalabgina yangi hayotga qadam qo'yishlari mumkin

edi. Oq podsho idora qilgan mamlakatdagi ana shu og'ir vaziyat tufayli 1905-1907 yillar inqilobi sodir bo'ldi. Bu inqilobdan maqsad jamiyatni demokratlashtirish, sakkiz soatlik ish kunini joriy etish, dvoryanlar ixtiyoridagi katta yer-mulkni olib, dehqonlarga bo'lib berish va hokazolar edi. Birinchi rus inqilobining bu dasturi bilan tanishgan Markaziy Osiyo taraqqiyparvar ziyolilari tatar qardoshlari ortidan borib, jadidchilik harakatiga qo'sxildilar. 1907 yil eron burjua inqilobi, 1908 yil Turkiya burjua inqilobi, Markaziy Osiyoda jadidchilik harakatining rasmiylashuvi va kuchga kirishida katta ahamiyat kasb etdi. Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy islohotlar yo'li bilan xalq va jamiyat hayotini yaxshilashga, madaniy yuksaklikka olib chiqishga qaratilgan dasturni bajarishga kirishdilar. Ular ta'sirida o'zbek zaminining boshqa go'shalarida ham jadidchilik harakati avj oldi.

Jadidchilik jamiyatni to'ntarish yo'li bilan emas, islohotlar yo'li bilan rivojlantirishni o'zining asosiy vazifasi deb belgiladi. U o'zining bu vazifasini ado etishda faqat bir sinfga proletariatgagina tayanmadi. Umuman jadidchilik insoniyatni sinflarga bo'lib tashlash tarafdori emas edi. Jadidlar hatto qadimchilar bilan ham ittifoq tuzib, xalq va kelajak manfaati yo'lida bahamti ishlash, bugungi tarix bilan aytganimizda, turli siyosiy qarashlarga ega bo'lgan xalq qatlamlarining murosayil madora yo'li bilan yashashi va ishlashi g'oyasini ko'tarib chiqdilar. Behbudiy ana shu g'oyani bayon qilar ekan, «ulamo yoki ziyoli va taraqqiyparvarlarimiz boy va avomimiz birlashib, din va millat va vatanning rivoji uchun xizmat etsak», deb yozgan. Jadidlarning Bunday intilishlarining boisi avom ham, boylar ham, ulamo ham, ziyolilar ham chor hukumati qaramog'ida bo'lgan mustamlakaning biri oz, ikkinchisi ko'p siquvda bo'lgan kishilar edilar. Markaziy Osiyo bozorlarida rus savdo-sanoat burjuaziyasi hukmron bo'lib, mahalliy burjuaziya vakillari sina boshlagan edi. Boshqacha aytganda, mustamlakachilik azobini mahalliy boylar va savdogarlar ham seza boshladilar. Ana shunday tarixiy sharoitda, jadidlarning fikr mulohazalariga ko'ra, oddiy xalqning iqtisodiy-madaniy hayotini yaxshilash qanday zarur bo'lsa, chet el kapitali iskanjasidan, mustamlakachilik kishanlaridan qutulish ham shunchalik kechiktirib bo'lmas vazifa edi.

Jadidlar 1906 yildayoq «Taraqqiy» deb nomlangan gazeta nashr ettirib, o'z g'oyalarini tarqata boshladilar. Oradan ko'p o'tmay

«Xurshid», «Shuhrat» singari yangi gazetalar dunyo yuzini ko`rdi. Markaziy Osiyoning turli shaharlarida jadid maktablari bodroqdek ochilib, ularda diniy ilmlar bilan birgalikda dunyoviy bilimlar ham keng targ'ib qilindi. «Jadidlar nima haqida gapirishmasin, hammasi yangi nafas, yangi g'oya edi, proletar mafkurasi ham, ishchilar sinfi ham yo`q edi, tabiat birlamchi deguvchilarning mafkurasini deyarli hech kim tushunmas, biladiganlar esa juda ozchilikni tashkil qilar edi. Shuning uchun jadidchilikning yangi g'oyalar bilan paydo bo`lib, ruhoniylarga, hukmron sinflarga qarshi turishi, madaniyatni yaratishi, bir so`z bilan aytganda, yangilik edi, «jadid» jumlasining ma`nosi ham «yangi» demakdir».

Jadidlarning harakat dasturi quyidagi masalalarni hal qilishga qaratilgandi:

Diniy taassub va fanatizmga qarshi kurash;

Diniy aqidalarga asoslangan O`rta asr maktablari o`rniga Ovropa qabilidagi dunyoviy ilmlarni ona tilida o`qitishga moslangan yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, feodal davri maorifini isloh qilish;

Jadidchilik g'oyalarini keng xalq ommasiga yetkazish niyatida yangi o`zbek adabiy tilini ishlab chiqish, matbuot hurligi uchun kurashish, xalq ommasiga tushunarli adabiyot va teatrni yaratish;

Xotin-qizlarni paranjidan chiqarish va jadid maktablariga qatnashishlarini ta`minlash yo`li bilan ular taqdirini o`zgartirish;

Mahalliy boylar va savdogar ahlining siyosiy-iqtisodiy jihatdan rus burjuaziyasi bilan bir huquqda bo`lishi, mahalliy amaldorlarning chor hukmdorlari tomonidan siquvga olinishiga qarshi kurash. Shu yo`l bilan mustamlakachilik siyosatini isloh qilish.

Asosiy talablari ana shunda n iborat bo`lgan jadidlar uchun ilm va ma`rifat yagona qurol bo`lib, ular shu qurol yordamida o`lkada ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun kurashmoqchi bo`ldilar.

10.12. Yangi usul maktablarining ochilishi.

Tayanch iboralar: sharq xalqlari ma`naviy hayoti, Ismoilbek G'aspirali, «usuli jadid», millatning o`zligini ko`rsatadigan xususiyatlar.

Bu oqimning asoschisi turkiy qavmlarning chinakam jafokashi va iftixori Ismoilbek G'aspiralidir. Sharq xalqlari ma`naviy hayotida, xususan, maktab va maorifida chinakam inqilob qilib, «usuli jadid»

nomi bilan tarixga kirgan «usuli savtiya»ni u boshlab berdi. Ismoilbek barcha turkiy xalqlarni yagona millat deb bildi; ilm ma'rifatda, haq-huquqda ularni dunyoning taraqqiy topgan millatlari bilan teng ko'rmoqni orzu qildi.

Ismoilbek 1851 yilning 21 martida tug'ildi. Uning tarbiyasida onasi Fotima va enagasi Habibaning xizmatlari katta bo'ldi. Ismoilni 8 yoshda eski maktabga berdilar. O'nga kirganda esa, otasi Mustafobek, onasi Fotimaning e'tirozlariga qaramasdan, Oq machitdagi guberniya gimnaziyasiga olib boradi. Unda ikki yil o'qigach, Voronejdagi ofitserlar harbiy o'quv yurtiga o'tadi. O'n uch yoshida o'qishini Moskvadagi Malyutin gimnaziyasiga ko'chiradi. 1868-yili uni bitirib, Boqchasaroyga qaytadi. «Zanjirli» madrasada rus tilidan dars bera boshlaydi. Oradan ko'p o'tmay o'qib o'rganish ishtiyoqi Ismoilbekni Istanbulga chorlaydi. Keyin Parij, Vena, Myunxen, Shtutgartda bo'ladi. Mashhur Sorbonna universitetiga o'qishga qatnaydi. Nihoyat, 1876-yili Boqchasaroyga qaytib, «Zanjirli»da rus tili muallimi sifatida ishini davom ettiradi.

1883-yilning 10 aprelida G'aspiralining «Tarjumon» gazetasining birinchi soni bosmadan chiqadi. Gazetaga yozgan maqolasida u o'quvchilariga, Shunday murojaat etadi: «Suyukli do'stlarim, biz uchun eng go'zal ish — ilm va maorif ishidir. eng muqaddas intilish — ilmga, maorifga intilishdir. Chunki insonni inson etgan mehnat va bilimdir. Bilim madaniy turmushga etishish vositasidir. Madaniy turmush esa insonning yashash maqsadi, usulidir...».

1884-yili G'aspirali yana bir muhim ishga qo'l uradi. U o'n ikki bolani yangicha — «usuli jadid» bilan o'qitishga kirishadi. Qirq kun ichida ularning savodini chiqaradi. Imtihonga bolalarning otalarini taklif qiladi. Hamma bir og'izdan «usuli jadid»ning beqiyos imkoniyatini e'tirof etadi. Xullas, Ismoilbek eski maktabda besh yilda olinadigan bilimni ikki yilda o'rgatishga muvaffaq bo'ladi. Shogirdlari uchun «Xo'jai sibyon» («Bolalar muallimi») nomli darslik tuzadi.

G'aspirali jahonning taraqqiy qilgan mamlakatlaridan orqada qolib ketishimizning sabablaridan biri deb o'z davridan tuzilgan o'qish o'qitish sistemasini ko'rsatadi. «eski usul»da o'qigan va o'qiyotganlarni hech bir kamsitmagan holda, «usul»ni yangilash shartligini uqtiradi. Biz taklif etayotgan usul osmondan tushgan emas, eskisini yangilamoqdir, deydi u. «Jadid usulning intishorini (yoyilishiga) cholishdig'imiz sizlarga va ilma hurmatan bir hikmatdir.

Chunki, ota-bobo kunlaridan qolmish milliy maktablari isloh etmak usuli jadid demakdir, boshqa bir o`quv, boshqa bir maktab demak dagildir. Usuli jadid oz vaqtda ziyoda va daqa mukammal o`qitmoq va uqimoq yo`llarini go`stirar (ko`rsatar), g`ayri bir shay (narsa) dagildir».

Yangi usul maktabida:

ikki dafa — yoz va qish boshlaridagina maktabga qabul qilinishi;

har bir muallimda ko`pi bilan 34 sinf bo`lishi;

agar maktab uch sinfdan iborat bo`lsa, darslar ketma-ket muayyan uyg'unlikda qo`yilmog'i;

7-9 yoshdagi bola uzluksiz 7-8 soat o`qiy olmaydi. Uning uchun 5 soat kifoya. Har darsdan so`ng 10 daqiqa tanaffus;

Juma va bayram kunlari dam olinishi;

o`n oy o`qishdan so`ng yozning issiq kunlarida ta`til bo`lishi;

dars zeriktirmasligi...

Shogirdlarini urish va so`kish befoyda ekanligi va boshqalarga e`tibor qaratilgan edi.

G`aspirali «usuli jadid» bilan o`qitishning qoidalarini qo`yidagicha tushuntiradi:

1. Butun alifboni birdan o`rgatish og'ir. Ibtido (boshda) uch, besh harf o`rgatib borish (yengil)dur.

2. Birinchi darsdan shogirdlari yozishni boshlamasliklari darkor.

3. Darslar muayyan soatlarga, qismlarga ajratilib o`rgatilishi lozim.

4. O`quvchi bir darsni o`zlashtirmaguncha ikkinchisiga o`tilmasligi kerak.

5. Harflar bilan tanishtirganda, ular haqida kengroq ma`lumot berilgani ma`qul.

Bolalarni har olti oyda imtihon qilish. Yil oxirida sinfdan sinfga o`tkazish, o`zlashtirmaganlarni sinfda qoldirish ko`zda tutiladi. Darslar har xil va har biri yarim soatdan bir soatgacha bo`lishi mumkin. Darslar orasida tanaffuslar bo`lmog'i kerak.

Bu maktablar uchun «Xo`jai sibyon» asosiy darslik bo`lib xizmat qilardi. 1910 yilgacha u 27 marotaba nashr qilingan. Lekin, «jadidchilikda birgina maktab bilan cheklanilmasdi, u Rusiyadagi musulmon ma`naviy olamining barcha jihatlarini — madrasani ham, matbuotni ham, ilm-fanni ham o`z ichiga olar va eng muhimi, ularning hammasi turmushga nechog'li daxldorligi, zamonga xizmat qila olishi

asosiy mezon qilib ko`zda tutilar edi» (B.Qosimov).

Millatning o`zligini ko`rsatadigan xususiyatlaridan biri — til va maorifdir. Bu ikkisi bo`lmasa, millat mustaqil bo`la olmaydi. G`aspirali 1905 yili yozgan maqolalaridan birida millatning asosi ikkita: tavqidiy til (til birligi) va tavqidiy din (din birligi), degan edi. Darhaqiqat, tilning o`rni beqiyos: «Insonning oti bo`lmasa, o`zi ham yo`q demakdir, shuningdek, tili bo`lmagan inson ham soqovdir». Bu bilan G`aspirali, millatni yo`q qilish uchun yuqoridagilardan bittasining buzilishi kifoya, deydi.

Ismoilbek fenomenining eng muhim jihatlaridan biri, shubhasiz, har bir millatning maorif, madaniyatini milliy zaminda olib borish, milliy til uchun kurash tashkil qildi.

Ismoilbek G`aspiralining nomi Markaziy Osiyoda ham ma`lum va mashhur bo`ldi.

10.13. Mahmudxo`ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma`rifatparvarlik xizmatlari.

Tayanch iboralar: Mahmudxo`ja Behbudiy, «*Tarjumon*» gazetasi, «*Musulmon ishchi va dehqon sho`rosi*», Munavvar Qori, «*usuli savtiya*», Abdulla Avloniy, «*Turon*» gazetasi, Abduqodir Shakuriy, axloq, odo va turmush qoidalari.

Turkistonda jadidchilik harakati asoschisi, atoqli jamoat arbobi, buyuk islomshunos, ulug` pedagog va axloqshunos, yuksak didli jurnalist Mahmudxo`ja Behbudiy 1875 yil 19 yanvarda Samarqandning Baxshitepa qishlog`ida ruhoniylar oilasida tavallud topdi.

Mahmudxo`ja 6-7 yoshlarida o`qib xatsavod chiqargach, otasi uni Qori qilish maqsadida qur`onni yodlata boshladi. Mahmudxo`ja Qur`onni yod olgach, Qorilik bilan qanoatlanmay 15 yoshlaridan tog`asi mufti mulla Odil huzurida dars olishga kirishdi. Bu yerda u «Kofiya», «Shahri mullo», mantiqdan «Shamsiya», «Muxtasar alviqo`ya», «Xoshiya» va hisob ilmini o`rganadi. Mahmudxo`ja o`quvchilar orasida ibratlisi hisoblangan, o`tkir zehni va o`qishga havasi balandlardan edi.

Mahmudxo`ja Behbudiy otasi vafot etganidan so`ng o`qishni tark etishga majbur bo`ladi. Samarqand muzofotida endigina qozi bo`lgan

tog'asi Muhammad Siddiq huzurida mirzalik xizmatida ishlaydi. Bu yerdagi yillik xizmat chog'ida qozixona ishlari bilan keng tanishadi. Ish yuritish, huquqqa xos hamda muftilikka tegishli barcha yumushlardan xabardor bo'ladi. U ikki yildan so'ng Kobud bo'limiga o'tib mirzalik qiladi va tez orada muftilikka ko'tariladi. 1916-yilgacha shu yerda ishlaydi...

Sharq xalqlarining ma'naviy hayotida, maktab maorifida chinakam to'ntarish yasagan, turkiy qavmlarning chinakam iftixori bo'lgan Ismoilbek G'aspiralining «usuli jadid» metodi tarixda katta o'rin tutgani singari, Behbudiyning faoliyati ham Turkiston maktab maorifida keng o'rin egallaydi. U birinchi bo'lib o'lkada bu yangicha usuldagi maktablarni tashkil etish targ'ibotchilaridan hamda amaliyotchilaridan hisoblanadi. Bu sohada Behbudiy Ismoilbek G'aspiralidan ko'p yangi tomonlarni o'rgandi. «Tarjumon» gazetasi Behbudiy uchun vaziyatni anglashda zaruriy vosita bo'ldi. Gazetaning dastlabki sonlarida: «Bir bechora faqirni ko'rsak, achinamiz o'layotgan bechorani ko'rsak, yuragimiz iztirobdan og'rinadi. Hatto biror hayvonning qiynalishi rahmimizni keltiradi. Lekin bir emas, minglab kishilarning, butun bir xalqning jaholatdan mislsiz qiynalayotganini ko'rmaymiz», deb yozilgan satrlar bor. Keyin «Tarjumon» sahifalarida yangi maktablar tashkil etish, ilg'or va yangi fikrlarni berish keng o'rin egalladi.

Behbudiy «usuli jadid» maktabining zarurligi, uning qonun-qoidalari, maktabda o'tiladigan darslar, qanday imtihonlar olinishi, maktabning qay tarzda tuzilishi, unga qanday asbob-uskunalar kerakligi, muallimlarning vazifalari, ularning ta'minoti masalalari va boshqa ko'p jihatlarni G'aspiralidan o'rgandi. Shular asosida Turkistonda «usuli jadid» maktablarini tashkil etish uchun bor kuchini sarfladi. U shu maktablarni kitoblar bilan ta'minlashda ham jonbozlik ko'rsatdi. U Samarqandning eski shahar qismida bepul kutubxona, qiroatxona, o'z hovlisida maktab ochdi. Mashhur pedagog Abduqodir Shakuriyning yangi usuldagi maktabini o'z hovlisiga ko'chirib keldi.

1918 yili Samarqandda «Musulmon ishchi va dehqon sho'rosi» tuzilganda Behbudiy maorif komissari etib tayinlanadi. Shunda u yangi maktablar tarmog'ini yanada kengaytiradi. O'quv rejalari tuzish, yangi darsliklar yaratish, o'qituvchilar tayyorlaydigan kurslar ochish kabi ishlarni rivojlantiradi.

Mahmudxo'ja Behbudiy «usuli jadid» maktablari uchun bir

qancha darsliklar yozadi. «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Madhali jo`g`rofiya umroniy» («Aholi jo`g`rofiyasiga kirish»), «Muxtasari jo`g`rofi rusiy» («Rossiyaning qisqacha jo`g`rofiyasi»), «Amaliyoti islom» kabi kitoblari darslik sifatida o`qitilgandi.

«Usuli jadid» maktablarida hamma o`qish huquqiga ega bo`lgan. Chor amaldorlari bu paytda Turkistondagi yangi usul maktablarni biron ayb topib darhol bekittirib quyar edi. Chunki, podsho hukumati «begona xalq»ning qisman bo`lsa ham ilm ma`rifatli bo`lishini, dunyoviy bilimlarni o`rganishini istamasdi. Yangi usul maktablarini faqat podsho hukumati emas, balki mahalliy ruhoniylar, eski maktab domlari ham yoqtirmas edilar. Ular yangi usul maktablari «islom diniga rahna soladi», «bu maktablarning muallimlari «kofir», deb tashviqot yuritir edilar. Bunday qarash va to`siqlarga qaramasdan Behbudiyy va uning maslakdoshlari «usuli jadid» maktablarida Turkiston farzandlarini o`qitish ishlarini jadal sur`atda olib borardilar. Maxmudxo`ja Behbudiyyning «usuli jadid» maktabidagi o`qitish ishlari quyidagi tartibda olib borilardi:

Maktab ikki bosqichdan iborat bo`lib, birinchi bosqich ibtidoiy qism, deb nomlangan. Buning tahsil muddati to`rt yil. Birinchi yili: forsha va arabcha yozuv hamda o`qish o`rganilgan. Suralar yod olingan, hisob darsi o`rgatilgan. Umuman bir yil davomida yozmoq va o`qimoqni to`liq o`rganganlar. Ikkinchi yili haftiyak, imon va e`tiqoddan dars, fors, turkiy va arab tilida she`rlar, qasidalar o`qitilgan. Uchinchi yili Qur`oni Karim, islom ibodati, tajvid, Sa`diydan nasihatlar, fors va turkiy til puxta o`rgatilib, undan insholar yozdirilardi. Hisobdan turli taqsimot va ish yuritish kabi zaruriy jihatlar o`qitilgan. To`rtinchi yili esa, Kalomu Sharif, mufasssal tajvid, forsiy va turkiy nazm va nasr, axloq darsi, turkiy va forsiy til, hisob, tarix, jo`g`rofiya o`qitilgan. Bu to`rt sinfni tamomlagan bolalarni muallimlarning o`zi taqsimlagan. Xohlasa, ikkinchi bosqichga qoldirar, ularning o`zlashtirishlariga qarab madrasaga yuborar, bolaning o`zi xohlasa, Yevropa maktablariga yuborar, yoki tirikchilik uchun ishlashga yo`llanma berardilar.

Maktabning ikkinchi bosqichi rushdiya bo`lib, bunga to`rt sinf ibtidoiy qismni tamomlaganlar o`tkazilar edi. Bu bosqichda o`qitiladigan dars va ilmlarning mundarijasi quyidagicha: birinchi yili arab tili, jo`g`rofiya, shafaqiya, fors tili, tarjima jumla muxtasar, tarixi

anbiyo va islom tarixi, Sa'diyning «Guliston» asari, turkiy til o`qitilgan; ikkinchi yil arab tili, shifoxiya, tarix, islom, axloq, turk tili, hisob, fors yozuvi va hokazolar; uchinchi yil arab tili, hisob, xat yozuvi, tarix, turkiy til, rus tili ham o`qitilgan; to`rtinchi yil arab tili, rus qozixona xatlari, bo`listnoyxona xatlari, turk tili va adabiyoti, salomatlik, maktab va hayot, ishq va muhabbatsiz axloq va boshqa ko`pgina hayotiy darslar o`qitilgan.

Behbudiy maktabida har yilning oxirida tantanali imtixonlar o`tkazilgan. Imtihonlarga, albatta, ota-onalar va boshqa mehmonlar taklif qilinardi. Bu birinchidan: «usuli jadid» maktablarini ko`proq targ`ib qilish va uning o`qish tartiblarini ko`rsatish bo`lsa; ikkinchidan: maktabni hayotiyroq qilish, ya`ni oila va maktab birligini amalga oshirish edi.

Sakkiz sinf, ya`ni ikki bosqichni tamomlagan shogird arabcha, forsha va turkchada bimalol so`zlab, yozardi. Ruschani ham o`qib, bimalol gaplasha olardi. Turkistonning boshqarma mahkamalarining barchasida ishlashga qurbi yetardi. Bu shogird maktabda muallimlik ham qila olar, tijorat bilan ham shug`ullanar, hatto muharrirlik ham qo`lidan kelardi.

Har yilgi imtihonlarga barcha joydagi vakillarga xat yuborilib taklif etilardi. Lekin ko`pchilik maktabning yutuqlarini ko`ra olmaganidan kelmasdi. Behbudiy aytar ediki: «Kelib ko`rsunlar, durust bo`lsa, rivoj bersunlar, nodurust bo`lsa, dalil ila ishot qilsunlar... maqsadimizda xizmatdan va millatdan boshqa narsa yo`qdur».

«Usuli jadid» maktabini yo`lga qo`yish oson kechmadi. Behbudiy va Shakuriy buning uchun barcha taraqqiy etgan musulmon shaharlaridagi maktablarni o`rgandi. Bunday mustamlakachilik davrida Turkistonning istiqboli uchun o`z hovlisida ilm-ma`rifat o`chog`ini ochgani uchun Behbudiyning boshida necha-necha tayoqlar sindi. Shunga qaramasdan jafokash muallim «usuli jadid» maktabini qattiq turib himoya qildi. Uning maktabiga chor rus inspektorlari kelib taftish o`tkazishganida jo`g`rofiya, tarix va hisob kitoblarini otxonaning oxuri tagiga yashirib qo`ygan.

Behbudiy butun vujudi bilan muallim edi. Uning o`zi ham yuqori sinf tinglovchilariga jo`g`rofiya va tarixdan saboq berar, Misr, Turkiya, Qozon va boshqa joylardan olib kelgan turli yangi yangi kitoblarini yuqori sinf o`quvchilariga, eng yaxshi o`qiganlarga hamda

muallimlarga tortiq qilardi. U ne qilsa ulug' Turkiston uchun va uning kelajagi bo'lgan yoshlar uchun qilardi.

Saodatning, fozil insonning ma'naviy chashmasi maktab degan aqidaga amal qilardi. Bu borada «Turkiston viloyatining gazetisi», «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Osiyo», «Turon», «Hurriyat», «Oyina», «Samarqand», «Mehnatkashlar tovushi», «Ulug' Turkiston», «Najot», «Tirik so'z», «Tarjumon», «Vaqt», «Sho'ro» kabi matbuot sahifalarida yuzlab maqolalar bilan chiqishlar qildi. Ushbu maqolalar asosan tahsil va ta'limning taraqqiyotiga bag'ishlanardi. Masalan: «Tahsil oyi», «ehtiyoji millat», «Samarqand usuli jadid maktabi xususida», «Majlis imtihon», «Tarix va jo'g'rofiya», «Samarqand isloh rusum majlisi», «Buxoroda usuli jadida» kabi maqolalarida yangi usul maktablari, uning ahamiyati, yangi maorif va madaniyatni rivojlantirish, dunyoviy fanlarning nafi, ma'rifatga rag'bat, komil insonning tarbiyasi haqidagi muhim ma'rifiy fikrlarni o'qish mumkin edi.

Behbudiy ta'lim va tarbiya, uning muammolari to'g'risida boy publistik meros qoldirdi. Jumladan, «Imon va islom», «ehtiyoji millat», «Buxoroda usuli jadida», «Hurriyat ozodlik erkinlik», «Tahsil oyi», «Ikki emas, to'rt til lozim», «Turkiston», «Millatni kim isloh etar», «Yoshlarga murojaat», «Bizni kemiruvchi odatlar», «Buxoro xonligiga sayohat», «Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yoxud taraqqiyni yo'li», «Bizga isloh kerak», «Haq olinur, berilmas», «Samarqandda milliy ishlar haqida» va boshqalar.

1917-yilning 16-23 aprelida Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlarining qurultoyida millatni o'zaro ixtiloflardan voz kechishga, buyuk maqsad yo'lida birlashishga, ittifoq bo'lishga chaqiradi. Ammo u o'z orzulariga erisha olmadi. Behbudiy 1919 yil 25 martda ana shu g'oyalari uchun jadid sifatida ayblanib, Shahrisabzda qamoqqa olinadi va Qarshi shahrida qatl etiladi. U o'limi oldidan qilgan vasiyatida: «Biz o'z qismatimizni bilamiz. Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz...».

Mahmudxo'ja Behbudiyni yangi maktablar uchun yozgan asarlari katta hodisa bo'ldi. Ayni davrda bu darsliklar nazariy, ilmiy va amaliy jihatdan keng qo'llanildi. Bu kitoblarning bugungi kunda ham qadri yo'qolganicha yo'q. «Kitobat ulatfol» («Bolalar maktubi»)

asari o'z davrida bir necha marta nashr etilgandi. Bu kitobga qirqtaga yaqin forsiy va turkiy insholardan namunalar kiritilgan. Shaxodatnoma va boshqa ish yuritishga doir hujjatlar yozishni o'rganishdan ta'lim berilgan hamda namunalar keltirilgan. Volostnoyxona, qozixonada yoziladigan hujjatlar ham mana shu kitob orqali o'rgatilgan. Yosh va kattalarga mo'ljallangan 36 sahifalik bu kitob bugun ham nazariy ma'rifiygina emas, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. O'zbek tilida ish yuritishimizda bu kitob juda qo'l keldi.

Behbudiy o'sha davrdagi madrasalar ahvolini o'zining 1907 yili yozgan «Faryod Turkiston» maqolasida shunda y ta'riflaydi:

«Bir madrasaga 20 tinglovchi gapi ila bir naql mudarris saylayr, bir volostda 40 nafar el boshlaridan 21 nafarni sadosi ila bir joxil qozi saylar». Behbudiy bu mudarris, mufti va qozilarning sakson foizi qariyalardir. Ular yoshlarga qanday bilim va tarbiya bera oladilar, deydi.

Behbudiy Turkistonning kelajagini uning yangi kadrlarida, mutaxassislarida va o'qimishli yoshlarida, deb bilardi. Shuning uchun ham u har bir yozgan maqolasida taraqqiyotga javob beradigan kadr tarbiyalab etishtirish masalasini qo'yardi. Savdo-sotiq ishlarini keng rivojlantirish, kassa ochib milliy daromadni ko'paytirish zarurligi haqida tushuntirishlar olib borardi: «Imorat qilmoqchi bo'lsak reja loyihasi lozimki, muhandislarga muhtoj bo'lurmiz. Ammo, biz hanuz muhandis ilmini bilmaymiz. Kontur va rasmiy daftar tutib, kassa tuzib tijorat etmoq lozim».

Behbudiy ijodiy faoliyatidagi bosh masala Turkistonda maorif taraqqiyotidir. U «Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir. Zamona ilm fanidan bebahra millat boshqa millatlarga paymol bo'lur» — degan shiorga sodiq harakat qildi.

Mustamlaka Turkistonni ilmsizlik jaholatidan qutqarish uchun eski maktabni isloh qilish zarurligini isbotlab, usuli jadidiyaga asos soldi.

Behbudiyning g'oyalari milliy pedagogika tarixiga qo'sxilgan ulkan hissadir. Uning pedagogik fikrlari faqat u yashagan davr uchungina emas, balki hozirgi yoshlar tarbiyasida ham samarali xizmat qiladi.

Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li. Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li (1878 — 1931) Turkiston tarixida milliy maorif va madaniyat, ijtimoiy-siyosiy sohada tub burilish yasagan, jadidchilik

harakatining tashkilotchilaridan biri bo'lgan.

U o'z millati fidoyisi sifatida Turkiston musulmon xalqlari milliy ozodlik harakati rivojiga katta hissa qo'shdi.

Abdurashidxon Sotibo'ldixon Olim o'g'li Munavvar Qori 1878-yili Toshkent shahrining markaziy dahasi—Shayx Xovand Tahurning Darxon mahallasida mudarris Abdurashidxon va Xosiyat otin oilasida dunyoga keladi. U yetti yoshida otasidan ajraladi. Dastlabki ta'limni onasi Xosiyat otindan oladi, xat savodi chiqgach, o'sha davrdagi yirik maktabdorlardan biri — Usmon domlada o'qiydi, so'ng Toshkentdagi Yunusxon madrasasida tahsil ko'radi. Biroq, o'sha davrda O'rta Osiyoda ilm markazi Buxoro edi. Shuning uchun u 1898 yili Buxoroga borib, madrasalardan birida tahsil ola boshlaydi. Ammo ko'p o'tmay, moddiy qiyinchiliklar tufayli Toshkentga qaytib keladi va Darxon masjidida imomlik qiladi. Shu davrda Toshkentda ham jadidchilik haakati kuchayib boradi. Munavvar Qori taraqqiyparvarlar safiga qo'shilib, tezda uning yo'lboshchisiga aylanadi. U ayniqsa Ismoilbek G'aspiralining «usuli savtiya» maktabiga, chor hukumati mustamlaka o'lkalaridagi aholini qanday ma'naviy - madaniy uzlatda saqlagani va undan qutulish choralari haqidagi fikrlariga havas va ixlos bilan qaraydi. Chunki bu davrda birinchidan, eski arab va fors maktabi uslubida faoliyat ko'rsatuvchi ibtidoiy maktablar, madrasalarning o'quv pedagogika ishlari ancha eskirib qolgandi. Ikkinchidan, chor hukumati Turkiston o'lkasida maorifni rivojlantirmaslik uchun astoydil harakat boshlab yuborgandi. O'lka aholisini ruslashtirish siyosati birinchi o'rinda turardi.

Pirovard maqsad millatni yo'q qilishdan iborat bu ma'naviy tajovuzni, ayniqsa, o'zbek ziyolilari har qadamda sezib yurishgan va his qilishgan. Bundan tashqari, mustamlakachilar Turkistonga och nazar bilan qarab, uning boyliklarini shafqatsiz tashiyotganliklari, milliy ozodlik harakatlarini qonga botirayotganliklari faqat oddiy mehnatkashlarning emas, balki boylar va ziyolilarning ham ko'zini ochib borayotgan edi. Xalqni bu balolardan faqat maktab ta'lim-tarbiyadagi keskin islohotlar qutqara olardi. Shu bois, Munavvar Qori rustuzem maktablariga qarshi o'z yangi maktablarini ochishga ahd qildi.

Shunday qilib, Munavvar Qori 1901—1904 yillari Toshkentda «usuli savtiya» maktabini ochadi, ayni vaqtda maktabda imomlik ham qiladi. 1906 yili esa, yangi usul maktabi sohasidagi faoliyatini o'z

uyining tashqari hovlisida davom ettiradi, oradan ko`p vaqt o`tmay maktab uchun ikki xonali qo`shimcha bino qurdiradi. Qisqa muddat ichida bu maktab dovrug`i ortadi, bolalar soni ko`payib ketadi. Natijada Qori akaga hamma halla bo`lgan Buvaxon to`ra Poshshaxon o`g`lining tashqi hovlisida ham maktabning ikki sinfli sho`basi ochiladi. Bu yerda 1,2 sinflarni bitirgan bolalar o`qishni Munavvar Qori hovlisida davom ettirganlar.

1913-1914 o`quv yilida maktabda yuqori sinflar (5 va 6 sinflar) ochiladi. To`rtinchi sinfdan rus tili ham o`quv fani sifatida o`rgatiladi. U maktabni isloh qilmay turib, odamlarning ongida o`zgarish yasab bo`lmasligini yaxshi tushunib etgan edi. Munavvar Qori farzandlarining taqdiri uchun otalar zimmasida katta mas`uliyat borligini ta`kidlaydi.

Munavvar Qori maktab tartib qoidalariga qat`iy amal qilishni muallimlardan ham talab qilgan, bolalar bilan qo`pol muomalada bo`lishni, ularni urish va jerkishni taqiqlagan. U bolalarga beriladigan jazo va tanbeh demokratik va insonparvarlik ruhida bo`lishi lozim, deydi.

Munavvar Qori ziyoli yoshlarni chet elga yuborishni, u yerda ilm-fanni o`rganishni targ`ib qiladi.

Munavvar Qori 1909 yili Ubaydulla Xo`jaev, Abdulla Avloniy, Toshpo`latbek Norbo`tabekov, Karim Norbekov va boshqalar bilan hamkorlikda Toshkentlik bir boyning raisligida «Jamiyati xayriya» tashkil etadi. Bu jamiyat orqali qashshoq va kasalmand kishilarga, o`quvchilarga yordam ko`rsatadi va bu bilan cheklanmaydi, u Rossiya va Turkiyadagi oliy o`quv yurtlariga tinglovchilar yuborish bilan ham shug`ullandi. Ayrim ma`lumotlarga qaraganda shu jamiyatning yordami bilan Mirmuhsin Shermuhamedov Ufadagi «Oliya» madrasasida o`qigan...

Munavvar Qori fors, arab, rus, turk tillarini mukammal bilgan, ko`p ulug` adiblarning asarlarini mutolaa qilgan. Munavvar Qori o`lkaning qoloqligi sababini axtarar ekan: «Bizning Turkiston mamlakati tuproq, suv va havo jihatidan eng boy mamlakatlardan bo`la turib, na uchun o`zimiz bundan foydalana olmaymiz» deb afsus nadomatlar qiladi. «Mana, ketma-ket etgan bunday savollarga javob bermak uchun nodonlik va olamdan xabarsizlik, demakdin boshqa chora yo`qdir. Bu nodonlik va dunyodan xabarsizlik balosidan qutilmak uchun avval oramizda hukm surgan buzucq odatlarning

buzuqlig'ini bilmak va o'rganmak kerakdir», deydi u.

U insonning ma'rifatli bo'lib, ko'zi ochilmaguncha, vijdoni uyg'onmasa na o'zini, na xalqining erkini muhofaza qila olishini, bu iymonsizlik ekanini o'z asarlarida ifoda etadi. «So'nggi ikki yil ichida, deydi u, Turkiston xalqining boshina kelgan falokatlar har biri yolg'iz nodonlik va maorifsizlik orqasidangina bo'lganligi har kimga ma'lumdir. Kelajakda bunday falokatlardan qutulmoq va Turkiston xalqi tilagan ravishda idora qilmoq va dushmanlardan saqlamoq yolg'iz maorif vositasi ilagina mumkindir».

Ha, bu Munavvar Qorining iymon-e'tiqodidan, vijdonidan dalolat edi. Zero, Toshkentlik jadidlar — taraqqiyparvarlar millatni asoratdan ma'rifatgina qutqaza olishi haqidagi xulosaga keladilar.

Umuman, Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li ma'rifatparvar inson, istiqlol uchun kurashgan, pedagogik fikr rivojiga munosib hissa qo'shgan mutafakkir olim sifatida Shuhrat qozondi.

Abdulla Avloniy (1878 - 1934). «Al hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir». (A. Avloniy)

Mashhur o'zbek ma'rifat parvari, shoiri va jamoat arbobi Abdulla Avloniy 1878 yil 12 iyulda Toshkentda hunarmand oilasida tug'ilgan. Eski maktabda savod chiqardi, madrasada tahsil oldi. Oiladagi moddiy qiyinchiliklar tufayli bolaligidan odamlar eshigida mehnat qildi, g'isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik, binokorlik kabi kasblar bilan shug'ullandi, «Imoratchi usta» degan nom oladi.

Abdulla Avloniy she'rlari 15 yoshidan boshlab matbuotda ko'rina boshladi. Jadidchilik harakati rahbarlaridan biri bo'lgan Avloniy 1904 yilda Toshkentning Mirobod mahallasida jadid maktabini, 1909 yilda «Jamiyati xayriya» uyushmasini tashkil etadi. 1905-1917 yillarda matbuotdagi qizg'in faoliyati, ko'plab publisistik maqolalari bilan «bir yoqdan milliy islohot uchun mafkura hozirlag'on, ikkinchi yoqdan el orasiga o'zgarish tuxumini sochg'on» ham(Abdulla Avloniy bo'ldi. Avloniy o'zi nashr etgan «Shuhrat» (1907) nomli gazetasi faoliyatini shunday baholagan edi.

U Turkistonda birinchilardan bo'lib maktabga geografiya, kimyo, xandasa, fizika fanlari kiritilishiga ta'sir ko'rsatdi, ta'limni real turmush bilan bog'lashga intildi, bir dars bilan boshqasi o'rtasida muayyan tanaffusni, bir sinfdan ikkinchisiga o'tishdagi imtihonni joriy etdi, ta'lim tizimining dunyoviy yo'nalishini kuchaytirishiga

alohida e'tibor berdi. Uning «Birinchi muallim» («Muallimi avval», 1909), «Ikkinchi muallim» («Muallimi soniy», 1912) nomli darsliklari, «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913), «Gulistoni maktab» (1917), «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» (1909-1916, 6 qism) kabi qo'llanmalari maktablarda o'qitilgan.

Avloniy «Turon» (1917) gazetasiga «Yashasin xalq jumhuriyati» degan shiorni tanladi, «Turon» nomli teatr to'garagini tashkil etib, iqtidorli yoshlarni to'pladi, ayrim rollarni ijro etishda o'zi ham qatnashdi. Shoir Afg'onistonda elchi bo'ldi, turli o'quv yurtida dars berdi. Abdulla Avloniyning Hijron, Nobil, Indamas, Shuhrat, Surayyo, Shapaloq, Chol, Ab, Chegiboy degan taxalluslari bo'lgai. U 1934 yil 24 avgustda Toshkentda vafot etdi. Avloniy ijodi bo'yicha Begali Qosimov ilmiy izlanishlar olib borgan.

Asarlari: «Advokatlik osonmi» (1914, qahramonlari: Davronbek, Xudoyberdi, uyini garovga qo'yib, qarz hisobiga uylangan Egamberdi va boshqalar), «Pinak» (1916), «Biz va siz» (1917), «Portugaliya inqilobi», «Ikki muhabbat», «Bo'ron» kabi piyesalari, «Tulki ila qarg'a» masali, «Mardikorlar ashulasi», «Vatan» (1916), «Maktab», «Bog'cha», «Yalqov shogird tilidan», «Tog'lardan bir manzara», «Millatga xitob», «Ishchilara tortuq», «Ko'klam keldi», «Tovush» kabi she'rlari, «Maqsad va maslak» (1908 yil 9 aprel), «Holimizga doir» (1908 yil 14 fevral) kabi maqolalari, «Hasad balosi» majoziy hikoyasi va boshq.

«Turkiy guliston yoxud axloq» asari haqida «Turkiy guliston yoxud axloq» 1913 yilda yozilgan bo'lib, u axloqiy-ta'limiy asardir. Muallif bu kitob boshlanishiga «Man xastayamu millatim o'lmish nega bemor?» degan ritorik so'roq qo'ygan va asar davomida ushbu savolga javob berishga harakat qilgan. «Turkiy guliston yoxud axloq» asari «Axloq», «Tarbiya», «Yaxshi xulqlar», «Yomon xulqlar» deb nomlangan qismlarga bo'linadi.

Asarda diyonat, sa'y va g'ayrat, riyozat, shijoat, qanoat, sabr, nafs, vijdon, iffat, oily himmatlik va shu kabi yuksak axloqiy tushunchalar, zulm, nifoq, ta'ma, hasad, loqaydlik, g'iybat, haqorat, uyatsizlik, namimat(chaqimchilik), adovat kabi yomon xulqlar millat va vatan saodatiga e'tiborsizlik va bepisandlik bilan bog'langan holda muhim ijtimoiy muammo sifatida talqin etilgan.

«Amerikaliklar bir dona bug'doy ekub, yigirma qadoq bug'doy olurlar. Ovrupolilar o'zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni

kelturib, o`zimizga yigirma besh tiyinga soturlar! Ammo biz osiyolilar, xususan, turkistonliklar dumba sotub, chandir chaynaymiz. qaymoq berib, sut oshiymiz, non o`rniga kesak tishlaymiz!» degan fikrlar ulug`adib Abdulla Avloniy asr boshidayoq vatan ravnaqi, xalq saodati va millatga sodiq farzandlar tayyorlash zarurligi xususida nechog`lik chuqur va teran mushohada yuritganini ko`rsatib turibdi. Bu - o`zlikni anglash, o`z qadrimizga yetish, istiqlolni qo`lga kiritish uchun aytilgan dadil va jasur fikrlar edi.

Abdulla Avloniy shu asarida: «Har bir millatning dunyoda borligini ko`rsatadurg`on oynai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo`qotmak millatning ruhini yo`qotmakdur», - deb ham qayg`uradi. Kezi kelganda muallif hadislarga mo`l-mo`l murojaat etgan, Qur`oni karimdagi ulug` falsafiy kalomlardan unumli foydalangan. Ayniqsa Iskandar, Suqrot, Arastu, Aflotun, Ibn Sino, Mavlono Rumiy, Shayx Sa`diy kabi tarixiy shaxslar bilan bog`liq naqlar, ixcham rivoyatlar, hikoyalar asar jozibasiga joziba qo`shgan.

Abdulla Avloniy o`zbek jadid adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo`lib, XX asr so`z san`atimiz taraqqiyotiga o`ziga xos hissa qo`shgandir.

Abdulla Avloniy Toshkentning Mergancha mahallasida to`quvchi Mirovlon aka oilasida tug`ildi. Ma`lum bir muddatdan so`ng oila Mirobodga ko`chadi. Bo`lg`usi adib eski maktabda, so`ng madrasada tahsil oladi. U mustaqil mutolaa bilan ko`p shug`ullanadi. Rus tilini yaxshi bilgani uchun Orenburg, Qozon, Tiflisda chiqib turgan gazeta-jurnallarni kuzatib bordi. Qisqa muddat ichida ziyolilar orasida u ma`rifatparvar sifatida tanildi va o`lkadagi ijtimoiy-madaniy harakatchilikning faol namoyandalaridan biriga aylandi. Uning bu faoliyatini 1904 yili Mirobodda usuli-savtiya maktabini ochishda ko`rishimiz mumkin.

Xalqning madaniy saviyasini oshirishda matbuot muhim o`rin tutadi. Avloniy bu sohada ham o`z bilimini, kuchini sinab ko`rdi. U 1907 yili “Shuhrat” nomli gazeta chop ettiradi. Orenburgda yashirin suratda nashr etiladigan “Soldat” nomli ruscha gazetaning muhim siyosiy tashviqotlarini tarqatishda “Shuhrat” gazetasi ko`p fidokorlik ko`rsatgan. 1906-1917 yillar Avloniy ijodiy faoliyatida katta burilish yasadi. U keng ommani ma`rifatli qilishda, ijtimoiy-ozodlik tuyg`ularini kurtak yozdirishda juda katta jonbozlik ko`rsatdi. 1909 yilda do`stlari ko`magida u maktab-maorif ishlariga yordam

ko'rsatuvchi "Jamiyati xayriya" ochdi, "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" nomli 4 qismdan iborat she'riy to'plamining 1 juzvini nashr qildirdi. 1913 yili u teatrchilik ishlariga kirishib ketdi. Uning g'ayrat va tashabbusi bilan "Turon" teatr gruppasi tashkil etildi. Uning a'zolari 25 kishidan iborat edi. Ulardan G'ulom Zafariy, Shokirjon Rahimiylar xalqqa tanikli edilar. Unga 1916 yili kelib qo'sxilgan Mannon Uyg'ur va Shamsiddin Sharafiddinovlar (Xurshid) o'zbek teatr madaniyatining asoschilaridan bo'lib qoldilar. Gruppa 1915 yili "Zaharli hayot", "Baxtsiz kuyov" kabi dramalarni sahnalashtirdi. Avloniy o'z truppasi yanada takomillashuvi uchun peshqadam ozarbayjon va tatar dramaturgiyasiga murojaat etdi. 1914-16 yillar davomida Aliasqar Asqarov (ozarbayjon), Zaki Boyazidskiy (tatar) bosh rejissyor bo'lib ishladi. Avloniy o'zi ham truppa uchun sahna asarlari yozadi. Shu tariqa uning "Pinak" (1915), "Advokatlik osonmi?" (1916) komediyalari maydonga keldi. 1914-16 yillar davomida truppa Farg'onada bo'ladi, ularning bu tashrifi mahalliy matbuot sahifalarida e'lon qilingan edi.

Avloniy 1914 yil bir guruh taraqqiyparvar Yoshlar bilan "Nashriyot" shirkatini tuzadi va Xadrada "Maktab kutubxonasi" kitob do'konini ochib, madaniy-oqartuv ishlari bilan shug'ullanadi. Uning Toshkentda mahalliy muallimlar o'rtasida siyosiy ishlar olib boruvchi "O'qituvchilar uyushmasini" tuzganligi ma'lum. 1917 yilning aprel oyidan Avloniy "Turon" nomli gazeta chiqara boshlaydi. Lekin uning ikkinchi sonidayoq Mirmuhsinning maqolasidagi qaltis gaplari uchun "Sho'roi Islomiya" va "Ulamo" jamiyatlari qo'shma majlisida maqola muallifini ham, gazeta muharririni ham "kofir" deb e'lon qilishadi. Mirmuhsin yashirinadi, Avloniy tavba-tazarrular qilib ikkinchi gazeta chiqarmaslikka tilxat berib qutiladi. Bu voqea Rossiya matbuotida ham shov-shuvlarga sabab bo'ladi. Shoirning o'limi munosabati bilan bosilib chiqqan nekrologda uning 1918 yil Toshkent shahar sovetining a'zosi, eski shahar ijroiya komitetining raisi, 1919-20 yillarda Afg'onistondagi elchixonada bosh konsul, Turkbyuroning iqtisodiy ta'minot mudiri vazifasida ishlagani aytilgan. Shuningdek, Avloniy "Ishtirokiyun", "Qizil bayroq", "Kasabachilik ishi" gazetalarida redkollegiya a'zosi va bosh muharrir bo'lib ishladi. 20-yillarda u pedagog olim sifatida faoliyat ko'rsatdi. 1924-29 yillarda harbiy maktabda, 1925-1934 yillar davomida O'rta Osiyo Qishloq xo'jaligi maktabida va SAGUda o'qituvchilik qildi, u erda til bilimi kafedrasida

professorlikka tasdiqlandi. Bu ishlardan tashqari Avloniy O`znashrda, Terminologiya komiteti Davlat ilmiy kengashida qizg`in ish olib bordi. 1933 yili o`rta maktablarning 7-sinfi uchun adabiyot xrestomatiyasini tuzadi. Avloniy 1934 yil 25 avgustda Toshkentda vafot etadi.

Avloniy 30 yildan ortiq vaqt mobaynida ijod qildi. O`zi aytganidek, o`nlab she`r va maktab kitoblari, 4 teatr kitobi qoldirdi. Uning madaniyatimiz tarixida tutgan o`rniga baho bersak, pedagogik faoliyati va poetik merosi diqqatga sazovordir. Adib maktablar uchun darsliklar tuzgan “Birinch muallim” 4 marta, “Ikkinchi muallim” 3 bora nashr etiladi. “Ikkinchi muallim” darsligida 50 dan ortiq she`riy va prozaik hikoyalar bor, yana unga Tolstoy va Krilovdan erkin tarjimalar kiritilgan. Avloniyning ta`limiy-axloqiy asarlari ichida “Turkiy Guliston yoxud axloq” diqqatga sazovordir. Avloniy bu asarini yaratishda Sa`diyning “Guliston” asariga suyanadi.

Avloniy o`ziga “Hijron” taxallusini tanlaydi va shu taxallus bilan she`rlar bitadi.

Avloniyning maktab darsliklari suhbat usuli bilan bolalarning nutqini uyushtirishda, badiiy so`zlashuvga o`rgatishda katta ahamiyat kasb etadi. 7-sinflar uchun yaratgan xrestomatiyasida M.Gorkiy, V.Mayakovskiy, G`.G`ulom, H.Olimjon, Oybek, K.Yashin, Uyg`un asarlarini birinchi bor maktab darsliklariga kiritadi hamda ularning hayoti va ijodi haqida ma`lumot beradi. Avloniy butun ongli faoliyatini xalq maorifiga bag`ishladi.

Avloniy she`riyati “Adabiyot yoxud milliy she`rlar” to`plamida jamlangandir. She`rlarning asosiy mazmuni axloqiy-ma`rifiy, ijtimoiy masalalarga bag`ishlangandir. Ulardan “Maktab”, “Ilima targ`ib”, “Millatga xitob” she`rlari mashhurdir. Avloniyning komik dramalaridan tashqari siyosiy dramalari ham mavjud. “Ikki sevgi”, “Biz va siz”, “Portug`oliya inqilobi” asarlarida ozodlik, milliy uyg`onish g`oyalari ilgari surilgan, lekin bu dramalar tugallanmagan. Adibning publisistika sohasidagi yutuqlaridan ma`rifatparvarlik shiorlari bilan sug`orilgan maqolalari orasida “Madaniyat to`lqinlari”, “Hibzi lison”, “Jaholat” kabilarni ajratib ko`rsatish mumkin. “Afg`on kundaliklari” nomli asari esa o`zbek publisistikasi va memuar adabiyotning yaxshi namunalaridan biridir. Asarda vayron qilingan Turkistonning foje`i manzarasi tarixan haqqoniy tasvirlab berilgan.

Ko`rib chiqqanimizdek, Abdulla Avloniy o`zbek adabiyotining yorqin siymolaridan biri sifatida o`z davrida qizg`in faoliyat olib borgan.

Abduqodir Shakuriy (1875 — 1943) 1875 yili Samarqandning Rajabamin qishlog`ida bog`bon oilasida tug`ildi.

Shakuriy eski usuldagi maktabni tamomlagach, Samarqand shahridagi madrasaga o`qishga kirdi. Shakuriy o`zbek va tojik tillarida yozgan tarjimai hollarida rus gimnaziyasiga borib uning ichki tartib-qoidalari va o`qitish usullari bilan tanishganligini qayd etadi. Shundan keyin yosh muallimda o`z xalqining bolalari uchun ham shu tartibdagi yangi maktab tashkil qilish orzusi paydo bo`ladi.

Shakuriy do`stlari yordamida Qo`qon shahriga boradi va u yerda o`n kun davomida yangi maktabdagi o`qish o`qitish usullari bilan tanishadi. Samarqandga qaytib kelgach, bu yangi usullarni o`zi ochgan maktabda qo`llay boshlaydi.

Shakuriy dastlab maktabda o`quv jihozlarini o`zgartiradi. U ustalarga parta va doskalar buyuradi. Shu asosda birinchi marta o`z qishlog`i Rajabaminda 1901 yilning kuzida yangi usuldagi maktab tashkil qiladi. U davrlarda darslik va qo`llanmalar bo`lmaganligi sababli Shakuriy harflarni doskaga yozib qo`yar, o`quvchilar esa shuni o`z daftarlariga ko`chirib yozar edilar. U qisman tatar tilida yozilgan kitoblardan ham foydalanardi.

Shakuriy o`z xotiralarida tatar pedagogi Abdulqodir Maqsudiyning «Muallimi avval», «Muallimi soni» kabi darsliklaridan o`z vaqtida foydalanganligini ko`p marotaba eslaydi.

Chor hukumatining mahalliy amaldorlari bu maktabning ochilishiga rasman qarshi bo`lib, uning o`quv dasturini qattiq nazorat qilardilar. Ular maktabda o`tiladigan diniy darsliklarga hech qanday to`squinlik qilmas, ammo dunyoviy fanlarning o`qitilishidan tashvishlanar edilar.

Shogirdlarining aytishicha, Shakuriy qiyinchiliklar bilan qo`lga kiritgan yagona globusni faqat maxsus vaqtda sinfga olib kirar, boshqa vaqtda esa yashirib qo`yar ekan.

Shakuriy maktabida o`zbek va tojik bolalari birga o`qitilar edi. Bu yerda tojik tili asosiy til hisoblanar, bolaning savodi chiqqach, o`zbek va tojik tillarida yozilgan kitoblar o`qitilar edi. Shu bilan birga, o`quvchilarni ozarboyjon va tatar adabiyoti namunalari bilan tanishtirish maqsadida shu tillarda yozilgan ayrim parchalar ham

o`qitilardi. Shakuriyning tarjimai holida aytilishicha, bu maktabning to`liq dasturi bo`lgan.

U vaqtlari maktablarda Qur`oni Karim o`qitilar va yodlatilar edi. Shuning uchun yangi usul maktablarida ham diniy kitoblar o`qitilardi. Chunki hech bir ota-ona Qur`on yoki biror diniy kitob o`qitilmaydigan maktabga bolalarini bermasdi. Shuning uchun maktablarda «Haftiyak» ham asosiy o`qish kitoblaridan biri hisoblanardi.

Tatar pedagogi Maqsudiy o`z maktabi uchun darsliklar tuzganda arab tili qoidolari va alfavitini o`qitishga alohida e`tibor bergan. Shakuriy ham o`z maktabida bunga rioya qilgandi. O`qitishdagi bu usul eski maktablardagi o`qitish usullariga qaraganda savod chiqarishni ancha yengillashtirardi.

Shakuriy o`z o`quvchilari uchun bir yilda bir marta imtihon uyushtirardi. Imtihonda u ota-onalar oldida o`quvchilar bilimining natijalarini namoyish qildirardi, ota-onalar esa, o`z bolalarining qisqa muddat ichida xat savodli, hisob, geografiya va tibbiyotdan ma`lumotga ega bo`lganini ko`rib hayratlanardilar.

Shakuriy maktabining Shuhrati keng tarqala boshladi, O`rta Osiyodagi boshqa ma`rifatparvar kishilarning diqqatini jalb etdi.

Jumladan, shoir, dramaturg va pedagog Hamza Hakimzoda Niyoziy Shakuriy ochgan maktab bilan juda qiziqqan. U 1909 yili Shakuriy ochgan maktabni ko`rish, uning imtihonlarida qatnashish uchun Samarqandga keladi. Bu maktabdagi o`qish o`qitish tartibi va imtihon natijalari Hamzada yaxshi taassurot qoldiradi. Hamza va Shakuriy bir-birlari bilan do`stlashib, ko`p yillar davomida xat yozishib turadilar.

Shuni qayd etish kerakki, Shakuriy faqat o`qituvchilik qilish bilangina cheklanib qolmagan, u o`z maktabi uchun darsliklar yozib, ularni o`z mablag`i hisobiga nashr qildirgan. Chunki, o`zbek va tojik bolalarini tatar tilida yozilgan darsliklar bilan o`qitish katta qiyinchiliklar tug`dirar, bu darsliklar bolalar uchun uncha tushunarli emas edi. Shuning uchun u o`quvchilarga ularning ona tilida darsliklar yaratish zarur, deb hisoblardi.

Shakuriy bolaning yosh xususiyatiga muvofiq tarzda axloq, odob va turmush qoidalaridan dastlabki ma`lumot berishni ko`zda tutib darsliklar tuzishga kirishadi. Birinchi navbatda, alifbe tuzadi. «Rahnamoi savod», deb atalgan bu kitob yaxshi qog`ozda nasta`liq xati bilan yozilgan edi. Shakuriyning shogirdi, yozuvchi Rahim

Xoshimning aytishiga qaraganda, bu kitobda soʻzlar boʻgʻinlarga ajratib koʻrsatilgan, kitob oxirida oʻqish uchun kichik-kichik matnlar berilgan ekan, Shakuriy koʻp yillik pedagogik faoliyati natijasida bolalarni oʻqitishda «tovush harf» metodi (har bir tovushni alohida harf bilan yozish)ning qulay va oson ekanligini aniqladi va 1913 yili uning rahbarligida oʻz shogirdlaridan va Samarqandning mashhur pedagoglaridan biri Ismatulla Rahmatullaev tovushharf usuli asosida yangi alifbe tuzdi. Bu kitob Toshkent shahrida nashr qilindi. Kitobning kirish qismida tez va osonlik bilan savodli boʻlish masalasiga oid metodik maslahatlar beriladi.

«Alifbe taʼlimi» Ismatulla Rahmatullaevning 12 yillik ijodiy ishlari va uning ustози Abduqodir Shakuriyning koʻpchilik amaliy faoliyatining natijasida yaratildi. Ular koʻp yillar davomida boshlangʻich taʼlimning turli metodlarini qoʻllash, oʻz tajribalari, yangi usuldagi oʻqish oʻqitish usullari va koʻpdan-koʻp alifbe kitoblarini oʻrganish, umumlashtirish asosida bu kitobni tuzdilar. Alifbe 46 betdan iborat boʻlib, taxminan 90 dars uchun moʻljallangan.

Shakuriy tomonidan 1907 yili yozilgan ikkinchi kitob «Jome ul-hikoyat» («Hikoyatlar toʻplami»)dir. U qayta tuzatilib, toʻldirilib, 1911 yili ikkinchi marta nashr qilingan. Kitob boshlangʻich maktabning ikkinchi sinfi uchun xrestomatiyadir.

Yetmish ikki betli bu kitobning matni nafis qogʻozda aniq, chiroyli xat bilan yozilgan. Birinchi qismiga tarbiyaviy ahamiyatga molik 48 kichik kichik hikoyalar kiritilgan. Ikkinchi qismida mumtoz yozuvchilarning asarlari va tarjimalaridan olingan 15 sheʼriy parcha berilgan.

Kitobning taʼlim-tarbiyaviy ahamiyati Shundan iboratki, undagi oʻquv materiallarining hammasi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shakuriy tomonidan tuzilgan va nashr qilingan yana bir kitob «Zubdat ul ashʼor» toʻplamidir. Unda koʻp shoirlarning sheʼrlari berilgan.

Kitobdagi yangi usul maktabiga atab yozilgan tojik tilidagi sheʼrda shunda y deyiladi:

“Ey muallim, maktabing taraqqiy topib, sernur boʻlsin, yaxshi noming toabad dunyoda mashhur boʻlsin, gʻayrat qil, toki biz olimu dono boʻlaylik, axir, biz savtiya usulining sevguchilarimiz, tarbiyat qil, har kishining xotirini shod qil. Har fandan bizga oʻrgat, biz

bahramand bo`lib nodonlikni nari quvaylik. Garchi nodon kishilar senga ta`na haqorat etsalar ham g`am yema. Albatta, dushmanlar sharmsor bo`lurlar!”

O`sha davrdagi qiyinchilik va to`squinliklarga qaramay, xalqning bu sodiq do`sti, ma`rifatparvar pedagog Shakuriy butun kuch quvvatini yangi usuldagi maktab tashkil qilishga sarf qildi, katta g`ayrat, zo`r havas bilan yangi usul asosida o`qish o`rgatish tartiblarini o`rgandi, savodga o`rgatishning eng qulay va oson usullarini tanlab oldi, yangi usul maktablari uchun darslik va qo`llanmalar tuzib nashr ettirdi.

Shakuriy dastlab qizlar uchun ham yangi usuldagi maktab tashkil qilib, unda o`z rahbarligida xotini muallimalik qilar edi. Keyinchalik o`g`il va qiz bolalar guruhini birlashtirib o`qita boshlaydi.

Demak, u Samarqandda yangi usuldagi maktabning targ`ibotchi va tashkilotchilaridan biri edi. Bu ishda u hech qanday moddiy manfaatni ko`zda tutmas va ayni chog`da hech kim unga moddiy yordam bermas edi.

Abduqodir Shakuriy 1917 yil to`ntarishiga qadar o`qituvchilik bilan shug`ullandi. 1917 yili Samarqand shahrining bir guruh ilg`or kishilari Shakuriy pedagogik faoliyatining 15 yilligini nishonladilar.

1921 yili Samarqand shahridagi 13 maktabga mudir qilib tayinlandi. U bolalarni tarbiyalash, o`qitishga katta g`ayrat bilan kirishdi, ko`p yillar davomida shu maktabning mudiri hamda ona tili va adabiyot o`qituvchisi vazifalarida ishladi.

Samarqand maktablariga Shakuriy birinchi bo`lib mehnat va musiqa darslarini kiritdi. U bolalarni qishloq xo`jalik va bog`dorchilik ishlari bilan tanishtirishdan tashqari, ularga muqovasozlik, duradgorlik va boshqa hunarlarni ham o`rgatar edi, bu mashg`ulotlar uchun alohida soatlar ajratgan edi.

1923-yilning boshlarida «Pravda» gazetasi mamlakatimiz bo`yicha eng namunali ilg`or maktab hamda mohir va tajribali o`qituvchilar uchun tanlov e`lon qildi. 1923 yilning 8 iyulida gazetada Shu tanlov natijalari e`lon qilinadi. Ana Shu o`qituvchilar tarkibida respublikadagi maktab o`qituvchilaridan A. Shakuriy bor edi. Boshqa ilg`or o`qituvchilar qatorida uning nomi ham «Pravda» gazetasining Qizil taxtasiga kiritiladi hamda pul mukofoti topshiriladi va Shakuriy haqida bir yaxshi maqola e`lon qilinadi.

Bundan ko`rinadiki, ma`rifatparvar pedagog Shakuriy yangi

usuldagi maktablar tashkil qilishda, o`qish o`qitishning yangi tartiblarini joriy etish va o`qituvchilarning katta guruhini tarbiyalab etishtirishda xizmatlari juda katta bo`lgan va gazeta redaksiyasi tomonidan yuqori baholangan.

1925 yili Abduqodir Shakuriyning tashabbusi bilan qishloq aholisi o`z mablag`lari hisobiga to`rt sinfli yangi maktab qurib ishga tushiradi. U 1943 yili vafot etgan.

Topshiriq va savollar.

1. Buxoro amirligida ta`lim-tarbiyaning rivojlanishi haqida nima bilfsiz?

2. Xiva xonligida ta`lim-tarbiyaga qanday ahamiyat berilgan?

3. Qo`qon xonligida ta`lim-tarbiya qanday rivojlangan?

4. Maktab va madrasalarda ta`lim mazmuniga qanday ahamiyat berilgan?

5. Qizlar maktabining rivojlanishiga kimlar o`z hissasini qo`shgan?

6. Munis Xorazmiyning “Savodi ta`lim” asarining ahamiya nimada o`z aksini topgan?

7. Muhammad Sodiq Qoshg`ariyning “Odob as-solihin” asari-yuksak ma`naviy-axloqiy sifatlarni yorituvchi manba ekanligini isbotlang.

8. XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimining rivojlanishi to`g`risida nima bilasiz?

9. Chor Rossiyasining olib brogan ta`lim siyosati haqida nima bilasiz?

10. Turkistonda rus maktablarining ochilishining sabablari nimada?

11. Turkistonda jadidchilik harakatining namoyondalariga izoh bering.

12. Yangi usul maktablarining ochilishiga kimlar sabab bo`lgan?

13. Mahmudxo`ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma`rifatparvarlik xizmatlari haqida nima bilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O`zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T., “O`zbekiston”, 1996.

2. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T., “O`zbekiston”, 1996.

3. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., "O`zbekiston", 1997.

4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., "Sharq", 1998.

5. Abdurasulov M. O`zbek ma`rifatparvar shoirlari ilm-ma`rifat haqida. T.: «O`qituvchi», 1972.

6. Zunnunov A., To`xliiev B., Ma`sudov X. Pedagogika tarixi. T., "Sharq", 2002.

7. Xalq pedagogikasi-inson kamolotining asosi. T.N. Qori-Niyoziy nomidagi O`zPFITI ofset laboratoriyasi, 1992.

8. Xoshimov K., Nishonova S. va boshqalar. Pedagogika tarixi. T., "O`qituvchi", 1996.

Internet saytlari:

www.ziyonet.uz

www.tdpu.uz

www.pedagog.uz

XI. 1917-1991 YILLARDA O`ZBEKISTONDA TA`LIM TIZIMI VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI. MUSTAQIL O`ZBEKISTON TA`LIM TIZIMI.

11.1. Turkiston o`lkasida ta`lim siyosati (1917-1924).

***Tayanch iboralar:** milliy demokratiya vakillari, ziyolilar faoliyati, ishchi fakulteti, ilmiy-nazariy va amaliy tafakkur, tarbiya usullarini zamonaviylashtirish,*

1917 yil to`ntarishidan keyin Markaziy Osiyo xalqlarining hayotida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma`naviy-mafkuraviy va xalq maorifi sohalarida keskin o`zgarish yuz berdi.

Turkiston o`lkasida milliy demokratiya vakillari, mashhur ma`rifatparvar ziyolilar tomonidan yangi usuldagi maktablarning keng tarmog`ini yaratish, maktab maorif borasida zudlik bilan islohotlari amalga oshirish yuzasidan bir qancha takliflar ilgari surildi.

Bu davrda milliy ziyolilar faoliyati keng tus oldi, jumladan: jadidchi ziyolilar Mahmudxo`ja Behbudiy, Munavvar Qori, Sadriddin Ayniy, Fitrat, Cho`lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza, G`ozi Yunus, Xurshid va boshqa ziyolilar madaniyat, maorif sohalarida jonbozlik qildilar va yangi usuldagi maktablarning keng tarmoqlarini yaratish sohasida faoliyat ko`rsatdilar.

1917 yil fevralidan oktyabr orasida Turkistonning yirik shaharlarida turli tillarda dars beriladigan xususiy maktablar ochildi.

Turkiston o`lkasining markazi — Toshkentda 1917 yil 9-14 may kunlari o`qituvchilarning 1 o`lka qurultoyi bo`lib, bunda «Turkiston o`qituvchilar ittifoqi» tashkil etildi.

1918 yilning 23 martida RSFSR maorif xalq komissarligi Turkiston o`lkasi xalq komissarligi kengashi o`lka xalq ta`limi kengashini tashkil etishi haqida buyruq chiqardi. Mazkur kengash Turkiston hududida xalq ta`limiga rahbarlik qilishi lozim edi. Joylarda ularning viloyat, shahar, uezd kengashining huzurida xalq ta`limi kengashlari tashkil topdi.

1918 yilning yozida Samarqandda musulmon o`qituvchilari uchun pedagogik kurslar ochildi. O`sha yilning kuzida Toshkentda — Toshkent u`ezdining tub erli aholisi uchun maktab o`qituvchilari kurslari ochildi.

1918 yil 9 aprelda Munavvar Qori uyida to'plangan jadidlar Turkiston xalq dorilfununining musulmon bo'limini tashkil etish maqsadida 9 kishidan iborat tashkilot komissiyasini tuzadi. Ular 22 kun ichida musulmon bo'limi dasturlarini ishlab chiqadilar. O'sha yilning 3 mayida dorilfununning musulmon bo'limi rahbariyatiga saylov bo'lib, unda Munavvar Qori rais frektor), Iso To'xtaboev birinchi muovin, Burhon habib ikkinchi muovin, Abdusamad Qori Ziyobov xazinador, Muxtor Bakir sarkotib bo'lib saylandi. 13 may (yakshanba) kuni Toshkentning eski shahar qismida Vikula Morozovning sobiq dukoni binosi (hozirgi o'zbek yosh tomoshabinlar teatri)da musulmon aholi uchun «Xalq dorilfununi» ochiladi. Bu bo'lim tez orada o'ziga xos yirik bilim maskaniga aylanadi.

Universitet tarkibida ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy matematika, tarix, filologiya, qishloq xo'jaligi va texnika fakul'tetlari bor edi. 1919 yil fevralda universitet qoshida ishchi fakulteti ham faoliyat ko'rsata boshladi.

1918 yil noyabrda Toshkentda maxsus sharqshunoslik ixtisosligidagi oliy ta'limning to'ng'ichi — Turkiston Sharq instituti tashkil qilindi. Institut nizomida uning asosiy vazifalari qilib Turkiston mahalliy aholisi va qo'shni mamlakatlar aholisi tilini yaxshi biladigan sharqshunos olimlar va amaliyotchi xodimlar tayyorlashdir, deb belgilab qo'yilgan edi.

1920 yili Turkiston xalq universitetiga muqobil Turkiston davlat universiteti (keyin O'rta Osiyo, hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti) tashkil qilindi.

Universitet faoliyatining birinchi yili oxiriga kelib unda 6 fakultet: ijtimoiy-iqtisodiy, tarix, filologiya, fizika, matematika, texnika, tibbiyot, qishloq xo'jaligi fakultetlari ish olib bordi.

Vaqt o'tishi bilan universitet faqat eng yirik o'quv yurtigina emas, balki ilmiy-nazariy va amaliy tafakkurning, tabiiy va amaliy fanlarning juda xilma-xil sohalari bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarning muhim markazi ham bo'lib qoldi.

Bol'sheviklarning aksilmilliy, umuminsoniy ilg'or ma'rifatchilikka dushmanlik qilishlariga qaramasdan 1917—1924 yillari O'zbekistonning hozirgi hududida madaniy-ma'rifiy turmush vujudga keldi, xalq ma'naviyatida o'z aksini topdi.

Xalq ta'limining iste'dodli tashkilotchilari Abduqodir Shakuriy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Ismatulla Rahmatullaev, Ishoqxon Ibrat,

Munavvar Qori, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadriddin Ayniy, Abdulla Avloniy va boshqalar katta pedagogik ish olib bordilar.

Uzoq tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi ijtimoiy-siyosiy to'siqlarga qaramay, Markaziy Osiyodagi boshqa xalqlar kabi, ilg'or fikr egalarini, buyuk olimlarni yetkazdi, insoniyatga ilm-fan, ma'naviyat sohasida o'lmas durdona asarlar, fikrlar qoldirdi.

Bu davr ijtimoiy-madaniy hayotidagi kuchlar o'rtasida yuz berayotgan sinfiy kurashning murakkabligi maktab maorif masalalarida ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Demak, endi turli vositalarni ishga solib yangi mazmundagi ma'rifatni tashviq qilish, tarbiya usullarini zamonaviylashtirish, ta'limda qulay usullarni topish muammolari turar edi. Bu borada Turkiston o'lkasidagi dastlabki maktablarda ilg'or ma'rifatparvar pedagoglar — toshkentlik Saidrasul Saidazizov, Abdulla Avloniy, namanganlik Ishoqxon Junaydullaev — Ibrat, Samarqandlik Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy Ajziy, Ismatulla Rahmatullaev, Qo'qonlik Hamza Hakimzoda Niyoziy muhim xizmat ko'rsatdilar.

Ular butun o'lkada katta obro'ga ega bo'lib, rus, ozarboyjon, tatar va boshqa qardosh xalq pedagoglarining ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari hamda darsliklarini o'rganib o'lka maktablarida keng yoyishda jonbozlik ko'rsatdilar. Turkistonda ochilgan rus va tatar muallimlari boshchilik qilgan o'zbek maktablarida qo'llangan usullardan foydalanib o'zlari tashkil qilgan maktablarda uzoq vaqt davom etgan «hijo» usuli o'rniga «usuli savtiya»da ta'limni tashkil qildilar va darsliklar yaratdilar.

11.2.1924-1945 yillarda ta'lim va pedagogika fani.

Tayanch iboralar: *adolatsiz milliy siyosat, kommunistik firqa qarorlari, savodsizlikni tugatish harakati, jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yilishi, «sinfiy dushmanlar»dan tozalash maqsadi, millat taqdiri.*

1924 yili amalga oshirilgan milliy davlat chegaralanishi natijasida mintaqa har itasi qaytadan tuzildi.

Sovet hokimiyati yillarida kommunistik partiya rahbarligida respublikada adolatsiz milliy siyosat amalga oshirildi.

To'ntarishning dastlabki kunlaridan boshlabq mamlakatda bir tomonlama madaniy inqilobning amalga oshirilishiga alohida ahamiyat qaratildi, maktablarda o'quv-tarbiya ishlari mazmuni

tuzumning maqsadi asosida o'zgardi. Din va Qur'oni Karimga umuman e'tibor berilmadi. Tarix darslarida voqealar buzib talqin etildi. Adabiyot darslariga esa, ko'proq rus yozuchilarining asarlari bilan tanishtirishga katta ahamiyat berildi.

Sho'rolar tuzumi davrida kommunistik firqa qarorlari asosida pedagogika fanini shakllantirishda rus pedagoglari asarlaridan unumli foydalanib asarlar yozishga zo'r berildi. Aksariyat hollarda esa rus pedagog olimlari yozgan darsliklardan foydalanildi. Natijada o'zbek pedagogikasi markscha-lenincha nazariya doirasida shakllangan soxta fanga aylanib ketdi. Bu davrda faqat pedagogika emas, balki boshqa fanlarning ham rivojlanishi sust kechdi. Masalan, «O'zbekiston tarixi» aslida «SSSR tarixi» darsligining ilovasi edi. «SSSR tarixi» esa, Rossiya tarixidan iborat bo'lganligi ma'lum. Xuddi Shu kabi o'zbek pedagogikasi ham sovet pedagogikasining tarkibiy qismiga aylandi. O'sha davrlarda yozilgan ko'pgina pedagogik asarlar bugungi kunda o'z ahamiyatini yo'qotdi. Chunki, o'zbek pedagogikasi nihoyatda siyosiylashgan edi. Pedagog olimlar tadqiqotlarida Marks, Engels, Lenin asarlaridan ko'chirmalar asosiy o'rinni ishg'ol qilardi.

Bolalar va o'smirlarga umumiy ta'lim berishni tezlashtirish hamda kattalar o'rtasida savodsizlikni tugatish harakati boshlandi. 1930 yil 14 avgustda SSR ittifoqi markaziy ijroiya komiteti va xalq komissarlari soveti tomonidan qaror qabul qilindi. Bu qaror umumiy boshlang'ich ta'limni joriy etish va savodsizlikni qisqartirishga yordam berdi.

30 yillarning oxirlariga kelib, umumiy yetti yillik ta'limni amalga oshirishga kirisildi.

Biroq bu borada jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yildi. Jumladan, maktab yoshidagi bolalarning bir qismi o'qishga tortilmadi. Mahalliy millat bolalari orasida o'qishni tashlab ketish hollari ko'paydi. Ko'pgina maktablarda muallimlarning bilim darajasi yetarli bo'lmaganligi tufayli o'qish saviyasi talabga javob bermas edi. Maktablar soni muttasil ortib borayotgan bo'lsada, ularning o'quv-moddiy bazasi nochor ahvolda qo'llayotgan edi.

Ma'lumki, bol'sheviklar mafkurasi negizida sinfiy kurash g'oyasi ustuvorlik qildi.

Ta'lim sohasini «sinfiy dushmanlar»dan tozalash maqsadida hatto maxsus qarorlar qabul qilindi. Masalan, VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi 1933 yil 27 martda o'qituvchi kadrlar safini tozalash haqida

qaror qabul qiladi va uning natijalari shu yilning 25 aprelida bo`lib o`tgani. O`rta Osiyo bo`yicha partiyaning madaniy sohaga bag`ishlangan kengashida muhokama qilinadi. Bunda mavjud 700 o`qituvchidan faqat 120 tasi maktablarda ishlashga loyiq deb topiladi.

Bunday «tozalash»dan maqsad saviyasi past bo`lsada, mehnatkash tabaqalardan chiqqan kishilarni tanlab olib, eng zakovatli omilkor kishilarni siqib chiqarib, «shaklan milliy, mazmunan proletar madaniyati»ni vujudga keltirishdan iborat edi. «Tozalash»da kishining qobiliyati, madaniy saviyasi va ma`lumot darajasi emas, balki ijtimoiy kelib chiqishi asosiy mezon qilib olindi.

SSSR MK va XKKning 1929 yil 7 avgust qaroriga asosan arab alifbosi o`rniga lotin alifbosi qabul qilindi. Arab yozuvining lotinlashtirilishi dinga qarshi tashviqotning bir shakli edi. Bu «islohot» oqibatida Sharq xalqlari tarixi va madaniyatini o`zida mujassam qilgan minglab arab yozuvidagi qimmatbaho manbalardan o`zbek xalqini mahrum qildilar. O`sha davrning taniqli tilshunos olimi G`ozi Olim Yunusov va ilg`or pedagoglar bu «islohot»ni madaniy bilimsizlik deb baholadilar.

1940 yilning may oyida O`zbekistonda «O`zbek yozuvini lotinlashtirilgan alfavitdan rus grafikasi asosidagi yangi o`zbek alfavitiga ko`chirish to`g`risida» qonun qabul qilindi.

Mazkur siyosatlar tufayli o`zbek xalqi o`z tarixi, milliy urf-odatlarini, an`ana va umuminsoniy qadriyatlarini bilish, o`rganish imkoniyatlaridan mahrum bo`ldi. Millat taqdiri, maorif ravnaqi uchun jon fido qilgan, erkin, hur fikrli alloma ma`rifatparvarlar—Abdurauf Fitrat, Munavvar Qori Abdurashidxonov, elbek, Otajon Xoshimov, Cho`lpon, Abdulla Qodiriy qatl etildilar. Usmon Nosir, Botu va boshqalar surgun qilindi...

11.3.1945-1991 yillarda O`zbekistonda ta`lim tizimi va pedagogika fani rivoji.

Tayanch iboralar: yuksak axloq ruhida tarbiyalash, mamlakat mudofaa fondi, pedagoglarni frontga safarbar etilishi, xalq xo`jaligini tiklash, tinch qurilish davri.

Tarixdan ma`lumki, xalqimiz o`z boshidan kechirgan og`ir davrlardan biri Ikkinchi jahon urushi yillaridir. O`sha davrda mamlakatimiz yoshlarini yuksak axloq ruhida, ayniqsa,

vatanparvarlik, do'stlik, mehnatsevarlik, ongli intizom, fidokorlik, birdamlik ruhida tarbiyalash kuchaydi. Bu tarixiy sharoit taqozosi edi.

1941 yil 22 iyulda fashistlar Germaniyasi hujum qilmaslik haqidagi bitimini buzib, urush e'lon qilmay turib Sovet ittifoqiga bostirib kirdi.

Mamlakatdagi hamma xalqlar mudofaa uchun otlandi. O'zbekiston ham himoyaga o'zining munosib hissasini qo'shdi.

Kishilar fabrika va zavodlarda, shaxta va temir yo'llarda, kolxoz, sovxoz va MTSlarda-hamma joyda «*hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun*» degan shior ostida fidokorona ishladilar. Butun kuch, vosita va imkoniyatlar fashistlar ustidan g'alaba qozonish uchun safarbar etildi.

Mamlakat mudofaa fondiga pul, qimmatbaho buyumlar, davlat obligatsiyalari, xullas, kimda nima bo'lsa, hammasini topshirdi. Urushning dastlabki kunlaridanoq birgina Toshkent shahrining o'zida mudofaa fondiga 5,5 million so'mdan ortiq pul yig'ildi.

Dushman bosib olgan erlardagi anchagina zavod fabrikalar, ishlab chiqarish korxonalari, turli muassasalar O'zbekistonga ko'chirildi. O'zbekiston ularni joy, ishchi kuchi bilan ta'minladi. Buning ustiga, frontdagi armiyani oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlash asosan o'zbek xalqi zimmasiga tushdi. Ishchi kuchi etishmaganidan qishloq xo'jalik mahsulotlarini yig'ib-terib olish ancha orqaga cho'zilib ketmoqda edi. Hukumatning 1942 yil 13 fevralda chiqargan «Urush yillarida mehnatga qobiliyatli bo'lgan barcha kishilarni ishlab chiqarish sohasiga va qurilishga jalb qilish to'g'risida» farmoni mamlakat ichkarisidagi ishlarni birmuncha izga soldi.

Ikkinchi jahon urushi davrida maktablarning o'quv dasturlari sharoitga moslashtirildi.

Urush yillari harbiy fizkultura darslari soati ko'paydi, harbiy o'qish 1 sinfdan boshlab o'tila boshlandi, harbiy ta'lim faqat o'g'il bolalarga emas, qiz bolalarga ham o'rgatila boshlandi.

Urushning dastlabki kunlaridan boshlab urush ketayotgan joylardan O'zbekistonga ko'plab yosh bolalar va keksalar, xotin-xalaj evakuatsiya qilingan edi. 1942 yili ular soni 716 mingga etdi.

1943 yili O'zbekistonda 154 bolalar uyi bor edi. 1945 yilga kelib ular soni 242 taga, tarbiyalanuvchilar soni esa, 31.500 ga etdi.

Urush davrida ko'pchilik pedagoglar frontga safarbar qilinganligi uchun respublika bo'yicha 1940-1941 o'quv yilida 36267 nafar

o`qituvchidan 30616 kishi qoldi. Frontga ketganlar o`rnini to`ldirish uchun qisqa muddatli o`qituvchilar tayyorlash kurslari ochildi. 1941 yildan 1943 yilgacha bu kurslarni 16 ming o`qituvchi bitirib chiqdi. Boshqa sohalarda ishlayotgan o`qituvchilar maktabga qaytarildi.

Maktablar uchun o`qituvchilar tayyorlash ishiga, ayniqsa, o`zbek xotin-qizlaridan ko`proq jalb etish zarurligi alohida ta`kidlandi.

Shaharlardagi maktablarda o`qish uch smenada olib borilar edi. Bu hol esa, tabiiyki, ta`lim-tarbiya jarayonining qiyinlashishiga olib kelgandi. Darslar 40 minutga qisqargandi. Ashula va rasm darslari umuman o`tilmagandi.

Kitoblar etishmasligi tufayli o`qituvchilar og`zaki tushuntirishga katta e`tibor berdilar. Yangi o`tiladigan dars o`qituvchi tomonidan doskaga yozilar, o`quvchilar uni daftarga ko`chirib olishardi.

Sharoit taqozosi bilan ko`pchilik o`quvchilar ham maktabda o`qib, ham qishloq xo`jalik ishlarida faol qatnashdilar. Barcha ishlab chiqarish muassasalarida, zavod va fabrikalar qoshida kurslar ochilib, o`quvchilar o`qishdan ajralmagan holda mehnat qildilar.

O`zbekiston mahalliy sovetlari, hukumat ko`rsatmasiga binoan, 1943 yilning 1 yanvaridan boshlab 8-10sinf o`quvchilari hamda katta yoshdagi o`zbek o`quvchilarini o`qish haqida to`lashdan ozod etdi. Qozoq, qirg`iz, tojik, qoraqalpoq, turkman va boshqa xalqlar bolalari ham o`qish haqi to`lashdan ozod bo`ldilar.

1942 yilning boshidan qishloq xo`jaligi asoslarini maktabda o`qitiladigan fanlar qatoriga kiritish haqida buyruq chiqdi.

Davlatning maxsus ko`rsatmasiga binoan 1943 yildan boshlab ba`zi maktablarda o`quvishlab chiqarish ustaxonalar ochila boshlandi.

Ikkinchi jahon urushi g`alaba bilan tamom bo`lgach, respublika xalq ta`limi urushdan keyingi yillar bir qancha jiddiy qiyinchiliklarni yengib o`tishga to`g`ri keldi.

Urush davrida maktablar birmuncha qisqargan, o`quvchilar soni ham shunga yarasha kamaygandi. Ko`pchilik o`quvchilar turli sinflardan o`qishni tashlab, frontga, front uchun qurol-aslaha ishlab chiqaradigan zavodlarga ishga ketib qoldilar.

O`sha yillari yangi maktab binolari qurilmaganligi va eski maktablar o`z vaqtida jihozlar bilan ta`mirlanmaganligi sababli ko`p maktab binobarin o`quv jarayonini maromida tashkil etish va gigiena talablariga javob bermas edi.

Urushdan keyingi dastlabki yillari o`quvchilarning maktabni

tashlab ketishlari birmuncha kamaygan bo'lsa ham, har holda, davom etaverdi: 1945-1946 o'quv yilida O'zbekiston maktablaridagi o'quvchilar soni rejadagi 1 mln.10 ming kishi o'rniga 823 ming kishidan iborat bo'ldi. Sinfda qolgan o'quvchilar soni ham ko'p bo'lib, 1946 yil u barcha o'quvchilarning 37%ini tashkil etdi. Ayniqsa, qiz bolalarni maktabga jalb qilish, ularni o'qish tugaguncha ushlab turish alohida muammo sifatida ko'ndalang bo'lib turardi.

O'qituvchi xodimlar masalasi urushdan keyingi yillardagi eng katta muammolardan biri edi. Chunki malakali o'qituvchilar asosan urushga yuborilgan, ularning ko'pchiligi halok bo'lgandi. Xususan, 1947 yili respublika bo'yicha 4 ming o'qituvchi etishmasdi. Tuman xalq maorif bo'limlari mudirlari, maktab direktorlari va ta'lim bo'yicha direktor muovinlarining 60% dan ko'prog'i tegishli ma'lumotga ega emasdi. 1950 yili 7125 maktab o'qituvchilarga muhtojlik sezardi.

Rasmiy hokimiyat soxta proletar baynalmilalligini amalda kuchaytirish maqsadida maktablarda rus tili va adabiyotini kengroq o'qitishga urg'u berdi. Natijada 60 yillari O'zbekiston tarixi, o'zbek tili va adabiyoti, chet tili, musiqa va ashula darslari hajmi keskin qisqardi va ular o'quv rejasida belgilanganidan haftasiga 16,5 soat kamayib ketdi. Ular o'rniga esa rus tili va adabiyoti fani o'qitildi. Masalan, o'qituvchilar «XIX asr ikkinchi yarmi — XX asr boshlarida o'zbek adabiy muhiti», «Milliy-madaniy jarayonlar to'g'risidagi mavzularda dars o'tishi lozim bo'lgan soatlarda rus madaniyatining «progressiv» ahamiyatini ko'rsatib berishga majbur bo'ldilar. Oqibatda, boy va ko'hna o'zbek xalqi tarixini o'rganishga 52 soat ajratilgani holda boshlang'ich maktablarda rus tili va adabiyoti fanlari uchun 1600 soat ajratilgan.

Xalq xo'jaligini tiklash hamda rivojlantirish sohasida urushdan keyingi birinchi besh yillikda jiddiy kamchiliklarga duch kelindi. Birinchidan, aholi o'zi tug'ilib o'sgan shaharlariga qaytib ketayotganligi sababli aholi sonida keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Ikkinchidan, majburiy ta'lim maktablarida o'qitiladigan bolalarni hisobga olishning aniq va tezkor sistemasi yo'q edi.

Shuning uchun ham maorif xodimlari tezlik bilan maktab shoxobchalarini tiklash va kengaytirish, urush vaqtida maktabni tashlab ketgan bolalarni maktablarga tortish sohasida juda katta ishlar qilishlari kerak edi. Bunday mas'uliyatni bajarishda ular dastlab

boshlang'ich maktablarni tamomlagan bolalarning hammasini to'la ravishda o'qishga tortishga e'tibor berishlari lozim edi. Bu ish ancha muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Bu davrga kelib o'rta maktabni bitirib chiqayotganlarning soni oliy o'quv yurtlariga qabul qilinayotganlar soniga qaraganda ancha ortib ketdi. O'rta maktablarni tamomlaganlarning ko'pchiligi sanoat va qishloq xo'jaligida ishlashlariga to'g'ri keldi. Biroq ular bu amaliy faoliyatga yetarli tayyorlanmagandilar: maktablarda o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishlari yaxshi yo'lga qo'yilmagandi.

O'rta maktablarni tamomlaganlarning maxsus kasbiy tayyorgarligini oshirish maqsadida texnikumlar soni ko'paytirildi, texnikumlar qoshida to'liq o'rta ma'lumotli kishilarni qabul qiladigan bo'limlar ochildi. Bu bo'limlarda o'qish muddati 2-3 yil qilib belgilandi. Mehnat zahirolari sistemasida o'rta maktab negizidagi texnika bilim yurtlari ochila boshladi. Bu texnika bilim yurtlari 1-2 yillik o'qish muddati bilan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlab berishi kerak edi.

Urushdan keyingi yillari 1943 yili ochilgan ishchi va dehqon yoshlari maktablari (kechki va smenali) tarmog'i birmuncha kengaytirildi.

1951-55 yillarga mo'ljallangan beshinchi besh yillik rejada politexnika ta'limiga katta o'rin berildi. Shu munosabat bilan ittifoqdosh respublikalarning ta'lim vazirliklari o'quv rejalari va dasturlarini qayta tuzib, politexnika ta'limini oshirish to'g'risida maktablarga ko'rsatmalar berdilar.

1957-1958 o'quv yilidan boshlab ba'zi pedagogika oliy o'quv yurtlarida boshlang'ich maktab uchun oliy pedagogika ma'lumotiga ega bo'lgan o'qituvchilar tayyorlashga kirixildi va buning uchun maxsus fakultetlar tashkil etildi. Lekin, urushdan keyingi yillari hamda mavjud jamiyatni rivojlantirish jarayonida respublika maktablarida hamma narsa risoladagidek olib borildi deyish xato bo'lar edi. Chunki, o'tgan davrlar chuqur tahlil qilinganda ko'p kamchiliklar borligini ko'rish mumkin. Chunonchi, ko'pgina maktablarda o'quv-tarbiya ishlarining saviyasi davlat standarti talablariga yetarlicha javob bera olmas, bir sinfdan ikki yil qolgan o'quvchilar soni hamon ko'p, o'quvchilarning maktabni tashlab ketishlari esa tobora ko'payayotgandi. Ko'pgina maktablarning moddiy texnika bazasi talablarga javob berolmasdi, maktablarda

matematika, fizika, rus tili va chet tili fanlaridan dars beradigan malakali o'qituvchilar yetishmasdi, yetti yillik umumiy majburiy ta'limni amalga oshirish va o'rta ta'limni rivojlantirish borasidagi ishlarda ham muayyan nuqsonlar yo'q emas edi. Bu kamchiliklarni bartaraf etish o'sha kunning birinchi galdagi vazifasi bo'lib qolgandi.

Boshlang'ich maktabda to'rt yillik boshlang'ich ta'limdan uch yillik boshlang'ich ta'limga o'tish amalga oshirildi.

Yetti yillik to'liqsiz o'rta maktab, umumiy majburiy sakkiz yillik ta'lim maktabiga aylantirildi.

Sakkiz yillik maktabni tamomlagan o'quvchilar quyidagi o'quv yurtlarida o'qishlari mumkin edi: 1) to'liq umumiy ta'lim o'rta maktablarida (IX-X sinflarda); 2) o'qish muddati uch-to'rt yillik bo'lgan texnikumlarda; 3) hunar texnika bilim yurtlari hamda 4) ishchi va qishloq yoshlari maktablarida.

1959-1975 yillari respublikada internat maktablar, maxsus maktablar va kuni uzaytirilgan guruhlar tarmog'i rivojlandi; jismonan nuqsonli bolalar uchun maxsus maktablar tashkil qilindi; pedagog xodimlar tayyorlash va ular malakasini oshirish tarmog'i kengaytirildi.

70-80 yillari ham O'zbekiston maktablarida ahvol o'zgarmay qolaverdi. Ularning moddiy texnika bazasi yaxsxilanmadi. Ammo maktablar, o'quvchilar soni yildan-yilga ortib boraverdi. Masalan, O'zbekistonda 1945-46 o'quv yilida jami 4525 maktab bo'lib, ularda qariyb 998 ming o'quvchi o'qigan bo'lsa, 1970-71 o'quv yilida respublikaning umumiy ta'lim maktablari soni 7072 taga, o'quvchilar soni esa, 3 mln. 164 ming kishiga etdi... 1970-1980 yillari xalq ta'limi uchun davlat tomonidan ajratilgan mablag'i 1%dan 8%ga kamayib ketdi... 5% dan ortiq maktablarda issiq ovqat bufetlari tashkil etilmadi.

Umuman, xulosa qilib aytganda, urushdan keyingi va tinch qurilish davridan mustaqillik davrigacha O'zbekiston maorifi, fan va madaniyati rus hamda Evropa madaniyati ta'sirida rivojlandi, ammo bu o'zbek xalqining milliyligidan, asrlardan beri meros bo'lib kelayotgan qadriyatlaridan muayyan darajada ajralgan holda rivojlanish edi.

Xalq ta'limi tizimida muhim o'rinni egallagan umumiy ta'lim maktablari respublikamiz hayoti bilan chambarchas bog'langan bo'lib, davlatning mafkuraviy, madaniy vazifalariga xizmat qiladi. Shuning uchun ham respublikamiz hukumati umumta'lim maktablarini rivojlantirish, ularni yangi binolar bilan ta'minlash, o'quv va moddiy

texnika bazasini mustahkamlash hamda yuqori bilimga ega bo'lgan o'qituvchilar bilan ta'minlash borasida bir qator tadbirlarni amalga oshirdi.

Umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya tizimi, mazmuni, shakl va metodlari, yosh avlodni har tomonlama shakllangan barkamol shaxs sifatida shakllantirish uchun ta'lim tizimini isloh qilish zarur edi.

Islohotda umumiy o'rta ta'lim o'n bir yillik bo'lib, I-IV sinflar - boshlang'ich, V-IX sinflar esa to'liqsiz o'rta va X—XI sinflar — umumta'lim maktabini tashkil qiladi. Mazkur tuzilishga binoan o'rta umumiy ta'lim maktablarida bolalarni olti yoshdan boshlab o'qitish nazarda tutiladi. Hunar texnika ta'limi tubdan o'zgartirilib, «o'rta hunar texnika bilim yurtlari»ga aylantirildi.

O'rta ma'lumotga ega bo'lmagan, ishlab chiqarishdagi faol yoshlar uchun kechki (smenali) va sirtqi maktablar saqlanib qolindi.

Umumiy o'rta va hunar ta'limi tizimining o'zgarishi bilan, oliy o'quv yurtlari, bilim dargohlariga qabul qilishning yangi qoidalari, talablari ishlab chiqiladi.

Umumiy o'rta va hunar ta'limi bilan unda beriladigan ta'limning mazmuni, shakllari, metodlari va usullarini ham tashkil etilishini o'zgartirishni taqozo etadi. Buning uchun islohot taqozo etganidek, ta'limning mazmunini takomillashtirish zarur. Ta'limning mazmunini takomillashtirishning muhim shartlari o'quv dasturlari va darsliklari materiallarini o'quvchilarning yoshiga mos holda soddalashtirish, ortiqcha ikkinchi darajali materiallardan xalos etish zarur.

O'quv fanlarining amaliy yo'nalishini kuchaytirish, mehnat tarbiyasi va kasb tanlashga o'rgatishni yo'lga qo'yish, ta'lim mazmunining politexnik yo'nalishini ta'minlash masalasi asosan amalga oshiriladi.

O'quv darsliklari, metodik qo'llanmalar yaratildi; o'quv rejasiga «Atrof muhit bilan tanishish» (I-II sinflarda), «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari» (X—XI sinflarda), «Oila etikasi va psixologiyasi» (X—XI sinflarda), «Ishlab chiqarish asoslari. Kasb tanlash» (VIII—X sinflarda) kabi fan asoslari ta'lim dasturiga kiritildi va o'qitilmoqda, o'qituvchilar mehnatiga tabaqalashtirib haq to'lash joriy etildi, o'qituvchilar malakasini oshirish va qaytadan tayyorlash masalasida ijobiy siljishlar ro'y berdi, o'quvchilarni mehnat ta'limi va tarbiyasining mazmuni takomillashtirildi; hunar texnika ta'limi

tizimida ishchi xodimlar tayyorlash kengaytirildi; maorifning moddiy texnika bazasini mustahkamlash masalasiga nisbatan jamoat tashkilotlarining munosabatlari birmuncha o'zgargandek tuyuldi. Biroq, bu o'zgarishlar ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, uyushtirish uchun yetarli emas edi. Islohot birinchligidan, «qayta qurish» sharoitida, maktab islohotining evolyutsion xarakterga egaligi, maktab ishining mazmuni, ilmiy pedagogik kadrlar, oddiy texnikaviy ta'minlanish, boshqarishning tubdan o'zgartirilmaganligi ta'lim-tarbiyaning rivojlanishiga to'siq bo'ldi. Islohni amalga oshirishdagi tashkilotchilik ishlarining yetarli bo'lmayotganligi, boshqarishdagi byurokratik metodga asoslanilayotganligi, xalq xo'jaligining ehtiyojiga mos ravishda kadrlar tayyorlash mo'ljallanmaganligi ham islohot talablarini qiyinchilik bilan hal etilayotganligiga sabab bo'ldi. Bular esa o'z navbatida ta'lim-tarbiya saviyasini oshirishga salbiy ta'sir etdi.

Shuni qayd etish zarurki, o'zbek maktablari sobiq ittifoq davrida milliy zamindan batamom uzilib qolgan edi. O'qish o'qitishda Ovrupa, xususan urus tizimi qabul qilindi. Yangi davrdagi zamonaviylashtirishning «bilimdon» va «zukko» tashkilotchilari ming yillik yozuvimizni ham qayta-qayta almashtirilishi, natijasida maktablari o'quv tarbiyaviy ishlar va xalq ruhiyatidan deyarli ajralib qoldi, avlod-ajdodlarimizning dunyoviy, ma'naviy-axloqiy, ma'rifiy merosi esa umuman o'qitilmay, o'rgatilmay tashlab qo'yildi.

11.4. Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar.

Tayanch iboralar: *O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi, uzluksiz ta'lim tizimi, uzviylikning mustahkamlanishi, davlat standarti va konsepsiyalar, istiqbol mafkurasi.*

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilingandan keyin Respublikada ta'lim tizimi 1997 yilda qabul qilingan "Ta'lim to'grisida"gi qonun va kuyidagi strategiya asosida ishlab chiqildi:

- ta'limning uzluksiz bo'lishi,
- ta'limni kompleks ravishda uyushtirish,
- ta'limni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish,

-ta'lim sistemasini fan sohalari bilan integratsiyalashtirish,
-umumiy o'rta ta'lim asosida yoshlarni maxsus bilim yurtlarida o'qishga, mutaxassislikka tayyorlash.

Respublikada amalga oshirilgan uzluksiz ta'lim tizimi barcha ta'lim bosqichlari-maktabgacha tarbiya va boshlangich, tayanch bosqichlari, o'rta va hunar maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtari, maktabgacha tarbiya muassasalarii, malaka oshirish institutlarii o'rtasida uzviylik bo'lishida, ta'limni ilm-fan yutuqlari bilan bog'liq holda tashkil etishda muhim omil bo'ldi. Bolalarni oilada bog'chaga, bog'chada maktabgacha o'qishga tayyorlash, umumiy o'rta ta'lim asosida o'quvchilarni maxsus bilim yurtlarida mutaxassislikka tayyorlashda jiddiy yutuqlarga erishildi. Uzluksiz ta'lim tizimi barcha ta'lim tizimi, barcha ta'lim bosqichlarining istiqbolli bo'lishiga, ta'limni demokratiyalashtirish va insonparvarlashtirishga, ta'limni mehnat tarbiyasi bilan bog'liq holda tashkil etishga o'quv fanlarni integratsiyalashtirishga yordam berdi.

Tarbiyaga kompleks yondashish bilan aqliy mehnat, axloqiy, nafosat va jismoniy tarbiyalar o'rtasidagi uzviylik mustahkamlandi, o'quvchilar hayot haqida kengroq tasavvurga ega bo'la boshladilar. Kompleks prinsipi tarbiyaning, o'quvchilar faoliyatining mazmunli bo'lishini, ta'lim vazifalarini ham kompleks ravishda amalga oshirishni ta'minladi. Bu prinsip maktab, oila, jamoatchilik o'rtasidagi aloqani mustahkamlash, bu aloqaning pedagogik sifat kasb etishida, yoshlarning anglash mustaqil fikrlash faoliyati va axloq-odobli bo'lib o'sishida ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi. Tarbiyada kompleks prinsipi qo'llash o'quv yurtlari, ta'lim muassasalarida barcha tarbiyaviy ishlar hamda, tarbiya jarayoni-vazifa, maqsad, mazmun, usul, shakl, vosita natijalarining o'zaro aloqada bo'lishini ta'minladi.

Ta'lim va tarbiya mazmuni, shakl va usullari bu sohada erishilgan ilg'or tajribalar asosida ishlab chiqildi, bunda ta'limni jahon standarti darajasida bo'lishi nazarda tutildi.

Yaratilgan ta'lim davlat standartlarida ularning ijtimoiy maqsadini ifoda etuvchi bo'lishiga e'tibor berildi, ularda mustaqillik davri talab etayotgan ta'lim mazmuni, darajasi, usul va shakllari belgilandi. Davlat standarti va konsepsiyalar asosida yaratilgan dastur va darsliklarda, ayniqsa gumanitar fanlarga doir barcha dastur va darsliklarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'z aksini topdi.

Ma'lumki, istiqlool mafkurasining asoslarini yaratish avvalo,

ta'lim-tarbiya zamini bo'lgan oila va maktabgacha tarbiya muassasalaridan boshlanadi. Ularda tarbiyalanayotgan va maktabda o'qiyotgan bolalar vatan, jamiyat, xalq haqida muayyan tasavvurga ega bo'lishlari, ularning qalbida Vatan tuyg'usi, ulug' allomalarimiz va ular qoldirgan ma'naviy meroslar bilan faxrlanish kerak.

Ana shu talablardan kelib chiqqan olda tibbiy kasbga, muallimlik va murabbiylik kasb, malakaga ega bo'lgan ayollar istiqomat qilayotgan oilalarda uy bog'chalarida aniq dasturlar asosida pedagogikadan milliy va umuminsoniy qadriyatlar ifodalangan darslik va qo'llanmalar yaratishga kirixildi. Bu ishda o'quvchi va tinglovchilar hamda bo'lgusi o'qituvchilarning umumiy madaniyati va ma'naviyatini, pedagogik bilim va pedagogik madaniyatini, pedagogik tafakkurini o'stirish asosiy maqsad qilib quyildi. Bu maqsad pedagogik fikrlashga doir bilim va axloqiy, tarbiyaviy g'oyalar, umumbashariy va milliy madaniy qadriyatlarni puxta o'rganish bilan amalga oshirilmoqdi. O'zbek tiliga davlat maqomi berilishi bilan ona tilini chuqur o'rganish-umumiy o'rta maktab va boshqa o'quv yurtari ta'limining asosi qilib qo'yildi. Ona tilida beriladigan bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini o'stirish, ularda ona tilidan ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularni o'zbek adabiy tilining yozma va og'zaki shaklini puxta o'zlashtirgan madaniyatli va savodli qilib etishtirish nazarda tutiladi.

Sho'ro davrida "SSSR tarixi" deb nomlangan, aslida Rossiya tarixidan iborat bo'lgan darslikka ilova hisoblangan "O'zbekstan xalqlari tarixi" tubdan qayta ishlandi. "Inson va jamiyat" fanini o'qitishga soat ajratildi "Iqtisod alifbosi", "Iqtisodiy bilim asoslari" ishlab chiqildi. O'quvchilar o'z hoxishlariga ko'ra "HuquqShunoslik", "Menejment va marketing asoslari", "Din tarixi"ni fakul'tativ kurslarida egallomaqdalar.

Ta'limda test usuli qo'llandi, iqtidorli bolalarni aniqlashga o'qitishga katta ahamiyat berilmoqda. Mingdan ortiq iqtidorli bolalar Amerika, Angliya, Shvetsiyada ta'lim olib mustaqil Respublikamiz xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan bilim va kasblarni egallashmoqdalar.

Maktab- uzluksiz ta'lim tizimining markaziy bo'limidir. Ana shu bosqichda o'quvchilar bilimlarning asosini egallaydilar, ularda ijodiy qobiliyat, mustaqil fikrlash, Vatan, jamiyat, shaxs axloq-odob haqidagi tushunchalar shakllanadi, takkomillashadi.

Boshlangich bosqichda asosiy e'tibor o'quvchilar savodini chiqarishga, ularda mustaqil fikrlash o'z fikrini ifodali bayon qilish malakasini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltiriladi. Bu bosqichda ta'lim jarayonida o'quvchilarda mantiqiy tafakkur qila olish va kommunikativ savodxonlikni oshirish, o'z-o'zini anglash salohiyatlarini moddiy borliq, go'zallikni his qilish, undash zavqlanish va uni yanada go'zallashtirish ishtiyoqini o'stirishga, milliy urf odatlarni sevish va o'z hayotlarida ulardan foydalanish malakalarini tarkib toptirishga e'tibor berildi.

V-IX sinflarda ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatuvchi san'at turi bo'lgan adabiyotni o'qitishda sog'lom, e'tiqodli, milliy va umumbashariy qadriyatlarni anglaydigan barkamol shaxsni shakllantirish asosiy maqsad qilib qo'yildi. O'quvchilarda badiiy adabiyotga havas, mehr uyg'otish badiiy asarlarni o'qib tushunadigan va tahlil qila oladigan va o'z fikrin og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, erkin ifodalay oladigan qilib tarbiyalash orqali amalga oshirilmoqda. Keyingi yillarda tashkil etilgan pedagogikadan ixtisoslashtirilgan kurslarda Vatan tarixi va madaniyati, qadimiy urf-odatlarimizni har tomonlama o'rganish va tatbiq etish asosiy vazifa qilib qo'yildi. Shunga ko'ra, hozirgi davr talabi asosida o'zbek tili jadallik bilan o'rgatilmoqda.

Maktabgacha tarbiya muassasalari uchun tuzilgan sana't dasturida bolalarni tevarak-atrofida, tashqi muhitda sodir bulayotgan voqea va hodisalar bilan oshno qilish, turli tasvirlar vositasida bu voqealar haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishga e'tibor berildi. Jismoniy tarbiya dasturida bolalarni jismonan kuchli, chaqqon, tetik qilib tarbiyalash asosiy maqsad qilib quyildi.

O'yin dasturida ana'na sifatida davom etib kelayotgan milliy o'yinlar, xalq og'zaki ijodi asosida bolalarga quvonch bahsh etish, ularning tafakkurini o'stirish, Vatan tabiati go'zalligidan bahramand qilish va ularda go'zallikni saqlash, himoya qilishga intilish, qiziqish hissini tarbiyalash talab etiladi.

Musika dasturida o'zbek xalqining turmush tarzi, milliy ana'nalari, urf-odatlari, mumtoz va hozirgi davr badiiy asarlari asosida yaratilgan musika orqali bolalarda musika san'atiga havas, go'zal Vatanimizga havas tuyg'usini shakllantirish va rivoj toptirish asosiy maqsad qilib quyildi.

Mehnat dasturida bolalarga o'z-o'ziga mehnat qilish tabiat

bag`rida ishlash, qo`l mehnati va uning mohiyati, qilingan mehnat go`zalligi, yasalgan buyum, narsalarning chiroyli va puxta bo`lishidan faxrlanish tuyg`usini tarbiyalash, tejamkorlik qobiliyatini o`stirish nazarda tutiladi. Umuman maktabgacha tarbiya davlat standartlarida yosh avlodni jismonan sog`llom, ruhan tetik odob-axloqli, iymon-e`tiqodli shaxsni tarbiyalash buyicha belgilangan yullanma maktabgacha tarbiya dastur va qo`llanmalar ida o`z ifodasini topdi. Bog`chalarda bolalarning qobiliyati, iste`dodi, qiziqishi aniqlanib, chet el pedagogika tarixi bilan aloqada rivojlandi. Shu sababdan hozir Markaziy Osiyo pedagogika tarixini tadbiq etishda xorijiy Sharq va Evropa mamlakatlari ta`lim tizimi ham o`rganilmoqda. O`zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasining tashkil etilishi mustaqillikning muhim timsolidir. Bu Oliy attestatsiya komissiyasi o`z zimmasiga yuklangan katta vazifalarni ya:ni yuqori malakali illmiy va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash yangi tizimni shakllantirish, ularni respublika ijtimiy-iqtisodiy siyosiy va ma`naviy taraqqiyotining ustuvor muammolarini hal qilishga yunaltirish, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni davlat yo`li bilan ekspertiza qilishni ta:minlash bilan yetuk ilmiy-pedagogik kadrlar etishtirishga samarali ta`sir ko`rsatmoqda.

Oliy pedagogik o`quv yurtlarida ilmiy daraja beruvchi ixtisosloshtirilgan kengash tashkil etilishi bilan respublikamizda pedagogika tarixi va nazariyasi , fanlarni o`qitish usullari buyicha doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini o`zbek tilida, turli millat vakillarining o`z ona tillarida himoya qilishiga keng imkoniyat yaratildi. Bu kengashlar milliy pedagog olimlar safining o`sishida muhim omil bo`lmoqda. Bu tadbir respublikada sifatli ilmiy-pedagogik asarlar, o`quv metodik qo`llanmalar ining yaratilishiga, maktabgacha tarbiya muassasalarida, umumiy o`rta maktablarda, o`rta va maxsus oliy o`quv yurtlarida ta`lim-tarbiyaning yuksak saviyada bo`lishiga ta`lim tizimi mazmunining takomillashuviga samarali ta`sir kursatmoqda.

Mustaqillik tufayli “biz umumbashariy qadriyatlarning eng birinchi asosi bo`lgan xalq insonparvarligi chashmalaridan qadamma-qadam baxram and bo`lmoqdamiz”. Shu bahramandlik tufayli yosh avlodda mehnatsevarlik, insonparavarlik, vatanparvarlik, iymon e`tiqodlik halollik aqloqiy poklik, odillik, bilimlilik, onglilik, do`stlik kabi insaniy fazilatlar shakllanib, rivoj topmoqda, o`z ona tili, milliy

urf-odatları, diyor imizning tabiat boyliklari bilan faxrlanish tuyg`usi kamol topmoqda.

Respublikada, iste`dodli bolalarni tanlashga e`tibor kuchaytirildi, joylarda maxsus hunarmandchilik litseylari, umumiy ta`limiy yo`nalishidagi litsey va gimnaziyalar tarmog`i kengaytirildi, ular uchun yangi dasturlar ishlab chiqildi.

Ta`lim buyicha xalqaro hamkorlik rivojlana boshladi, Birlashgan millatlar tashkilotining O`zbekistondagi vakolatxonasi, Yunisef, Yunesko tashkilotlari bilan aloqalar mustahkamlandi.

Xorijiy davlatlarning kadrlar tayyorlash sohasidagi tajribalari o`rganilib, o`zbek xalqining milliy urf-odatları va ana`nalarini hisobga olgan holda respublikamizda kadrlar tayyorlash tizimining yangi modeli yaratildi. Bu modelning tub mohiyati shundaki, uning tarkibi uzluksiz ta`lim, ilm-fan, ishlab chiqarish, davlat va jamiyat kabi alohida qismlardan tashkil topdi. Modelda kadrlar tayyorlash tizimining maqsadi, vazifasi va uzluksiz ta`lim tizimini isloh etishning asosiy yo`nalishlari, bosqichlari, milliy dasturni amalga oshirish orqali erisiladigan natijalar o`z ifodasini topdi.

1997 yil 29 avgustda bo`lib o`tgan Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sessiyasida qabul qilingan "Ta`lim tug`risidagi" qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" O`zbekiston ta`limida tom ma`noda inqilobiy o`zgartirishlarni boshlab berdi.

Bu qonun va dastur yosh avlodni Vatanimizga sadoqatli, uning mustaqilligini asrab-avaylashga tayyor, keng tafakkurli, jismonan sog`lom, ma`naviy va ma`rifiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashda, umuman ta`lim mazmunini yanada takomillashuvida uning sifatii va samarali bulishida muhim omildir.

Qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta`lim tug`risidagi" qonun asosida ta`lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari

-ta`lim O`zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotidagi ustuvor soha ekanligi,

-ta`lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterida ekanligi,

-ta`limning uzluksizligi va izchilligi,

-umumiy o`rta, shuningdek o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limning majburiyligi aniq kursatildi.

Ushbu Qonunga muvofiq, ta`lim va tarbiyaning dunyoviyligi ta`minlanib, u maktabgacha, umumiy o`rta, o`rta maxsus, kasb-hunar

ta'limi, oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim bosqichlaridan tashkil topgan.

Maktabgacha ta'lim bolalarning uch yoshidan olti yetti yoshigacha oilada bolalar bog'chalarida boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi.

Boshlangich ta'lim 1-9 sinflardan iborat, unda o'qish olti-etti sinflar doirasida umumiy bilim asoslarini chuqur o'rganadilar, bu sinflarda asosiy e'tibor ularning dunyoqarashini shakllantirishga va kengaytirishga ularning qiziqish va intilishlarini oshirishga qaratiladi.

Shundan so'ng o'quvchilarga 3 yillik o'quv akademik va kasb-hunar litseylari va kollejlardan iborat ixtiyoriy-majburiy bosqichda o'qish tavsiya etiladi. Bu bilim yurtlarida o'quvchilar o'zlari tanlagan ta'lim yungalishi buyicha bilimlarini oshirib, muayyan oliy o'quv yurtiga kirish uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan fanlarni chuqurlashtirgan holda o'rganishga qaratilgan, har ikki yo'nalishda o'qishni bitirgan o'quvchilar oliy o'quv yurtlariga kirishda keng imkoniyatga ega buladilar.

Oliy mutaxassislik ta'limida o'n sakkiz o'n to'qqiz yoshlilar to'rt yil davomida o'qishni davom ettiradilar.

Uzluksiz ta'lim yangi tizimining amaldagi shaklidan farqi shundaki, o'quvchilar alohida kollejlarda kasb-hunar egallaydilar va umumiy o'rta ma'lumotli bo'ladilar, akademik litseylarda esa, chuqurlashtirilgan umumta'lim tayyorligiga ega bo'ladilar.

Ta'limning yangi tizimini tashkil etgan barcha o'quv maskanlarida asosiy e'tibor o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish kunikmalarini hosil qilishga egallagan bu ko'nikmalarini tajribada namoyon etishlariga qaratiladi.

Tabiyki, demokratik jamiyatda bolalar erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadilar. "agar o'quvchi erkin fikrlashni urganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bulishi muqarrar. Albatta, bilim kerak, ammo bilim o'z yuliga mustaqil fikrlash ham katta boylikdir."(I.Karimov)

Oliy ta'lim tizimida mutaxassis kadrlar ko'p bosqichli yo'l bilan tayyorlanadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida bajarilishi rejalashtirilgan dasturlar asosida amalga oshiriladi. Milliy dasturni amalga oshirishning asosiy natijasi raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini barpo etishdan iborat bo'ladi. Respublika Oliy Majlisida tasdiqlangan {Kadrlar tayyorlash milliy dasturi}da quyidagi umumiy qoidalar ifodalangan.

-muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillari,

-milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro'yobga chiqarish bosqichlari,

-kadrlar tayyorlashning milliy modeli,

-kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari,

-dasturni ro'yobga chiqarishning tashkiliy asoslari.

Dasturda bu qoidalar mazmuni quyidagicha ifoda etilgan:

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yuqaltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurmoqda.

8.5. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo'nalishlari.

Tayanch iboralar: O'zbekistonda ijtimoiy hayot, o'quv tarbiya ishlari, keng imkoniyatlar barpo bo'lishi.

Mustaqillik e'lon qilingan (1991 yil 1 sentyabr') dastlabki yillardanoq O'zbekiston hukumati ta'limga ustuvor soha sifatida e'tibor berib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasida aniq va ravshan hamda ilmiy asoslangan davlat siyosati mavjud bo'lib, u insonparvarlik va demokratik tamoyillarga asoslanadi hamda har bir fuqaroning bilim olishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qonuniylashtirilgan.

Mustaqil Respublikamizda xalq ta'limi tizimi mazmunini yangilash va yangi ijtimoiy muhit sharoitida uni yanada rivojlantirish zarur edi. Chunki huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarda olib borilayotgan islohotlarda asosiy maqsad ham barcha fuqarolarning hayotini ijtimoiy himoyalash, ularning turmush sharoitini yaxshilash, ma'naviy jihatdan yuksaltirish, eng muhimi, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdan iboratdir.

Ana shu maqsadni amalga oshirish borasida Respublikamiz hukumati xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilishni va milliy kadrlarga bo'lgan ehtiyojni tobora ortib borayotganligini hisobga olib ta'lim tizimini ham yangilashni taqozo etar edi. Shu maqsadda 1997 yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1X sessiyasida

“Ta’lim to’g’risida” Qonun hamda “Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi” keng muhokama qilindi va tasdiqlandi.

Shunga ko’ra, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq boy madaniyatimizni tiklash va uni rivojlantirish, ta’lim tizimini takomillashtirish, uni zamon talablariga javob bera oladigan jahon andozalari darajasiga ko’tarish maqsadiga e’tibor berib borilmoqda.

Ta’lim sohasida “Ta’lim to’g’risida” Qonun qabul qilinganligi, 1996—1997 yildan boshlab birinchi sinflarda o’qishning lotin yozuviga asoslangan yangi alifboda dastur, qo’llanma, dasrliklarning yaratilganligi — bu ta’lim sohasida qo’yilgan dastlabki odimlar edi.

O’tgan davrda yangi turdagi ta’lim muassasalari tashkil etildi. Oliy o’quv yurtlari qoshida litseylar ochildi. Qobiliyatli o’quvchilar chet ellarda ta’lim ola boshladi. O’qituvchilar xorijiy davlatlarda bo’lib, ilg’or tajribalarni o’rganib kela boshladilar.

Viloyatlarda yangi-yangi biznech maktablari, kichik va o’rta kasb hunar kurslari ochila boshladi va bozor iqtisodi sharoitida fermer, soliq va bojxona xodimlari, audit v.b. yangi mutaxassisliklar kiritildi.

Oliy maktab sohasida test usuli joriy etildi. Viloyatlardagi pedagogika institutlari universitetlarga aylantirildi, chet el mutaxassislari respublikamiz o’quv muassasalariga jalb etildi.

Mustaqillik yillarida pedagogika fanining eng dolzarb muammolari ustida doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Chunonchi, O.Musurmonova “Yuqori sinf o’quvchilarida ma’naviy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari”, S.Nishonova “Sharq uyg’onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi”, U.Mahkamov “Yuqori sinf o’quvchilarining axloqiy madaniyatini shakllantirish”, M.Inomova “Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari” kabi doktorlik dissertatsiyalari shular jumlasidandir.

Hozirgi paytda Qori Niyoziy nomidagi O’zbekiston Pedagogika fanlar ilmiy tadqiqot instituti, hunar ta’limi ilmiy tadqiqot instituti, Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika universiteti yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ta’lim sohasi bo’yicha Davlat ilmiy-texnikaviy dasturining ijrochilari hisoblanadilar.

Hozirgi davrda, O’zbekistonning mustaqil taraqqiyoti strategiyasi, o’zbek xalqining buyuk davlat barpo etish yo’lidagi ezgu orzu-umidlarini, milliy istiqlol mafkurasini asl mohiyatini yoshlar qalbiga

va ongiga singdirish jarayoni kechayotgan bu davrda bu muhim ishni "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida uzluksiz tarzda olib borishni taqozo etadi.

Zero, istiqlool mafkurasi hur fikrlilik va jur'atsizlikdan holi bo'lgan, o'z bilimi va kuchiga ishonib yashaydigan insonni tarbiyalaydi.

Xalq maorifi vazirligini boshqargan eminjon Qodirov, Sayd Shermuhammedov respublikada o'quv tarbiya ishlarini talab darajasiga kutarish kechki ishchi-yoshlar va qishloq yoshlari maktablari tarmog'ini kengaytirish pedagog kadrlar tayyorlash kabi ishlarga rahbarlik qildilar.

Taniqli olim Sidiq Rajabov pedagogik muammolarni hal qilishda faoliyat ko'rsatdi, pedagogika tarixini urganishda faoliyat ko'rsatdi, pedagogika tarixini o'rganish va uning rivojini tahlil qilish sohalarida ish olib bordi. O'zbekiston maktablari tarixiga pedagogika fani taraqqiyotiga doir asarlar yaratdi.

Pedagogika fanining tarkibiy qismi bo'lgan fanlarni o'qitish, jumladan adabiyot va ona tilini o'qitish usullarida ham ma'lum tadqiqot ishlari olib borildi. Bu sohada A.Zunnunov, Kudrat Axmedov, Xasan Zunnunov, M.Askarova, N.M.Mallaev va boshqalar faollik ko'rsatdilar. Umuman, kommunistik siyosatning ijtimoiy gumanitar ilmlar, jumladan ilmiy pedagogik fikr iivojiga o'siq bo'lishiga qaramay xalqimizning tafakkuri, ma'naviy darajasi, pedagogik ongi yuksala bordi. O'zbekiston mustaqil bo'lishi bilan milliy ong, milliy rux, milliy madaniyatni taraqqiy ettirish va tiklash uchun keng imkoniyatlar barpo buldi. milliy madaniyatimizning o'ziiga xosligi tiklandi. O'tmishda yashab ijod etgan, butun jahonga mashhur bo'lgan allomalar ma'naviyatini o'rganish boshlandi: "Quroni Karim" ning o'zbekcha izohli tarjimasi, Muhammad payg'ambarimizning hadislari, Abu Iso at-Termiziyning "Aljome' as-saxix" asari, A.Yassaviyning "Hikmatlari" bir guruh olimlar yozgan "Buyuk siymolar, allomalar" kitoblari kabi asarlar chop etildi.

Ta'lim O'zbekistan xalqi ma'naviyatiga yaratuvchi faoliyatini baxsh eta boshlashi bilan respublikada "O'zbek pedagogikasi antologiyasi", "O'zbek pedagogikasi tarixi", "O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar", "Maktab ma'naviyati va milliy tarbiya", "Ma'naviy qadriyatlar va milliy tarbiya", "O'quvchining axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari",

“Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari”, “Donolardan saboqlar” kabi pedagogik qo’llanmalar chop etildi.

Mustaqillik davrida xalq ta’limini isloh qilish ta’lim - tarbiya sohasida eng muhim voqea bo’ldi.

Topshiriq va savollar.

1. Turkiston o’lkasida ta’lim siyosatining rivojlanishi to’g’risida nima bilasiz?

2. 1924-1945 yillarda O’zbekistonda ta’lim va pedagogika fanining rivojlanishiga izoh bering.

3. 1945-1991 yillarda O’zbekistonda ta’lim tizimi va pedagogika fani qanday rivojlangan?

4. Mustaqil O’zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar to’g’risida nima bilasiz?

5. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo’nalishlari nimadan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O’zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T., “O’zbekiston”, 1996.

2. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T., “O’zbekiston”, 1996.

3. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., “O’zbekiston”, 1997.

4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. T., “Sharq”, 1998.

5. Karimov I.A. O’zbekiston buyuk kelajak sari. T., “O’zbekiston” 1998.

6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T., «Ma’naviyat», 2008.

7. O’zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta’lim to’g’risida. T., 1997.

8. O’zbekiston Respublikasi. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. T., 1997.

9. Barkamol avlod-O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., “Sharq”, 1997.

10. Barkamol avlod orzusi. T., O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000.

11. Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., “O’zbekiston”, 2000.

12. Tursunov I.Y., Nishonaliev U.N. Pedagogika kursi. T., «O`qituvchi», 1997.

13. Qurbonov Sh., Seythalilov E., Quronov M., Ahlidinov R., Majidov I. Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondashuvlar. T., «Akademiya» 2002.

14. Quronov M. Maktab ma`naviyati va milliy tarbiya. T., «Fan» 1995.

Internet saytlari:

15. www.ziyonet.uz

16. www.tdpu.uz

17. www.pedagog.uz

XII. JAHON PEDAGOGIKA FANINING RIVOJLANISH TARIXI.

12.1. Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim davlatlarida maktab va tarbiya.

Tayanch iboralar: *Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston, Lakoniya (Sparta), Afina maktabi, Qadimgi Rim, Suqrot (Sokrat), Aflotun (Platon), Arastu (Aristotel), Demokrit.*

Tarixiy taraqqiyotning keyingi davrlariga kelib, ibtidoiy jamoa tuzumi o`rnini yangi ijtimoiy formatsiya quldorlik tuzumi egalladi. Qadimiy Sharqda birinchi sinfiy jamiyatlar paydo bo`ldi hamda moddiy va ma`naviy madaniyatga asos solindi. Ayniqsa, qadimgi Yunoniston va Rim xalqlari bu madaniyatni rivojlantirishda katta hissasini qo`shdilar.

Darhaqiqat, tarixiy taraqqiyot davomida turli mamlakatlar va xalqlar jahon madaniyatiga turlicha yondashdilar va rivojlantirdilar. Masalan, Xitoyda qog'oz ixtiro qilindi, Hindistonda hisoblashning o`nlik tizimi kashf etildi, Mesopotamiyada esa yer kurrasini graduslarga, sutkani soatlar, minutlar va daqiqalarga bo`lish o`ylab topildi.

Eramiz boshlanishidan oldin O`rta Osiyoning janubiy chekkasiga yaqin bo`lgan joyda O`rta dengiz bilan Hindistonni birlashtiruvchi karvon yo`li qurildi. So`ngra O`rta Osiyo orqali Xitoydan O`rta dengizga tomon «Buyuk ipak yo`li» ochildi. Natijada O`rta Osiyo xalqaro savdo-sotiq markaziga aylandi. Bu esa o`z navbatida O`rta Osiyo vohalarida madaniyatning rivojlanishiga ta`sir etdi, yozuvning tarqalishiga yordam berdi.

Ayniqsa, qadimgi Yunonistonda madaniyat, maktab va dastlabki pedagogik fikrlar boshqa mamlakatlarga nisbatan juda erta rivojlandi.

Yunoniston uncha katta bo`lmagan bir qancha quldorlik davlatlaridan tashkil topgan. Uning mo``tabar shaharlari Lakoniya (bosh shahri Sparta) va Attika (bosh shahri Afina)dir. Bularning har qaysisida tarbiyaning alohida tizimlari vujudga kelib, Sparta usulidagi tarbiya va Afina usulidagi tarbiya deb ataladigan bo`ldi. Ammo ikkala davlatda ham quldorlik tuzumi hukmron edi.

Yunonistonda qullarni «gapiradigan ish quroli» deb hisoblar edilar. Qullar oddiy insoniy huquqlardan ham mahrum edilar.

Lakoniya (Sparta)da kemalar to`xtaydigan qulay gavanlar

bo'lmaganligi tufayli qullar mehnatiga asoslangan dehqonchilik hukmron edi. 9 ming oiladan iborat bo'lgan quldorlar 250 mingdan ko'proq aholiga hukmronlik qilardi. Tarbiya ishlari davlat ixtiyorida bo'lib, uning asosiy maqsadi spartaliklarning bolalarini baquvvat, jismoniy sog'lom, bardoshli, chiniqqan jangchilar qilib tarbiyalashdan iborat edi.

Spartaliklarning bolalari 7 yoshgacha uyda yashar, keyin «**agella**» deb ataluvchi davlat muassasasida 18 yoshga yetguncha tarbiyalanar edi. Ular «**pedonom**» rahbarligida jismoniy sog'lom bo'lish uchun turli mashqlar bilan chiniqtirilar, sovuqqa, ochlikka va chanqoqlikka chidashga, og'riqqa bardosh berishga o'rgatilar edi. Ta'limning asosiy qismini harbiy gimnastika mashqlari egallar edi.

Qadimgi yunon tarixchisi, faylasuf olim Plutarx Sparta maktablaridagi ta'lim-tarbiya haqida gapirib, shunday deydi:

«o'qish va yozishga kelganda bolalarga faqat ularning eng zaruri o'rgatilar edi, tarbiyaning qolgan qismi esa bitta maqsad: hech so'zsiz itoat qildirishni, chidamli bo'lishni va engish ilmini o'rgatishni ko'zda tutar edi».

Spartada ta'lim-tarbiyaning yana bir muhim vazifasi yoshlarni qullarga nisbatan shafqatsiz, ularni mensimaydigan qilib tarbiyalashdan iborat edi. Shu maqsadda yoshlar «**Kreptiyalar**»da, ya'ni kechalari qullarni tutish mashqlarida qatnashar, shubhali bo'lib ko'ringan har qanday qulni o'ldirar edilar.

Yoshlarga axloqiy tarbiya berishda davlat rahbarlari maxsus suhbatlar o'tkazib, shu yo'l bilan ularga axloqiy va siyosiy tarbiya berar, bolalarni savol-javob jarayonida aniq va lo'nda javob berishga o'rgatgan. Yigitlar 18—20 yoshga etganda «**efebalar**» o'spirinlar guruhida harbiy xizmatni o'taganlar.

Spartada qizlar tarbiyasiga ham alohida e'tibor berilgan. Ularni harbiy va jismoniy tarbiya malakalari bilan qurollantirib borilgan. Chunki erkaklar jangga ketganlarida ular shaharni qo'riqlab, qullarni itoatda saqlashini ta'minlar hatto jangga ham qatnashardilar.

Afinada esa hayot, tartib, intizom, maktab tizimi va undagi ta'lim-tarbiya spartanikidan butunlay farq qilar, qullar xususiy mulk hisoblanar edi. Afinada eramizdan ilgarigi V-IV asrlarda madaniyat gullab yashnadi. Fan, me'morchilik va haykaltaroshlik rivoj topdi.

Ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan yetuk kishini, Afinada eng ko'rkam va barkamol inson (ideal) hisoblangan.

Bolalar 7 yoshga etguncha uyda tarbiyalanar, o'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab maktabga qatnar, Qizlar esa oilada ona ko'magida uy-ro'zg'or ishlariga o'rgatilar, chunki xotin-qizlarning hayoti uy doirasidan chiqmas edi.

Afinada bolalar dastlab 7 yoshdan 13-14 yoshgacha «grammatist» (savod o'rgatish ma'nosida) yoki «kifarist» (grekcha musiqa o'qituvchisi ma'nosida) maktablarda tahsil olganlar. Bu xususiy maktablarda o'qish pullik bo'lgan. Shuning uchun kamhar j fuqarolarning bolalari ushbu maktablarda ta'lim ololmagan.

Maktablarda «didaskol» deb atalgan o'qituvchilar mashg'ulot olib borar edilar. (Men o'qitaman, degan ma'nodagi «didasko» so'zidan keyinroq «didaktika» — ta'lim nazariyasi kelib chiqqan).

O'g'il bolalarni maktabga qullar yetaklab borar edi. Bunday qul pedagog deb atalgan («pays» - bola, «agogeyn» yetaklab borish degan so'zlardan olingan). Grammatist maktabida o'qish, yozish va hisoblash o'rgatilar edi, o'qishda harflarni hijjalab o'qitish usuli, so'ng qo'shib o'qish usulidan foydalanganlar. Yozuvni o'rgatishda mum surilgan yaltiroq taxtachalardan foydalangan va ingichka cho'p yordamida yozganlar. Sonlar barmoqlar, sopol toshlar, sanoq taxtasi yordami bilan hisoblagan. Kifarist maktabida adabiy bilim va estetik tarbiya berilar, muzika, ashula, deklomatsiyalar o'rgatilar edi.

O'g'il bolalar 13-14 yoshga etganlaridan keyin palestra («Kurash maktabi») deb atalgan o'quv yurtiga o'tar, bu yerda ikki yil davomida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanardilar. Masalan: sakrash, yugurish, kurashish, disk va nayza uloqtirish, suvda suzish kabilar. Palestrada o'qish tekin bo'lgani uchun yoshlarning ko'pchiligi shu yerda o'qish bilan cheklanib qolar edi. Badavlatroq oiladan bo'lganlari esa palestrani tugatgach gimnaziya (jismoniy, ijtimoiy tarbiya) kirar edi. Ularga falsafa, siyosat, adabiyot fanlari o'rgatilar, tahsilni tugatganlar davlat boshqaruvida qatnashishlari mumkin edi.

Nihoyat, Spartada bo'lgani kabi, Afinada ham 18 dan 20 yoshgacha bo'lgan yoshlar efeblar qatoriga o'tib, harbiy xizmatga tayyorlanar va siyosiy bilimlarini oshirishni davom ettirardilar.

Aholining ko'pchilik qismi bolalarni maktablarda o'qita olmaganligi sababli ularga kasb-hunar o'rgatish odat tusiga kirgan edi. Ayrim xatsavodi bor ota-onalar bolalariga o'qishni o'zlari o'rgatar edilar. Bu davlat tomonidan qonunlashtirilib qo'yilib bechorahol tabaqaga mansub ota-onalar o'z bolalariga biror kasbni o'rgatishga

majbur edilar. Aks holda ularning bolalari kelgusida keksayib qolgan ota-onalar to`g`risida moddiy g`amxo`rlik qilishdan ozod etilgan.

**Qadimgi Yunonistonda pedagogik nazariyalarning tug`ilishi.** Yunonistonda maktab va madaniyatning tez rivojlanishi pedagogika nazariyasining tug`ilishiga imkon yaratdi. Pedagogika nazariyasiga olim va faylasuflardan Suqrot, Platon, Aristotel va Demokritlar asos soldilar. Quyida bu faylasuf olimlar haqida qisqacha to`xtalib o`tamiz.

Suqrot (Sokrat). (eramizdan avvalgi 4693-99 yillar) o`zining ijtimoiy kelib chiqishiga qaramay (Suqrot haykaltaroshning o`g`li edi) konservativ zamindor aristokratlarning ideologi edi. Bu albatta uning falsafiy va pedagogik qarashlarida o`z aksini topdi. Suqrot dunyoning tuzilishini, buyumlarning fizik holatini bilib bo`lmaydi, odamlar faqat o`zlarinigina bilishi, axloqni kamol toptirishi lozim deb hisoblar, faylasuf bo`lishi bilan birga ajoyib notiq ham edi. Keng maydonlarda so`zga chiqar, axloqqa doir masalalar yuzasidan suhbatlar o`tkazar, tinglovchilarni savol-javob yo`li bilan haqiqatni topishga undar edi. Bu «Suqrot metodi» (Evristik) nomi bilan fanga kirgan.

Suqrot — falsafiy dialektikaning asoschilaridan biri. Baxs orqali, ya`ni muayyan masalalarni O`rtaga qo`yish va ularga javob topish yo`li bilan haqiqatni aniqlash mumkin deb uqtiradi faylasuf.

Aristotelning yozishicha Suqrot mavjud haqiqatdan umumiy tushunchalarga o`tish haqidagi induktiv ta`limotni hamda har bir narsaning mohiyatini bilishning birinchi imkoniyatini beradigan tushunchalarni aniqlash haqidagi ta`limotni yaratgan. Suqrotning etika sohasidagi asosiy tezislari quyidagilardan iborat: ezgulik bilimdir, donishmandlik, ya`ni yaxshilikni biluvchi yaxshilik qiladi; yomonlik qiluvchi esa yaxshilikni yo bilmaydi yoki pirovardida yaxshilikning tantanasi uchun yomonlik qiladi. Suqrotning ta`biricha, aql bilan axloq o`rtasida ziddiyat bo`lishi mumkin emas. Ulug` faylasuf tarbiyada axloqiy, estetik, jismoniy tarbiya mezonini ishlab chiqdi. Lekin Suqrotning axloqiy qarashlarida tengsizlikni yaqqol sezish mumkin. Uning fikricha, axloq faqat imtiyozli «mumtoz»largagina xos, «mumtoz» kishilar haqiqiy axloqning yagona egalari bo`lganliklari uchun hokimiyat ham ularning qo`llarida bo`lmog`i kerak, deydi.

Suqrot davlat boshqaruvining monarxiya, tiraniya, aristokratiya, politiya va demokratiya kabi shakllarini tanqid qilgani uchun ayblanib, o`lim jazosiga hukm qilingach o`z ixtiyori bilan zahar ichgan.

Aflotun (Platon) eramizdan ilgari (424—347 yillari) yashagan. Qadimgi Yunonistonning mashhur idealist faylasufi, Suqrotning shogirdi, ob`ektiv idealizm nazariyasining asoschisi «g`oyalar dunyosi»ni birlamchi, his qiluvchi narsalar dunyosini ikkilamchi deb hisobladi.

Aflotun olamni hodisalar dunyosi va g`oyalar dunyosi deb ikkiga bo`ldi. Uning fikricha g`oyalar abadiy va o`zgarmasdir. Uning nazarida, narsalar g`oyalar olamining soyasidir, xolos.

Afina aristokratiyasining namoyondasi bo`lgan Aflotun, aristokratiyaning abadiy hukmronligi haqidagi nazariyani ilgari surdi. Uning fikricha ideal aristokratik davlat uch xil ijtimoiy guruh: faylasuflar, jangchilar, hunarmandlar va dehqonlar guruhidan iborat bo`lishi lozim. Faylasuflar davlatni boshqaradilar, jangchilar uni har qanday dushmandan himoya qiladilar, uchinchi guruh esa mehnat qilib, mo`l hosil yetishtirib, faylasuflar va jangchilarni boqadilar. Uning tasavvuridagi ideal davlatda qullar ham hunarmandlar ham huquqsizdirlar, qanoat va itoatkorlik fazilatlariga xos deb ta`kidlaydi u.

Aflotun davlat tomonidan tashkil etilmog`i va hukmron guruhlarning faylasuflar va jangchilarning manfaatini ko`zlamog`i lozim. Aflotun o`zining pedagogika tizimida Sparta va Afina tizimining ba`zi bir belgilarini birlashtirishga intiladi.

Aflotunning fikricha, bolalar uch yoshdan 6 yoshgacha davlat tomonidan tayinlab qo`yilgan tarbiyachilar rahbarligida maydonchalarda turli o`yinlar o`ynash bilan shug`ullanishlari lozim. Aflotun o`yinlarni maktabgacha tarbiya vositasi deb hisoblab, ularga katta ahamiyat beradi, shuningdek, bolalarga hikoya qilib beriladigan materiallarni sinchiklab tanlash kerakligini ham uqtirib o`tadi. U bolalarga yoshlik chog`idanoq ijtimoiy tarbiya berish tarafdori edi.

Aflotun xotin-qizlar tarbiyasi xususida fikr yuritib, Spartadagi usulni ma`qullaydi.

Umuman Aflotun tarbiya tizimining butun mazmuni va mohiyati jismoniy mehnatdan g`oyat nafratlanish ruhi bilan sug`orilgan. Aflotun g`oyasiga ko`ra bo`lajak faylasuflar va jangchilarning «jismoniy mehnat to`g`risida xato o`ylashlari» ham taqiqlab qo`yilgan, shuningdek qullarning bolalarini o`qitmagan ma`qul.

Biroq, Aflotun maktabgacha tarbiya to`g`risida, davlat tomonidan izchillik bilan olib borilishi lozim bo`lgan tarbiya tizimi to`g`risida bir

qancha muhim fikrlarni aytib, ijobiy o`rnak namunasida tarbiyalashni talab qilgan.

Aflotun o`zining axloqiy g`oyalarini ilgari surar ekan, ustozi Suqrotga ergashib, ob`ektiv idealizm yo`lini tutadi. Aflotun etikasining asosiy nazariy tayanch nuqtasi — inson ongi chegaralaridan tashqarida bo`lgan va mangulik g`oyalari olamida xudoning doimiy nazorati ostida bo`ladigan yagona o`zgarmas «yaxshilik» g`oyasidir. Uning fikricha, yerdagi yaxshiliklarning hamma turi o`zida me`yor, go`zallik va haqiqatdan iborat uch tushunchani jamlagan oliy «yaxshilik g`oyasi»ning in`ikosigina bo`lishi mumkin. Odamning axloqiy hayoti shu oliy «yaxshilik g`oyasi»ga intilishga to`la bo`ysingan va xushbaxtlikni tashkil etadigan, faqat oliy «yaxshilik» g`oyasiga intilishdagina xulqning namunasini ko`rish mumkin.

Platonning shogirdi bo`lgan, Makedoniyalik Iskandarni tarbiyalagan, qadimgi Gretsiyaning eng yirik idealist faylasufi va olimi Arastuning pedagogika nazariyasini yaratishdagi va uni rivojlantirishdagi xizmatlari juda ulkan.

Arastu (Aristotel). (eramizdan avvalgi 384—322 yillar)da yashagan. Aflotunning shogirdi, makedoniyalik Iskandarning ustozi. Qadimgi Yunonistonning yirik idealist faylasufi va olimi.

Aflotun olamni g`oyalar va hodisalar dunyosiga bo`lgan bo`lsa, uning shogirdi Arastuning aytishicha, g`oyani shaklga o`xshatish mumkin. Har qanday buyumda biz uning moddasini va shaklini ko`rishimiz mumkin. Moddada narsalar bo`lishi uchun imkoniyatlar bor; modda biron shakl olganidan so`nggina narsa bo`lib qoladi. Chunonchi, marmarning o`zi bir moddadir, ammo unga ma`lum shakl berilsa, haykal tusini olishi mumkin,

Butun hayot taraqqiyot jarayonidir, bu jarayon, Arastuning fikricha, tashqi kuchlarning ta`siri ostida sodir bo`lmaydi, balki ichki taraqqiyotning o`zidir. Arastu tashqi olamning mavjudligiga shubha qilmaydi va hissiy tajribani, sezgilarni bilishning asosi deb hisoblaydi. Arastuning ta`kidlashicha bilishdagi xatolar noto`g`ri tafakkurdan, ya`ni hissiy tajribani noto`g`ri talqin qilishdan kelib chiqadi.

Arastu olamda tana va jon bor, tana bilan jon materiya bilan shakl tariqasida bir-biridan ajralmagan holda mavjuddir, deydi. Uningcha, uch xil jon bor: o`simlikdan tarkib topgan jon oziqlanish va urchib ko`payishda namoyon bo`ladi; hayvonotdan tarkib topgan jon,

o`simlik xossalaridan tashqari sezgilarda va istaklarda namoyon bo`ladi; aqlning ifodasi bo`lgan jon, o`simlik va hayvonot xossalaridan tashqari, u tafakkur yoki bilish xislatlariga ega. Insondagi jonning hayvoniy qismi aqlga tobe bo`lganligi sababli, uni iroda deb atash mumkin.

Arastuning fikricha, jonning mana shu uch xiliga muvofiq uch xil tarbiya-jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyalardir. Tarbiyaning maqsadi aql va irodani kamol toptirishdan iborat. Har bir moddada rivojlanish imkoniyati bor bo`lganidek, insonga ham tabiat faqat qobiliyatlarning boshlang`ichinigina beradi, insonda kamol topish imkoniyati mavjud va bu imkoniyat tarbiya vositasi bilan ro`yobga chiqariladi. Tabiat jonning uch xilini bir-biri bilan chambarchas bog`lab qo`ygan, biz ham tarbiyada tabiat belgilab bergan yo`ldan borib, jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyani bir-biri bilan chambarchas bog`lab olib borishimiz lozimligini uqtiradi.

Arastuning fikriga ko`ra, davlatning umumiy bitta oxirgi maqsadi bor, u ham bo`lsa, davlat hamma fuqarolarga bir xilda tarbiya berilishini ta`minlashi lozim, mana shunda y tarbiya berish esa xususiy tashabbusning vazifasi bo`lmasdan, balki davlatning ishi bo`lishi lozim. Oilaviy tarbiya bilan ijtimoiy tarbiya o`zaro bog`liq bo`lishi lozimligini uqtirib, u hatto oilaviy tarbiyaga doir bir qancha tavsiyalar beradi. Ammo Arastu davlat hamma fuqarolar uchun «bir xilda» tarbiya berishi lozim, deb aytganida qullarni nazarda tutmaydi.

Arastu pedagogika tarixida birinchi bo`lib, yoshni davrlarga bo`lishga urinib ko`radi. U insonning yoshlik yillarini uchga bo`lib o`rganadi: 7 yoshgacha bo`lgan davr; 7 yoshdan 14 yoshgacha bo`lgan davr (jismoniy balog`at davrining boshlanishi) va jinsiy balog`at davrining boshlanishidan 21 yoshgacha bo`lgan davr. Uning fikricha, Bunday davrlarga bo`lish tabiatga mos bo`lib tushadi.

Arastu o`g`il bolalar 1 yoshdan boshlab davlat maktabida o`qishi lozim, deb uqtiradi. Bolalarga aqliy tarbiya berilishi kerakligini aytib, u o`g`il bolalar avvalo badantarbiya muallimlarining qo`liga topshirilsin, deb talab qiladi; bunda u bolalarni haddan tashqari charchatib qo`ymaslik kerakligini aytadi va ularning jismi mustahkamlanib olguncha yengil mashqlar bilan shug`ullantirishni tavsiya etadi.

Arastu jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyani bir-biri bilan bog`langan, deb qaraydi. Boshlang`ich ta`lim vaqtida,

badantarbiyadan tashqari, yana o`qish, yozish, grammatika, rasm va musiqa o`rgatilishi kerakligini alohida uqtirib o`tadi. O`smirlar maktabda jiddiy ma`lumot olishlari kerak, ular adabiyot, tarix, falsafa, hisob, falakiyot, musiqani o`rganishlari shart. Go`zallikni his qilishni o`stirish uchun musiqa o`rganmoq kerak, ammo rasm chizish singari musiqa o`rganish ham oddiy hunarga aylanib ketmasligini kuzatib turish muhim deydi. U xotin-qizlarning tarbiyasi xususida gapirib, bu erkaklarning tarbiyasiga o`xshab ketmasligini, chunki ularning tabiati mutloq erkaklarnikidan farq qilishini aytadi.

Arastu o`z pedagogik qarashlarida iroda, faoliyatni asos qilib olgani holda, aqliy tarbiya sohasida axloqiy ko`nikmalarga katta ahamiyat beradi. Tabiiy iste`dod, shu bilan birga, ko`nikma orttirish (matlub harakatlarni o`rganish, tez-tez takrorlab turish) va aql — bular axloqiy tarbiyaning uch manbaidir, deydi.

Fazilatlar hosil bo`lishi uchun ezgu xulq odatlarini va ko`nikmalarini tarkib toptiradigan, yaxshi o`ylab o`tkaziladigan mashqlar bo`lishi ham zarur, bunga odatlanish, buning uchun doiraviy harakat qilish lozim, odatdan, ko`nikishdan esa axloqiy hatti-harakat hosil bo`ladi, deb ta`lim beradi.

Arastuning qayd etishicha, har qanday istak va faoliyatda kamchilik, ortiqchalik va o`rtachilik bo`ladi. Shuning uchun ham hamma narsadan faqat o`rtachilik, faqat muvozanat yaxshi va foydalidir. Demak, hamma narsada ortiqchalikka ham, kamchilikka ham yo`l qo`ymaydigan hatti-harakat yaxshilikning nishonasidir. Mana shunda y hatti-harakatni hosil qilmoq uchun ko`proq mashq qilish kerak.

Arastu Aflotundan farq qilib, oilani tarbiyadan chetlashtirmaydi, axloqiy tarbiya berish, asosan, oilaning zimmasida bo`lishi kerak, deydi.

Arastuning qarashlari antik pedagogikaning taraqqiyotiga katta ta`sir o`tkazadi. Uning «Nikomah axloqi» va «Siyosat» asarlari axloq masalalarini nazariy ishlab chiqishga bag`ishlangan.

Arastu, axloqning jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta`kidlab, «Tabiat inson qo`liga qurol — aqliy va axloqiy kuch bergan, ammo u shu qurolni teskari tomonga nisbatan ham ishlatishi mumkin: shu sababli axloqiy tayanchlari bo`lmagan odam eng insofsiz va yovvoyi, o`zining jinsiy va did mayllarida eng tuban mavjudot bo`lib qoladi», — deydi.

Arastu antik davrining boshqa faylasuflariga qaraganda axloqiy munosabatlarning tabiatini teran tadqiq qila oldi. Uning fikriga ko`ra, axloqiy fazilat — faoliyat, hatti-harakat demakdir. Barcha axloqiy fazilatlar adolat, do`stlik, muhabbat, saxiylik, sulhparvarlik, xushfe`llik va hokazolar faqat inson faoliyatida namoyon bo`lishini asoslab beradi.

Odam jamiyatda yashagani sababli uning axloqiy fazilatlari hech qachon sof, xolis holda namoyon bo`lmaydi, balki faqat ijtimoiy faoliyatdagina amalga oshadi. Shuning uchun barcha axloqiy fazilatlar ijtimoiydir, deydi Arastu.

Inson tabiatan fazilatlarga ega bo`lmagani, balki fazilatga o`rgangani sababli, tarbiyaning (faqat bolalarnigina emas, shu bilan birga barcha aholini tarbiya qilish) roliga katta ahamiyat berib, xususan hissiyotlarni tuyg`ularda idrokli tarbiyalashga ahamiyat qaratadi. Uning fikricha, bunday tarbiya kishilarning axloqli bo`lib yashashga o`rganishlari uchun zarur bo`lgan mavjud qonunlar yordamida amalga oshiriladi. Mutafakkir fazilat deganda hamisha ota-ona o`rnini bosishi mumkin bo`lgan davlatga xizmat qilishni nazarda tutadi.

Arastu axloqiy fazilatlar bilan bir qatorda inson uchun muhim bo`lgan aqliy fazilatlarga—bilim, donishmandlik, fahmlash va boshqalarga ham katta ahamiyat beradi. Ammo axloqiy fazilatlarni aqliy fazilatlarga bo`ysundirgan holda ifodalaydi.

Arastu faqat aql faoliyatini tan oladi. Shu sababdan u baxt idealini haqiqatan intellektual mushohada etishda deb biladi.

Umuman antik faylasuflar Suqrot, Aflotun, Arastular o`zlarining nazariyalarida har bir narsada me`yor bo`lmog`i lozimligini uqtirib o`tganlar. Ular axloqni insonning baxtga erishish vositasi deb qaraganlar.

Demokrit (eramizdan avvalgi 4603-70 yillar) qarashlari qadimgi Yunon falsafasining cho`qqisidir. U atomizm nazariyasini yaratgan materialist faylasufdir. Demokrit o`z asarlarida yuqorida nomlari qayd etilgan mutafakkir faylasuflar kabi tarbiya masalalariga katta e`tibor beradi. U o`z nazariyasida tabiat qonunlariga, xurofotni va qo`rquvni emirib tashlaydigan chinakam bilimlarga murojaat qiladi.

Demokrit tarbiyani tabiatga muvofiqlashtirish masalasini birinchi bo`lib ilgari surdi. «Tabiat bilan tarbiya bir-biriga o`xshaydi» deb yozadi u. Demokrit «ta`lim mehnat asosidagina go`zal narsalarni hosil

qiladi», deb, tarbiya ishida mehnatning roli juda katta ekanligini ta'kidladi.

U doimo mehnat qilib turishni talab qildi, mehnatga odatlana borgan sari, mehnat yengil bo'lib boradi, deydi. U yomon o'rnakdan ehtiyot bo'lish kerak, deb ta'kidlaydi va yaxshi xulq hosil qilishda mashqning ahamiyati katta, deb hisoblaydi.

Demokrit axloqni odamning o'z tabiatidan kelib chiqib asoslashga harakat qiladi. Bilish nazariyasida Demokrit moddiy olamni bilish va haqiqatga erishish mumkinligini ta'kidladi, bilish jarayonida sezgi va tafakkur rolini ko'rsatdi. Uningcha sezgilarimiz orqali olingan bilim «qorong'i»; u olamning mohiyatini ochib berolmaydi; aql orqali olingan bilim «yorug'», haqiqiy bilimdir. Tabiat sirlarini faqat fikrlash yo'li bilan bilib olish mumkin.

Demokritning axloqiy va pedagogik qarashlari diniy qobiqdan xoli edi. Shuning uchun ham o'zidan keyingi faylasuf olimlarga katta ta'sir etdi.

Ayniqsa, ularning inson kamolotidagi nazariy qarashlari, tarbiyaning roliga bergan katta ahamiyatlari pedagogika tarixi nazariyasini yaratishda asosiy zamin bo'lib xizmat qildi.

12.2.Rus pedagog-olimlarining pedagogik g'oyalari.

Tayanch iboralar: *Konstantin Dimitrievich Ushinskiy, rag'batlantirish va jazolash, tovush metodi.*

Konstantin Dimitrievich Ushinskiy. Mashhur rus pedagogi, rus pedagogikasi va xalq maktablarining asoschisi, «rus o'qituvchilarining o'qituvchisi» Konstantin Dmitrievich Ushinskiy 1824 yilning 19 fevralida Tula shahrida tug'ildi.

Ushinskiy 9 yoshga qadar oilasida tarbiyalanib, savod chiqardi. So'ngra Novgorod Seversk gimnaziyasiga o'qishga kirib, uni 1840 yilda muvaffaqiyatli tamomladi. O'sha yili Moskva dorilfununining yuridik fakultetiga o'qishga kirdi va mashhur professor Redkinning bevosita rahbarligi ostida ta'lim oldi.

Ushinskiy 22 yoshida Yaroslavl litseyiga kameral (yuridik) fanlar professori vazifasini bajaruvchi sifatida xizmatiga kirdi va ish boshladi. U uch yillik dastlabki pedagogik faoliyatida katta iste'dod egasi ekanini namoyish eta oldi. Shuningdek, Ushinskiy zo'r ishtiyoq

bilan o`qituvchilik ishini olib borib, tinglovchilarga astoydil bilim berib, ularda ilm-fanga nisbatan qiziqish uyg`otdi, eng muhimi, o`z xalqi va ona yurtini jondan sevish, ardoqlash hamda vijdonan halol mehnat qilishga da`vat etdi. Bu yosh va iste`dodli professorning mazmunli ma`ruzalarini litsey tinglovchilari maroq bilan tinglar edilar.

K.D.Ushinskiy pedagoglik faoliyatini ilmiy-ijodiy ish bilan birga qo`shib olib bordi. 1848 yili uning birinchi ilmiy asari «Kameral fanlarni o`qitish haqida» nashr qilindi. Bu asarda Ushinskiy oliy o`quv yurtlaridagi mavjud o`qitish tizimiga nisbatan tanqidiy yondoshadi. Ularga hukumat tomonidan erkinlik berilishini talab etib, o`qitish tizimini yaxsxilashga oid yirik uslubiy muammolarni hal etish yo`llarini ko`rsatib berdi.

Ushinskiyning ilm-fanni demokratik tarzda targ`ib etish reaksiyon doiralarga ma`qul tushmadi. 1849 yil sentyabrda Ushinskiy va uning do`stlari siyosatda shubhali, hukumatga ishonchsiz kishilar sifatida 1849 yil litseydan chetlatildi. Shundan so`ng K.D.Ushinskiy Peterburgga ko`chib borib, ichki ishlar vazirligiga kichik amaldor vazifasida ishlashga to`rt yil majbur bo`ldi, ishladi.

Ushinskiy faqat 1854 yildagina Yaroslavl litseyi sobiq direktorining tavsiyasi bilan Gatchino institutida til-adabiyot va qonunshunoslik o`qituvchisi bo`lib ishga kiradi va tez fursatda shu institutning sinflar inspektori vazifasiga ko`tariladi. Ushinskiyning pedagogik faoliyati tom ma`nosi bilan ana Shu vaqtdan boshlandi. U 1859 yilda Smolnii institutining sinflar inspektori vazifasiga tayinlanib, unga shu institutning juda achinarli holga tushib qolgan ilmiy bo`lim ishlarini tartibga solish vazifasi yuklandi. Ushinskiy bu ishni puxta bajarib, pedagoglik jarayonni uyushtirish sohasida katta qobiliyat sohibi ekanini ko`rsatdi. Shu bilan birga pedagogika masalalariga bag`ishlangan va muntazam chop etilayotgan nazariy tadqiqotlari uning faqat amaliyotchi emas, balki o`z ixtisosi bo`yicha kuchli nazariyotchi ekanligini namoyon etdi.

Ushinskiy 1857 yildan boshlab «Tarbiya jurnali» («Jurnal dlya vospitaniya»)da, so`ngra «Xalq maorifi jurnali»da juda ko`p sermazmun maqolalar e`lon qildi. 1860 yili u «Xalq maorifi jurnali»ning muharriri qilib tayinlandi. Ushinskiy 1861 yili o`zining «Bolalar dunyosi», («Detskiy mir») nomli o`qish kitobini nashr ettirdi. Bu kitob o`sha yilning o`zidayoq ikki marta chop etildi.

Ushinskiyning pedagogik faoliyatiga soya soluvchi (1862 yil) imzosiz xat uni o'z ishini to'xtatishga majbur qildi. Bu xatda u go'yo siyosiy jihatdan ishonchsiz kishi, deb ayblangan edi. Buning oqibatida u chet ellardagi xotin-qizlar maorifining yo'lga qo'yilishini o'rganish va pedagogikadan darslik yozish uchun o'z vatanidan ketishga majbur bo'ldi. U xorijiy mamlakatlarda yurgan davrida o'zining butun kuch g'ayratini ta'lim-tarbiyaga doir asarlar yozish va ularni chop ettirishga yo'naltirdi. Natijada, 1861 yili uning I- II o'quv yillari uchun «Ona tili» darsligi nashr etildi va unga «Muallimlar uchun qo'llanma» degan metodik asari ilova qilindi. 1870 yili esa III-o'quv yili uchun ham «Ona tili» darsligi bosilib chiqdi. Bundan tashqari, Ushinskiyning pedagogika sohasidagi asosiy nazariy asari hisoblangan «Inson — tarbiya predmeti sifatida («Pedagogik antropologiyadan tajriba») nomli asari ayrim jildlarga bo'linib nashr qilina boshladi. 1867 yil bu asarning I - jildi, 1869 yil II-jildi bosilib chiqdi. Ushinskiy bu kitobning hamma jildlarini qisqartirib ingliz tiliga tarjima qilish maqsadida uchinchi *jild* ustida zo'r g'ayrat bilan ishlay boshladi. Afsuski, bu ishni tamomlash unga nasib bo'lmadi. U Qrimda davolanish paytida qattiq shamollab, 1870 yil 21 dekabrda Odessada zotiljam kasalidan vafot etdi.

K.D.Ushinskiyning pedagogika nazariyasi xalqchillik g'oyasi asosiga qurilgan. Ushinskiy xalqchillik deb har bir xalqning o'ziga xosligini tushunar ediki, bu o'ziga xoslik o'sha xalq yashashi va mehnat qilishi lozim bo'lgan tarixiy taraqqiyot, geografik va tabiiy sharoitlar bilan ifodalanadi.

U «Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi» sarlavhali maqolasida tarbiyaning xalqchilik ruhida bo'lishi kerakligini aytib, boshqa xalq pedagogikasini mexanik suratda rus tuprog'iga ko'chirishni aqlga mutlaqo muvofiq emasligini ta'kidlaydi.

Ushinskiy tarbiyada xalq ruhining eng yaxshi ifodasi ona tili ekanligiga, rus bolalarini o'qitishda rus tili asos bo'lishligini, boshlang'ich maktablardagi ta'lim ham bolalarni rus tarixi, Rossiya geografiyasi va uning tabiati bilan tanishtirmog'i lozimligini uqtiradi.

Ushinskiy o'zining «Ona tili» sarlavhali maqolasida «Xalq tili— uning qadim zamonlardan boshlanuvchi bugungi ma'naviy hayotining eng yaxshi, hech qachon so'lmaydigan, doimo yangidan ochilib yashnab turadigan gulidir, butun xalq va uning vatani til bilan tirikdir! Bularning hammasi xalq ijod etgan til orqali ifodalanadi! Xalq

avlodlari birin-ketin yashab o'taveradi, ammo har bir avlod hayotining natijalari keyingi avlodlarga til orqali meros bo'lib o'tadi. Har bir avlod o'z his-tuyg'ularini, tarixiy voqealar, diniy e'tiqod, maslak natijalarini, boshidan kechirgan qayg'u va xursandchiliklarini ona tili xazinasiga qo'shadi! Til eng jonli, eng boy va mustahkam aloqa vositasi bo'lib, xalqning yashab o'tgan, yashayotgan va kelajakda yashaydigan avlodlarini bir-birlari bilan chambarchas bog'laydi, ularning ulug', tarixiy, jonli bir butunga aylatiradi. Til bor ekan, xalq ham bor, xalqning hayot ekanligini til orqali bilish mumkin. Til xalqning hayotidir. Xalq tili yo'qolganida xalqning o'zi ham yo'q bo'ladi», — deb uqtiradi. Ona tili — Ushinskiyning fikricha — na kitob, na maktab bo'lmagan vaqtda ham xalqni o'qitgan eng yaxshi ustozdir.

Axloqiy tarbiya maqsadlari va vositalari. K.D.Ushinskiy tarbiya ishidagi turli vositalar orasida axloqiy tarbiyaga katta e'tibor berib, «Tarbiyaning asosiy vazifasi axloqiy jihatdan ta'sir etishdan iboratdir, bu aqlni umuman o'stirish, boshni bilimlar bilan to'ldirishdan ko'ra ham muhimroqdir», — deb yozgan edi.

Axloqiy tarbiya bolalarda odamlarga hurmat va muhabbat bilan qarashni, ularga nisbatan samimiy, xayrixoh va adolatli munosabatda bo'lishni o'stirishi kerak.

Ushinskiy ko'r-ko'rona, tayoq intizomiga qarshi norozilik bildirib, «eski maktabda intizom nihoyatda g'ayri tabiiy asosga yoki mukofotlar va yoki jazolar ulashib beruvchi o'qituvchidan qo'rqish asosiga qurilgan edi. Bu qo'rquv bolalarni zararli holatlarga: sustkashlikka, sinf doirasidagi zerikishga va ikkiyuzlamachilikka olib keldi» deb bolalarga nisbatan insoniy munosabatda bo'lishni talab qildi.

Ushinskiy egoistlik, mansabparastlik, bekorchilik, g'arazgo'ylik munofiqlik singari nuqson va kamchiliklarni qattiq qoralaydi.

Uning fikricha, axloqiy tarbiyaning vositalari quyidagilardan iborat: 1. Ta'lim (axloqiy tarbiyada kitob va darslik); 2. O'qituvchining shaxsan namuna bo'lishi (Ushinskiyning obrazli ifodalashicha, «bu narsa yosh qalb uchun quyoshning barakali nuridirki, uni hech bir narsa bilan almashtirib bo'lmaydi»); 3. e'tiqod; 4. O'quvchilarga mohirlik bilan munosabatda bo'lish (pedagogik odob); ogohlantirish choralari;

Rag'batlantirish va jazolash. Ushinskiy bolalar mehnati haqida

gapirib, insonning to'g'ri rivojlanishidagi zarur shart mehnatdir, deydi. Uning fikricha «agar tarbiya kishini baxtli qilmoqchi bo'lsa, uni baxt uchun tarbiyalamaslik kerak, balki hayotdagi mehnat uchun tayyorlashi lozim». Tarbiya kishida mehnatga muhabbat va odatni o'tirish kerak. Ushinskiy kishi o'z faoliyatida jismoniy mehnat bilan aqliy mehnatni birlashtirsa, juda foydali bo'lur edi, deb hisoblaydi. U o'quvchilar mehnati haqida gapirib, «O'qish mehnatdir va mehnat bo'lib qolishi, ammo to'la ma'noli mehnat bo'lishi lozim», — deydi. U ta'limni ovunchoqlik, ko'ngil ochish yo'li bilan o'tkazishga, ba'zi pedagoglarning ta'limni mumkin qadar yengilroq qilishga harakat qilishlariga qarshi chiqdi. Bolalar o'qish davrida mehnatga, qiyinchiliklarni enga olishga o'rganishlari kerak. Faqat kichkina bolalarnigina o'ynab turib o'qishga o'rgatish mumkin, deb yozadi Ushinskiy. Aqliy mehnat og'ir, o'rganmagan kishini tezda charchatib qo'yadi. Shuning uchun bolalarni kuchi etadigan ishlarga asta-sekin o'rgatish lozim.

K.D.Ushinskiyning aqliy mehnatni jismoniy mehnat bilan qo'shib olib borish to'g'risidagi, o'qishi va dam olishni to'g'ri tashkil etish haqidagi pedagogik fikrlari hozirgi kunda ham qimmatlidir.

K.D.Ushinskiyning didaktika sohasidagi qarashlari pedagogika tarixida o'zining chuqurligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ushinskiy ta'limni bolalarning psixologik jihatdan kamol topishlarining yosh bosqichlarini hisobga olishni va ular psixologiyasining xususiyatlarini e'tiborga olib tashkil etish kerakligini talab qildi.

Ushinskiy xotira bilan esda saqlab qolish to'g'risida gapirib, unutishning oldini oladigan tez-tez takrorlash yo'li bilan tarbiya oluvchilarda o'z xotiralariga ishonchni mustahkamlash kerak, deb ko'rsatdi. U darsda ko'rsatmalilik tamoyiliga katta ahamiyat berib, psixologik nuqtai nazardan ko'rgazmali ta'limning mohiyatini yoritib berdi.

Ushinskiy ko'rgazmali ta'lim tamoyillarini nazariy jihatdan ishlab chiqishga va uni amalda tatbiq etishga doir juda ko'p qimmatli fikrlar kiritdi. Ushinskiy o'qitish jarayonida ko'rgazmali ta'limga munosib o'rin berdi: u ko'rgazmali ta'lim o'quvchilarning rivojlanishini ta'min etadigan shartlardan biridir, deb bildi.

Ushinskiy bolalarning o'quv materialini **anglab, puxta va mustahkam** o'zlashtirishiga ham katta e'tibor berdi. U bu

tamoyillarni tushunish va tatbiq qilishda o`zidan ilgari o`tgan pedagoglarga nisbatan ko`pgina yangiliklar kiritdi. Masalan, o`quv materialini takrorlash to`g`risida batafsil metodika ishlab chiqdi.

Ushinskiy ta`lim yo`nalishida ikki yo`nalish borligini qayd etdi. Birinchi yo`nalish bolalar o`qituvchining rahbarligida buyum yoki hodisani kuzatadilar va shu buyum yoki hodisa to`g`risida umumiy tushuncha hosil qiladilar. Ikkinchi yo`nalishda olingan bilimlar umumlashtiriladi va mustahkamlanadi.

Ushinskiy maktabning ikki xodimi: murabbiy bilan o`qituvchi o`rtasida tarbiya va ta`lim (funksiyasini) jarayonini bo`lib qo`yishga norozilik bildirdi. U ta`limni tarbiyaning eng muhim vositasi deb hisobladi. Ushinskiy o`zining pedagogik tizimida **dars hamda ta`lim metodiga** katta ahamiyat berdi.

Darsda mashg`ulotlar turlicha bo`lishi mumkin: yangi bilim berish, o`quvchilarning mashqlar bajarishi, o`tilganlarni takrorlash, o`quvchilarning bilimini hisobga olish, o`quvchilarning yozma ishlarni bajarishlari. Har bir dars ma`lum maqsadga qaratilgan, tugallangan bo`lishi va yetarli darajada tarbiyaviy xarakterga ega bo`lishi lozim. Ushinskiy mashg`ulotlarni almashtirib metodlarni xilma-xil qilib turishni tavsiya qildi.

U bolalarda mustaqil ishlash qobiliyatini o`stirishga e`tibor berib, o`qituvchi maktabga yangi kirgan bolalarga darsda mustaqil ishlashning to`g`ri usullarini o`rgatishi kerak, bolalar to mustaqil ishlash malakalarini mustaqil o`zlashtirib olmaguncha, ularga uyga vazifalar berish yaramaydi, deydi.

Ushinskiy «Rus tilini dastlabki o`qitish» (1864) sarlavhali maqolasida bir qancha qimmatli metodik ko`rsatmalar bergan. Uning fikricha, o`qitishning uchta vazifasi bor: 1) bolaning nutqini o`stirish; 2) bolalarni rus tilining boyligidan ongli suratda foydalanishga o`rgatish 3) tilning mantiqini (grammatikasini) o`zlashtirish.

Rossiyada o`qishga o`rgatishda **tovush metodini** joriy qilish va keng tarqatishda Ushinskiyning xizmati katta bo`ldi.

Ushinskiy o`qituvchilarning roliga yuksak baho berib, «pedagogning o`quvchilarga ta`siri shunday tarbiyaviy kuchga ega ediki, buni hech qanday ustav va dastur bilan, o`quv yurtini har qancha qulay tashkil etish bilan almashtirib bo`lmaydi», deb hisoblaydi. U «tarbiya ishida murabbiyning shaxsi eng asosiy omildir», deb yozgan edi.

Ushinskiy pedagogika o'qituvchilari va o'rta maktab o'qituvchilari tayyorlaydigan pedagogika fakultetlari to'g'risidagi fikrni olg'a surib shunday yozgan edi: «Bizda medicina fakultetlari boru, pedagogika fakultetlari yo'q ekan, bu shuni ko'rsatadiki, biz axloqiy va tarbiyaviy sog'lig'imizga qaraganda tanamiz sog'lig'ini ko'proq qadrlar ekanmiz».

K.D.Ushinskiyning o'z vataniga, o'z xalqiga xizmat qilishni pedagogik faoliyatining asosiy burchi deb hisobladi.

U o'qituvchilar tayyorlash tizimini ishlab chiqdi.

1895 yili Ushinskiyning vafotiga 25 yil to'lishi munosabati bilan bo'lgan yig'ilishda, uning ishini davom ettiruvchilardan biri, Modzalevskiy «Xuddi Lermontov — bizning xalq olimimiz, Suvarov — bizning xalq lashkarboshimiz, Pushkin — bizning xalq shoirimiz, Glinka bizning xalq kompozitorimiz bo'lganidek, Ushinskiy ham — bizning haqiqiy xalq pedagogimizdir» deganda haq edi.

12.3.G'arbiy Evropada maktab va pedagogik fikrlar.

Tayanch iboralar: *G'arb Uyg'onish davri, D.Lokk, K.Gel'vetsiy, D.Didro, R.Ouen.*

G'arb Uyg'onish davridan boshlangan progressiv pedagogik goyalar pedagogika fanini ilmiy va amaliy jihatdan boyitishda katta rol' uynadi. Buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy tamonidan ilmiy pedagogika faniga asos solindi. Aynan ta'lim tarbiya orqali jamiyatdagi ijtimoiy notekisliklarni bartarf etish, barchani o'qitish goyalari ilgari surildi. Fransuz faylasufi J.J.Russo uz asarlarida jamiyatda hukm surayotgan avtoritar munosobatni keskin tanqid holda erkin tarbiya nazariyasini ilgari surdi. U o'z jamiyatini tanqid qilib salbiy ijtimoiy muhit bola tarbiyasiga salbiy ta'sir etishini yoritib berdi. Angliya faylasufi D.Lokk yangi burjuaziya jamiyati uchun yangi inson tarbiyasi konsepsiyasini ilgari surdi.D.Lokk djentel'men tarbiyasi. Uning zamonaviy mazmuni va tarbiya uslub va shakllarini o'z asarida yoritib berdi. D.Lokk ilk bor inson huquqlarini poymol qiluvchi, bola shaxsini tarakkiyotini bukib qo'yuvchi avtoritar tarbiyani keskin tanqid ostiga oldi. U bolalarga qullarcha munosobatda bulish faqat yaxshigina itoatgo'y qulchalarning shakllanishiga olib keladi deb hisoblaydi. Aynan ushbu progressiv

qarash bugungi kun maktab maorif tizimida mustakil fikrlovchi erkin shaxs tarbiyasi g'oyasi bilan hamoxang ekanligini kuramiz. Fransuz ma'rifatparvarlari K.Gel'vetsiy va D.Didro bilish jarayonini ichki va tashqi mohiyatini ilmiy pedagogik jihatdan tadkik kildilar. Ayniqsa, D.Didro ta'lim tarbiyada faqat tashqi omil asosiy rol' o'ynamasligini, balki shaxs kamoloti ichki va tashqi omillarga bog'liqligini yoritib berdi. D.Didro insonning tabiiy omili bo'lgan layoqat, moyillik, istak, xohish, qobiliyatning mohiyatini ta'lim tarbiya bilan bog'lash g'oyasini ilgari surdi. Ilmiy pedagogika fanini boyitishda Germaniyalik pedagog I.Gerbart katta hissa qo'shdi. U uz asarlarida ta'lim bosqichlari, bola shaxsining qiziqishi, uning turlari, ta'lim turlarini yoritib berdi. I.Gerbart pedagogika, psixologiyaga oid bir qator darsliklar yaratdi, ta'lim jarayonida tarbiyalash g'oyasini ilgari surdi. Uning vatandoshi A.Disterverg takomillashgan ta'lim nazariyasini ilgari surdi. U har bir ta'lim bola aqliy qobiliyatini o'stiruvchanligi bilan samaradorli bo'lishi lozim deb ta'kidlaydi. Disterverg o'qituvchining roliga yuqori baxo berdi. Uning fikricha, «yomon o'qituvchi haqiqatni aytib berib qo'ya qoladi, yaxshi o'qituvchi esa haqiqatni topishga urgatadi.» G'arb pedagogika fanini rivojlanishida faqat nazariy g'oyalar bilan cheklanib qolmay, balki amaliy tajriba ishlari bilan pedagogika tarixidan yorqin urin oldilar. Ushbu yunalishda Shveytsariyalik pedagog I.Pestalotsti boshlang'ich ta'lim nazariyasiga asos solish bilan birga amaliy pedagogik faoliyatini amalga oshirdi, uz mablagi evaziga mexnatkashlar farzandlarini o'qitish va kasb hunar o'rgatish g'oyalarini amaliy faoliyatda targ'ibot etdi. Bu yo'nalishda Angliyalik faylasuf R.Ouen ijtimoiy muhitni o'zgartirish orqali inson xarakterini tarkib toptirish g'oyasini o'z tajribalarida sinab ko'rdi. R.Ouen butun mablagini. Amaliy pedagogik faoliyatini insoniyat hayotini yaxshilashga bagishladi.

12.4. Iogann Genrix Pestalotsining didaktiga qo'shgan hissasi.

Tayanch iboralar: Pestalotsi, yetimxona tarbiyalanuvchilari, gumanist va demokrat, onalar kitobi, tarbiyaning maqsadi va mohiyati.

Pestalotsining pedagogik faoliyati. Iogann Genrix Pestalotsi

Shveytsariyaning Syurix shahrida vrach oilasida tug'ildi. Pestalotsi otadan yosh judo bo'lib, onasi hamda oddiy dehqon ayol — ularning sobiq xizmatchisi tarbiyasida o'sdi.

Pestalotsi avval boshlang'ich maktabda, so'ngra lotin maktabida o'qib ilm oldi. Pestalotsi o'rta maktabni tamomlagach, ko'proq gumanitar fanlar o'qitiladigan oliy o'quv yurtiga kollegiumda, uning filologiya va falsafa bo'limlarida o'qidi. Pestalotsi kollegiumni tamomlamay turib, xalqning ahvolini yaxshilash to'g'risida o'zining azaldan orzu qilib kelgan niyatini amalga oshirishga qaror qildi. 1769 yilda Pestalotsi o'zining ijtimoiy tajribasini boshladi. U pul qarz olib, kichikroq qo'rg'on va yer sotib oldi, bu yerga «Neygof» («yangi qo'rg'on») deb nom berdi va tevarak atrofdagi dehqonlarga o'z xo'jaliklarini unumdor xo'jalikka aylantirishni o'rgatish maqsadida, bu yerda namunali ferma tashkil qilmoqchi bo'ldi. Tajribasiz va xo'jalik ishlaridan bexabar bo'lgan Pestalotsi oradan ko'p o'tmay sindi, va u xalq foydasini ko'zlab yana yangi yo'llar qidirishga majbur bo'ldi.

U 1774 yili «Neygof»da «Kambag'allar muassasasi»ni ochib, yetim va boqimsiz bolalardan 50 ga yaqin kishini shu muassasaga to'pladi. Pestalotsining fikricha, bolalarning o'zlari ishlab topgan pullar shu yetimxonaning har ajatini qoplashi kerak edi. Yetimxonada tarbiyalanayotgan bolalar dalada ishlar, shuningdek, to'quv va yigiruv dastgohlarida ip yigirib, mato to'qir edilar. Pestalotsining o'zi bolalarga o'qish, yozish va hisob o'rgatar, ularni tarbiyalash bilan shug'ullanar edi. Hunarmand ustalar esa bolalarga ip yigirish va to'qishni o'rgatardilar. Shu tariqa, Pestalotsi o'z muassasasida bolalarni o'qitishni ularni unumli mehnatga o'rgatish bilan qo'shib olib borishga urindi.

Pestalotsi boshlagan ish tezda barbod bo'ldi, chunki siyosiy hokimiyat va moddiy mablag'larning egalari uni qo'llab-quvvatlamadilar. Bolalar ming mashaqqat bilan mehnat qilishi tufayli o'zlari yashab ishlab turgan yetimxona xarajatlarini ko'tara olar edilar, lekin gumanist va demokrat Pestalotsi o'zi tarbiyalayotgan bolalarni bunday og'ir sharoitda yashashini istamasdi va bunga yo'l qo'ya olmasdi. U bolalar mehnatini, avvalo, bolalarning jismoniy kuchlarini aqliy va axloqiy qobiliyatlarini o'stirish vositasi, deb bildi. Bolalarga faqat hunar o'rgatibgina qolmasdan, balki ularni keng ravishda mehnatga o'rgatishga intildi.

Pestalotsi Neygofda o'tkazgan tajribaning pedagogika uchun ahamiyati katta bo'ldi. Tajribani davom ettirish uchun mablag' bo'lmaganligi sababli oradan ko'p vaqt o'tmay yetimxona yopildi. Lekin, bu muvaffaqiyatsizliklar uni, xalqqa yordam berish maqsadidan qaytara olmadi.

Pestalotsi 1798 yil Shvetsariya inqilobi natijasida yetim qolgan 5 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan 80 bolaga mo'ljallangan yangi yetimxona ochdi.

«Ertalabdan to kechgacha ularga yakka o'zim hamroh edim! Mening qo'llarim ularning qo'lida, ko'zlarim ularning ko'zlarida edi. Ular yiglasa, men ham yig'lar, kulsa kular edim! Ular nima yesa, men ham shuni yerdim, nima ichsa, shuni ichardim. Mening o'shalardan boshqa uyim ham, do'stim ham, xizmatchilarim ham yo'q edi!», deb yozgandi keyinchalik bu haqda Pestalotsi.

Afsuski, urush harakati boshlangandan keyin yetimxona yopildi.

Keyingi o'n sakkiz yil davomida Pestalotsi o'sha davrning eng muhim masalasini: dehqon xo'jaliklarini qanday qilib tiklash, ularning turmushini yaxshilash, mehnatkashlarning axloqiy va aqliy holatni qanday qilib o'zgartirish masalasini hal qilishga jamoatchilik e'tiborini tortishga intilib, adabiy faoliyat bilan shug'ullandi. U «Lingard va Gertruda» (1781—1787) degan ijtimoiy pedagogik roman yozib, bu romanda xo'jalikni oqilona usulda olib borish va bolalarni to'g'ri tarbiyalash vositasi bilan dehqonlarning turmushini yaxshilash to'g'risidagi o'z g'oyalarini olg'a surdi.

XIX asrning boshlaridayoq Pestalotsining «Gertruda o'z bolalarini qanday qilib o'qitadi», «Onalar kitobi yoki onalar uchun o'z bolalariga kuzatish va gapirishni qanday o'rgatish haqida qo'llanma», «Ko'zatish alifbesi yoki o'lchash haqida ko'rsatmali qo'llanma», «Son to'g'risida ko'rsatmali ta'lim» degan kitoblari bosilib chiqdi. Bu kitoblarida boshlang'ich ta'limning yangi usullari bayon qilingan edi.

1800 yili Pestalotsi rahbarligida institut tashkil etildi. Institut tarkibiga, internat shaklidagi o'rta maktab hamda o'qituvchilar tayyorlash seminariyasi kiritilgan. Bu institut butun dunyoga mashhur bo'ldi. Pestalotsi 1825 yili Iverden instituti o'qituvchilari orasida chiqqan nizolar natijasida o'z qishlog'i «Neygof»ga qaytadi va 80 yoshli, qariya bo'lishiga qaramay, bu yerda o'zining oxirgi asari — «Oq qush qo'shig'i»(1826) ini yozadi.

U 1827 yili vafot etdi.

Pestalotsining ijtimoiy pedagogik va falsafiy qarashlari. Pestalotsi o'z xalqini oyoqqa turg'azishni orzu qildi, u mehnatkashlarni o'qitish va tarbiyalash yo'li bilan ularning turmushini o'zgartirish mumkin, deb o'yladi. U xalq boshiga tushgan kulfatlarning manbai iqtisodiy sharoit emas, balki ma'rifatning yo'qligi deb bildi.

Pestalotsi hamma odamlar tarbiya va ilm olish huquqiga ega bo'lishi lozim, maktablar jamiyatni ijtimoiy jihatdan o'zgartirishning muhim vositalaridan biri bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Uning fikricha, har bir kishining haqiqiy insoniy kuchlari harakatga kelib, mustahkamlangandagina eng muhim ijtimoiy masalalar hal qilinadi. Bunga tarbiya yo'li bilan ham erishish mumkin.

Mehnat odamni tarbiyalashning eng muhim vositasidir, mehnat odamning jismoniy kuchlarinigina emas, aqlini ham o'stiradi.

Bilish sezgi organlari orqali idrok qilishdan boshlanadi va tasavvurlarni qayta ishlash yo'li bilan g'oyalar darajasiga ko'tariladi, g'oyalar esa, garchi ravshan bo'lmasa ham odamning ongida tarkib toptiruvchi kuch tariqasida mavjud, lekin o'zining namoyon bo'lishi va jonlanishi uchun sezgilar yetkazib beruvchi materialga muhtojdir.

Pestalotsining dunyoqarashi insonparvarlik va demokratik intilishlar ruhi bilan sug'orilgan hamda ba'zi bir materialistik davolarni va dialektik qoidalarni o'z ichiga olgan edi.

Tarbiyaning maqsadi va mohiyati. Pestalotsining fikricha, tarbiyaning maqsadi odamning barcha tabiiy kuchlarini va qobiliyatlarini o'stirish, o'stirganda ham har tomonlama va bir-biriga uyg'un ravishda o'stirishdir. Tarbiyaning bolaga ko'rsatayotgan ta'siri uning tabiatiga uyg'un bo'lishi lozim.

Pestalotsi tarbiyaning mohiyati to'g'risidagi tasavvurga asoslanib, insonning kuchini inson tabiati bilan muvofiqlashtirib, o'stirishga yordam beradigan metodlarni yaratishga intiladi.

Bolani tarbiyalashni, deydi u, tug'ilgan kunidanoq boshlash lozim: «Bola tug'ilgan soat — unga ta'lim berishning birinchi soatidir». Chinakam pedagogika onani to'g'ri tarbiyalash metodlari bilan qurollantirishi kerak. Pedagogika san'ati esa shu metodikani har bir ona, jumladan, oddiy dehqon ayoli ham egallab oladigan qilib soddalashtirib berishi lozim. Oilada tabiatga muvofiq tarzda boshlangan tarbiya maktabda ham davom etishi lozim.

Barcha insoniy kuchlar va imkoniyatlar eng oddiy narsalardan rivojlana boshlaydi va asta-sekin murakkab darajaga ko'tariladi.

Tarbiya ham ana shu yo`ldan borishi lozim.

Har bir bolaga xos bo`lgan tug`ma kuch va qobiliyatlarni tabiiy tartibga muvofiq holda o`stirish kerak.

**Elementar ta`lim nazariyasi.** Pestalotsining elementar ta`lim nazariyasi jismoniy tarbiyani, mehnat tarbiyasini, axloqiy va estetik tarbiyani hamda aqliy tarbiya va o`qitishni o`z ichiga oladi. Tarbiyaning mana shu jihatlarini Pestalotsi bir-biriga bog`lab olib borishni taklif qildi, mana shunday tarbiyalash natijasidagina insonning hamma jihatlari bir-biriga uyg`un bo`lib kamol topishini ta`minlash mumkin, dedi.

Jismoniy tarbiya va mehnat tarbiyasi. Pestalotsi bolaning barcha jismoniy kuchlari va imkoniyatlarini o`stirishni ularni jismoniy jihatdan tarbiyalashning maqsadi deb, bolaning harakatga, o`ynashga, bir joyda o`tirib qo`ymaslikka, hamma narsaga yopishishga, hamisha harakatda bo`lishga majbur qiluvchi tabiiy intilishini jismoniy tarbiyalashning asosi, deb hisobladi.

U inson shaxsini kamolotga yetkazishda jismoniy tarbiyaga juda katta ahamiyat beradi va uni bolalarning o`sishiga kattalarning oqilona ta`sir ko`rsatish, deb hisobladi.

Yuqorida ko`rsatib o`tilganidek, o`qitishni unumli mehnat bilan qo`shib olib borish Pestalotsining pedagogik tajribasi va nazariyasidagi asosiy qoidalardan biri bo`ldi.

Axloqiy tarbiya. Pestalotsi tarbiyaning asosiy vazifasi — kelgusida ijtimoiy hayotda qatnashib foyda yetkaza oladigan va hamma jihatlari uyg`un bo`lib kamol topgan inson yetishtirishdir, deb biladi. Bolani boshqalarga foyda keltiradigan ishlarda muttasil jalb qilish yo`li bilan uning axloqi voyaga yetkaziladi. Pestalotsining fikricha, bola organizmining kundalik ehtiyojlarini qondirish asosida bolada onaga nisbatan tug`ilayotgan mehr-muhabbat axloqiy tarbiyaning eng oddiy elementidir. Bolaning axloqiga oilada asos solinadi. «Ota-onaning uyi, — deydi Pestalotsi, — axloq maktabidir!». Bolaning onaga bo`lgan muhabbati asta-sekin oilaning boshqa a`zolariga ham o`tadi.

**Aqliy ta`lim.** Pestalotsining aqliy ta`lim to`g`risidagi ta`limoti boy va mazmunli ta`limotdir. Pestalotsi insonning hamma jihatlarining bir-biriga uyg`unlashib kamolga etishi to`g`risidagi asosiy g`oyasiga tayanib, aqliy ta`limni axloqiy tarbiya bilan bog`lab olib borish kerakligini talab qiladi. Har qanday ta`lim ko`zatishga va tajribaga

asoslanishi hamda xulosalar va umumlashmalar darajasiga ko'tarilishi lozim, deydi Pestalotsi, ko'zatislar natijasida bolada ko'rish, eshitish sezgilari va boshqa sezgilar hosil bo'ladi, bu sezgilar bolada fikrlash va so'zlash ehtiyojini tug'diradi, deydi.

Odamning sezgi a'zolari yordamida tashqi dunyo to'g'risida hosil qilgan tasavvurlari dastlab ravshan va aniq bo'lmaydi. Ta'limning vazifasi ham shundan iboratki, u mana shu tasavvurlarni tartibga solishi va aniqlashi, ravshan tushunchalar darajasiga yetkazishi, «tartibsiz tasavvurlarni ravshan tasavvurlarga va ravshan tasavvurlarni ochiq ko'rinib turgan tasavvurlarga» aylantirishi kerak. Ta'lim, birinchidan, o'quvchida o'zining sezgi a'zolari vositasi bilan hosil qilgan tajribalar asosida bilimlar zahirasini to'plashga yordam beradi, ikkinchidan, bolaning aqliy qobiliyatini o'stiradi.

Pestalotsi ta'limni soddalashtirishga va psixologiya negiziga qurishga intilib, narsalar va buyumlar to'g'risidagi har qanday bilimning eng oddiy elementlari bor, odam Shu elementlarni o'zlashtira borib, o'z atrofidagi olamni bilib oladi, degan fikrga keldi. U son, shakl va so'zni mana shunday elementlar deb hisobladi. Pestalotsi o'z zamonidagi boshlang'ich maktabda o'qitishning mazmunini tubdan o'zgartiradi, o'qitiladigan darslar qatoriga o'qish, yozish, arifmetikani va geometriyaning boshlang'ich qismlarini, o'lchash, rasm chizish, ashula, gimnastika, geografiya, tarix va tibbiyotga doir eng zarur bilimlarni kiritdi. Shunday qilib, Pestalotsi boshlang'ich maktabning o'quv rejasini ancha kengaytirdi va bu maktabda o'qitishning yangi metodikasini vujudga keltirdi. O'qitish metodikasi bolalarni bilimlar bilan boyitishga hamda ularning aqliy kuchlarini va qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi.

Boshlang'ich ta'limning xususiy metodikalarini yaratish. Pestalotsi o'zining umumiy didaktik qoidalariga tayanib, boshlang'ich ta'limning xususiy metodikasini yaratdi.

Pestalotsi ona tili o'qitishning asosiy vazifasi bolaning nutqini o'stirish va uning so'z boyligini orttirishdan iborat, deb hisobladi. Savod o'rgatishda tovush metodini birinchi o'ringa qo'ydi, bunday qilish harflarni qo'shib o'qitish metodi hukmronlik qilib turgan o'sha vaqt uchun g'oyat muhim edi.

Pestalotsi zerikarli va bir xildagi mashqlar bilan bolalarda ko'zatis, narsa yoki hodisaning belgilarini aniqlay olish malakasini o'stirishga va biror narsani aniq va to'la tasvirlab berish malakasini

hosil qilishga intildi.

Bolalarda yozuv malakasini hosil qilmoq uchun Pestalotsi dastlab to'g'ri va egri chiziqlarni — xatlarning elementarlarini chizdirib, mashq qildirishni tavsiya etar ekan, yozuv o'rgatishni narsalarni o'lchash va suratni chizish bilan shuningdek, nutqni o'stirish bilan bog'lab olib borishni taklif qildi.

O'lchashni o'rgatmoq uchun Pestalotsi dastlab to'g'ri chiziq chizishni, so'ngra burchak va kvadrat chizishni hamda bu kvadratni bo'laklarga (yarimta, chorakta qilib va hokazo) bo'lib o'rgatishni taklif qildi. Tarbiyachi bolalarga turli geometrik jismlarni ko'rsatish va ularning nomlarini aytib berishi lozim. Bola o'lchov natijalarini chizib va yozib olishi lozim; Bunday mashqlar bolaga yozuv o'rgatishning asosidir.

Pestalotsi pedagogika nazariyasi va tajribasining ahamiyati. Pestalotsi odamning barcha tabiiy kuchlarini va qobiliyatlarini bir-biriga uyg'un qilib o'stirishdek vazifani tarbiyaning asosiy vazifasi deb bildi. U elementar ta'lim nazariyasini yaratdi, bu nazariya XIX asrda xalq maktabini rivojlantirishga yordam bergan kurashda katta rol o'ynadi. U bolani jismoniy tarbiyalash, mehnatda tarbiyalash, axloqiy va aqliy tarbiyalash to'g'risida juda qimmatli fikrlarni aytib o'tdi. Pestalotsi boshlang'ich maktabda beriladigan bilimlarning mazmunini kengaytirishni talab qildi, boshlang'ich maktabni xalqqa yaqinlashtirishga, uni xalq ommasining turmushi va ehtiyojlari bilan chambarchas bog'lashga intildi, bolalarni mehnatga o'rgatishga, ularni turmushga tayyorlashga katta e'tibor berdi.

12.5. Adol'f Distervergning rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi.

Tayanch iboralar: *Adol'f Disterverg, insonning har tomonlama kamolot topishi, didaktikaning asosiy talablari, rivojlantiruvchi metod tavsiyasi.*

Atoqli nemis pedagogi Fridrix Vil'gel'm Adol'f Disterverg (1790-1866) XIX asr o'rtalarida german burjua demokratik pedagogikasining progressiv namoyandasidir. Disterverg pedagoglik sohasida samarali ish olib borish bilan bir vaqtda, adabiy va metodik ishlarini ham muvaffaqiyat bilan bajarib turdi. U «Nemis o'qituvchilarini o'qitish uchun qo'llanma» degan kitobini nashr

qildirdi (1835), bu kitobda Disterverg ta'limning umumiy vazifalarini va prinsiplari to'g'risidagi o'zining progressiv qarashlarini bayon qilib berdi. Disterverg umuminsoniy tarbiya ideyasini himoya qilib chiqdi, shu ideyaga tayanib turib, pedagogika masalalarining yukori toifaviy va shovinistik manfaatlarini ko'zlab hal qilishga qarshi kurashdi. Uning fikricha, maktabning vazifasi «Chinakam Prussiyaliklar» emas, balki insonparvar kishilar va ongli grajdanlar tarbiyalab yetishtirishdir. Odamlarda insoniyatga va o'z xalqiga bo'lgan muhabbat bir-biriga chambaras bog'langan holda rivojlantirilishi lozim. Disterverg «inson-mening nomim, nemis –mening laqabimdir» deydi.

Disterverg Pestalottsi singari, tarbiyaning eng muhim prinsipi uning tabiatga bo'lishidir, deb hisobladi. Disterverg tarbiyaning tabiatga uygun bulishini quyidagi mazmunda talqin etdi, ya'ni tarbiya odamning tabiiy kamol topishiga qarab olib borilishi, o'quvchining yoshi va o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi kerak, dedi. Disterverg o'qituvchilar bolalar diqqati, xotirasi, tafakkurining o'ziga xos belgilarini sinchiklab o'rganishlari kerak, deb aytdi: u psixologiyani «tarbiya tug'risidagi fanning asosi» deb bildi. Distervergning katta xizmati shundaki, u pedagoglik tajribasini pedagogikani taraqqiy ettirishning manbai deb hisobladi. U mohir pedagoglarning bolalarni tarbiyalash va bu sohadagi ish tajribalarini o'rganish zarurligini ko'rsatib utdi.

Disterverg tabiatga uyg'un bo'lish prinsipiga qo'shimcha ravishda tarbiya madaniy uyg'un xarakterda bo'lishi ham kerak deb talab kildi. U bunday deb yozdi: «Tarbiyalash chogida odamning tug'ilgan va u yashashi kerak bo'lgan joy hamda vaqt sharoitini, xullas, keng va umumiy hajmdagi butun zamonaviy ma'daniyatni e'tiborga olishi zarur. Distervergning odam tabiatini va tarixiy taraqqiyotini idealistik nuqtai nazardan talqin qilganligi uning tarbiyaning sotsial mohiyatini to'la ravishda tushunishiga halaqit berdi. Lekin eng muhimi shuki, u tabiatga uyg'unlik prinsipini Russoga xos bu tarzda individualistik talqin qilishdan o'zini tortdi va tarbiya bilan jamiyat hayoti o'rtasida mastahkam aloqa bog'lash zarurligini ta'kidladi. Disterverg bolaning bilan hisoblashish zarurligini kursatib o'tish bilan bir katorda o'zgarib boruvchi ijtimoiy hayot talablariga muvofik bolani insoniyatning zamonaviy muvaffakiyatlarini yuksakligiga kutarishni talab kildi.

Distervergning fikricha, bolalarda tashabbuskorlikni o'stirish zamonaviy voqealik olg'a surayotgan asosiy talablarning biri bo'lishi

lozim. Lekin, bolalarda tashabbuskorlikni utirish tarbiyaning ob`ektiv tomoni bo`lgan muayyan maqsadga erishishga yo`naltirilgan taqdirdagina ijobiy ahamiyatga ega buladi.

Disterverg tarbiyaning oliy maqsadini belgilab, bu «haqiqatga, go`zalikka va yaxshilikka xizmat qilishga qaratilgan tashabbuskorlikdir», deb aytdi. Bu ta`rif har qancha mujmal bo`lsa ham, lekin unda progressiv ideyalar bor. Disterverg o`qituvchilarda Prussiyaning mudhish voqealigiga nisbatan oliyrok qandaydir bir narsaga intilish tugdirdi. Bundan tashqari, Disterveg Gerbartdan farq qilib, haqiqatni, yaxshilik va go`zallikni tarixan o`zgaruvchan tushunchalar deb hisobladi. Distervergning so`zi bilan aytganda «haqiqat odamzod bilan birgalikda abadiy harakatda bo`lib turadi. O`zgarishlardan bo`lak hech bir narsa doimiy emas».

Disterverg ham, Pestalotsi singari, ta`limning asosiy vaifasi bolalarning aqliy kuchlarini va qobiliyatlarini o`stirishdan iboratdir, deb xisoblaydi. Lekin u formal ta`lim moddiy ta`lim bilan chambarchas boglanganligini kursatib, Pestalotstiga nisbatan olga tomon katta qadam qo`ydi. Disterverg, umuman sof formal ta`lim bo`lmaydi, lekin o`quvchining o`zi mustaqil olgan bilimlari va malakalarigina qiymatga egadir, deb uqtirib o`tdi.

Ta`lim insonning har tomonlama kamolotga yetishiga va uning axloqiy tarbiyasiga yordam berishi lozim. O`qitilayotgan har bir narsa ta`lim jihatdan qimmatga ega bo`lish bilan bir qatorda, axloqiy ahamiyatga ham egadir.

Disterverg tarixini va geografiyasini, ona tili va adabiyotning o`qitishini bolalarga ta`lim berishda katta roli borligini ko`rsatib o`tdi. U tibbiyot va matematika fanlariga yuksak baho berdi, bu fanlar bolalarning intellektual o`sishi uchun muhim vosita ekanligini ko`rsatdi va hamma tipdagi umumiy ta`lim maktablarida bu fanlar o`qitilishi lozim deb hisobladi. Shu bilan birga, u tibbiyot va matematika o`quvchilarni zarur bilimlar bilan lozim bo`lgan darajada qurollantirilishi, ularning kelajak amaliy faoliyatga tayyorlanishi lozim deb talab qildi.

Distervergning fikricha, boshlangich maktabda o`quvchilarni o`qitilgan materialni o`zlashtirish ustida mustaqil ishlay oladigan qilishga, ularda buning uchun malaka hosil qilishga, ularning aqliy kuch va qobiliyatlarini ustirishga asosiy e`tibor berilmish zarur. O`qituvchi ko`rsatmali o`qitish yo`li bilan bolalardagi barcha sezgi

organlarini o`stirishga alohida e`tibor berish lozim. O`rta maktabda «moddiy maqsad ham asta-sekin oldinga surilaveradi» - o`quvchilar xilma-xil va chuqur ilmiy bilimlar bilan qurollantira beriladi.

Disterverg boshlang`ich maktabning o`quv planiga tabbiyotni, fizikadan boshlang`ich ma`lumotlar, amaliy geometriya, geografiyani kiritib, bu planni kengaytirishni talab etdi. U o`rta maktabda real bilimlarni o`qitish prinsipini qizg`in himoya qildi va o`z zamonidagi klassik gimnaziyaning qoraladi.

Disterverg takomillashib boruvchi ta`lim didaktikasini yaratdi, bu didaktikaning asosiy talablarini ta`limning 33 qonuni va tariqasida bayon qilib berdi. Disterverg avvalo, tabiatga uyg`un qilib, bola idrokining xususiyatlariga muvofiq qilib, o`qitishni talab etdi. U misollardan qoidalarga: buyumlar va bu buyumlar to`g`risida konkret tasavvurlardan shu buyumlarni ifodalovchi so`zlarga o`tishni taklif qiladi. Disterverg bolalarni ularning sezgi organlari bevosita xis qila oladigan buyumlar bilan tanishtirishga juda katta ahamiyat berish bilan bir vaqtda, bolaning o`z sezgi organlari bilan idrok qilayotgan butun materialni uylab ko`rishi va anglab olishi zarurligini uqtirib o`tdi. Disterverg taklif qilgan ko`rsatmali ta`lim «uzoqqa», «oddiy narsalardan murakkab narsalarga», «osonroq narsalardan, qiyinroq narsalarga», «ma`lum narsadan, noma`lum narsaga» o`tish kerak degan qoidalar bilan bog`langan ta`limdir. O`z vaqtida Komenskiy ta`riflab bergan bu qoidalarni Disterverg yanada taraqqiy ettirdi, pedagog bu qoidalarni formal ravishda qo`llanmasligi kerak, deb haqli ravishda ogohlantirdi.

Disterverg o`rganilayotgan materialni ravishda o`zlashtirishga katta ahamiyat beradi. O`quvchilarning o`rganilgan material mohiyatini ravshan va aniq bayon qilib bera oladigan bo`lishi, shu materialning o`zlashtirilganligini ko`rsatuvchi belgilarning biridir.

Disterverg o`qitilayotgan materialning mustahkam o`zlashtirilishiga ko`p e`tibor beradi. Disterverg «O`quvchilar o`rganib olgan narsalarni unutib qo`ymasliklariga harakat qil» degan qoidani ilgari surdi va o`tilgan material esdan chiqib qolmasligi uchun uni tez-tez qaytarib turishni maslahat beradi. Distervergning qoidalaridan birida «Asoslarni o`rganishda shoshilma» deyiladi.

Distervergning haqqoniy ravishda ta`kidlashicha, muvaffaqiyatli ta`lim hamisha tarbiyalovchi har akaterda bo`ladi. Bunday ta`lim bolaning aqliy kuchlarinigina o`stirib qolmaydi, balki shu bilan birga

uning shaxsini, irodasini sezgilarini, xulq-atvorini ham kamol toptiradi. Distervergning fikricha, ma'lum bir ta'lim metodining qanchalik samarali bo'lishi bu metodning o'quvchilarning aqliy kuchlarini qo'zg'atishga qanchalik yordam berishi bilan belgilanadi. «Agar, har qanday metod, - deydi u, - o'quvchilarni oddiy idrok qilishga, yoki passivlikka odatlantirgan bo'lsa, yomon metoddir, agar o'quvchilarda tashabbuskorlikni qo'zg'atadigan bo'lsa, u yaxshi metoddir». U boshlang'ich ta'lim uchun «elementar», yoki rivojlantiruvchi metodni tavsiya qiladi, metod o'quvchilarning aqliy kuchlarini nihoyat darajada qo'zgatadi, ularga «qidirish, chamalab ko'rish, muxokama yuritish va nihoyat topish» imkonini beradi. Distervergning fikricha, «yomon o'qituvchi haqiqatni aytib berib qo'ya qoladi, yaxshi o'qituvchi esa haqiqatni topishga o'rgatadi».

12.6.YA.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.

Tayanch iboralar: Yan Amos Komenskiy, Komenskiyning dunyoqarashi, umumta'lim g'oyasi, bolani yoshini davrlarga bo'lishi, didaktik tamoyillarga, Sinf dars tizimi.

Chexiyalik gumanist pedagog Yan Amos Komenskiy o'zining ongli hayotini, amaliy pedagogik faoliyatini bolalarni o'qitish va tarbiyalashdek oliyjanob ishga bag'ishlagan ulug' pedagogdir.

Buyuk chex pedagogi 1592 yili 28 martda Moraviyadagi Ugorskiy Brod degan joyda tegirmonchi oilasida dunyoga kelgan. Uning oilasi ruhoniy «Chex qardoshlari» jamoasiga tegishli bo'lib, bu jamoa Chexiyaning ozodligi uchun kurashuvchi vatanparvarlarni o'z atrofiga to'plagan edi.

Komenskiy ota-onasidan ajralib, ancha vaqt o'qiy olmaydi, 16 yoshida «Chex qardoshlari» jamoasining yordami bilan lotin maktabiga o'qishga kiradi. Bu haqda Komenskiy shunday yozgan edi: «Men o'sha vaqtdayot tarbiya masalasida mamlakatimning orqada ekanligini ko'rdim. Fan va tarbiya hammaga tegishli bo'lishi kerak». Maktabni tugatgach Germaniyaga o'qishga boradi, so'ngra Geydelberg universitetida o'z davrining bilimdon professorlaridan ma'ro'za tingladi. Komenskiy Avstriya va Gollandiyada bo'lib iqtisodiy-siyosiy hamda madaniy hayot bilan tanishib ilmi va dunyoqarashini kengaytiradi.

O'sha davrda knyazliklar orasida boshlangan 30 yillik urush (1618— 1648) tufayli «Chex qardoshlari» jamoasi nemis dvoryanlari tomonidan vatanlaridan quvg'in qilinadi. Shu tariqa Komenskiy xotini va bolasidan judo bo'ladi. Qo'lyozmalari yo'qoladi.

«Chex qardoshlari» ko'chib kelgan Polshadagi Leshno shahrida Komenskiy gimnaziya tashkil etadi.

U o'zining 80 yillik umri davomida pedagogika, ta'lim-tarbiya, falsafa, ilohiyotga oid 250 dan ortiq asarlar, darsliklar yaratgan «Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi» (1631), «Buyuk didaktika» (1632), «Onalar maktabi» (1632), «Pansofiya maktabi» (1651), «Yaxshi tashkil etilgan maktab qonunlari» (1653), «Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning sur'atlari» (1658) kabi asarlar uning eng salmoqli asarlaridir. Shuningdek, mantiq, fizika, lotin va grek tillariga bag'ishlangan o'nlab darsliklar yozdi. Darsliklari hayotlik davridayoq boshqa tillarga tarjima qilinib, Komenskiyning nomini butun dunyoga tanitdi.

Komenskiy «Kishilik jamiyati ishlarini yaxshilash haqida hammaga taalluqli maslahat» nomli 7 jildli katta asar muallifi hamdir (U hayot ekanligi vaqtida hammasi bo'lib 2 jildi bosilib chiqdi, qolgan jildlari esa, faqat 1935 yili topildi va Chexoslovakiyada chop qilindi). Bu asarda kishilik jamiyatini isloh qilish g'oyasi ilgari suriladi.

Shvetsiyada lotin tili darsligini va til o'qitish metodikasini to'zadi. U «Chex qardoshlari» jamoasiga episkop qilib tayinlangach, 1648 yili Leshnoga qaytib keladi. Jamoa tarqatilgandan so'ng u yana o'qituvchilik faoliyatini davom ettiradi. Bir necha yil Vengriyada maktablarni boshqaradilar. «**ВИДИМЫЙ МИР В КАРТИПКАХ**», ya'ni «**Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari**» deb nomlangan asarida, o'qish ishini rasmlar bilan olib borish g'oyasini ilgari suradi. Bunda «Yoshlarning xulq qoidasi», «Yaxshi tashkil topgan maktablarning qonuni» kabi pedagogikaga doir ishlari o'rin olgan.

1656 yili Shved-polyak urushi vaqtida Leshnodagi «Chex qardoshlari» jamoasiga barham beriladi. Komenskiy Gamburgga, so'ngra Amstyerdamga ketishga majbur bo'ladi. O'sha yerda Gollandiya senatining buyrug'iga muvofiq uning asarlari to'plam holda bosib chiqariladi.

Komenskiy vatani mustaqilligi uchun kurash olib borgan. Uning asarlarida vatanparvarlik hissi yaqqol aks etgan. U Chex xalq

poeziyasini yig'ib Chex maqollar to'plamini to'zgan.

Komenskiyning dunyoqarashi. Komenskiyning dunyoqarashida uch xususiyat ta'sirini ko'ramiz.

1. Naturalistik falsafa. XVI-XVII asrlarda ingliz materialist faylasufi - Bekon sensualistik falsafa nazariyasini ilgari suradi. Komenskiy o'qitish jarayoniga shu pozitsiyadan qaraydi. Bilish sezishdan boshlanadi. Sezish bo'lmagan yerda bilish ham yo'q, deydi u.

2. «Chex qardoshlari» jamoasi diniy jamoa bo'lganligi uchun Komenskiy ham dindordir. Lekin Komenskiyning ruhoniyligi turmushga amaliy qarash bilan bogliq edi.

3. Komenskiy dunyoqarashining ba'zi jihatlari uyg'onish davri ta'sirida vujudga keladi. Odamlarga nisbatan muhabbat, xushchaqchaqlik, bularning hammasi O'rta asr odamiga nisbatan ishonchsizlik bilan qarashga qarama-qarshidir.

Komenskiy tashqi ob'ektiv dunyoning hukm surishiga ishonadi. Dunyo bir butun. Dunyoda hamma narsa bir-biri bilan bog'liq. Ajralib qolgan narsa yo'q. Dunyo qarama-qarshiliklardan iborat. Dunyo qotib qolgan emas. U o'sishda, o'sish esa o'z qonuniyatiga ega. Qonuniyat borliqqa, ya'ni xudoga tegishli.

Komenskiy o'zining pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi to'g'risidagi tushunchani ilgari suradi. «Buyuk didaktika» asarida «o'qitish tabiiylikka bo'ysunishi, o'qitish tabiat talabiga bo'ysunishi kerak», deydi. **Bolaning aqliy va jismoniy o'sish jarayoni tabiatdagi o'sish jarayoniga o'xshagan bo'ladi.** Masalan, bog'bon daraxtlarni parvarish qiladi, uning o'sish xususiyatlarini hisobga oladi. Xuddi shunday o'qituvchi tarbiyalash qonuniyatiga bo'ysunadi. O'qitish jarayoni tabiatga o'xshab sekinlik bilan amalga oshadi. Tabiiylik prinsipida kishini tabiatning bir bo'lagi deb qarash (xudo tomonidan bunyod etilmagan) tabiat qonunlari uning o'sishiga ta'sir etadi deyish o'z davrida ilg'or fikr sanalgan. Lekin, kishi ijtimoiy borliq bo'lib, ijtimoiy qonun ta'sirida o'sadi.

Komenskiy tarbiyaning tabiatga uyg'unlik masalasida hamma narsaning asosi 4 ta deydi. Masalan: Olam 4 narsadan yuzaga kelgan, ya'ni; er, suv, havo, yorug'lik. Dunyoning rivojlanishi ham 4 qismga bo'linadi, bular: bahor, yoz, ko'z, qish. Insonning rivojlanishi ham 4 davrga bo'linadi; go'daklik, bolalik, o'smirlik, yetuklik. Shuningdek, ta'lim jarayoni ham 4 ga bo'linadi; maktabgacha tarbiya, boshlang'ich

ta'lim, o'rta ta'lim, oliy ta'lim.

Umumta'lim g'oyasi. Komenskiy yashagan davrda hammani o'qishga tortish shart emas, qobiliyatli kishigina o'qishi kerak, degan g'oya mavjud edi. Komenskiy esa o'qishga hammaning tortilishini, hamma o'z ona tilida umum boshlang'ich ta'lim olishi kerakligini uqtiradi. Umumta'lim to'g'risida gapirganda ayollarni ham hisobga oladi. O'sha davrda xotin-qizlar uchun o'qish juda katta muammo edi. Shu tufayli ulug' pedagog bu masalani ilgari surdi.

Komenskiy o'z asarlarida tarbiyaning maqsadi kishini mangulik dunyosiga tayyorlash ekanligi va buni uch xil tarbiya orqali amalga oshirish mumkinligini uqtiradi. Bular:

1. Aqliy tarbiya.
2. Axloqiy tarbiya.
3. Diniy tarbiyalardir.

Bular bola tug'ilganidan 24 yoshiga kirguncha amalga oshiriladi, bu vaqt mobaynida bola har biri 6 yildan bo'lgan to'rt maktabni o'qib tugatishi kerak, deb hisoblagan ulug' pedagog.

Komenskiyning bolani yoshini davrlarga bo'lishi. Komenskiy tabiiylik prinsipiga amal qilib, bola yoshini 4 davrga bo'ladi.

1. Tug'ilganidan 6 yoshgacha ona maktabi. Bu davrda bolaning sezish organlarini o'stirishga, bolaning qabul qilishni, atrofdagi dunyo bilan tanishtirishga katta ahamiyat berish lozim. Bolani mehnatga o'rgatish, o'z-o'ziga xizmat qilishga jalb etish kerak. Ona boladagi axloqiy tarbiyaning asoslarini, to'g'rilik, haqqoniylik, mehnatni sevish va boshqalarni vujudga keltiradi. Ona maktabi bog'cha yoshidagi bola tarbiyasini ko'zda tutadi.

2. 6-12 yoshgacha xalq maktabi yoki ona tili maktabi. Bunda o'quvchi esda saqlashi, so'zlashga o'rganishi, yozish, boshlang'ich maktab ko'nikmasini hosil qilishi kerak. Buning uchun geometriya, geografiya, tabiiyot fanlarini o'rganishi lozim.

3. 12-18 yoshgacha gimnaziya. Bu o'quv yurtining vazifasi bola tushunchasini, tafakkur qobiliyatini o'stirishdan iborat bo'lib, unda klassik tillar, tabiiyot bilimlari, axloq, ilohiy fanlar o'qitilishi kerak.

4. 18-24 yoshgacha Universitet. Akademiya. Bu o'quv yurtlari o'quvchining irodasini, shaxsini bir butun o'stirishi lozim.

Shunday qilib, maktab Komenskiy qarashicha o'quvchilarni o'ylashga, harakatlantirishga, masalalarni amalda mustaqil echa bilishga, o'quvchilarni so'zlashga, o'z fikrini to'g'ri ifoda qilishga va

isbotlab berishga o'rgatmog'i shart.

Mehnat kishini ulug'laydi, — deydi Komenskiy. Shuning uchun mehnatga ham yoshlikdan o'rgatish darkor.

Komenskiyning pedagogik nazariyasida didaktika katta o'rinni egallaydi.

Komenskiy o'zining «Buyuk didaktika» asarida maktabda o'qitish tizimini amalga oshirishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilishni tavsiya etadi.

1. Ko'rgazmalilik tamoyili;
2. Onglilik tamoyili;
3. Izchillik va tizimlilik tamoyili;
4. Mashq qilish, bilim va malakalarni puxta egallash tamoyillari.

1. Ko'rgazmalilik tamoyili. Komenskiy ko'rgazmalilik tamoyilini nazariy jihatdan isbotlab, mufassal bayon qilib bergan.

Ko'rgazmalilikni o'qitishning «Oltin qoidasi» deb ataydi u. Bu tamoyilda: a) bolaga real narsalarni ko'rsatish, b) dunyoni rasmlar orqali tushuntirish, v) narsalarning modelini ko'rsatish, g) o'qituvchining so'zi o'rganilayotgan materialni chuqur bilishga va esda o'zoq vaqt saqlanishiga olib keladi.

2. Onglilik tamoyili. Komenskiy **onglilik** tamoyilini ilgari surar ekan, o'qitishda ma'no-mazmunini tushunmay, og'zaki yodlashga qarshi chiqadi. «Aql-idrok bilan yaxshi tushunib olingan narsadan boshqa hech bir narsani zo'rlab yodlatmaslik lozim». O'quvchilar «O'rganilayotgan narsa kundalik hayotda qanday foyda yyetkazishmi o'qituvchi yordamida anglab olishlari kerak. Shu bilan hodisalarning sabablarini anglatmoq, har bir narsani to'la tushuntirib bo'lguncha, Shu narsa ustida to'xtatmoq kerak» deb yozadi u.

3. Komenskiy ta'limning tizimli bo'lishi tarafdori edi. O'qitilayotgan material o'quvchilarga asosiy qoidalar tariqasida lo'nda bayon qilinishi kerak. O'qitishda dalillardan xulosalarga, misollardan qonunlarga o'tish, dalillar va misollarni qoidalar tizimiga solib, umumlashtirib berish lozim, aks holda hodisalarning tizimsiz uyimi hosil bo'lib qoladi. Konkretidan abstraktga, osondan qiyinga, umumiydan xususiylga o'tish kerak; avval narsa, ya'ni hodisaga umumiy tushuncha berib, keyin uning turli tomonlarini alohida o'rganish kerak deb hisoblaydi.

Izchillik tamoyili fan asoslarni izchil bayon qilish va sistemali tarzda o'rgatish. Izchillik tamoyilida, kun, oy va yilga vazifa qo'yish

va uni amalga oshirish uchun intilish kerakligi aytiladi. Bunda aniq vaqtni belgilash, o`qishning bola yoshiga mos bo`lishi, material izchillik bilan o`rganilishi va keyingi o`tiladigan materialga yo`l ochish kerak.

Komenskiy materialni mustahkam, asosli o`zlashtirishga katta ahamiyat berib, «mustahkam asos» vujudga keltirish, o`qitilayotgan narsalarni bir-biriga bog`lagan holda olib borish lozim, deydi. O`tilgan mavzuni mashq qildirish va takrorlatish o`quvchilarning mustahkam o`zlashtirishiga olib keladi.

Sinf dars tizimi. Komenskiy o`qituvchi butun sinf bilan jamoa bo`lib ish olib borishini, ya`ni sinf dars tizimida o`qitishni olib borishni tavsiya etadi. Dars vaqtida o`tgan darsni qaytarish, yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, uyga vazifa berish kerakligini ko`rsatadi. Darsni rejalashtirib o`tish to`g`risida ko`rsatma berar ekan, har bir darsning o`z mavzusi va o`z vazifasi bo`lish lozimligini aytadi. O`qituvchi o`quvchilarning dars mashg`ulotlarida faol qatnashishlarini ta`minlashi, ko`zatib borishi, sinfda intizom saqlanishi kerakligini uqtiradi. O`quv jarayonini tashkil qilishni haddan tashqari oshirib yuborib, o`qituvchi bir vaqtda 300 o`quvchi bilan dars olib borishi mumkin, deb hisobladi. O`qituvchi o`ziga yaxshi o`quvchini yordamchi qilib olishi mumkinligini aytadi.

U maktabda o`quv yili va uni o`quv choraklariga bo`lish, ta`tillar berilishini joriy qildi. O`quv kunini (ona tili maktabida 4 soat, lotin maktabida 6 soat) belgilab berdi. O`quvchilar maktabga bir vaqtda qabul qilinib, o`qish ko`zda (sentyabrda) boshlanishi kerak, deb hisobladi.

Komenskiy darslik qanday bo`lishi to`g`risida qimmatli fikrlar aytib, o`z zamonasi uchun namunali bo`lgan bir necha darsliklar yozdi. O`zining nazariy fikrlarini darsliklarida amalga oshirdi. U darslikda o`quv materiallari yetarli bo`lishi, qisqa, mazmunli, tushunarli, izchil va oddiy, bolalarga tushunarli tilda yozilishi, rasmlarga boy bo`lishi, bolalarning yoshiga qarab ravshan bayon etilishi shart, deb hisoblagan. Bu fikrlarni o`zining «Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi» hamda «hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari» kabi darsliklarida bayon etadi.

«Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi» darsligini o`zining didaktik tamoyillariga amal qilgan holda to`zdi. Darslik bolalar tushuna oladigan bilimlar bilan boyitilgan.

«Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari»ni boshlang'ich bilimlarning bolalar uchun yozilgan ensiklopediyasi deyish mumkin. 150 ta surat bilan berilgan qisqa maqolalar tabiat haqida (olam, geografiyaga doir, o'simliklar, hayvonlar, inson tanasi haqida), odamning faoliyati haqida (kasb-hunar, qishloq xo'jaligi, madaniyat), ijtimoiy hayot haqida (davlat boshqarmalari, sud haqida) ma'lumotlar beradi. Bu kitob ko'p tillarga tarjima qilindi, boshlang'ich ta'lim uchun 150 yildan ko'proq xizmat qildi.

Axloqiy tarbiya. Intizom. Komenskiy yoshligidan boshlab bolada axloq va odob fazilatlarini shakllantirish kerakligini aytadi. Mardlik, o'zini tuta bilish, chidamlilik, vaqt va vaziyat talab qilganida foyda yetkazishga tayyor bo'lib turish, burchni ado qilish kabi xislatlar fazilatdir deydi u. Shu asosiy fazilatlardan tashqari kamtarlik, mo'minqobillik, kishilarga xayrixohlik, pokizalik, puxtalik, xushmuomalalik, kattalarni hurmatlash, mehnatsevarlik xislatlarni tarbiyalashni ham muhim vazifa, deb hisoblaydi.

U quyidagilarni axloqiy tarbiya vositalari deb biladi: a) ota-ona, o'qituvchi, o'rtoqlarining namunasi; b) bolalarga yo'l-yo'riq ko'rsatish, ular bilan suhbatlar o'tkazish; v) bolalarni yaxshi xulqqa o'rgatishda mashqlar o'tkazish, yalqovlik, o'ylamay ish qilishga, intizomsizlikka qarshi kurashish.

Komenskiy intizomning katta ahamiyati borligini ko'rsatib, «Intizomsiz maktab bamisoli suvsiz tegirmondur» degan chex maqolini keltiradi. O'rta asr maktablarida kaltak vositasi bilan o'rnatiladigan intizomga u qarshi chiqadi. Bolalarga insoniy muomalada bo'lishni tavsiya etadi. Intizom: o'qituvchining namuna ko'rsatishi, samimiy, ochiq xayrixohligi, o'qituvchining bolaga bo'lgan to'g'ri munosabati (agar u bolani sevsa, uning yaxshi bo'lishini istasa, darsi mazmunli bo'lsa, tushuntira olsa intizoralilik vujudga keladi), bolani ko'pchilik oldida, o'rtoqlari o'rtasida oqilona maqtash, yoki qoralash intizomlilikka olib keladi, deydi.

O'qituvchining o'zni va unga qo'yiladigan talablar. Komenskiy o'z davrida iste'dodsiz, ma'lumotsiz o'qituvchilarni qattiq tanqid etdi. O'qituvchilikni «yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb» deb hisobladi. Bu o'qituvchiga nisbatan yangi ilg'or qarash edi, chunki o'sha davrda o'qituvchilik kasbiga hurmat bilan qaralmas edi. Komenskiy o'qituvchining o'zi jamiyatda muhim vazifani bajarayotganini tushunib olishi va o'z qadr-qimmatini

yaxshi bilib olishi lozimligini uqtiradi. O`qituvchi sof vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli bo`lishi, o`z ishini sevishi, o`quvchilarga otalardek muomala qilishi, ularda bilimga havas tug`dirishi lozim. «O`zi» namuna ko`rsatib, o`quvchilarni ergashtirishi o`qituvchining birinchi vazifasidir, deydi u.

Shunday qilib, taniqli slavyan pedagogi Yan Amos Komenskiy butun dunyoda o`zining pedagogik qarashlari bilan pedagogika ilmiga katta ta`sir ko`rsatdi. U yozgan darsliklar ko`p tillarga, jumladan o`zbek tiliga ham tarjima etilgan. Mashhur nemis olimi Leybnic qayd qilib o`tganidek, falsafani taraqqiy ettirishda Kopernik qanday rol o`ynagan bo`lsa, pedagogika taraqqiyotida Komenskiy ham hunday rol o`ynadi.

Uning qarashlari hozir ham o`z ahamiyatini yo`qotgani yo`q.

Topshiriq va savollar.

1. Qadimgi Sharq davlatlarida maktab va tarbiyaning rivojlanishi haqida nima bilasiz?

2. Qadimgi Yunonistonda maktab va tarbiyaning rivojlanishini izohlab bering.

3. Qadimgi Rimda maktab va tarbiyaning o`rnini belgilab bering.

4. Buyuk faylasuflar (Suqrot, Aflotun, Arastu, Demokrit) haqida nima bilasiz?

5. Konstantin Dmitrievich Ushinskiyning pedagogik g`oyalarini izohlab bering.

6. Uyg`onish davrida G`arbiy Evropada maktab va pedagogik fikrlar namoyondalarini izohlab bering.

7. Iogann Genrix Pestalotsining didaktikaga qo`shgan hissasi to`g`risida nima bilasiz?

8. Adol`f Distervergrning rivojlantiruvchi ta`lim nazariyasini izohlab bering.

9. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi to`g`risida nima bilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaev Yu. Jahon oliy maktabi: qiyosiy tahlil. T., G'. G`ulom nomidagi "Adabiyot va san`at" nashriyoti, 2001.

2. Yo`ldoshev J. Xorijda ta`lim. T., "Sharq", 1995.

3. Komenskiy Ya.A. «Buyuk didaktika», T.: «O`qituvchi», 1975.

4. STANKEWITZ, Winfried: Szenisches Spiel als Lernsituation, 1977/Stankevitts, Vinfrid: Stsenicheskaya igra kak uchebnaya situatsiya, 1977.

5. SCHWARZE, Jochen: Netzplantechnik. Eine Einführung in das Projektmanagement. 7. Aufl. Herne, Berlin: Verlag Neue Wirtschaft-Briefe 1994. <http://www.luk-korbmacher.de/Schule/Orga/netzplan.htm> (Stand: 06.12.2007)

6. SCHWARZE, Jochen: Projektmanagement mit Netzplantechnik. 8. Aufl. Herne, Berlin: Verlag Neue Wirtschaft-Briefe 2001.

7. BACKERRA, Hendrik; MALORNY, Christian; SCHWARZE, Wolfgang: Kreativitätstechniken. Kreative Prozesse anstoßen, Innovationen fördern. Die K7. 2. Aufl., München, Wien: Carl Hanser Verlag 2002.

Internet saytlari:

8. www.ziyonet.o'z

9. www.tdpu.o'z

10. www.pedagog.o'z

11. www.psychology.o'z

12. www.nutq.intal.o'z

XULOSA

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da har tomonlama yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashning mohiyati, zaruriyati, zamonaviy fan va texnikaning rivojlanish talablariga mos, barkamol avlodni tarbiyalash masalalari izchillik bilan tahlil etilgan, dolzarb vazifalar va ularni amalga oshirish chora-tadbirlari belgilab berilgan. Shu bois, tinglovchilarni hozirgi zamon talabi ruhida tarbiyalash, olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, ko'nikma, malakalarini shakllantirishga qaratilgan ko'pgina ta'lim-tarbiya vositalari, uslubiy shakl yo'riqlari mavjud. Jumladan, bu borada tinglovchilarni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llanilgan usullar, vositalar, tadbir shakllari, urf-odatlar va an'analar, g'oyalar, hayotiy tajribalardan iborat namunalar majmuasidir.

O'quv qo'llanmada mualliflar pedagogika fani talablari asosida faoliyat yuritish zarurligi bilan tanishtirish, pedagogika fani elementlari, pedagogik faoliyatda ularni qo'llay bilish, ularning ta'lim - tarbiya jarayoniga ta'sir ko'rsatishi, pedagogik munosabat funksiyalari, tuzilmasi va turlari, pedagogik texnika elementlari, uni egallash yo'llari, pedagogikning mazmuni, mohiyati, san'ati, undan foydalanish, yo'l qo'yiladigan ba'zi kamchiliklar ustida ishlash, pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari xususida fikr yuritdilar. Tinglovchilarning faoliyatida nazariy-metodologik asoslar, mazmun, funksiya, ularning vazifalari, o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishda o'qituvchi va tarbiyachi munosabati aniq dalillar asosida yoritildi.

Maqsadimiz-tinglovchilarga, xususan, pedagogik ma'lumoti bo'lmagan bakalavr, yoki diplomli mutaxassis darajasidagi, ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan kadrlar, faoliyatini endigina boshlagan o'qituvchi-tarbiyachilar, pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan tinglovchilarga pedagogik qobiliyatni egallash hamda takomillashtirish haqida ma'lumot berishdan iborat.

Ushbu o'quv qo'llanmada kamchiliklar, hali qiyomiga yetmagan fikrlar bo'lishi mumkin. Shu sababdan sizning fikr-mulohazalaringizni kutamiz va keyingi nashrlarda, ularni albatta inobatga olamiz.

GLOSSARIY (IZOHLI LUG`AT)

Adaptatsiya (ko`nikish)-	Shaxs yoki guruhning ijtimoiy muhit bilan o`zaro ta`sir etish, moslashish jarayoni.
Aksiologiya -	Kattalarning o`z-o`zini mustaqil rivojlanishi, mustaqil bilim egallashi, kasbni takomillashtirish haqidagi fan.
Akseleratsiya –	Ijtimoiy-iqtisodiy o`zgarishlar ta`sirida bolaning intellektual va jismoniy rivojlanishining tezlanishi.
An`analar -	Jamiyat hayoti turli sohalarining, moddiy va ma`naviy faoliyat shakllarining, kishilar o`rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avloddan-avlodga o`tishi, ajdodlar hayoti, belgilari va xususiyatlarining takrorlanish tarzi.
Audirovanie –	Nutqni og`zaki qabul qilish va tushunish, so`zlashuv, yozuv, o`qish bilan bir qatorda nutq faoliyatining bir turi.
Axloqiy tarbiya –	Tinglovchilarda umuminsoniy, axloqiy tamoyillariga sodiq bo`lish, jamiyat axloqiy talablari va me`yorlarini hisobga olgan holda o`z hatti-harakatlarini tanlay olish mahorati, axloqiy tafakkur tizimini shakllantirish.
Afsona –	Fors so`zidan olingan bo`lib, fantastika, sehr-jodu hamda hayotiy uydirmalar asos bo`lgan nasriy hikoyalar.
Aqliy tarbiya -	Tinglovchilarning ongi va tafakkurini bilimlar, ongli ko`nikmalar hamda malakalar bilan boyitish. Aqliy kuchlar: sezgilar, ruhiy jarayonlar, iqtidorlar, biluvchanlik maqsadlari, dunyoqarash va faoliyat ozodligini shakllantirish.
Aqllilik-	Biror ishni bajarishda shoshma-shosharlik qilishdan saqllovchi quvvat.
Bilim –	Tinglovchilar tomonidan mustaqil hayotda, faoliyatda, jumladan ishlab chiqarishda ijtimoiy munosabatda zarur bo`lgan fan asoslarining qonunlari, omillari va tushunchalarini

	o`zlashtirish natijalari.
Bilish qobiliyati-	Fanning tegishli sohalariga oid qobiliyatdir.
Vatanparvarlik-	Kishining o`zi tug`ilib o`sgan, kamol topgan joy, zamin, o`lkaga bo`lgan mehr muhabbati, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma`naviy-axloqiy xislatlari, fazilatlaridir.
Vosita-	Ma`lum o`qitish usulini muvaffaqiyatli amalga oshirmoq uchun zarur bo`lgan yordamchi o`quv materiallari-asbob, qurol va boshqa shu kabilardan foydalanishdir.
Global -	To`liq, umumiy, universal.
Gnostik faoliyat –	Pedagogik faoliyatning natijalarini tekshirish va baholash, uning kechishi va samaradorligini tahlil qilish.
Diskussiya –	O`quv jarayonining tarkibiy qismlaridan biri; muhokama, bahs yuritish.
Doston –	Qissa, hikoya, sarguzasht, ta`rif va maqtoov ma`nolarida ishlatiladigan xalq orasidagi yirik hajmli etnik asar.
Jazolash-	Bu tarbiyalanuvchining hatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.
Jamoa –	Insonparvarlik va javobgarlik ma`suliyatlariga bog`liqligi bilan xarakterlanadigan munosabatlar hamda hamkorlikdagi ijtimoiy, ijobiy faoliyatga asoslangan kishilarning umumiyligidir.
Jismoniy tarbiya –	Bolaning jismoniy xususiyatlarini anatomik, fiziologik, asab va boshqa tizimlarini har tomonlama rivojlantirish, sog`lom hayot kechirishning afzalliklari, shart-sharoitlari asoslari hamda jismoniy madaniyatining odatdagi zarur elementlarini mustahkam tarzda shakllantirish.
Idrok-	Borliqni odam ongida aks etishidir
Ijodkor shaxs -	Faoliyat natijasida, yangiliklar yaratishga

	intiluvchan va imkoniyati bor shaxs.
Ilmiy bilimlar-	Vogelikning haqqoniy in`ikosidir
Inson kamoloti-	Bu insonning hayot yo`li davomida rivojlanishining o`ziga xos shakli bo`lib, maxsus olib boriladigan tarbiyaviy ta`sir natijasi hisoblanadi.
Insonparvarlik -	(“inson”-arabcha; “parvar”- fors-tojikcha; “lik”- o`zbekcha-kishiga g`amxo`rlik, gumanizm)-odamzodning qadri, uning erkinligi, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo`lishi uchun kurashish, insonning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta`min etishga intilish, insoniylikning barcha tamoyillari yuzaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratish ma`nosini anglatadi.
Intizom –	Maqsadga erishishda, qilinayotgan ishlarda keragicha va maslahatga muvofiq tartibli ravishda bajariladigan hatti –harakat.
Irsiylik -	Bolaning shaklan o`ziga xosliklarini belgilab beruvchi anatomik, fiziologik, psixologik, tashkiliy jihatlar, qobiliyatlari va iqtidorlarini rivojlantirishga yo`naltirilgan, tinglovchilarga ota-onalari tomonidan o`tadigan irsiy belgilardir.
Islahot-	Islah qilish, tubdan o`zgartirish, qaytadan qurish, yangidan tashkil qilish.
Istiqbol –	Ta`sir ko`rsatishning juda ta`sirchan usuli bo`lib, u kishining hatti-harakatlari, oldiga maqsadlar qo`yish yo`li bilan ta`minlaydi va intiluvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi.
Istiqlol –	(arabcha “istiqlol”- ko`tarilish, qaddini rostdash, o`sish, yuqori joyga erishish)-har bir inson, jamoa, davlat, millatning rivojlanishi uchun zarur erkinlik sharoiti.
Islom dini -	(arabcha “aslama”-xudoga o`zini topshirish, itoat, bo`ysunish);
Ixtisos -	Insonning hosil qilgan bilimlari va amaliy

	ko`nikmalarining majmui. Kishiga turmushining moddiy va ma`naviy sohasida muayyan ishni bajarish imkoniyatini beradi.
Iqtisodiy madaniyat-	Jamiyat a`zolarining iqtisodiy hayotdagi ommaviy ijodiy ishtirokining, ularning iqtisodiy bilimlari, xo`jalik yuritishdagi mahorati va malakasi, iqtisodiy fikrlashi va tafakkuri rivojlanganligining sifat tavsifi.
Iqtisodiy savodxonlik -	Iqtisodiy faoliyatda ishtirok etishga tayyorgarlik, iqtisodiy aloqalar va munosabatlar mohiyatini tushunish, xo`jalik faoliyatining nazariy va amaliy asoslarini bilish, aniq iqtisodiy vaziyatlarni tahlil eta olish
Iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish-	Shaxsning mustaqil iqtisodiy faoliyat ko`rsatishida zarur bo`ladigan barcha iqtisodiy bilim, ko`nikma va malakalarni egallashi, jamiyatda sodir bo`layotgan iqtisodiy o`zgarishlarni va davlatning iqtisodiy siyosatini anglashi, o`z turmush tarzini yaxshilash hamda shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga yordam beruvchi iqtisodiy ta`lim-tarbiya qoida va usullari, shakl va usullarini qo`llab, iqtisodiy bilim berish (olish).
Iqtisodiy tayyorgarlik -	Shaxsning talab, ehtiyoj va imkoniyatiga qarab, tanlagan sohasi yoki kasbi bo`yicha nazariy va amaliy iqtisodiy bilimni egallashi hamda kasbiy- iqtisodiy faoliyatga tayyorgarlik holati.
Iqtisodiy tafakkur -	Iqtisodiy fikrlash tarzi bo`lib, iqtisodiy bilim, tushuncha va qonuniyatlarning o`quvchi ongida muayyan tizimda aks etishi, uning iqtisodiy ongi holati.
Iqtisodiy ta`lim -	Ijodkor shaxs shakllanishiga ta`sir etuvchi iqtisodiy bilim, ko`nikma, malakalarni o`zluksiz va izchil o`zlashtirishga yordam beruvchi, shaxs ehtiyoji hamda imkoniyatlarini hisobga olgan holda turli uslub, reja va dasturlar, metodikalar

	yordamida iqtisodiy bilim berish uchun maqsadga yo`naltirilgan pedagogik jarayon.
Iqtisodiy tarbiya –	Tinglovchilarni iqtisodiy tushunchalar bilan tanishtirish jarayoni bo`lib, ularni ishlab chiqarish sohasidagi harakatlar ko`nikmasi, malakasi, iqtisodiy tafakkurni rivojlanishi bilan qurollantirish.
Iqtisodiy tarbiyalanganlik	Shaxs barkamolligini belgilovchi axloqiy sifatlar, iqtisodiy faoliyatining ma`naviy, huquqiy va siyosiy yo`nalishlaridagi in`ikosi. Iqtisodiy tarbiyalanganlik darajasi ijtimoiy foydali mehnat natijasi bilan belgilanadi.
Kasb –	Muayyan bilim va mahorat talab etadigan mehnat faoliyat turi. Unga umumiy yoki maxsus ma`lumotlar hamda amaliy tajriba yo`li bilan erishiladi.
Kreativ –	Ijodiy.
Kriteriy (mezon) –	Biror hodisaga baho berish uchun yoki biror narsani turkumlash (klassifikatsiya qilish) uchun zarur belgi; baholash va fikrlash uchun o`lchov.
Kuzatish-	O`rganish lozim bo`lgan pedagogik hodisani ma`lum maqsad nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ko`zatuvchi ko`zatish bayonnomasini olib boradi. Kuzatish ob`ektiga oid bo`lgan aniq dalilli material tayyorlanadi. Kuzatish belgilangan aniq reja asosida olib boriladi
Kuzatuvchanlik qobiliyati -	Tinglovchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, tinglovchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog`liq bo`lgan psixologik kuzatuvchanlikdir.

Ko`nikma -	Malakaning tarkibiy qismi bo`lib, harakatning ayrim qismlarini nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda o`z-o`zidan bajarilish qobiliyatini ifodalaydi va tinglovchilarda ko`p marta takrorlanadigan mashqlar natijasida yo`zaga keladi.
Madaniy meros -	Avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, axloqiy, ilmiy, tafakkuriy, diniy va ruhiy qarashlar, xalq madaniyati va ijodi kabi moddiy hamda ma`naviy boyliklar majmui.
Malaka –	Ongli ravishda bajariladigan ishning bir xil mehnati, ko`p marta takrorlanadigan, avtomatlashib ketgan tarkibiy elementidir.
Maorif –	Ta`lim sohasidagi ming yillik madaniyatimiz xazinalarini jamlagan eski yozuvni o`rganish ham didaktik ta`lim mazmunidagi yangilikdir
Mafkura -	(arabcha “mafkura”- nuqtai nazarlar va e`tiqodlar tizimi, majmui)-jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g`oyalar majmui.
Mashg`ulot o`tkazishning faol shakllari –	Tinglovchi va o`qituvchi faoliyatining o`zaro ta`sir etishini muhokama qilishiga mo`ljallangan ta`lim jarayonini tashkil etish shakllari.

Ma`lumot -	O`qitish jarayoni va uning natijasi hisoblanib, tinglovchida bilim, iqtidor va ko`nikmalarning o`zlashtirilganligi, bilish qobiliyatining o`sganligi va ular asosida ilmiy dunyoqarash, shaxsiy sifatlari shakllanganligi, ularning ijobiy kuchlari va qobiliyatlarini qay darajada rivojlanganligini anglatadi. U ikki ma`noda ishlatilib, ikkisi ham pedagogikaga tegishli:</p> <p>1. Xabar-o`qitish jarayonini amalga oshiruvchi vosita. Bilimli kishilarning unga talabgor bo`lganlarga bilim berishi, yetkazishi. Ma`lum qilish deb, til va ko`rgazmalar yordamida uni boshqalarga bildirishdir.</p> <p>2. Bilim darajasi. O`qish, bilish, borliqdan ob`ektiv mavjud qonuniyatlarni his qilish natijasida olingan bilimlar yig`indisi-past ma`lumotli, o`rta va yuqori ma`lumotli va hokazo.
Ma`naviyat –	Arabcha “ma`naviyat”-ma`nolar majmui, “ma`no” yoki “ma`naviyatun”, “ma`naviy g`oya” so`zlaridan olingan bo`lib, “ruhiy holat” degan ma`noni anglatadi. Kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy tasavvurlar, tushunchalari bilan yaqin va ular bir-birlarini taqozo etadilar.
Ma`rifat-	(arabcha “arafa”- “bilmoq” so`zidan)-ta`lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g`oyalar majmui asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini o`stirishga qaratilgan faoliyat.
Mahalla -	(Arabcha “mahalla”-joy, o`rin, makon)-O`zbekistonning muayyan tarixiy sharoitlarida, asrlar davomida shakllanib, faoliyat ko`rsatayotgan, aholi yashaydigan ma`muriy-hududiy birlik, uyushma.

Mahorat -	Turli malakalardan ishonchli, ijodiy ravishda foydalanish hamda kasbiy malakalar rivojlanishining yuqori darajasi va kasbiy ta'limning mutloq maqsadidir. Mahorat-bu murakkab ishni tez, aniq bajarishning engilligi, mehnatning yuqori sifati va barqaror ritmi uchun kafolat beruvchi ishonchlilikdir.
Mehnat -	Kishilarning qobiliyatini amalga oshirish jarayonidir.
Mehnat tarbiyasi –	Tinglovchilarni umumiy mehnat bilimlari va ijtimoiy foydali mehnat malakalari bilan qurollantirish. Mehnatsevarlik, mehnatning har xil shakllarini tavsiya etish qobiliyatini namoyon etib, tadbirkorlik va ijodiy yondoshuvni namoyon etish xususiyatlarining egasi sifatida shakllantirish.
Millat -	(arabcha “millat”- xalq)-kishilarning yagona tilda soʻzlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega boʻlishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligi.
Milliy anʼanalar -	Millat hayotining turli sohalarida namoyon boʻladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar, faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning avloddan-avlodga oʻtish hamda meros boʻlib qolish tarzi.
Milliylik -	Tarixan tashkil topgan barqaror ijtimoiy-etnik birliklarni, yaʼni millatlar va elatlarni boshqa barqaror ijtimoiy birliklardan, masalan, ijtimoiy guruhlardan farqlovchi tomonlar, xususiyatlar, maʼnaviy, ruhiy va madaniy qirralar hamda tafovutlar majmui.
Milliy manfaatlar -	Millatga, milliy davlatga moddiy, maʼnaviy, ruhiy va jismoniy foyda, naf keltiruvchi omillar.
Milliy ong -	Bevosita har bir millat yoki elatning oʻzoq tarixiy etnogenez davri, turmush tarzi, iqtisodiy ishlab chiqarish usuli, diniy eʼtiqodlari, madaniyati, boshqa xalqlarning bevosita taʼsiri

	tufayli shakllangan dunyoqarashi, iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy va madaniy-ma'naviy sohalarda faollik darajasi.
Milliy ruhiyat-	Millatning ichki holati, kechinmalari, his-tuyg'ulari, ma'naviy dunyosi, o'y-fikrlari, maqsad va malakalari hamda kayfiyatlari bilan bog'liq mulohazalar majmui.
Milliy qadriyatlar –	Millatning g'oyalari, qadriyatlari, e'tiqodlari, ma'naviy turmush tarzi, orzu-istaklari, kelajak maqsadini ifoda etadigan urf odatlar majmui.
Milliy ruhiyat-	Millatning ichki holati, his-tuyg'ulari, ma'naviy dunyosi, o'y-fikrlari, maqsad va maslaklari hamda kayfiyatlari bilan bog'liq mulohazalar majmui.
Milliy til-	Kishilarning tarixan tashkil topgan barqaror birligi-millatning, elatning umumiy tili. O'zaro fikr almashish, muloqot vositasi.
Milliy g'urur -	Har bir millatning o'z-o'zini anglashi natijasida sodir bo'ladigan ichki ruhiy kayfiyati. Milliy g'urur mustahkam bo'lsa, millat vakillari orasidagi birlik ham kuchli bo'ladi.
Mimika -	O'z fikri kayfiyati, sezgisini yo'z muskullari harakati orqali aks ettirish san'ati.
Moddiy qadriyatlar –	Insoniyatning yashashi, mehnat qilishi uchun zarur bo'lgan, ijtimoiy, iqtisodiy talabini qondiradigan barcha turdagi narsalar va ashyolar yig'indisi.
Muallim –	Muayyan fan yo'zasidan ta'lim berishga vakolatli, ta'lim-tarbiya bo'yicha oliy, maxsus tayyorgarlikdan o'tgan, pedagogik va psixologik bilim, ko'nikma, malakalarni va talab darajasidagi mahoratni egallagan, ta'lim-tarbiya, usul, vosita uslubi asosida o'z metodikasi, ishlash qobiliyatiga ega ma'naviy yetuk shaxs.
Muammo-	Ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning sub'ektiv shaklidir. U muammoli

	vaziyatning, ya`ni jamiyat rivojlanishi jarayonida bilish va bilmaslik o`rtasida ob`ektiv ravishda vujudga keladigan ziddiyat.
Muammoli vaziyat-	Tinglovchining ma`lum psixik holatidir. Bunday holat ma`lum topshiriqni bajarish jarayonida ziddiyatni anglash tufayli vujudga keladi.
Muomala -	Yaxshilikka sabab bo`lgan ishlarda mayinlik, shirinso`zlik, yoqimtoylik asosidagi munosabat.
Murakkab malaka -	Kasb mahoratining asosini tashkil etib, bilim, boshlang`ich malaka hamda ko`nikmalarni o`z ichiga oladi va ular asosida shakllanadi. Murakkab malaka shakllanishi shaxsda kasb mahoratini paydo bo`lishiga imkon yaratadi.
Muhit –	Kishiga ta`sir etadigan tashqi voqelik.
Nutq qobiliyati-	Nutq yordamida, shuningdek, imo-ishora vositasida o`z fikr va tuyg`ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati
Ogohlantirish –	Noma`qul hatti-harakatlarning oldini olish uchun qo`llaniladigan vosita
Odat-	Xalqlarning ichki munosabatlarini tartibga soluvchi mezon va an`analar majmuasi. «Odat» so`zi udum, urf, an`ana va marosim tushunchalari o`rnida qo`llaniladi
Odob –	Xulq-atvor, yurish-turish madaniyatining tashqi jihatini ifodalaydi.
Odob - axloq -	Shaxsdan o`ziga va dunyoga munosabatlariga olib boruvchi hatti-harakatlarning belgilangan, aniqlangan usuli bo`lib, sababiyat, tasavvurlar va qarashlarni o`z ichiga oladi, ya`ni shaxs shakllanadigan manba hisoblanadi.
Oila –	Kishilar hayotining eng muhim qismi, jamiyatning kichik hujayrasi, ijtimoiy-madaniy organizm.
Omil-	Bir guruhga kiruvchi kamida ikkita ilk

	mahsul boisdan tashkil topgan ahamiyatli sababdir
Pantomimika -	Gavda, qo'l, oyoq harakati.
Pedagogik aksiologiya –	Ta'lim, tarbiya va shaxs rivojlanishidagi (pedagogik) qadriyatlarni o'rganadigan pedagogika bo'limi.
Pedagogik jarayon –	Ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, kattalarning pedagogik faoliyati ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan hamda tarbiyaning yo'naltiruvchi va olib boruvchi rahbarlik roli natijasida bolaning o'z-o'zini taraqqiy ettirishidir.
Pedagogning mehnati –	Bu behad izlanish va azob-uqubatli kechinmalar, ilhom va betakror nurlanish oni. Ko'pdan-ko'p kundalik ishlar, hafsalasi pir bo'lish va tinglovchilar bilan birgalikda boshdan kechirilgan quvonchdan qanoat hosil qilishdir.
Pedagogik reyting-	Ta'lim muassasalarida o'qituvchining faoliyati, dasturi, o'quv rejasi, obro'sini baholovchi individual raqam ko'rsatkichi.
Pedagogik tajriba –	O'qituvchi tomonidan pedagogikaning tamoyillari va amaliy qonunlarini ijodiy faol ravishda o'zlashtirish hamda real sharoitlarni, tinglovchilarning jamoasi, shaxsning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda amaliyotga tadbiq etishdir.
Pedagogik texnika –	O'qituvchining o'quv faoliyatida o'qitishdan tashqari zarur bo'lgan, umumiy pedagogik malakalar majmuidan tashkil topadi.
Pedagogik qarama – qarshiliklar –	Pedagogik amaliyot jarayonida vujudga keladigan, eskirgan pedagogik ko'rsatmalar, qarashlar, qonuniyatlar va pedagogik jarayonning tarbiyaviy samaradorligini pasaytiradigan, shaxsni shakllantirish tizimlari bilan vujudga kelgan nomuvofiqlikdir.
Pertsepsiya –	Qabul qilish, sezish, ob'ektiv borliqning sezgi organlari orqali aks etishi.

Reyting –	Hodisalarni diagnostika (tashxis) yo`li bilan o`lchash; fikr va bahoni tanlash.
Rivoyat –	Hayotiy uydirmalar vositasida aks ettiruvchi og`zaki ijod janri.
Salohiyat-	Aniq fan yo`nalishida aniq ishni samarali bajarish uchun zarur bo`lgan o`ziga xos xususiyatni bildiradi.
Sezgi –	Kishini o`rab olgan moddiy dunyo, predmet va hodisalarning ongimizda aks etishidir.
Siyosiy madaniyat-	Umumiy madaniyatning muhim turi, jamiyat a`zolari, millat, ijtimoiy guruhlar va qatlamlar hamda har bir fuqaroning, davlatning ichki va tashqi siyosatini tushuna bilish qobiliyati, tahlil qila olish darajasi va siyosiy vaziyatga qarab, mustaqil ravishda o`z hatti-harakatlarini belgilash hamda ularni amalga oshirish madaniyati.
Suhbat –	Pedagogik muloqot usullaridan biri; u evristik, individual, axborot, mustahkamlash usullaridan farq qiladi.
So`rov, so`roq –	Faqat o`zlashtirilgan ma`lumotlarni tiklabgina emas, balki uni isbotlab va tushuntirib berishdan iborat.
Tabiat-	Eng muhim estetik tarbiya vositasidir.
Talab –	Ta`lim va tarbiya jarayonida pedagogning tarbiyalanuvchiga nisbatan shaxsiy munosabatining namoyon bo`lishidir.
Takomillashuv-	Qarama-qarshiliklarning birligi va kurashuvidir, ana shu birlik hamda kurash natijasida ro`y beradigan o`z-o`zidan harakatlanishdir.
Tanbeh berish-	Eng yengil jazo chorasidir.
Tarbiya -	Keng qamrovli tushuncha bo`lib, avloddan-avlodga ijtimoiy tarixiy tajribalarni yetkazish borasidagi faoliyat, shaxs shakllanishiga uzluksiz, maqsadga muvofiq, izchil ta`sir etish orqali mustaqil harakatga, ishlab chiqarish, foydali,

	unumli mehnatga tayyorlashdir. Tarbiya ta`limsiz amalga oshmaydi. Ta`lim berishdan maqsad, uning izidan tarbiya berishdir, ya`ni ta`lim orqali egallangan bilimlarni amaliyotda qo`llay olishga o`rgatiladi.
Tarbiyalovchi (ta`lim) –	Dunyoqarashni shakllantiruvchi, axloqiy, estetik tasavvurlarni va e`tiqodni shakllantiruvchi ta`lim.
Tarbiyaning asosiy qonuni –	O`sib borayotgan yosh avlodni katta yoshdagilar ijtimoiy tajribasining egasi qilish, ularning ijtimoiy hayotga qo`shilishini ta`minlab berishda amalga oshiriladigan zaruriy va majburiy faoliyatdir.
Tarbiyaning maqsadi –	Jamiyatning alohida shaxsga bo`lgan ehtiyojlarini aks ettirish, uning mohiyati, ideal talablari, o`ziga xosligi va fazilatlari, hayotga munosabatining aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik rivojlanishini nazariy va amaliy umumlashtirishidir.
Tarbiyaning ob`ektiv qonuniyatlari -	O`quv - tarbiya jarayonini tashkil etish va ijtimoiy hayot, shaxsning o`ziga xosligi hamda sifatlarini shakllantirishdek talablaridagi turg`un bo`lgan an`analaridir.
Tarbiyaviy muhit –	Inson shaxsini shakllantiruvchi tabiat, ijtimoiy munosabatlarning tizimi, ijtimoiy tafakkur, turmush va shaxslararo munosabatlarning doirasi kabi omillarning bir birini boyitishi va muvofiq kelishidir.
Tarbiyalash uslublari –	Jamiyatda qabul qilingan hatti-harakatlar, muloqot, munosabatlar tizimi va talablarini tinglovchilar ongiga singdirishga yo`naltirilgan pedagogik ta`sir.
Tarbiya qoidasi-	Pedagog ta`lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang`ich holat, rahbarlik asosidir
Ta`lim -	Insoniyat tajribasining ma`lum tomonlarini, ya`ni ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi talablariga

	muvofoiq darajada bilimlarni tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan fan, texnika, axloq, madaniyat va san'atni o'zlashtirishga qaratilgan maxsus, uyushtirilgan faoliyat, o'qitish va o'qishdir. Ta'lim turlari ko'p: axloq-odob ta'limi, tabiiy bilimlar bo'yicha ta'lim, texnik ta'lim, kasb-hunar ta'limi, siyosiy ta'lim va hokazo.
Ta'limning tarbiyalovchi xarakteri –	O'qitish jarayonida tinglovchilar orttirgan bilim va ko'nikmalar bilan ularning dunyoqarashi, insoniy fazilatlarini rivojlantirish orasida bog'lanishlarga erishilishini ta'kidlovchi pedagogik qonuniyat.
Ta'limda faollik –	Ta'lim jarayonida tinglovchi shaxsining faolligi, ta'lim jarayonining sub'ekti ekanligini aks ettiruvchi didaktik jarayon.
Tizim -	Yunoncha “mavzu” so'zidan olingan bo'lib, bo'laklarda hosil bo'lgan, birikish ma'nosini anglatadi. Ya'ni yaxlit, butunlikda faoliyat ko'rsatma oladigan o'zaro bog'liq elementlarning yig'indisidir.
Test –	Aniq pedagogik tadqiqot uchun ishlatiladigan so'rovnomma, sinalayotgan tinglovchining psixologik va intellektual tavsifi, uning bilim, tushunish, uddalash, ko'nikmalarini o'lchashga imkoniyat beruvchi standartlashtirilgan topshiriqlar.
Texnologiya-	Ashyo yoki yarim xomashyoni tayyor mahsulotga aylantirish uchun holati, shakli, xossasi, xususiyatlarini o'zgartirish usullari majmuasi.
Tushuntira olish qobiliyati-	O'quv materialini tinglovchilarga tushunarli tilda bayon eta olish, tinglovchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otish qobiliyatidir
Umuminsoniy qadriyatlar -	Barcha millatlar manfaatiga mos keladigan ma'naviy xazinadan iborat bo'lib, milliy qadriyatlar bilan tarbiyaviy asosga egadir.

Umumpedagogik tayyorgarlik –	Pedagogik kategoriyalar va metodologik asoslar haqidagi bilimlarni shakllantirish, psixologik-pedagogik sezgirlik, kuzatuvchanlik, pedagogik va o'zini tuta olish, boladan hamda yoshlardan yoshiga ko'ra rivojlanishidan, asosiy qonuniyatlari haqidagi bilimlarni, tinglovchilardan individual o'ziga xosliklari, pedagogik ishlar bilan qiziquvchanligini shakllantirishdir.
Uslub-	Ma'lum o'quv materiallarini o'tishda qo'llanilayotgan asosiy o'qitish usuli bilan birga ikkinchi bor o'qitish usulining ayrim elementlaridan foydalanib ish ko'rishdir.
Usul –	Falsafiy va ilmiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli: voqelikni amaliy va nazariy jihatdan o'zlashtirishga qaratilgan, ma'lum tarzda yo'naltirilgan usul va tajribalar yig'indisi.
Xalq pedagogikasi –	Avlodlardan avlodga og'zaki ijod namunalari o'tib kelayotgan, tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy muhit ta'sirida to'plangan, to'planayotgan va hayot tajribasida juda ko'p sinalgan pedagogik qarashlar, bilim, ko'nikma, malakalar keltirib chiqargan tarbiyaning usul, uslub va uslubiyatlaridir.
Huquqiy tarbiya –	Tinglovchilarda huquqiy madaniyatni, qonunga bo'ysunuvchanlik hatti-harakatlarini shakllantirish.
Shaxs -	Ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning sub'ekti bo'lmish individdir. Shaxsga taaluqli bo'lgan eng muhim tasnif - uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham ob'ekt, ham sub'ekt bo'lishlikdir.
Shaxsning aqliy sifatlari -	Shaxsning aqliy jihatdan kamolotga yetishuvi, uning aqliy, zehniy sifatlari, fazilatlarini orqali namoyon bo'lishi. Bu darajaga olib

	boruvchi sifatlar: bilag`onlik, ob`ektivlik, fikrlovchilik.
Shaxsni har tomonlama kamolga yetishi –	Ma`lum bir real tarixiy shart-sharoitlarda amalga oshirish mumkin bo`lgan qobiliyatlar va iqtidorlarning, uning mohiyatini tashkil etadigan hamma kuchlarning to`liq va batamom rivojlanishidir.
Ekologik tarbiya –	Tinglovchilarni ekologik (atrof –muhit muhofazasi) bilimlar bilan qurollantirish, shuningdek tabiatga nisbatan axloqiy-estetik, oqilona ekologik hatti-harakatlar ko`nikmalarini, ekologik tafakkurni hamda ekologiya uchun faol kurashish qobiliyatlarini shakllantirish.
Estetik did-	Shaxsda uning shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlarining qo`sxilishi natijasida hosil bo`ladigan murakkab hodisadir.
Estetik ideal-	Bu shaxsning tabiat, jamiyat va san`atdagi maqsad tarzida idrok etadigan, takomillashgan go`zallik borasidagi bahosining aks etishidir.
Estetik tarbiya-	San`atdagi, tabiatdagi qurshab olgan hayot voqeligidan go`zallik vositalari asosida tarbiyalash, insonni garmonik tarbiyalash vositasidir.
Estetik tuyg`u-	Bu shaxsning buyum yoki hodisaga estetik baho berish munosabatini boshdan kechirishidir.
O`z-o`zini anglash –	Sub`ekt (shaxs) tomonidan ob`ektiv, real, hayotiy haqiqatni aks ettirish, uning sub`ektiv qiyofasi, obrazini yaratish va o`z hatti-harakatlari hamda faoliyatini o`z-o`zidan boshqaruvini o`zida namoyon etadigan, o`zini boshqalar bilan taqqoslash imkonini beruvchi ong shakli
O`qitish –.	O`qituvchi va tinglovchining birgalikdagi faoliyati va bu jarayonda tinglovchilarning ma`lumot olishi, o`quv, ko`nikma va malakasini egallashi, tarbiyalanib, rivojlanib borishi nazarda tutiladi
O`qish -	Tinglovchining kishilar tajribasidan bilib

	olgan qonuniyatlarni o`zida aks ettirishdir.
Qadriyatlar –	Inson va insonlar uchun ahamiyatli bo`lgan erkinlik, tinchlik, ijtimoiy tenglik, haqiqat, ma`rifat, go`zallik, yaxshilikdan iborat holatlar yig`indisidir. Borliq va jamiyat, narsalar, voqealar, hodisalar, inson hayoti, moddiy va ma`naviy boyliklarning ahamiyatini ko`rsatish uchun qo`llaniladigan tushuncha.
Qonuniyat-	Bu barqaror, zaruriy, u yoki bu hodisalar va jarayonlar o`rtasidagi mutanosiblik va muhim aloqa.
Hadis-	Islom dinida Qur`onu karimdan keyingi muqaddas manba, Muhammad payg`ambarning faoliyati va ko`rsatmalari haqida rivoyatlar majmui.

ILOVALAR

Darslardan namunalar

1-MAVZU

TA'LIM JARAYONIDA TINGLOVCHI VA O`QITUVCHI FAOLIYATI. O`QUV MASHG`ULOTLARINING SHAKLLARI

O`quv maqsadi

Tinglovchilarni ta`lim jarayoni, uning tashkiliy shakllari bilan tanishtirish, ta`lim oluvchi va o`qituvchi munosabati haqida tushunchalarini kengaytirish



ASOSIY MA`LUMOTLAR



Ta`lim deyilganida an`anaga ko`ra uni sistemaga solingan tayyor bilimlarni o`zlashtirish jarayoni va natijasi deb tushuniladi. O`z-o`ziga ta`lim berish (bunda o`quvchi o`ziga kerakli axborotni o`zi tanlab olib, qanday axborot kerakligini va uni qanday qilib olish mumkinligini o`zi belgilaydi)-sistemaga solingan tayyor bilimlarni mustaqil o`zlashtirishdir, deb talqin qilinadi. Ta`limning noa`naviy shakllarida esa, mana shu asosiy shart buzilishi mumkin. Bilimlar tabiatan tasodifiy, sistemaga solinmagan, haqiqatga to`g`ri kelmaydigan, bir-biriga zid bo`lishi mumkin. Ularni sistemaga solish, tartibga keltirish, haqiqiylikini belgilash va ziddiyatlarini bartaraf etish-tinglovchining o`z ishi va tashvishidir. U tayyor tasavvur va tushunchalarni, dunyo manzarasini o`zlashtirib olmasdan, balki, dunyo to`g`risidagi o`z tasavvurini bir talay tasavvurlar, tushunchalar va bilimlardan o`zi yaratadi.

Ta`limning aynan mana shunda y metodlari kundalik turmushda muhim rolni o`ynaydigan bo`lib bormoqda, shunga ko`ra an`naviy ta`limni o`zluksiz ta`limga aylantirishni dastlabki asos deb hisoblamoq kerak.

**Ta`lim jarayoni**-pedagogning va u rahbarlik qilayotgan tinglovchilarning bilim, ko`nikma hamda malakalar sistemalarini ongli ravishda va puxta o`zlashtirishga qaratilgan izchil harakatlari majmuidan iborat.

O`qitish tinglovchilar shaxsini shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy kamol toptirish, umumiy hamda maxsus bilim berishning eng muhim vositasidir. O`qitish jarayoni davomida tinglovchilarning bilim olish kuchlari rivojlantiriladi.

**O`qitish**-o`qituvchining ta`lim oluvchilarga bilim, ko`nikma va malakalar tizimini berish, ularning bilim olish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasidagi faoliyatidir.

**O`qish**-tinglovchilarning o`quv fani materialini o`zlashtirish borasida qiladigan tizimli va ongli mehnati.

**O`qituvchi**-o`quv materialini o`zlashtirish jarayonining tashkilotchisidir, modomiki shunday ekan, u hamma tashkiliy shakllaridagi o`qitish metodikalarini (ma`ruzalar, amaliy mashg`ulotlar, seminar mashg`ulotlari, tinglovchilarning mustaqil ishlari metodikalarini) bilishi, egallab olgan bo`lishi kerak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ta`lim mazmuniga qo`yiladigan talablar yanada kuchaydi. O`tkazilayotgan ijtimoiy tadqiqotlar natijalari shuni ko`rsatmoqdaki, bugungi tinglovchilarning aksariyati o`qishga qiziqmay qo`yishdi. Buning sabablaridan biri dars mobaynida o`qituvchi bilan tinglovchi o`rtasida muloqotning umuman yo`qligidir. Shuningdek, umumiy o`rta maktabda, o`rta-maxsus, kasb-hunar va oliy ta`lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi, xalq tarbiyashunosligi va pedagogik ruhshunoslar xizmati to`g`ri yo`lga qo`yilmagan. Umuman olganda, o`qituvchi o`zining kuchli va zaif tomonlarini, ayniqsa, o`z sohalari bo`yicha etarlicha bilimga ega emasliklarini yopish uchun tinglovchi (yoki o`quvchi)ga ortiqcha talablar qo`yadilar. Tinglovchi (yoki o`quvchi)lar o`qituvchining bo`sh tomonini tez anglaydilar. Shuning uchun, u hadiksirab emas, balki o`qituvchi hurmatini joyiga qo`yib munosabatga kirishishi mumkin. Bunday muhitni va tinglovchi (yoki o`quvchi)larning ruhiy kayfiyatini o`qituvchi ba`zan sezmaydi. Tinglovchi (yoki o`quvchi)lar o`qituvchini har doim kuzatib boradi. Ular undan iliq so`z, mehr-muhabbat va muruvvat kutadilar.


Shu o`rinda A.Distervergning quyidagi gaplarini keltirish mumkin, “Yomon o`qituvchi haqiqatni aytib berib qo`ya qoladi, yaxshi o`qituvchi esa haqiqatni topishga o`rgatadi”.

Mashg`ulotlar tinglovchida idrok va xotira, diqqat-e`tibor va tafakkur, tasavvur va mantiqni birlashtirishi kerak, unda o`zlashtirishga ehtiyoj va mayl - rag`bat nechog`lik zo`r bo`lsa, natija

ham shunchalik samarali bo'lib chiqadi. Buyuk Sa'diyning: "Ishtiyoqsiz bo'lib o'qiydigan o'quvchi qanotsiz qushdek degan gap" deb aytib o'tgani bejiz emas.

Lekin, o'qishga hamisha ishtiyoq bo'lishi uchun bizning har birimiz mashg'ur pedagog K.Ushinskiyning: **"O'quvchi-bo'sh joyini to'ldirish kerak bo'lgan idish emas, u-yondirish kerak bo'lgan mash'aladir"**, degan maslahatlariga amal qilib borishimiz kerak.

O'QITUVCHINING FAOLIYATI



Ta'limning faolligi. Bernard Shou bir kuni: *"Agar siz odamni o'qitib, biror narsaga o'rgatmoqchi bo'lsangiz, u hech qachon hech narsani o'rganmaydi"*, degan ekan. Materialni yaxshi o'zlashtirib olishi uchun tinglovchi shu materialni ustida faol ishlashi kerak. Shunchaki quloq solib tinglash, yoki ko'zdan kechirib chiqishning o'zi yetarli emas. O'quvchi materialni o'ylab ko'rishi, muhokama qilib chiqishi yoki mazkur mavzuga doir uy vazifasini bajarishi kerak.

O'qituvchi bilan bog'lanadigan teskari aloqa. Teskari aloqa, bu-ko'zlangan biror maqsadga erishildimi-yo'qmi, shu to'g'ridagi axborotni qo'lga kiritishdir. Ta'lim aniq bilinib turadigan biror teskari aloqasiz olib borilishi mumkin, lekin bunda uning qanday o'tayotganini nazorat qilib borish qiyin va natijalar hech bir kutilmagandek bo'lib chiqishi mumkin. Teskari aloqa vositasi bilangina o'quvchi o'zining undan talab etilayotgan narsani o'rganmoqdami-yo'qmi va bu ishni u to'g'ri bajarmoqdami-yo'qmi, bilib olishga qodir bo'ladi. Bevosita bog'lanadigan teskari aloqa

ta'lim samaradorligini oshiradi: o'quvchi materialni yaxshi o'zlashtirib olgani uchun darhol rag'batlantiriladi, uning xatolari esa, o'z vaqtida to'zatilishi mumkin. Shunday qilib, qaytadan o'qib chiqishga hojat qolmaydi, chunki tinglovchilarda noto'g'ri tushunchalar hosil bo'lishi mumkin emas; bundan tashqari, noto'g'ri tushunchalarning o'zi keyingi xatolar manbai bo'lib qola olmaydi. Teskari aloqaning paysallanishi nechog'lik o'zoq davom etadigan bo'lsa, o'quvchilarning faolligini rag'batlantirish va o'quv jarayonini nazorat qilib borishda uning samaradorligi shuncha kam bo'ladi.

“O'qituvchi-tinglovchi” munosabatlari o'rniga ikkita shogird munosabatlari yo'zaga keladiki, bulardan har birini ikkinchisiga nisbatan ustoz deb qarash mumkin. Faqat ustunlik qilish o'rniga muloqat qatnashchilari teng bo'ladigan yoki kim mazkur paytda zarur axborotga ega ekanligiga qarab galma-gal ustun bo'ladigan munosabatlar qaror topadi.

Odamning umri bo'yi davom etib boradigan jarayon tariqasidagi o'zluksiz ta'lim konsepsiyasi, avvalo, o'zluksiz ta'lim qanday shaklda bo'lishi kerak, degan muammoga duch kelmoqda. Umrbod auditoriyada o'tirib riyozat chekishga aylanib ketmasmikin, u. Bu degan gap pedagogik ta'lim shaklining butun umrga va jamiyat hayot-faoliyatining hamma sohalariga yoyilib ketishi degan bo'lar edi. Bunday bo'lishi dargumonligi ustiga uning zaruriyati ham yo'q.

Ta'limni tashkil etish shakllari pedagogik jarayonni tashkil etishning tarixan mavjud bo'lgan, barqaror va mantiqan tugallangan ko'rinishi bo'lib, unga muntazamlilik va yaxlitlik, o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiylik va faoliyatli xarakter, ishtirokchilar tarkibining doimiyliigi, o'tkazishning muayyan tartibi mavjudligi xosdir.

Insoniyatning tarixiy rivojlanishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ta'limni tashkil etish shakllari jamiyatning taraqqiyoti bosqichlariga mos ravishda amalga oshganini ko'ramiz. Dastlabki davrlarda ta'lim berish odamlarning mehnat faoliyati, kundalik turmushi bilan o'zviy bog'langan hamda bilim berish va o'rgatish yakka tartibda olib borilgan. Davr o'tishi bilan ko'pchilikka bilim berish ehtiyoji paydo bo'la boshlagan. Ta'limning mazmuni, bilimlarning murakkablashuvi, bolalarni guruh-guruh qilib o'qitishni taqozo etgani holda, ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, ya'ni o'qituvchilarni tayyorlash zaruriyati kelib chiqdi.

O`rta Osiyo tarixiga nazar solar ekanmiz, eramizdan ilgari mingginchi yillarda Zardushtiylik otashxona ibodatxonalarida qohinlar yoshlarni to`plab, ularga zaruriy bilim berish bilan shug`ullanganligi “Avesto” va boshqa tarixiy manbalardan bizga ma`lum bo`ladi. Taxminan shu vaqtning o`zida bolalarni bir joyga yig`ib o`qitish Misrda ham tashkil qilinganligi tarix sahifalaridan bizga etib kelgan. Misrliklardan o`rganib, bolalarni to`plab o`qitish odati qadimgi Yunonistonda ham olib borilganligi, ularda Sparta va Afina maktablari bo`lganligi hammaga ma`lum. Ammo qadimga ta`lim-tarbiyani qat`iy chegaralangan vaqtda, bir xil yoshdagi bolalar bilan olib borish, ta`lim mazmunini bosqichma-bosqich berish masalasiga aniqlik kiritilmagan edi.

Ta`limning tashkiliy masalalari Al-Farobiyning “Fan va aql-zakovat” asarida o`quv fanlarini guruhlariga bo`lib o`qitish, ularning tarbiyaviy mohiyatini ochish masalalariga e`tibor berilgan. Bu masalalar Ulug`bek davrida ham ko`tarilib, ma`lum darajada amalga oshirilgan.

Pedagogika tarixida, ta`lim-tarbiyani tashkil etishning asosiy shakli dars hisoblangan sinf-dars tizimini, yuqorida aytganimizdek, birinchi bor chex faylasuf olimi va pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) ishlab chiqqan va amaliyotda joriy etgan.

Dars-aniq maqsadni ko`zlab, ajratilgan vaqtda bir xil yoshdagi o`quvchilar bilan o`qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg`ulot ekan. Darsning maqsadi, mazmuni va hajmi ta`lim standartlari asosida belgilanadi.

Dars-ta`limning asosiy shakli ekan, u ilmiy, tizimli, tushunarli, ongli va faol bo`lishi, bilimlar mustahkam o`zlashtirilishi, o`quvchi-tinglovchilarning shaxsiy xususiyatlari e`tiborga olingan holda tashkil etilishi shart. Bu-didaktikaning asosiy prinsiplaridir.

Ta`lim jarayonida darslar yoki mashg`ulotlar asosan quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

**Ma`ruza**-rejali tashkillashtirilgan, aniq maqsadga qaratilgan va ta`lim beruvchi tomonidan boshqarib turiladigan ta`lim va tarbiya jarayonidir. Bu jarayonda ma`lum bir maxsus soha bo`yicha nazariy bilimlar tizimli ravishda ta`lim oluvchilarga etkaziladi. Bu jarayonda ta`lim beruvchi nazariy bilimlarni amaliyotda qo`llash yo`llari bilan tanishtiradi. Nazariy dars asosan maxsus jihozlangan sinf xonalarida o`tkaziladi. Bu sinf xonalarda turli texnik vositalar ishlatilishi

mumkin. Ma`ruza:

- umumlashtirilgan shakldagi ilmiy bilimlarga asos soladi;
- ma`ruzalar: informatsion, muammo ma`ruzalari va aralash xillarga bo`linadi;
- ma`ruza tinglovchilarning mustaqil ishlari va amaliy mashg`ulotlarda ishlab chiqiladi.

**Amaliy, laboratoriya, seminar mashg`ulotlari**-aniq maqsadga qaratilgan va ta`lim beruvchi tomonidan boshqarib turiladiki, aniq bir topshiriqni bajarish uchun kerakli nazariy darsda olingan maxsus bilimlar asosida malaka va ko`nikmalar shakllantirish maqsadida olib boriladigan rejali didakik harakatga aytiladi.

Amaliy, laboratoriya, seminar mashg`ulotlari kasb-hunar ta`limining tarkibiy qismi bo`lib, o`quv ustaxonalarida, laboratoriyalarda, o`quv poligonlarida ish o`rnida jolashgan real vositalardan foydalanilgan holda o`tkaziladi.

Amaliy, laboratoriya, seminar mashg`ulotlari:

- bilimlarni chuqurlashtirib, kengaytiradi, aniqlashtiradi, mustahkamlaydi, nazariy bilimlarini miyaga jo`qilib, kasb faoliyatining amaliy ko`nikma va malakalariga aylantiradi.

Mustaqil ishlar:

- ma`ruza bilimlarini chuqurlashtirib, kengaytiradi va bilimlarni mustahkamlash, ko`nikma va malakalarni shakllantirish uchun nazariy baza hozirlaydi.

**O`quv amaliyoti.** Tinglovchilarning olgan nazariy bilim va amaliy ko`nikmalarini real vaziyatlarda qo`llash orqali ularda malakalarni shakllantirishga qaratilgan mashg`ulotdir.

Kurs ishlari (loyihalari). Fanga oid topshiriq yoqi loyihalarni tinglovchilarga bajartirish orqali ularda amaliy ko`nikmalarni shakllantirishga qaratilgan mashg`ulotlar.

Maslahatlar. Tinglovchilarga qo`shimcha mashg`ulotlar yoki maslahatlar tashkil qilish orqali ularda bilim va ko`nikmalarni chuqur o`zlashtirishga qaratilgan mashg`ulotlar.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Ta`lim jarayonini qanday tushunasiz?
2. Ta`lim jarayonida tinglovchi va o`qituvchi faoliyatini aytib bering?

3. Asosiy mashg`ulot shakllarini ta`riflab bering?
4. Ta`limni texnologiyalashtirishning afzalligi nimada?
5. “Dars” tushunchasini yoritib bering.



Tayanch iboralar

Ta`lim jarayoni, o`qitish, o`qish, o`qituvchi, o`quvchi, ma`ruza, amaliy, laboratoriya, seminar mashg`ulotlari, mustaqil ishlar, o`quv amaliyoti, kurs ishlari (loyihalari), maslahatlar, dars.



Adabiyotlar

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta`limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent. 2008. 181 b.
2. Q.T.Olimov va boshqalar. Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi. O`quv qo`llanma. Toshkent, “Fan”-2009. 172 b.
3. I.A. Karimjonov va boshqalar. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent. 2002. 146 b.
4. Vendkefer Frank. Berufliche Bildung und consulting Gmbw. D-13189 Berlin, 2002.
5. Rashidov X. va boshqalar. “Kasbiy pedagogika” blokini o`qitish metodikasi. Toshkent: O`MKHTTKMO va UQTI, 2007. 200 b.

2-MAVZU

TA'LIMNI TEXNOLOGIYALASHTIRISHNING AHAMIYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

O'quv maqsadi

Tinglovchilarda ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishning ahamiyati, mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari haqida bilimlarini shakllantirish



ASOSIY MA'LUMOTLAR

O'tgan asrning 70 yillarida pedagogikada yo'zaga kelgan «O'quv jarayonini to'liq boshqarish g'oyasi» pedagogik amaliyotda aniq maqsadlar va natijalarga yo'naltirilgan o'quv jarayonini boshqarish orqali didaktik muammolarni yechish mumkinligini ko'rsatdi.

Bizning fikrimizcha, ta'lim jarayonida entsiklopedik bilimlar berish o'z ahamiyatini yo'qotib bormoqda. Insonlar faoliyati prinsipial tarzda o'zgardi, ular texnologiyalarni boshqarishlariga, umumiy maqsadlariga erishish uchun tayyor bo'lishlariga to'g'ri kelayapti.

Zamonaviy kishi o'z kuchini yangi bilimlar, ko'nikmalar va malakalar olishga emas, balki tez eskiradigan va nofunktsional bilimlardan xalos bo'lishga yo'naltirishga majbur bo'layapti.

Ammo, ushbu fikr qanchalik paradoksal bo'lmasin, real ta'lim sharoitida o'quv maqsadlariga yo'naltirilgan va loyihalashtirilgan o'quv jarayonini tashkil etish kerakki, unda o'qituvchi va ta'lim oluvchilar davr o'zgarishini tushunib etishlari va bunga tayyor bo'lishlari lozim. Demak, o'quv jarayonini texnologiyalashtirish zaruriyati kelib chiqdi. Biz dastlab texnologiya tushunchasiga to'xtalamiz.

“Texnologiya”-yunoncha “teche” so'zidan olingan bo'lib, mahorat, san'at va “logos”-so'z, ta'limot ma'nosini anglatadi.

Texnologiya deganda sub'ekt tomonidan ob'ektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Ta`limni texnologiyalashtirishning asosini ta`lim jarayonini va ta`lim oluvchilarning, berilgan sharoitlarda va ajratilgan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o`quv natijalariga erishishlarini kafolatlash maqsadida to`liq boshqarishga yo`naltirilgan g`oyasi tashkil etadi [1]. Bunday yondashishning mohiyati, ta`lim jarayonini tizimlashtirishdan, uni aniq rasmiylashtirilgan va qismlari bo`yicha aniq elementlarga ajratish yordamida maksimal shakllantirishdan iborat.

Tadqiqotlarda texnologiyalashtirish o`quv jarayonining qatnashuvchilarining (ta`lim beruvchi va ta`lim oluvchilar) o`zaro harakati usuli va vositalari deb fikr yuritiladi. Ta`lim texnologiyasining elementlari-usullar, yo`llar, vositalar va shakllar quyidagilarga adekvat tanlanadi va qo`llaniladi:

- Ta`lim maqsadlariga;
- O`quv axborotining murakkabligiga va mazmuniga;
- Ta`lim oluvchilarning yoshga oid va fiziologik xususiyatlariga;
- Ta`lim beruvchining pedagogik mahoratiga va individual xususiyatiga;

- O`quv muassasasining moddiy ta`minlanganligiga.

B.Ziyomammedov va Sh.Abdullayevalar fikricha, ta`lim texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish ilmiy muammo sifatida maxsus tadqiqotlar olib borishni ko`zda tutadi. Bunda, eng avvalo, quyidagilarni aniqlash lozim [2]:

- ta`lim texnologiyalarini ilmiy ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish uchun ijtimoiy-pedagogik asoslar mavjudligini aniqlash;

- ta`lim majmua sifatida nimani anglatishi va qanday tarkibiy qismlardan tashkil topganligini belgilash;

- ta`lim texnologiyasining funksional majmui jarayon sifatida nimalardan iboratligini aniqlash;

- ta`lim texnologiyalari Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi maqsadlariga qay darajada to`g`ri kelishi va uni baholash mumkinligini ko`rsatib berish;

- pedagogik texnologiyaning majmualar nazariyasining asosiy qonuniyatlariga mosligini nazoratda tutib turish yo`l-yo`rig`ini ishlab chiqish.

Shuni aytish joizki, ta`lim texnologiyalari, pedagogika ilmining tadqiqot ob`ekti sifatida, aniq fanlarni o`qitish uslubi bo`libgina qolmay, ijtimoiy fanlarni o`qitishda ham yangicha yondashuv sifatida

qayd qilinishi lozim.

Ba'zi tadqiqotchilar o'quv jarayonini texnologiyalashtirish orqali sifatli va haqiqiy ta'lim berishga erishish mumkinligini va har qanday texnologiyaning yetakchi zvenosi oxirgi natijaga erishish deb hisoblaydilar [3,4].

Masalan, G.K.Selevko fikriga ko'ra: "texnologiya xususiy metodikadan o'zining natijalarini mustahkamlash bo'yicha farqlanadi, unda protsessual, sonli va hisobli komponentlar ko'proq taqdim etiladi" [5].

O'qitish nazariyasida texnologiya predmetli metodikadan farqli o'laroq, quyidagicha loyihalashtiriladi:

- mavjud sharoitlardan kelib chiqqan va belgilangan natijalarga yo'naltirilgan holda, rejalashtirilgan aniq pedagogik faoliyati orqali:

- ta'lim beruvchilar tomonidan darsni uslubiy jihatdan ishlab chiqishdan farqli ravishda, ta'lim oluvchilarga va ularning shaxsiy faoliyati hisobiga o'qitishda yutuqlarga erishishlarini ta'minlashga yo'naltirilishi orqali;

- texnologiyada ortiqcha hech narsa bo'lmasligi shart: qayta o'zgartirish yo'llari, usullari va vositalarini almashtirish, bu texnologiyaning yo'qligi belgisidir.

F.Persival' va G.Ellingtonning e'tiroficha, «ta'limda texnologiya» atamasi axborotni taqdim etishning har qanday vositasini qamrab oladi. Bular «ta'lim tizimida qo'llaniladigan jihozlar, masalan, televideniya, til o'rgatish laboratoriyalari va tasvirlarni aks ettiruvchi turli vositalar. Boshqacha qilib aytganda, ta'limda texnologiya-bu audivizual vositalar» [6].

Bu ta'rifda «ta'limda texnologiya»dan ko'ra ko'proq «ta'lim texnologiyasi»ga urg'u beriladi, chunki u o'zida o'quv jarayonini ta'minlash uchun maxsus yaratilgan va moslashtirilgan vositalar (televedeniya, til o'rgatish laboratoriyasi)ni hamda ularni amalda qo'llash metodikasini birlashtiradi.

Bizning fikrimizcha ta'limni texnologiyalashtirish - bu ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv asosida o'quv maqsadlariga kafolatli erishish uchun o'quvchilar va pedagoglar o'zaro faoliyatining samarali tashkil etilishidir.

Demak, o'quv maqsadlariga kafolatli erishish uchun ta'lim jarayoni texnologik yondashuv asosida olib borilishi lozim.

Ta'limni texnologiyalashtirishning asosiy belgisi va afzalligi

shundaki, o`quv jarayoniga tizimli yondashuvning qo`llanishi, barcha o`quv holatlarini loyihalashtirish asosida o`qituvchilar va o`quvchilar faoliyatini dasturlashtirish o`quvchilarning quyilgan maqsadga erishuvini ta`minlash maqsadida ta`lim jarayonini ixchamlashtirishdan iboratdir.

Ta`lim texnologiyalashtirish-o`qitish vositalari asosida ta`limni tashkil qilish, o`tkazish va baholash usullari majmui hisoblanadi.

Demak ta`lim texnologiyasining asosiy mohiyati-o`quv natijalariga kafolatli erishilishini ta`minlash maqsadida o`qitish jarayonini to`liq loyihalashtirishdan iborat.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Texnologiya terminini qanday tushunasiz?
2. Ta`limni texnologiyalashtirishning asosini nima tashkil qiladi?
3. Ta`limni texnologiyalashtirishning afzalligi va mohiyatini tushuntiring?
4. Ta`lim texnologiyasining elementlari qanday tanlanadi va qo`llaniladi?
5. O`qitish nazariyasida texnologiya predmetli metodikadan farqi nimada va qanday loyihalashtiriladi?



Tayanch iboralar

Texnologiya, ob`ekt, metodika, ta`limni texnologiyalashtirish, tajriba, o`qitish vositalari, g`oya, sub`ekt.



Adabiyotlar

1. Q.T.Olimov va boshqalar. Zamonaviy ta`lim texnologiyalari. Monografiya. Toshkent-2007. 87 b.
2. Ziyomuhammadov B., Abdullayeva Sh., «Ilg`or pedagogik texnologiyalari». T.: Abu Ali Ibn Sino, 2001.-80 b.
3. Pedagogika: pedagogicheskie teorii, sistem, texnologii. Pod. red.: Smirnova, M.: Izdatel'skiy tsentr "Akademiya", 1999.-544s.
4. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish tarixi // Kasb- hunar ta`limi. №2. 2005. B. 16-25.

5. Selevko G.K. Sovremennie obrazovatel'nie texnologii.-M.: Narodnoe obrazovanie, 1998.-256 s.

6. (Persival F., Ellihgton H.A. Handbook of Kasb-hunar ta`limi. № 4-2002- 21 b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta'lim to'g'risida. T., 1997.
2. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. T., 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. T. "O'zbekiston", 1997. 29 avgust. -7 bet.
4. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. T. 1997. 29 avgust. 9-10 bet.
5. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil, 488 bet.
6. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2016 yil, 56 bet.
7. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil, 48 bet.
8. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil, 104 bet.
9. 2017-2021yillarda O'zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
10. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., "Sharq", 1997.
11. Barkamol avlod orzusi. T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000.
12. "Avesto" va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni. T., "Fan", 2001.
13. Amir Temur o'g'itlari. T., "Navro'z", 1992.
14. Abdullaev Yu. Jahon oliy maktabi: qiyosiy tahlil. T., G'. G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti, 2001.
15. Abdullaeva Sh. va boshq. Pedagogika. T., «Fan», 2004.
16. Abdurasulov M. O'zbek ma'rifatparvar shoirlari ilm-ma'rifat haqida. T.: «O'qituvchi», 1972.
17. Abu Ali ibn Sino. Hikmatlar. T.: «O'zbekiston», 1980.

18. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. T.: «O`qituvchi», 1972.
19. Asqarova O. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar. T., “Istiqlol”, 2005.
20. Axmedjanov M.M. va bosq. Pedagogik mahorat. O`quv qo`llanma. Toshkent, 2008. 229 b.
21. Baratov N., Aliqulov X. O`rta Osiyo mutafakkirlari axloq haqida. T., “O`zbekiston”, 1974.
22. Bozorov O., Shodiyev R. O`rta Osiyo tasavvufi va axloqiy qadriyatlar. Samarqand, Zarafshon. 1992.
23. Jalolova D.R. “Kasb-hunar kollejlarida mustaqil ishlarni tashkil etish texnologiyasi (“Tikuvchilik ishlab chiqarish” yo`nalishining “Tikuvchilik korxonalari jihozlari” fani misolida) Ped.fan.nomz. Dissertasiya. Toshkent, 2009. 168 b.
24. Jo`raev N. O`zbekiston tarixi. T.: «Sharq», 1998.
25. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., “O`zbekiston”, 1997.
26. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., “Sharq”, 1998.
27. Karimov I.A. O`zbekiston buyuk kelajak sari. T., “O`zbekiston” 1998.
28. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch. T., «Ma`naviyat», 2008.
29. Zunnunov A., To`xliiev B., Ma`sudov X. Pedagogika tarixi. T., “Sharq”, 2002.
30. Zunnunov A. Mahkamov U. Didaktika. T., “Sharq”, 2006.
31. Ziyomammedov B., Abdullaeva Sh. Pedagogika. “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2000.
32. Ismoilova Z. O`yin texnologiyalarining ta`limiy imkonyatlari // J.Ta`lim muammolari. Toshkent. -2007. 320c.
33. Yo`ldoshev J. Xorijda ta`lim. T., “Sharq”, 1995.
34. Komenskiy Ya.A. «Buyuk didaktika», T.: «O`qituvchi», 1975.
35. Mahmudov T. Mustaqillik va ma`naviyat. T., “Sharq” 2001.
36. Mavlonova R., To`rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. T.: «O`qituvchi», 2001.
37. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., “O`zbekiston”, 2000.

38. Mirqosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. T.: «O`qituvchi», 1995.
39. Морева Н.А. Педагогика среднего профессионального образования. М., 2001.
40. Munavvarov A.Q. Pedagogika. T., «O`qituvchi», 1996.
41. Murodova F. Immitatsion o`yinli texnologiyalari asosida pedagogik faoliyatni modellashtirish. // J. Pedagogik mahorat. 2010.
42. Muhammad payg`ambar alayhissalom qissasi. Hadislar. T., “Kamalak” 1991.
43. Mo`minov I. Amir Temurning O`rta Osiyo tarixida tutgan o`rni va roli. “Fan” nashriyoti, 1993.
44. Musurmonova O. Ma`naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. T., “O`qituvchi” nashriyoti, 1996.
45. Mirtursunov Z. “Xalq pedagogikasi”. T., 1994.
46. Nouvelles technologies-reussir la revolution || Le Monde de l`education. № 287 (12). 2000. s.20-32.
47. Oz-oz o`rganib dono bo`lur. T., G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti, 1988, Tuzuvchi: Zunnunov Sh.
48. Olimov Sh.Sh. Kasb-hunar kollejlari o`quvchilarini ma`naviy-axloqiy tarbiyalash. T., «Fan», 2007.- 163 b.
49. Olimov Sh.Sh. Kasb-hunar kollejlari o`quvchilarini ma`naviy-axloqiy tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti. Diss. ...ped.fan.dok.-T., 2012.-285 b.
50. Olimov Sh.Sh., Hasanova Z.D. Pedagogik texnologiyalarni o`quv-tarbiya jarayoniga qollash.-T.: “Fan va texnologiya”, 2014.-180 b.
51. Olimov Q.T., Abduqudusov O., Axmedjanov M.M. Kasb ta`limi uslubio`ti. O`quv qo`llanma, Toshkent, Iqtisod-moliya. 2006. 160 b.
52. Педагогика. Большая современная энциклопедия / Сост. Э.С.Рапасевич-Мн.: «Соврем. слово», 2005.
53. Педагогика: учебник / под ред. Л.П. Крившенко.-М., 2008.
54. Пидкасистый, П.И. Организация учебно-познавательной деятельности студентов.-2-е изд.-М., 2005.
55. Педагогика: учебник / Г.М. Коджаспирова. - М.: КНОРУС, 2010.-744 с.

56. Психология и педагогика: учебник для бакалавров/ под ред. П.И.Пидкасистого.-3-е изд., перераб. и доп.-М.: Издательство Юрайт; ИД Юрайт, 2012.-724 с. Серия: Бакалавр. Углубленный курс.
57. Risqiev T. Umumiy tahrir ostida "O'zluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish konsepciyasi", T., "Sharq", 2002.
58. Roziqov O. R., Og'ayev S.Yu., Maxmudova M.M., Adizov B.R. Didaktika. T.: «Fan», 1997.
59. Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. T., "O'qituvchi" nashriyoti, 1995.
60. Sa'diy. Guliston. T., 1960.
61. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. T., Moliya, 2003.
62. STANKEWITZ, Winfried: Szenisches Spiel als Lernsituation, 1977/Stankevitts, Vinfrid: Stsenicheskaya igra kak uchebnaya situatsiya, 1977.
63. SCHWARZE, Jochen: Netzplantechnik. Eine Einführung in das Projektmanagement. 7. Aufl. Herne, Berlin: Verlag Neue Wirtschaft-Briefe 1994. <http://www.luk-korbmacher.de/Schule/Orga/netzplan.htm> (Stand: 06.12.2007)
64. SCHWARZE, Jochen: Projektmanagement mit Netzplantechnik. 8. Aufl. Herne, Berlin: Verlag Neue Wirtschaft-Briefe 2001.
65. BACKERRA, Hendrik; MALORNY, Christian; SCHWARZE, Wolfgang: Kreativitätstechniken. Kreative Prozesse anstoßen, Innovationen fördern. Die K7. 2. Aufl., München, Wien: Carl Hanser Verlag 2002.
66. Tursunov I.Y., Nishonaliev U.N. Pedagogika kursi. T., «O'qituvchi», 1997.
67. Umarov B.J., Olimov Sh.Sh. Oliy o'quv yurtlarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya asoslari. T., «Fan», 2004.
68. O'zoqova L.P. "Kasb-hunar kollejlariida maxsus fanlarni muammoli o'qitish texnologiyasi ("Tikuvchilik ishlab chiqarish" yo'nalishining "Tikuvchilik korxonalari jihozlari" fani misolida) Ped.fan.nomz. Dissertasiya. Toshkent, 2009. 154 b.
69. Xalq pedagogikasi-inson kamolotining asosi. T.N. Qori-Niyoziy nomidagi O'zPFITI ofset laboratoriyasi, 1992.
70. O'zbek pedagogikasi tarixi. T., "O'qituvchi" 1997.

71. Qosimov B., Dolimov U. «Ma`rifat darg'alari», Toshkent, 1990.
72. Qurbonov Sh., Seythalilov E., Quronov M., Ahlidinov R., Majidov I. Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondashuvlar. T., "Akademiya" 2002.
73. Quronov M. Maktab ma`naviyati va milliy tarbiya. T., "Fan" 1995.
74. Qur`oni Karim. O`zbekcha izohli tarjimada. T.: «Cho`lpon», 1992.
75. Xoshimov K., Nishonova S. va boshqalar. Pedagogika tarixi. T., "O`qituvchi", 1996.
76. Hikmatlar guldastasi. T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti, 1982.

Internet saytlari:

www.ziyonet.o'z

www.tdpu.o'z

www.pedagog.o'z

www.psychology.o'z

www.nutq.intal.o'z

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "TA'LIM TO'G' RISIDA"GI QONUNI. KADRLAR TAYYORLASH MILLIY MODELII.	7
1.1. "Ta'lim to'g' risida"gi Qonunning tuzilishi.....	7
1.2. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari.	14
1.3. Ta'lim tizimi va turlari.	17
1.4. Kadrlar tayyorlash milliy modeli: shaxs, davlat va jamiyat, o'zluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish.....	25
II. PEDAGOGIKA - IJTIMOIIY FAN SIFATIDA.....	31
2.1. Pedagogika fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi.....	31
2.2. Pedagogika fanining ob'ekti, predmeti va funksiyalari.	33
2.3. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari.....	35
2.4. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.....	41
III. DIDAKTIKA-TA'LIM NAZARIYASI SIFATIDA.....	47
3.1. Ta'lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida.....	47
3.2. Didaktikaning ob'ekti, predmeti va funksiyalari.	49
3.3. Didaktikaning asosiy kategoriyalari.....	51
IV. TA'LIM QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI.....	64
4.1. Ta'lim jarayoni mohiyati.....	64
4.2. Ta'limning umumiy va xususiy qonuniyatlari.	69
4.3. Ta'limning mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillari.	75
V. TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKL, METOD VA VOSITALARI.....	81
5.1. Ta'lim turlari.	81
5.2. Ta'limni tashkil etish shakllari: asosiy va yordamchi shakllar...	91
5.3. Ta'lim metodi, usul va vosita tushunchalari.	105
5.4. Ta'lim metodlari tasnifi va mohiyati.....	108
5.5. Ta'lim metodlarini tanlab olish shartlari.....	118
5.6. Ta'lim vositalari tasnifi va mohiyati	120
VI. TA'LIM OLGANLIKNI TASHXIS ETISH.....	124
6.1. Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati.....	124
6.2. Ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish va hisobga olish.	125
6.3. O'quv faoliyatini nazorat qilish turlari, shakl va metodlari.....	131

6.4.Ta`lim oluvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini baholash mezonlari.	133
VII. TARBIYA JARAYONI, MAZMUNI, QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI. TARBIYA TURLARI.	140
7.1.Keng va tor ma`nodagi tarbiya tushunchasi.....	140
7.2.Tarbiya jarayonining o`ziga xos xususiyatlari.	144
7.3.Tarbiya jarayoni qonuniyatlari va tamoyillari.	148
7.4.Tarbiya turlari: maqsadi, vazifalari, shakl va metodlari.	155
VIII. ENG QADIMGI DAVRLARDAN IX ASRGACHA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR.	163
8.1.Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta`lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.	163
8.2.Eng qadimgi yozma manbalarda ta`lim-tarbiya masalalarining yoritilishi.	164
8.3.Islom dinining tarqalishi va uning ta`lim-tarbiyaga ta`siri.	166
8.4.Musulmon maktablari va unda ta`lim-tarbiya mazmuni.....	168
8.5.Hadis ilmining paydo bo`lishi. Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy)ning hadis ilmi rivojiga qo`shgan hissasi.....	169
IX. SHARQ UYG`ONISH DAVRIDA PEDAGOGIK FIKRLARNING RIVOJLANISHI. XIV ASRNING 2-YARMI VA XVI ASRDA MOVARAUNNAHRDA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI.	179
9.1.Abu Abdulloh Xorazmiyning didaktik qarashlari.....	179
9.2.Abu Nasr Farobiyning asarlaridagi pedagogik qarashlari.	181
9.3.Abu Rayxon Beruniyning ilmiy-pedagogik qarashlari.....	184
9.4.Abu Ali Ibn Sino tarbiya va ta`lim haqida.	187
9.5.Mahmud Qoshg`ariyning “Devonu lug`otit turk” asarida ta`lim-tarbiya masalalari.....	190
9.6.Yusuf Xoj Hojibning “Qutadg`u bilig” asari-pandnoma asar sifatida.....	191
9.7.Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarida didaktik qarashlar.....	193
9.8.Kaykovusning “Qobusnoma” asarining tarbiyaviy ahamiyati..	195
9.9.Movaraunnahrda Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma`rifat rivojiga qo`shgan hissasi.	198

9.10.Mirzo Ulug`bekning pedagogik g`oyalari va ma`rifatparvarlik xizmatlari.....	204
9.11.Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari.	210
9.12.Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari. Uning maktab va madrasalar rivojiga qo`shgan hissasi.	213
9.13.Abdurahmon Jomiyning pedagogik qarashlari.	214
9.14.Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari. “Axloqiy Jaloliy” asarining pedagogik fikrlar rivojidadagi o`rni.	218
X. XVII ASRDAN XIX ASRNING YARMIGACHA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI. IX ASRNING OXIRI XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA TA`LIM TIZIMI.....	224
10.1. Buxoro amirligi, Qo`qon va Xiva xonliklarida ta`lim-tarbiya.	224
10.2. Maktab va madrasalarda ta`lim mazmuni.	231
10.3. Qizlar maktabi va unda ta`lim mazmuni.	234
10.4.Munis Xorazmiyning “Savodi ta`lim” asari-husnixatga doir dastlabki qo`llanma sifatida.....	238
10.5. Muhammad Sodiq Qoshg`ariyning “Odob as-solihin” asari-yuksak ma`naviy-axloqiy sifatlarni yorituvchi manba.....	240
10.6. XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi.....	245
10.7. Chor Rossiyasining ta`lim siyosati.....	246
10.8.Turkistonda maktablar tizimi.	249
10.9.Turkistonda rus maktablarining ochilishi.	250
10.10. Yerlik aholi uchun rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi.....	254
10.11. Turkistonda jadidchilik harakati.....	255
10.12. Yangi usul maktablarining ochilishi.	258
10.13. Mahmudxo`ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma`rifatparvarlik xizmatlari.	261
XI. 1917-1991 YILLARDA O`ZBEKISTONDA TA`LIM TIZIMI VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI. MUSTAQIL O`ZBEKISTON TA`LIM TIZIMI.	280
11.1.Turkiston o`lkasida ta`lim siyosati (1917-1924).....	280
11.2.1924-1945 yillarda ta`lim va pedagogika fani.	282
11.3.1945-1991 yillarda O`zbekistonda ta`lim tizimi va pedagogika fani rivoji.	284

11.4. Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar.	291
11.5. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo'nalishlari.	
XII. JAHON PEDAGOGIKA FANINING RIVOJLANISH TARIXI.	303
12.1. Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim davlatlarida maktab va tarbiya.	303
12.2. Rus pedagog-olimlarining pedagogik g'oyalari.	312
12.3. G'arbiy Evropada maktab va pedagogik fikrlar.	318
12.4. Iogann Genrix Pestalotsining didaktiga qo'shgan hissasi.	319
12.5. Adol'f Distervergning rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi.	325
12.6. YA.A. Komenskiyning pedagogik nazariyasi.	329
XULOSA.	338
GLOSSARIY (IZOHLI LUG'AT)	339
ILOVALAR.	356
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.	368

ОГЛАВЛЕНИЕ

ВВЕДЕНИЕ.....	4
 I. ЗАКОН «ОБ ОБРАЗОВАНИИ» РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. НАЦИОНАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ.....	7
1.1.Содержание Закона «Об Образовании».....	7
1.2.Основные принципы Государственной политики отрасли образования.....	14
1.3. Система и виды образования.....	17
1.4.Национальная модель подготовки кадров: личность, государство и общество, непрерывное образование, наука и производство.....	25
 II. ПЕДАГОГИКА-КАК ОБЩЕСТВЕННАЯ НАУКА.....	31
2.1.Возникновение педагогики и его развитие.....	31
2.2.Объект, предмет и функции педагогики.....	33
2.3.Основные категории педагогики.....	35
2.4.Научно-исследовательские методы педагогики.....	41
 III. ДИДАКТИКА - В КАЧЕСТВЕ ТЕОРИИ ОБУЧЕНИЯ.....	47
3.1.Теория обучения (дидактика)-как составная часть педагогики.....	47
3.2.Объект, предмет и функции дидактики.....	49
3.3.Основные категории дидактики.....	51
 IV. ЗАКОНОМЕРНОСТИ И ПРИНЦИПЫ ОБУЧЕНИЯ.....	64
4.1.Сущность процесса обучения.....	64
4.2.Общие и частные закономерности обучения.....	69
4.3.Содержательные и организационно-методические принципы обучения.....	75
 V. ФОРМЫ, МЕТОДЫ И СРЕДСТВА ОРГАНИЗАЦИИ ОБУЧЕНИЯ.....	81
5.1.Виды обучения.....	81
5.2.Организационные формы обучения: основные и вспомогательные формы.....	91
5.3. Понятия метода, путей и средств обучения.....	105
5.4.Характеристика и сущность методов обучения.....	108
5.5. Условия выбора методов обучения.....	118

5.6. Характеристика и сущность средств обучения.....	120
VI. ДИАГНОСТИКА ОБРАЗОВАНИЯ.....	124
6.1. Сущность диагностики получения образования.....	124
6.2. Контроль и учёт учебной деятельности обучающихся.....	125
6.3. Виды, формы и методы контроля учебной деятельности.....	131
6.4. Оценка знаний, умений и навыков обучающихся.....	133
VII. ВОСПИТАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС, ЕГО СОДЕРЖАНИЕ, ЗАКОНОМЕРНОСТИ И ПРИНЦИПЫ. ВИДЫ ВОСПИТАНИЯ.....	140
7.1. Понятие воспитания в узком и широком смысле.....	140
7.2. Особенности воспитательного процесса.....	144
7.3. Закономерности и принципы воспитательного процесса....	148
7.4. Виды воспитания: цель, задачи, формы и методы.....	155
VIII. ВОСПИТАНИЕ, ШКОЛА И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ С САМОГО ДРЕВНЕГО ПЕРИОДА ДО IX ВЕКА.....	162
8.1. Развитие обучения, воспитания и педагогических взглядов с самого древнего периода до VII века.....	162
8.2. Освещение учебно-воспитательных вопросов в самых древних письменных источниках.....	163
8.3. Распространение Исламской религии и её влияние на обучение и воспитание.....	165
8.4. Мусульманские школы и содержание в нём обучения и воспитания.....	167
8.5. Возникновение научного термина Хадиса. Вклад основоположников хадиса в его развитие (Имам Исмоил ал- Бухори, Имам Исо ат-Термизи).....	168
IX. РАЗВИТИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ В ПЕРИОД ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ В МОВАРАУННАХРЕ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIV ВЕКА И В XVI ВЕКЕ.....	178
9.1. Дидактические взгляды Абу Абдуллох Хоразми.....	178
9.2. Педагогические взгляды в произведениях Абу Насра Фараби.....	180
9.3. Научно-педагогические взгляды Абу Райхана Беруни.....	183
9.4. Абу Али Ибн Сина о воспитании и образовании.....	186
9.5. Вопросы обучения и воспитания в произведении Махмуда	

Кашгари “Девону лугатит турк”	189
9.6.Произведение Юсуфа Хож Хожиба “Қутадғу билиг” - как произведение изящества	190
9.7.Дидактические взгляды в произведении Ахмада Югнаки “Хибат ул-хакойик”	192
9.8.Воспитательное значение произведения Кайковуса “Кобуснома”	194
9.9.Создание Амиром Темуром в Моварауннахре централизованного государства и её вложение в развитии науки, культуры и просвещения	197
9.10.Педагогические идеи и просветительская служба Мирзы Улугбека	203
9.11.Педагогические идеи Захириддина Мухаммада Бабура	209
9.12.Вопросы воспитания и гуманизма в произведениях Алишера Наваи. Его вклад в развитии школ и медресе	212
9.13. Педагогические взгляды Абдурахмана Жами	213
9.14. Нравственные взгляды Жалолиддина Давани. Место произведения “Ахлоки Жалали” в развитии педагогической мысли	217
Х. РАЗВИТИЕ ВОСПИТАНИЯ, ШКОЛЫ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ МЫСЛИ С XVII ВЕКА ДО ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА. СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ В ТУРКИСТАНЕС КОНЦА IX ВЕКА ДО НАЧАЛА XX ВЕКА	223
10.1.Воспитание и обучение в Бухарском Эмирате, в Кокандском и Хивинском Ханствах	223
10.2.Содержание образования в школах и медресе	230
10.3.Девичьи школы и в них содержание образования	233
10.4.Произведение Муниса Хоразми “Саводи таълим”-как предпосылка пособия правописания	237
10.5.Произведение Мухаммада Содика Кашгари “Одоб ас-солихин” - как источник воплощающий духовно-нравственные качества	239
10.6.Система школ в Туркистане во второй половине XIX века	244
10.7.Школьная политика Царской России	245
10.8.Система школ в Туркистане	248

10.9.Открытие русских школ в Туркистане.....	249
10.10.Организация русско-туземских школ для мужского населения.....	253
10.11.Жадидское движение в Туркистане.....	254
10.12.Открытие новометодных школ.....	257
10.13.Просветительские заслуги Махмудхаджи Бехбуди, Муннавара Кари, Абдуллы Авлони, Абдукадира Шакури в организации новометодных школ.....	260
XI. СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ И РАЗВИТИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ В 1917-1991 ГОДАХ В УЗБЕКИСТАНЕ. СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ В НЕЗАВИСИМОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	279
11.1.Политика образования в Туркистане.....	279
11.2.Образование и педагогика в 1924-1945 годах.....	281
11.3.Развитие образования и педагогики в 1945-1991годах в Узбекистане.....	283
11.4.Реформы перевоплощаемые в области образования в независимом Узбекистане.....	290
11.5.Основные направления развития педагогических взглядов в годы независимости.....	297
XII.ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ВСЕМИРНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ НАУКИ.....	302
12.1.Школа и воспитание в государствах Древнего Востока, Древней Греции, Древнего Рима.....	302
12.2.Педагогические идеи русских педагогов-учёных.....	311
12.3.Школа и педагогические взгляды в Западной Европе.....	317
12.4.Дидактический вклад Йохана Генриха Песталоци.....	318
12.5.Развивающая теория обучения Адольфа Дистерверга.....	324
12.6.Педагогическая теория Я.А.Коменского.....	328
ЗАКЛЮЧЕНИЕ.....	337
ПОНЯТИЙНЫЙ СЛОВАРЬ (ГЛОССАРИЙ).....	338
ПРИЛОЖЕНИЕ.....	355
ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА.....	367

CONTENTS

INTRODUCTION.....	4
-------------------	---

I. THE LAW OF THE REPUBLIC OF O'ZBEKISTAN ABOUT "EDUCATION". NATIONAL MODEL ON TRAINING PERSONALS.....	7
---	----------

1.1.The structure of the Law about "Education"	7
1.2.The basic principles of the state policy in the field of education.....	14
1.3.Systems and types of education.....	17
1.4.National model on training personals: person, country and society, continuous education, subject and production.....	25

II. PEDAGOGICS AS A SOCIAL SUBJECT.....	31
2.1.The emergence and development of pedagogical science.....	31
2.2.The object, subject and functions of pedagogical science.....	33
2.3.Main categories of pedagogics.....	35
2.4.Scientific research methods of pedagogics.....	41

III. DIDACTICS AS A THEORY OF EDUCATION.....	47
3.1.Theory of education (didactics) as a component part of pedagogics.....	47
3.2.The object, subject and functions of didactics.....	49
3.3.Main categories of didactics.....	51

IV. CONCEPTS AND LAWS OF EDUCATION.....	64
4.1.The meaning of the process of education.....	64
4.2.General and individual law of education.....	69
4.3.Principles of meaningful education, organizational and methodological.....	75

V. ORGANIZATION OF EDUCATION FORMS, METHODS AND TOOLS.....	81
---	-----------

5.1.Types of education.....	81
5.2.Forms of organizing education: main and supporting forms.....	91
5.3.Method and vehicle concepts of education.....	105
5.4.The essence of teaching methods and classifications.....	108
5.5.Terms of choosing training methods.....	118
5.6.Classification of educational tools and contents.....	120

VI. DIAGNOSING RECEIVED EDUCATION.....	124
6.1.Content of diagnosing received education.....	124

6.2. Controlling the activities of the recipients of education, training and credentials.....	125
6.3. Types, forms and methods of controlling the activities.....	131
6.4. Criteria of evaluating the student's knowledge, skills and trainings.....	133

VII. THE CONTENT OF THE TRAINING PROCESS, THE TYPES OF LAWS AND PRINCIPLES OF EDUCATION.....140

7.1. Wide and narrow sense of the concept of education.....	140
7.2. The specifics of the training process.....	144
7.3. Laws and principles of the educational process.....	148
7.4. Types of education: aims, forms and methods.....	155

VIII. BEHAVIOR, SCHOOLS AND PEDAGOGICAL THOUGHTS FROM EARLY AGES TILL IX CENTURY.....162

8.1. The development of educational and pedagogical ideas from ancient ages till IX century.....	162
8.2. Coverage of education in the ancient written sources.....	163
8.3. The spread of the religion of Islam and its impact on education and training.....	165
8.4. Muslim schools and the meaning of education in them.....	167
8.5. The emergence of the science of hadith. The contribution of canonicals to the knowledge of Hadith (Imam Ismail al-Bukhari, Imam Iso At-Tirmidhi).....	168

IX. DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL IDEAS DURING THE PERIOD OF THE EAST RENAISSANCE. THE EDUCATION, SCHOOL DEVELOPMENT AND TEACHING IDEAS IN THE 2ND HALF OF 9TH AND 16TH CENTURY IN MOVOROUNNAHR.....178

9.1. Abu Abdullah of Khorezmi didactic views.....	178
9.2. Abu Nasr Farabi's pedagogical approaches in his works.....	180
9.3. Abu Rayhan Biruni's scientific views.....	183
9.4. Abu Ali Ibn Sina about education.....	186
9.5. Mahmoud Koshgariy's work "Devonilug'otit Turk", education and training issues.....	189
9.6. Yusuf Xos Hojib "Qutadgubilig" book as an educational work.....	190

9.7.Ahmad Yugnakiy's "Heba al-Hakoyik" work didactic approaches.....	192
9.8.The importance ofKaykovus's "Qobusnoma".....	194
9.9.Amir Temur's creation of a centralized state and his science, culture and his contribution to the development of education in Movorounnahr.....	197
9.10.Mirzo Ulugbek, his pedagogical ideas and educational services.....	203
9.11.Pedagogical ideas of Babur.....	209
9.12.Alisher Navoi'sworks of education and humanitarian issues. His contribution to the development of schools and madrasas.....	212
9.13.Abdurahman Jomi's pedagogical views.....	213
9.14.JaloliddinDavoniy's moral beliefs. The role of "AkhloqiyJaloliy" in the development of the pedagogical ideas.....	217

X. DEVELOPMENT EDUCATION, SCHOOL AND TEACHING IDEAS IN THE HALF OF THE 17TH CENTURY TO THE 19TH CENTURY. EDUCATION SYSTEM OF TURKESTAN AT THE END OF THE 19TH CENTURY AND AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY.....

10.1.Education and training in Bukhara emirates, Khiva and Kokand Khanate.....	223
10.2. Educational system in schools and madrasahs.....	230
10.3. The content of the school and the education of girls.....	233
10.4. MunisKhorazmiy's "Savoditalim" as a first manual on calligraphy.....	237
10.5. Muhammad SodikKoshgariy's work "Odob as-solihin" as a source of spiritual and moral values.....	239
10.6. School systems of Turkistan in the second half of the 19 th century.....	244
10.7. Tsarist Russia's education policy.....	245
10.8. School system in Turkistan.....	248
10.9. Russian schools in Turkistan.....	249
10.10. The opening of the Russian-native schools for local population.....	253
10.11. Jadid movement of Turkistan.....	254
10.12. The opening of the new methodical schools.....	257
10.13. Mahmudkhoja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abdukodir Shakuriy's educational services on creation of a new	

method schools.....	260
XI. THE DEVELOPMENT OF EDUCATIONAL SYSTEM AND PEDAGOGICAL IDEAS OF O'ZBEKISTAN IN 1917-1991. THE EDUCATIONAL SYSTEM OF INDEPENDENT O'ZBEKISTAN.....	27
9	
11.1.Educational politics in Turkistan (1917-1924).....	279
11.2.Subjects of education and pedagogics in 1924-1945.....	281
11.3.System of education and development of pedagogics in O'zbekistan during 1945- 1991.....	283
11.4.Reforms carried out in the field of education in independent O'zbekistan.....	290
11.5.Main directions of the development of pedagogical ideas during the years of Independence.....	297
XII. THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF WORLD PEDAGOGICS.....	302
12.1.School and education in ancient East, ancient Greece, Ancient Rome.....	302
12.2.Russian pedagogic-scientists' pedagogical ideas.....	311
12.3.Ideas of school and pedagogics in Western Europe.....	317
12.4.Johann Henry's contribution to didactics.....	318
12.5.Justice Disterverg's developing educational theory.....	324
12.6.Ya.A.Komenskiy's pedagogical theory.....	328
CONCLUSION.....	337
NATIONAL DICTIONARY (GLOSSARY)	338
APPENDIX.....	355
LISED LITERARURE	367

AXMETJANOV MANSUR MAXMUDOVICH-

Pedagogika fanlari nomzodi, professor. Buxoro muhandislik-texnologiya institutining Ichki nazorat va monitoring bo`limi boshlig`i, o`rindoshlik sifatida «Ijtimoiy fanlar» kafedrası professori, 160 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlar, 5 ta o`quv qo`llanma, 2 ta monografiya va pedagogika fanidan o`qitish texnologiyasi bo`yicha majmua muallifi hamda rahbarligida 1 ta fan nomzodi chiqarilgan. O`quvchilarning o`quv-biluv faoliyatini oshirish yo`nalishida ilmiy ishlar olib bormoqda.



OLIMOV SHIRINBOY SHAROFOVICH-

pedagogika fanlari doktori, professor. Buxoro Davlat universiteti «Pedagogika» kafedrası mudiri, 120 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlar, 5 ta o`quv qo`llanma, 4 ta monografiya va pedagogika fanidan o`qitish texnologiyasi bo`yicha majmua muallifi. O`quvchilarni ma`naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyalari yo`nalishida ilmiy ishlar olib bormoqda.

